

№ 412.2/54) ga 73


* 22 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

XALQARO XUSUSIY HUQUQ

*Oliy o'quv yurtlarining huquqshunoslik
mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan
talabalari uchun
DARSLIK*

Toshkent – 2008



Mualliflar tarkibi:

yu.f.n., dots. **X.T.Azizov** – XIII bob; yu.f.n., dots. **I.YU.Kan** – XVIII bob; yu.f.d., dots. **O.Oqyulov** – VIII, IX, X, XI boblar; yu.f.n., dots. **A.R.Raxmanov** – XX bob; yu.f.d., dots. **M.X.Rahmonqulov** – III bob; yu.f.d., O'zR FA akademigi, professor **H.R.Rahmonqulov** – Kirish, I, II boblar; yu.f.n., dots. **K.K.Rashidov** – XIV bob; yu.f.d. **SH.N.Ro'zinazarov** – XVI, XVII boblar; yu.f.n., dots. **B.B.Samarxodjayev** – IV, V, VI, XXI boblar; yu.f.n., dots. **B.N.Toshev** – VII bob; yu.f.n., dots. **Z.S.Ubaydullayev** – XXIII, XXIV, XXV bob; yu.f.n., dots. **V.E.Umaraliyev** – XIX bob; yu.f.n., dots. **S.S.Xamrayev** – XII, XV, XXII boblar.

Mas'ul muharrir:

Yuridik fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi FA akademigi, professor **H.R.Rahmonqulov**.

Xalqaro xususiy huquq. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.
//H.R.Rahmonqulov va boshq. /H.B.Boboyev,
M.X.Rustamboyev, O.Oqyulov, A.R.Raxmanovlarning
umumiy tahriri ostida. – T.: TDYI nashriyoti, 2002, 488-bet.

Xalqaro xususiy huquq darsligi Oliy o'quv yurtlarining
huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan
talabalari uchun mo'ljallangan.

BBK 76.412.2 (5U) ya 73

Mazkur darslik orqali talabalarda xalqaro xususiy-huquqiy munosabatlarning huquqiy asoslari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarni egallashi, xalqaro xususiy huquq sub'ektlarining qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ushbu sohada davlat boshqaruvchi va xalqaro tashkilotlar organlarining faoliyatida xalqaro xususiy huquq munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi xalqaro me'yoriy hujjatlarni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalari vujudga keltirish va rivojlantirishdan iborat.

© Mualliflarlar jamoasi.

© Toshkent davlat yuridik instituti, 2008-yil.

KIRISH

XX asr oxirgi o'n yilligining boshida jahon siyosiy xaritasida yangi davlat – O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi va u so'zsiz ravishda barcha davlatlarda va jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etildi. Albatta o'zbek xalqi o'zining ming yillik boy davlatchilik tarixiga ega. Biroq bu tarix XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab, Rossiya imperiyasiga qaramlik va mustabid ittifoq davrida ancha xira tortgan, uzilish vujudga kelgan edi.

Bu uzilishning barham topishi o'ziga xos tarixiy adolat tantanasi hisoblanadi. Odatda ko'p hollarda biror davlat mustaqilligining shakllanishi, uni yuridik rasmiylashtirish va boshqa davlatlar tomonidan tan olinishi ziddiyatlar, kurashlar bilan o'nlab, yuzlab yillar davom etadi. Mamlakatimizda bu jarayon ham ichki, ham tashqi jihatdan keskin ziddiyatlarsiz ro'y berdi. Buning sababi shundaki, xalqlar tomonidan ham istalgan natija edi. Ikkinchidan, davlat mustaqilligini huquqiy rasmiylashtirish izchillik qoidalariga to'la muvofiq ravishda I.A.Karimov boshchiligidagi rahbariyat tomonidan amalga oshirildi. Shu sababli ham mamlakatimiz mustaqilligining huquqiy shakllanish jarayonini yana bir eslash talabalar uchun ham, boshqa o'quvchilar uchun ham ibratlidir.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi tomonidan 1990-yil 20-iyunda «Mustaqillik Deklaratsiyasi» qabul qilindi. O'zbekiston davlat hokimiyatining Oliy idorasi respublikamizda yashovchi har bir kishining farovon hayot kechirishini ta'minlashni o'zining bosh maqsadi deb bilib, O'zbekiston xalqining kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatini his etgan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umum-bashariy qadriyatlarga va demokratik tamoyillarga asoslanib respublikamizning Davlat mustaqilligini e'lon qildi. O'zbek davlatchiligi ushbu olamshumul tarixiy voqeani respublika fuqarolari bilan birga taraqqiyparvar jamoatchilik zo'r shodlik va ko'tarinki ruh bilan kutib oldi.

Mazkur Deklaratsiyaga asoslanib O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi 1991-yil 31-avgustda «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi Asoslari to'g'risida»¹ qonun qabul qildi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991-y., 11-son, 245-m.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'liq subyekti bo'lish imkoniyatiga erishdi. Mustaqillikning asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 8-noyabrda qabul qilingan qonuni bilan yuridik jihatdan mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqil davlat sifatida – 1992-yil 8-dekabrda o'z xalqining xohish-irodasini aks ettiruvchi, mohiyati va mazmuni jihatidan yangi Konstitutsiyasini qabul qildi. Ushbu Konstitutsiya Respublikada ro'y bergan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, shuningdek mustaqillik yo'lida erishilgan yutuqlarga yakun yasadi va o'zining 1-moddasida «O'zbekiston – suveren demokratik respublika» deb tasdiqladi va uning mustaqil davlat bo'lishiga qonuniy asos soldi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqil davlatchilikning tiklanishi prezident saylovi va davlat mustaqilligi to'g'risidagi savol bo'yicha referendum o'tkazilish bilan yuridik jihatdan yanada mustahkamlandi. Ovoz berish uchun tarqatilgan bulletinlarda «O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat deb e'lon qilinishini qo'llab-quvvatlaysizlarmi» deb qo'yilgan savolga saylovchilarning 98,2% ijobiy javob berishdi. **Shunday qilib O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi umumxalq tomonidan qo'llab-quvvatlandi.**

Mustaqillikka bag'ishlangan oliy maqomli qonunlarda va o'tkazilgan umumxalq referendumida o'zbek xalqining erki-irodasi, orzu-istaklari mujassam ifodalandi. Insonning kamoloti, uning erkinligi, yuksak turmush darajasi, farovon hayoti va faol mehnat qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mazkur oliy maqomli hujjatlarning mazmunini tashkil etadi.

O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida dunyodagi deyarli barcha nufuzli katta davlatlar tan oldi va diplomatik munosabatlar o'rnatdi. Bugungi kunga kelib O'zbekistonni tan olgan davlatlarning soni 150 dan oshib ketdi, ularning 80 dan ko'pi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida shartnomalar imzolangan.

O'zbekiston xalqaro maydonda dadil qadam tashlamoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining Xavfsizlik Kengashi 1991-yil 29-yanvarda O'zbekistonni BMT a'zoliciga qabul qilishni tavsiya etdi. 1992-yil 2-martda O'zbekiston hozirgi zamonda dunyoda eng nufuzli xalqaro tashkilot – BMTga a'zolikka qabul qilindi. Bu kun O'zbekiston hayotida eng ulug', unutilmas tarixiy kunlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining ilk davrida ko'pgina obro'li xalqaro jamiyatlar, iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosi bo'ldi. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni o'rnatdi. Respublikaning ishonchli, istiqbolli hamkor sifatida obro'-e'tibori ancha mustahkamlandi.

Mustaqil davlat – O'zbekiston o'z tashqi siyosatini shakllantirishda xalqaro jamoatchilik tomonidan tan olingan tamoyillarga amal qilgan holda, avvalo, o'z kuch qudratiga, ma'naviyatiga, o'tmish ajdodlar va avlodlar mehnati bilan yaratilgan o'z xalqining salohiyatiga tayanmoqda. Bu – tashqi munosabatlarda ochiq, teng huquqli va o'zaro foydali hamkorlik qilish, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga rioya etishdan darak beradi.

Yangi jamiyatni barpo etish yo'lida O'zbekiston o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanladi, ma'naviy va milliy qadriyatlarni tiklash, millatlararo totuvlikni ta'minlash, iqtisodni mafkuradan xalos etish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish asosida bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishni jadal amalga oshirmoqda.

Mustaqillikka erishgunga qadar O'zbekiston xalqaro siyosiy, iqtisodiy munosabatlarda mustaqil subyekt sifatida qatnashmas edi. Sovet hokimiyati davrida nashr etilgan adabiyotlarda sobiq sotsialistik respublikalarning xalqaro munosabatlarda huquq subyektini ekanligi haqida ta'kidlab o'tilardi. 1977-yildagi SSSR Konstitutsiyasining 80-moddasiga binoan «Ittifoqdosh respublika chet davlat bilan aloqa bog'lashga, ular bilan shartnomalar tuzishga hamda diplomatiya va konsullik vakillarni ayirboshlashga, xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etishga haqlidir» deyilardi. Lekin amalda Belorusiya va Ukrainadan boshqa biron-bir respublika chet davlatlar bilan diplomatik, konsullik munosabatlarni o'rnatishga yoki chet elda o'zlarining vakolatxonalarini ochishga erisha olmagan. Masalaning bunday hal qilinishi sababli sobiq sotsialistik respublikalarda huquq tizimining alohida sohalari sifatida xalqaro huquq va xalqaro xususiy huquq fanlari ustida ilmiy tadqiqot ishlari deyarli olib borilmadi, ushbu sohalar yuridik o'quv yurtlarida o'rnatilmadi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va jahon hamjamiyatida xalqaro huquqning mustaqil subyekt sifatida tan olinishi xalqaro ommaviy va xususiy huquq fanlari ustida ilmiy izlanishlar olib borish uchun imkoniyat yaratdi va bu fanlarni o'rganish uchun zaruriyat osha boshladi.

Xususiy mulk asosida bozor munosabatlarning tarkib topishi, chet el mamlakatlari va ularning jismoniy va yuridik shaxslari bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning O'zbekistonda tobora rivojlanishi xususiy huquq fanini o'rganishni va ushbu fan ustida ilmiy izlanishlarni amalga oshirishni ustuvor qilib qo'ydi. Ushbu vazifadan kelib chiqib, 1999-yil sentabrda Toshkent davlat yuridik instituti tarkibidan birinchi bor «Xalqaro xususiy huquq» kafedrasini tashkil qilindi.

Nashr etilgan adabiyotlarda xalqaro xususiy huquqning predmeti, tuzilish, manbalari, chet elliklar mulkining huquqiy holati, qo'shma korxonalar, intellektual mulk va mualliflik huquqini xalqaro muhofaza qilish, kollizion va boshqa masalalar bilan bahsmunozaralar, turli fikrlar mavjud.

Talabalar uchun xalqaro xususiy huquq fanini o'rganishda qiyinchilik tug'diradigan yana bitta masala shundan iboratki, ushbu fan bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-uslubiy adabiyotlar juda ham kam. Bunday ahvol talabalarga ta'lim olish, diplom ishlarini yozish, ushbu mavzularda ilmiy seminar va konferensiyalar o'tkazish, ma'ruzalar tayyorlash uchun qiyinchiliklar tug'dirdi.

Taqdim qilinayotgan ushbu darslik o'zbek tilida birinchi marta «Xalqaro xususiy huquq» kafedrasini a'zolari ishtirokida yozildi. Unda xalqaro xususiy huquq fani bo'yicha o'quv dasturining asosiy mavzularini yoritib berishga harakat qilindi. Masalan, xalqaro xususiy huquqning predmeti, tuzilishi, manbalari, kollizion normalari va ularni tadqiq qilish tartibi, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq layoqati, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi sifatida davlatning huquqiy maqomi, mualliflik huquqi va intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish, ashyoviy huquq va tashqi iqtisodiy bitimlar, shartnomalar, xalqaro munosabatlarda nizolarni sud, arbitraj tartibida hal qilish va xalqaro huquqqa taalluqli boshqa masalalar yoritib berildi.

Mualliflar jamoasi ushbu darslikka kiritilgan mavzularni o'rganish va puxta o'zlashtirish talabalarning yurist-mutaxassis sifatida shakllanishida muhim o'rin egallaydi, bu esa ularning kelgusi ish faoliyatida mustaqil mamlakatimiz – O'zbekiston Respublikasi, uning fuqarolari va yuridik shaxslari manfaatlarini xalqaro va xalqaro-xususiy munosabatlarda faol himoya qilishlariga negiz bo'ladi, deb umid qiladi.

**XALQARO XUSUSIY HUQUQ TUSHUNCHASI, UNING
PREDMETI, TUZILISHI VA MANBALARI**

**1-§. Xalqaro xususiy huquq tushunchasi va uning
ommaviy huquqdan farqi**

Xalqaro xususiy huquq xalqaro huquq tizimida o'quv darsligi va yuridik fanning bir tarmog'i sifatida tan olingan alohida soha hisoblanadi. Ushbu soha xalqaro hayot sharoitida yuz beradigan xususiy, ya'ni fuqarolik huquqi va fuqarolik protsessual huquqi bilan tartibga solinadigan, shuningdek oilaviy va mehnat munosabatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishining tartibga solinishi hamda nizo chiqqan taqdirda ularning hal qilinishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida (FKning 1158-moddasi) xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar «chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar» sifatida ta'riflanadi. Lekin bu yetarli emas. Chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarning keng tarqalgan ko'rinishlarda bo'lishi, chet el huquqi subyektlarining turli davlat fuqaroligiga mansub bo'lishi, obyektlarining turli davlatlar hududida joylashgan bo'lishi, ushbu munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi uchun asos bo'lgan yuridik faktlarni muayyan mamlakat huquqi orqali baholash, nizolarni muayyan hududda va o'z vaqtida oldini olish, bartaraf qilish, hal etishni talab qiladi. Xalqaro hayotda bunga o'xshash masalalarning turlari har xil bo'lishi mumkin, ularni biron-bir ro'yxat bilan cheklab ham bo'lmaydi, shuning uchun ular munosabatlarni turli sharoitda, turli ravishda murakkablashtirib yuborilishi uchun sabab bo'ladi. Xususiy-huquqiy munosabatlarning murakkablashishida ba'zi xalqaro shartnomalar alohida o'rin egallaydi. Bular qatoriga, masalan 1928-yildagi Bustamante Kodeksi (xalqaro xususiy huquq Kodeksi), 1980-yildagi Xalqaro oldi-sotdi shartnomalar to'g'risidagi BMTning Konvensiyasi, 1988-yildagi Xalqaro moliyaviy lizing to'g'risidagi Konvensiya, Xalqaro havo yo'llariga tegishli ba'zi qoidalarni birxillashtirish to'g'risidagi 1929-yildagi Varshava

Konvensiyasi va boshqalar kiradi. Ushbu manbalar vositasida chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlar, tovarlarni xalqaro oldi-sotdi, xalqaro moliyaviy lizing, xalqaro havo yo‘llarida yo‘lovchilar va yuklarni tashish to‘g‘risidagi tushunchalar, ularni tartibga solish tartib va qoidalari belgilanadi.

«Xalqaro huquq», «xalqaro xususiy huquq» tushunchalari turli ma‘noga ega. «Xalqaro huquq» davlatlar, hokimiyat organlari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ya‘ni ommaviy-huquqiy manfaatlar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy me‘yorlar majmuyidan iborat. «Xalqaro xususiy huquq» fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalardan tashkil topgan bo‘lib, ushbu munosabatlarning doirasi, tarkibiy qismlari biron-bir mamlakat chegarasi bilan cheklanib qolmaydi, xalqaro hayot ko‘lamida tabiiy hodisa sifatida rivoj topadi.

Xalqaro xususiy huquqning Xalqaro huquq (ommaviy huquq)dan farqi yana shundan iboratki, fuqarolik-huquqiy munosabatlar bo‘yicha vujudga kelishi mumkin bo‘lgan nizolar ommaviy huquq qoidalariga o‘xshab diplomatik yo‘l bilan emas, balki fuqarolik da‘vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan sud yoki arbitraj organlarida ko‘riladi.

«Xalqaro huquq» va «Xalqaro xususiy huquq» normalari vositasida tartibga solinadigan munosabatlarning har birining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lishidan qat’i nazar, ular o‘rtasida uzviy bog‘lanish mavjud. Turli davlatlar jismoniy va yuridik shaxslari ishtirokida «xalqaro xususiy huquq» normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar vujudga kelishi uchun mazkur jismoniy va yuridik shaxslar davlatlarining o‘rtasida «xalqaro huquq», ya‘ni ommaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar o‘rnatilgan bo‘lishi kerak. Umuman olganda xalqaro huquq va xalqaro xususiy huquqning vujudga kelishida boshlang‘ich yagona asos bor. Bunday asoslar qatoriga xalqaro huquqning umum tan olingan tamoyillari va normalari, jumladan davlatlarning mustaqilligi tan olinishi, xalqaro nizolarning tinchlik yo‘li bilan hal qilinishi, ichki ishlarga aralashmaslik, inson huquqlarining barcha tomonidan hurmat qilinishi, xalqaro majburiyatlarning vijdonan, bekami ko‘st bajarilishi va boshqa umumbashariy tamoyillar kiradi.

Xalqaro huquqning umumbashariy tan olingan tamoyillari va qoidalari, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2000-yil maydagi «O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida»gi va 1995-yil 22-dekabrda «O‘zbekiston Respublika-

sining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Qonunlar o'ziga xos mohiyati bilan «Xalqaro huquq» va, shuningdek, «Xalqaro xususiy huquq» sohalarining mazmunini, tuzilishini va tarkibiy qismini belgilash uchun xizmat qiladi.

Xalqaro xususiy huquq va xalqaro huquq uchun boshlang'ich yagona asos xalqaro shartnomalar kabi umumiy manbalar bilan ifodalanadi. Xalqaro shartnomalar davlatlararo munosabatlarning huquqiy asosini tashkil qilish bilan birga xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqaro hamkorlikni BMT Ustavida nazarda tutilgan maqsad va tamoyillarga muvofiq rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi.

Yuridik adabiyotlarda xalqaro huquq va xalqaro xususiy huquq fanlarining o'zaro aloqasi haqida turli fikrlar mavjud. Masalan, I.P. Blishenko, L.N. Galenskaya, S.B. Krilov (RF), M. Genovski (Bolgariya), Morens Kintana (Argentina) qarashlariga ko'ra xalqaro xususiy huquq xalqaro huquqning bir qismidan iborat, Xose de Yagunas Messiya (Ispaniya) esa xalqaro xususiy huquq qisman xalqaro ommaviy huquq va qisman milliy huquq tizimlari normalarini o'z ichiga oladi deb ta'riflaydi, A.Mamatqulov (O'zbekiston) xalqaro xususiy huquqni alohida huquq tarmog'i sifatida tan olmaydi, xalqaro xususiy huquqning xalqaro ommaviy huquq bilan aloqasi yanada chuqurlashib borishi mumkin, deb ta'kidlaydi.

Har bir huquq sohasini uning biron-bir asosiy huquq tarmog'ining bir qismi yoki mustaqil tarmoq yoinki turli huquq sohalari normalaridan tashkil topgan huquqiy majmua ekanligini aniqlash uchun ushbu soha normalari vositasida tartibga solinadigan munosabatlarning xususiyatlariga e'tibor berish lozim. Shunday huquq sohalari borki, ularning aksariyat ko'pchiligi qonunchilik sohasida ham, o'quv jarayonida ham, fan sohasida ham alohida huquq tarmog'i sifatida tan olingan (masalan konstitutsiyaviy huquq, fuqarolik huquqi, ma'muriy huquq, jinoyat huquqi va boshqalar), shu bilan birga ba'zi huquq sohalari borki, ular mustaqil tarmoq sifatida tan olinmasa-da, lekin ular bo'yicha fanning alohida sohasi sifatida ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi, o'quv yurtlarida alohida fan sifatida darsliklar yaratiladi va mashg'ulotlar olib boriladi. Bular qatoriga xo'jalik huquqi, tadbirkorlik huquqi, soliq huquqi, bank huquqi va boshqalarni kiritish mumkin. Xalqaro xususiy huquq ham ma'lum darajada shular qatoriga kiradi, lekin u o'zining normalari vositasida tartibga solinadigan munosabatlarning xususiyati va

doirasi bilan ulardan farq qiladi. Uning normalari vositasida faqat bitta davlat ichidagi va ushbu davlatning milliy qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlar emas, balki uning doirasidan chetga chiqadigan, ya'ni turli davlatlar o'rtasidagi, shuning bilan birga davlat milliy qonun-qoidalariga bevosita taalluqli bo'lgan va ularda nazarda tutilgan munosabatlar tartibga solinadi. Demak, bunda alohida va maxsus tartibga solinadigan tashqi yoki xalqaro munosabatlar haqida gap boradi. Biron-bir mamlakat fuqarosining huquqiy maqomining boshqa mamlakatda belgilanishi yoki uning asarining ushbu mamlakatda chop etilishi, turli transportda (havo, temir yo'l, avtomobil) yuk va yo'lovchilarni chet elga tashilishi, chet el firmasi bilan birgalikda korxonalar tashkil etilishi, muayyan davlat fuqarosining boshqa davlat fuqarosi bilan nikohdan o'tishi va boshqa shaxsiy, mulkiy masalalar va ushbu masalalar yuzasidan sodir bo'lgan nizolarni hal qilish va boshqa turli muammolarni tartibga solish muayyan davlatning ichki milliy qonunlari bilan emas, balki xalqaro xususiy huquq normalari yordamida amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarga e'tibor bergan holda tegishli xulosaga keladigan bo'lsak, xalqaro xususiy huquqning xalqaro huquq sohasi bilan uzviy bog'liq ekanligi inkor qilinmaydi, shuning bilan birga uni xalqaro huquqning faqat bir qismi deb ham bo'lmaydi. Xalqaro xususiy huquq davlatning ichki turli huquq sohalari (fuqarolik huquqi, oila huquqi, mehnat huquqi, fuqarolik protsessual huquq va h.k.) normalaridan, shuningdek kollizion, ya'ni turli davlatlar normalarining to'qnashishidan tashkil topgan alohida huquq sohasidan iborat. Uning tabiati va predmetini ifodalovchi jiddiy va fundamental muammolar ustida izlanishlar, muhohasalar, tortishuvlar uzluksiz davom etmoqda. Ushbu masala bo'yicha hurmatli talabalar o'z fikrlarini bildirishlarini mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

Xalqaro xususiy huquq fanini o'rganishda ma'lum darajada qiyinchiliklar mavjud. Chunki ushbu fan bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-uslubiy adabiyotlar yetarli emas. Ushbu fanni o'rganishda umumiy huquq nazariyasi fani, masalan, huquqning zamon va makon bo'yicha, qonun hujjatlarining ma'lum hudud doirasida qo'llanishi haqidagi tushunchalar bilan xalqaro huquqning asosiy tamoyillari va albatta, fuqarolik huquqi, oila huquqi, mehnat

huquqi, fuqarolik protsessi fanlarida mujassamlangan qoida hamda tushunchalarga duch kelamiz.

Shuning uchun xalqaro xususiy huquq fanini o'zlashtirishda talabalarga yengillik tug'dirish maqsadida yuqorida zikr etilgan huquq sohalari oldin o'tiladi.

2-§. Xalqaro xususiy huquqning predmeti

Umumiy qoidaga binoan har qanday alohida huquq sohasining predmeti, ushbu sohaning mazmunini tashkil qiluvchi huquqiy normalar vositasida tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari va ushbu tartibga solishning metodi, ya'ni usuli bilan ifodalanadi. Ushbu umumiy qoidadan xalqaro xususiy huquqning predmetini aniqlashda ham foydalanish lozim. Ushbu huquq normalari bilan tashqi savdo, ishlab chiqarish, qurilish-montaj, pudrat, xizmat ko'rsatish (havo, dengiz, temir yo'llarida yuk va yo'lovchilar tashish), moliyaviy, kredit, hisob-kitob, komissiya, sug'urta, tijorat va boshqa turli tadbirkorlik faoliyatlari bo'yicha O'zbekiston va chet davlatlarning firmalari, kompaniyalari, birlashmalari o'rtasida vujudga keladigan munosabatlar tartibga solinadi. Bunday munosabatlar qatoriga fan va texnika, intellektual mulk obyektlari, ijodiy faoliyat natijalari va boshqa madaniy qimmatliklar (masalan, san'at va madaniyat sohasidagi asarlar, kashfiyotlar, kinofilmlar, arxitektura loyihalari va h.k)dan foydalanish bo'yicha o'rnatilgan turli xil aloqalar ham kiradi. Xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasiga, shuningdek O'zbekiston va chet el fuqarolarining nikohdan o'tishi, vasiylik va homiylik, farzandlikka olish, vorislik va boshqa shaxsiy, mulkiy munosabatlarga asoslangan aloqalar ham kiradi.

Yuqorida keltirilgan munosabatlar o'z xususiyatlari, ya'ni ushbu munosabatlarning haq evaziga amalga oshirilishi, taraflarining shaxsiy manfaatlarini qondirishga qaratilgan bo'lishi, taraflarining teng huquqligi jihatdan fuqarolik huquqi normalari vositasida tartibga solinadigan munosabatlarga o'xshashligi bor, lekin ular vujudga kelishi asoslari, ularda qatnashuvchi shaxslarning huquqiy maqomi va amalda qo'llanishi doirasi bilan fuqarolik huquqiy munosabatlardan farq qiladi va shuning uchun ham FKning 1158-moddasiga muvofiq «Chet el elementlari bilan murakkablashgan fuqarolik huquqiy munosabatlar» deb ataladi. Bunga sabab, ushbu

munosabatlarda, masalan, tovarlarni eksport va import qilish bo'yicha, turli litsenziya bitimlari va nashriyot shartnomasi, chet el fuqarosi bilan nikohdan o'tish yoki uni bekor qilish va ushbu nikohdan bo'lgan bolalar uchun nafaqa undirish, chet elda joylashgan firmaning mol-mulki hisobidan zararni undirish yoki uni natsionalizatsiya qilish, chet elda yashayotgan shaxsning vafotidan keyin meros ochilishi kabi munosabatlarda turli davlatlarning fuqarolari va tashkilotlari ishtirok etadi. Ushbu munosabatlarda chet el elementining mavjudligi, ya'ni ularda turli davlat fuqarolarining, tashkilotlarining ishtirok etishi ularni odatda fuqarolik yoki oila huquqi normalari bilan bitta davlat ichida tartibga solinadigan munosabatlar doirasidan chetga chiqarib yuboradi va natijada xalqaro xususiy huquq normalarini qo'llashga olib keladi.

Yuridik adabiyotlarda xalqaro xususiy huquq predmetining tabiati ikki: alohida huquq sohasi, huquq normalari majmuasi kabi ko'rinishlarda ifodalanadi.

Birinchi ko'rinishda qaraganda xalqaro xususiy huquq, birinchidan xalqaro ommaviy huquqdan, ikkinchidan, fuqarolik huquqidan farqlanadi, bunda u mazmuni va tabiati jihatidan huquq sohasi sifatida tan olinadi (L.A.Luns, G.K.Matveyev, I.S.Pereterskiy). Ikkinchi ko'rinishda huquqshunoslikning bir sohasi, ya'ni turli huquq sohasi normalaridan tashkil topgan majmua, ilmiy tadqiqot sohasi, yuridik oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan o'quv darsligi sifatida tan olinadi (V.P.Zvekov). Chet el mamlakatlarida xalqaro xususiy huquq predmetining tabiatini ta'riflashda turli fikr bildiriladi.

Ba'zi mamlakatlarda xalqaro xususiy huquq sohasining tarkibiy qismi faqat kollizion (to'qnashuvchi) normalardan tashkil topishi mumkinligi, boshqa chet el fuqarolarining huquqiy holatini, xalqaro fuqarolik protsessini tartibga soluvchi normalar (masalan, chet el elementlari bilan murakkablashgan munosabatlar bo'yicha nizolarining qaysi sudga taalluqliligi, chet el fuqarolarining protsessual huquq va burchlari, chet el sud va arbitrajlarining qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi normalar) xalqaro xususiy huquq emas, boshqa huquq sohalari (davlatning ichki huquq sohalari)ga taalluqli ekanligi haqida fikr yuritiladi. Ushbu mamlakatlarda, masalan Germaniya, Fransiya, Vengriya, Bolgariyada xalqaro xususiy huquq odatda xalqaro kollizion huquq deb yuritiladi.

Huquq fani sohasi sifatida xalqaro xususiy huquq kollizion va moddiy huquqni qo'llashning umumiy qoidalari bilan bir qatorda xalqaro fuqarolik protsessiga oid masalalarni ham o'rganadi. Chet el elementi bilan murakkablashgan xalqaro mulkiy munosabatlar sodir bo'lganda faqat qo'llanishi lozim bo'lgan huquq emas, balki ushbu huquqni belgilovchi vakolatli organ, shuningdek muayyan ishni (nizoni) ko'rishning protsessual shakli va tartibi haqida muammolar vujudga keladi.

Chet el elementlariga va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan, shuningdek nizoli ishni ko'rishga qaratilgan protsessual huquqning normalari xalqaro fuqarolik protsessual huquqning tarkibiy qismini tashkil etadi, deyish mumkin. Shunday ekan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning, chet el tashkilotlarining, chet el davlatining, xalqaro tashkilotlarining, ajnabiy davlat, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarining va ular mansabdor shaxslarining fuqarolik ishlarini olib borish sohasida yuzaga keladigan protsessual tartib va qoidalar haqidagi masalalar, fuqarolik ishlarining xalqaro sudlovga tegishli bo'lishi masalalari, chet el adliya muassasalarining murojaatlari, sud topshiriqlarini bajarish masalalari, fuqarolik ishlari bo'yicha chet el sudlarining qarorlarini tan olish va ularni ijro etish va boshqa masalalar xalqaro fuqarolik protsessual huquqi sohasiga taalluqlidir. Xalqaro tijorat arbitraj masalalari ham ushbu sohaga aloqadordir.

Yuqorida keltirilgan masalalar protsessual huquq normalariga tegishli bo'lishidan qat'i nazar, ular pirovard natijada, xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadi, shuning uchun ular xalqaro xususiy huquq fani tomonidan o'rganiladi.

Xalqaro xususiy huquq normalarining bir qismi, vujudga kelishi, tan olinishi va qo'llanishiga xos xususiyatlari xalqaro ahamiyatga ega, chunki ular xalqaro shartnomalar tuzish, Konvensiyalar, deklaratsiyalar qabul qilish yo'li bilan tashkil topadi. Ikkinchi qismi davlatning ichki qonunlari (masalan, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeks, Yer kodeksi, Havo kodeksi va boshqalar)ga asosan tashkil topadi. Ushbu normalar pirovard natijada xalqaro munosabatlarning qanday vaziyatda bo'lishi, davlatning xalqaro siyosiy, xalqaro iqtisodiy holati, turli sohalar bo'yicha xalqaro hamkorlikning rivojlanishi darajasi bilan belgilanadi.

Xalqaro xususiy huquq normalarining har bir mamlakatda tashkil topishida bunday normalarning xalqaro miqyosda tashkil topishi

kabi keng doiradagi turli muhim ichki va tashqi manfaatlar hisobga olinadi. Lekin bunda jamiyatning moddiy hayot sharoitini hisobga olish va uni xalqaro xususiy huquq normalarida aks ettirish ichki davlat huquq normalariga nisbatan ancha murakkab tus oladi. Chunki ichki davlat huquq normalarida ushbu davlatning muayyan ijtimoiy sharoiti, siyosiy va iqtisodiy manfaatlari o'z aksini topadi. Xalqaro xususiy huquq normalarida esa xalqaro munosabatlarga oid tan olingan udum va odat, o'rnatilgan qoidalar, uning pozitsiyasi, chet ellik fuqarolar va yuridik shaxslarning xalqaro huquqiy maqomi, ya'ni turli davlatlar va ularga mansub shaxslarning xususiy manfaatlari o'z aksini topadi.

Demak, xalqaro xususiy huquq alohida huquq sohasi sifatida huquq tizimida o'ziga yarasha joy egallaydi. Uning mazmuni davlatning ichki huquqiy normalari va kollizion (to'qnashuvchi) normalar bilan tartibga solinadigan normalardan tashkil topadi. Uning predmeti ushbu normalar bilan tartibga solinadigan chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet ellik yuridik shaxslar ishtirokidagi (davlatlar ham xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilari bo'lishi mumkin) chet el elementi bilan murakkablashgan mulkiy, shaxsiy, nomulkiy, oilaviy, mehnat munosabatlaridan va protsessual harakatlardan iborat.

Xalqaro xususiy huquq fanining predmeti, shuningdek uning nomi ham boshqa huquq fani sohaslariga qaraganda ko'pchilik uchun tanish emas, alohida huquq sohasi sifatida unchalik tan olinmagan. Bunga sabab, xalqaro xususiy huquq fan sifatida o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshladi va boshqa huquq fanlari bilan taqqoslaganda eng yosh huquq fani deb hisoblasa bo'ladi. So'nggi yillarda xalqaro xususiy huquqqa bo'lgan e'tibor ancha kuchaydi. Bunga asosiy sabab siyosiy va iqtisodiy hayotning dunyo miqyosida keng ko'lamda rivoj topishi va O'zbekistonning ushbu jarayonda faol qatnashishidan iborat.

3-§. Xalqaro xususiy huquqning tuzilishi (tarkibiy qismlari)

Xalqaro xususiy huquq sohasi muayyan huquq normalari tarkibidan tashkil topgan bo'lib, boshqa huquq sohaslaridan farq qiladi. Agar boshqa huquq sohalari normalari bilan ichki davlat ahamiyatiga ega munosabatlar tartibga solinsa, xalqaro xususiy

huquq esa alohida soha sifatida va ahamiyati jihatdan biron-bir davlat hududi doirasi bilan cheklanmaydi, binobarin u turli davlatlar fuqarolari, tashkilotlari, davlatlar o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega bo'lgan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalar yig'indisi yoki majmuasidan tashkil topadi.

Huquqiy normalarda nazarda tutilgan qoidalar, ular vositasida tartibga solinadigan munosabatlarning xususiyatlariga qarab xalqaro xususiy huquq fani umumiy va maxsus qismlarga bo'linadi. Shu bilan xalqaro xususiy huquq o'zining tarkibiy tuzilishi jihatidan fuqarolik huquqi kabi pandekt xususiyatiga ega. Chet el elementi bilan murakkablashgan oilaviy va mehnat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan normalar xalqaro xususiy huquq sohasiga nisbatan quyi tizimni, ya'ni xalqaro sharoitda vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarga nisbatan qo'shimcha bo'lgan normalardan tashkil topadi. Xalqaro xususiy huquq tarkib topgan shunday normalar ham borki, ular yuqori darajada tizimga solingani bilan alohida ajralib turadi. Ular jumlasiga, masalan, havo va dengiz yo'llarida yuk tashish va savdo yurgazish, xalqaro mehnat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan normalar kirishi mumkin.

Xalqaro xususiy huquq fanining umumiy qismi chet el huquqi normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga qo'llanishi lozim bo'lgan huquqni belgilash, xususiy huquq tushunchalariga sud yoki boshqa davlat organlari tomonidan huquqiy baho berish, chet el huquqi normalari mazmunini aniqlash, uchinchi mamlakat huquqiga havola etish, huquqni o'zarolik asosida qo'llash, xususiy huquq normalarining turlari, xalqaro shartnomalar, kollizion (to'qnashuvchi) normalar tushunchasi, kollizion normalarni izohlash va tatbiq qilish, huquqni qo'llashda o'zarolik munosabati va retorsiyalar qo'llanishi haqidagi umumiy qoidalardan tashkil topadi.

Xalqaro xususiy huquqning maxsus qismi tarkibi jihatdan ichki davlat fuqarolik huquqi fanining bo'limlari tarkibiy qismiga deyarlik mos keladi. Mazkur qismning mazmuni shaxslar, shaxsiy nomulkiy huquqlar, intellektual mulk, bitimlar, vakillik, da'vo muddati, ashyoviy huquqlar, shartnoma majburiyatlari, shartnomadan tashqari majburiyatlar, vorislik huquqi va boshqa huquq institutlaridan tashkil topadi. Ushbu institutlarda mujassam topgan normalar vositasida quyidagi masalalar tartibga solinadi:

a) xalqaro fuqarolik munosabatlarda qatnashuvchi chet el fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet el yuridik shaxslarining huquq layoqatini belgilash;

b) O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlarini chet el mamlakatlarida himoya qilish;

d) xalqaro xususiy huquq munosabatlari ishtirokchisi sifatida davlatning huquqiy maqomini belgilash;

e) davlat, xalqaro tashkilot, ular vakillari va mansabdor shaxslarning chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi;

f) mualliflik huquqini xalqaro munosabatlarda muhofaza qilish asoslari, uning tushunchasi va institutlari, O'zbekiston Respublikasi mualliflarining huquqlarini chet el mamlakatlarda muhofaza qilish;

g) intellektual mulk obyektlarining xalqaro muomalada bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari va tartibi, intellektual mulk bo'yicha xalqaro Konvensiyalar, bitimlar. Intellektual mulk huquqining subyektlari va ularning huquqlari;

h) ashyoviy huquqlarning, jumladan investitsiyaga bo'lgan huquqning vujudga kelish asoslari va ularni amalga oshirish tartibi;

i) tashqi iqtisodiy bitimlar, ularning tushunchasi, shakli, ularga tatbiq qilinadigan huquq;

j) yuklar va yo'lovchilarni turli transport vositasida xalqaro tashish qoidalari;

k) xalqaro hisob-kitoblar va kreditlar bo'yicha o'zaro munosabatlar;

l) shartnoma va shartnomadan tashqari majburiyatlar;

m) oila munosabatlari: nikohdan o'tish, nikohni bekor qilish tartibi, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik;

n) mehnat munosabatlari sohasida kollizion masalalar;

o) nizolarning sud, arbitraj tartibida hal qilinishi;

q) xalqaro xususiy munosabatlarda notarial harakatlarning turlari, ahamiyati va tartibi va shu kabi xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan masalalar.

Yuqorida keltirilgan asosiy qismlar, institutlar va masalalar bilan bir qatorda xalqaro xususiy huquq faniga taalluqli bo'lgan uning yana qator quyidagi tarmoqlari mavjud:

a) chet ellik ishchilar va mutaxassislarning huquq layoqatini tartibga solish to'g'risidagi xalqaro mehnat huquqi;


b) O'zbekiston va chet ellik firmalarning tashqi iqtisodiy va boshqa tijorat bilan bog'liq aloqalarini tartibga solishga qaratilgan xalqaro moliya va kredit hisob-kitob huquqi;

d) chet el fuqarolarini havo va temir yo'llari orqali, shuningdek avtomobil transporti, daryo, dengiz kemalarida tashish tartibi va qoidalari haqidagi huquq va h.k.

Xalqaro xususiy huquqning ushbu tarmoqlari ahamiyati va vazifasi jihatdan xalqaro ommaviy huquqning ba'zi maxsus tarmoqlari bilan o'xshash tomonlari bor. Bunga misol uchun chegara va neytral suv havzalaridan foydalanish tartibi va xalqaro munosabatlarning boshqa masalalarini tartibga solish bo'yicha maxsus qoidalardan iborat bo'lgan xalqaro dengiz huquqini keltirish mumkin. Xalqaro xususiy huquq va xalqaro ommaviy huquqlar atamalarining o'xshashligi ularni bir-biri bilan aralashtirib yuborish uchun asos bo'lmaydi. Chunki ulardan biri turli davlatlarning fuqarolari, firmalari, kompaniyalari o'rtasidagi, ikkinchisi – davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Bu yerda «xalqaro» degan so'z ikki xil ma'noda, ya'ni xususiy huquq talqinida yoki ommaviy huquq talqinida qabul qilinishi kerak.

Xalqaro xususiy huquq sohasining tuzilishi (tarkibiy qismi) haqida gap yuritar ekanmiz, uning predmeti haqida berilgan fikrga, qisman bo'lsa-da, qaytishga va yakuniy xulosa chiqarishga to'g'ri keladi. Ma'lumki har qanday huquq sohasining tarkibi pirovard natijada uning predmeti bilan ifodalanadi. Xalqaro xususiy huquq o'zining tabiati jihatdan, birinchidan, ichki davlat fuqarolik huquqi sohasiga o'xshash bo'lsa (ikkala soha normalari ham mulkiy va mulk bilan bog'liq shaxsiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan), ikkinchidan, ushbu fuqarolik-huquqiy munosabatlar ma'lum darajada chet el elementlari bilan murakkablashgan, ichki fuqarolik-huquqiy munosabatlaridan farq qiladigan, o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega bo'lgan sohadan iborat.

Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, xalqaro xususiy huquq alohida huquq sohasi bo'lishi bilan birga, fuqarolik huquqi bilan xalqaro huquq sohalari o'rtasida ularni bir-biri bilan bog'lab turuvchi vazifasini bajaruvchi soha desak ham mubolag'a bo'lmaydi. U fuqarolik huquqi bilan uning tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning xususiyatlari bilan bog'liq, xalqaro huquq bilan chet el belgilari, ya'ni elementlari bilan bog'liq bo'lgan, tashqi ko'rinishdan esa xalqaro aloqalarga o'xshash bo'lgan, lekin subyekti



va mazmuni jihatdan ulardan farq qiladigan huquq sohasidan iboratdir.

Fuqarolik huquqi sohasi va xalqaro xususiy huquq sohasi tabiati jihatdan bir-biriga o'xshash munosabatlar asosida tashkil topgan bo'lib, xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi natijasida ularda mazmunan o'zgarish yuz berdi, xalqaro xususiy huquq nisbiy mustaqil huquq sohasi sifatida namoyon bo'la boshladi. Lekin aslida ushbu huquq sohalarining normalari chet el elementlari bilan murakkablashgan munosabatlarni tartibga solishda birgalikda harakat qiladi. Xalqaro xususiy huquqdagi kollizion (to'qnashuvchi) normalar fuqarolik huquqidagi (oila huquqi, mehnat huquqi, fuqarolik protsessual huquqi) moddiy normalariga havola qiladi, munosabatlarning turlari va shakllariga qarab ularning qaysi birini qanday sharoitda qo'llash kerakligini ko'rsatib turadi va buning natijasida ular ishtirokida ma'lum darajada umumiy (birgalikda) qoida tashkil topadi, muayyan sharoitda vujudga kelgan aynan munosabatga nisbatan qo'llanadi. Bunday aloqaning xususiyati haqida L.A.Luns shunday deydi: moddiy-huquqiy normaga havola qiluvchi (ya'ni qaysi normaning qo'llanishini ko'rsatuvchi) kollizion norma ushbu moddiy-huquqiy norma bilan birgalikda fuqarolik muomalada qatnashuvchilar uchun tartibga soluvchi me'yorni vujudga keltirishi fan tomonidan doimo himoya qilinib kelingan². Ushbu fikrga A.B. Levitin qo'shilmaydi. Uning fikricha kollizion normalar chet el elementlari bilan murakkablashgan fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga solmaydi, ularning vazifasi asosan qo'llanishi zarur bo'lgan biron-bir davlatning ichki moddiy huquqiy normasini ko'rsatishdan, ya'ni unga havola qilishdan iborat. Kollizion norma vositasida vujudga kelgan munosabatlarni kelajakda tartibga solinishi ma'lum huquqiy sohaning moddiy-huquqiy normasi vositasida amalga oshiriladi³.

Bizning fikrimizcha, fuqarolik-huquqiy va xalqaro xususiy huquq normalarini bir-biridan ajratib, yoki ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, fuqarolik-huquq normalarisiz xalqaro xususiy huquq normalarini qo'llashning iloji bo'lmaganidek, kollizion, ya'ni xalqaro xususiy huquq normalarisiz moddiy huquq normalarini xalqaro mulkiy, mulk bilan bog'liq shaxsiy, oilaviy, mehnat

² Луиц Л.А. Международное частное право. —М.: 1970. —С.153.

³ Левитин А.Б. К вопросу о предмете международного частного права. "Правоведение", 1950. №3, — С.96.

munosabatlari va protsessual harakatlarga nisbatan qo'llab bo'lmaydi, ular birgalikda vazifani bajarishga qaratiladi. Demak xalqaro xususiy huquqning tuzilishi uning normalari vositasida tartibga solinadigan munosabatlarni tabiati jihatdan fuqarolik-huquqiy munosabatlariga o'xshash bo'lgan, muayyan institutlardan, foydalanish maqsadi, vazifasi va qo'llanish doirasi bo'yicha turli huquq normalarining yagona majmuasi sifatida tashkil topgan alohida huquq sohasidan iborat. Tartibga solinadigan munosabatlar xarakteri, ularning mohiyati, mazmuni, ularda qatnashuvchi subyektlar va ular o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra xalqaro xususiy huquq soha sifatida umumhuquqiy tizimda alohida o'rin egallaydi.

I BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro xususiy huquq tushunchasi va uning ahamiyati haqida nima deyish mumkin?

2. Xalqaro xususiy huquqning xalqaro ommaviy huquqdan farqi va o'zaro bog'liqligi nimadan iborat?

3. Xalqaro xususiy huquqning predmeti qanday munosabatlardan tashkil topadi?

4. Xalqaro xususiy huquq normalari vositasida tartibga solinadigan munosabatlarda chet el elementlari bilan murakkablashgan munosabatlar qanday darajada o'z aksini topadi?

5. Xalqaro xususiy huquq sohasida kollizion normalarni qo'llash uchun qanday asoslar mavjud?

6. Kollizion usulida tartibga solish qanday jihatlari bilan moddiy-huquqiy tartibdan farq qiladi va ular o'rtasida umumiylik mavjudmi?

7. Nima sababdan xalqaro protsessual huquq masalalari xalqaro xususiy huquq fani tomonidan o'rganiladi?

8. Xalqaro xususiy huquq fanining tuzilishi qanday ko'rinishlari bilan fuqarolik-huquqiy va boshqa ichki davlat huquq sohaslarining tuzilishidan farq qiladi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Ануфриева Л.П. Международное частное право. В 3-томах. Т.1 Общая часть: Учебник, –М.: БЕК, 2000.
2. Богуславский М.М. Международное частное право. Учебник, 3-е изд., –М.: Юрист, 1998.
3. Богуславский М.М. Международное частное право. Практикум. –М.: Юрист, 1999.
4. Звеков В.П. Международное частное право. Курс лекции. –М.: Издательская группа "Норма - ИНФРА", 1999.
5. Лунц Л.А. Курс Международного частного права. В 3-х томах, Т.1. Общая часть. –М.: 1973.
6. Международное частное право (Под редакцией Г.К.Дмитриевой. –М.: Юрист), 1993.
7. Международное частное право (Под редакцией Г.К.Матвеева. Киев), 1985.
8. Международное частное право (Под редакцией Н.И. Марышевой. М.: "Инфра-М"), 2000.
9. Перетерский И.С., Крылов С.Б. Международное частное право. –М.: Гос.юр.издат, 1959.
10. Скаридов А.С. Международное частное право. Учебное пособие, СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 1998.

XALQARO XUSUSIY HUQUQ MANBALARI

1-§. Xalqaro xususiy huquq manbalarining umumiy tavsifi

Davlat hokimiyat organlarining irodasi o'z ifodasini topgan huquqiy normalarning shakllariga, nazariy jihatdan, huquq manbayi deyiladi. Amalda bunday shakllar qonun, farmon, qaror, nizom va boshqa turlardagi qonun hujjatlaridan iborat.

Huquqning mazmuni muayyan huquq normalaridan tashkil topadi, uning tashqi ko'rinishi esa tegishli shakllardan iborat. Ushbu shakllar manba sifatida u yoki bu huquq sohasining tarkibini, tuzilishini belgilaydi. Xalqaro xususiy huquq tuzilishi jihatdan uning tarkibini belgilovchi manbalar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, xalqaro shartnomalar, qonun hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi tan olgan xalqaro odatlar, udumlar va boshqa hujjatlar xalqaro xususiy huquqning manbalari hisoblanadi.

Demak xalqaro xususiy huquq manbalari ikki tarafdin, davlatning ichki va tashqi miqyoslari bo'yicha ahamiyatga ega. Bunday bo'lish ushbu manbalar vositasida tartibga solinadigan munosabatlarning xususiyatlari bilan ifodalanadi, masalan, xalqaro miqyosda vujudga keladigan mulkiy, oilaviy, mehnat munosabatlarini tartibga solishga nisbatan ichki davlat qonunlari (Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi) va chet el davlat qonunlari (xalqaro shartnomalar, Konvensiyalar va h.k.) tatbiq qilinadi. Ichki va tashqi davlat qonunlarining tatbiq qilinishi albatta kollizion normalar ishtirokida, ya'ni ularni qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ba'zi davlatlarda bo'lganidek sud pretsedenti (tajribasi) huquq manbayi sifatida tan olinmaydi, ya'ni sud qarorlari masalani ko'rishda huquq manbayi bo'la olmaydi. Lekin shu bilan birga jamiyatni boshqarishda demokratik shakllarning keng ko'lamda taraqqiy etishi jarayonida qonunchilikni rivojlantirish sohasida sud tajribasiga bo'lgan e'tibor ma'lum darajada oshib bormoqda.

Respublika Oliy Sudi qarorlarini huquq manbai sifatida tan olinishi yoki olinmasligi haqida turli fikrlar mavjud. Sho'rolar hokimiyati davrida sud praktikasi masalalari bo'yicha Oliy Sud Plenumi quyi sud pog'onalariga rahbariy tushuntirishlar (руководящее разъяснение) berish vakolatiga ega edi. Bunday rahbariy tushuntirish majburiy hisoblanardi, sudyalor qarorni nafaqat qonun (kodeks)ning tegishli moddalari, shuningdek bevosita rahbariy tushuntirishlarga asosan qabul qilardilar. Shuning uchun ham yuridik adabiyotlarda Oliy sud Plenumi qarorlarining huquqiy maqomi haqida qat'iy bir fikrga kelishilmagan edi. Ko'pgina hollarda bunday qarorlar huquq manbai sifatida baholanardi. 1985-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab huquqiy islohotlarning amalga oshirilishi tufayli Oliy Sud Plenumining vakolatlariga o'zgartishlar kiritildi, endi u sud praktikasi masalalari bo'yicha rahbariy tushuntirish emas, faqat tushuntirishlar berish huquqi bilan cheklandi. Bunday tushuntirish majburiy emas, unda sud praktikasida qonunni to'g'ri qo'llash haqida gap yuritiladi. Ko'p sud bo'g'inlari qaror va hukmlarni asosiy manba-qonunga (kodeksga) asosan qabul qiladi, shuning bilan birga muayyan ishga nisbatan qonunning tegishli moddasini qo'llashda Oliy Sud Plenumi tomonidan berilgan tushuntirishga amal qiladi. Demak Oliy Sud Plenumi qarorlari huquq manbai bo'lib hisoblanmaydi. Shunday bo'lsa-da adabiyotlarda huquqiy normani qo'llash bo'yicha Oliy Sud tomonidan berilgan tushuntirishni manba sifatida tan olinishi zarurligi haqida bahslar yo'q emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 110-moddasining 2-qismiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi «tomonidan qabul qilingan hujjatlar qat'iy va Respublikaning barcha hududida bajarilishi majburiy». Bu yerda Oliy sud qarorlari va hujjatlarining bajarilishi uchun qat'iy talab qo'yilishi haqida qoida nazarda tutilmoqda. Sud tajribasi masalalari bo'yicha Oliy Sud Plenumi tomonidan huquqiy normalarni qo'llash haqida tushuntirishlar berish vakolati O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan.

Xalqaro xususiy huquq kollizion huquq bo'lishidan qat'i nazar, o'zining ichki manbalari sifatida chet el huquqi emas, O'zbekiston Respublikasi huquqiy normalaridan tashkil topadi. Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasi xalqaro xususiy huquqi boshqa ichki davlat huquq sohalari kabi milliy, ya'ni O'zbekiston

davlatining huquqi hisoblanadi. Kollizion normaga amal qilgan holda O'zbekiston sudi chet el huquqini qo'llashi mumkin, lekin bunday qo'llash O'zbekistonning ichki davlat huquqiga asosan amalga oshiriladi.

Mavjud chet el elementi bilan murakkablashgan munosabat mohiyati jihatdan kollizion normaga amal qilingan holda faqat ichki davlat huquqi emas, balki chet el huquqi normalarini qo'llashni talab qiladi. O'zbekiston sudi tomonidan chet el huquqining qo'llanishi muayyan anglashilmovchilikka sabab bo'lishi ham mumkin. Masalan, sud qarorni O'zbekiston davlati nomidan qabul qilar ekan, shuning bilan u davlat, ya'ni xalq irodasini bajaradi, chet el huquqini qo'llashda u kimning irodasini bajaradi, degan savol tug'ilishi mumkin. Bunga javob shundan iborat: birinchidan, sud chet el huquqi normasini O'zbekiston ichki davlat qonuniga asosan qo'llaydi, ikkinchidan, qarorni O'zbekiston davlati nomidan qabul qiladi va shu yo'l bilan o'zga davlatni emas, O'zbekiston davlati irodasini bajaradi. Masalan, Angliya fuqarosi (yoki Angliyada yashagan O'zbekiston fuqarosi) uyda yozilgan vasiyatnoma (домашнее завещание) qoldiradi. Vasiyatnomaning shaklini tanlashda Angliya qonuniga amal qiladi. Ushbu qonun bo'yicha, agar bunday vasiyatnoma uni qoldiruvchining o'z qo'li bilan yozilgan bo'lsa va ikki guvoh tomonidan tasdiqlangan bo'lsa, bunday vasiyatnoma haqiqiy deb hisoblanadi. O'zbekiston qonunidan farqli o'laroq bunda u notarial tartibda va boshqa shaxslar tomonidan tasdiqlanishi shart emas. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1124-moddasiga muvofiq vasiyatnomalar yozma shaklda tuzilib, notarial tasdiqlanishi yoki 1126-moddada nazarda tutilgan shaxslar tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Vasiyat bo'yicha ochilgan meros mulki Angliyada joylashgan bo'lganligi tufayli sud vasiyatnomaning shaklini tanlashda Angliya huquqi normasini qo'llaydi. Chunki sud bunday holatda kollizion normaga amal qiladi. Demak pirovard natijada O'zbekiston sudi chet el huquqi emas, O'zbekiston huquqiga itoat etadi va uning nomidan qaror qabul qiladi. L.A. Luns shunga o'xshash masalalarni tahlil qilar ekan, shunday deb ta'kidlab o'tadi: har bir davlatning xalqaro xususiy huquqi mavjud-sovet xalqaro xususiy huquqi, Fransiyaning xalqaro xususiy huquqi, Angliyaning xalqaro xususiy huquqi va h.k.⁴. Boshqacha fikr ham bor. G.K. Tunkinning ta'kidlashicha,

⁴ Луни Л.А. Международное частное право. Общая часть. —М.: 1973. —С.45.

xalqaro xususiy huquq – bu turli davlatlar milliy huquq tarkibiga taalluqli normalar qismlaridan tashkil topgan huquq normalari majmuasidir⁵. Bizning fikrimizcha, xalqaro xususiy huquqning ichki manbalari bo‘lib «turli davlatlarning» normalari emas, balki muayyan davlatning huquq normalari hisoblanadi.

Lekin har tomonlama mukammal tarkib topgan xalqaro xususiy huquq amalda yo‘q. Shunday ekan turli davlatlar o‘rtasidagi aloqani, hamkorlikni va o‘zaro munosabatlarni bog‘lab turuvchi va norma sifatida tan olingan umumiy tamoyillar, g‘oyalari mujassam topgan huquq sohasi haqida gap yurgazish mumkin.

Xalqaro xususiy huquq manbalariga, ya‘ni uning ichki (milliy) kollizion normalariga beriladigan umumiy tavsiya yuqorida berilgan mulohazalardan iborat. Lekin ushbu huquq sohasi manbayi faqat yuqorida ko‘rsatilgan normalar bilan cheklanmaydi. Xalqaro xususiy huquq manbalari shuningdek o‘zida ma‘lum darajada kollizion normalar mujassam topgan, chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik, mehnat, oila munosabatlarini, protsessual harakatlarni tartibga solishga bag‘ishlangan xalqaro shartnomalar, bitimlar, Konvensiyalar va boshqa xalqaro normativ-huquqiy hujjatlardan iborat.

Xalqaro xususiy huquqning turli bo‘limlarida, institutlari yoki alohida sohalarida ichki davlat va shartnomaviy kollizion normalarning hajmi bir xilda emas. Fuqarolar ishtirokida vujudga keladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar sohasida (masalan, oila va nikoh, ashyoviy-huquqiy meros yoki zarar yetkazilishidan kelib chiqadigan munosabatlarda) ko‘proq ichki kollizion normalar qo‘llaniladi, xo‘jalik-huquqiy munosabatlar sohasida (iqtisodiy, savdo, fan-texnika sohalarida) aksincha, ko‘proq shartnomaviy kollizion normalar uchraydi.

Xalqaro xususiy huquqning manbalari ichida birxillashtirilgan (унифицированные) normalar alohida o‘rin egallaydi. Bunday normalar ikki yoki undan ko‘p davlatlar tomonidan kelishilgan va qabul qilingan moddiy-huquqiy yoki protsessual-huquqiy xarakterga ega bo‘lgan normalardan iborat. Birxillashtirilgan normalarning tabiati haqida turli fikrlar mavjud. Ba‘zi olimlarning ta‘kidlab o‘tishicha, ular xalqaro xususiy huquq normalari bo‘lib hisoblanmaydi, birxillashtirilgan normalar bor joyda kollizion, ya‘ni xalqaro xususiy huquqning alohida soha sifatida mavjud bo‘lishi

⁵ Международное частное право. Учебник для вузов. –М.: 1982. –С.11.

uchun asos qolmaydi⁶. Boshqa muallifning fikricha, xalqaro xususiy huquq sohasini har tomonlama to'liq o'rganish nuqtayi nazaridan birlashtirilgan normalarni alohida huquq sohasi emas, balki xalqaro xususiy huquq sohasiga taalluqli bo'lgan o'quv fani sifatida qabul qilish kerak⁷. Bizning fikrimizcha, bixillashtirilgan normalar ichki davlat moddiy huquqiy normalaridan farqli o'laroq, ular davlatlararo bitimlarning mahsuli hisoblanadi. Shunday ekan bixillashtirilgan normalar o'zining xususiyati bilan milliy huquqning shartnomaviy manbai hisoblanadi. Bixillashtirilgan normalar mazmuni jihatdan kollizion normalardan iborat bo'lishi mumkin. Bunga xalqaro xususiy huquq sohasidagi ko'pgina xalqaro Konvensiyalarni misol keltirish mumkin. Bixillashtirilgan normalar davlatlar tomonidan kelishilgan va qabul qilingan normalar sifatida xalqaro xususiy huquq sohasining tarkibiy qismida alohida o'rin egallaydi.

2-§. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xalqaro xususiy huquq

Xalqaro xususiy huquq manbalari ichida O'zbekiston Respublikasining Bosh qonuni Konstitutsiya muhim o'rin egallaydi.

Ijtimoiy jamiyat va davlat qurilishi asosiy g'oyalari va tamoyillari o'z aksini topgan konstitutsiyaviy normalar boshqa huquq sohalari kabi xalqaro xususiy huquq normalarining mohiyatini va ahamiyatini belgilab beradi. Konstitutsiyaning quyidagi asosiy qoidalari xalqaro xususiy huquq normalarining mazmunini, ahamiyatini ifoda etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi:

1. Mustaqillikka erishgan O'zbekiston o'z Konstitutsiyasining 3-moddasiga muvofiq o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini o'zi belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi. Ushbu modda o'z mohiyati bilan davlatning haqiqatda ham mustaqilligidan va uning xalqaro munosabatlarda teng huquqli subyekt ekanligidan dalolat beradi. O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan o'rnatgan munosabatlari xususiyatlariga ko'ra ommaviy va xususiy ahamiyatga ega bo'lib, ular tegishincha xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadi.

⁶ Грингольц И.А. "О задачах совершенствования правового механизма социалистической экономической интеграции стран членов СЭВ". Правоведение, 1972. №1. -С.19.

⁷ Международное частное право. Киев. 1985. -С.26.

2. O'zbekiston Konstitutsiyasining 15-moddasiga muvofiq mamlakatimizda «Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi tan olinadi», 16-moddasining 2-qismiga muvofiq «Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas». Konstitutsiya o'z maqomi bo'yicha oliy darajadagi kuchga ega. Bu demak, birinchidan, u O'zbekistonning barcha hududlarida bir tekisda qo'llanadi, ikkinchidan, Respublikaning barcha qonun va boshqa huquqiy hujjatlari unga zid kelishi mumkin emas, uchinchidan, barcha davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar Konstitutsiya normalarini hurmat qilishlari va o'z faoliyatlarini amalga oshirishda ushbu normalarga rioya qilishlari shart.

3. Konstitutsiyaning boshqa qonunlarga nisbatan ustunligining xalqaro xususiy huquq manbalarining turlari, shakllari va mazmunini belgilash bilan bog'liq masalalarga ham bevosita aloqasi bor. Umum tan olingan xalqaro tamoyillar, xalqaro huquq, shuningdek O'zbekistonning xalqaro shartnomalari O'zbekiston huquq tizimining tarkibiy qismiga kiradi. Shunday ekan xalqaro xususiy huquq sohasining manbayini tashkil qiluvchi huquqiy hujjatlar O'zbekiston Konstitutsiyasi normalariga zid kelmasligi kerak. Shuning bilan birga Konstitutsiya asosida tuzilgan O'zbekistonning xalqaro shartnomalari ham o'z ta'sir kuchiga ko'ra yuqori yuridik maqomli hujjat hisoblanadi. Agar O'zbekistonning xalqaro shartnomasida boshqa qonun hujjatlariga nisbatan o'zgacha qoida nazarda tutilgan bo'lsa, xalqaro shartnoma bilan belgilangan qoidaga amal qilinadi. Xalqaro shartnomada ikki yoki ko'pchilik taraflarning xohish-irodasi o'z ifodasini topadi. Unda nazarda tutilgan qoidalar va shartlar albatta bajarilishi kerak, aks holda bajarmagan taraf uchun salbiy huquqiy oqibatlar vujudga kelishi mumkin. Shuni hisobga olingan holda xalqaro shartnomalar ichki davlat huquqiy hujjatlaridan ustun turishi qoidasi nazarda tutiladi. Masalan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (FK) 7-moddasiga muvofiq «Agar xalqaro shartnomada yoki bitimda fuqarolik qonun hujjatlariga qaraganda boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llaniladi». Bunday qoida mamlakatimizning boshqa qonunlarida ham nazarda tutiladi. Masalan, O'zbekistonning 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan «Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida»gi Qonuni 1-moddasining 3-qismida shunday deyiladi:

«Basharti xalqaro shartnomada fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi». O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi Qonunda ham bu haqdagi qoida nazarda tutiladi.

4.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17-moddasining 2-qismiga muvofiq «Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin». Ushbu moddada davlat tashqi siyosatining asosiy mazmuni xalqning farovon hayoti, manfaatini ta'minlash maqsadida uning boshqa davlatlar bilan aloqalar o'rnatishi uchun tayyor ekanligidan dalolat beradi. Bunday aloqalar faqat siyosiy emas, iqtisodiy ahamiyatga ham ega bo'ladi. Davlatlar o'rtasida birgalikda korxonalar qurish, investitsiya, kredit, tovarlar oldi-sotdisi, grant e'lon qilish asosida ma'lum loyihalar bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarni bajarish bilan bog'liq munosabatlar iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, bunday munosabatlar xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadi.

5.Konstitutsiyaning 18-moddasiga muvofiq O'zbekistonda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Shuning bilan birga fuqarolarning huquqlari O'zbekistonning o'z hududida ham, uning tashqarisida ham davlat tomonidan himoya qilinadi va ularga homiylik ko'rsatish kafolatlanadi.

O'zbekiston fuqarolari ularga Konstitutsiyaning 22-moddasiga binoan berilgan huquq va erkinliklarga asosan chet el mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirar ekanlar, bu huquq va erkinliklar O'zbekiston Respublikasi tomonidan himoya qilinadi. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha majburiyatlar va ularning bajarilishi bilan bog'liq barcha oqibatlar xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadi.

6.O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari agar qonunda boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston fuqarolarining huquq va erkinliklari bilan tenglashtiriladi va xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston

Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar (Konstitutsiyaning 23-moddasi).

O'zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari kerak. Konstitutsiyaviy tizim va axloq asoslarini, boshqa shaxslarning salomatligi, davlat mudofaasi va uning xavfsizligini himoya qilish maqsadida zaruriyat tug'ilgan taqdirda shaxs va fuqaroning o'z huquq va erkinliklari tegishli darajada cheklangan bo'lishi mumkin.

7.O'zbekiston hududida qonuniy asosda yashab turgan har qanday shaxs, agar qonunda o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega (Konstitutsiyaning 28-moddasi).

Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi (Konstitutsiyaning 44-moddasi).

8.Xalqaro iqtisodiy va savdo munosabatlarini rivojlantirish borasida Konstitutsiyaning 53-moddasida nazarda tutilgan qoidalar alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Ushbu moddaga binoan O'zbekistonda xususiy va davlat mulki asosida fuqarolar, yuridik shaxslar uchun xalqaro miqyosda tadbirkorlik faoliyatini erkin amalga oshirish uchun imkoniyat yaratildi. Tadbirkorlik sohasidagi turli, ya'ni oldi-sotdi shartnomasi, inshoatlar qurish bo'yicha pudrat shartnomasi, investitsiyalar ajratish yo'li bilan qo'shma korxonalar ta'asis etish shartnomasi, maishiy va moddiy xizmat ko'rsatish shartnomasi, ishlab chiqarish va xo'jalikning turli sohalarida xalqaro miqyosda fuqarolarni ishga jalb qilish bo'yicha tuziladigan mehnat shartnomasi va boshqa sohalarda tuziladigan shartnomalar bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadi.

3-§.Xalqaro shartnomalar

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan bo'ladigan munosabatlarida xalqaro xususiy huquqning manbayi sifatida xalqaro shartnomalarning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Xalqaro shartnomada oldindan o'z ifodasini topgan normalar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda ichki davlat qonunlariga nisbatan ko'proq qo'llaniladi.

«O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi 1995-yil 22-dekabrda qabul qilingan Qonunda⁸ mujassam topgan qoidalar xalqaro shartnomalar to'g'risidagi 1969-yilda qabul qilingan va 1995-yil 24-fevralda O'zbekiston qo'shilgan Vena Konvensiyasiga va davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar, shuningdek xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1986-yil Vena Konvensiyasiga asoslanadi.

Xalqaro shartnoma deganda O'zbekiston Respublikasining bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvi tushuniladi. Xalqaro shartnomalar: shartnoma, bitim, Konvensiya, protokol, memorandum, deklaratsiya, xatlar va notalar almashuvi deb nomlanishi va shunday ko'rinishda tuzilishi, shuningdek boshqacha nomlanishi mumkin. Bunday shartnomalar qoida tariqasida yozma shaklda tuziladi. Davlatning siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, huquqiy va boshqa sohalaridagi faoliyati xalqaro shartnomaning obyekti bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro shartnomalarni tuzish huquqi davlatga tegishlidir. Bunday shartnomalar quyidagi tartibda tuziladi:

- O'zbekiston Respublikasi nomidan – davlatlararo shartnomalar.
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan – hukumatlararo shartnomalar.
- O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari nomidan – idoralararo shartnomalar.

Mazkur shartnomalarga asosan xalqaro ommaviy huquq, shuningdek xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar vujudga kelishi mumkin.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, 12-son, 262-modda.

Xalqaro huquq va xalqaro shartnomalarning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari yuqorida aytilganidek, O'zbekiston Respublikasi huquq tizimining tarkibiy qismiga kiradi. Lekin bundan xalqaro xususiy huquq manbayini tashkil qiluvchi xalqaro shartnomalar, jumladan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari O'zbekiston Respublikasi uchun majburiy va uning erkidan, xohishidan qat'i nazar o'z holicha mustaqil ravishda amalda, ya'ni harakatda bo'ladi degan xulosaga kelish mumkin emas. Xalqaro shartnomalarni tuzishda, mazmunini belgilashda va bajarishda mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasining erki o'z ifodasini topadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi Qonunga hamda shartnomaning o'z qoidalariga muvofiq tuziladi, bajariladi, to'xtatiladi, to'xtatib turiladi va denonsatsiya qilinadi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasini bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi qonunini, Oliy Majlis qarorini qabul qilish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorini, farmoyishini chiqarish lozim bo'lgan hollarda manfaatdor vazirliklar va idoralar Adliya Vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda shunday akti qabul qilish to'g'risida belgilangan tartibda taklif kiritadilar.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston o'zining birinchi kunlaridan e'tiboran xalqaro shartnomalar tuzish huquqiy asoslarini shakllantira boshladi. Bunday e'tibor birinchi galda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratildi. Masalan, 1991-yil 14-iyundagi «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi va 1991-yil 14-iyundagi «O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunlari bunga yaqqol dalildir. Birinchi qonunda asosan tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy qoidalari va bu faoliyatni amalga oshirishning tartibi belgilandi. Ikkinchi qonunda asosan chet el investitsiyalarini rivojlantirishni amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy masalalari belgilab berildi. Ushbu qonunlar va boshqa muhim qonun hujjatlari O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlar sohasida xalqaro shartnomalar tuzishi uchun huquqiy asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Ukraina, Fransiya, Gruzuya, Saudiya Arabistoni, Turkiya Jumhuriyati, Rossiya Federatsiyasi, Slovakiya Respublikasi, Latviya Respublikasi, Litva Respublikasi, Turkmaniston, Qirg'iziston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Chexiya Respublikasi va boshqa ko'p davlatlar bilan do'stlik, hamkorlik va huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida shartnomalar tuzdi. 1993-yil 22-yanvarda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va fuqarolik, huquqiy munosabatlar to'g'risida Konvensiya qabul qildi. Ushbu Konvensiyani O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 6-mayda ratifikatsiya qildi.

Xalqaro shartnomalarni tuzishdan asosiy maqsad bir davlat fuqarosining ikkinchi davlat hududida mulkiy va shaxsiy huquqlari tan olinishini va muhofaza qilinishini ta'minlashdan iborat. Shartnomalar tuzishda har bir davlatning teng huquqligi va mustaqilligini hurmat qilish tamoyiliga amal qilinadi. Shartnomalarda adliya idoralari o'rtasidagi hamkorlik, davlatlarning fuqarolari va yuridik shaxslarining huquqlarini himoya qilish, sud organlarining vakolatlarini va huquqni tatbiq qilishni belgilash, chet el fuqarolarining protsessual huquqlarini belgilash, huquqiy yordam berish haqidagi topshiriqni bajarish, fuqarolik va oilaviy ishlar bo'yicha qabul qilingan qarorlarni tan olish va ijro etishni ta'minlash, hujjatlarni qabul qilish va jo'natish, jinoyatchini topshirish va jinoiy ishlar bo'yicha kerak bo'lgan boshqa huquqiy yordam ko'rsatish kabi masalalar bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar tartibga solinadi.

Ikki tomonlama xalqaro shartnomalar bilan bir qatorda O'zbekiston xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ko'ptomonlama shartnomalar, Konvensiyalarga qo'shildi va ularni ratifikatsiya qildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan qarori bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibiga kirgan davlatlarning rahbarlari 1992-yil oktabrda Bishkek shahrida imzolagan Deportatsiya qilingan shaxslar, kam sonli millatlar va xalqlarning huquqlarini tiklash bilan bog'liq masalalarga doir Bitim ratifikatsiya qilindi. Ushbu bitim bilan bog'liq ravishda shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, O'zbekiston Konstitutsiyasining 18-moddasiga muvofiq, O'zbekistonda yashovchi barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, shaxsi va ijtimoiy mavqeydan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Iqtisodiy masalalarni hal qilishga bag'ishlangan xalqaro shartnomalar alohida ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston tomonidan MDHga a'zo bo'lgan boshqa davlatlar bilan ikkitomonlama va ko'ptomonlama shartnomalar tuzildi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 29-dekabrda qarori bilan 1993-yil 24-sentabrda Moskva shahrida imzolangan Iqtisodiy ittifoq tuzish haqidagi Shartnomani ratifikatsiya qildi. Oliy Kengash o'sha sanadagi qarori bilan 1993-yil 24-sentabrda Moskva shahrida imzolangan Davlatlararo Yevrosiyo ko'mir va metall birlashmasini tuzish to'g'risida Bitimni ratifikatsiya qildi. O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1994-yil 6-mayda Ashxabat shahrida 1993-yil 23-dekabrda imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lgan davlatlar korxonalari va tarmoqlarining ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning umumiy shart-sharoitlari va tartibi to'g'risidagi Bitim ratifikatsiya qilindi. 1993-yil 24-dekabrda Ashxabat shahrida imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lgan davlatlar hududida aholini ishlab chiqarilayotgan dori-darmon vositalari, vaksina va boshqa immunobiologik dorilar, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika bilan ta'minlash to'g'risidagi Bitim O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1994-yil 6-mayda ratifikatsiya qilindi. 1994-yil 10-yanvarda Toshkent shahrida va 1994-yil 16-yanvarda Bishkek shahrida imzolangan Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to'g'risidagi Shartnoma 1994-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilindi. 1994-yil 2-martda Moskva shahrida imzolangan Daromadlar va mulkka ikkiyoqlama soliq solmaslik to'g'risida O'zbekiston Hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasidagi Bitim 1994-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan ratifikatsiya qilindi. Ushbu bitim xalqaro xususiy huquq nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro xususiy huquqning manbalari ichida savdo shartnomalari alohida o'rin egallaydi. Ushbu shartnomalarda O'zbekiston uchun boshqa davlatlar bilan savdo shartnomalarini tuzishda foydalanish uchun zarur bo'lgan umumiy qoidalar nazarda tutiladi. Ushbu shartnomalar bilan yuridik va jismoniy shaxslarning huquq layoqati belgilanadi, savdo arbitrajiga taalluqli masalalar bo'yicha qoidalar nazarda tutiladi. 1994-yil 15-aprelda Mustaqil Davlatlar

Hamdo'stligi tomonidan Erkin savdo zonalarini tashkil qilish to'g'risida Bitim va uning Protokoli (1994-yil 2-aprel) ma'qullandi. MDH tashkil qilingandan buyon uning ishtirokchilari tomonidan bir qancha shartnomalar, bitimlar tuzildi, ular savdo va iqtisodiyot sohasida hamkorlik o'rnatish, davlat chegaralari va dengiz iqtisodiy zonalarini muhofaza qilish va boshqa iqtisodiy masalalarga bag'ishlanadi.

Xalqaro savdo masalalariga oid alohida Konvensiyalar qatoriga birinchi galda ko'char moddiy ashyolarning xalqaro oldi-sotdisiga nisbatan qo'llanadigan huquq to'g'risidagi 1995-yildagi Gaaga Konvensiyasi; Xalqaro tovarlar savdosida mulk huquqining o'tishiga nisbatan qo'llanadigan huquq to'g'risidagi 1958-yil Gaaga Konvensiyasi va Xalqaro oldi-sotdiga nisbatan qo'llanadigan huquq to'g'risidagi 1986-yil Gaaga Konvensiyasi va boshqalar kiradi. Bir xil mazmundagi kollizion xarakterga ega bo'lgan normalardan tashkil topgan ushbu Konvensiyalardan farqli o'laroq, 1964-yilda Gaagada tovarlarni xalqaro oldi-sotdisi to'g'risida bir xil mazmunga ega bo'lgan Qonun qabul qilish haqida Konvensiya tuzilgan edi. Ushbu Konvensiya amalda keng ko'lamda qo'llanilmadi va uning o'rniga 1980-yili Venada tovarlarning xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Konvensiyasi imzolandi. Ushbu Konvensiya 1988-yil 1-yanvardan amalga kiritildi. 1974-yilda Nyu-Yorkda tovarlarning xalqaro oldi-sotdisi bo'yicha da'vo muddati to'g'risida Konvensiya tuzildi va unga nisbatan 1980-yilda Qo'shimcha protokol qabul qilindi. O'zbekiston ushbu Konvensiyani 1996-yil 30-avgustda ratifikatsiya qildi. Ushbu protokolga asosan 1974-yildagi Konvensiyaning ayrim qoidalari tovarlarni xalqaro oldi-sotdisi shartnomalari to'g'risidagi BMT Konvensiyasi bilan muvofiqlashtirildi. 1983-yilda Jenevada bo'lib o'tgan konferensiyada tovarlarni xalqaro oldi-sotdisini boshqarish bo'yicha vakolatxona tashkil qilish haqida Konvensiya tuzildi, 1988-yili esa Ottavada xalqaro moliyaviy lizing to'g'risida Konvensiya tuzildi. O'zbekiston uni 2000-yil 26-mayda ratifikatsiya qildi.

O'zbekiston chet el investitsiyalariga doir Konvensiyalarda qatnashadi. Davlatlar va chet el shaxslari o'rtasidagi investitsiyalarga oid nizolarni hal etish tartibi to'g'risidagi Konvensiya Vashingtonda birinchi marta 1965-yilda tuzilgan edi. 1992-yilda Seulda chet el investitsiyalarining sug'urtasi bo'yicha

xalqaro agentlik tashkil qilish to'g'risida Konvensiya tuzildi. O'zbekiston ikkala Konvensiyani 1994-yilda ratifikatsiya qildi. O'zbekiston 1994-yil 17-martda Vashington shahrida imzolangan investitsiyalarga oid nizolarni hal etish tartibi to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qildi.

Xalqaro xususiy huquq normalari bilan ashyoviy huquqlar ham himoya qilinadi, bu haqda O'zbekiston tegishli Konvensiyalarni ratifikatsiya qilishda qatnashdi. Masalan: 1995-yil 22-dekabrda Oliy Majlisning qarori bilan 1970-yilda imzolangan Madaniy boyliklarni noqonuniy ravishda olib ketish, olib kelish va ularga bo'lgan egalik huquqini o'zgacha berishni man etish va oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Konvensiya ratifikatsiya qilindi; 1972-yilda imzolangan Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiya 1995-yil 22-dekabrda ratifikatsiya qilindi. Ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan madaniy boyliklarni xalqaro miqyosda himoya qilishga qaratilgan qoidalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 163-moddasining 6-qismida quyidagi tahrirda o'z aksini topdi: «mamlakat mustaqilligi e'lon qilinishidan oldin uning chegaralaridan tashqariga olib chiqib ketilgan tarixiy, madaniy va ilmiy-badiiy qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni hamda boshqa qimmatbaho obyektlarni qaytarib berish haqidagi talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmaydi».

Transport vositalari orqali xalqaro yuk va yo'lovchilar tashish to'g'risida tuzilgan shartnomalar va qabul qilingan Konvensiyalar xalqaro xususiy huquq manbalari safida alohida o'rin egallaydi.

O'zbekiston Oliy Majlisi havo yo'llari bilan yuk tashishga oid ayrim qoidalarni bixillashtirish uchun 1929-yili Varshavada imzolangan va 1955-yil Gaagada unga kiritilgan aniqliklar haqida imzolangan Konvensiyaga qo'shilish haqida 1995-yil 6-mayda qaror qabul qildi. Temir yo'l masalalarini tartibga solish Bern xalqaro Konvensiyalari orqali amalga oshiriladi. Yuklar, yo'lovchilar va bagajlarni temir yo'l orqali tashishga oid Bern Konvensiyalaridagi qoidalar 1980-yili umumiyashtirilib, yangi tahrirda Yagona Kelishuv qabul qilindi va u 1985-yil 1-maydan amalga kiritildi. Avtomobil transportida xalqaro miqyosda yuklar tashish masalalari 1956-yildagi yuklarni xalqaro avtomobil transportida tashish to'g'risidagi Jeneva Konvensiyasi bilan tartibga solinadi. Yuklarni xalqaro turli transport vositalarida tashish to'g'risida 1980-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Konvensiyasi qabul qilindi.

Transport vositalari yordamida yuk va yo'lovchilarni tashish turli davlatlar hududi orqali amalga oshirilishi mumkin. Shu masala hisobga olingan holda O'zbekiston 1995-yil 22-dekabrda Qit'a ichkarisidagi davlatlarning tranzit savdosi to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shildi.

Xalqaro xususiy huquq manbayi sifatida Gaaga Konvensiyalaridan 11 turkumi oila huquqiga taalluqli. Bular jumlasiga: Nikohni e'tirof etish va uni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi 1978-yil Konvensiyasi; er-xotinning mol-mulkiga nisbatan qo'llanadigan huquq to'g'risida 1978-yil Konvensiyasi; Nikoh bekor qilinganligini tan olish va er-xotinni sud tartibida ajratish to'g'risidagi 1970-yil Konvensiyasi; bolalarga beriladigan aliment majburiyatlari bo'yicha qo'llanadigan huquq to'g'risida 1956-yil Konvensiyasi; bolalarga beriladigan aliment majburiyatlari haqida qabul qilingan qarorlarni tan olish va ijro etish to'g'risida 1958-yil Konvensiyasi va shunga o'xshash boshqa xalqaro Konvensiyalar kiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavida e'lon qilingan tamoyillarga muvofiq, jamiyat barcha a'zolarining qadr-qimmatini, teng va daxlsiz huquqlarini e'tirof etish inson erkinliklarini ta'minlashning asosi ekanligini e'tiborga olib, shuningdek bolalar alohida g'amxo'rlik va himoya huquqiga ega ekanligini tan olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekiston Konstitutsiyasining 64-moddasiga amal qilingan holda 1992-yil 9-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44-sessiyasida 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shildi. Ushbu Konvensiyaga asosan bola huquqi va uning manfaatlari uning qaysi davlat fuqaroligiga mansub bo'lishidan va qaysi davlat hududida istiqomat qilishidan qat'i nazar bab-baravar himoya qilinadi va tegishli kafolatlar bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Onalikni muhofaza qilish haqidagi 1919-yili Jenevada qabul qilingan va 1952-yili qaytadan ko'rib chiqilgan 103-sonli Konvensiyaga 1995-yil 6-mayda qo'shildi. O'zbekistonda 2001-yilning onalar va bolalar yili deb e'lon qilinishi va shu tufayli O'zbekiston Hukumati tomonidan tegishli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi uchun dasturlar qabul qilinishi Jeneva Konvensiyasida ko'zda tutilgan vazifalarning amaliy ifodasidir. Onalar va bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish

masalalari O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida har tomonlama mukammal yechimini topgan. Kodeksning «Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish» to'g'risidagi VIII bo'limi xalqaro xususiy huquq sohasi uchun bevosita manba deb hisoblanishi mumkin.

Intellektual mulk masalalariga bag'ishlangan xalqaro shartnomalar alohida guruhni tashkil qiladi. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida intellektual mulk sohasidagi bir necha xalqaro jamiyatlarga, ittifoqlarga a'zo bo'ldi, Konvensiyalarni ratifikatsiya qildi, bitimlarga qo'shildi, shartnomalar tuzdi. O'zbekiston Butunjahon intellektual mulk tashkilotini ta'sis etuvchi Konvensiyaning ishtirokchisi, Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha 1883-yildagi Parij Konvensiyasining qatnashchisi, Patent kooperatsiyasi to'g'risidagi 1977-yildagi Parij shartnomasining ishtirokchisi, Tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi 1891-yil (1976-yil) Madrid Kelishuvining, Mahsulot ishlab chiqarilgan joyning nomini himoya qilish to'g'risidagi Lissabon kengashining, Sanoat namu nalarini deponent qilish bo'yicha Gaaga kelishuvining va shunga o'xshash qator xalqaro shartnoma va Konvensiyalarning ishtirokchisidir.

1993-yil may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Intellektual mulkning Butunjahon tashkiloti (VOIS)ni tashkil qilish bo'yicha Parij Konvensiyasiga va Patent kooperatsiyasi (RST) to'g'risidagi Deklaratsiyaga imzo chekdi. 1993-yil 18-avgustda VOIS O'zbekiston Respublikasining ushbu Konvensiyalarga qo'shilganligini ma'lum qildi. O'zbekiston Respublikasi savdo markalarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Madrid Kelishuvining ham a'zosi hisoblanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga kirgan davlatlar hududida intellektual mulk sohasida ro'y berishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida O'zbekiston maxsus bitimga qo'shildi va sanoat mulkini himoya qilish bo'yicha quyidagi davlatlar: Rossiya Federatsiyasi (1995-yil 27-iyun), Gruziya (1996-yil 28-may), Qirg'iziston Respublikasi (1996-yil 24-dekabr), Qozog'iston Respublikasi (1997-yil 2-iyun), Ozarbayjon Respublikasi (1997-yil 18-iyun), shuningdek intellektual mulkni muhofaza qilish sohasida, Ukraina (1998-yil 19-fevral) va Turkiya Respublikasi (1998-yil 13-aprel) bilan ikkitomonlama shartnomalar tuzdi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida (FKning 1177-moddasi), «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi Qonunda (42-moddada), «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomi to'g'risida»gi Qonunda (35-modda), «Elektron hisoblash mashinalari va ma'lumotlar to'plamini huquqiy himoya qilish to'g'risida»gi Qonunda (9-modda), «Seleksiya yutuqlari»to'g'risidagi Qonunda (2-modda) milliy tartib to'g'risidagi maxsus qoidalar nazarda tutiladi.

Xalqaro shartnomalar yuzasidan vujudga kelgan nizolarning sudga taalluqligi, sud qarorlarining bajarilishi bo'yicha xalqaro bitimlar va Konvensiyalar mavjud. Bunga Yevropa ittifoqiga a'zo bo'lgan davlatlarning nizolarning sudga taalluqligi va sud qarorlarini ijro etish bo'yicha 1968-yil va 1979-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Bryussel Konvensiyasini misol keltirish mumkin. Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasiga kirgan Yevropa davlatlari 1980-yilda Lugano shahrida fuqarolik va savdo masalalari bo'yicha ishlarning sudga taalluqligi va sud qarorlarini ijro etish to'g'risida shartnoma tuzdilar. 1954-yil 1-martda Gaagada Fuqarolik protsessi masalalariga doir Konvensiya imzolandi. O'zbekiston ushbu Konvensiyaga 1995-yil 22-dekabrda qo'shildi. 1958-yil 10-iyunda Nyu-Yorkda Chet el mamlakatlari arbitraj qarorlarini e'tirof etish va ijro etish to'g'risidagi Konvensiya imzolandi. O'zbekiston ushbu Konvensiyaga 1995-yil 22-dekabrda qo'shildi.

Xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar yuzasidan vujudga keladigan ba'zi masalalarni hal qilish turli davlatlardagi konsullik muassasalari vakolatiga taalluqli hisoblanadi. Mustaqillikka erishgach O'zbekiston boshqa davlatlar bilan bevosita aloqada bo'lish va ular bilan shartnomalar tuzish, ushbu davlatlarda o'zining diplomatik va konsullik tashkilotlarini tuzish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu hisobga olingan holda O'zbekiston 1994-yil 6-mayda quyidagi Konvensiyalarga qo'shildi:

1. Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena Konvensiyasiga;
2. Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena Konvensiyasiga.

Hozirgi davrda xalqaro xususiy huquq qoidalarini kodifikatsiya qilishda, turli xalqaro shartnomalarning loyihalarini tayyorlashda xalqaro tashkilotlarning tashabbus ko'rsatishi tobora oshib bormoqda. 1966-yilda xalqaro savdo huquqi bo'yicha BMTning maxsus organi sifatida Komissiya (YUNSIKRAL) tashkil qilindi. BMT Bosh Assambleyasining 1966-yil 17-dekabrda qaroriga

muvofig Komissiyaning vazifasi xalqaro savdo qoidalarini birxillastirish va bir-biriga muvofiqlashtirishga yordam berishdan iborat. Komissiyaning vazifasi, masalan, yangi xalqaro Konvensiyalarni, xalqaro savdo huquqi sohasida namunaviy va mazmun jihatdan bir-biriga o'xshash qonunlarni tayyorlashga, xalqaro savdo odatlarini kodifikatsiya qilishga yordamlashishdan iborat bo'lib, bu sohadagi axborotlar, ma'lumotlarni to'plash va ularni targ'ib qilishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi. Komissiya birinchi galda quyidagi: tovarlarning xalqaro oldi-sotdisi, xalqaro hisob-kitoblar, tijorat arbitraji kabi mavzularga e'tibor berdi. Tayyorlangan loyihalar asosida quyidagi Konvensiyalar qabul qilindi: Tovarlarining xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to'g'risidagi BMTning Konvensiyasi; tovarlarning xalqaro oldi-sotdisida da'vo muddatlari to'g'risidagi Konvensiya; yuklarni dengiz orqali tashish bo'yicha BMTning Konvensiyasi; YUNSITRALning Arbitraj reglamenti, YUNSITRALning (Примирительный) Yarashtirish reglamenti va boshqalar. 1985-yilda xalqaro savdo arbitraji to'g'risida qonun, 1988-yilda xalqaro o'tkazma (переводный) va xalqaro oddiy veksel to'g'risida Konvensiya qabul qilindi.

Xalqaro xususiy huquq sohasiga taalluqli Konvensiyalarni tayyorlashda xalqaro xususiy huquq bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi Gaaga konferensiyasi ham shug'ullanadi. Ushbu konferensiyaning birinchi sessiyasi taniqli gollandiyalik yurist T.M.Assera tashabbusi bilan Niderlandiya hukumati tomonidan 1893-yilda Gaagada o'tkazilgan edi. Uning navbatdan tashqari o'tkazilgan ikkinchi sessiyasida xalqaro xususiy huquq masalalariga oid bir necha loyihalar qabul qilindi. 1951-yilda Gaaga konferensiyasining doimiy huquqiy maqomi qabul qilindi va u 1955-yildan boshlab amalga kiritildi. Konferensiya sessiyasi umumiy qoidaga binoan to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan bo'ldi. Sessiyalarni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish hukumat tomonidan tuzilgan maxsus komissiya, Konferensiyaning doimiy byurosi tomonidan amalga oshiriladi. 1950-yillardan boshlab Konferensiya tomonidan qabul qilingan ko'zga ko'rinarli Konvensiyalar quyidagilardan iborat: Fuqarolik protsessual masalalari bo'yicha 1954-yildagi Konvensiya; Fuqarolik va savdo ishlari bo'yicha chet elda sud va suddan tashqari berilgan hujjatlar to'g'risidagi 1965-yildagi Konvensiya; Fuqarolik va savdo ishlari bo'yicha chet elda isbotlovchi dalillar to'plash to'g'risida 1970-yildagi Konvensiya; Adolatli sud protsessida chet elda

qatnashishni asoslantirish to'g'risidagi 1980-yildagi Konvensiya va boshqalar.

Amerika qit'asi mamlakatlari 1975-yildan boshlab har uch yilda xalqaro xususiy huquqqa bag'ishlangan konferensiyalar o'tkazib turadi. 1975-yilda Panamada birinchi konferensiyada oltita Konvensiya, 1979-yilda Montevideoda ikkinchi konferensiyada xalqaro xususiy huquqning turli masalalari bo'yicha yettita Konvensiya qabul qilindi. 1984-yili La-Pasedagi konferensiyada quyidagi to'rtta Konvensiya qabul qilindi: xalqaro xususiy huquq bo'yicha yuridik shaxslarning huquq va muomala layoqati; voyaga yetmaganlarni farzandlikka olish bo'yicha kollizion normalar; chet el sud qarorlarining yuridik ahamiyati va ularning qo'llanish doirasi; chet elda isbotlovchi dalillar to'plash to'g'risida Amerika davlatlari o'rtasidagi Konvensiyaga kiritiladigan qo'shimcha protokol. 1989-yilda Montevideodagi konferensiyada quyidagi uchta: shaxslarni moddiy ta'minlash majburiyati to'g'risida; voyaga yetmaganlarni boshqa mamlakatlardan qaytarib olish to'g'risida; yuklarni avtotransportda xalqaro tashish to'g'risida Konvensiyalar qabul qilindi.

1962-yilda Librevilda sanoat mulki bo'yicha Afrika-Malagasiy boshqarmasi tashkil qilish bo'yicha bitim imzolandi. Bitimda ixtirolarni, tovar belgilarini va sanoat namunalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun yagona normalarni joriy qilish nazarda tutildi. Ushbu kelishuv qaytadan ko'rib chiqildi va unga 1977-yil qo'shimchalar kiritildi. Shunga o'xshash bitimlar 1978-yili boshqa Afrika davlatlari o'rtasida ham tuzildi. Huquqiy yordam va isbotlovchi dalillar bo'yicha ikkitomonlama bitimlar tuzish uchun Afro-Osiyo huquqiy maslahat qo'mitasi bitimning Namunaviy nusxasini qabul qildi.

Xalqaro xususiy huquq sohasidagi mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan Konvensiyalar ichida Bustamante kodeksi alohida o'ringallaydi. Ushbu kodeks uni tuzgan taniqli Kuba yuristi ismi bilan ataladi. 437 moddadan iborat bo'lgan ushbu kodeks xalqaro xususiy huquq masalalari bo'yicha har tomonlama mukammal ishlangan xalqaro shartnoma hisoblanadi. Kodeks 1928-yilda VI Panamerika konferensiyasida qabul qilindi, 15 ta Markaziy va Janubiy Amerika mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilindi.

4-§. Davlat ichki qonun hujjatlari

Yuqorida ko'rsatilganidek, xalqaro xususiy huquq manbalari xalqaro bitimlar, shartnomalar, Konvensiyalar va boshqa umume'tirof etilgan huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda davlat ichki qonun hujjatlaridan ham tashkil topadi. Bularga tavsif berishdan oldin O'zbekiston Respublikasida xususiy huquq qonunchiligi mavqesi bilan bog'liq quyidagi masalalarga e'tibor berish lozim:

– O'zbekiston qonunchiligida boshqa davlatlarda, masalan, Avstriya, Vengriya, Polsha, Ruminiya, Chexiya, Slovakiya, Shveysariyada bo'lgani kabi xalqaro xususiy huquq to'g'risida qonun qabul qilinmagan. Chet el elementlari bilan murakkablashgan munosabatlarni O'z.R. Fuqarolik kodeksining VI bo'limida mujassam topgan kollizion normalar bilan tartibga solish nazarda tutiladi.

– xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi qonunchilikning boshqa yo'nalishlarida muayyan huquqiy bo'shliq mavjud. Masalan, O'zbekistondagi chet el fuqarolarining huquqiy maqomi to'g'risida, shuningdek davlat va uning mulkining immuniteti (daxlsizligi) to'g'risida qonunlar qabul qilinmagan.

– mehnat munosabatlarini tartibga solish bo'yicha xalqaro xususiy huquq normalarini takomillashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xalqaro xususiy huquq normalariga oid qoidalar quyidagi ichki davlat qonunlarida aks ettirilgan:

1. O'zbekiston Respublikasining Bosh qonuni – Konstitutsiyaning qator qoidalari xalqaro xususiy huquq normalariga taalluqli. Masalan, umume'tirof etilgan xalqaro tamoyillar va huquq normalarini, inson huquqlariga oid xalqaro huquq normalarini va ularning ustunligini tan olish, shuningdek ularga amal qilish to'g'risidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar yuqorida ta'kidlanganidek Konstitutsiyaning tegishli moddalarida o'z aksini topgan.

2. Chet el elementlari bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llanishi lozim bo'lgan huquq O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa ichki davlat qonunlari bilan belgilanadi. Fuqarolik kodeksida umumiy va maxsus masalalar bo'yicha ham xalqaro xususiy huquq normalari joy oladi.

Masalan: chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatlarga nisbatan qo'llanadigan huquqni tanlash (FKning 1158-moddasi);

yuridik tushunchalarga huquqiy baho berish (FKning 1159-moddasi); chet el huquqi normalarining mazmunini belgilash (FKning 1160-moddasi); qarshi tomon va uchinchi mamlakat huquqiga havola qilish (FKning 1161-moddasi); qonunni chetlab o'tish oqibatlari (FKning 1162-moddasi); huquqni o'zarolik asosida qo'llash (FKning 1163-moddasi); huquqiy tizimlari ko'p bo'lgan mamlakatning huquqini qo'llash (FKning 1166-moddasi); jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni (FKning 1168-moddasi); jismoniy shaxsning huquq va muomala layoqatlari (FKning 1169-moddasi); vasiylik va homiylik (FKning 1174-moddasi), yuridik shaxsning qonuni (FKning 1175-moddasi); yuridik shaxsning huquq layoqati (FKning 1176-moddasi); O'zbekiston Respublikasida chet el yuridik shaxslari faoliyatining milliy tartibi (FKning 1177-moddasi); chet el elementi bilan fuqarolik huquqiy munosabatlarda davlatning ishtirok etishi (FKning 1178-moddasi); shaxsiy nomulkiy huquqlar, intellektual mulk (FKning 1179-1180-moddalari), bitimlar, vakillik, da'vo muddati (FKning 1181-1183-moddalari); ashyoviy huquqlarga nisbatan qo'llanadigan huquq (FKning 1184-1188-moddalari); shartnoma majburiyatlariga nisbatan huquqni tanlash va qo'llash (FKning 1189-1192-moddalari); shartnomadan tashqari majburiyatlar (FKning 1193-1196-moddalari), vorislik huquqi (FKning 1197-1199-moddalari).

Yuqorida keltirilgan me'yorlarda chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llanishi lozim bo'lgan kollizion normalar ko'zda tutiladi. Kollizion normalar yordamida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning turlari, mazmuni, mohiyati va ushbu munosabatlarda qatnashuvchi taraflarning shaxsiy qonun huquqi va muomila layoqatlari hisobga olingan holda muayyan munosabatlarga nisbatan u yoki bu davlat, shuningdek umume'tirof etilgan xalqaro shartnoma normalari tanlanadi va qo'llanadi. Munosabatlar yuzasidan vujudga kelgan har bir masalani bevosita kollizion norma hal qilmaydi, balki u moddiy huquqqa, fuqarolik-huquqiy qoidalarga, tegishli qoidalarga havola etish orqali kelib chiqqan masalaning yechimini topishga va hal etishga yordam beradi.

3. Xalqaro xususiy huquq qoidalari 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan va 1-sentabrdan e'tiboran amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ham mavjud. Kodeksning VIII bo'limida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning

oilaviy munosabatlardagi huquq va majburiyatlari (Oila kodeksining 234-moddasi), O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni e'tirof etish (235-modda), O'zbekiston Respublikasi hududida yoki uning tashqarisida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan nikohdan ajratishi (236-moddalar), O'zbekiston fuqarosi bo'lgan bolalarni chet el fuqarolari tomonidan farzandlikka olish (237-modda), chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash (238-modda) kabi masalalarga oid normalar mujassam topgan.

Xalqaro xususiy huquqqa oid qoidalar Oila kodeksining faqat VIII bo'limi moddalar bilan cheklanmaydi. Uning boshqa bo'limlardagi me'yorlarida ham xalqaro xususiy huquqqa tegishli qoidalar mavjud. Chet el fuqarolari O'zbekiston hududida O'zbekiston fuqarolari foydalanadigan huquq layoqatiga teng ega bo'lganliklari kabi (Fuqarolik kodeksining 1169-moddasi) nikoh layoqatiga ham egadirlar. Nikoh tuzish tartibi va uni rasmiylashtirish uchun belgilangan shartlar (Oila kodeksining 13-17-moddalari) chet elliklar uchun ham taalluqlidir. Shunga ko'ra ana shu moddalarda belgilangan shartlar buziladigan va nikoh tuzishga monelik qiladigan (Oila kodeksining 16-moddasi) holatlar bo'lsa, nikohni qayd qilishga yo'l qo'yilmaydi.

4. Xalqaro xususiy huquq muammolariga tegishli bo'lgan qoidalar 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunda ham nazarda tutiladi. Bunday qoidalar qatoriga quyidagilarni misol qilib olish mumkin: boshqa davlat fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan nikohdan o'tish yoki nikohning bekor bo'lishi yoxud bir oila bo'lib yashash shaxsning fuqaroligini o'zgartirish uchun asos bo'la olmaydi (Qonunning 6-moddasi), O'zbekiston fuqarosining chet elda yashashi, uning fuqaroligining to'xtatilishiga olib kelmaydi (7-modda), chet elda yashovchi O'zbekiston fuqarolari O'zbekiston Respublikasi himoyasi va homiyligida bo'ladi (8-modda), O'zbekiston fuqarosini chet davlatga topshirishga yo'l qo'yilmasligi (9-modda), O'zbekiston fuqarosi bo'lgan shaxsning chet davlat fuqaroligiga mansubligini tan olinmasligi (10-modda), O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha O'zbekiston fuqaroligini olish (12-moddaning 3-qismi), ota yoki onasi O'zbekiston fuqarosi bo'lgan yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning yoxud ota-onasi noma'lum

bo'lgan bolalarning fuqaroligi va shunga o'xshash boshqa masalalarning xalqaro xususiy huquq sohasiga tegishli jihatlari mavjud.

Fuqarolik – shaxsning huquqiy maqomi sifatida qator belgilarga ega. U, birinchidan, shaxsning qaysi davlat hududida bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir davlatga mansubligini bildiradi. Ikkinchidan, bu mansublik davlat bilan o'sha shaxs, fuqaro o'rtasidagi siyosiy-huquqiy bog'liqlikni, aloqani bildiradi. Uchinchidan, davlat o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi. Fuqarolikka oid bunday belgilar davlatning ichki qonunlari normalari va xalqaro xususiy huquq normalarining mazmunida o'z ifodasini topadi.

5. O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan Fuqarolik protsessual kodeksining V bo'limida mujassam topgan moddalar bilan chet el fuqarolari va tashkilotlarining fuqarolik protsessual huquqlari (FPKning 386-moddasi), fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqarolik protsessual huquqlari (FPKning 387-moddasi), chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etayotgan nizolar, shuningdek loqal bittasi chet elda yashab turgan taraflar o'rtasidagi nizolar bo'yicha fuqarolik ishlari O'zbekiston sudlarining sudloviga taalluqli bo'lishi (388-modda), chet davlatlarga da'volar (389-modda), chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish tartibi va O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlariga topshiriq bilan murojaat qilishi (390-modda), chet davlat sud va arbitraj organlarining qarorlarini ijro etish (391-modda) va boshqa xalqaro xususiy huquq masalalariga taalluqli qoidalar nazarda tutiladi.

6. 1997-yil 30-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi xo'jalik protsessual kodeksining V bo'limi «chet el tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi ishlarni yuritish» masalalariga bag'ishlanadi. Ushbu bo'limda chet ellik shaxslarning protsessual huquqlari (221-modda), ushbu shaxslar ishtirokidagi sud ishlarini yuritish (222-modda), chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlarining vakolatlari (223-modda), sudlov immuniteti (224-modda), chet davlat sudi tomonidan ayni bir shaxslar o'rtasida, ayni bir predmet to'g'risida va ayni bir asoslar bo'yicha nizolar yuzasidan ishlarni ko'rishning protsessual oqibatlarini (225-modda),

sud topshiriqlarini ijro etish (226-modda) va boshqa chet el davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari faoliyatiga taalluqli qoidalar nazarda tutiladi.

7. Ichki davlat qonunlari ichida O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-dekabrda qabul qilingan Notariat to'g'risidagi Qonuni alohida o'rin egallaydi. Unda nazarda tutilgan va chet ellik shaxslar masalalari bo'yicha notarial harakatlarni amalga oshirishni tartibga solishga bag'ishlangan qoidalarining xalqaro xususiy huquq sohasiga taalluqli tomonlari mavjud. Qonunda chet el huquqi normalarining qo'llanishiga alohida e'tibor beriladi (88-modda). Chet el huquqi normalarini qo'llashda notarius O'zbekiston qonunlariga va xalqaro shartnomalarga amal qiladi. Notarius chet el fuqarosiga tegishli bo'lgan mol-mulkni qo'riqlash va merosga bo'lgan huquq haqida guvohnomalar berish bilan bog'liq harakatlarni O'zbekiston qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi (89-modda). Notarius xalqaro shartnomlar talablariga muvofiq tuzilgan hujjatlarni qabul qilib oladi, shuningdek ularga boshqa davlatlarning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan shaklda tasdiqlovchi ustxatlar (apostil) yozish huquqiga ega (91-modda). Tegishli hujjatlarni tasdiqlashda, rasmiylashtirishda notarius boshqa davlatlar adliya organlari bilan o'zaro munosabatlarda bo'lishi mumkin (92-modda). Ushbu keltirilgan misollardan ma'lum bo'lishicha, Notariat to'g'risidagi qonun ichki davlat qonuni sifatida chet ellik shaxslarga nisbatan bevosita qo'llaniladi.

8. Xalqaro xususiy huquq sohasiga taalluqli bo'lgan ayrim qoidalar O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-mayda qabul qilingan Havo kodeksida ham mujassam topgan. Kodeksning 1-moddasida Respublikaning quruqlikdagi yerlari va suv havzalari ustidagi samoviy hududiga O'zbekiston to'la va tanho egalik qiladi deyilishi xorijiy havo kemalarining O'zbekistonning samoviy hududidan foydalanishda xalqaro shartnomalarda va O'zbekistonning qonun hujjatlarida o'rnatilgan qoidalariga amal qilishga chaqiradi. Kodeksning tegishli moddalarida havo kemalarining xalqaro parvozlari, O'zbekiston samoviy hududidagi parvozlarni amalga oshirish qoidalari, havo kemalarining xalqaro parvozlari uchun mo'ljallangan aerodromlar va havo yo'llari, havo kemalarining xalqaro parvozlarni bajarishlari uchun qo'llaniladigan pasport, bojxona talablari va boshqa qoidalar nazarda tutiladi.

9. Ichki davlatning xalqaro xususiy huquq manbayi sifatida O'zbekistonning 1995-yil 22-dekabrda qabul qilingan xalqaro shartnomalari to'g'risidagi Qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu Qonun asosida O'zbekistonning xalqaro shartnomalarni tuzish, bajarish, to'xtatish, to'xtatib turish va denonsatsiya qilish tartibi belgilanadi. Ushbu Qonun va O'zbekistonning boshqa shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslangan holda 1996-yil 26-dekabrda «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida» Qonun qabul qilindi. Qonunning 5-moddasiga muvofiq O'zbekiston mamlakatining barqarorligini, sobitqadam rivojlanishi va milliy xavfsizligini ta'minlash imkonini beradigan, O'zbekistonning jahon xo'jalik aloqalariga axborot, texnologiya va kommunikatsiya jihatidan kirib borishiga ko'maklashadigan davlatlararo tuzilmalarga, shu jumladan iqtisodiy tuzilmalarga ustuvor ahamiyat beradi.

10. O'zbekistonning ichki davlat qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik munosabatlarining doirasi keng. Ular mazmuni jihatdan turlicha, masalan, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, huquqiy va h.k. ahamiyatlarga ega. Shunga ko'ra bular to'g'risidagi O'zbekistonning qonunlari ham turlicha nomlanadi, masalan «Mulchilik to'g'risida», «Mulchni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida», «Banklar va bank faoliyati to'g'risida», «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida», «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida», «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida», «Xo'jalik shirkatlari to'g'risida», «Ma'suliyati cheklangan va qo'shimcha ma'suliyatli jamiyatlar to'g'risida», «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida», «Chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida», «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida»gi, «Sug'urta to'g'risida»gi, «Valutani tartibga solish to'g'risida»gi, «Yer kodeksi», «Lizing to'g'risida»gi, «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi, «O'zbekistonning davlat chegarasi to'g'risida», «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida», «Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risida», «Temir yo'l transporti to'g'risida», «Avtomobil transporti to'g'risida» va h.k.

11. Qator davlatlarda xalqaro xususiy huquq normalari alohida qonunlarda mujassam topgan. Shuning bilan birga maxsus xalqaro

xususiy huquq normalaridan tashkil topgan Kodeksga ega bo'lgan davlatlar ham bor. Bunday kodeks Avstriyada (1978-yil), Vengriyada (1979-yil), Polshada (1965-yil), Turkiyada (1982-yil), Ruminiyada (1992-yil), GFRda (1986-yil), Shveysariyada (1987-yil), Lixtenshteynda (1997-yil) qabul qilingan. 1995-yil sentabrda Italiyaning xalqaro xususiy huquq islohoti to'g'risidagi Qonuni amalga kiritildi. 1982-yil Yugoslaviyada qabul qilingan ma'lum huquqiy munosabatlarda qonun va chet el huquqi normalari o'rtasidagi kolliziyalarni hal qilish to'g'risidagi Qonun hozirgi kunda Serbiyada, Sloveniyada, Xorvatiyada, Chernogoriyada harakat qilmoqda, AQSHning Luiziana shtatida 1991-yilda qabul qilingan xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi Qonuni mazkur shtatning Fuqarolik kodeksi tarkibiga kiritildi. Kanadaning Kvebek provinsiyasi Fuqarolik kodeksining o'ninchi kitobi xalqaro xususiy huquq masalalariga bag'ishlanadi.

Rossiya, Ukraina, Belorusiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, Ispaniya, Portugaliya, Jazoir, Misr, Iroq, Peru, Vyetnam, Mo'g'uliston va boshqa qator davlatlarning Fuqarolik kodekslarida xalqaro xususiy huquqning kollizion normalari mujassam topgan.

Xalqaro xususiy huquq normalari maxsus ushbu sohaga bag'ishlangan Kodeks yoki Qonun, shuningdek Fuqarolik kodekslardan tashqari boshqa qonun hujjatlarida ham mavjud. Bunday qonun hujjatlari qatoriga Xitoyning 1986-yildagi fuqarolik huquqining Umumiy qoidalari, 1985-yildagi xalqaro xo'jalik huquqlari to'g'risidagi Qonuni kiradi. Qonun Xitoy va chet el tashkilotlari o'rtasida barcha chet el iqtisodiy, oldi-sotdi munosabatlari bo'yicha tuziladigan shartnomalarga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu Qonunni chet el elementlari bilan murakkablashgan fuqarolik huquqiy munosabatlarga bevosita qo'llanadigan me'yorlardan iborat deb aytish mumkin. Qonunning ko'p normalari dispozitiv xarakterga ega.

AQSH va Angliyada xalqaro xususiy huquq kodifikatsiya qilinmagan. Angliyada xususiy huquq bo'yicha Daysi kursi keng doirada tan olingan, AQSHda Amerika huquq instituti tomonidan tayyorlangan konfliktlar to'g'risidagi qonunlar To'plami harakat qiladi. Uning birinchi to'plami 1834-yilda, ikkinchisi – 1971-yilda nashr etilgan. Xalqaro xususiy huquq normalari AQSHning Bixildagi savdo kodeksida ham mavjud. Ushbu kodeksda qonunni makon va zamon bo'yicha qo'llash haqida qoidalar mavjud. Chet el

suvereniga taalluqli masalalar AQSHning 1976ildagi chet el davlatlarining immuniteti to'g'risidagi Qonuni bilan hal qilinadi.

Angliyada kollizion muammolarga tegishli status huquqining qo'llanish doirasini kengayishi uning ma'lum darajada Yevropa hamdo'stligi va Gaaga Konvensiyalariga a'zo bo'lishi bilan izohlanadi.

Chexiyada 1963-yilda Chexo-Slovakiyada qabul qilingan xalqaro xususiy huquq va protsess huquqi haqidagi Qonun hozir ham harakatda. Fransiyada xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi qonunning loyihasi 1959-yilda tayyorlangan edi. 1969-yili uning asosida yangi loyiha tayyorlandi. Loyiha sud amaliyotida qo'llanib kelingan tamoyillarga asoslanadi va shuning bilan birga xalqaro xususiy huquq sohasiga taalluqli bo'lgan normalarni sud amaliyotida shakllantirish uchun ham keng imkoniyat beradi.

Germaniya fuqarolik qonunlar to'plamini amalga kiritish to'g'risidagi qonunida ma'lum darajada kollizion normalar mavjud edi. Lekin ushbu normalar, ayniqsa majburiyat huquqi sohasi bo'yicha yetarli darajada emasdi. 1986-yilning 1-sentabridan boshlab xalqaro xususiy huquq to'g'risida qonun amalga kiritildi va shu tufayli Germaniyaning fuqarolik qonunlar to'plamini amalga kiritish to'g'risidagi Qonunning tegishli moddolari o'rniga boshqa me'yorlar yoki ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Ushbu Qonunda oila huquqi sohasida sudda ko'rilishi uchun tegishli bo'lgan tartibni belgilovchi normalar ham nazarda tutilgan. Shuningdek unga shartnoma majburiyatiga nisbatan qo'llanadigan huquq to'g'risidagi 1980-yil Rim Konvensiyasida belgilangan tartib kiritilgan. Natijada bitimlarning shakli, nikoh tuzish va uni bekor qilish bo'yicha, bolalar huquqi, homiylik va vasiylik, meros huquqi, majburiyat va mehnat huquqi va protsessual masalalar bo'yicha qo'llanishi kerak bo'lgan kollizion normalarning tizimi o'rnatildi.

Yaponiyada ham kollizion normalar o'z huquqiy asoslariga ega. Xalqaro xususiy huquq sohasidagi qoidalar 1989-yilda qabul qilingan va 1990-yilning 1-yanvaridan amalga kiritilgan qonunda nazarda tutildi.

5-§. Odatlarning ahamiyati

Muayyan xalqaro ommaviy yoki xususiy munosabatlarni tartibga solish uchun tegishli huquqiy normalar bo'lmagan taqdirda, ularga nisbatan odat bo'lib qolgan qoidalar qo'llanadi. Bunday qo'llash umume'tirof etilgan xalqaro huquq manbalarida nazarda tutilgan normalarga, qoidalarga, xalqaro shartnomalarga zid bo'lmasligi talab qilinadi.

Xalqaro xususiy munosabatlarni tartibga solishda odatlardan foydalanish uchun ular kundalik xalqaro tarkib topgan, keng miqyosda azaldan va doimo qo'llanib kelingan, xalqaro jamoatchilik tomonidan tan olingan, lekin qonunda nazarda tutilmagan bo'lishi kerak. Bunday odatlar nazariy jihatdan, shuningdek amaliyotda ham xalqaro xususiy huquqning manbayi sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etiladi.

Davlatlarning mustaqillik va teng huquqlik tamoyillariga asoslangan odatlar barcha mamlakatlar uchun majburiy hisoblanadi. Boshqa masalalar, xususiy ahamiyatga ega bo'lgan odatlar faqat ularni biron-bir shaklda tan olgan davlatlar uchun majburiy bo'lishi mumkin.

Xalqaro-huquqiy odatlardan tashqari savdo odatlari ham mavjud, ulardan mamlakatlar tomonidan xalqaro savdo va ayniqsa, dengiz orqali savdo sohalarida keng miqyosda foydalaniladi. Xalqaro tijorat arbitraj sudlarida sodir bo'lgan nizolarni hal qilishda mavjud savdo odatlari hisobga olinadi.

Xalqaro savdo amaliyotida qabul qilingan odatlar arbitraj sudi tomonidan quyidagi holatlarda qo'llaniladi: agar bunday qo'llash shartnomada ko'rsatilib, nizo ushbu shartnoma yuzasidan vujudga kelgan bo'lsa; agar tegishli nizoli huquqiy munosabatga nisbatan odatni qo'llash haqida bevosita huquq normasida nazarda tutilgan bo'lsa; agar odat qoidalarini qo'llash nizo taraflari bo'lgan davlatlar tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarga asoslangan bo'lsa, shuningdek, agar odat qoidalarini qo'llash huquqiy norma yoki shartnomada ham ko'rsatilmagan bo'lib, nizoli munosabatning vujudga kelish sharoiti va uning xususiyatlariga ko'ra odat qoidalarini qo'llash nizoli taraflar uchun maqsadga muvofiq va xalqaro munosabatlarda inkor qilinmagan bo'lsa.

Xalqaro odatning tabiati Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro Sudining Statusi, ya'ni maqomining 38-moddasida o'z ifodasini

topadi. BMT Ustavining ajralmas qismi bo'lgan ushbu hujjatda xalqaro odat amaliyotda sinovdan o'tgan va huquq normasi sifatida umume'tirof etilgan qoida sifatida tavsiflanadi.

Davlatlar o'rtasida mazmuni va shakli jihatdan bir xil bo'lgan munosabatning ko'p yillar davomida doimo takrorlanib turishi natijasida odatga aylangan harakatlar, shartlar yuzaga kelib chiqishi va ularga rioya qilish ham an'anaga aylanib qoladi.

Xalqaro xususiy huquq manbayi hisoblangan odatlar ko'proq moddiy-huquqiy xarakterga ega. L.A.Luns Xalqaro xususiy huquq sohasiga ma'lum bo'lgan odatlarning mazmunini talqin qilgan ekan, qonunlar kolliziyasi juda ham kam masalalar bo'yicha xalqaro xususiy huquq manbayi hisoblangan odatlarga asoslanishi, Kollizion huquqda ba'zi istisnolardan tashqari, xalqaro odatning ahamiyati bevosita davlatning suvereniteti bilan bog'liq normalar bilan cheklanishi haqida ta'kidlab o'tadi⁹.

Savdo sohasidagi odatlarning tashkil topishida tadbirkor xatti-harakati, ularning yozilmagan qoidalarga amal qilish uchun bildirgan xohish va harakatlari birinchi o'rinda turadi. Odat qoidalarini vujudga keltirishda davlat tomonidan tan olingan va tasdiqlangan sud, arbitraj amaliyoti, shuningdek odat normalarini norasmiy ravishda kodifikatsiya qiluvchi xalqaro nodavlat tashkilotlarining faol harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tomonidan tayyorlangan va ixtiyoriy ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar to'plami, agar ularga shartnomada havola qilingan bo'lsa, taraflar tomonidan qo'llaniladi.

Xalqaro savdo sohasida ko'proq obro'ga ega bo'lgan kodifikatsiyalar qatoriga Parijdagi Xalqaro savdo palatasi (XSP) tomonidan tayyorlangan savdo atamalarini sharxlashning xalqaro qoidalari – INKOTERMS kiradi. 2000-yilning 1-yanvaridan boshlab 2000-yil INKOTERMSi harakat qiladi.

Xalqaro savdo palatasi tomonidan hujjatli akkreditivlar uchun birlashtirilgan qoida va odatlar va inkasso bo'yicha bixillash tirilgan qoidalar tayyorlangan. Bulardan farqli o'laroq, XSPning 1978-yildagi shartnomalar kafolatlari bo'yicha bixillash tirilgan qoidalarda mijozning birinchi talabi bilan bankning kafolatlari kiritilgan edi. Shuning uchun 1992-yilda XSPsi tomonidan birinchi talab bo'yicha kafolat uchun bixillash tirilgan qoidalar qabul qilindi.

⁹ Луни Л.А. Курс международного частного права. 3 томлик. 1 том. Умумий қисм. –М.: 1973. –С.103.

5-§. Odatlarning ahamiyati

Muayyan xalqaro ommaviy yoki xususiy munosabatlarni tartibga solish uchun tegishli huquqiy normalar bo'lmagan taqdirda, ularga nisbatan odat bo'lib qolgan qoidalar qo'llanadi. Bunday qo'llash umume'tirof etilgan xalqaro huquq manbalarida nazarda tutilgan normalarga, qoidalarga, xalqaro shartnomalarga zid bo'lmasligi talab qilinadi.

Xalqaro xususiy munosabatlarni tartibga solishda odatlardan foydalanish uchun ular kundalik xalqaro tarkib topgan, keng miqyosda azaldan va doimo qo'llanib kelingan, xalqaro jamoatchilik tomonidan tan olingan, lekin qonunda nazarda tutilmagan bo'lishi kerak. Bunday odatlar nazariy jihatdan, shuningdek amaliyotda ham xalqaro xususiy huquqning manbayi sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etiladi.

Davlatlarning mustaqillik va teng huquqlik tamoyillariga asoslangan odatlar barcha mamlakatlar uchun majburiy hisoblanadi. Boshqa masalalar, xususiy ahamiyatga ega bo'lgan odatlar faqat ularni biron-bir shaklda tan olgan davlatlar uchun majburiy bo'lishi mumkin.

Xalqaro-huquqiy odatlardan tashqari savdo odatlari ham mavjud, ulardan mamlakatlar tomonidan xalqaro savdo va ayniqsa, dengiz orqali savdo sohalarida keng miqyosda foydalaniladi. Xalqaro tijorat arbitraj sudlarida sodir bo'lgan nizolarni hal qilishda mavjud savdo odatlari hisobga olinadi.

Xalqaro savdo amaliyotida qabul qilingan odatlar arbitraj sudi tomonidan quyidagi holatlarda qo'llaniladi: agar bunday qo'llash shartnomada ko'rsatilib, nizo ushbu shartnoma yuzasidan vujudga kelgan bo'lsa; agar tegishli nizoli huquqiy munosabatga nisbatan odatni qo'llash haqida bevosita huquq normasida nazarda tutilgan bo'lsa; agar odat qoidalarini qo'llash nizo taraflari bo'lgan davlatlar tomonidan tuzilgan xalqaro shartnomalarga asoslangan bo'lsa, shuningdek, agar odat qoidalarini qo'llash huquqiy norma yoki shartnomada ham ko'rsatilmagan bo'lib, nizoli munosabatning vujudga kelish sharoiti va uning xususiyatlariga ko'ra odat qoidalarini qo'llash nizoli taraflar uchun maqsadga muvofiq va xalqaro munosabatlarda inkor qilinmagan bo'lsa.

Xalqaro odatning tabiati Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro Sudining Statusi, ya'ni maqomining 38-moddasida o'z ifodasini

topadi. BMT Ustavining ajralmas qismi bo'lgan ushbu hujjatda xalqaro odat amaliyotda sinovdan o'tgan va huquq normasi sifatida umume'tirof etilgan qoida sifatida tavsiflanadi.

Davlatlar o'rtasida mazmuni va shakli jihatdan bir xil bo'lgan munosabatning ko'p yillar davomida doimo takrorlanib turishi natijasida odatga aylangan harakatlar, shartlar yuzaga kelib chiqishi va ularga rioya qilish ham an'anaga aylanib qoladi.

Xalqaro xususiy huquq manbayi hisoblangan odatlar ko'proq moddiy-huquqiy xarakterga ega. L.A.Luns Xalqaro xususiy huquq sohasiga ma'lum bo'lgan odatlarning mazmunini talqin qilar ekan, qonunlar kolliziyasi juda ham kam masalalar bo'yicha xalqaro xususiy huquq manbayi hisoblangan odatlarga asoslanishi, Kollizion huquqda ba'zi istisnolardan tashqari, xalqaro odatning ahamiyati bevosita davlatning suvereniteti bilan bog'liq normalar bilan cheklanishi haqida ta'kidlab o'tadi⁹.

Savdo sohasidagi odatlarning tashkil topishida tadbirkor xatti-harakati, ularning yozilmagan qoidalarga amal qilish uchun bildirgan xohish va harakatlari birinchi o'rinda turadi. Odat qoidalarini vujudga keltirishda davlat tomonidan tan olingan va tasdiqlangan sud, arbitraj amaliyoti, shuningdek odat normalarini norasmiy ravishda kodifikatsiya qiluvchi xalqaro nodavlat tashkilotlarining faol harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tomonidan tayyorlangan va ixtiyoriy ahamiyatga ega bo'lgan qoidalar to'plami, agar ularga shartnomada havola qilingan bo'lsa, taraflar tomonidan qo'llaniladi.

Xalqaro savdo sohasida ko'proq obro'ga ega bo'lgan kodifikatsiyalar qatoriga Parijdagi Xalqaro savdo palatasi (XSP) tomonidan tayyorlangan savdo atamalarini sharxlashning xalqaro qoidalari – INKOTERMS kiradi. 2000-yilning 1-yanvaridan boshlab 2000-yil INKOTERMSi harakat qiladi.

Xalqaro savdo palatasi tomonidan hujjatli akkreditivlar uchun birlashtirilgan qoida va odatlar va inkasso bo'yicha bixillash tirilgan qoidalar tayyorlangan. Bulardan farqli o'laroq, XSPning 1978-yildagi shartnomalar kafolatlari bo'yicha bixillash tirilgan qoidalarda mijozning birinchi talabi bilan bankning kafolatlari kiritilgan edi. Shuning uchun 1992-yilda XSPsi tomonidan birinchi talab bo'yicha kafolat uchun bixillash tirilgan qoidalar qabul qilindi.

⁹ Луниц Л.А. Курс международного частного права. 3 томлик. 1 том. Умумий қисм. –М.: 1973. –С.103.

Yuqorida keltirilgan XSP tomonidan tayyorlangan qoidalar va shuningdek, 1994-yilda Xalqaro dengiz komiteti tomonidan tayyorlangan umumiy avariya bo'yicha York-Antverpen qoidalarining huquqiy ahamiyatiga baho berilishi bilan, ularning nodavlat darajasida amalga oshiriladigan xalqaro savdo odatlari sifatida qabul qilinishi kerakligi ko'zda tutiladi¹⁰. Tovarlarini xalqaro oldi-sotdi sohasida odat qoidalariga havola qilish tovarlarini xalqaro oldi-sotdisi to'g'risidagi BMT 1980-y. Konvensiyasining 9-moddasiga asoslanadi. Ushbu moddaga muvofiq, taraflar o'zlari shunga kelishgan va amaliyotda ular o'zaro munosabatlarida qo'llanib kelingan har qanday odat bilan bog'liqdirlar (demak rioya qilishga majburdirlar).

Savdo odatlarini qo'llash haqida chet el savdo arbitraji to'g'risidagi 1961-yildagi Yevropa Konvensiyasida, YUNSI TRAL Arbitraj reglamenti, BMTning YEEK (Yevropa iqtisodiy komissiyasi) Arbitraj reglamenti qoidalarida ham nazarda tutiladi.

«Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida»gi Rossiya Federatsiyasi Qonuni 28-moddasining 3-qismiga muvofiq (treteyskiy) xolislar sud qarorini barcha hollarda shartnoma shartlariga muvofiq va muayyan bitimga to'g'ri keladigan savdo odatlarini hisobga olgan holda qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi ichki davlat qonuni sifatida xalqaro xususiy huquq manbasi hisoblanadi. Shunday ekan uning 6-moddasida «Ish muomalasi odatlari. Mahalliy odat va an'analar» to'g'risida nazarda tutilgan qoidalar chet el elementlari bilan murakkablashgan fuqarolik huquqiy munosabatlarga, ya'ni xalqaro xususiy munosabatlarga taalluqlidir. Ushbu moddaga muvofiq tadbirkorlik faoliyatining biron-bir sohasiga mos kelgan va keng qo'llaniladigan, qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan xulq-atvor qoidasi, biron-bir hujjatda yozilganligi yoki yozilmaganligidan qat'i nazar, ish muomalasi odati deb hisoblanadi. Demak odat bu keng ko'lamda takror qo'llanib kelgan, jamoatchilik, shuningdek xalqaro munosabatlarning ma'lum turlari, chunonchi, tadbirkorlik faoliyati sohasida uning ishtirokchilari tomonidan tan olinishi rasm-rusum bo'lib qolgan xulq-atvor qoidalaridan iborat. Shunday ekan, bir davlat hududida yoki xalqaro miqyosda ma'lum shaxslar o'rtasida o'zaro kelishilgan holda alohida o'rnatilgan va ularning

¹⁰ Зыкин И.С. Внешнеэкономические операции: право и практика. –М.: Международные отношения. 1994. –С.240-241.

manfaatlari uchun maqsadga muvofiq deb hisoblangan va qabul qilingan tartibni ish muomalasi odatlari deb bo'lmaydi. Bunday shaxsiy munosabatlarda o'rnatilgan tartib mazmun jihatdan qandayligidan qat'i nazar, ko'pchilikning manfaatlari uchun javob beradigan va odat sifatida e'tirof etiladigan umumiy qoidadan farq qiladi. Binobarin odat tushunchasi keng ma'noda talqin qilinishi lozim.

Ish muomalasi odatlari yoki mahalliy urf-odat yozma shaklda ifodalangan bo'lishi shart emas. Lekin tadbirkorlik sohasida bunday hujjatlar yo'q ham emas. Masalan, O'zbekiston Savdo palatasi tomonidan ish muomalasi odatlari o'rganiladi va manfaatdor shaxslarga ma'lum qilish uchun nashr etiladi. Shartnomalarning namunaviy shartlari e'lon qilinishini ham yozma shakldagi ish muomalasi odatlaridan iborat deb hisoblash mumkin (FKning 359-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi FKning ko'pgina moddalarida ko'rsatilganidek, agar taraflarning munosabatlari qonun normalari va shartnomada belgilangan bo'lmasa, ish muomalasi odatlarini qo'llash nazarda tutiladi (236, 238, 243, 246 va boshqa moddalar), shartnomaning shartlarini sharhlashda ham ish muomalasi odatlari e'tiborga olinadi (363-modda). FKning 354-moddasi 7-qismida nazarda tutilgan qoidaga binoan, agar shartnoma shartlari taraflar o'rtasidagi kelishuv yoki dispozitiv norma bilan belgilab qo'yilgan bo'lmasa, tegishli shartlar qo'llanishi mumkin bo'lgan ish muomalasi odatlari bilan belgilanadi.

Demak, O'zbekiston Respublikasida xalqaro xususiy huquqning manbalari sifatida xalqaro shartnomalar, ichki davlat qonunlari va xalqaro odat tan olinadi. Bizda sud va arbitraj praktikasi, shuningdek ilmiy ta'limot (doktrina) xalqaro xususiy huquqning manbayi deb hisoblanmaydi.

II BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va umume'tirof etilgan tamoyillar xalqaro xususiy huquq normalarida qanday darajada mujassam topgan?

2. Xalqaro xususiy huquq manbalari tushunchasini qanday ta'riflash mumkin?

3. Sud va arbitraj amaliyotining xalqaro xususiy huquq uchun ahamiyati nimalardan iborat?

4. Xalqaro xususiy huquq manbalarining tashkil topishida xalqaro shartnomalar qanday ahamiyatga ega?

5. Ichki davlat qonunlarining turlari va ularning xalqaro xususiy huquq sohasida tutgan o'rni nimalardan iborat?

6. Xalqaro xususiy huquq sohasida qonun ustuvorligi qanday ravishda namoyon bo'ladi?

7. Qaysi davlatlarda xalqaro xususiy huquq kofidifikatsiya qilingan?

8. Xalqaro odat deganda nimani tushunasiz va odatlar qanday holatlarda qo'llaniladi?

9. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ish muomalasi odatlari va mahalliy odat va an'analar haqida qanday qoidalar nazarda tutilgan.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Ануфриева Л.П. Об источниках международного частного права (некоторые вопросы теории). Московский журнал Международного права. 1994. №4.

2. Белов А.П. Международные договоры и иные документы по вопросам внешнеэкономической деятельности. Право и экономика. 1997. №7-8.

3. Венская конвенция о праве международных договоров. Комментарий. –М.: Юридическая литература, 1997. Составитель и автор комментариев А.М.Талалаев.

4. Дмитриева Г.К., Филимонова М.В. Международное частное право. Действующие нормативные акты. –М.: 1999.

5. Звеков В.П. Международное частное право. Курс лекций. – М.: Издательство НОРМА. 2000.

6. Зыкин И. С. Обычай и обыкновения в международной торговле. –М.: 1983.

7. Карташкин В.А. Права человека в международном частном и внутригосударственном праве. –М.: 1995.

8. Лукашук И.И. Международное право в судах государств. Санкт-Петербург, 1993.

III BOB

KOLLIZION VA MODDIY-HUQUQIY NORMALAR

1-§. Kollizion norma tushunchasi va ahamiyati

Chet el elementlari bilan murakkablashgan mulkiy va shaxsiy munosabatlarga nisbatan qo'llanishi lozim bo'lgan huquq normalarining mohiyatini talqin qilish va ularning qo'llanishi xususiyatlarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Davlatlar, jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi aloqalarning so'nggi yillarda nihoyatda keng miqyosda avj olishi ushbu aloqalarning huquqiy qoidalarini o'rganishni asosiy vazifalardan biri qilib qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi bilan yaqindan amaliy aloqa o'rnatmoqchi bo'lgan davlatlar va yuridik shaxslarning soni yildan yilga tobora oshib bormoqda, O'zbekiston hududiga tashrif buyuruvchi jismoniy shaxslarning soni ham borgan sari ko'paymoqda. Xalqaro aloqalarning kengayishi natijasida sud, arbitraj, notariat, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etuvchi va boshqa davlat organlari o'z faoliyatlarida xalqaro xususiy huquqning murakkab muammolariga duch kelmoqdalar, kollizion normalar va ularni qo'llash bilan bog'liq qoidalar shunday murakkab va muhim muammolardan hisoblanadi.

Kolliziya – lotincha to'qnashuvchi ish degan ma'noni beradi. Lekin ushbu atama shartli xarakterga ega. Aslida qonunlar kolliziyasi, ya'ni ular o'rtasida qo'llanishi zarur bo'lgan qoidani tanlash haqida gap yuritiladi. Sud yoki boshqa organ tomonidan turli davlatlar qonunlarini o'rganish, izohlash va qiyoslash yo'li bilan chet el elementi bilan murakkablashgan munosabatga nisbatan tegishli huquq normasini qo'llash to'g'risidagi masalaning hal qilinishi, xalqaro mulkiy va shaxsiy munosabatlarni to'g'ri tartibga solish uchun muhim ahamiyatga ega. Kollizion muammo – u yoki bu huquqiy munosabatga nisbatan qo'llash uchun tegishli bo'lgan huquqni tanlash muammosidan iborat. Kollizion normalar boshqa huquq sohalari normalariga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Lekin ular xalqaro xususiy huquqning

mazmunini tashkil qiladi va moddiy-huquq sohalaridagi to'qnashuvlarni bartaraf qilishda asosiy vazifani bajaradi.

Kollizion norma muayyan munosabatga nisbatan qaysi davlatning huquqi qo'llanishi mumkinligini ko'rsatib turadi. Kollizion normaning boshqa huquq sohaları normalaridan asosiy farqi shundan iboratki, uning vositasida qo'llanishi uchun kerak bo'lgan huquqni ko'rsatish yo'li bilan kollizion muammo bartaraf qilinadi. Masalan, Fransiyaning qonuni bo'yicha 18 yoshga to'lgan qiz ota-onasining roziligisiz nikohdan o'tish huquqiga ega emas, O'zbekiston qonuni bo'yicha 18 yoshga to'lgan erkak yoki 17 yoshga to'lgan ayol ixtiyoriy ravishda nikoh tuzishlari mumkin. Chet el fuqarosi bilan O'zbekiston fuqarosi o'rtasida tuziladigan nikohning shartlari O'zbekiston qonunlari bilan belgilanadi. Agar O'zbekistonga tashrif buyurgan fransuz qiz O'zbekiston yigiti bilan ota-onasining roziligisiz nikohdan o'tgan bo'lsa, bunday nikoh qanday baholanishi kerak, ya'ni u haqiqiy yoki haqiqiy emas, deb topilishi kerakmi. O'zbekiston qonuni bo'yicha haqiqiy, lekin Fransiya qonuni bo'yicha buning aksi, chunki qiz ota-onasining roziligini olgan emas. Bunday holatda fransuz qizini O'zbekistonda nikohdan o'tkazish, ya'ni ushbu nikohni qayd qilish uchun Fransiya qonunini qo'llash talab qilinmaydi. Bordiyu fransuz qizi o'z vataniga qaytib borganidan so'ng nikohdan ajralmoqchi bo'lsa, buning uchun Fransiya qonuniga asosan ota-onasining roziligini olmaganligi asos bo'lishi mumkin. Demak, bunday holatlarda kollizion normani aniqlash va uning yordamida tegishli davlat huquqini qo'llash talab qilinadi. Nikoh O'zbekiston hududida tuzilgani uchun u O'zbekiston qonuniga asosan qayd qilinadi, nikohni bekor qilish esa Fransiya qonuniga binoan Fransiyada amalga oshirilishi mumkin.

Demak, kollizion norma o'z holicha masalani oxirigacha hal qilmaydi, u tegishli qoida nazarda tutilgan qonunning moddiy normalariga havola qiladi, ya'ni ko'rsatib beradi. Bunday moddiy normalar qonun osti hujjatlar emas, balki faqat kollizion normalarning manbayi hisoblanuvchi qonunlarda nazarda tutilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida bunday qonunlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Havo kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeks va konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa qonunlar kiradi.

Demak, kollizion norma – bu tegishli huquqiy munosabatga nisbatan qaysi davlatning huquqini qo'llash kerakligini belgilab beruvchi normadan iborat. Kollizion norma havola qiluvchi, ko'rsatib beruvchi norma xarakteriga ega bo'lganligi tufayli, undan faqat bironta moddiy-huquqiy norma, ya'ni masalani hal qilishga qaratilgan qonunning moddiy-huquqiy normasi bilan birgalikda foydalanish mumkin. Kollizion norma bilan moddiy-huquqiy normalar birgalikda huquqiy munosabatlarda qatnashuvchilar uchun tegishli bo'lgan xatti-harakat qoidalarini yaratadi. Xalqaro xususiy huquq tarkibida kollizion va moddiy-huquqiy normalarni birlashtirish ikki xil metod (usul) yordamida, lekin xarakteri jihatdan bir xil bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro xususiy huquqning tarkibiga xalqaro bitimlar normalari bilan birgalikda chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish uchun maxsus qabul qilingan ichki davlat qonunlarining normalari ham kiradi. Bunday huquq normalari qatoriga, masalan: a) tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar; b) chet el investorlari ishtirokida birgalikda tashkil qilingan korxonalarining huquqiy maqomini belgilovchi normalar; d) chet el investitsiyasi bo'yicha o'rnatilgan tartib va O'zbekiston korxonalarining chet el investitsiyasi bilan birgalikda faoliyatini belgilovchi normalar kiradi.

Yuqorida keltirilgan va shunga o'xshash boshqa huquqiy normalarda chet el elementi bilan bog'liq munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini bevosita belgilashga qaratilgan ko'rsatmalar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro jamoatchilikda mustaqil huquq subyekti sifatida tan olinishi tufayli xalqaro shartnomalar, bitimlardagi moddiy-huquqiy normalarning ko'lamini uning ichki davlat qonunlarida yildan-yilga ortib bormoqda. Bunday normalarga nisbatan adabiyotlarda bevosita normalar («прямые нормы»), bevosita tartibga solish metodi («прямой метод регулирования») degan atamalar ishlatiladi. Ushbu atamalar asosan «kollizion norma», «kollizion metod» degan atamalarga qarama-qarshi solishtirish maqsadida qo'llanilmoqda. Bevosita tatbiq qilinadigan normalarning ahamiyati juda ham muhim, chunki ular tufayli xalqaro shartnomalarda qatnashuvchi taraflar uchun yagona qoida o'rnatiladi va tegishli aniq masalalar bir xil tartibda hal qilinadi. Lekin kollizion normalarning rolini inkor qilib bo'lmaydi. Chunki

har bir davlatning qonunlarida ushbu davlatning ijtimoiy va iqtisodiy sharoitining rivojlanish darajasi, jamiyat tizimida va uni boshqarishda demokratik shakllarining tarkib topishi, xalqning urf-odati, mentaliteti va ijtimoiy hayotning boshqa qirralari o'z aksini topadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 17-moddasining 2-qismiga muvofiq «Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlarini, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish va ulardan ajralib chiqishi mumkin». Har bir davlat o'z manfaatlarini ko'zlab xalqaro munosabatlarda qatnashadi, boshqa davlatlar bilan turli sohada aloqalar o'rnatadi.

Muayyan davlat iqtisodiyotini, madaniyatini boshqa davlatlarniki bilan solishtirilganda aynan o'xshash bo'lmaganidek va uning manfaatlarini boshqa davlatlar manfaati bilan mos kelmaganidek, qonunlarida ham bir xillikni ta'minlash va buni talab qilish murakkab masalalardan hisoblanadi. Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va hamdo'stlik, jamiyat rivojlanishida tenglikka erishish asosiy maqsad qilib qo'yilishidan qat'i nazar, ijtimoiy hayot sohasidagi va uning mahsuli bo'lgan qonunchilik sohasidagi mavjud tafovutlarni mutlaq bartaraf qilish uchun vaqt kerak. Shunday ekan, har bir davlatning qonun-qoidalarida o'ziga xos xususiyatlar o'z ifodasini topadi. Ular o'rtasida aloqalar o'rnatilgan ekan ularning manfaatlarini ko'zda tutilgan qonun-qoidani inobatga olmasdan bo'lmaydi. Bunday manfaatlariga putur yetkazmaslik, ularni bir-biriga yaqinlashtirish va umumiy manfaatga erishish maqsadida kollizion normalar muayyan masala bo'yicha mavjud bo'lgan turli davlatlar qonun normalari o'rtasidagi nomuvofiqlikni, to'qnashuvni kamaytirish va bartaraf qilishda muhim vazifani bajaradi.

2-§. Xalqaro xususiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda moddiy-huquqiy normalarning tutgan o'rni va ahamiyati

Savdo, ishlab chiqarish, fan-texnika, transport va turli davlatlar tashkilotlari, kompaniyalari, firmalari o'rtasidagi aloqalarni tartibga solish uchun bir xil moddiy-huquqiy normalarni yaratishga urinish faqat davlatlarning ichki qonunlarida tafovutlarni, ziddiyatlarni bartaraf qilish zaruratidan ko'ra ko'proq tobora rivojlanib borayotgan turli sohadagi xalqaro munosabatlarni tartibga solishda davlatlar ichki qonunlarining talabga javob bermay qo'yanligi bilan izohlanadi.

Moddiy-huquqiy normalar o'z mohiyati jihatidan mazmuni bo'yicha bir xil qoidalardan tashkil topadi va xalqaro xususiy munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni ushbu munosabatlarni bevosita, kollizion normalarning ishtirokisiz tartibga solishni ta'minlaydi. Moddiy-huquqiy normalar yordamida davlatlararo mulkiy, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda barqarorlik o'rnatiladi, turli davlatlar jismoniy va yuridik shaxslarining huquqiy maqomini belgilashda, ular tomonidan yo'l qo'yilgan huquqbuzarlik uchun javobgarlikning asoslarini, doirasini aniqlashda yengillik tug'diradi. Moddiy-huquqiy normalarning obyektlari mulkiy, mehnat va oilaviy munosabatlardan iborat bo'lishi mumkin.

Moddiy-huquqiy normalarga xos bo'lgan qoidalarni birxillashtirish xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan ma'lum sohadagi munosabatlarni maxsus tartibga solish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday birxillikni ta'minlash uchun ma'lum masalalar bo'yicha maxsus Konvensiyalar qabul qilinadi. Masalan, 1929-yilda Varshavada imzolangan shartnoma bo'yicha Havo orqali xalqaro tashishga taalluqli ayrim qoidalarni birxillashtirishga doir Konvensiya qabul qilindi. Ushbu Konvensiyaga 1955-yil 28-sentabrda Gaagada tuzilgan Protokol bilan o'zgartirishlar kiritildi. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan Konvensiyaga va Protokolga qo'shilish haqida 1996-yil 27-dekabrda qaror qabul qilindi.

Xalqaro shartnoma, bitimlar tuzish yoki ularga va Konvensiyalarga qo'shilish shuningdek, ularni ratifikatsiya qilish ham turli xil munosabatlarga oid qoidalarni ma'lum darajada birxillashtirishga olib keladi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi faol ishtirok etmoqda.

Hozirgi sharoitda ko'pchilik mamlakatlar bir xil bo'lgan moddiy-huquqiy normalarni qo'llash doirasini tobora kengaytirish yo'liga o'tib olganlar. Lekin birxillashtirish yo'li bilan xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning barcha masalalarini qamrab olishning iloji yo'q, uning muayyan chegarasi mavjud. ko'p hollarda xalqaro shartnomalarga asoslangan munosabatlarda kollizion normalarni qo'llash samarali natijalar berishi bilan bir qatorda ushbu munosabatlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kollizion normalarni qo'llamaslikning iloji ham yo'q. Fuqarolar ishtirokidagi munosabatlarni tartibda solish umumiy qoida bo'yicha asosan kollizion metod vositasida amalga oshiriladi. Bunday hollarda birxillashtirilgan kollizion normalardan foydalanish ham mumkin,

chunki birxillashtirish faqat moddiy-huquqiy normalar emas, balki kollizion normalarga ham xosdir. Fuqarolik, oilaviy, jinoyat ishlari masalalari bo'yicha huquqiy yordam berish to'g'risida tuzilgan shartnomalar va kelishuvlarda ham birxillashtirilgan kollizion normalar mavjud.

Kollizion metod asosida tartibga solishning zaruriyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, moddiy-huquqiy normalarni birxillashtirish jarayonida qoidasiz, normasiz ochiq qolgan munosabatlarni tartibga solish uchun yordamchi yoki qo'shimcha me'yor sifatida foydalanish uchun, ikkinchidan, xalqaro hamkorlikning alohida sohalarida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solish va uni amalga oshirishda asosiy qoida sifatida qo'llash uchun, uchinchidan, ba'zi sabablarga ko'ra moddiy-huquqiy normalardan foydalanish va ularni qo'llash uchun qiyinchiliklar mavjud bo'lganligi sababli.

Nafaqat xalqaro shartnomalar, shuningdek, ichki davlat qonun normalari ham moddiy-huquqiy xarakterga ega. Ichki davlat qonun normalari birinchi galda chet el elementi bilan murakkablashgan va ularni tartibga solish uchun umumiy huquq normalari javob berolmaydigan munosabatlarni tartibga solish uchun qo'llaniladi. Bu o'rinda ichki davlat qonuni maxsus xalqaro xususiy munosabatlarni tartibga solish uchun qaratilgan hollar nazarda tutilmoqda. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasida va Sobiq Chexo-Slovakiyada xalqaro xo'jalik shartnomalari to'g'risida maxsus qonun qabul qilingan. Agar Chexoslovakiya qonuni bo'yicha uning normalarini qo'llash kollizion norma yoki taraflarning kelishuvi asosida amalga oshirilishi mumkinligi ko'zda tutilgan bo'lsa, Xitoy Xalq Respublikasining qonunida ushbu davlatning huquq subyektlari chet el davlati shaxslari ishtirokida tuziladigan barcha shartnoma munosabatlariga nisbatan qo'llanishi zarurligi nazarda tutiladi.

Xalqaro xususiy huquq manbayi sifatida moddiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning alohida sohalarida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qonunlar O'zbekiston Respublikasida ham qabul qilindi. Bular jumlasiga umumiy qoidalar nazarda tutilgan 2000-yil 26-mayda yangi tahriri tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi Qonuni kiradi. Ushbu Qonun mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining huquqlari, manfaatlari va mol-mulki xalqaro

huquqning hamma tomonidan e'tirof etilgan normalariga muvofiq davlat tomonidan muhofaza qilinishini ta'minlaydi. Ushbu qonun tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari deb xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlikni, tashqi savdo faoliyatini, chet el investitsiyalarini jalb qilish, O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyatini belgilaydi. Qonunning 2-moddasida O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish ichki davlat qonunlari bilan bir qatorda O'zbekistonning xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinishi nazarda tutiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish natijasida kelib chiqqan nizolar shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal etiladi (30-modda).

1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida»gi Qonunida ham bankning tashqi iqtisodiy faoliyati haqida maxsus qoidalar nazarda tutiladi. Qonunning 9-moddasiga muvofiq markaziy bankning boshqa davlatlar banklari va kredit muassasalari bilan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek banklar bitimlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ba'zi davlatlarda investitsiyaga bag'ishlangan maxsus Kodeks yoki chet el investitsiyalari haqida qonunlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi ham bu masalaga alohida e'tibor bergan holda 1998-yil 30-aprelda «Chet el investitsiyalari to'g'risida» va «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish to'g'risida» Qonunlarni qabul qildi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga Ko'maklashish maqsadida chet elning moliyaviy, moddiy, intellektual va boshqa resurslarini, xorijning zamonaviy texnologiyasi va boshqaruv sohasidagi tajribasini jalb etishga va ulardan omillik bilan foydalanishga qaratilgandir. Ushbu Qonunning o'ziga xos muhim alomati shundan iboratki, uning 15-moddasiga muvofiq chet el investitsiyalari turli, ya'ni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tabiat xavf-xatarlarining yuz berishidan sug'urta qilinadi, chet el investorlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan kafolatlar nazarda tutiladi.

1998-yil 25-dekabrda qabul qilingan «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunda ham chet el elementlariga oid munosabatlar haqida qoidalar nazarda tutiladi. Qonunning 1-moddasi 3-qismiga binoan chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish chegaralari faqat O'zbekiston qonun hujjatlari bilan

emas, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan ham tartibga solinadi. Mazkur moddaning 4-qismiga binoan, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. Xuddi shunga o'xshash qoida «Chet el investitsiyalari to'g'risida» va «Chet ellik investorlarning huquqlari va ularni himoya qilish kafolatlari to'g'risida»gi Qonunlarning 2-moddalarida ham nazarda tutiladi.

O'zbekistonning yuqorida keltirilgan tashqi iqtisodiy faoliyat banki, chet el investorlari va boshqa chet el bilan bog'liq moddiy-huquqiy qonunlari chet el elementlari bilan murakkablashgan munosabatlarni tartibga solishga mo'ljallanadi. Ushbu munosabatlar ichki davlat qonunlari, masalan, «Chet el investitsiyalari» va «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish to'g'risida»gi va ayniqsa ularda nazarda tutilgan va faqat ushbu munosabatlarning xususiyatlari maxsus ifoda etilgan investitsiyalarni sug'urta qilish haqidagi normalar bilan tartibga solinishi mumkin. Lekin bunday tartibga solish xalqaro shartnomaga mos kelishi kerak, aks holda bevosita xalqaro shartnomaning qoidalari tatbiq qilinadi.

Yuqorida keltirilgan ichki davlat qonunlari va ushbu qonunlarning obyektini hisoblanuvchi munosabatlar bo'yicha O'zbekistonning xalqaro shartnomalari o'z ahamiyati bo'yicha moddiy-huquqiy metod sifatida chet el elementlari bilan murakkablashgan munosabatlarni bevosita tartibga soladi.

Ichki davlat qonunlari bunday murakkablashgan munosabatlarga nisbatan, agar ularda xalqaro shartnomalardagilarga nisbatan boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, bevosita qo'llanishi mumkin. Bu yerda chet el elementlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishda xalqaro shartnomalarning ustunligi hisobga olinadi va uning to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita qo'llanishi nazarda tutiladi.

Chet el elementlari bilan murakkablashgan munosabatlarni tartibga solishning moddiy-huquqiy metodining ustunligini quyidagicha izohlash mumkin:

a) ushbu metoddan foydalanish uchun tuzilgan moddiy-huquqiy normalar o'z mazmuniga ko'ra chet el elementi bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy munosabatlarni bevosita tartibga solishga qaratiladi.

Ushbu metod vositasida maxsus munosabatlarning xususiyatlariga mos keladigan va ushbu munosabatlarni to'liq qamrab oladigan va ularga aynan o'xshash qoidalar yordamida tartibga solish nazarda tutiladi. Bunday tartibga solishda kollizion metodga o'xshab u yoki bu davlatlar qonunlarida mujassam topgan qoidalarga havola qilinmaydi, masala to'g'ridan-to'g'ri moddiy-huquqiy norma asosida hal qilinadi, juda ham kam holatlarda fuqarolik, oilaviy va boshqa munosabatlarni to'laligicha tartibga solish uchun umumiy norma sifatida tashkil topadi. Bunga misol tariqasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi o'rtasida 1993-yilda Minskda qabul qilingan O'zbekiston tomonidan 1993-yil 6-mayda ratifikatsiya qilingan «Fuqarolik, oilaviy, jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida»gi Konvensiyani keltirish mumkin. Ushbu Konvensiya muayyan davlatlar o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnomadan iborat bo'lishiga qaramay unda umumiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalarning tartibga solinishi nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, moddiy-huquqiy metod vositasida maxsus tartibga solish, kollizion metod vositasida esa umumiy tartibga solish qoidalari qo'llaniladi. Masalan, yuqorida keltirilgan O'zbekistonning chet el investitsiyalariga bag'ishlangan Qonunlarining normalari moddiy-huquqiy xarakterga ega bo'lib, metod sifatida ular ushbu qonun maqsadiga taalluqli bo'lgan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Fuqarolik Kodeksining VI bo'limida nazarda tutilgan kollizion normalar umumiy metod sifatida Fuqarolik kodeksining moddiy-huquqiy normalari bilan nafaqat uning 2-moddasining 1-qismida keltirilgan munosabatlarni va unda keltirilmagan, lekin o'z xususiyatlari bilan ularga monand munosabatlarni Kodeksning moddiy-huquqiy normalari vositasida tartibga solishga yordam beradi, muayyan munosabatlar bo'yicha davlatlar qonun normalarida mavjud nomuvofiqliklarni bartaraf qilishga xizmat qiladi.

b) Moddiy-huquqiy normalarning afzalligi yana shundan iboratki, ularning asosida bevosita tartibga solish metodini qo'llash muayyan munosabatlarning ishtirokchilari uchun ancha qulay bo'lgan aniqlik tug'diradi, ya'ni ular va ularni tatbiq qiluvchi organlar uchun qaysi normaga asosan masalani hal qilish kerakligi oldindan ma'lum bo'ladi. Masalan, 1993-yil 23-dekabrda Ashgabat shahrida imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'lgan davlatlar korxonalari va tarmoqlarining ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning umumiy shart-sharoitlari va

tartibi to'g'risidagi Bitim O'zbekiston Respublikasi tomonidan 1994-yil 6-mayda ratifikatsiya qilindi. Demak, ushbu Bitim shartlari ushbu sanadan boshlab O'zbekiston uchun kuchga kirdi. Ushbu Bitimda nazarda tutilgan shartlar uning taraflari o'rtasida o'zaro kelishilgan va avvaldan ma'lum. Shunday ekan Bitim taraflari o'rtasidagi munosabatlar kollizion metod qo'llanmasdan bevosita tartibga solish metodi asosida amalga oshiriladi.

d) Moddiy-huquqiy normalarni tuzishda bevosita tartibga solish metodini qo'llash huquqiy tartibga solish qoidalarini belgilashda, kollizion metoddan farqli o'laroq, shartnomaning bir tomonlama manfaatga qaratilgan bo'lishidan saqlab qoladi, chunki uning mazmunini tashkil qiluvchi huquq va majburiyatlar, shuningdek uning taraflarining munosabatlarini tartibga soluvchi qoidalar oldindan kelishilgan va belgilangan bo'ladi. Kollizion metod bilan tartibga solishda ikkala tarafning ham manfaatini doimo bir xilda hisobga olib bo'lmaydi. Kollizion normalar xalqaro shartnoma tuzish yo'li bilan yaratilgan taqdirda bu masala qisman hal bo'lishi mumkin, lekin oxirigacha uning yechimini topish qiyin, ikki yoki ko'pchilik davlatlarning ichki qonunlaridagi qarama-qarshiliklarga duch kelish tugamaydi. Muhim iqtisodiy masalalar bo'yicha xalqaro shartnomalar tuzish yo'li bilan munosabatlarni bevosita tartibga solish metodiga o'tish moddiy-huquqiy normalarni bixillashtirish uchun zamin yaratadi. Shuning bilan birga xalqaro xususiy huquq sohasida moddiy-huquqiy normalarning, va ayniqsa, bixillashtirilgan moddiy-huquqiy normalarning yaratilishi kollizion normalarni bixillashtirishga bo'lgan e'tiborni susaytirib yubormaslikni talab qiladi. Chunki Kollizion normalar hozir ham, kelajakda ham xalqaro xo'jalik, savdo, transport munosabatlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi.

3-§. Kollizion normalarni izohlash, sharhlash va tatbiq qilish

1. Huquqiy normalarni to'g'ri, aniq va bir xilda qo'llanish uchun ularga izoh berish, sharhlash maqsadga muvofiq. Izoh davlat organlari, turli tashkilotlar va alohida fuqarolar tomonidan berilishi mumkin. Izoh berishdan asosiy maqsad hayotda yuz bergan munosabatga qo'llanishi zarur bo'lgan huquqiy normaga rasmiy va norasmiy, ilmiy va amaliy ravishda baho berish, uning mazmunini tushunish, anglab yetish va masalani to'g'ri, oqilona hal qilishdan iborat.

Xalqaro xususiy huquq normalarini izohlash ichki davlat qonuni normalariga nisbatan ancha murakkab. Ichki davlat qonuni normalari aksariyat hollarda moddiy-huquqiy xarakterga ega bo'lib, tegishli munosabatlarga nisbatan, yuqorida aytilib o'tilganidek, to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita qo'llaniladi. Xalqaro xususiy huquq normalari kollizion xarakterga ega bo'lganligi tufayli chet el elementlari bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan bevosita emas, balki bilvosita, ya'ni turli davlatlarning huquq normalari asosida ularga amal qilingan holda qo'llaniladi. Bunda bir yo'la turli davlatlarning huquq normalariga, shuningdek ularda bo'lgan to'qnashuvlarni bartaraf qilish vazifasini bajaradigan kollizion normalarga birgalikda izoh berishga to'g'ri keladi. Bu ancha mushkul va muhim masala, uning to'g'ri hal qilinishi xususiy huquq munosabatlarida ishtirok etuvchilarining subyektiv huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq.

Kollizion normani izohlash uchun uning tarkibini tashkil qiluvchi – hajmi va bog'lovchi elementlariga va boshqa barcha yuridik tushunchalari va qoidalariga to'g'ri baho berish kerak. Ba'zan ichki davlat normalariga turlicha tushuncha beriladi, bu kollizion normalarga izoh berishda qiyinchilik tug'diradi.

Kollizion normaning tuzilishi o'z vazifasiga ko'ra moddiy-huquqiy normalardan farq qiladi. Har bir kollizion norma ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismi kollizion normaning hajmi deb ataladi. Ushbu qismida kollizion norma qo'llanishi kerak bo'lgan tegishli huquqiy munosabatlar, ya'ni mulkiy, nomulkiy shaxsiy oilaviy munosabatlar, shartnomaga asoslangan yoki asoslanmagan munosabatlar va boshqa huquqiy munosabatlar haqida gap yuritiladi. Kollizion normaning ikkinchi qismi turli ravishda kollizion bog'lovchi qism deb ataladi. Bog'lovchi-bu muayyan munosabatga nisbatan qo'llanadigan qonunni (huquq tizimini) ko'rsatuvchi qismdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilovchi va bog'lovchi kollizion normalarni quyidagi moddalarda ko'rish mumkin: fuqarolar ishtirokidagi munosabatlarni tartibga solishda jismoniy shaxsning qonuni (FKning 1168-moddasi), jismoniy shaxsning huquq va muomala layoqatiga nisbatan qo'llaniladigan huquq (FKning 1169-moddasi), yuridik shaxsning huquq layoqati (FKning 1176-moddasi), ko'char va ko'chmas mol-mulkka nisbatan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar (FKning 1184-moddasi),

shartnoma tuzish joyiga nisbatan qo'llanadigan huquq (FKning 1189-moddasi), tashqi iqtisodiy bitimga nisbatan qo'llanadigan huquq (FKning 1181-moddasi), ishonchnomaning shakli va amal qilish muddatiga taalluqli huquq (FKning 1182-moddasi), vorislikka doir qo'llanadigan huquq (FKning 1187-moddasi) va hokazo.

Kollizion normalar hajmi bo'yicha qanday munosabatlarga nisbatan qo'llanishi kerakligi haqida bir xil yondashish mavjud emas. Yevropa kontinenti huquqi, ya'ni Roman-german mamlakatlarning huquqiy tizimi bo'yicha da'vo muddati moddiy huquq instituti sifatida baholanadi. O'zbekiston Fuqarolik Kodeksining 12-bobida ham shunga o'xshash baho beriladi. Ushbu davlatlarning moddiy huquq normalari da'vo muddati masalalari bo'yicha kollizion normalarning yuzaga kelishi tan olinadi va kollizion normaga muvofiq da'vo muddatlariga nisbatan O'zbekiston huquqi va chet el mamlakati huquqi normalarini qo'llashga yo'l qo'yiladi. Ammo Angliya-Amerika huquq tizimlarida da'vo muddati moddiy emas, balki protsessual institut sifatida baholanadi. Bunday baho berish natijasida da'vo muddati masalasi kollizion norma qo'llanadigan doiradan tashqariga chiqaziladi va da'vo muddatini hal qilish sud ishini ko'rayotgan mamlakat ixtiyorida bo'lishi nazarda tutiladi. da'vo muddati protsessual huquqi instituti deb qaralar ekan, O'zbekiston sudida da'vo muddati qo'llanishi kerakmi yoki yo'qmi degan savol tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1183-moddasiga muvofiq da'vo muddati mamlakatning tegishli munosabatni tartibga solish uchun qo'llanilayotgan huquqi bo'yicha belgilanadi. Demak, ushbu modda kollizion normaga amal qiladi, da'vo muddatini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining faqat 12-bobidagi qoidalar emas, balki biron-bir, jumladan Angliya huquqi normalari ham qo'llaniladi. 1966-yilda Angliyaning «Xyuson, Chepmen end Ko Ltd» firmasining Sobiq Ittifoqning «Eksportles» birlashmasiga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo bo'yicha ishning Chet el savdo arbitraji komissiyasi tomonidan ko'rinishida Angliyaning qonuni bo'yicha da'vo muddatini qo'llash masalasining ustida tortishuv bo'ladi. Bitim Angliyada tuzilgan bo'lganligi tufayli Chet el savdo arbitraji komissiyasi olti yillik da'vo muddatini qo'llaydi, sovet davlati qonuni bilan belgilangan uch yillik muddatni inobatga olmaydi. Arbitrajning qarori davo muddati o'tib ketgach huquqni qiyosiy izohlash va uni tiklash haqida talab qilib bo'lmaydi degan umumiy tushunchaga asoslanadi.

Munosabat ishtirokchisining, ya'ni jismoniy shaxsning yashaydigan joy qonuniga, yuridik shaxs organi joylashgan joyning qonuniga, shartnoma tuzilgan joy qonuniga havola qiluvchi, ya'ni ko'rsatish vazifasini bajaradigan bog'lovchi kollizion normalarini izohlashda ham qiyinchiliklar tug'iladi. Bir ko'rinishda tushunish uchun oson bo'lgan bog'lovchi normalar ularga qanday izoh berishga qarab har xil mazmundan iborat bo'lgan qaror qabul qilishga olib kelishi mumkin. Masalan, Yevropa qit'asining ko'pchilik davlatlarida shartnomaning tuzilgan joyi deb oferent tomonidan akseptni qabul qilib olgan joy tushuniladi. Angliya huquqi bo'yicha «pochta qutisi», ta'limoti qo'llaniladi, bunga ko'ra qayerdan aksept jo'natilgan bo'lsa, o'sha joy kontrakt tuzilgan joy deb hisoblanadi. Shunday qilib kontrakt tuzilgan joyni belgilash uchun kollizion norma bo'lishidan qat'i nazar, ushbu joy turli davlatlar qonunlarida qanday belgilanishiga qarab turli xulosalarga kelish mumkin. Bu esa kollizion normaning bog'lovchi qoidasini tanlashda va qo'llashda ma'lum darajada qiyinchiliklar tug'diradi.

Qonun bo'yicha kollizion normalar bir tomonlama va ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Kollizion normani ikki tomonlama bog'lashda sudlov mamlakati huquqi va shuningdek chet el mamlakati huquqini qo'llash, kollizion normani bir tomonlama bog'lashda esa, bir tomonning huquq normasini qo'llash bilan cheklanadi, amalda ko'proq sudlov mamlakati huquqini qo'llash yuz beradi. Kollizion normani bir tomonlama qo'llanish uchun O'z.R. Fuqarolik kodeksining 1199-moddasi misol bo'lishi mumkin. Ushbu moddaga binoan ko'chmas mulkka vorislik mazkur mulk joylashgan mamlakat huquqi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining reyestrda qayd etilgan mol-mulkka vorislik esa O'zbekiston Respublikasining huquqi bo'yicha belgilanadi. Bu yerda kollizion normani bir tomonlama qo'llash ikki holatda ro'y bermoqda:

a) ko'chmas mulk masalan, yer, qurilmalar, uy-joylar, ko'p yillik o'simliklar, daraxtlar va yer bilan uzviy bog'liq boshqa mulklar qaysi davlat hududida joylashgan bo'lsa, o'sha davlatning huquqini qo'llash;

b) mol-mulk ko'char yoki ko'chmas bo'lishidan qat'i nazar, u O'zbekistonda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lsa (masalan, daryoda foydalanadigan kater va qayiqlar, avtomashina, traktor va h.k.) ularga vorislik O'zbekiston Respublikasining huquqi bo'yicha belgilanadi.

Kollizion normaning ikki tomonlama bo'lishiga misol uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1197-moddasini keltirish mumkin. Mazkur moddaga binoan meros qoldiruvchi vasiyatnomada o'zi fuqarosi bo'lgan mamlakatning huquqini tanlagan bo'lmasa, meros tartibi meros qoldiruvchi oxirgi doimiy turar joyga ega bo'lgan mamlakatning huquqi bo'yicha belgilanadi. Bu yerda meros qoldirish bo'yicha ikki mamlakat huquqini qo'llash mumkinligi nazarda tutilmoqda.

Kollizion normalar ham moddiy-huquqiy normalar kabi imperativ (qat'iy, majburiy) yoki dispozitiv (havola etuvchi) normalardan iborat bo'lishi mumkin. Kollizion normaning dispozitiv tarzga ega bo'lgan qismini o'zgacha qo'llash to'g'risida taraflar bitim bo'yicha o'zaro kelishib olgan bo'lishlari mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1181-moddasida bitimning shakli bo'yicha O'zbekiston Respublikasi yoki biron-bir chet el davlati qonunlarining tatbiq etilishi mumkinligi belgilanadi. Agar chet elda tuzilgan bitim bo'yicha O'zbekiston Respublikasi huquqi talablariga rioya etilgan bo'lsa, uning shakliga rioya etilmaganligi tufayli haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas. Demak bitimning shakli chet mamlakat huquqiga mos kelishiga yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1190-moddasida nazarda tutilgan deyarlik barcha kollizion normalar dispozitiv xarakterga ega. Masalan, oldi-sotdi shartnomasi, hadya shartnomasi, ijara shartnomasi, pudrat shartnomasi va boshqa qator shartnomalar bo'yicha qaysi mamlakat huquqini qo'llash haqida taraflar kelishib olgan bo'lishlari mumkin. Agar bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda shartnomalar obyektlarining xususiyatlari (masalan, ko'char yoki ko'chmas mol-mulk) hisobga olgan holda u yoki bu davlatning qonunini qo'llash nazarda tutiladi. Lekin ushbu moddaning o'zida ikki xil toifadagi shartnomalarga nisbatan taraflar tomonidan huquqni tanlash imkoniyati nazarda tutilmagan. Ushbu modda 2-qismining 2-bandi quyidagi mazmunda: birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaga va qurilish pudrat shartnomasiga nisbatan – ana shunday faoliyat amalga oshirilayotgan yoki shartnomada nazarda tutilgan natijalar yaratilayotgan mamlakatning huquqi qo'llaniladi; 3-bandi quyidagi mazmunda: kimoshdi savdosida, tanlov bo'yicha yoki birjada tuzilgan shartnomaga nisbatan – kimoshdi savdosi, tanlov o'tkazilayotgan yoki birja joylashgan mamlakatning huquqi

qo'llanishi belgilanadi. Fuqarolik kodeksining 1191-moddasiga muvofiq chet el ishtirokidagi yuridik shaxsni tuzish to'g'risidagi shartnomaga nisbatan yuridik shaxs ta'sis etilgan mamlakat huquqi qo'llaniladi. Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan kollizion normalar imperativ (majburiy) xarakterga ega.

G'arb davlatlaridagi hukmron ta'limot bo'yicha yuridik tushunchalarga izoh berish kollizion normaga asosan u yoki bu davlatning qonunini qo'llash haqidagi masalani hal qilgunga qadar sudlov mamlakati qonuniga asosan amalga oshirilishi kerak. Agar kollizion normaga asosan chet el qonuni qo'llanishi nazarda tutilgan bo'lsa, izoh berish sud tomonidan havola qilingan davlat qonuniga asosan amalga oshirilishi mumkin.

2. Xalqaro xususiy huquq normalariga izoh berish, ya'ni ularning tuzilishi (hajm va bog'lovchi qismlardan tashkil topishi), yoki bir tomonlama yoki ikki tomonlama, dispozitiv yoki imperativ xarakterga ekanligini aniqlash ularni muayyan munosabatlarga nisbatan to'g'ri qo'llash uchun imkoniyat yaratadi.

Boshqa davlatlar huquq tizimining huquq subyektlari bilan o'rnatiladigan munosabatlarni tartibga solishda umumiy huquqiy tushunchalar muhim ahamiyatga ega. Kollizion normalar chet el huquq tizimi va ular ta'sirida vujudga kelgan subyektiv huquqlarining cheklanmagan doirada bo'lishiga qaratiladi. Shunday ekan ushbu normalar o'z mazmuniga ko'ra tegishli huquq tizimlariga nisbatan umumiy bo'lgan atamalar, tushunchalar bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda kollizion normalar tushunchasi va atamalari mazmuni jihatdan muayyan ichki davlat huquqi tushunchalari va atamalariga o'xshash bo'lmasligi mumkin. Bizning qonunning kollizion normalarida ishlatilgan «ashyoviy huquqlar» yoki «fuqarolarning huquq layoqati» degan tushunchalar mazmuni jihatidan Fuqarolik kodeksidagi shunga o'xshash tushunchalar mazmuniga mos kelmasligi mumkin.

Fuqarolik kodeksining ~~1184~~ moddasidagi kollizion normada berilgan «Ashyoviy huquqlar» tushunchasi mazmuni jihatidan mulk huquqi va boshqa ashoviy huquqlarni o'z ichiga oladi. Fuqarolik kodeksining 165-moddasidagi «ashyoviy huquqqa» berilgan tushuncha bo'yicha esa ushbu huquqning mazmunini mulk huquqi subyekti bo'lmagan shaxslarning ashoviy huquqlari, masalan, xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi tashkil qilishi mumkin. Demak, ashoviy huquq tushunchasining mazmunida, uning

kollizion normada yoki moddiy-huquq normasida keltirilishiga qarab farqi borligi ko'rinib turibdi. Shunday ekan kollizion normaning amal qilish doirasi (hajmi) umumiy lashtirilgan, ya'ni turli huquq tizimlari uchun umumiy bo'lgan yuridik tushunchalar bilan ifoda etilgan bo'lishi kerak. Kollizion bog'lovchi normani tahlil qiladigan bo'lsak, bu yerda boshqacha holat yuz beradi: huquqni qo'llash haqidagi to'liq qoida aniq ko'rsatilmasa sudlov mamlakati qonuni bo'yicha bog'lanish ushbu mamlakatning ichki (fuqarolik, oila, mehnat) huquqining tegishli institutlarida berilgan tushunchalardan foydalanish yo'li bilan ta'minlanadi. Kollizion bog'lovchi normaning tushunchasi ayrim maxsus hollarda qonunning o'zida beriladi.

Huquqni qo'llashda qarshi tomonga (обратная отсылка) va uchinchi mamlakat huquqiga havola etish eng murakkab masalalardan iborat. Bunday havola etish chet el huquqini qo'llashni anglatadi. Lekin Fuqarolik kodeksining 1161-moddasiga muvofiq havola etish kollizion normani qo'llash emas, balki moddiy huquq normasini qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi. Agar O'zbekiston qonuni hujjatlari chet el huquqiga havola etsa yu, chet el huquqida tegishli munosabatlarni tartibga solish nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday holda O'zbekiston qonun hujjatlarini qo'llamaslikka asos yo'q. Chet el elementlari bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda, chet el huquqi O'z R Fuqarolik kodeksining 1168-moddasiga, 1169-moddasining birinchi, uchinchi va beshinchi qismlariga, 1171-va 1174-moddalariga muvofiq qo'llaniladigan hollarda qarshi tomon sifatida O'zbekiston Respublikasi huquqiga va uchinchi mamlakat huquqiga havola etiladi. Shuni hisobga olish kerakki, agar chet el davlati huquqining kollizion normasi O'zbekiston Respublikasi qonun normasini qo'llashga havola qilgan bo'lsa, ushbu davlatning sudi yoki boshqa tegishli organi O'zbekiston Respublikasining qonunini qo'llaydi. Chunki shunga o'xshash qoida O'zbekiston Respublikasi huquqining kollizion normasida nazarda tutiladi.

4-§. Ommaviy tartib to'g'risidagi izoh

Kollizion normaga ega bo'lgan deyarlik barcha huquq tizimlarida ommaviy tartib to'g'risida izohlash mavjud. Bunday izohlashdan asosiy maqsad sudlov mamlakatining (masalan, O'zbekistonning, agar masala, O'zbekiston sudiga taalluqli bo'lsa) ommaviy tartibiga

to'g'ri kelmaydigan chet el qonunini tatbiq qilishni ushbu mamlakat (O'zbekistonning) kollizion normasi bilan cheklab qo'yishdan iborat. Bunday izohlash yo'li bilan qonunning cheklanishi oldindan ogohlantirib qo'yilishi kollizion normalar vositasida qo'llash uchun havola qilinadigan qonunlar doirasi noaniq ekanligi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1164-moddasida nazarda tutilgan qoidaga binoan «Chet el huquqini qo'llanish O'zbekiston Respublikasining huquq-tartiboti asoslariga (ommaviy tartibga) zid keladigan hollarda chet el huquqi qo'llanilmaydi». Shunga o'xshash qoida O'zbekistonning 1963-yilda qabul qilingan Grajdanlik kodeksining 621-moddasida ham bor edi. Lekin unda, agar chet el qonunini qo'llash cheklangan taqdirda qaysi mamlakatning qonunini qo'llash mumkin degan savolga javob yo'q edi. Bu savolga javob ham 1164-moddada berildi va u quyidagi qoida bilan to'ldirildi: «Bunday hollarda O'zbekiston Respublikasining huquqi qo'llaniladi». Demak chet el qonuni O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan ommaviy tartibga, huquq-tartibot asoslariga zid kelgan hollarda O'zbekiston Respublikasi huquqi qo'llaniladi.

Ommaviy tartib to'g'risidagi izohga 1164-moddada yana bitta muhim tushuntirish berildi. Shu bilan ushbu izohni o'rinsiz keng qo'llanishini oldi olindi. Mazkur moddaning 2-qismiga binoan «Tegishli chet el davlatning huquqiy, siyosiy yoki iqtisodiy tizimi O'zbekiston Respublikasining huquqiy, siyosiy yoki iqtisodiy tizimidan farqlanishigina chet el huquqi qo'llanilishini rad etish uchun asos bo'lishi mumkin emas».

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasiga binoan chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi. Ular O'zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan burchlarni ado etadilar. Chet el fuqarolari O'zbekiston fuqarolari foydalanadigan huquq layoqatiga teng ega bo'lganlari kabi nikoh layoqatiga ham egadirlar. Nikoh tuzish tartibi va uni rasmiylashtirish uchun belgilangan shartlar (Oila kodeksining 13-17-moddalari) chet el fuqarolari uchun ham taalluqlidir. Shunga ko'ra ana shu moddalarda belgilangan shartlar buziladigan va nikoh tuzishga monelik qiluvchi (Oila kodeksining 16-moddasi) holatlar bo'lsa, nikohni qayd qilishga yo'l qo'yilmaydi. Masalan chet el fuqarosining qonuni bo'yicha unga ikki yoki undan ortiq xotin olish (poligamlik nikoh) huquqi nazarda tutilgan bo'lsa-da O'zbekiston

hududida va O'zbekiston qonuniga muvofiq uning ikkinchi nikohi qayd qilinmaydi. Demak bunday hollarda O'zbekiston qonuni qo'llaniladi. Lekin poligamlik nikohda yo'l qo'yadigan qonunga asosan tuzilgan bunday nikohdan tug'ilgan bolalar uchun O'zbekiston sudi qarori bilan aliment undirish majburiyati bekor qilinmaydi, chunki chet el qonuniga asosan chet elda tug'ilgan bolalar uchun aliment undirish qoidasi O'zbekiston qonuniga zid kelmaydi.

Chet el huquqining O'zbekiston Respublikasida qo'llanishi davlatimiz tuzilishi, uning huquqiy-tartiboti asoslariga, o'rnatilgan ommaviy tartibga zid ekanligi holatini emas, balki, bu asoslarga, tartibga chet el huquqining zid kelishini va shuning uchun qo'llab bo'lmasligini anglatadi.

Ommaviy tartib tushunchasi sud tajribasida va ko'pgina davlatlarning ta'limotida o'zining mavumliligi bilan ajralib turadi. Buning ustiga G'arb davlatlarining ayrim yuristlari fikriga ko'ra ommaviy tartib tushunchasining aniq emasligi unga xos bo'lgan va uni ifodalovchi xususiyat hisoblanadi. Ommaviy tartib to'g'risidagi izohdan ayrim sudlar o'zga davlat huquqini chetlab o'tish, ba'zan umuman tan olmaslik maqsadida foydalanadilar. Bunday tajriba o'tmishda ijtimoiy-iqtisodiy tizimi turlicha bo'lgan mamlakatlar huquqiga nisbatan ko'p ishlatilardi. Ushbu izohni qo'llash doirasini belgilash ko'pgina davlatlarda to'lig'icha sudning xohishiga topshirilgan edi. Bunday tajribaning davom etishi natijasida ommaviy tartib va uni izohlash tegishli darajada ahamiyatga ega bo'lmay qoldi.

Bizning qonunlarimizda, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, ba'zi bir hollarda chet el qonunlarining O'zbekistonda qo'llanishi uchun cheklashlarga yo'l qo'yiladi. Lekin shunga e'tibor berish kerakki, O'zbekiston qonunlari bilan chet el davlatlari qonunlari o'rtasidagi farqlanishlar ommaviy tartib to'g'risidagi izohni tatbiq qilish uchun o'z holicha asos bo'lishi mumkin emas, chunki ushbu izohni barcha hollarda tatbiq qilish O'zbekistonda chet mamlakatlar huquqining qo'llanishini umuman inkor qilishga olib kelishi mumkin.

5-§. Huquqni qo'llashda o'zarolik va retorsiyalar

1. O'zbekiston chet el mamlakatlari bilan iqtisodiyot, fan-texnika, madaniyat va boshqa sohalarida aloqalar o'rnatishni izchillik bilan amalga oshirmoqda. Chet el mamlakatlari ham O'zbekiston bilan ushbu sohalarida aloqalar o'rnatish tarafdori. Aloqalar o'rnatishda va uni rivojlantirishda taraflar teng huquqlilik tamoyiliga amal

qilmoqdalar. Bunday teng huquqlilik davlatlarda qabul qilingan qonunlarning amalda bo'lishini va o'zaro tatbiq qilinishining ular tomonidan tan olinishida ham o'z aksini topmoqda.

Chet el qonunlari asosida vujudga kelgan huquqlar O'zbekistonda tan olinadi. Bunday hollarning barchasida o'zarolik munosabati keng ma'noda o'rnatilganligi haqida gapirish mumkin. Xalqaro xususiy huquq ta'limoti bo'yicha o'zarolik deyarlik qisqa ma'noda, ya'ni ma'lum rejim, tartib belgilanganligi (eng qulay va milliy tartib) yoki chet el fuqarolariga va yuridik shaxslariga qandaydir huquqlar berilganligi ma'nosida ham tushuniladi.

O'zarolikning asosiy mohiyati shundan iboratki, O'zbekistonda chet davlat fuqarolari va yuridik shaxslariga berilgan ma'lum huquqlar O'zbekiston fuqarolari va yuridik shaxslari uchun ushbu chet el davlatida ham shunga o'xshash huquqlardan foydalanish sharti bilan beriladi.

Xalqaro xususiy huquqda o'zarolik ikki, ya'ni moddiy (материальный) va rasmiy (формал) ko'rinishlarda ayon bo'ladi. O'zarolik moddiy huquqda O'zbekiston fuqarolari va yuridik shaxslariga chet elda berilgan va ular foydalanmoqda bo'lgan ma'lum huquqlar va vakolatlari ushbu chet el fuqarolari va yuridik shaxslariga O'zbekistonda ham berilishi tushuniladi. O'zarolikning rasmiy huquqda chet el fuqarolari va yuridik shaxslariga muayyan davlatning mahalliy qonunlarida nazarda tutilgan huquq va vakolatlar berilishi, ya'ni ularning mahalliy fuqaro va yuridik shaxslarining huquqiy holatiga tenglashtirish tushuniladi.

O'zarolikning rasmiy tartibda qo'llanishiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasida nazarda tutilgan qoidani misol qilib olish mumkin. Ushbu qoidaga binoan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlarga ega va burchlarni ado etadilar.

O'zarolikda cheklashlarga ham yo'l qo'yiladi. Masalan, chet el fuqarolari o'z davlatlarida ega bo'lgan huquqlaridan agar O'zbekiston qonun hujjatlarida tegishli huquqlar nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston hududida foydalanish uchun talab qila olmaydilar.

O'zbekistonning chet davlatlar bilan munosabatlarida chet el fuqarolari va yuridik shaxslariga huquqiy tizimning bir xil emasligini inobatga olib, huquqni o'zarolik asosida qo'llash xalqaro shartnomalarda faqat milliy tartib va eng qulay muhit yaratib berish maqsadida amalga oshiriladi.

Huquqni qo'llashning o'zarolik moddiy ko'rinishini asosan davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarda uchramiz. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Germaniya Federativ Respublikasi bilan investitsiyalarni o'zaro himoya qilish to'g'risida, Rossiya Federatsiyasi bilan ikki tomonlama qo'llab-quvvatlash va soliقدan ozod qilish to'g'risida, Fransiya bilan erkin harakat to'g'risida, AQSH bilan savdo munosabatlari to'g'risida, Eron Islom Respublikasi bilan xalqaro avtomobil harakati to'g'risidagi bitimlarda va boshqa masalalar bo'yicha davlatlararo tuzilgan shartnomalarda huquqni o'zarolik moddiy ko'rinishi asosida qo'llashga amal qilingan.

2. Huquqni qo'llashda o'zarolik bilan bir qatorda, o'zaro javob tariqasida cheklashlar (реторсия)ga ham yo'l qo'yiladi. Agar bir davlat boshqa bir davlat yoki uning fuqarolarini nohaq kamsitish yo'li bilan unga zarar yetkazish uchun qandaydur chora-tadbir qo'llagan bo'lsa, boshqa davlat ham unga nisbatan shunga o'xshash cheklovlar, ya'ni chora-tadbirni javob tariqasida qo'llashi mumkin. Bunday chora-tadbirni qo'llashdan asosiy maqsad birinchi davlat tomonidan qo'llangan cheklovning bekor qilinishiga erishishdan iborat.

Agar bizning davlatimizga, fuqarolarimizga yoki yuridik shaxslarimizga nisbatan boshqa bir davlat tomonidan kamsitish tartibida qandaydir cheklovlar joriy qilingan bo'lsa, O'zbekiston ham ushbu davlat fuqarolari va yuridik shaxslariga nisbatan javob tariqasida cheklov xarakteriga ega bo'lgan chora joriy qilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida umumiy qoidaga muvofiq chet el fuqarolari va yuridik shaxslari O'zbekiston fuqarolari va yuridik shaxslari kabi huquq layoqatiga egadirlar. Shuning bilan birga O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1167-moddasida quyidagi qoidani o'rnatadi: «O'zbekiston Respublikasi Hukumati O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining huquqlariga maxsus cheklovlar qo'ygan davlatlarning fuqarolari va yuridik shaxslariga javob tariqasida cheklovlar (retorsiyalar) belgilashi mumkin».

Xalqaro huquq normalariga binoan cheklov choralari (retorsiya)ni javob tariqasida ma'lum davlat (davlat organlari, fuqarolari, yuridik shaxslari)ga nisbatan qo'llash kamsitmaslik tamoyilining buzilishi sifatida qaralmaydi, ya'ni kamsitish deb hisoblanmaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1994-

yil 6-may kuni ratifikatsiya qilingan 1961-yilgi Diplomatik aloqalar to'g'risidagi Vena Konvensiyasiga binoan «chet davlati vakilligini akkreditatsiya qiluvchi davlat tomonidan mazkur Konvensiyaning cheklov qoidalarining qo'llanishi» kamsitish deb hisoblanmaydi. Ana shunday qoidalar O'zbekiston Respublikasining «Bojxona boji to'g'risida» va «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonunlarida ham nazarda tutiladi.

III BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Kollizion norma tushunchasiga ta'rif bering.
2. Xalqaro xususiy huquqda kollizion normaning qanday ahamiyati bor?
3. Xalqaro xususiy huquq sohasida qanday moddiy-huquqiy normalar bo'lishi mumkin?
4. Kollizion normalar qanday izohlanadi?
5. Ikki tomonlama va bir tomonlama kollizion normalar nimalar bilan farqlanadi?
6. Kollizion normada qanday asosiy bog'lanishlar mavjud?
7. Ommaviy tartib deganda nimani tushunasiz va bunday tartib qanday izohlanadi?
8. Huquqni qo'llashda o'zarolikni qanday tushunasiz?
9. Retorsiyalar qanday hollarda qo'llaniladi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Богуславский М.М. Международное частное право. –М.: Международные отношения, 1994.
2. Вилков Н.Г. Унификации коллизионных норм в рамках СНГ /Журнал Российского права. 1997. №10.
3. Ерпылева Н.Ю. Коллизионные вопросы в современном частном праве /Законодательство и экономика. 1998. №2.
4. Звекон В.П. Международное частное право. М.: Издательство НОРМА, 2000.
5. Международное частное право. Учебник под ред. Марышева Н.И. –М.: "Контракт". 2000.
6. Тихомиров Ю.А. Согласованность и коллизии норм /Московский журнал международного права. 1996. №2.
7. Швыдок Н.Г. Международная унификация коллизионных норм семейного права /Право и экономика, 1995. №15-16.

XALQARO XUSUSIY HUQUQQA BINOAN JISMONIY SHAXSLARNING FUQAROLIK-HUQUQIY HOLATI

1-§.Turli davlatlarda chet el fuqarolarining huquqiy holatlari. Jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni, huquq va muomala layoqati

Asosiy masalaga o'tishdan oldin, bizning fikrimizcha, shuni ta'kidlash joizki, XXH doktrinasida «chet el fuqarolari huquqi» iborasini uchratish mumkin. Bu ibora rivojlanish borasida, asosan ommaviy huquq doirasida chet el fuqarolari uchun maxsus holatni, maqomni barpo etishga qaratilgan edi. Odatda «chet el fuqarolari huquqi» ularning muayyan mamlakatda joylashishi, ishga kirishi va h.k. vaziyatlar bo'yicha tegishli tartib-qoidalarda o'z aksini topgandir. «Chet el fuqarolarining huquqi»ni, umuman olganda, chet el fuqarolarining huquqini cheklashga qaratilgan normalar yig'indisi sifatida tushunish lozim degan fikr ham mavjuddir. Cheklashlar asosan joydan-joyga o'tish, ma'lum bir kasb bilan shug'ullanish, ko'chmas mulkka egalik qilishlarga tegishlidir. Hozirgi sharoitda «chet el fuqarolari huquqi» chet el fuqarolari va milliy fuqarolar orasidagi munosabatlarni tartibga soladigan alohida huquq sohasi mavqeyini saqlab qolmagan. Chet el fuqarolarining huquqiy holati (la condition des etranqers) turli xil mamlakatlarda an'anaviy XXH doirasiga kiritilgandir. Bular Fransiya va huquq tizimi fransuz huquqi ta'sirida shakllangan mamlakatlardir. Ko'pchilik mamlakatlarda esa xususan bu doirada tartibga solishni sinchkovlik bilan amalga oshirayotgan mamlakatlarda (GFR, Avstriya va boshqalar), chet el fuqarolarining huquqlari ma'muriy huquqning tarkibiy qismi deb hisoblanadi.

Shunday qilib, chet el fuqarolarining huquqi – chet el fuqarolarining maxsus holatini (statusini) belgilaydigan normalar yig'indisidir.

Odatda «chet el fuqarolarining huquqi» chet el fuqarolarining huquqiy holatini tor va keng ma'noda belgilaydi. Tor ma'noda bu normalar asosan ma'muriy-huquqiy xarakterga egadir; ular chet ellik fuqaroning holati milliy fuqaroning huquqiy holatidagi farqlarga bag'ishlangandir. Keng ma'noda esa har tomonlama qamrab oluvchi barcha normalarning yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasida, boshqa MDH davlatlari singari, «chet el fuqarolarining huquqi» huquq tizimida alohida huquq sohasi bo'lib hisoblanmaydi. Buning sababi quyidagicha: tartibga solish predmeti bo'yicha mazkur normalar huquqning turli xil sohalariga mansubdir (davlat, ma'muriy, fuqarolik, mehnat, oila, jinoyat, protsessual huquqlari va h.k.).

Yuqorida ta'kidlanganidek, «fuqarolar huquqi» qator davlatlarda hozirgi vaqtgacha XXHqa bevosita kiritilardi. Bu yerda «fuqarolar huquqi» bo'yicha fuqarolik masalalarini tartibga soladigan normalar yig'indisi tushunilardi.

Fuqarolikni belgilash har bir davlatning yurisdiksiya predmetini tashkil etadi. Bu yerdan shunday holat kelib chiqadiki, har bir davlat o'z hududidagi fuqarolikni o'zi belgilaydi: Fransiya fuqaroligini O'zbekiston huquqi normalari asosida va, aksincha, O'zbekiston fuqaroligini fransuz qonunchiligi asosida qabul qilish mumkin emas. Shaxs fuqarolikni olishi va undan mahrum etilishi davlat rozilgisiz amalga oshirilishi mumkin emas.

Fuqarolik o'zi qator holatlarda ahamiyatli kollizion tamoyil bo'lishi mumkin. Lekin bizning hamda ko'pchilik mamlakatlarning doktrinalari (ta'limoti) bo'yicha bu holat fuqarolik institutini XXH doirasiga kiritish uchun asos bo'la olmaydi.

Fuqarolik instituti kompleks xarakterga egadir: uni qisman davlat, qisman xalqaro huquq doirasiga taalluqli deb hisoblash mumkin.

XXH doirasida fuqarolik instituti bo'yicha izlanishlarni amalga oshirish, I.S. Pereterskiyning ta'rifi bo'yicha, «Ko'maklashuv xarakterga» egadir. U «chet el elementli» mulkiy va boshqa munosabatlarning subyekti kimligini, ya'ni u ushbu mamlakatning fuqarosimi, chet el davlatining fuqarosimi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsmi degan savolga aniqlik kiritadi¹¹.

Bu yerda shuni aytib o'tish lozimki, har bir shaxs o'zining milliy qonuniga bo'ysunadi, uning huquqiy holati aynan shu qonun tomonidan belgilanadi. Xalqaro xususiy huquqda esa u yoki bu munosabat qatnashchisi albatta xorijlik bo'lishi nazarda tutiladi. Chet el fuqarosi ikkita - o'zining va u hozir bo'lgan davlatning huquqiy tartibiga bo'ysunishi nazarda tutiladi. Ushbu ikkilamchilikda chet ellik fuqaroning huquqiy holatining o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Demak, konkret huquqiy munosabatda chet el fuqarosi huquqiy holati qaysi qonun bilan tartibga solinishi katta ahamiyatga egadir.

¹¹ Международное частное право: современные проблемы. –М.: ТЕИС, 1994. –С.119-125.

Bu masala jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni tushunchasi orqali ham hal etiladi.

Shaxsiy qonunni tatbiq qilish doirasiga – jismoniy shaxsning fuqarolik huquqiy holati masalalari, uning huquq va muomala layoqati, oila munosabatlari doirasida shaxsiy huquqlar, vorislik munosabatlari kiradi. Shaxsiy qonun ikki variantda qo'llaniladi: fuqarolik qonuni (milliy qonun)-lex patriae (lex nationalis) va turar joy qonuni – lex domicilii. Fuqarolik qonuniga murojaat qilingan holda, yuqorida qayd etilgan munosabatlar shaxsning fuqaroligi mansub mamlakat huquqiga bo'ysunadi. Turar joy qonunini qo'llashda esa, shaxsning qaysi davlat hududida doimiy yoki muntazam ravishda yashaganligi hisobga olinadi va shu mamlakat huquqi asosiy hisoblanadi.

Shaxsiy qonunga bog'lanishlarni nazarda tutuvchi kollizion normalar respublika qonunlarida ham, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida ham mavjuddir.

O'zbekiston Respublikasi FKning 1168-moddasida shaxsiy qonunga murojaat qilish uchun asos bo'lgan holatlarni ko'rsatuvchi umumiy qoidalar aks ettirilgan va quyidagilar mustahkamlangan:

Jismoniy shaxs qaysi mamlakatning fuqarosi bo'lsa, shu mamlakat huquqi uning shaxsiy qonuni hisoblanadi. Shaxs ikki yoki undan ortiq fuqarolikka ega bo'lgan taqdirda u qaysi mamlakat bilan eng ko'p uzviy bog'langan bo'lsa, uning uchun o'sha mamlakat huquqi shaxsiy qonun hisoblanadi.

Fuqaroligi bo'lmagan shaxs qaysi mamlakatda doimiy yashab turgan bo'lsa, o'sha mamlakat huquqi uning shaxsiy qonuni hisoblanadi.

Qochoqlarga nisbatan esa ularga boshpana bergan mamlakatning qonuni shaxsiy qonun hisoblanadi.

Shaxsiy qonunga havola etish, O'zbekiston Respublikasi FKning 1169-moddasi 1-qismiga ko'ra, huquqiy munosabatlarning u yoki bu sohasida jismoniy shaxslarning huquqiy va muomala layoqatlarini belgilash uchun qo'llaniladi.

Jismoniy shaxsning huquq va muomala layoqati masalasiga kelsak, shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasida o'zi fuqaro bo'lgan davlat qonunchiligiga ko'ra muomalaga layoqatsiz hisoblanuvchi 18 yoshga yetgan chet el fuqarosi bilan bitim tuzishda qanday normalarni qo'llash kerak? – degan savol tug'iladi.

Hozirgi davrda barcha mamlakatlardagi jismoniy shaxslarning huquqiy holati qonunlar tomonidan tartibga solingan bo'lib, huquq layoqati va muomala layoqati tushunchalari yordamida ochib beriladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, huquq va muomala layoqati tushunchalari barcha huquqiy tizimlarda ham mazmun jihatidan farqlanavermaydi. Angliya va AQSHda muomalaga layoqat va huquqiy layoqat bitta-huquqiy layoqat (legal capacity) – termini bilan belgilanadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, hozirda «passiv huquqiy layoqat» termini ham qo'llanilmoqda. Bu termin mazmuni jihatidan huquqiy layoqat tushunchasiga yaqin, «aktiv huquqiy layoqat» «aktive capacity», «huquqiy xatti-harakatni amalga oshirishga layoqat» (capacity for performance of legal act) termini esa muomalaga layoqatli tushunchasiga mazmunan yaqin. Fransiyada, xuddi Angliyadagidek kabi muomala layoqati va huquq layoqati o'rtasida keskin iboraviy tafovut yo'q. Fransiya FKning 3-moddasida «capacite» termini qo'llaniladi va bunda muomala layoqati va huquqiy layoqat tushuniladi. FFKning 488-moddasida voyaga yetgan fuqaro fuqarolik hayotining barcha xatti-harakatlariga layoqatli bo'lishi to'g'risidagi norma aks ettirilgan. Sud amaliyotida va yuridik adabiyotlarda muomala layoqati (capacite d'exercice) va huquqiy layoqat (capacite de jouissance)¹² bir biridan ajratiladi. Fransuz va ingliz huquqidan farqli ravishda Germaniya fuqarolik Tuzumida (GFT) uchta termin qo'llaniladi: «huquqiy layoqat» (Rechtsfahigkeit), «muomala layoqati» (Delitsfahigkeit) va «huquqqa xilof harakatga layoqat» (Deliktsfahigkeit). Bunday farqlash Shveysariya fuqarolik kodeksida ham kuzatiladi.

60-yillarning o'rtalarida g'arb davlatlarining ko'pchiligida voyaga yetish yoshi 21 yoshdan 18 yoshga tushirilishi to'g'risidagi qonunlar qabul qilingan edi. Masalan, GFTning 2 paragrafi yoshining 18-yili tugagan kunda voyaga yetgan deb hisoblanishini ko'rsatadi. Shveysariyada voyaga yetgan deb 20 yoshga yetgan shaxs hisoblanadi. Angliyada inson 18 yoshga to'lgan kundan boshlab voyaga yetgan hisoblanadi. AQSHning turli shtatlarida voyaga yetgan deb 18 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Shuningdek, turli mamlakatlarda voyaga yetmaganlarning muomala layoqati hajmi turlichadir¹³.

¹² Гражданское и торговое право капиталистических государств. Отв.ред. Е.А.Васильев. –М.: Международные отношения. 1993. –С.63.

¹³ O'sha joyda. 69-bet.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi FKning 17 va 22-moddalariga ko'ra fuqarolarning huquq va muomala layoqatlari tushunchalari quyidagicha berilgan:

Barcha fuqarolarning fuqarolik huquqlariga va burchlariga ega bo'lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e'tirof etiladi.

Fuqaroning huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi.

Jismoniy shaxsning bitimlar va zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlarga nisbatan fuqarolik muomala layoqati bitimlar tuzilgan yoki zarar yetkazilishidan kelib chiqadigan majburiyatlar yuzaga kelgan mamlakat huquqi bo'yicha belgilanadi.

Jismoniy shaxsning xususiy tadbirkor bo'lishi hamda bu bilan bog'liq huquqlar va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati jismoniy shaxs xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan mamlakat huquqi bo'yicha belgilanadi. Ro'yxatga olish mamlakati bo'lmaganda, xususiy tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan asosiy joy bo'lgan mamlakatning huquqi qo'llaniladi.

Jismoniy shaxsni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topish sud qaysi mamlakatniki bo'lsa, shu mamlakat huquqiga bo'ysunadi (FKning 1169-moddasi 3-5-qismi).

Shaxsiy nomulkiy huquqlarga nisbatan bunday huquqlarni himoya qilish to'g'risidagi talab uchun asos bo'lib xizmat qilgan harakat yoki boshqa holat sodir etilgan mamlakat huquqi qo'llaniladi (FKning 1179-moddasi).

Intellectual mulkka bo'lgan huquqlarga nisbatan bu huquqlarni himoya qilish so'raladigan mamlakat huquqi qo'llaniladi (FKning 1180-moddasi 1-qismi).

Vorislikka doir munosabatlar, meros qoldiruvchi vasiyatnomada o'zi fuqarosi bo'lgan mamlakatning huquqini tanlagan bo'lmasa, meros qoldiruvchi oxirgi doimiy turar joyga ega bo'lgan mamlakatning huquqi bo'yicha belgilanadi (FKning 1197-moddasi).

Ko'chmas mulkka vorislik mazkur mulk joylashgan mamlakat huquqi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasining reyestrda qayd etilgan mol-mulkka vorislik esa, O'zbekiston Respublikasining huquqi bo'yicha belgilanadi (FKning 1199-moddasi).

2-§. O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining huquq va muomala layoqati

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 23-moddasida quyidagilar belgilangan: «O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta‘minlanadi.

Ular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va xalqaro shartnomalar bilan belgilangan majburiyatlarni bajaradilar».

O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy ravishda istiqomat qiluvchi chet el fuqarosining huquqiy holati respublika hududida vaqtincha yashovchi chet ellikning huquqiy holatidan farqlanadi.

Mehnat faoliyati, turar joy bilan ta‘minlash, tibbiy yordam ko‘rsatish, ta‘lim olish kabi sohalarda O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy ravishda istiqomat qiluvchi chet el fuqarolari milliy fuqarolarga to‘la tenglashtiriladilar. Ushbu shaxslarning maqomi (holati) Respublikaga vaqtincha keluvchi shaxslarning maqomidan ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi FKning 1169-moddasi 2-qismiga asosan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar O‘zbekiston Respublikasida uning fuqarolari bilan bir qatorda teng huquq layoqatiga egadirlar.

Keltirilgan holat O‘zbekiston Respublikasida chet elliklarga milliy tartibning taqdim etilishini mustahkamlaydi. Shu bois chet elliklar respublikamizda o‘zbekistonlik fuqarolar bilan bir fuqarolik huquqiy layoqatidan foydalanadilar. Bu degani, O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarosining fuqarolik huquqiy layoqati asosan O‘zbekiston qonunchiligi bilan belgilanadi.

Chet elliklarga milliy tartibning taqdim etilishidan shu holat ham kelib chiqadiki, O‘zbekiston Respublikasida chet elliklar mahalliy fuqarolarga berilgan fuqarolik huquqlaridan o‘zga huquqlarga da‘vo etolmaydilar; chet el fuqarosi unga imtiyozlar berilishini yoki mahalliy qonundan istisnolar belgilashni talab qilishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida mustahkamlangan va chet elliklarning fuqarolik huquqiy layoqatiga nisbatan qo‘llanuvchi milliy tartib qat‘iy xarakterga ega, ya‘ni u chet el fuqarosiga har bir ma‘lum holatda o‘zarolikni talab qilmagan holda taqdim etiladi. Chet el fuqarosining turli sohalaridagi huquqini tartibga soluvchi boshqa qonunchilik aktlari ham ushbu tamoyildan kelib chiqadi.

Chet el fuqarolariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan bir xil fuqarolik huquqiy layoqatlarning taqdim qilinishi, odatda, chet el fuqarosining respublikamizda turar joyga ega bo'lishi bilan bog'liq emas. Biroq qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'zda tutilgan ayrim hollarda chet el fuqarosiga ma'lum huquqlarning berilishi uning O'zbekiston Respublikasida doimiy ravishda istiqomat qilishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining fuqarolar mulki to'g'risidagi umumiy qoidalar chet el fuqarolariga ham taalluqlidir. Chet elliklar, xuddi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kabi o'zlariga tegishli bo'lgan mulkka, albatta qonunda belgilangan chegaradan chiqmagan holda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf qilishlari mumkin¹⁴.

Huquq yuridik informatsion tizimi. O'zbekiston Respublikasining iqtisod qonunchiligi. 2002-yil 29-martdagi versiyasi.

Bu holat chet el fuqarosiga umuman tegishli bo'lishi mumkin predmetlar doirasi va chet ellikning o'z mulk huquqlarini amalga oshirish chegaralariga taalluqlidir. Shu borada, qonunchilikda belgilangan qoidalarga O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha shaxslar va shu bilan birga chet elliklar ham rioya qilishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasi FKning 1169-moddasining ikkinchi qismi qonun tomonidan chet el fuqarolariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarning berilishi borasida ayrim istisnolar belgilash imkoniyatini ko'zda tutadi.

Chet el fuqarolariga milliy tartibning taqdim etilishi, ularni nafaqat fuqarolik huquqi sohasida o'zbekistonlik fuqarolar bilan tenglashtirish, balki, fuqarolik munosabatlari ishtirokchilari sifatida ularga milliy qonunchilik qoidalaridan kelib chiquvchi majburiyatlarni yuklash demakdir. Masalan, FKning 1194-moddasiga asosan fuqaro (yoki tashkilot) hayoti, sog'lig'i, mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida zararni undirish majburiyatlari kelib chiqadi. Bunday majburiyatlar chet el fuqarolariga zarar yetkazilishi hollarida ham kelib chiqadi.

Chet el fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ta'lim olish huquqiga egadir. O'zbekiston Respublikasining o'quv muassasalariga qabul qilingan chet el fuqarolari mahalliy qonunlarga asosan o'quvchi va talaba huquq va majburiyatlarini oladilar.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi «Mulchilik to'g'risida»gi 1990 yil 31 oktabr qonuni (O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 7-may, 1994-yil 23-sentabr, 1995-yil 6-may, 1996-yil 27-dekabr qonunlariga muvofiq kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

Masalan, «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriatiga talabalarni qabul qilish tartibi va qoidalari to‘g‘risida»gi Nizomga¹⁵ binoan oliy ta‘lim muassasalariga xorijiy fuqarolarni qabul qilish huqumatlararo bitimlarga muvofiq yoki O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining roziligi bilan to‘lov kontrakt asosida amalga oshiriladi (11-band).

Shunga o‘xshash qoida 1999/2000-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarining magistraturasiga qabul qilish tartibi va qoidalari to‘g‘risidagi Nizomda¹⁶ o‘z ifodasini topgan (7-band).

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan Xitoy xalq Respublikasi ta‘lim vazirligi o‘rtasida ta‘lim sohasida hamkorlik to‘risida Bitim¹⁷ bo‘yicha (1999-yil 8-noyabr) «kelishuvchi tomonlar talaba, aspirant va stipendiya oluvchi stajorlar bilan almashadilar. Tomonlar talaba va aspirantlarga ularning o‘quv dasturini bajarishida to‘liq imkon yaratadilar.

Yuborayotgan taraf talabalar, aspirantlar va stipendiya oluvchi stajorlarning o‘z davlati poytaxtidan qabul qiluvchi taraf davlat poytaxtigacha va orqaga qaytish uchun transport xarajatlarini to‘laydi, qabul qiluvchi taraf esa o‘z poytaxtidan o‘qish va malaka oshirish joyigacha va o‘qish tugagach, orqaga qaytish uchun transport xarajatlarini to‘laydi. Qabul qiluvchi taraf talabalar, aspirantlar va stajorlarni ta‘lim olgani, o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanganligi, yotoqxonada istiqomat qilganligi hamda tibbiy yordam olgani uchun xarajatlardan ozod qiladi hamda ularga ushbu davlatda o‘rnatilgan tartib va miqdorda stipendiya to‘laydi».

O‘zbekiston Respublikasida mehnat qilayotgan chet elliklarning xorijdagi bilim yurtini tamomlaganligi to‘g‘risidagi diplom kuchga ega. Ushbu savollar to‘g‘risidagi qoidalar diplomlarning ekvivalentligi tan olinishi haqidagi bitimlarda aks ettirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi «Ta‘lim to‘g‘risida»¹⁸gi Qonuniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi hokumati va xorijiy davlat o‘rtasidagi ikkitemonlama bitimlar asosida

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-iyuldagi 342-son qaroriga ilova. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to‘plami. 1999-yil, 12-son.

¹⁶ O‘sha joyda.

¹⁷ Huquq yuridik informatsion tizimi. O‘zbekiston Respublikasining iqtisod qonunchiligi. 2002-yil 1-apreldagi versiyasi.

¹⁸ Huquq yuridik informatsion tizimi. O‘zbekiston Respublikasining iqtisod qonunchiligi. 2002-yil 29-martdagi versiyasi.

ularning davlat ta'lim standartlari bir-biriga to'g'ri kelgan holda, ta'lim to'g'risidagi diplomlarning o'zaro tan olinishi amalga oshiriladi.

1994-yilning 15-aprelida MDH davlatlari hukumatlari o'rtasidagi mehnat migratsiyasi va mehnat qiluvchi migrantlarni ijtimoiy himoya qilish sohalaridagi hamkorlik to'g'risidagi Bitimda¹⁹ quyidagi holat biriktirilgan: har ikki taraf ta'lim haqidagi diplomlar va guvohnomalar, unvon, daraja, toifalar berilishi to'g'risidagi kerakli hujjatlar va mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar, chiqish tarafi hududida belgilangan tartibda tasdiqlangan ishga joylashtiruvchi tarafning davlat tiliga yoki rus tiliga tarjima qilish tartibini tan oladi. Shunday qilib, qayd qilingan hujjatlarga nisbatan, masalan, ular RF hududida olingan va O'zbekistonda tan olinishi va ekvivalentligi belgilanishi kerak bo'lsa, hech qanday qo'shimcha jarayonlar (o'zbek tiliga tarjima qilishdan tashqari) ko'zda tutilmagan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, O'zbekiston qonunlari va mehnat to'g'risidagi boshqa normativ aktlar O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan tashkilotlarda mehnat qilayotgan chet el fuqarolariga ham taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi qonunlari va xalqaro shartnomalarda belgilangan hollar bundan mustasno (bu haqda batafsil 22-bobga qarang).

Shu bilan birga chet el fuqarosini ishga qabul qilish jarayonida mustasnoliklar, imtiyozlar va cheklashlarga yo'l qo'yiladi, bu esa aynan mana shu ish faoliyati turiga xos bo'lgan talablar bilan belgilanadi. Masalan, chet el fuqarolari ayrim lavozimlarga tayinlanishi va ma'lum bir faoliyat turi bilan shug'ullanishlari mumkin emas. Bunday cheklashlar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan. Ularga ko'ra faqatgina O'zbekiston fuqarosi bo'lgan shaxs davlat xizmatchisi, prokuror va tergovchi, sudya, notarius bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisiga saylanish huquqiga saylov kuniga 25 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari egadirlar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasi); O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi uchun ushbu Bitim 1995-yil 18-sentabrda kuchga kirgan. o'sha joyda. Xalqaro huquq. 2001-yil 1-fevraldagi holat.

saylanishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasi); O'zbekiston Respublikasi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi²⁰; prokurorlar O'zbekiston Respublikasi fuqarolaridan tayinlanadilar²¹; tuman (shahar), xo'jalik sudi, Qoraqalpoq Oliy sudi, viloyat, Toshkent shahar sudi, Oliy xo'jalik sudlariga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tayinlanishi mumkin²².

Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan sudlarga xalq maslahatchilari ham O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lishlari shart²³.

O'zbekiston Respublikasi «Notariat to'g'risida»gi Qonunning²⁴ 2-modda 1-bandiga binoan O'zbekiston Respublikasida notarius lavozimiga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi tayinlanadi hamda O'zbekiston Respublikasi «Advokatlik faoliyati va advokatlarining ijtimoiy himoyasi to'g'risida» Qonunga²⁵ muvofiq advokatlik faoliyati bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari shug'ullanishlari mumkindir.

MDH davlatlari fuqarolarining nafaqa bilan ta'minlanishi ular o'rtasida 1992-yilning 13-martida tuzilgan Bitim²⁶ bilan tartibga solinadi. Ushbu bitim fuqarolarni nafaqa bilan ta'minlashning barcha, bitim ishtirokchilari bo'lmish davlatlar qonunlari bilan belgilangan turlariga taalluqli. Shunga ko'ra, bu davlatlarning fuqarolarini nafaqa bilan ta'minlash, ular qaysi davlat hududida yashasalar, shu davlat qonuniga asosan, nafaqa tayinlanishi esa turar joyiga asosan amalga oshiriladi. Bundan tashqari ushbu masala bo'yicha ikkitomonlama bitimlar ham mavjuddir²⁷.

Fikrimizcha, quyidagilarni alohida ko'rsatib o'tish kerak. Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka olish va bolalarni tarbiyalash uchun

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida 1993-yil 6-may Qonuni (5-modda). O'zbekistonning yangi qonunlari. Son 8. -T.: Adolat, 1994.

²¹ O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi 1992-yil 9-dekabr Qonuni (O'zbekiston Respublikasining 1996-yil avgust, 1996-yil 27-dekabr, 1997-yil 30-avgust, 1999-yil 20-avgust qonunlariga muvofiq kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan), (48-modda). Юридическая информационная система ПРАВО. Административное, уголовное законодательство. 2002-yil 29-martdagi versiyasi.

²² O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi 1993-yil 2-sentabr Qonuni (O'zbekiston Respublikasi 1995-yil 31-avgust, 1996-yil 27-dekabr qonunlariga muvofiq kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) (62-moddasining 1-3-bandlari).

²³ 62-moddaning 6-7-bandlar. O'sha joyda.

²⁴ 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan.

²⁵ O'sha joyda.

²⁶ Юридическая информационная система ПРАВО. Международное право. 2002-yil 1-apreldagi versiyasi.

²⁷ O'zbekiston Respublikasi va Gruzniya hukumatlari o'rtalaridagi fuqarolarning ijtimoiy ta'minotiga bo'lgan huquqlari kafolatlari to'g'risidagi Kelishuv (1996-yil 28-may).

oilaga olish to'g'risidagi Nizomga²⁸ asosan, O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmish bolani farzandlikka olish yoki tarbiyalash uchun oilaga olish vaqtida O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining²⁹ 151-167, 237-moddalari va yuqoridagi Nizom talablariga (27-paragraf) rioya qilinishi shart.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining farzandlarini farzandlikka olish, faqatgina O'zbekiston Respublikasida o'z diplomatik vakolatxonalariga ega bo'lgan davlatlar fuqarolariga ruxsat etiladi.

Bola farzandlikka olishni xohlovchi shaxslarni hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun diplomatik vakolatxonaning iltimosnomasi asosiy shart bo'lib xizmat qiladi. U o'z ichiga quyidagi ma'lumotlarni olgan bo'lishi lozim: bo'lg'usi farzandlikka oluvchining tug'ilish sanasi, turarjoyi, ismi, familiyasi, otasining ismi, uning moddiy holati to'g'risidagi ma'lumotlar, tibbiy muqaddima, oiladagi ma'naviy psixologik iqlim, shuningdek oila a'zolariga tavsifnoma (28-band).

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmish va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida istiqomat qiluvchi bolani farzandlikka oluvchi shaxs qaysi chet davlatning fuqarosi bo'lsa, shu davlatning vakolatli organi tomonidan rasmiylashtirilgan farzandlikka olish O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb tan olinishi uchun, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqishdan avval bola yoki uning ota-onasi istiqomat qilgan shahar yoki tuman hokimi tomonidan oldindan berilgan ruxsatnoma taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi konsuli O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'la turib uning hududidan tashqarida istiqomat qiluvchi bolani farzandlikka olinishini rasmiylashtirish huquqiga egadir.

Farzandlikka olish jarayonida bolaning O'zbekiston Respublikasining qonunlari va xalqaro shartnomalar bilan belgilangan huquqlari poymol qilingan holda, farzandlikka olish farzandlikka oluvchining fuqaroligidan mustasno ravishda amalga oshirilmaydi, aks holda sud tartibida bekor qilinadi (29-band).

²⁸ 171-sonli 1999-yil 12-aprel Vazirlar Mahkamasining Qaroriga 3-sonli Ilova. O'sha joyda. Iqtisodiyot qonunchiligi. 2002-yil 29-martdagi versiyasi.

²⁹ O'sha joyda.

3-§. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet eldagi huquqiy holati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi fuqarosi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga chiqish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 6-yanvardagi 8-sonli «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga chiqish to'g'risidagi tartibi hamda O'zbekiston Respublikasining diplomatik pasporti to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori³⁰ bilan tasdiqlangan. Unda shunday deyilgan:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari shaxsiy, jamoa ishlari bo'yicha, doimiy yashash uchun, sayohatchi sifatida, o'qishga, ishga, davolanishga, xizmat safariga chet elga erkin chiqish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet eldagi huquqiy holati, ular hozir bo'lgan mamlakat qonunchiligi bilan birga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ham belgilanadi.

Chet elda hozir bo'lgan O'zbekiston fuqarolari O'zbekiston Respublikasi muhofazasida bo'ladilar. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasida ko'zda tutilgan: O'zbekiston Respublikasi o'z fuqarolarining huquqiy muhofazasini ham O'zbekiston Respublikasi hududida, ham undan tashqarida kafolatlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavida³¹ belgilanganidek, konsulning vazifasi-O'zbekiston fuqarosi qaysi davlatda bo'lsa, shu davlat qonunlari tomonidan berilgan barcha huquqlardan, shu davlat va O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan xalqaro shartnomalardan to'la hajmda foydalanishi uchun chora ko'rishi kerak. O'zbekiston Respublikasi fuqarosining huquqlari poymol etilishi konsul tomonidan aniqlangan holda, u, bu huquqlarni qayta tiklash uchun chora ko'rishi kerak.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarosining huquqiy holati nafaqat uning hozir bo'lgan davlatning qonunchiligi bilan, balki shu davlat va O'zbekiston Respublikasi orasida tuzilgan

³⁰ O'sha joyda.

³¹ O'zbekistonning yangi qonunlari. 14-son. T.6, «Adolat», 1997-yil.

ikkitomonlama va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar tomonidan ham belgilanadi.

Shartnoma tartibidagi o'zarolik asosida ma'lum holatning taqdim etilishi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining turli xil kamsitishlardan himoya qilish, ularning huquqiy holatini birtaraflama tartibda o'zgartirishlarning oldini olish maqsadiga yo'naltirilgan.

Bu yerda, avvalambor, BMT tomonidan e'lon qilingan «Inson huquqlari Deklaratsiyasi»³²ni ko'rsatib o'tish joiz. Unga qo'shilgan ko'p mamlakatlar o'z davlatlari hududida insonga asosiy huquq va erkinliklar taqdim qilish majburiyatini oldilar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining mamlakatimiz tashqarisidagi huquqiy holati, ko'p hollarda, uning chet davlat hududiga kirishidan maqsadi bilan aniqlanadi.

Yuqorida qayd etilganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi mamlakat tashqarisida quyidagi hollarda bo'lishi mumkin: vaqtincha (shaxsiy ishlar, xizmat safari, o'qish, kontrakt bo'yicha mehnat faoliyati) yoki doimiy ravishda yashash (mamlakatda doimiy ravishda yashovchi chet ellik statusiga ega bo'lish).

O'zbekiston chegarasidan tashqariga vaqtinchalik chiqayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosining, avvalambor, chet elda bo'lish muddati chegaralangan va xorijiy mamlakat tomonidan taqdim etilgan kirish-chiqish vizasida qayd etilgan bo'ladi. Ayrim davlatlar, shuningdek, mamlakatga kirayotgan shaxs o'zi bilan birga tibbiy sug'urta, ma'lum pul miqdori, biron-bir kasallikka qarshi emlanganligi to'g'risidagi, masalan, SPID bilan kasallanmaganligi to'g'risidagi ma'lumotnomalarga ega bo'lishini talab qilishadi. Ishga yoki o'qishga ketayotganda, viza, kerakli kontrakt mavjud bo'lgan holdagina beriladi.

Aytib o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosining huquqiy holati, u qaysi xorijiy davlatda bo'lsa, shu davlat qonunchiligi bilan belgilanadi. Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasi fuqarosining huquqiy holati turli davlatlarda turlicha bo'ladi.

Masalan, ichki qonunlari shariat normalariga asoslangan biron-bir islom davlatida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ayrim harakatlari uchun (spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, taqiqlangan kiyimlarni kiyish) jazolanishi va xatto jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Vaholanki, xuddi shu harakatlar uchun Yevropa davlatida

³² Сборник международных договоров. Нью-Йорк и Женева, Организация Объединенных Наций. 1994.

bo'lgan boshqa bir fuqaroimiz hech qanday javobgarlikka tortilmaydi.

Boshqa tomondan, mamlakatimiz tashqarisida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, bizning qonunchiligimizga umuman ma'lum bo'lmagan yoki bizda to'g'ridan to'g'ri tan olinmaydigan mulk huquqlariga ega bo'lishi mumkin (masalan, qishloq xo'jalik yeriga bo'lgan xususiy mulk huquqi) va umuman, O'zbekiston Respublikasi FK bilan belgilangan cheklashlarga rioya etmagan holda, xohlagan mulkka egalik qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi FKning 1184-moddasi ko'chmas va ko'char mol-mulkka nisbatan mulk huquqi hamda boshqa ashyoviy huquqlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bu mol-mulk joylashgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanishini ko'zda tutadi.

Shuning uchun ham, mulkdorning huquq doirasi ashyo joylashgan mamlakat qonuni tomonidan belgilanadigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi chet el qonuni tomonidan o'rnatilgan tartibda o'zining mulkiga nisbatan barcha huquqlarni amalga oshirishi mumkin va mahalliy organlar tomonidan beriladigan himoyalardan foydalanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mulk huquqlarini cheklashga va ularni qonuniy muhofazadan mahrum qilishga qaratilgan barcha urinishlarga kamsitish sifatida qaraladi va bu holda fuqaro ushbu davlatdagi O'zbekiston Respublikasining konsuliga yordam so'rab, murojaat qilishi mumkin.

Shu bilan bir vaqtda O'zbekiston Respublikasi FKning 1172-moddasiga ko'ra «O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolik holati hujjatlarini qayd etish O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalarida amalga oshiriladi. Bunda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari qo'llaniladi».

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi biron-bir xorijiy davlat muassasasiga, korxonasiga yoki firmasiga ishga kirishi vaqtida taraflar (ya'ni bizning fuqaro va xorijiy yuridik shaxs) o'rtasidagi munosabatlar muassasa joylashgan davlat qonunlari bilan tartibga solinadi. Bu hol O'zbekiston Respublikasi FKning 1190-moddasida ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, xorijiy firmalar bilan tuzilgan xususiy mehnat kontraktlariga asosan chet elga ishga ketmoqchi bo'lgan O'zbekiston

Respublikasi fuqarolari, mamlakatdan tashqarida ijtimoiy muhofazasini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Vazirligidan chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnomani oldindan olib qo'yishlari kerak. Ruxsatnomani olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 19-oktabrdagi 408-sonli Qarori³³ bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda mutaxassislik faoliyati tartibi to'g'risida»gi Nizomda ko'rsatilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi fuqarosining mulk, shaxsiy nomulkiy, oila, mehnat va protsessual huquqlari, milliy huquq normalari bilan bir qatorda xalqaro xususiy huquq va xalqaro odatlar, shuningdek fuqaro qaysi davlatda bo'lsa, shu davlat huquqi bilan tartibga solinadi.

IV BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Turli davlatlarda chet el fuqarolarining holati. Chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqati va muomala layoqati.

2. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining huquq va muomala layoqatlari.

3. Chet elda O'zbekiston Respublikasi fuqarosining huquqiy holati.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Fuqarolik, oila ni jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida MDH Konvensiyasi. Minsk, 1993, 22-yanvar. - Юридическая информационная система ПРАВО. Международное право. 2002-yil 1-apreldagi versiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 1993-yil.

3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. -T.: «Adolat», 1996-yil.

4. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. -T.: «Adolat», 1996-yil.

³³ Huquq yuridik informatsion tizimi. O'zbekiston Respublikasining iqtisod qonunchiligi. 2002-yil 29-martdagi versiyasi.

5. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi (1998-yil 30-aprel 1998.). –T.: «Adolat», 1998-yil.

6. «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni. // O'zbekistonning yangi qonunlari. - 6-son, T.: «Adolat», 1994-yil.

7. O'zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavi (1996-yil 29-avgust). - O'zbekistonning yangi qonunlari. №14. –T.: «Adolat», 1997-yil.

8. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1996-yil. 30-avgust Qonuni. // O'zbekistonning yangi qonunlari. №14. –T.: «Adolat», 1997-yil.

9. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgust Qonuni. -Юридическая информационная система ПРАВО. Экономическое законодательство РУз. Версия от 09.02.2001.

10. Постановление Кабинета Министром Республики Узбекистан N408 от 19.10.95. "О профессиональной деятельности граждан Республики Узбекистан за рубежом и иностранных граждан в республике"- O'sha joyda.

11. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан N408 от 21 ноября 1996 "О порядке въезда, выезда, пребывания и транзитного проезда иностранных граждан и лиц без гражданства в РУз" - с изменениями от 16.04.99. –O'sha joyda.

12. Положение об усыновлении (удочерении) несовершеннолетних детей и принятии детей в семью на воспитание (патронат). - Приложение номер 3 к постановлению Кабинета Министров РУз от 12 апреля 1999 и. номер 171. - O'sha joyda.

13. Богуславский М.М. Международное частное право. –М.: Юристъ, 2000. (3-изд, перераб. и доп.)

14. Гражданское и торговое право капиталистических государств. Отв. ред. ЕЛ.Васильев. –М.: "Международные отношения", 1993.

15. Дадабаев Ю.Г., Рахимов Г.А. Международное частное право. Учебное пособие. Изд-во "Фергана", 1999.

16. Звекон В.П. Международное частное право. Курс лекций. –М.: Издательская группа НОРМА-ИНФРА-М, 1999.

17. Лазарев Л.В., Марышева Н.И., Пантелеева И.В. Иностранцы граждане: правовое положение / Под ред. Н.И. Марышевой. –М.: Российское право, 1992.

18. Марышева Н.И. Иностранец: правовая защита. –М.: Известия, 1993.

19. Международное частное право. Отв. ред. Марышева Н.И. "Контракт", "ИНФРА-М, 2000.

20. Международное частное право: современные проблемы. –М.: ТЕИС, 1994.

21. Правовое положение иностранных граждан в России. Сборник нормативных актов. –М.: Издательство БЕК, 1996.

22. Samarxujayev V.B. Xalqaro xususiy huquq. O'quv-metodik qo'llanma. –Т.: «El-dinur» nashriyot uyi, 1999-yil.

23. Xamrayev S. Xalqaro xususiy huquq. O'quv qo'llanma. –Т.: «Adolat», 2000-yil.

YURIDIK SHAXSLARNING HUQUQIY HOLATI

1-§. Yuridik shaxslarning xalqaro xo'jalik munosabatlarida ishtirok etishi

Aytib o'tganimizdek, mulkiy munosabatlarga chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik huquqi subyekti sifatida nafaqat jismoniy, balki yuridik shaxslar ham qatnashishlari mumkin.

Hozirgi zamonda yuridik shaxslarning faoliyatlari faqatgina bir davlat mintaqasi bilan chegaralanmagan. Kapital eksporti shunday holatga olib keladiki, bir davlatda tuzilgan yuridik shaxs ikkinchi davlatga butunlay yoki qisman mansubdir. Monopoliyalarning (transmilliy kompaniyalar) asosiy faoliyatlari esa umuman bir necha davlat mintaqalarida amalga oshiriladi. Bunday monopoliyalar bir nechta guruhlariga bo'linadi. Birinchi guruhga chet elda ko'pgina filiallar, sho'ba korxonalariga ega bo'lgan milliy jamiyatlar, trest, kompaniyalar kiradi («Jeneral motorz», «Ford motorz», «Interneyshnl biznes meshinz», «Folkswagen», «Filips», «Nestle» va boshqalar) Birinchi guruhning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu tashkilotlar kapital bo'yicha milliy, faoliyati bo'yicha xalqaro tashkilot hisoblanadi.

Ikkinchi TMK guruhiga ham faoliyat, ham kapital bo'yicha xalqaro hisoblanadigan trest va konsernlar kiradi (Angliya-gollandiya neft konserni «Rooyal datch-Shell», Germaniya-Belgiya foto-kimyo mahsulotlari ishlab chiqaruvchi «Agfa-Gevert» va boshqalar).

Yuqoridagi guruhlarning umumiyligi shundan iboratki, ular yuridik shaxs sifatida biron-bir davlatda ro'yxatga olingan (tuzilgan) bo'lib, boshqa davlatlarda esa ular ko'pgina filial, bo'limlar, sho'ba korxonalariga egadirlar.

Va, nihoyat, uchinchi guruhga yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan kartel, sindikat, turli xil birlashmalar kiradi³⁴.

Yuridik shaxslar (Juristische person, personne civile, personne morale, persone juridique, corporation, legal person, juridical person)

³⁴ Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник. -2-е изд., перераб. и доп. -М.: Междунар. Отношения. 1994. -С.118.

– bu avvalambor, turli xildagi tadbirkorlik birlashmalari bo‘lib, ular har bir davlatning iqtisodida muhim rol o‘ynaydi.

Yuridik shaxs faqatgina o‘ziga mansub bo‘lgan mulkiy huquqi va majburiyatlari sohibi sifatida ko‘rib chiqiladi, u tarkibiga kiruvchi shaxslardan mustaqil ravishda va o‘z nomidan harakat qiladi.

Xo‘jalik yuritishning zamonaviy sharoitlarida yuridik shaxslarning faoliyati bitta davlatning o‘zi bilan chegaralanib qolmaydi va bunday yuridik shaxslarning soni doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Shuni ta‘kidlash lozimki, kapitalni eksport qilish, bir davlatda tuzilgan korxonalarni to‘liq yoki qisman ravishda boshqa davlat kompaniyalariga tegishli bo‘lib qolishiga olib keladi, chunki yirik monopoliyalarning asosiy faoliyati bir vaqtning o‘zida bir necha mamlakatda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs to‘g‘risida aniqroq va kengroq tushuncha olish uchun O‘zbekiston Respublikasi moddiy-huquqiy normasiga, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 39-moddasiga murojaat qilamiz: «O‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da‘vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.»

Qonundagi shu tushunchani asos qilib olib va undagi asosiy o‘ziga xos xususiyatlarga e‘tibor qaratsak. Fikrimizcha, ularga quyidagilarni kiritsa bo‘ladi: albatta, mol-mulkning mavjudligi (egalikning uch turining biri asosida), bu mol-mulkning alohida bo‘lishi va majburiyatlar yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob berishi va mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishi. Mana shu asosiy o‘ziga xos belgilar yuridik shaxs tushunchasini ifodalaydi, uning jismoniy shaxs yoki davlat kabi subyektlardan farqini bildirib turadi.

Bu borada milliy qonunchilik hamda doktrina (ta‘limot) Yevropa mamlakatlarinikiga o‘xshashib ketadi. Bunda turli iboralar qo‘llanilsa ham ular ma‘no jihatdan aynan bir yoki juda yaqin. Masalan, Angliya qonunchiligi yuridik shaxslarga munosabatda ularga mustaqil ish faoliyati olib borish tamoyilini qo‘llaydi va

buning natijasida ularda xilma-xil fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishga imkoniyat tug'iladi.

Yuridik shaxslar asosan mulkiy huquqi va faoliyatining xususiyatlariga qarab tasniflanadi: shunga qarab ular bir necha guruhlarga bo'linadi.

G'arb mamlakatlarida yuridik shaxslar ommaviy huquqqa va xususiy huquqqa tegishli yuridik shaxslarga bo'linadi. Bunda ommaviy huquqqa tegishli yuridik shaxslarga davlat, ma'muriy-hududiy bo'linmalar, davlat muassasalari, savdo-sanoat palatalari, ayrim davlat korxonalari kiritiladi.

Germaniya huquqida (Germaniya Fuqarolik tuzuklari) yuridik shaxslar ittifoqlar va muassasalarga bo'linadi. Ittifoqlar o'z navbatida xo'jalik ittifoqlari va noxo'jalik ittifoqlariga bo'linadi.

Bunda ittifoqlar deb, ikki va undan ortiq muassasalar tomonidan ta'sis etiladigan turli xil tashkilotlar tushunilsa, muassasalarga yakka ta'sischi tomonidan ta'sis etiladigan yuridik shaxslar (xususiy firmalar) kiradi.

Fransiya qonunchiligi yuridik shaxslarga klassifikatsiya berar ekan, ularni asosan xo'jalik jamiyatlari va assotsiatsiyalarga ajratadi. Xo'jalik jamiyatlari-xususiy huquq yuridik shaxslari, assotsiatsiyalar esa – ommaviy huquq yuridik shaxslari hisoblanadi.

Angliyada yuridik shaxslar korporatsiyalar (xo'jalik faoliyatini yurituvchi yuridik shaxslar) va yakkahokim korporatsiyalarga bo'linadi.

AQSHda yuridik shaxslar ommaviy, notijorat (non-profit corporations) va tijoratchi turlariga bo'linadi³⁵.

O'zbekiston Respublikasi FKning 40-moddasi yuridik shaxslarni, ularning maqsadiga qarab, tijoratchi va tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslarga bo'lib ko'rsatadi. O'z navbatida bu ikki turning har xil shakllarda mavjud bo'lishi ko'zda tutilgan. Shunday qilib, tijoratchi tashkilotlar xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar va boshqa qonun doirasidagi yuridik shaxslar bo'lsa, tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

³⁵ Гражданское и торговое право капиталистических государств: Учебник.-3-е изд., перераб. и доп. – М.: Междунар. отношения. 1993. –С.79-84.

2-§. Yuridik shaxsning huquq layoqati, qonuni va muayyan davlatga mansubligini aniqlash

Yuridik shaxslarning huquqiy layoqati to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, uning huquq subyekti sifatida o'ziga xosligi, jismoniy shaxs, davlat va boshqa huquq subyektlaridan farqlab turuvchi xususiyatlarini aniqlashga harakat qilishni o'rinli deb topdik.

Jamoa tuzilmalarining huquq subyektligini asoslovchi turli xil yuridik shaxsga mansub nazariyalar mavjuddir. Ulardan uydirma (fiksiya) hamda real nazariyalar to'g'risida alohida to'xtalib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uydirma nazariyasi XIX asr nemis yuristi K.F. Savini nomi bilan bog'liqdir. Bu nazariya huquqning haqiqiy subyekti sifatida faqat insonni tan oladi. Shunga qaramasdan pozitiv huquq huquqqa layoqati bo'lgan shaxslarning doirasini toraytirishi yoki, aksincha, sun'iy huquq subyektlari tashkil qilish evaziga, uni kengaytirishi mumkin. Bunga binoan, yuridik shaxs – oddiy uydirma orqali tuzilgan sun'iy huquq subyektidir. Mazkur subyekt maxsus yuridik maqsadlar uchun tuziladi. Bu yerda yuridik shaxsning huquqiy munosabatlarida huquq subyektligining yagona egalari – jismoniy shaxslar – real qatnashchilari bo'la oladilar. Yuridik shaxs oddiy uydirma sifatida layoqatli emasdir. Bu yerda, shaxslardan iborat bo'lgan, uning organi layoqatlidir. Demak, insonlarsiz organlar, organlarsiz yuridik shaxs yo'q, uning huquqiy va muomala layoqati yo'qdir.

Ikkinchi, real nazariyasi, XIX asr germaniyalik yurist Girke nomi bilan bog'liqdir. Ushbu nazariyaga ko'ra davlat normal holatda faoliyatini amalga oshirishga xizmat qiladigan yuridik shaxs hayotda real hozir bo'luvchi huquq subyekti hisoblanadi.

Ushbu nazariyaning zamonaviy tarafdorlari huquqiy tartibot huquq va majburiyatlar bergan yuridik shaxsni alohida manfaatlar birligi deb qarashadi. O'zining tuzilmasi bo'yicha u alohida manfaatlar birligini tashkil etadi. Bu yerda ittifoqning manfaati uning har bitta a'zolarining manfaatlaridan ajralgan bo'ladi³⁶.

Yuridik shaxslarning umumiy va maxsus huquq layoqatlari mavjud.

³⁶ Гражданское и торговое право капиталистических государств: Учебник.-3-е изд., перераб. и доп. –М.: Междунар. отношения. 1993. 77-79-бетлар.

Umumiy huquq layoqatida yuridik shaxs, jismoniy shaxs singari, fuqarolik huquqi egasi bo'lishi va fuqarolik huquqi majburiyatlarini o'z zimmasiga olishi mumkin. Albatta, faqatgina insonga tegishli tabiiy xususiyatlar bundan mustasno.

Maxsus huquq layoqatida esa yuridik shaxs faqatgina qonun yoki uning Nizomida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan huquqiy munosabtlarga kirisha oladi³⁷.

Oxirgi yillarda g'arb mamlakatlarida umumiy huquq layoqati keng tan olinayapti. Masalan, Nizomda ko'rsatilmagan faoliyat bilan shug'ullangan korporatsiyalarning javobgarlikka tortilishi tobora kamayib bormoqda.

Xalqaro xususiy huquq fanida yuridik shaxslarning qaysi davlatga mansubligini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va tashqi iqtisodiy aloqalarning to'la-qonli ishtirokchisi bo'lgan firma va tashkilotlar har vaqtda biron-bir davlat, uning huquq-tartibot, qonun-qoidalariga bog'liqdir³⁸.

Yuridik shaxsning bu muhim xususiyati xalqaro xususiy huquqda shaxsiy statut va yuridik shaxsning millati deb ataladi. Angliya va AQSHda domitsiliy, ya'ni yuridik shaxsning joylashgan joyi degan ibora ishlatiladi.

Bu yerda, albatta, milliy yuridik shaxslar to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, hech qanday qiyinchilik vujudga kelmaydi-milliy yuridik shaxsga nisbatan milliy qonun normalari tatbiq qilinadi. Agarda u yoki bu munosabat subyekti sifatida chet el yuridik shaxs bo'ladigan bo'lsa, u qaysi mamlakatga mansub, uning faoliyati qaysi mamlakatning qonunchilik normalari tomonidan tartibga solinishi, aynan yuridik shaxs ro'yxatdan o'tkazilishi, tuzilishi, tugatilishi, uning huquq layoqati hajmi va h.k. to'g'risidagi savollarga javob topishga to'g'ri keladi.

Bu masalalar yuridik shaxs mansub bo'lgan davlatning qonunchiligi (yuridik shaxs shaxsiy qonuni-lex societatus) tomonidan tartibga solinishi lozimligi umum tan olingan. Shaxsiy qonun tashkilotning huquqiy holatini belgilaydi (u yuridik shaxs maqomiga egami, uning huquq layoqati uning hajmi, miqdori qanday, uning organlari tomonidan bitimlar tuzish tartibi, ta'sis etilishi, tugatilishi va h.k.). Bundan tashqari yuridik shaxsning shaxsiy qonuni ayrim

³⁷ Гражданское и торговое право капиталистических государств: Учебник. -3-е изд., перераб. и доп. -М.: Междунар. отношения. 1993.87-бет.

³⁸ Луцк Л.А., Марышева Н.И., Садиков О.Н. Международное частное право: Учебник. -М.: Юрид. лит., 1984.

kollizion masalalarni hal etish uchun ma'lum bir yuridik shaxs u yoki bu huquqiy tizimga bog'lanishini belgilaydi³⁹.

Hozirgi vaqtda kompaniyalar bir davlatda ta'sis etilgan bo'lishi, bir qancha boshqa davlatlarda xo'jalik faoliyatini amalga oshirishi, uning mol-mulki turli xil fuqarolikka ega bo'lgan tashkilotlar va shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda, albatta, qaysi davlat huquqini qo'llash muammosi kelib chiqishi tabiiy hodisa bo'lib ko'rinadi va shuning uchun ham yuridik shaxsning shaxsiy qonunini belgilashda yagona fikr mavjud emas. Bu borada quyidagi doktrinalar mavjud:

1. Inkorporatsiya doktrinasini. Ushbu doktrinaga asos qilib yuridik shaxsning «millati» olingan. Bu yerda uning shaxsiy statuti bo'lib u tashkil qilingan va ro'yxatdan o'tgan davlatning huquqi hisoblanadi. Bu doktrina anglo-amerika huquqiy tizimiga mansub mamlakatlarda keng tarqalgan. Uning jiddiy kamchiligi shundan iboratki, bu yerda yuridik shaxsning tashkil etilishi va uning faoliyat ko'rsatish joyi oralarida uzviy aloqa mavjud emas. Ma'lumki, yuridik shaxs bir davlatda tashkil etilsa-da, boshqaruv markazi boshqa davlatda bo'lishi, asosiy faoliyatini esa umuman uchinchi davlat hududida amalga oshirishi mumkin. Bu esa yuridik shaxs o'zining faoliyatini amalga oshirayotgan mamlakatning qonunchiligi tomonidan qo'yilgan talablarini bajarmasligi holatiga olib kelishi mumkin.

2. Ekspluatatsiya markazi (asosiy faoliyat ko'rsatilayotgan joy) doktrinasini. Ushbu konsepsiyaga binoan yuridik shaxsning shaxsiy qonuni deb, uning asosiy faoliyati amalga oshirilayotgan mamlakatning qonuni hisoblanadi. Lekin shuni ham aytib o'tish lozimki, yuridik shaxs o'zining asosiy faoliyatini bir necha davlat hududida amalga oshirishi mumkin. Ushbu doktrina anglo-amerika mamlakatlari tomonlaridan qabul qilinmagan, lekin ba'zi bir yevropa mamlakatlarida u qo'llaniladi.

3. O'troqlik (boshqaruv markazi hozir bo'lgan joy) doktrinasini. Odatda, yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari uning va boshqaruv markazining hozir bo'lgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu holat yuridik shaxsning shaxsiy qonuni deb, uning ma'muriy markazi hozir bo'lgan joyning qonuni bo'lishiga imkoniyat beradi. Ushbu doktrina Fransiya, Germaniya, Italiya, Avstriya, Shveysariya va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi va

³⁹ Ермолаев В.Г., Сиваков О.В. Международное частное право. Курс лекций. –М.: "Былина", 1998. – С.108-109.

hozirgi vaqtda keng tarqalgan. Biroq uning kamchiligi shundaki: ushbu doktrina bo'yicha yuridik shaxsning millatini belgilash mumkin emas⁴⁰.

Yuridik shaxsning qaysi davlatga mansubligini aniqlash amaliy ahamiyatga ham egadir. Masalan, bir davlatda u yoki bu tashkilot yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishi mumkin, boshqa davlatda esa – yo'q (Angliyada partnership yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmaydi, Fransiyada esa ega bo'ladi).

Bu holatni aniqlash uchun mazkur tashkilot qaysi davlatga mansubligini bilish lozimdir. Xalqaro xususiy huquq doktrinasi bo'yicha yuridik shaxsning u yoki bu davlatga mansubligi «millati» uning «qonuniga» bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi FKning 1175-moddasiga ko'ra yuridik shaxs qaysi mamlakatda ta'sis etilgan bo'lsa, shu mamlakatning huquqi mazkur yuridik shaxsning qonuni hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi FKning 1176-moddasiga ko'ra, yuridik shaxsning fuqarolik huquq layoqati yuridik shaxsning qonuni bilan belgilanadi.

Yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan va tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilari bo'lmish tashkilot va firmalar doimo ma'lum bir davlat va uning huquqiy tartibotiga «bog'langan» bo'lib, yuridik shaxsning ushbu muhim xususiyati xalqaro xususiy huquqda shaxsiy statut-maqomi (qonuni) va yuridik shaxs millati deb ataladi.

Demak, yuqoridagilarni hisobga olgan holda, shuni ta'kidlash joizki, yuridik shaxsning shaxsiy statuti (qonuni) yuridik shaxsning quyidagi holatlar bo'yicha davlatga mansubligini belgilaydi:

- a) uning huquq subyektligi hajmini aniqlashda;
- b) soliq tartibida;
- c) kollizion masalalarni hal etishda;
- d) uning bekor bo'lishi tartibini belgilashda va h.k.

3-§. O'zbekiston Respublikasida chet el yuridik shaxslarining huquq layoqati. Chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik faoliyatida ishtirok etish shakllari. O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyasi ishtirokida korxonalarining huquqiy holati

Milliy kollizion normalarda quyidagi me'yor mustahkamlab qo'yilgan: «Agar O'zbekiston Respublikasining qonunida chet el

⁴⁰ Ермолаев В.Г., Сиваков О.В. Международное частное право. Курс лекций. –М.: "Былина", 1998.109-110-бет.

yuridik shaxslari uchun boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, chet el yuridik shaxslari O'zbekiston Respublikasida fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan tadbirkorlik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiradilar» (FKning 1177-moddasi).

Xorijiy yuridik shaxslarning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda boshqa davlatlar bilan tuzilgan xalqaro shartnomalar normalari tomonidan tartibga solinadi.

1993-yil 22-yanvardagi MDH davlatlarining ko'p tomonlama Konvensiyasiga⁴¹ binoan, yuridik shaxsning huquq layoqati u tuzilgan davlat qonuni tomonidan belgilanadi.

Savdo shartnomalarida shartnoma tuzayotgan davlatlar o'z yuridik shaxslariga ma'lum bir holat (maqom), hamda yuridik shaxslarning huquq subyektligi o'zaro tan olinishi to'g'risida kelishib oladilar.

Yuridik shaxslarning millatini aniqlash asosan ularning huquq subyektligini tan olish uchun zarur. Bu esa ular bilan bitim tuzish-tuzmaslikka asos bo'ladi.

Chet el korxonasi va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasida maxsus ruxsatsiz O'zbekiston Respublikasi milliy korxonasi va tashkilotlari bilan turli xil tashqi iqtisodiy bitimlar tuzishga haqli, ular bo'yicha hisob-kitoblarni ham amalga oshirishi mumkin.

Chet el yuridik shaxslari o'zlarining huquqlarini sudga himoya qilish huquqiga egadirlar.

Barcha holatlarda chet el firmalariga ular tuzayotgan bitimlar, yoki ularning huquqlarini himoya qilish doirasida maxsus ruxsatnomalar talab qilinmaydi.

Ma'lum bir masalalar bo'yicha, yuqorida ta'kidlanganidek, yuridik shaxslar o'zlarining shaxsiy qonunlariga bo'ysunadilar.

Bu yerda bizning fikrimizcha, alohida e'tiborni chet el korxonasi, tashkilotlarining vakolatxonalarini va filiallar hamda sho'ba korxonalariga qaratsak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 47-moddasiga binoan vakolatxona yuridik shaxsning u turgan yerdan tashqarida joylashgan, yuridik shaxs manfaatlarini ifodalaydigan va ularni himoya qiladigan alohida bo'linmasidir.

Filial yuridik shaxsning u turgan yerdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu

⁴¹ Юридическая информационная система ПРАВО. Международное право. 2002-йil 1-apreldagi versiyasi.

jumladan vakolatxona vazifalarini bajaradigan alohida bo'linmasidir.

Agar qonunda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, vakolatxona va filiallar yuridik shaxs hisoblanmaydi. Ular o'zlarini tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadilar hamda u tasdiqlagan nizomlar asosida ish olib boradilar. Vakolatxona va filiallarning rahbarlari yuridik shaxs tomonidan ta'minlanadi hamda uning ishonchnomasi asosida ish olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy tijorat tashkilotlarining vakolatxonalarining huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-oktabrdagi 410-sonli Qarori⁴² bilan tartibga solinadi.

Mazkur Qaror bilan xorijiy tijorat tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish tarkibi va ularning faoliyati to'g'risida Nizom tasdiqlanadi.

Ushbu Nizom xorijiy tijorat tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish tartibini va ularning faoliyatini belgilaydi.

Ushbu Nizom bo'yicha xorijiy tijorat tashkilotlari deyilganda firmalar, kompaniyalar, korporatsiyalar, jamiyatlar, sheriklar va xorijiy davlat qonun hujjatlariga muvofiq chet elda vakolatxona ochish huquqiga ega bo'lgan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning boshqa tashkiliy-huquqiy shakllari tushuniladi.

Ushbu Nizom shuningdek, davlatning tegishli vakolatli organi ruxsatnomasi mavjud bo'lgan taqdirda, xorijiy davlatlar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining (vazirliklari, federal okruglari va shu kabilarning) savdo (tijorat) vakolatxonalariga ham tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy banklar vakolatxonalarini akkreditatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Xorijiy firmalar O'zbekiston Respublikasi hududida o'z vakolatxonalarini O'zbekiston hududida o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida ochadilar.

Vakolatxonalarni ochish ularni O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida akkreditatsiya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

⁴² Huquq yuridik informatsion tizimi. O'zbekiston Respublikasining iqtisod qonunchiligi. 2002-yil 29-martdagi versiyasi.

Vakolatxonalar yuridik shaxslar hisoblanmaydi, xo'jalik yoki boshqa tijorat faoliyatini amalga oshirmaydilar.

Vakolatxona soliq to'lovchi hisoblanmaydi. Xorijiy firmaga, vakolatxonalarning xorijiy va mahalliy xodimlariga soliq solish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Akkreditatsiya qiluvchi organ akkreditatsiya qilingan vakolatxonalar to'g'risidagi axborotni, unda ularning manzilini va vakolatxonani akkreditatsiya qilish to'g'risida sertifikatning muddatini ko'rsatgan holda, har chorakda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga jo'natadi (1-9-bandlari).

O'zbekiston Respublikasida xo'jalik faoliyatning tashkiliy-huquqiy shakllari turlicha bo'lishi mumkin, lekin bu yerda maqsad ularning qatnashchilarining mablag'larini birlashtirishdir. Bular quyidagicha: konsorsium, mablag'i yuz foiz chet el mulklariga tegishli bo'lgan korxonalar, aralash va qo'shma korxonalar.

O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari ishtirokidagi (xorijiy sarmoyalar) korxonalarining maqomi va faoliyatini tartibga soluvchi asosiy normativ aktlar «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida»⁴³, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»⁴⁴, «Chet el investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalariga berilgan qo'shimcha rag'batlantirish va imtiyozlar to'g'risida»gi Farmoni (o'zgartirishlar bilan)⁴⁶, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarini tashkil qilish, davlat tomonidan ro'yxatga olish va faoliyatini to'xtatish to'g'risida»gi Qarori⁴⁷ (o'zgartirishlar bilan) va hokazolar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasiga ko'ra chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

– O'zbekiston Respublikasining yuridik va (yoki) jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va

⁴³ O'zbekistonning yangi qonunlari. 7-son. –T.: "Adolat", 1994-yil.

⁴⁴ Xalq so'zi. 1998-yil 20-may.

⁴⁵ O'sha joyda. 1998-yil 21-may.

⁴⁶ Huquq yuridik informatsion tizimi. O'zbekiston Respublikasining iqtisod qonunchiligi. 2002-yil 29-martdagi versiyasi.

⁴⁷ O'sha joyda.

shirkatlarining, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarining ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish;

– chet ellik investorlarga to'liq qarashli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarini, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish;

– mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz majburiyatlarini sotib olish;

– intellektual mulkka, shu jumladan mualliflik huquqlari, patentlar, tovar belgilari, foydali modellar, sanoat namunalari, firma nomlari va nou-xauga, shuningdek ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish;

– konsessiyalar, shu jumladan tabiiy resurslarni qidirish, ishlab chiqish, qazib olish yoki ulardan foydalanishga bo'lgan konsessiyalar olish;

– savdo va xizmat ko'rsatish sohalari obyektlariga, turar joy binolariga, ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda mulk huquqini, shuningdek yerga egalik qilish va undan foydalanish (shu jumladan ijara asosida foydalanish) hamda tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqlarini sotib olish orqali.

Chet ellik investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida investitsiyalarni amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa shakllarda ham amalga oshirishlari mumkin.

Chet el investitsiyalari birlamchi yoki takroran amalga oshirilayotgan shakllarining o'zgartirilishi ularning investitsiya sifatidagi mohiyati o'zgarishiga olib kelmaydi.

Chet el investitsiyali korxonalariga quyidagilar kiradi:

Ustav Jamg'armasidagi pay (hissasi) chet el yuridik va jismoniy shaxslariga tegishli bo'lgan qo'shma korxonalar, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlar;

Ustav Jamg'armasining 100 foizini chet el investitsiyalari tashkil qilgan chet el korxonalari;

bosh korxonasi respublika hududidan tashqarida joylashgan va xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotgan sho'ba korxonalar va filiallar;

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyali korxonalarining sho'ba korxonalari va filiallari; Davlat tomonidan ro'yxatga olinishi kerak bo'lgan chet el

investitsiyali korxonalariga quyidagi shartlarga javob bergan korxonalar kiradi:

korxonaning ustav Jamg'armasi miqdori 150 ming AQSH dollariga ekvivalent bo'lgan summadan kam bo'lmasligi lozim;

korxonaning bironta ishtirokchisi albatta chet el yuridik shaxsi bo'lishi kerak;

chet el investitsiyalarining korxonaga ustav Jamg'armasidagi hissasi 30 foizdan kam bo'lmasligi kerak (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chet el investitsiyali korxonalariga qo'shimcha rag'batlantirish va imtiyozlar berish to'g'risida»gi Farmoni, o'zgartirishlar bilan), «O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyali korxonalarni huquqiy ekspertizadan, davlat ro'yxatidan o'tkazish va bekor bo'lishi tartibi to'g'risida»gi Nizom (o'zgartirishlari bilan).

Qo'shma korxonaga ma'lum tashkiliy-huquqiy shaklga kiritilgan korxonaga bo'lib, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra yuridik shaxs huquqlariga ega va uning ustav Jamg'armasi o'zbek va chet ellik sheriklar ulushi asosida shakllangan. Bu hol ularga ushbu korxonani birgalikda boshqarish va uning ishlab chiqarish, xo'jalik va boshqa faoliyatidan tushgan daromadning ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlash imkoniyatini beradi.

Qo'shma korxonani tashkil qilishda va uning faoliyatida «chet el elementi» ishtirok etgani uchun, ushbu holda qanday huquq qo'llanadi, degan savol tug'ilishi tabiiydir. Ushbu savolga javobni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1175-moddasida topish mumkin: «Yuridik shaxs qaysi mamlakatda ta'sis etilgan bo'lsa, shu mamlakatning huquqi mazkur yuridik shaxsning qonuni hisoblanadi».

V BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Yuridik shaxslarning xalqaro xo'jalik munosabatlarida ishtirok etishi?

2. Yuridik shaxsning huquq layoqati, qonuni va muayyan davlatga mansubligini aniqlash?

3. O'zbekiston Respublikasida chet el yuridik shaxslarning huquq layoqati. Chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik faoliyatida ishtirok etish shakllari. O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyasi ishtirokida korxonalarining huquqiy holati.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 1993-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T.: «Adolat», 1996-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gigi 1991-yil 15-fevral Qonuni (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan). // O'zbekiston Respublikasining korxonalar, ijara, mulkchilik to'g'risida qonunlari. –T.: «Adolat», 1997-yil.
4. «Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 9-dekabr Qonuni. // O'zbekistonning yangi qonunlari. 7- son. –T.: «Adolat», 1994-yil.
5. «Konsessiyalar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 30-avgust Qonuni. // O'zbekistonning yangi qonunlari. 11-son. –T.: «Adolat», 1996-yil.
6. Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprel Qonuni. // O'zbekistonning yangi qonunlari. №13. –T.: «Adolat», 1996-yil.
7. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-aprel Qonuni. //O'zbekistonning yangi qonunlari. №13. –T.: «Adolat», 1996-yil.
8. «Chet el investitsiyalari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprel Qonuni / Xalq so'zi, 1998-yil 20-may.
9. «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprel Qonuni / Xalq so'zi, 1998-yil 21-may.
10. «Investitsiya faoliyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabr Qonuni //Xo'jalik va huquq, 1999-yil, 3-son.
11. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 26-may Qonuni. – Huquq yuridik axborot tizimi. Iqtisodiy qonunchilik. 2001-yil 16-martdagi holat.
12. «Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishni va ularning faoliyatini rarbtlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

1996-yil 30-noyabr Farmoni (1998-yil 27-mart o'zgartirishlar bilan). /Xalq so'zi, 1998-yil 28-mart.

13. «O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, davlat ro'yxatidan o'tkazish va ularni bekor qilish tartibi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-iyuldagi 336-sonli Qarori. / Xalq so'zi, 1997-yil 3-iyul.

14. Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник. - 3-е изд., перераб. и доп. -М.: Юристъ, 2000.

15. Богуславский М.М., Орлов Л.Н. Законодательство о совместных предприятиях. Комментарий. -М.: 1993.

16. Бодаков Е.В. Сущность и ответственность юридического лица.// Государство и право. 1997. №10, -С.97-101.

17. Вознесенская Н.Н. Совместные предприятия как форма международного экономического сотрудничества. -М.: 1989.

18. Корецкий В.М. Очерки англо-американской доктрины и практики международного частного права. -С.197-395.

19. Контрактное право: Компании. -Том 2. //Под ред. Г.В. Петровой. -М.: 1992.

20. Ладыженский А.М. Теория национальности юридических лиц в международном частном праве //Сов. Ежегодник международного права. 1964-1965. -М.: 1966. -С.260-275.

21. Лунц Л.А., Марышева Н.И., Садилов ОН. Международное частное право: Учебник. -М.: Юрид. лит., 1984.

22. Международное частное право. Отв. ред. Марышева Н.И. -М.: "Контракт", ИНФРА-М; 2000.

23. Рахманкулов Х. Правовые основы преобразования экономики в демократическом обществе. / В кн. Демократия и право. -Т.: 1995. -С.91-94.

DAVLATNING FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLAR QATNASHCHISI SIFATIDAGI HUQUQIY HOLATI

1-§. Davlat mulkiy munosabatlarning subyekti sifatida

Ma'lumki, davlatlar xalqaro huquqning asosiy subyektlari hisoblanadi; davlatlar bor ekan, ularga huquqiy subyektlik xosdir. Davlatlar hokimiyat va boshqaruv apparatlari hamda o'z hududi, aholisi va, eng muhimi, suverenitetga egadirlar.

Suverenitet davlatlarning xalqaro huquqiy subyektligining asosiy poydevori, ko'rsatkichi demakdir. Xalqaro huquqiy subyektlik boshqa davlatlarning irodasiga va ular tomonidan xalqaro huquq subyekti sifatida tan olinishiga bog'liq emas. Yanada umumlashgan tarzda olganda, xalqaro huquqiy subyektlik deganda, shaxsning xalqaro huquq subyekti bo'la olish qobiliyati tushuniladi.

Suverenitet – davlatning mustaqilligi, mamlakat hududida o'z hokimligi ustuvor va cheklanmaganligi hamda boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlardagi mustaqilligi va teng huquqliligining yuridik ifoda etilishidir. Davlat suvereniteti xalqaro huquqiy va ichki aspektlarga ega.

Suverenitetning xalqaro huquqiy aspekti shundan iboratki, xalqaro huquq o'zining subyekti va xalqaro munosabatlar qatnashchisi sifatida davlat organlari yoki alohida mansabdor shaxslarni emas, balki davlatning o'zini tan oladi. Davlatning vakolati mansabdor shaxslari tomonidan xalqaro-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan barcha harakatlari davlat tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi.

Suverenitetning ichki aspekti davlat hokimiyatining hududida va chet elda hududiy ustuvorlik va siyosiy mustaqillikni nazarda tutadi.

Davlatning xalqaro huquqiy holatining asosi bo'lib huquq (suveren tenglik huquqi, mudofaa huquqi, xalqaro-huquqiy normalarni tuzish jarayonida ishtirok etish huquqi, xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish huquqi) va davlatlarning xalqaro-huquqiy majburiyatlari (boshqa davlatlarning suverenitetini hurmat qilish, xalqaro huquq prinsiplarini hurmat qilish) hisoblanadi. 1970-yilda qabul qilingan Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada har bir davlat boshqa davlatlarning huquq subyektligini hurmat qilishi

lozimligi hamda xalqaro huquq tamoyillariga amal qilishi (ichki ishlarga aralashmaslik, zimmasiga yuklangan majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda bajarish, xalqaro nizolarni tinchlik yo'li bilan hal etish va h. k.) kerakligi haqida aytilgan.

Suverenitetdan davlat zimmasiga uning roziligisiz hech qanday majburiyatlar yuklana olinmaydi degan holat kelib chiqadi⁴⁸.

O'z vakolatxonalari uchun chet elda mol-mulk orttirish, chet el yuridik shaxslari va fuqarolari bilan mulkiy xarakterga ega bo'lgan bitimlarni tuzish, chet elda ochilgan merosni qabul qilish vaqtida davlat, o'z navbatida, xalqaro-xususiy huquqiy munosabatlarda qatnashadi.

Fuqarolik qonunchiligi tomonidan tartibga solinuvchi munosabatlarda ishtirok etayotgan davlat, boshqa qatnashchilar bilan teng ravishda qatnashadi.

Ushbu munosabatlarda davlat nomidan davlat hokimiyat va boshqaruv organlari yoki ular tomonidan tayinlangan maxsus organlar qatnashadilar.

O'zbekiston Respublikasi FKning 79-moddasi 3-qismiga muvofiq davlat o'zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari bo'yicha o'z mulki bo'lgan mablag'lari bilan javob beradi.

Shuningdek, ushbu kodeksning 1178-moddasiga ko'ra, davlatning chet el elementli fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ishtirok etishi ehtimoli ko'rsatilgan.

Yuqorida qayd etilganlar asosida ta'kidlab o'tish joizki, davlat nafaqat xalqaro ommaviy huquq, balki, turli xil fuqarolik-huquqiy munosabatlarning teng huquqli ishtirokchisidir. Shu bilan birga, u chet el elementi mavjud fuqarolik-huquqiy munosabatlarda qatnashadi va, bu holatda, uning suverenligi to'liq ravishda saqlanadi, ya'ni u butunlay mustaqil bo'lib qoladi: boshqa davlatlar va ularning organlariga bo'ysunmaydi (keyingi o'rinda qayd etiluvchi holatlar bundan istisno).

Davlat chet el elementli xususiy-huquqiy munosabatlarda qanday qatnashadi?

Davlat, o'zi chiqargan zayomlar bo'yicha obligatsiyalarni chet el fuqarolariga sotishi jarayonida vujudga kelgan huquqiy munosabatlarda taraflardan biri bo'lib chiqishi mumkin. U konsessiya shartnomalarining, va umuman olganda, davlat tomonidan chet el

⁴⁸ Бирюков П.Н. Международное право: Учебное пособие. –М: «Юристъ», 1998. –С.50-51.

xususiy kompaniyalarga konsessiyalar berilishi jarayonida tarafdardan biri bo'lishi mumkin.

Masalan, 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan «Konsessiyalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining⁴⁹ 5-moddasiga ko'ra quyidagilar konsessiyaviy huquq munosabatlarining subyektlaridir:

– konsessiya organlari – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakil qilgan davlat boshqaruvi organi, shuningdek joylardagi davlat hokimiyati organlari;

– konsessiyachi – konsessiya shartnomasi tuzilgan chet ellik investor.

Xorijiy mamlakatda elchixonona uchun bino qurish, yer uchastkasi va turar joy binosini ijaraga olish vaqtida davlatning o'zi ham mulkiy munosabatlar subyekti sifatida qatnashadi. Bu holda bitimlar u yoki bu davlat nomidan uning elchixonasi tomonidan tuziladi.

Shuningdek, davlat chet elda fuqarolik oborotida uning fuqarosi vafotidan so'ng qolgan egasiz mol-mulkning vorisi yoki vasiyatnoma bo'yicha voris sifatida qatnashishi mumkin.

Mulkiy munosabatlar sohasida davlatga, yuridik shaxs bo'lmagani sababli, huquqning alohida subyekti sifatida qaraladi.

Yuridik shaxs toifasi – har bir davlat ichki milliy huquqining toifasidir. Davlatning o'zi u yoki bu tuzilmaga yuridik shaxs huquqini berishi mumkin, ya'ni davlatning o'zi u yoki bu tuzilmaning yuridik shaxs bo'lish-bo'lmasligini belgilaydi. Davlatning o'ziga yuridik shaxs huquqi maqomini kim beradi? Davlatdan ustuvor turuvchi huquqiy tizimmi yoki allaqanday butunjahon hukumatimi, ... – lekin davlatdan ustun bo'lgan bunday organ yo'q⁵⁰.

Bizning fikrimizcha, bu yerda keyingi masalaga e'tibor qaratish lozim: – gap, davlat yuridik shaxslari va nafaqatgina ular, balki ularning huquqiy holatining davlat huquqiy holatiga o'xshash-o'xshamasligi haqida boradi. O'ylashimizcha, bu savolga to'liq javobni O'zbekiston Respublikasi FKning 80-moddasidan olishimiz mumkin: davlat tomonidan tuzilgan yuridik shaxs davlat majburiyati bo'yicha javob bermaydi. Davlat ham, o'z o'rnida, u tomonidan tuzilgan yuridik shaxs majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

⁴⁹ O'zbekistonning yangi qonunlari. 11-son, -T.: «Adolat», 1996-yil.

⁵⁰ Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник.-3-е изд., перераб. и доп. –М.: Юристъ, 2000. –С. 150.

Agar davlat, o'zi tuzgan shartnomaga ko'ra yuridik shaxs majburiyatlari bo'yicha kafillikni o'z zimmasiga olgan bo'lsa, yoki aksincha, yuridik shaxs davlat majburiyatlari bo'yicha kafilliklarni o'z zimmasiga olsa, qayd etilgan qoidalar tatbiq qilinmaydi.

Misol tariqasida 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining⁵¹ 15-moddasini keltirsak bo'ladi (2-band):»O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolati ostida chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb etgan holda amalga oshiriladigan investitsiya markazlashtirilgan investitsiya hisoblanadi».

«Davlat, davlat boshqaruv organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari chet el investori bilan tuzilgan tegishli shartnomalarda o'z zimmasiga olgan, vakolatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan shaxslar imzolagan majburiyatlar bo'yichagina javob beradilar.

Davlat chet el investitsiyalarini jalb etayotgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi, bunday majburiyatlar qonunda belgilangan tartibda davlat tomonidan kafolatlangan hollar bundan mustasno» degan holat 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunning⁵² 19-moddasida biriktirilgan.

1998-yil 30-aprelda qabul qilingan «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonunining⁵³ 4-moddasi 4-bandida esa quyidagi holat biriktirilgan: «Chet ellik investorlarga qo'shimcha kafolatlar va ularni himoya qilish choralari... O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan ham beriladi»

Yaqqol misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin: 1998-yil 26-oktabrda akkumulator batareyalarini ishlab chiqaruvchi «UzEksayd» o'zbek-amerika qo'shma korxonasini tuzish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 453-sonli Qarori⁵⁴ qabul qilindi.

Ushbu Qarorning 10-bandi O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziriga belgilangan tartibda, ushbu loyihani amalga oshirish uchun

⁵¹ O'zbekistonning yangi qonunlari. 20-son. -T.: «Adolat», 1998-yil.

⁵² O'sha joyda. 19-son.

⁵³ O'sha joyda.

⁵⁴ Huquq yuridik informatsion tizimi. O'zbekiston Respublikasining iqtisod qonunchiligi. 2002-yil 29-martdagi versiyasi.

zarur bo'lgan jalb etilayotgan kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hukumatiining kafolatini taqdim qilish vakolatini beradi.

Demak, bu vaziyatda davlat, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi orqali yuqorida ko'rsatilgan loyihani amalga oshirish borasida majburiyatlar bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va bu degani, fuqarolik-huquqiy munosabatlar qatnashchisi hisoblanadi.

Shunday qilib, umumiy qoidaga ko'ra, yuridik shaxslar, ular davlat tomonidan tuzilgan bo'lsalarda, chet el elementli xususiy-huquqiy munosabatlarda qatnashganda, immunitetga (daxlsizlikka) ega bo'lmaydilar hamda davlat, yuridik shaxs majburiyatini o'z zimmasiga olgan holda, o'z immunitetini avtomatik ravishda cheklaydi.

2-§. Davlat immuniteti (daxlsizligi) va uning turlari

Ko'pincha davlatni, fuqarolik oboroti tartibini, o'zining huquqiy layoqati mazmunini va chegarasini shakllantirishi mumkinligi sababli, huquqning alohida subyekt deb atashadi. Lekin, bir tomondan davlat maxsus hokimiyat vakolatlariga ega bo'lib, boshqa tomondan xo'jalik subyekt bo'lishi ehtimolining mavjudligi, davlatning maxsus huquqiy subyektligi natijasidir, ammo bu hol, uning ishtirok etayotgan fuqarolik huquqiy munosabatlarining tabiatini o'zgartirmaydi va ularni hokimiyat va bo'ysunish elementlarini o'z ichiga oladigan munosabatlarga aylantirishga asos bo'la olmaydi.

Boshqa so'z bilan aytganda, bozor sharoitida davlat fuqarolik huquqiy munosabatlarda jismoniy va yuridik shaxslarga teng bo'lgan huquq subyekt bo'lib qatnashadi. Davlatning fuqarolik huquqi subyekt sifatidagi huquqiy holatining zamonaviy tushunchasi shundan iboratdir va bundan ichki fuqarolik oborotida davlat immunitet huquqiga ega emasligi kelib chiqadi.

Davlat xalqaro xususiy huquq subyektl, ya'ni chet el elementli fuqarolik-huquqiy munosabatlar qatnashchisi sifatida kelganda, vaziyat murakkablashadi. Bu yerda, davlatning mutlaq immuniteti amal qiladi.

Bizning fikrimizcha, mutlaq immunitet prinsipi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismiga sharhlarda (III jild)⁵⁵ ham o'z namoyonini topgan. U yerda shunday deyilgan:

⁵⁵ «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi. -T.: 1998-yil, 385-bet.

O'zbekiston Respublikasi – suveren davlat sifatida faqat xalqaro ommaviy huquqning subyekti sifatida tanilibgina qolmasdan, balki fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ham alohida subyekti bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi chet el elementi bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy munosabatlarida ham o'z suverenligini, mustaqilligini saqlab qoladi va hech qanday boshqa davlatlarga yoki uning organlariga bo'ysunmaydi.

O'zbekiston davlati o'zining vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga uy-joy, bino va inshootlarni sotib olish, chet el elementlari bilan mulkiy bitimlarga kirishish, chet davlatlarda ochilgan merosni qabul qilish munosabatlarida ham chet el qonunlariga yoki chet el sud organlariga bo'ysunmasdan davlat (immuniteti)ning daxlsizligini saqlab qoladi.

Shunday qilib, immunitet (lot. *immunitas*; /*immunitatis*/-ma'lum bir narsadan ozod etish; ingl. *immunity*)-1) davlatlarga, xalqaro tashkilotlarga, davlat ichida alohida o'rinlarni egallaydigan shaxslarga ma'lum bir vaziyatlarda ba'zi bir umumiy qonunlarga bo'ysunmaslik yuridik huquqidir⁵⁶.

Davlat immuniteti-davlat suverenitetidan kelib chiqadigan xalqaro huquqiy prinsipidir. Uning mazmuni shundan iboratki, barcha davlatlarning tengligiga ko'ra bir davlat boshqa davlat ustidan ustun bo'la olmaydi («*par in parem now nabet imperium*»-»teng, tengga nisbatan ustuvor bo'la olmaydi»). Chet el davlatlari, ularning organlari va ularga tegishli mulk ham immunitet huquqiga egadirlar⁵⁷.

Davlatlarning va ular mulkining yurisdiksiya immuniteti – suveren davlatning sudga bo'ysunmasligi, chet el davlatining mulkiga oldindan da'voni ta'minlashga, unga band solish, sud qarorini ijro etish va boshqa cheklash va undirishlardan daxlsizligi⁵⁸.

Davlat immunitetining moddiy mohiyatiga kelsak, bu yerda tarixiy ekskurs o'tkazish mumkin: bu tushuncha Yevropada 16 asrda, ya'ni, milliy davlatlar vujudga kela boshlagan bir vaqtda rivojlangandir. Eng yuqori cho'qqisiga u 19 asrning milliy yo'nalgan huquqiy doktrinalarida ko'tarilgan. Bu yerda immunitet qat'iy,

⁵⁶ Юридическая энциклопедия. Под ред. М.Ю.Тихомирова. –М.: 1998. –С.177.

⁵⁷ Румянцев О.Г., Додонов В.Н. Юридический энциклопедический словарь. –М.: ИНФРА-М, 1997. – С.115.

⁵⁸ Проект Закона РУз "Об иммунитете государства". Материалы для международного семинара на тему "Иммунитет государства". –Т.: 2000.

barchani o'z ichiga olgan va mutlaq tushunilardi: hech qaysi davlat hech qanday vaziyatlarda boshqa davlatni sudlash huquqiga ega emas edi, chunki bu yerda nazariyaga binoan barcha davlatlarning tengligi asosi buzilar edi.

Albatta, bu yerda bizni birinchi navbatda davlat subyekt bo'la oladigan fuqarolik huquqiy va fuqarolik protsessual munosabatlar qiziqtiradi. Bunday munosabatlarda qatnashgan davlat, hamisha davlat bo'lib qolaveradi va shunga muvofiq, davlatga nisbatan boshqa davlatning yurisdiksiyasi tarqalish chegarasi va ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan muammolar yuqorida ko'rsatilgan xalqaro huquqiy munosabatlar doiralarisiz ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Lekin, shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, immunitetga ega bo'lgan davlat, uning organlari va immunitetdan foydalanuvchi shaxslar, boshqa suveren yurisdiksiyasi doirasida u yoki bu faoliyatni amalga oshirayotgan vaqtda milliy qonunchilik, milliy huquq tartibiga nisbatan o'z munosabatini belgilashda «erkin» ekan degan fikrga borish noto'g'ri.

N.A.Ushakov ta'kidlashicha, immunitet prinsipi xalqaro huquqning asosiy prinsiplari doirasiga kirmaydi: birinchidan, u davlatlararo munosabatlar sohalarining barchasini emas, ayrimlari, ya'ni xalqaro munosabatlarda davlatlarning vakilligiga tegishli sohasi asosida yotadi; ikkinchidan, imperativ emas, balki dispozitiv xarakterga ega. Shu bilan birga u davlat immuniteti prinsipining muhimligi va uning ahamiyatini inkor etmaydi⁵⁹.

Davlat immunitetini ifoda etuvchi va aniqlashtiruvchisi-uning organlari immuniteti hisoblanadi. Bu doiraga diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalari, ularning xodimlari, davlatlararo (hukumatlararo) tashkilotlar, ushbu tashkilotlar qoshidagi davlat vakillari, ularning mansabdor shaxslari kiradi.

Davlat, uning organlari va mansabdor shaxslari immunitetlarining mazmuni diplomatik (1961) hamda konsullik munosabatlar (1963) to'g'risidagi Vena Konvensiyalarida⁶⁰ ochib berilgan.

Shunga binoan, 1996-yil 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan Konsullik Ustavining⁶¹ 77-moddasiga binoan, konsullik muassasalari, ularning xodimlari va oila a'zolari

⁵⁹ Ушаков Н.А. Государство в системе международно-правового регулирования. Учебное пособие. – М.: 1997. – С.29.

⁶⁰ Юридическая информационная система ПРАВО. Международное право. 2002 yil 1 apreldagi versiyasi.

⁶¹ O'zbekistonning yangi qonunlari. 14-son. –T.: «Adolat», 1997.

1963-yildagi Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena Konvensiyasi, O'zbekiston Respublikasi hamda O'zbekiston Respublikasining Konsullik muassasasi hozir bo'lgan davlat o'rtasidagi shartnomalarda ko'rsatilgan imtiyozlar va immunitetlar dan, shuningdek, umuman tan olingan xalqaro huquq normalaridan foydalanadilar.

Shunday qilib, yuridik doktrinada, odatda, davlat immunitetining ikkita: mutlaq va cheklangan (u xaqda keyingi o'rinlarda bayon qilinadi) konsepsiyalari mavjud. Mutlaq immunitet konsepsiyasi quyidagilardan kelib chiqadi:

a) chet el davlatiga nisbatan da'volar, ularning rozilgisiz boshqa davlatlarning sudida ko'rib chiqilishi mumkin emas.

b) da'voni ta'minlash maqsadida u yoki bu davlatning mulkiga nisbatan boshqa biron-bir davlat majburiy chora ko'ra olmaydi.

d) davlatning rozilgisiz uning mulkiga nisbatan majburan qo'llanuvchi choralar ko'rilishi mumkin emas⁶².

Shunga ko'ra, odatda, daxlsizlik huquqining quyidagi turlari farqlanadi: sudlovdan daxlsizlik, oldindan da'voni ta'minlashga daxlsizlik, qarorni majburiy ijro etishga daxlsizlik.

Sudga daxlsizlik shundan iboratki, davlat boshqa davlatlarning sudloviga tegishli emas (bir davlat ikkinchi davlatning sudi tomonidan sudlana olmaydi). Bir davlat ikkinchi davlatning sudi tomonidan javobgar sifatida jalb etilmaydi, davlat tomonidan bunga aniq-ravshan rozilik berilgan hollar bundan mustasno.

Oldindan da'voni ta'minlashga daxlsizlik shundan iboratki, davlat mulki da'voni ta'minlash predmeti bo'la olmaydi.

Qarorni ijro etishga daxlsizlikka ko'ra, davlatning ixtiyorisiz (rozilgisiz) davlatga qarshi chiqarilgan qarorni majburiy ijro etishni amalga oshirish mumkin emas⁶³.

Yana tarixiy ekskursga qaytamiz: shuni aytsa bo'ladiki, mutlaq immunitet doktrinasi birinchi Jahon urushiga qadar amalda bo'lgan. Davlat iqtisodiy jarayonlarda aktiv qatnashayotganligi sababli (bu holat keskin ravishda birinchi Jahon urushi davrida rivojlana boshladi) mutlaq imunitet doktrinasi asta sekin parchalana boshladi. Ayniqsa Yevropa kontinental mamlakatlarida (Belgiya, Germaniya) mutlaq immunitetning o'ruga nisbiy, sektoral immunitetni vujudga keltirgan doktrina paydo bo'ldi. Shundan keyin, Oliy hokimiyat

⁶² Богуславский М. Регулирование иммунитета государства в законодательстве стран СНГ. Хозяйство и право. №9, -С.86.

⁶³ Богуславский М.М. Международное частное право. Учебник. 3-изд., перераб. и доп. -М.: Юристь, 2000. -С.150-151.

aktlari (acta jure imperii) va iqtisodiy (xo'jalik) oboroti doirasidagi harakatlar (acta jure qestions) farqlana boshladi. Hozirgi vaqtda, hech qanday shak-shubhasiz, belgilanadiki, mutlaq davlat immunitetining eski doktrinasi butunlay yengilgandir. Bu holat, muhim ahamiyatga egadir, chunki bir vaqtda u shuni ko'rsatadiki, milliy qonunda chet el davlati immunitetiga chek qo'ygan milliy qonun chiqaruvchi xalqaro huquqqa zid emasdir.

Ushbu rivojlanish ma'lum bir vaqtda turli xil elementlar yordamida amalga oshiriladi. Yechimi sud qarorlari asosida boshlanadi: keyinchalik, birinchi xalqaro hujjat, ya'ni 1972-yil 16-may davlatlar immuniteti to'g'risidagi Bazel Yevropa kelishuvi vujudga keldi: shu bilan birga birinchi qonunlar qabul qilindi: G'oreign Sovereign Immunities Act (AQSH, 1976-yil), State Immunity Act (Buyuk Britaniya, 1978-yil). Davlatlar uyushmasi xalqaro davlatlar immuniteti Konvensiyasini ishlab chiqishga tayyorlana boshladilar⁶⁴.

Cheklangan immunitet konsepsiyasiga binoan, chet el davlatlari, uning organlari va mulki immunitet huquqi bilan faqatgina davlatlar suveren vazifalarini, ya'ni jure imperii harakatlarini amalga oshirganda foydalanadilar. Agar davlat, tijorat xarakteridagi (tashqi savdo bitimlar tuzish, konsessiya va boshqa bitimlar va h.k.) (jure gestiones) harakatlarni amalga oshirsa u immunitet huquqidan foydalanmaydi. Boshqacha qilib aytganda, cheklangan immunitet konsepsiyasi tarafdorlari shuni ta'kidlashadiki, agar davlat o'zini xususiy shaxs holatiga qo'ysa, unga nisbatan da'vo qo'zg'atish va uning mulkiga nisbatan majburiy choralar ko'rish mumkindir⁶⁵.

Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab cheklangan immunitet konsepsiyasi turli xil mamlakatlarning qonunchilik, sud va shartnomaviy amaliyotida keng tarqaldi. Bu esa davlatning iqtisodiy faoliyatida qatnashish doirasi kengayganidan dalolatdir.

Natijada, chet el davlati immunitetini cheklovchi shartnomaviy va xalqaro huquqiy normalarni tatbiq qilish doirasi tobora kengaymoqda. Shu bilan birga, davlatning mutlaq immunitetiga tegishli xalqaro huquqiy normalarni tatbiq qilish doirasi esa torayib bormoqda. Ma'lum bir ishlarga nisbatan mutlaq immunitet konsepsiya

⁶⁴ Книппер Рольф. Тезисы к Концепции государственного иммунитета и его применения в проекте узбекского закона о государственном иммунитете. Доклады участников международного семинара на тему: "Иммунитет государства" (2000 г. 23 мая). -Т.: 2000. -С.3.

⁶⁵ Богуславский М. Регулирование иммунитета государства в законодательстве стран СНГ. Хозяйство и право. №9-сон, -С.90.

tarafdorlari bo'lgan davlatlar undan voz kechayotgan hollari tez-tez uchrab turibdi⁶⁶. Bu hol ular tomonidan qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topayapti. Masalan, yuqorida ko'rsatilgan immunitet to'g'risidagi qonunlardan tashqari, AQSH (1976), Buyuk Britaniya (1978), shunday qonunlar Avstriya (1979), Kanada (1981), Pokiston (1981) va boshqalarda qabul qilingan.

Ba'zi bir MDH davlatlarining fuqarolik protsessual kodekslarida qaysi chet el mamlakatida davlat immuniteti taqdim etilmasa, unga javoban choralar ko'rilishi ko'zda tutilgan holatlar birlashtirilgan bo'lsa-da (masalan, Ukraina FPKning 425-moddasi), bu imkoniyatning belgilanishi o'zarolik prinsipini qo'llashga olib kelmaydi va amaliyotda o'z samarasini yo'qotadi degan fikrga qo'shilish mumkin. Hech bo'lmaganda, bu holat immunitetni cheklaydigan qonunlar (yuqoriga qarang) qabul qilgan yoki sud amaliyoti cheklangan immunitet konsepsiyasi tarafdori bo'lgan (GFR, Avstriya, Fransiya, Belgiya, Shveysariya, Italiya, Daniya, Finlandiya, Gretsiya, Norvegiya va boshqalar) mamlakatlarga nisbatan taalluqlidir.

Shunday qilib, u yoki bu MDH davlatining qonunchiligida chet el davlatining mutlaq immuniteti mustahkamlangan bo'lsa-da, bu chet el davlati sudlarida ham MDH davlatlarining immuniteti avtomatik ravishda tan olinadi degani emasdir. Chet el sudlari har bir konkret vaziyatda, boshqa davlat va uning organlari immunitet huquqidan foydalanish-foydalanmasligini o'z milliy qonuni asosida o'zlari hal qiladilar va bu ma'lum bir vaziyatda har qanday davlat chet el sudi yurisdiksiyasiga bo'ysunishi imkoniyatiga olib keladi⁶⁷.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida «Davlat immuniteti» to'g'risidagi qonun ustida izlanish ishlari olib borilmoqda.

Ushbu qonunning maqsadi – O'zbekiston Respublikasi sud ishlarini ko'rib chiqish, O'zbekiston Respublikasining chet el davlatlariga nisbatan da'vo qo'zg'atishi, va chet el davlatlarining O'zbekiston Respublikasiga nisbatan da'vo qo'zg'atishi, mazkur da'volar bo'yicha sud qarorlarini bajarish, hamda ularning vakillarining immunitet va imtiyozlariga tegishli qoida va tartiblarini o'rnatishdir⁶⁸.

⁶⁶ Хлестова И.О. Вопросы иммунитета государства и в законодательстве, и в договорной практике Российской Федерации. В сб. Статей "Проблемы международного частного права". Под ред. Н.И.Марышевой. –М.: 2000. –С.71.

⁶⁷ Богуславский М. Регулирование иммунитета государства в законодательстве стран СНГ. Хозяйство и право. №9. –С.88-89.

⁶⁸ Материалы для международного семинара на тему: "Иммунитет государства". –Т.: 2000. –С.3.

Shu masalaga bag'ishlangan seminar qatnashchilarining fikriga ko'ra, ushbu qonunni ishlab chiqish va uni qabul qilish sud amaliyotining tajribasi yetarli bo'lmagan mamlakatlarga foydasi ko'proq tegadi. Shunday mamlakatlarga MDH davlatlari ham kiradi, lekin asosiysi, albatta, bu borada yangi mustaqil davlatlarning xalqaro iqtisodiy va madaniy hamkorligi rivojlanishini immunitet, chet el investitsiyalari barqaror huquqiy muhit yaratishni o'z oldiga maqsad qilgan va, boshqa tomondan, milliy korxonalar va tashkilotlarining huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy tartibga solishni barpo etishdir.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida immunitet to'g'risidagi qonun qabul qilinishi O'zbekistonning Jahon savdosida qatnashishlikka undaydi va chet el investitsiyalarini jalb etishga Ko'mak beradi.

3-§. Davlat tomonidan tuzilayotgan bitimlarning huquqiy holati

Davlatning (xususan xalqaro xususiy huquqda) huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi FKning 79-moddasi 3-qismi (davlat o'zining fuqarolik-huquqiy majburiyatlari bo'yicha o'z mulki bo'lgan mablag'lari bilan javob beradi) hamda 1178-moddalarida biriktirilgan: (chet el elementi bilan davlat ishtirokidagi fuqarolik huquqiy munosabatlariga nisbatan, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, FKning VI-bo'limi «Xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan tatbiq qilish»).

Xalqaro shartnomalar qoidalarini tatbiq qilishga kelsak, e'tiborni 1965-yil «Mablag'lashtirishga oid davlatlar va boshqa davlatlar fuqarolari orasidagi nizolarni hal etish to'g'risidagi «Vashington Konvensiyasiga qaratish lozimdir. Ushbu Konvensiyaga binoan, davlatga nisbatan da'voni Qayta qurish va rivojlanish Xalqaro Bankining Nizolarni hal etish Xalqaro markazida qo'zg'atish mumkin. Shu bilan birga, MDH davlatlari va boshqa davlatlar orasida investitsiyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish ikki tomonlama kelishuvlari bo'yicha (masalan, 1993-yil O'zbekiston va GFR bilan kelishuvi) investorning davlat bilan bo'lgan nizosi Xalqaro savdo arbitraj sudlari yoki ushbu Markazda ko'rib chiqilishi mumkinligi qayd etilgan.

Doktrinaga binoan, davlatning xalqaro xo'jalik munosabatlari qatnashchisi sifatida o'ziga xosligi shundan iboratki, davlatning majburiyati bo'yicha, asosan, faqatgina uning qonuni tatbiq etilishi mumkin, chet el huquqini tan olish to'g'risida davlatning o'zining to'g'ridan-to'g'ri roziligi bo'lgan holat bundan mustasno. Shuning uchun ham, davlatning chet el kompaniyalari yoki chet el fuqarosi bilan bo'lgan munosabatlari shartnomada bir tomon bo'lgan davlatning ichki qonunchiligi tomonidan tartibga solinadi. Bu yerda agarda shartnomada boshqa holat ko'rsatilmagan bo'lsa, xalqaro qonunchiligi tatbiq etilmaydi⁶⁹.

MDH davlatlarning, xususan O'zbekiston Respublikasi, immuniteti masalasiga qaytsak, shunga e'tibor qaratish joizki, davlatlarning yirik kredit, ko'p muddatli komissiya va investitsiya shartnomalarini tuzish zamonaviy amaliyoti shuni ko'rsatayaptiki, ularda davlat immunitetiga havola qilish huquqidan foydalanmagan holda chet el sudida, arbitraj yoki hakamlar sudida nizolarni ko'rish to'g'risidagi to'g'ridan-to'g'ri shartlar kiritilgandir.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi hukumati hamda Bolgariya Respublikasi hukumati o'rtasida 1998-yil 24-iyunda tuzilgan investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish to'g'risidagi Bitimda⁷⁰ vujudga kelgan nizo «Ad hoc» tartibida tuzilgan Arbitraj sudiga hal qilinishi uchun topshiriladi, degan holat biriktirilgan.

Yuqorida qayd qilinganlar bizga quyidagicha xulosalar qilish imkonini beradi:

– davlatlar xalqaro ommaviy huquqning asosiy subyekti, fuqarolik hamda xalqaro xususiy huquqning subyekti hisoblanadi.

– davlatning fuqarolik huquqi subyekti sifatidagi zamonaviy huquqiy holati shundan iboratki, davlat fuqaro va yuridik shaxslarga nisbatan tengdir va ichki fuqarolik oborotida u immunitet bilan foydalanmaydi.

– davlat xalqaro xususiy huquq munosabatlari qatnashchisi sifatida bo'lganda bu masala bir tomonlama (oddiy) hal qilinmaydi, chunki bu yerda davlat suverenitetga asoslangan xalqaro huquq prinsiplariga ko'ra, mutlaq immunitetidan foydalanadi.

– XX asrning ikkinchi yarmidan «chegaralangan immunitet» konsepsiyasi keng tarqala boshladi. Uning mazmuni quyidagilardan

⁶⁹ Богоуславский М.М. Международное частное право: Учебник. -3-изд., перераб. и доп. –М.: Юристь, 2000. –С.160-161.

⁷⁰ Юридическая информационная система ПРАВО. Международное право. 2002-йil 1-apreldagi holat.

iborat: agar davlat suveren faoliyatini amalga oshiradigan bo'lsa u immunitet bilan foydalanadi; agarda davlat o'zini xususiy shaxs holatiga qo'yadigan bo'lsa, unga nisbatan da'vo qo'zg'atilishi va uning mulkiga nisbatan majburiy choralar ko'rilishi mumkindir.

– davlat immuniteti to'g'risidagi masala, ayniqsa, chet el investitsiyalarini aktiv jalb qilish siyosatini olib boruvchi (agar MDH hamdavlatlari ham) quyidagi holatdan investor manfaatdordir deb qarash dolzarb bo'lib qoldi. Investor investitsiyani qabul qilayotgan davlat oralarida nizo vujudga keladigan bo'lsa, davlat o'z immunitetidan voz kechishi investorning manfaatidir.

– davlat immunitetiga kelsak, u milliy xarakterga egadir va har bir davlat hududida amalda bo'ladi. MDH davlatlari, xususan O'zbekiston Respublikasida, Davlat immuniteti qonuni qabul qilinmaganligi tufayli shu holat kelib chiqadiki, O'zbekiston Respublikasida, ayrim istisnolardan tashqari, chet el davlatining va uning mulki immuniteti to'liq hajmda tan olinadi. Lekin bu holat O'zbekiston Respublikasining immunitetini chet elda to'liq hajmda tan olishga kafolat bermaydi.

Immunitet to'g'risidagi qonun MDH davlatlarining iqtisodiy manfaatlarini huquqiy himoya qiluvchi mexanizmlaridan biri bo'lib qolar edi.

Biz ham shu fikrga qo'shilamizki, immunitetga tegishli masalalar turli xil alohida kodeks va boshqa normativ aktlar normalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yo'li bilan emas, balki barcha vujudga keluvchi muammolarni kompleks yechadigan yagona akt qabul qilish bilan hal etilishi lozimdir⁷¹.

VI BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Davlat – mulkiy munosabatlarning subyekti sifatida.
2. Davlat immunitet (daxlsizligi). Sud daxlsizligi. Oldindan da'voni ta'minlashga daxlsizlik. Qarorni majburiy ijro etishga daxlsizlik.
3. Davlat tomonidan tuzilayotgan bitimlarning huquqiy holati.

⁷¹ Богуславский М. Регулирование иммунитета государства в законодательстве стран СНГ. Хозяйство и право. №9. –С.90.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 1993-yil.
2. 1961-yildagi Diplomatik munosabatlar to'g'risida Vena Konvensiyasi. Юридическая информационная система. Международное право. 2002-yil 1-apreldagi versiyasi.
3. 1963-yildagi Konsullik munosabatlari to'g'risida Vena Konvensiyasi. –O'sha joyda.
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1997-yil 1-martdan kuchga kirgan). –T.: «Adolat», 1996-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (1997-yil 30-avgust). –Huquq yuridik axborot tizimi. Iqtisodiy qonunchilik. 2001-yil 13-martdagi holat.
6. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksi (1997-yil 30-avgust) -O'sha joyda.
7. O'zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavi (1996-yil 29-avgust O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan). - O'zbekistonning yangi qonunlari. -14-son. –T.: «Adolat», 1997.
8. «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprel Qonuni. –O'zbekistonning yangi qonunlari. 19-son, -T.: «Adolat», 1998-yil.
9. «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprel Qonuni. -O'sha joyda.
10. «Investitsiya faoliyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabr Qonuni. -O'sha joyda 20-son.
11. Баратянц Н.Р., Богуславский М.М., Колесник АН. Современное международное право: иммунитет государства //Сов. Ежегодник международного права, 1988. –М.: 1989. -165-182-бет.
12. Бирюков П.Н. Международное право: Учебное пособие. –М.: Юрист, 1998.
13. Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник. -3-е изд., перераб. и доп. –М.: Юрист, 2000.
14. Богуславский М. Регулирование иммунитета государства в законодательстве стран СНГ. Хозяйство и право, 2000, №9.
15. Ермолаев В.Г., Сиваков О.В., Международное частное право. Курс лекций. –М.: "Былина", 1998.

16. Книппер Рольф. Тезисы к Концепции государственного иммунитета и его применения в проекте узбекского закона о государственном иммунитете. - Доклады участников международного семинара на тему: "Иммунитет государства" (23 мая 2000 года). -Т.: 2000.

17. Румянцев О.Г., Додонов В.Н. Юридический энциклопедический словарь. -М.: ИНФРА-М, 1997, 115-бет.

18. Samarxujayev V.B. Xalqaro xususiy huquq. O'quv-metodik qo'llanma. -Т.: "Eldinur" nashriyot uyi, 1999-yil.

19. Ушаков НА. Государство в системе международно-правового регулирования. Учебное пособие. М., 1997.

20. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismiga sharhlar (III jild). -Т.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" nashriyot uyi, 1998-yil.

21. Хлестова И.О. Вопросы иммунитета государства и в законодательстве, и в договорной практике Российской Федерации. -В сб. статей "Проблемы международного частного права". Под ред. Марышевой Н.И. -М.: 2000.

22. Юридическая энциклопедия /Под ред. М.Ю.Тихомирова. -М.: 1998.

**XALQARO XUSUSIY HUQUQQA BINOAN MUALLIFLIK
HUQUQINI HIMOYA QILISH**

**1-§. Mualliflik huquqini xalqaro himoya qilishning umumiy
tavsifi**

Mualliflik huquqi fuqarolik huquqi va xalqaro xususiy huquqning tarkibiy qismi bo'lib, tarixiyli, harakat doirasining kengligi, ham milliy qonunchilik normalari, ham xalqaro normalarning bir xilda qo'llanishi bilan ajralib turadi.

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi hisoblangan – fan, adabiyot, san'at asarlarini yaratish, ulardan turli ko'rinishda foydalanish, ayirboshlash natijasida kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga soladi. Bu munosabatlarda bir tomondan jismoniy shaxslar qatnashsa, ikkinchi tomondan yuridik shaxslar yoki xalqaro tashkilotlar yoxud davlatlar qatnashishi mumkin.

Avstriyalik olim Valter Dillens Yevropada kitobning chop etilishi mualliflik huquqining paydo bo'lishiga olib keldi, deb ko'rsatadi⁷². Nemis mutaxassisi I. Gutenberg XV asrda harf bosishni ixtiro qilishi natijasida sanoat usulida birinchi marta ommaviy ravishda kitobning chiqarilishi mualliflik huquqining kelib chiqishi va kitobning bozorda tovar sifatida ayirboshlanishi aholining intellektual talabini qondirishga olib keldi. Dastlab asar yaratgan muallifning huquqi emas, balki kitob chiqarayotgan noshirning huquqi himoya qilinadi. Mualliflik huquqiga oid bo'lgan dastlabki qonunlar 1709-yilda Angliyada, 1790-yilda AQSHda, 1791, 1793-yillarda Fransiyada, 1794, 1837-yillarda Prussiyada, 1762-yilda Ispaniyada, 1830-yilda Rossiyada qabul qilingan. Bu qonunlarga ko'ra mualliflik huquqi nafaqat bir mamlakat hududida, balki butun dunyoda himoya qilinishi ham norma sifatida belgilangan.

Mualliflik huquqi «inson huquqlari»ning ham ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida «har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega» deyiladi. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 18, 19-

⁷² Вальтер Диллени. "Авторское право: прошлое и настоящее. Что дальше?" –М.: "Юридическая литература". 1988. –С.7.

moddalari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro hujjatning 18, 19-moddalarida bevosita mualliflik huquqining himoyasiga oid qoidalar mustahkamlangan. Ayniqsa, Umumjahon Deklaratsiyasining 27-moddasida «har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san'atdan bahramand bo'lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega» deyiladi. Ijod erkinligi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy ixtirolar, adabiyot va san'atda yangi asarlar yaratish asosida amalga oshiriladi. Davlat esa mualliflarning bosh homiysi, jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi. 1956-yili 35 davlat vakillari ishtirok etgan Xalqaro mualliflar va bastakorlar konfederatsiyasi (SIZAK) tomonidan qabul qilingan Xartiyada ham adabiyot, badiiy va ilmiy asarlar mualliflari jamiyatda muhim o'rinni egallashlari, ular insoniyatning umumiy manfaatlari oldida javobgar ekanligi hamda sivilizatsiyaning rivojlanishida hal qiluvchi kuch ekanligi ta'kidlanadi. Har qanday davlat milliy qonunchiligini yaratayotganda mualliflik huquqiga oid yuqoridagi tamoyillarni qonun doirasida mustahkamlashi, mualliflarning erki-irodasini doimo himoya ostiga olishi Xartiyaning asosiy g'oyasini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi milliy davlatchilik asosini shakllantirar ekan, mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridanoq mualliflik huquqini himoya qilishga qaratilgan milliy qonunchilik tizimini shakllantirishga kirishdi. 1995-yil 5-may kuni «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida», 2002-yil 5-aprel «Shaharsozlik kodeksi», 1996-yil 24-aprelda «Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida», 1996-yil 30-avgustda «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida», 1996-yil 30-avgustda «Noshirlik faoliyati to'g'risida», 1997-yil 25-dekabrda «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida», 1998-yil 26-dekabrda «Reklama to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi mualliflik huquqini himoya qilishning qonunchilik tizimi yaratilganidan dalolat beradi. Ayniqsa, 1997-yil 1-martdan kuchga kiritilgan yangi Fuqarolik kodeksi esa bu sohada muhim qonunchilik asosi hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining IV-bo'limi intellektual mulkka oid munosabatlarni tartibga soladigan normalar bilan mustahkamlanganligi mualliflik huquqiga katta e'tibor berilayotganligini ko'rsatadi. Mualliflar huquqlarining bir necha qonunlar orqali va har tomonlama himoya qilinishi ularning

konstitutsion huquqlarining kafolatini ta'minlaydi. Yangi kodeksda 59, 60, 61-boblar (1031-1081-moddalar)da mualliflarning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlari, mualliflik shartnomalari, mualliflik huquqining subyekt va obyektlari, himoya muddati, turdosh huquqlar subyektlari bo'lgan ijrochilar, teleradio organlari, ijro yozuvini amalga oshiruvchi shaxslarning ham huquqlarining bir qator alohida moddalarda berilishi orqali qonunchiligimiz xalqaro huquqiy hujjatlarga yaqinlashtirildi. 1996-yil 30-avgustdagi «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida esa mualliflik va ularga tenglashtirilgan shaxslarning huquqlari yanada kengroq berildi. Ayniqsa, mualliflik huquqining amal qilish sohasi, asar qismlari va hosila asarlar, xizmatga doir asarlar, hammualliflik, film va intervyu mualliflari, mualliflik huquqining cheklanishi, mualliflik huquqlarini boshqarish kabi qoidalar yangi norma sifatida alohida belgilab qo'yildi.

Ijodiy faoliyat natijasi bo'lgan mahsulotlar ko'pincha g'oyaviy-nomoddiy ko'rinishda bo'ladi. Shu sababli ularga nisbatan odatdagi ashyoga, moddiy obyektga nisbatan qo'llaniladigan huquq me'yorlarini qo'llab bo'lmaydi⁷³. Mualliflik huquqiga oid qonunchilik tizimi ushbu masalani bevosita hal etadi. Qonunchilikda muallifning shaxsiy huquqlariga katta o'rin berilgan. Shaxsiy nomulkiy huquqlar faqat muallifga tegishli bo'lib, u boshqa shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas.

Qonunchilikning yana bir xususiyati shundaki, birinchi marta muallifning shaxsiy mulkiy huquqlari tizimi yanada kengaytirildi. Bu huquqlar esa asarni yaratish yoki undan boshqacha yo'l bilan foydalanish natijasida kelib chiqadigan har qanday munosabatlarda ham o'zining ta'sirini yo'qotmaydi, o'zgaralar tomonidan o'zgartirilmaydi. Tegishli huquq shartnomada kelishilgandan so'ng boshqalarga o'tkazilishi mumkin.

Har qanday muallif asarning o'zi tomonidan yaratilgan mustaqil ahamiyat kasb etgan qismini agar ular o'rtasida boshqacha kelishuv ko'zda tutilmagan bo'lsa, o'z xohishidek foydalanish huquqiga ega. Ma'lumki, mualliflik huquqining yuzaga kelishi va uni amalga oshirish uchun asarni ro'yxatdan o'tkazish yoki hujjatlashtirish yoxud biron-bir rasmiyatchilikka rioya etishlik talab qilinmasligi norma sifatida o'rnatilgan.

⁷³ Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. –T. «Adolat», 1996. 36-bet.

Mualliflik huquqining xususiyatlaridan yana biri shuki muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlari – mualliflik huquqini, nomga bo‘lgan huquqni, muallifning obro‘cini himoya qilishga qaratilgan huquqni amalga oshirishda muddat belgilamaydi. Shuningdek, muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirishdan voz kechish to‘g‘risidagi biron-bir shaxs bilan tuzgan bitim yoki muallifning bu haqdagi arizasi ahamiyatga ega emas.

Milliy qonunchilikdagi yana bir xususiyat shundaki, muallifning huquqi u vafot etgandan keyin yana 50 yilgacha himoya qilinadi.

Turdosh huquqlarning subyektlari hisoblangan teleradio organlari, kabelli studiyalar, ovoz yozib oluvchi shaxslarning huquqlari ham ular tomonidan yaratilgan asar e‘lon qilingan, ijro etilgan (yozib olingan) kundan boshlab 50 yilgacha himoya qilinadi. Bu muddat xatto ko‘p tomonlama shartnomalarda ham ancha qisqa qilib belgilangan.

Xulosa qilganda, respublikamiz mualliflik huquqi qonunchiligi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, yaxlit bir tizimga keltirilgan va xalqaro hujjatlar talablariga mos keladi. Umuman olganda, respublikamiz mualliflik huquqiga oid xalqaro majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi uchun tegishli huquqiy zamin yaratilgan.

2-§. Mualliflarning chet eldagi huquqiy holati

Qonunchilikka ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llanadi.

Ma‘lumki, mualliflik huquqi mualliflarning va ularning huquqiy vorislarining fuqaroligidan qat‘i nazar, O‘zbekiston hududida e‘lon qilingan yoki biron-bir obyektiv ko‘rinishdagi asarlarga nisbatan tatbiq qilinadi.

Mualliflik huquqi:

birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida e‘lon qilingan yoki biron-bir moddiy ko‘rinishda bo‘lgan asarlarga tatbiq qilinadi, shuningdek, O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan mualliflarga yoki ularga tenglashtirilgan shaxslarga tegishli deb tan olinadi;

ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida e‘lon qilingan yoki biron-bir moddiy ko‘rinishda bo‘lgan asarlarga

tatbiq qilinadi hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa davlatlarning fuqarosi bo'lgan mualliflarga, shuningdek, ularning huquqiy vorislariga tegishli deb tan olinadi.

Agarda, asar O'zbekiston hududidan tasliqarida birinchi marta e'lon qilinganidan so'ng o'ttiz kun ichida O'zbekistonda e'lon qilingan bo'lsa, asar O'zbekiston Respublikasida e'lon qilingan hisoblanadi. Asar O'zbekiston hududida O'zbekistonning xalqaro shartnomalariga muvofiq himoya qilinishi lozim bo'lsa, uning muallifi hududida mualliflik huquqini olish uchun asos bo'lib xizmat qilgan yuridik fakt sodir bo'lgan davlatning qonuni bilan aniqlanadi.

O'zbekiston mualliflik huquqiga oid bo'lgan biron-bir ko'p tomonlama shartnomalarga qo'shilganidan so'ng, respublikada shartnomaning «*milliy tartib*» prinsipi amalda bo'ladi. Ya'ni, xorijiy mualliflarning huquqlari himoya qilinayotganda respublikamiz qonunchiligi normalari qo'llanadi. Agarda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida respublikamizning mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonun hujjatlaridan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llanadi. Qonunchilikning bu qoidasi xorijiy mualliflarning respublikamizda mualliflik huquqining himoyasini tartibga soladi va o'rtada kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday kelishmovchilikni bartaraf etadi. «*Milliy tartib*» prinsipining mazmuni shundan iboratki, bunda har qanday davlat hududiga chet el mualliflari asarlari mualliflar yoki ularga tenglashtirilgan shaxslarning maxsus ruxsat berishlari (litsenziya) orqali olib kiriladi. Litsenziya orqali kiritilgan har qanday asardan foydalanishning tartibi, muddati, hududi, vaqti va to'lanadigan mualliflik yoki ijrochilik haqlarini undirish, yig'ish va taqsimlash, huquq egasi yashab turgan mamlakatga o'tkazib yuborish masalalari alohida hisobga olinadi. Xalqaro shartnomaning har bir a'zosi bo'lgan davlat muallifi yoki huquq egasi asarining daxlsizligini ta'minlash va mualliflik huquqining to'liq himoya qilinishi lozim bo'ladi. Xorijiy mualliflar asarlaridan mamlakat ichkarisida foydalanganda munosabatlarda bank, moliya, bojxona, chegara, transport va huquq-tartibot organlarining faoliyati kuchaytiriladi. Amalda xorijiy mualliflarning mualliflik huquqlarini mamlakat ichkarisida yakka tartibda himoya qilish emas, balki jamoa bo'lib himoya qilish yoki boshqarish tartibi keng qo'llanilmoqda. Chunki, chet ellik muallifning muqim yoki doimiy ravishda davlatlar hududida bo'lmasligi unga tegishli huquqni himoya qilish yoki

boshqarishga keng imkon bermaydi. Xorijiy muallifning mulkiy huquqlarini boshqarish maqsadida, uni yakka tartibda amalga oshirish qiyin bo'lgan hollarda (ommaviy ijrochilikda, radio va televideniya, asardan mexanik, tasma, magnitli yoki boshqa yozuvli usulda foydalanilganda, reproduksiya qilinganda yoxud boshqa hollarda) ko'rsatilgan shaxslarning tegishli huquqlarini jamoa asosida boshqaruvchi tashkilotlar huquq egalari bilan tuzilgan shartnoma asosida o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida mualliflar va turdosh huquqlar subyektlarining manfaatlarini ifoda etadilar. Bunday tashkilotlar vakolatlari doirasida asarlardan foydalanishning tegishli usullari uchun litsenziya berayotganda, litsenziyaning shartlari bir toifadagi barcha foydalanuvchilar uchun bir xil bo'lmisligi kerak va yetarli asoslar bo'lmay turib litsenziya berishni rad etib bo'lmaydi.

Litsenziya mualliflik shartnomasi emas, balki majburiy xarakterga ega bo'lgan ruxsat berish hujjatidir. Litsenziya shartnomasi mualliflik shartnomasidan ma'lum bir vaqtgacha va ma'lum doirada amal qilishi bilan farqlanadi. Litsenziya shartnomasi mualliflik huquqi amal qilishi muddatidan ko'p bo'lmagan vaqt davomida amal qiladi. Asar muallifi yoki merosxo'rlar litsenziya shartnomasiga muddat to'g'risidagi shart kiritilganligi yoki kiritilmaganligidan qat'i nazar, shartnoma tuzilgan sanadan boshlab o'n yil o'tgandan keyin o'z kontragentini kamida olti oy oldin yozma ravishda ogohlantirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqlidir. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra muallif yoki merosxo'rlarda bunday huquq har o'n yilda vujudga keladi.

Litsenziya shartnomalari majburiy xarakterga ega bo'lib, uning talablari to'liq bajarilishi lozim. Majburiy litsenziyaga mualliflik huquqi egasi uchinchi tomondan asardan foydalanishga ruxsat berishga majbur bo'ladi. Umuman olganda, litsenziya shartnomasiga ko'ra mualliflarning mulkiy huquqlari boshqa shaxslarga o'tkaziladi.

Litsenziya shartnomalarining quyidagi – noshirlik-matbaa asarlari, audio-video yozuvlar, radioeshittirish va teleko'rsatuvlar, EHM uchun yaratilgan dasturlar hamda axborotlar bazalari uchun beriladigan turlari mavjud.

O'zbekistonda u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanish uchun litsenziya olish tartibi o'rnatilgan. Bu tartib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 19-aprel kunidagi 215-sonli qarori bilan tartibga solinadi. Kino-video faoliyat bilan shug'ulla-

nuvchilar «O'zbekkino» Davlat aksionerlik kompaniyasidan, konsert-gastrol faoliyati, efir orqali eshittirish, ko'rsatuv berish va kabel orqali uzatish faoliyati bilan shug'ullanuvchilar esa Vazirlar Mahkamasi huzuridagi maxsus komissiyadan tegishli litsenziyalar oladilar. Mualliflik huquqida faoliyat bilan shug'ullanishda litsenziya olishdan ko'ra asarlardan har qanday ko'rinishda foydalanish uchun albatta litsenziya olish talab etiladi.

Litsenziya asosida xorijiy mamlakatlardan olib kelinib tarjima qilingan, yozib olingan, nusxa ko'paytirilgan asarlar boshqa (uchinchi) mamlakatlarga tijorat maqsadlarida yoki ijara obyeksi sifatida chiqarilishi mumkin emas.

Mualliflarning xorijiy mamlakatlardagi huquqiy holati o'sha mamlakatning milliy qonunchiligi bilan aniqlanadi. Xorijiy muallifning barcha huquqlari bir vaqtning o'zida ham milliy qonunchilik bilan, ham xalqaro shartnomalarning normalari bilan tartibga solinadi. Bunda xalqaro tashkilotlarning ham o'rni bar.

Butunjahon Savdo Tashkiloti (BST) – Birlashgan Millatlar Tashkilotining hukumatlararo xalqaro tashkiloti bo'lib, uning faoliyati xalqaro savdo tizimini yaratish, undagi tariflarni kamaytirish, tovarlar, xizmatlar, mahsulotlarga nisbatan xalqaro normalarning tatbiq etilishiga yo'naltirilgan.

BST bir qator xalqaro savdo bitimlarining ma'muriy vazifasini bajarib keladi. 2002-yilning 1-yanvariga qadar 130 dan ortiq davlat BSTning a'zosi hisoblanadi. BSTga a'zo bo'lgan davlatlarda butun dunyoda tayyorlanadigan mahsulotlarning 90 foizi tayyorlanadi. O'zbekiston Respublikasi BSTga hozircha 32 davlat qatori kuzatuvchi sifatida qatnashib kelmoqda.

BSTga a'zo bo'lib kirayotgan davlatlar BSTning 15 ta mustaqil bitimini imzolab, ulardagi xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga olmoq' i lozim. Bu bitimlar orasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha shartnomasi (TRIPS) ham bor. Shartnoma 7 bo'lim, 63 moddadan iborat bo'lib, unda intellektual mulk huquqi, xususan, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning eng asosiy qoidalari mustahkamlangan. TRIPSning 1-8-moddalarida boshqa mamlakatlarda yaratilgan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan qo'llanadigan prinsip va tartiblar, 9-14-moddalarida esa mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilishga qaratilgan tegishli Konvensiyalar normalari bilan bog'liq qoidalar belgilangan. BST

asarlar ayirboshlanayotganda TRIPS orqali xalqaro savdo tizimiga kirgan holda xalqaro majburiyatlar bajarilishini o'rtaga qo'yadi.

TRIPS bitimi mualliflik huquqiga oid 1886-yildagi Bern va 1961-yildagi Rim Konvensiyalariga a'zo bo'lgan mamlakatlar uchungina ochiq ekanligi ta'kidlanadi. Chunonchi, davlatlar hududida bir vaqtning o'zida ham xalqaro Konvensiyalar, ham TRIPS bitimi normalari harakatda bo'ladi. Bunday holda mamlakat ichkarisida mualliflik huquqiga oid sodir etilgan har qanday huquqbuzarlik bir vaqtning o'zida har ikki xalqaro tizim orqali ta'qibga olinadi va buzilgan huquqlar harakatda bo'lgan huquqiy normalar orqali tiklanadi. BST bitimlarining amalga kiritilishi har qanday davlatning milliy qonunchiligini ularning qoida va talablariga moslashtirishni talab etadi.

3-§. Mualliflik huquqini xalqaro miqyosda himoya qilishga oid xalqaro shartnomalar

Mualliflik huquqini xalqaro miqyosda himoya qilish maqsadida dunyoda bir qator Konvensiya va bitimlar qabul qilingan. Bular ko'p tomonlama, ikki tomonlama va hamkorlikka yo'naltirilgan shartnomalardir. Bunday kelishuvlarning yuzaga kelishining asosiy sababi bir mamlakatda yaratilgan asarlarning boshqa mamlakatlarda ruxsatsiz foydalanilishining oldini olishdir. Ikki tomonlama Konvensiyalar Yevropa mamlakatlari noshirlarining talabi bilan yuzaga kelgan. Bunga 1886-yilda «Adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risida»gi Bern Konvensiyasi misol bo'ladi.

Turli ko'rinishlardagi davlat tuzilishiga ega bo'lgan davlatlar orasida hamkorlikni rivojlantirishda mualliflik huquqi haqidagi xohishlar, xalqaro Konvensiyalarning o'rni va ahamiyati 1975-yil 1-avgustda Xelsinkida o'tkazilgan Kengashning Yakuniy bayonnomasida o'z aksini topgan. Xelsinki Kengashi a'zolari intellektual mulk huquqining himoyasini ta'minlash zaruriyati ilm va fan taraqqiyotida kelgusi aloqalarni mustahkamlash imkoniyatlariga bog'liq ekanligini ko'rsatdilar. Kengash a'zolari davlatlarning madaniy boyliklarini almashtirish haqidagi yakuniy qaydnoma bo'limida, o'zlari ishtirok etayotgan va kelgusida qo'shilishga qaror qiladigan madaniy qadriyatlarni tarqatish va mualliflik huquqi to'g'risida xalqaro Konvensiya va bitimlarning to'liq, samarali qo'llanishi haqida g'amxo'rlik qilishlarini bayon qilganlar.

Konvensiya boshqa bitimlar qatori intellektual faoliyat natijalarini muhofaza qilishga tegishli bo'lgan davlatlararo munosabatlarni jahon miqyosida tartibga soladi. Konvensiyalarning to'g'ri qo'llanishi, asarlarning tarqalishini xalqaro tizim orqali tartibga solish, asarlarni yaratish va tarqatish yo'li bilan rivojlanayotgan mamlakatlardan uchun Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) 1976-yilda doimiy Dastur e'lon qildi. Mualliflik huquqi masalalari bilan shug'ullanib kelayotgan mutaxassislarning fikricha, mualliflik huquqini himoya qilishni minimal umumqabul qilingan chegaralar bilan ta'minlash va asarlarni kengroq hududlarda tarqatishga sharoit yaratish uchun, milliy qonunchiliklar orasidagi kelishmovchiliklarni barataraf etuvchi vosita sifatida xalqaro shartnomalarning qabul qilinishi talab qilingan. Mualliflar huquqlarini himoya qilishning xalqaro tizimi davlatlararo ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlar qoidalariga, davlatlararo doirada mualliflik huquqining hududiy chegarasini bartaraf qilishga bo'lgan intilishlari, mualliflik huquqini barcha mamlakatlarda himoya qilinishini ta'minlashga bo'lgan intilishlarga asoslanadi.

Badiiy va adabiy asarlarni himoya qilish haqidagi Bern Konvensiyasi (1886-yil). Yevropa noshirlik firmalarining manfaatlari asarlarning nashr etilishi va dunyoda keng tarqalishi natijasida asarlar ustidan yetarlicha nazorat o'rnatishni qiyinlashtiradi. Natijada ko'p tomonlama shartnoma tuzish orqali nazorat o'rnatish zaruriyati paydo bo'ladi. 1886-yilda Bern Konvensiyasining tuzilishi mavjud barcha ziddiyatlarni bartaraf qilishga qaratiladi. Ushbu Konvensiya 1896-yilda Parijda, 1908-yilda Berlinda, 1914-yilda Bernda, 1928-yilda Rimda, 1948-yilda Bryusselda, 1967-yilda Stokgolmda, 1971, 1979-yillarda Parijda qayta qo'rib chiqildi. Hozirgi kunda 130 dan ortiq davlat Konvensiyaning a'zosi hisoblanadi.

Konvensiya hamma davlatlar uchun ochiq. Ratifikatsiya yorliqlari yoki qo'shilish haqidagi hujjatlar saqlash uchun BIMTning Bosh direktoriga topshiriladi.

Konvensiya 38 modda va yana 6 moddadan iborat qo'shimcha bo'limdan iborat. Konvensiya himoya qilishning yuqori darajasini ta'minlaydi va mualliflarga nisbatan ega bo'lishi lozim bo'lgan hamma huquqlarning to'liq ro'yxatini mujassamlashtirgan.

Konvensiya qoidalari ikki guruhga tatbiq etilgan: moddiy xarakterga ega bo'lgan (moddiy huquq) ma'muriy va yakuniy qoidalar.

Konvensiyada moddalardan tashqari Muqaddima ham borki, unda Konvensiya bilan bog'liq bo'lgan davlatlar mualliflarining badiiy va adabiy asarlarga bo'lgan huquqini himoyalash xohishi ta'kidlanadi.

Konvensiya uchta asosiy va taqdim etilayotgan himoyaning bir qator qoidalariga, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarga tegishli bir qator maxsus qoidalariga asoslanadi.

Konvensiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. «Milliy tartib» tamoyili
2. «Avtomatik himoya qilish» tamoyili
3. «Himoya qilishning erkinligi» tamoyili.

Bern konvensiyasining «milliy tartib» tamoyili eng ustuvor prinsiplardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi qoidada ta'kidlab o'tiladiki, bu huquqlardan foydalanish va uni amalga oshirish biron-bir rasmiyatchilikni bajarish bilan bog'liq emas, bunday foydalanish va amalga oshirish ishlari, asar kelib chiqqan davlatda himoya qilish mavjudligi yoki mavjud emasligiga qaramaydi. Shunga ko'ra, Konvensiyaning asosiy Qoidalari belgilangandan tashqari, himoya qilish hajmi, muallifning huquqini himoya qilishni ta'minlovchi himoya vositasi bilan teng va u himoya talab qilinadigan mamlakatning maxsus qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Mana shu joyda muallif yoki boshqa huquq egasining huquqiy holati aniqlanadi.

Agar, muallif asar kelib chiqqan, yaratilgan mamlakatning fuqarosi bo'lmasa, u shu mamlakatning muallif-fuqarolari foydalangan huquqlardan foydalanadi.

Konvensiyaning 6-bis moddasi nomulkiy huquq muammolariga bag'ishlangan. «Muallifning mulkiy huquqidan qat'i nazar, deyiladi unda, xatto bu huquqlari tan olinganidan keyin ham u asarga o'z muallifligini e'tirof etilishini, noto'g'ri ma'no berilishiga va asarning boshqa o'zgarishlariga qarshilik qilishi, shuningdek, muallif obro'si va qadr-qimmatiga zarar yetkazuvchi har qanday tajovuzlar-ga qarshilik qilish huquqiga egadir».

Oldingi bandlarda mualliflik uchun tan olingan huquqlar uning o'limidan so'ng ham, mulkiy huquq bekor bo'lgunga qadar, o'z kuchini saqlab qoladi va bu himoya qilayotgan mamlakatning mamlakat qonunchiligi bilan boshqarish huquqiga ega bo'lgan muassasa yoki shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Asosiy qoidalarni ratifikatsiya qilish vaqtida yoki unga qo'shilgan vaqtida oldingi bandlarda ko'rsatib o'tilgan himoya qilishni

ta'minlovchi qoida o'z qonunchiligida ko'rsatilmagan mamlakatlar, mualliflarning o'limidan so'ng bu huquqlarni saqlab qolmasligini nazarga olishi mumkin.

Ushbu moddada tavsiya etilgan huquqlarni ta'minlashni himoya qiluvchi vositalar, himoya qilinishi talab qilinayotgan mamlakatning qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Himoya qilishning davomiyligi, muddati haqidagi umumiy qoidalardan shu hol anglashiladiki, himoya qilish muallif o'limidan so'ng ham yana ellik yilgacha davom etishi kerak. Lekin, bu umumiy qoidadan mustasnolar ham bor. Yashirin yoki taxallus bilan chiqarilgan asarlar uchun, shu asarlar ommaga yetkazilganidan keyin huquq 50 yil qo'riqlanadi, muallif o'ziga qo'yilgan taxallus uning shaxsi haqida shubha, chalg'ish uyg'otmasa yoki shu muddat davomida muallif o'z shaxsini ochsa, umumiy qoida qo'llaniladi. Audiovizual (kinematografiya) asarlar uchun himoya qilishning eng ko'p muddati asar omma uchun yetkazilgandan so'ng (asarning chiqarilishi) ellik yil, agar bu sodir bo'lmasa, asar yaratilgandan so'ng ellik yil qilib belgilangan, ushbu muhlatlar o'tgach, himoya qilish muddati tugaydi. Bu muddat amaliy san'at va fotografiya asarlari uchun yaratilgan vaqtdan yigirma besh yil o'tgandan so'ng tugaydi. Hozircha (2001-yil iyungacha bo'lgan ma'lumot) O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga a'zo emas.

Mualliflik huquqi haqidagi Butunjahon Jeneva Konvensiyasi (1952-yil) 1928-yil boshlarida mualliflik huquqi doirasida davlatlarning harakatini birlashtirishga urinish boshlandi. YUNESKO Millatlar Ittifoqi Ligasi bilan hamkorlik qilish huquqini oluvchi bosma nashrlarga keng yo'l ochishga imkon berishni istab, Butunjahon Konvensiyasini tayyorlash masalasini o'z zimmasiga oladi.

1947-yilda Mexikodagi YUNESKOning Bosh Konferensiyasida «YUNESKO jahon miqyosida mualliflik huquqini butun imkoniyatlari bilan va amaldagi kelishuvlarga tayanib zudlik bilan hal qiladi» deb ta'kidlanadi. YUNESKOning 2,4.1 rezolutsiyasi Bosh Konferensiyasining ikki oxirgi sessiyada o'z tasdig'ini topdi.

Yangi Konvensiyani tayyorlash 1948-yilda boshlandi va uch yil davom etdi. 1951-yilga kelib butun jahon Konvensiyasining loyihasi tayyorlandi va 1952-yildagi diplomatik Konferensiyada ko'rib chiqish uchun tavsiya qilindi. Mualliflik huquqi haqidagi Butunjahon Konvensiyasi 1952-yil sentabrda Jenevada bo'lib o'tgan ellik mamlakat vakillari ishtirokida qabul qilindi. Konvensiya 1955-yil

sentabridan kuchga kirdi. Butunjahon Konvensiyasi ikki tahrirda mavjud:

a) birinchi tahriri 1953-yil 6-sentabrda Jenevada qabul qilingan. Nashr matni 1955-yil 16-sentabrda kuchga kirgan;

b) ikkinchi tahrir 1971-yil 24-iyunda Parijda qabul qilingan. Bu tahrirning matni 1974-yil 10-iyulda kuchga kirgan.

Konvensiya ko'p tomonlama shartnoma hisoblanib, u bilan bog'liq mamlakatlar soni Konvensiyaga kirgan yoki undan chiqqan turli davlatlar hisobiga o'zgarib turadi.

Jeneva Konvensiyasi Bern Ittifoqi a'zolari bo'lgan davlatlar orasida shartnoma aloqalarini o'rnatish imkoniyatini ochdi. Konvensiya rivojlanayotgan davlatlar, shuningdek, mualliflik huquqini xalqaro himoya qilish tizimiga ega bo'lmagan davlatlarga muvofiq keladigan tizim tuzishga yo'naltirilgan.

Jeneva Konvensiyasi majburiy qoidaga ega bo'lmagan muqaddima bilan ochiladi. Muqaddimada quyidagicha deyiladi:

«Hamma davlatlarda adabiy, ilmiy va badiiy asarlarga mualliflik huquqini ta'minlash istagi bilan ruhlangan shartlashuvchi davlatlar, shunga ishonadilarki, Butunjahon Konvensiyasida o'z aksini topgan hamma mualliflar uchun tegishli bo'lgan mualliflik huquqini himoya qilish tizimiga qo'shimcha bo'lib, unga daxl qilmasdan shaxs huquqini hurmat qilishni ta'minlash va adabiyot, fan, san'atning rivojlanishiga qulaylik tug'dirish imkoniyatiga ega. Ahdlashuvchi davlatlar shunga ishonadilarki, mualliflik huquqini himoya qilishning har tomonlama tartibi ma'naviy ijod asarlarini tarqalishini yengillashtiradi va xalqaro o'zaro anglab yetishga imkon beradi».

Jeneva Konvensiyasi 21 moddadan iborat. Konvensiyani qabul qilish vaqtida ishtirokchilar quyidagi mazmunda Deklaratsiya qabul qildilar:

Bern Konvensiyasining qoidalariga muvofiq Konvensiya tomonidan tuzilgan Xalqaro Ittifoq tarkibidan 1951-yil 1-yanvardan so'ng chiqib ketgan davlatdan chiqqan asar, mualliflik huquqi bo'yicha Butunjahon Konvensiyasi tavsiya qilgan Bern ittifoqidagi davlatlarda himoyadan foydalanmaydi.

Mualliflik huquqi haqidagi Butunjahon Konvensiyasi Bern Konvensiyasi bilan bog'liq davlatlararo munosabatlarda qo'llanishi lozim emas.

Bern Konvensiyasi qoidalariga muvofiq xalqaro Ittifoq davlatlaridan biri bo'lgan, Konvensiya tomonidan tashkil etilgan davlatlardagi asarlari himoya qilishiga tegishli bo'ladi.

Konvensiyada shu narsa aytiladiki, davlat-ishtirokchilar mualliflik huquqi va mualliflik huquqlariga egalik qiluvchilar uchun zarur bo'lgan yetarli va zaruriy himoyani ta'minlash uchun hamma choralarni ko'rishga majburdirlar.

Konvensiyaning 1-moddasida ko'rsatilgan adabiyot, musiqa, dramaturgiya, kinematografiya, rassomlik, haykaltaroshlik va grafika kabi ishlar ro'yxati namunali tavsifga ega.

Mualliflik huquqining ellik yil muddatda faoliyat ko'rsatishini nazarda tutgan Bern Konvensiyasidan farqli ravishda Butunjahon Konvensiyasi ancha qisqa muddatni nazarda tutadi. Ushbu Konvensiyada amal qilinadigan asarning himoya qilish muddati muallif hayotidan so'ng yigirma besh yildan kam bo'lmasligi kerak (4-modda). Hozirgi vaqtda dunyoning 90 dan ortiq mamlakati shu Konvensiyaning a'zosi hisoblanadi.

Ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilari va radiotelevideniye tashkilotlari manfaatlarini himoya qilish haqidagi Rim Konvensiyasi (1961-yil), Rim Konvensiyasi 1961-yil 26-oktabr kuni ta'sis etilgan bo'lib, u 1964-yil 18-mayda kuchga kirgan. Hozirgacha 55 dan ortiq davlat Konvensiyaning a'zosi hisoblanadi. Konvensiyaning asosiy maqsadi kengayib borayotgan ovoz yozish va ularni tarqatishda ijrochi-artistlarning huquqlarini himoya qilishdan iborat. Konvensiya ijrochilar tomonidan asarlarni ijro etishda, fonogramma ishlab chiqaruvchilarning fonogrammalari va ko'rsatuv beruvchi, eshittiruvchi tashkilotlar dasturlarini har qanday holatda himoya qilishni ta'minlaydi. Ushbu Konvensiyaga Bern yoki Butunjahon Konvensiyasi a'zosi bo'lgan davlatlarga qabul qilinadi. Konvensiyaga a'zolikka kirayotgan davlatlar ratifikatsiya yorliqlari yoki qo'shilish haqidagi hujjatni saqlash uchun BMT Bosh Kotibiga topshiradilar. A'zolikka kirayotgan har qanday davlat Konvensiyaning ayrim moddalariga nisbatan ularni tatbiq etish haqida izohlar, pisandalar kiritishi mumkin.

Bern Konvensiyasiga o'xshab Rim Konvensiyasida ham «milliy tartib» tamoyili asosiy hisoblanadi.

Konvensiyaga ko'ra ijrochilar (artistlar, qo'shiqchilar, musiqachilar, raqqoslar, badiiy va adabiy asarlarning ijrochilari va boshqalar)

o'zlari rozilik bildirmagan har qanday harakatlardan himoya qilinadilar. Bunday harakatlar quyidagilar bo'lishi mumkin:

– ularning ijrolarini to'g'ridan-to'g'ri teletranslatsiya va radiotranslatsiya qilish;

– shunday teletranslatsiyalarni takrorlash maqsadida, ijrochining roziligisiz birlamchi ijrolarni yozib olish va boshqa harakatlar.

Konvensiya talabiga ko'ra fonogramma ishlab chiqaruvchilarini o'zlari tomonidan ishlab chiqarilgan fonogrammalarni har qanday ko'rinishda takroran ishlab chiqarishni taqiqlash yoki unga ruxsat berish huquqi tan olinadi. Fonogramma deganda, har qanday ijroning ovozini akustik yozib olish tushuniladi. Shuningdek, Konvensiyada ko'rsatuv-eshittirish tashkilotlarining ular tomonidan tayyorlangan dasturlarini o'zgalar tomonidan takror ko'rsatish (eshittirish), audio-video shaklida yozib olish, bu yozuvlarni tarqatish, shu yozuvlarni televizion dasturlarda qayta namoyish qilish harakatlarini taqiqlash yoki ularga ruxsat berish huquqi mutahkamlangan.

Konvensiyada huquqlarni himoya qilish muddati eng kamida 20 yil deb belgilangan.

Ratifikatsiya yoki qo'shilish haqidagi hujjat saqlash uchun Shartnoma depozitariysi hisoblangan BIMT Bosh direktoriga topshiriladi.

BIMTning ijrolar va fonogrammalar bo'yicha Shartnomasi (1996-yil). Bu Shartnoma 1996-yil 20-dekabr kuni Jeneva shahrida BIMT Diplomatik Konferensiyasida qabul qilingan. Ushbu Shartnoma uni imzolashda qatnashgan davlatlar uchun 1997-yil 31-dekabr kuniga qadar erkin a'zo bo'lish uchun ochiq bo'lgan. Shuningdek, Shartnoma BIMTning a'zo davlatlari va Yevropa Ittifoqi uchun ham ochiqdir, shartnoma orqali tashkil etiladigan Assambleya ushbu Shartnomaga qatnashish uchun boshqa xalqaro tashkilotlarning qatnashuviga ruxsat berishi mumkin. Shartnoma ratifikatsiya qilingan yoki qo'shilish haqidagi hujjatlar saqlash uchun yuborilgan kundan boshlab kuchga kiradi. Bu hujjatlar saqlash uchun Shartnoma depozitariysi hisoblangan BIMT Bosh Direktoriga topshiriladi. Shartnoma intellektual mulk huquqidagi quyidagi himoya qilinadigan ikki toifadagi guruhga nisbatan tatbiq etiladi:

a) ijrochilar (aktyorlar, qo'shiqchilar, bastakorlar va boshqalar);

b) fonogramma ishlab chiqaruvchilar (ijrolarni yozib olish va tarqatish ma'suliyatini o'z zimmasiga olgan jismoniy yoki yuridik shaxslar).

Shartnoma ijrochilar huquqlarini mustahkamlab, ijrochilarga fonogrammada yozilgan ijrolari uchun quyidagi to'rt turdagi mulkiy huquqlarini mustahkamlaydi (kinofilmlarga o'xshash audiovizual yozuvlar bundan mustasno):

- a) qayta ishlab chiqarishga bo'lgan huquq;
- b) tarqatishga bo'lgan huquq;
- d) ijaraga berishga bo'lgan huquq;
- e) yozilgan ijroni ma'lum qilish huquqi.

Ushbu huquqlar alohida huquqlar turiga kirib, qisman cheklashlar bilan alohida huquq sifatida faqat ijrochilarga tegishli bo'ladi.

Qayta ishlab chiqarish (takrorlash) huquqi deganda, fonogrammani har qanday shakl va usulda bevosita yoki bilvosita ishlab chiqarishga, ruxsat berish huquqi tushuniladi.

Tarqatishga bo'lgan huquq deganda esa asar (fonogramma) asli yoki nusxasini sotish yo'li bilan yoki huquq egasining huquqini boshqaga o'tkazishga ruxsat berish huquqi tushuniladi.

Ijaraga berish huquqi deganda, asar (fonogramma)ning asli va uning nusxasini milliy qonunchilik belgilaganidek, tijorat maqsadlarida omma uchun ijaraga chiqarishga ruxsat berish huquqi tushuniladi.

Yozilgan ijroni ma'lum qilish huquqi bu shunday harakatki, bunda ijrochi huquq egasi fonogrammani hammaga ma'lum qilish uchun sim yoki efir (to'lqin va boshqalar) orqali yetkazilishiga ruxsat berish huquqi tushuniladi. Bunda omma har qanday joyda, har qanday vaqtda o'zlarining xohishiga ko'ra fonogramмага nisbatan tinglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu turdagi yetkazishlar elektron aloqa vositasi bo'lgan «Internet» tizimiga ham daxldordir.

Ijrochilar va fonogramma ishlab chiqaruvchilarining boshqa huquqlarini ta'minlash maqsadida Shartnomada qatnashayotgan a'zo davlatlar «milliy tartib» tamoyilidan kelib chiqib, o'zlarining hududida o'z ijrochi va fonogramma ishlab chiqaruvchilariga qanday huquqiy kafolat bersalar, boshqa davlatlarning ijrochi va fonogramma ishlab chiqaruvchilariga ham shunday huquqni himoya qilishni ta'minlashlari shart.

Shuningdek, Shartnoma ijrochi va fonogramma ishlab chiqaruvchilariga ularning fonogrammalaridan tijorat maqsadida hamda efir orqali uzatish yoki kabelli yetkazishlarda o'z vaqtida odilona haq olish huquqidan foydalanishni ham belgilaydi. Shartnomaga ko'ra mualliflik huquqi muddati eng kamida 50 yil belgilangan.

Shartnomada qatnashuvchi davlatlar barcha huquqiy himoya vositalarini yaratib, huquqlarini amalga oshirishda «mulkiy huquqlarini boshqarish» (litsenziya berish, mualliflik haqlarini yig'ish va taqsimlash)ni yo'lga qo'yishlari lozim.

Yuqoridagilarni umumlashtiradigan bo'lsak, mualliflik huquqiga oid bo'lgan xalqaro shartnoma va bitimlar mualliflik huquqini xalqaro miqyosda himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, shartnomalarga a'zo bo'lib kirgan davlatlar mualliflari (huquq egalari)ning huquqlari barcha a'zo davlatlar hududlarida bir xilda himoya qilinadi. a'zo davlatlar o'z hududlarida boshqa davlat mualliflari huquqlari buzilgan taqdirda ham ularni himoya qilish yoki tiklash kafolatlarini yaratadi va himoya qilish bilan shug'ullanadi. Xalqaro shartnomalar davlatlar uchun ikki tomonlama yoki hamkorlik haqidagi shartnomalarni ham imzolash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizning Badiiy va adabiy asarlarni himoya qilish haqidagi Bern Konvensiyasiga (1886-yil) a'zo bo'lib kirishi maqsadga muvofiqdir. O'zbekistonda yaratilgan milliy qonunchilik asoslari ham aynan Bern Konvensiyasi normalariga yaqinlashtirilgan. Konvensiyada himoya kafolatlari va muddatlari boshqa Konvensiyalarga nisbatan kengroq berilgan.

4-§. Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqini himoya qilishga oid xalqaro aktlari

Mualliflik huquqini himoya qilishda xalqaro tashkilotlarning o'zni va ular tomonidan qabul qilingan yoki ma'muriy boshqaruvi amalga oshiriladigan hujjatlarning salohiyati katta.

Bu haqdagi muhim qoidalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti va xalqaro tashkilotlarning Ustav, Dasturlari hamda xalqaro shartnomalarida ko'rsatib o'tilgan. Mualliflik huquqi inson huquqlarining ajralmas, tarkibiy qismi bo'lib, inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlarda ham mualliflik huquqiga oid munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq munosabatlar belgilangan. Masalan, 1948-yildagi Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 27-moddasida har bir insonning jamiyat madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san'atdan bahramand bo'lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Jahonda mualliflik huquqini himoya qilish

masalalari bilan BIMT, YUNESKO, Butunjahon savdo tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar bevosita shug'ullanib keladi.

Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti (BIMT) – hukumatlararo xalqaro tashkilot bo'lib, shtab-kvartirasi Shveysariyaning Jeneva shahrida joylashgan. BIMT Birlashgan Millatlar Tashkiloti maqomi bilan ishlaydigan va uning tizimidagi xalqaro tashkilotlarining biri hisoblanadi. BIMT 1967-yil 14-iyul kuni Stokgolm shahrida imzolangan «Butunjahon Intellektual Mulki Tashkilotini tashkil etish haqidagi Konvensiya» asosida tashkil etilgan. Konvensiya 1970-yili kuchga kirgan.

BIMTning vazifalaridan biri butun dunyoda davlatlar o'rtasida kelishuv va Bitimlar asosida intellektual mulkni himoya qilishni muvofiqlashtirish va har xil shartnoma hamda Konvensiyalarning ma'muriy boshqaruvini ta'minlashdan iborat. BIMTning mablag'lari va faoliyati asosan rivojlanib kelayotgan davlatlar, ayniqsa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari, Yaqin Sharq mamlakatlari va boshqa davlatlarning rivojlanishiga qaratilgan. Bu tashkilot 1974-yil dekabr oyida BIMTning hukumatlararo xalqaro tashkiloti degan maxsus maqomini olgan. BIMTning maqsadlari quyidagilar deb e'tirof etilgan:

a) butun dunyoda davlatlararo, ayrim hollarda, xalqaro tashkilotlarda intellektual mulk himoyasini rag'batlantiradi. Dunyoda intellektual mulk himoyasini ta'minlash va rag'batlantirish borasida yangi va har tomonlama zarur bo'lgan xalqaro shartnomalarning yuzaga kelishida vositachilik qiladi. Shuningdek, bu tashkilot barcha davlatlarda intellektual mulkka oid milliy qonunchilikning yaratilishida har tomonlama amaliy yordam ko'rsatadi, a'zo davlatlarning bir-biri bilan ma'muriy aloqalar o'rnatishida yetakchilik qiladi;

b) intellektual mulkka oid bo'lgan va faoliyat ko'rsatayotgan bitimlarning oliy organlari oralig'ida ma'muriy faoliyatni bajaradi. BIMTning kotibiyati sifatida Bitimlar ma'muriy boshqaruvi va xalqaro Byuro harakatda bo'ladi. 1999-yilning yanvarigacha 160 dan ortiq davlat BIMTning a'zosi bo'lgan. Shu kunga qadar BIMT mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasi bilan shug'ullanuvchi «Adabiyot va badiiy asarlarni himoya qilish haqida»gi Bern Konvensiyasi, «Ijrochilar, fonogramma ishlab chiqaruvchilari va ko'rsatuv organlari manfaatlarini himoya qilish haqida»gi Rim Konvensiyasi, «Fonogramma ishlab chiqaruvchilarning fonogrammalarini qonunsiz ishlab chiqarishdan manfaatlarini himoya qilish

haqida»gi Jeneva Konvensiyasi, «Sun'iy yo'ldoshlar orqali uzatiladigan signallar dasturlarini tashuvchilarni tarqatish haqida»gi Bryussel Konvensiyasi, «Filmlarni reyestr qilish va audiovizual asarlarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish haqida»gi Shartnomalarning ma'muriy vazifasini bajarib kelmoqda.»

BIMT uchta – Bosh Assambleya, Konferensiya, Muvofiqlashti ruvchi qo'mita kabi rahbar organlarga ega.

Bosh Assambleya BIMTning a'zo davlatlaridan hisoblangan davlatlar hisobiga va bir vaqtning o'zida Parij yoki Bern Bitimlarining Assambleya a'zolaridan tashkil topadi. Konferensiya esa BIMTning barcha a'zo davlatlari hisobiga tashkil etiladi. Muvofiqlash tiruvchi qo'mita esa Parij va Bern Bitimlari a'zosi hisoblangan BIMT a'zolari orasidan saylanadi.

Bosh Assambleya barcha Ittifoq (Bitim)lar uchun ikki yillik xarajatlar budjetini tasdiqlaydi. Konferensiya esa ikki yillik Konferensiya budjetini tasdiqlaydi. Bosh Assambleya va Konferensiya navbatdagi sessiyalarda ikki yilda bir marta yig'iladi. Bunday holatda muvofiqlashtiruvchi qo'mita navbatdagi sessiyaga bir yilda bir marta yig'iladi.

BIMTning ijrochi boshlig'i Bosh direktor hisoblanadi va u Bosh Assambleya tomonidan 6 yil muddatga saylanadi.

Mualliflik huquqiga oid bo'lgan Bern Ittifoqi yoxud BMT a'zosi, shuningdek, BMTning maxsus biror tashkilotining a'zosi bo'lgan yoki xalqaro Sud Statuti tarafdori bo'lgan davlat BIMTning a'zosi bo'lishi mumkin. BIMT Bosh Assambleyasining taklifiga binoan ham BIMTning a'ziligiga qabul qilinishi mumkin.

BIMTning a'zosi bo'lish uchun davlatlar Bosh direktorga ratifikatsiya qilingan yorliq yoki qo'shilish haqidagi Aktni saqlash uchun topshirishlari lozim.

1976-yilda BIMT Konferensiyasi tomonidan Doimiy dastur ishlab chiqilgan bo'lib, uning bosh vazifasi ijodiy xodimlarni har tomonlama rag'batlantirish, adabiyot va badiiy asarlarni tarqatish, rivojlanayotgan davlatlarda mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchiliklarni takomillashtirish hamda shu soha bilan shug'ullanayotgan tashkilotlar ishiga amaliy yordam berishdan iborat.

Rivojlanayotgan davlatlarning mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunchilik tizimini yaratish maqsadida BIMT va YUNESKO tashabbusi bilan Namunaviy qonun loyihasi

ishlab chiqilgan. Namunaviy qonun loyihasi 1976-yili Tunis shahrida ekspertlar Kengashida qabul qilingan. Ushbu qonun loyihasida BIMTning barcha faoliyati aks ettirilgan.

BMT tashkil topgandan so'ng, harakatda bo'lgan, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qator xalqaro Konvensiyalar normalarini butun dunyo mamlakatlari milliy qonunchilik normalari orqali ijroga qaratishga muvaffaq bo'ldi. Hozirgi vaqtda deyarli barcha davlatlar mualliflik huquqini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik asoslari yaratilgan. Shuningdek, BIMT mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid qonunlar loyihalarini o'rganib chiqish va tavsiyalar berish bilan shug'ullanib kelmoqda. Qabul qilingan yangi qonunlar, huquqiy adabiyotlarni chop etish va tarqatish yaxshi yo'lga qo'yilgan. BIMTning eng so'nggi xalqaro darajadagi faoliyati bu 1996-yil 2-20-dekabr kunlari Jenevadagi shtab-kvartirasida chaqirilgan diplomatik konferensiyadir. Diplomatik konferensiyada qariyb o'n yil davomida tayyorlangan «BIMTning mualliflik huquqiga oid Shartnomasi» va «BIMTning ijrolar va fonogrammalar bo'yicha Shartnomasi» qabul qilindi. Bu shartnomalar eng so'nggi texnologiya natijalari hisoblangan elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar, axborotlar bazasi, «Internet» tizimi, kinematografiya asarlari va fonogrammalardan foydalanish, ularga nisbatan bo'lgan huquqlarni amalga oshirish bilan bog'liq bir qator xalqaro huquqiy tizimlarni belgilab berdi. Ijrochilar huquqlarini yanada kegaytirish, fonogramma ishlab chiqaruvchilari manfaatlari huquqiy shakllarda mustahkamlanganligi amalda bo'lgan xalqaro huquqiy normalari ijrosini yanada ta'minlaydi. Ayniqsa, ijrochilarning shaxsiy nomulkiy va shaxsiy mulkiy huquqlari yanada kengaytirildi. BIMT Akademiyasi a'zo davlatlar huquqshunoslari, mutaxassislar, milliy kadrlarni o'qitish va qayta tayyorlash, dunyo qonunchiligini bir xilda anglash va tatbiq etish, targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarning amalga oshirilayotganligi keyingi yillarda qabul qilingan xalqaro normalarni puxta o'rganishga olib kelmoqda.

YUNESKO xalqaro tashkiloti ham butun dunyoda fan, adabiyot, san'at asarlarini targ'ib qilish bilan bir vaqtda shu asarlarning daxlsizligini ta'minlash, ulardan foydalanishda huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik va asar yaratuvchilari bo'lgan mualliflarning huquqlarini himoya qilish masalalari bilan ham shug'ullanib kelayotir.

YUNESKO Ustavining 1-moddasida belgilanganidek, YUNESKO asarlar, xususan, kitoblar, arxitektura, san'at asarlarini har tomonlama xalqaro normalar asosida himoya qilish maqsadida xalqaro Konvensiya va shartnomalarga davlatlarning a'zo bo'lib kirishlarini tavsiya etib boradi. Shuningdek, intellektual mulk yaratuvchilari asarlarini ayirboshlash, fan, adabiyot, san'at asarlarini nashr etishda har tomonlama aloqalarni o'rnatish, bu yo'lda davlatlar va xalqlarga yaqindan yordam beradi. YUNESKONing muhim vazifalaridan yana biri dunyo mamlakatlarida mualliflik huquqiga oid ma'lumotlarni targ'ib qilish, huquqiy adabiyotlar yaratilishida Ko'maklashish, xalqaro Konvensiyalar ishlari bilan tanishtirish, mualliflik huquqiga doir xalqaro nazariy, huquqiy anjumanlar o'tkazib turishdan iborat.

Insoniyat tomonidan yaratilayotgan har qanday intellektual mulkning so'nggi namunalarini himoya tizimiga kiritishda ham tashkilotning faolligi yuqoridir.

Mualliflik huquqi himoya muddati tugab, umumxalq mulkiga aylangan asarlarning daxlsizligini himoya qilishga doir masala YUNESKO hukumatlar ekspertlari maxsus komitetining 1989-yil 3-7-aprel kunlari Parij shahrida o'tgan majlisida ko'rib chiqilgan.

Fan, adabiyot va san'at asarlari yaratgan muallif vafot etgandan so'ng, uning mualliflik huquqi yana 25 yil davomida himoya qilinadi. Bu muddat tugaganidan so'ng esa asar insoniyatning manfaatlari yo'lida xizmat qilishga o'tadi va asardan o'zga shaxslar ruxsatsiz erkin foydalanishi mumkin. Lekin mualliflik haqi to'lanmay, asardan erkin foydalanganda muallifning nomi (taxallus)ni albatta ko'rsatish sharti bilan va asarning biron-bir qismiga putur yetkazmasdan asardan foydalanishda «daxlsizlik tamoyili»ga rioya etilishi, bunda xalqaro huquqiy himoya tizimning yaratilishiga erishish masalasi YUNESKO tashabbusi bilan ekspertlar maxsus qo'mitasida atroflicha ko'rib chiqilgan. Bu masalaning xalqaro hamjamiyat va insoniyat kelajagi uchun naqadar muhimligi YUNESKO Ustavining 1-moddasida mustahkamlangan.

O'zbekistan Respublikasining mualliflik huquqiga oid yangi qonunchiligida YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy boylikka aylangan asarlarning «huquqiy maqomi» to'g'risidagi normaning o'rnatilishi davlatimizning ilmiy-adabiy salohiyatini yanada kengroq va xalqaro darajada huquqiy himoya qilinishiga olib boradi.

Asarlar daxlsizligining himoya qilinishi masalasi birinchi marta YUNESKOning 1977-1978-yillarga mo'ljallangan Dasturiga kiritilgan edi. YUNESKO sekretariati ushbu masala yuzasidan bir necha tadqiqotlar olib boradi. 1979, 1983, 1985-yillarda esa hukumatlar ekspertlari qo'mitasida ko'rib chiqiladi.

1987-yilda YUNESKO Bosh Konferensiyasi 24-sessiyasiga ushbu masala yuzasidan tayyorlangan maxsus hujjat muxokama uchun taqdim etiladi. Natijada «Asarlar daxlsizligini himoya qilish haqidagi Tavsiyanoma» hukumatlar ekspertlarining maxsus qo'mitasida qabul qilinadi va YUNESKOning 1989-yil oktabr-noyabrda bo'lib o'tgan Bosh Konferensiyasining 25-sessiyasida ko'rib chiqilib, qabul qilinadi.

Asarlarning ijtimoiy boylikka aylanishi ajdodlarimiz yaratgan asarlarning Vatan va ma'naviyatimiz yo'lida xizmat qilishi, xalqlar o'rtasida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, bu asarlar insoniyat baxt-saodati yo'lida xizmat qilishida kafolat berilishi muhim huquqiy mezondir. Shuningdek, xalqaro normalardan kelib chiqib, xorijiy mamlakatlarda qolib ketgan merosimiz bo'lgan adabiyotlarimizni qonuniy asosda davlatimizga qaytarishda muhim o'rinni egallaydi.

Asarlarning umumxalq mulkiga aylanishi, shu asarlarning davlat tomonidan muddatsiz to'liq himoya qilinishini bildiradi. Asarning ijtimoiy boylikka aylanishi ikki ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Asarlar ijtimoiy boylikka qonunchilikda belgilanganidek asarlarni himoya qilish muddati tugagandan so'ng aylanishidir. Ya'ni, bunda muallif vafot etgandan so'ng 50 yil o'tishi va bu asardan foydalanishga ruxsat berish hamda tegishli haqlarni talab qilish huquqi tugaganligi yetarli hisoblanadi;

2. Asarlarni muallif hayotligi davrida yoki muallif vafot etganidan so'ng ham davlat tomonidan sotib olinishidir. Asarning davlat tomonidan sotib olinganligi fakti, shu asarning davlat tasarrufiga o'tishini belgilaydi. Bundan tashqari muallif bir necha davlatlar hududida yashab, asar yaratgan bo'lishi mumkin. Bunday holatda muallif asari davlatlararo kelishuv (Bitim, Shartnoma)ga binoan, shu davlatga tegishli deb topilib, davlat tomonidan ijtimoiy boylikka aylantirilishi mumkin.

Yuqoridagi xalqaro huquqiy normalar YUNESKO tashabbusi bilan xalqaro normalar va davlatlar milliy qonunchiligida o'z aksini

topib bormoqda. YUNESKO tomonidan mualliflik huquqining yangi obyektlari va mualliflik huquqi himoyasidan foydalanuvchilar, mualliflarning huquqiy himoyaga olinmagan jihatlari, ularning ijod qilish hamda mehnatiga tegishli sharoitlar yaratishga qaratilgan quyidagi nufuzli huquqiy hujjatlar qabul qilingan:

1976-yil 22-noyabr «Tarjimonlar statusi haqida»gi Nayrobi Tavsiyanomasi;

1980-yil 27-oktabr «Harakatlanuvchi tasvirlarni saqlash va himoya qilish haqida»gi Belgrad Tavsiyanomasi;

1980-yil 27-oktabr «Ijodiy xodimlar holati haqida»gi Belgrad Tavsiyanomasi».

YUNESKOning mualliflik huquqi paydo bo'lgan yangi obyektlari «multimedia asarlari»ning xalqaro huquqiy holatini belgilash va milliy qonunchilikda mustahkamlash muammolariga bag'ishlangan hukumatlararo qo'mitasi majlislari bo'lib o'tmoqda.

Xalqaro ekspertlar va olimlarning xulosasiga ko'ra asarlarning elektron nashri (videokliplar), raqamli obyektlar (filmlarini elektron vositalar xotiralarida saqlab turish) axborot izlari, kibernetik san'at (rassomlik asarlarini kompyuter yordamida yaratish) asarlari, elektron musiqa (kompyuter yordamida musiqa yaratish) asarlari, amaliy-bezak san'at (kompyuter yordamida asar yaratish) asarlari, audiovizual (kompyuter yordamida ovoz yozib olish va kompyuterda eshitish) asarlari turlari paydo bo'ldi. YUNESKO mana shunday munozarali anjumanlar o'tkazishni rag'batlantirib turmoqda. Bir guruh ekspertlar yuqoridagi asarlarni mualliflik huquqining obyekti deb qarasarlar, ikkinchi guruh mutaxassis va olimlar mualliflik huquqining obyektlari emas, deb hisoblaydilar. Bizning fikrimizcha, bu asarlar mualliflik huquqining obyekti bo'lolmaydi, xususan respublikamizda mavjud qonunchilikda «multimedia asarlari»ning huquqiy maqomi ham belgilangan emas.

5-§. Mualliflik huquqini o'zaro himoya qilishga oid O'zbekiston Respublikasi qatnashayotgan shartnomalar

Mualliflik huquqini xalqaro miqyosda himoya qilish mamlakatlarning ko'p tomonlama shartnomalar yoki ikki tomonlama shartnomalarga qo'shilishi orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki, O'zbekiston sobiq SSSR tarkibida bo'lgan vaqtda 1973-yil 27-maydan boshlab «Mualliflik huquqiga oid Butunjahon Konvensiyasi»ning (Jeneva)

1952-yildagi tahririga a'zo bo'lgan edi. O'zbekistonda shu Konvensiyaga asosan Konvensiyaning a'zosi bo'lgan barcha mamlakatlar mualliflar (merosxo'rlar)i huquqlari va ularning asarlari himoya qilingan edi. Bugungi kunda respublikamiz mualliflik huquqiga oid birorta ham xalqaro Konvensiyaning a'zosi emas. Lekin, respublikamiz hukumatining olib borayotgan tashqi siyosati doirasida O'zbekiston boshqa davlatlar bilan ikki tomonlama shartnomalar tuzish yo'li bilan xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yimoqda.

Masalan, 1993-yil 24-sentabr kuni Moskvada Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari rahbarlari tomonidan «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qilish hamkorligi to'g'risida»gi Bitim imzolandi. Bitim 7 moddadan iborat bo'lib, asosan mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni har tomonlama himoya qilishni kuchaytirish haqidadir.

Bitimning asosiy tamoyillari hamdo'stlik davlatlararo hamkorlikni kengaytirish, milliy qonunchilik tizimini yaratish, axborot almashishni yo'lga qo'yish, mualliflik huquqi obyektlaridan qonunsiz foydalanishga qarshi kurashni kuchaytirish, mualliflik haqlarini ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish, mualliflik haqlarining hisob-kitobi va to'lovga oid qoidalardan imtiyozli, teng foydalanishga qaratilgan.

Ushbu Bitimga ko'ra davlatlar o'z hududlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoa asosida himoya qiluvchi hamda huquqlarni boshqaruvchi tashkilotlar orqali milliy qonunchilikda o'rnatilgan normalar ijrosini har tomonlama ta'minlashga erishishni belgilab olganlar.

O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish va bu sohada ro'y berishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida Ozarbayjon Respublikasi bilan 1997-yil 18-iyunda, Ukraina Respublikasi bilan 1998-yil 19-fevralda, Turkiya Respublikasi bilan 1998-yil 13-aprelda ikki tomonlama shartnomalar tuzdi. Bu shartnomalar asosan mamlakatlarda harakatda bo'lgan milliy qonunchilik normalarini xalqaro doirada ijrosini ta'minlash, qulay himoya tizimini shakllantirish, manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga qaratilgan. Respublikaning ikki tomonlama shartnomalarni imzolashi sohaga oid yangi qonunlar qabul qilinishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston MDH mamlakatlari bilan mualliflik huquqining alohida sohalarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida ham shartnomalar imzolagan. Bular 1995-yil 10-fevral kuni Olma-otada

imzolangan «Kinematografiya sohasidagi hamkorlik to'g'risida»gi Bitim va «Matbaa-nashr va poligrafiya mahsulotlari to'g'risida»gi Bitimlardir.

O'zbekiston Respublikasi boshqa davlatlar bilan mualliflik huquqi va turdosh huquqlar qoidalari tatbiq etiladigan savdoga oid muhim shartnomalarni ham imzolagan. Masalan, bunday shartnoma 1993-yil 5-noyabr kuni AQSH bilan imzolangan «O'zbekiston va AQSH o'rtasidagi savdo munosabatlari to'g'risida»gi Bitimdir.

Ushbu Bitim XVII moddadan iborat bo'lib, uning VIII moddasi bevosita mualliflik huquqini himoya qilishga qaratilgan. Ya'ni, barcha moddiy-tovar boyliklari va xizmatlar kabi mualliflik huquqi obyektlari ham shartnomaning obyekti hisoblanadi. Shartnomada qatnashuvchi har ikki mamlakat shartnomaning ushbu moddasi orqali mualliflik huquqini xalqaro doirada himoyasini ta'minlashni zimmasiga olgan. Shartnomada EHM uchun yaratilgan dasturlar va axborotlar bazasi, fan, adabiyot, san'at asarlarini milliy qonunchilik va xalqaro Konvensiyalar doirasida baravar himoya qilish, mutasaddi soha tashkilotlarining faoliyatini kuchaytirish, audio va video-yozuvini amalga oshiruvchi tashkilotlarining ham barcha huquqlari himoyasini ta'minlashda turli vositalardan foydalanishga kelishib olingan. Bu shartnoma ikkala davlatning ham savdo aloqalari va iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999-yil 3-sentabr kuni 415-sonli qarorining qabul qilinishi esa muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qarorga ko'ra Yevropa Ittifoqi va uning a'zo davlatlari bilan O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik va sherikchilik to'g'risidagi Bitimning amalga oshirilishi yuzasidan O'zbekiston Hukumatining 1999-2005-yillarga mo'ljallangan kompleks Dasturi tasdiqlandi. Qarorga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1999-yil 5-iyul kunidagi 328-sonli qaror bilan tuzilgan Idoralararo komissiya respublika Koordinatsion kengashiga aylantirildi. Kengash zimmasiga yilning har choragida Hamkorlik va sherikchilik to'g'risidagi Bitimning barcha modda va qoidalari qanday amalga oshirilayotganligi to'g'risida axborot berib borish yuklatildi. Shuningdek, Dasturda O'zbekistonning eng muhim xalqaro shartnoma va bitimlarga a'zo bo'lib kirishi bilan bog'liq ustuvor vazifalar aniqlab olindi.

Dasturning 8 va 9-bo'limlarida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid bo'lgan milliy qonunchilikni takomillashtirish,

xalqaro Konvensiyalarga a'zo bo'lib kirishdagi birlamchi vazifalar, soha idoralarining hamkorligini yanada kengaytirish va boshqa shu kabi muhim masalalarda tegishli taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish belgilandi. O'zbekiston Hukumati xalqaro tashkilotlar va davlatlar bilan hozirgi kunda ana shu Dasturda belgilab olingan reja va tadbirlar orqali hamkorlikni yo'lga qo'ymoqda.

Umuman olganda, respublikamizning mualliflik huquqiga oid ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga kirishi kelgusida ko'p tomonlama bitimlarga a'zo bo'lib kirishiga tegishli zamin yaratadi.

VII BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Mualliflik huquqini xalqaro himoya qilishning qanday yo'llari mavjud?

2. Mualliflarning chet eldagi huquqiy holati qanday aniqlanadi?

3. Mualliflik huquqini xalqaro miqyosda himoya qilishga oid qanday xalqaro shartnomalar bor?

4. Qanday xalqaro tashkilotlar mualliflik huquqini himoya qilish bilan shug'ullanib keladi?

5. Mualliflik huquqini o'zaro himoya qilish haqida O'zbekiston Respublikasi boshqa davlatlar bilan qanday shartnomalar tuzgan?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Zokirov I.B. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. – T.: «Adolat», 1996-yil.

2. Богуславский М.М. Международное частное право. –М.: БЕК, 1998.

3. Интеллектуальная собственность. Словарь справочник. М. ИНФРА-М, 1995.

4. Международные конвенции об авторском праве. Комментарий. –М.: Прогресс, 1988.

5. Toshev B.N. Mualliflik huquqi. –T.: A.Kodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1997-yil.

6. Oqyulov O. Intellektual mulk huquqi himoya qilish. Xo'jalik va huquq. 1999-y, 11-12-sonlar.

7. Гражданское право. Под ред. Сергеева А.П., Толстой Ю.К. –М.: Проспект, 1998.

XALQARO XUSUSIY HUQUQIY MUNOSABATLARDA INTELLEKTUAL MULK MASALALARI

1-§. Intellektual mulk obyektlarining xalqaro muomalada bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining ham, uning tarkibiy qismi bo'lgan xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarning ham o'ziga xos obyekti hisoblanadi. Ushbu obyektlar ko'proq g'oyaviy negizga ega bo'lgani sababli ularga nisbatan odatdagi an'anaviy mulk huquqi me'yorlarini qo'llab bo'lmaydi. Shu sababli ham ularga nisbatan bo'lgan huquqlarga ko'proq mutlaq huquqlar deb atalmish huquqlar majmui qo'llaniladi. Intellektual mulk tushunchasi, uning doirasiga kiradigan obyektlar turlari, ularga nisbatan huquqlarning vujudga kelish asoslari bo'yicha talabalar fuqarolik huquqi o'quv kursi bo'yicha asosiy ma'lumotlar, zaruriy bilimlarga ega bo'lishganini ta'kidlab, bevosita intellektual mulk obyektlarining xalqaro muomalada bo'lishining asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilar qayd etiladi.

Birinchidan intellektual mulk obyektlari muomalada eng harakatchan obyektlardan hisoblanadi. Ular g'oyaviy negizga ega bo'lgani sababli butun jahon bo'yicha tezlik bilan tarqalishi mumkin;

ikkinchidan, bunday obyektlar muayyan mamlakat miqyosida milliy rejimga ega bo'lishi yoxud xalqaro bitimlar, kelishuvlar, Konvensiyalar asosida xalqaro huquqiy rejimga ega bo'lishlari ham mumkin;

uchinchidan, ko'pgina intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlar maxsus muhofaza yorlig'i (patent) asosida vujudga keladi. Patent o'zining amal qilish hududiga ega va ayni vaqtda uning amal qilish muddati chegaralangan yoxud bu muddatni uzaytirib turish lozim;

to'rtinchidan, intellektual mulk obyektlari muomalada bo'lishida muayyan infratuzilma bo'lishini taqozo etadi. Bu infratuzilma asosan intellektual mulk obyektlari huquq sohiblariga xizmat ko'rsatish, huquqiy muhofaza qilish vazifalarini amalga oshiradi

(masalan, ixtisoslashgan yuridik firmalar, audit xizmati, patent sudlari va h.k.);

beshinchidan, intellektual mulkning xalqaro muomalada bo'lishida intellektual mulk bozoriga o'ziga xos ta'sir ko'rsatib turuvchi tashkiliy tuzilmalar mavjud. Bu tuzilmalar jumlasiga Butunjahon Intellektual Mulki Tashkiloti (BIMT), Intellektual mulk bo'yicha xalqaro Assotsiatsiya (MAIS), Parij Ittifoqi, Bern Ittifoqi va sh.k. kiradi;

Va nihoyat oltinchidan, intellektual mulkka bo'lgan huquqlarga nisbatan bu huquqlarni himoya qilish so'raladigan mamlakat huquqi qo'llanadi;

yettinchidan, intellektual mulk obyektlarining muomalada bo'lishi asosan litsenziya shartnomalari orqali rasmiylashtiriladi. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlardan foydalanish to'g'risidagi litsenziya shartnomasida litsenziar (mutlaq huquq egasi) hisoblanuvchi taraf ta'sis etilgan, turar-joyga ega bo'lgan yoki asosiy faoliyat joyi bo'lgan mamlakat huquqi qo'llaniladi (FKning 1190-moddasi).

XIX asrning oxirlariga kelib intellektual faoliyat mahsullari taraqqiyotning belgilovchi omiliga aylangach, xalqaro miqyoslarda ilmiy texnikaviy bozor vujudga keldi, turli mamlakatlarda bu sohani tartibga soluvchi qonunlarni yaqinlashtirishga obyektiv zarurat tug'ildi. Buning o'ziga xos ifodasi sifatida sanoat mulki tushunchasi vujudga keldi, uning huquqiy rejimi belgilari 1883-yil 20-martda tuzilgan sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasida mustahkamlab qo'yildi. O'z navbatida bunday jarayon mualliflik huquqida ham sodir bo'ldi va 1886-yilda tuzilgan adabiy va badiiy asarlarni huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi Bern Konvensiyasida o'z mujassamini topdi. 1967-yil 14-iyulda Stokgolmda qabul qilingan Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ni ta'sis etish haqidagi Konvensiyada intellektual mulk huquqi obyektlari doirasi belgilandi va binobarin «intellektual mulk» tushunchasi ma'lum ma'noda huquqiy asosga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi 1993-yildan buyon Parij Konvensiyasi ishtirokchisi va BIMT a'zosi bo'lganligi sababli intellektual mulk va sanoat mulki tushunchasi bizning huquqiy tizimimiz uchun ma'lum ma'noda ahamiyatga ega. BIMT ta'sis Konvensiyasining 2-moddasi (7-qism)ga asosan quyidagilar intellektual mulk huquqi obyekti hisoblanadi.

- 1) adabiy, badiiy asarlar va ilmiy ishlar;
- 2) artistlarning ijrochilik faoliyati, fonogrammalar va radioeshittirishlar;
- 3) inson faoliyatining barcha sohalaridagi ixtirolar;
- 4) sanoat namunalari;
- 5) ilmiy kashfiyotlar;
- 6) mahsulot belgilari, xizmat belgilari va tijorat nomlari va belgilari (ramzlari);
- 7) g'irrom raqobatning oldini olish;
- 8) sanoat, adabiy va badiiy faoliyat sohalarida intellektual faoliyatdan kelib chiquvchi boshqa huquqlar⁷⁴.

Sanoat mulki deganda inson tafakkuri, ijodning mahsuli bo'lgan va amaliyotda qo'llaganda moddiy yoki boshqacha tarzda samara beradigan mahsullari tushuniladi. Sanoat mulki iborasi uning qo'llanish doirasini cheklangan ma'noda talqin etadi va bu mulk obyektlari amalda tatbiq etish sohalarini to'liq qamrab olmaydi. Bunday noaniqlik o'zining tarixiy ildizlariga ega.

Ma'lumki sanoat mulkining asosiy turi bo'lgan ixtirolar dastlab asosan sanoatda bevosita qo'llanilgan va keyinchalik moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy turmushning boshqa sohalarida tatbiq etila boshlagan. Biroq bu davrga kelib, «sanoat mulki» tushunchasi Yevropa tillarida va Yevropa mamlakatlari qonunlarida mustahkam o'rnatilib qolgan uchun garchi yetarli darajada aniq ifodalangan ibora bo'lmasa ham tegishli ibora bilan almashtirilmadi.

Parij Konvensiyasining 1-2-moddasiga asosan sanoat mulkining muhofaza obyektlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- 1) ixtirolar;
- 2) foydali modellar;
- 3) sanoat namunalari;
- 4) mahsulot belgilari;
- 5) xizmat belgilari;
- 6) firma nomi;
- 7) kashfiyot;
- 8) manbani (mahsulot kelib chiqish manbasi) ko'rsatuvchi ma'lumot;
- 9) mahsulot kelib chiqish (tayyorlash) joyining nomi;
- 10) g'irrom raqobatning oldini olish⁷⁵.

⁷⁴ Интеллектуальная собственность. Ч.1. Новосибирск.: Наука. 1999. –С.14.

⁷⁵ Парижская конвенция по охране промышленной собственности. Женева. ВОИС. 1990.

Seleksiya yutuqlari (o'simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlari) ham ko'p hollarda sanoat mulki obyektlariga tenglashtiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgandek, intellektual mulk tarkibiga kashfiyotlar ham kiradi. Biroq kashfiyotlarning fuqarolik huquqiy rejimi boshqa obyektlarga nisbatan farq qiladi. Kashfiyot ham ijodiy faoliyat mahsuli bo'lib, moddiy olamning ilgari noma'lum bo'lgan qonuniyatlari hodisalarini ochish, aniqlash hisoblanadi. Ilgari amalda bo'lgan Grajdanlik kodeksining 546-566-moddalarida kashfiyotchilik huquqi mustahkamlab qo'yilgan edi. Bunga asosan kashfiyot Davlat ro'yxatidan o'tkazilib, uning muallifi kashfiyot qilganligini, uning ustuvorlik sanasini guvohlantiruvchi diplom berish, mukofot berish va boshqa mulkiy va shaxsiy xarakterdagi imtiyozlarga ega bo'lish nazarda tutilgan edi. Ammo yangi FKda kashfiyot maxsus huquqiy maqomga ega ijodiy faoliyat mahsuli sifatida belgilanmagan. Buning asosiy sababi shundan iboratki, kashfiyotga bo'lgan huquq u yoki bu shaxsning undan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqini nazarda tutmaydi, chunki u xarakteri bo'yicha u yoki bu subyektga monopoliya (mutlaq tegishli) obyekt bo'la olmaydi. Shu sababli ham u ko'p mamlakatlarda bevosita huquqiy muhofaza ostiga olinmagan. 1978-yilda BIMT doirasida kashfiyotlarni xalqaro ro'yxatga olish haqida Jeneva Konvensiyasi tuzilgan. Lekin ushbu Konvensiyada ham ilmiy kashfiyotlarning maxsus muhofaza shakli nazarda tutilmagan. Ba'zi mualliflar buning sababini kashfiyot mulkiy muomala obyekti bo'lishiga layoqatli bo'lgan ijodiy mahsulotni vujudga keltirmaydi, balki moddiy olam haqidagi tasavvurlarimizni chuqurlashtirib, bilimlarimizni boyitadi, anglab yetish, bilib olish vazifalarini hal etadi xolos, degan qarashlar bilan izohlaydilar va bundan kashfiyot bilan bog'liq munosabatlar Fuqarolik-huquqiy tartibga solish predmeti bo'la olmaydi degan xulosaga keladilar.

2-§. Intellektual mulk bo'yicha xalqaro konvensiyalar va bitimlarning umumiy tavsifi

Ma'lumki intellektual mulkning turli obyektlari bo'yicha xalqaro miqyoslarda o'nlab, yuzlab xalqaro bitimlar, kelishuvlar, konvensiyalar amal qiladi. Ularning dastlabkilari XIX asrning ikkinchi yarmida ishlab chiqilgan. Ularning ishlab chiqib qabul qilinishiga

turtki bergan holat – bu intellektual mulk obyektlarini xalqaro miqyoslarda muhofaza etishdir. Odatda, har bir mamlakat qonunlari shu mamlakat hududida intellektual mulk obyektini himoya qiladi. Agarda masalan, ixtiro, sanoat namunasi bo'yicha patent egasi bu obyektlar bo'yicha bir necha mamlakatda huquqiy muhofaza olmoqchi bo'lsa, bu mamlakatlarning har birida patent olmog'i lozim bo'ladi. O'z fuqarolarini intellektual mulk obyektiga nisbatan xorijiy davlatlarda huquqiy muhofazaga olishni kafolatlash maqsadida 1883-yilda 11 davlat sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasini imzoladi va Xalqaro Parij Ittifoqini tuzdi. Hozirgi vaqtda ushbu Konvensiyani 110 dan ortiq mamlakat imzolagan. O'zbekiston Respublikasi ham Parij Konvensiyasining ishtirokchisi hisoblanadi.

Konvensiyada uning qatnashchisi bo'lgan davlatlar sanoat mulkining ayrim sohalari bo'yicha maxsus bitimlar tuzishi mumkinligi nazarda tutilgan. Albatta bunday bitimlar Konvensiyaga zid bo'lmasligi shart.

Parij Ittifoqi kotibiyati vazifasini BIMT bajaradi. Konvensiya-ning dastlabki matni 1883-yilda tuzilgan, 1891-yilda Madridda Tushuntirish bayonnomasi bilan to'ldirilgan, 1900-yilda Bryusselda, 1911-yilda Vashingtonda, 1925-yilda Gaagada, 1934-yilda London- da, 1958-yilda Lissabonda, 1967-yilda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan va 1979-yilda unga tuzatishlar kiritilgan. Konvensiya barcha davlatlar uchun ochiq. Ratifikatsiya yorlig'i yoxud qo'shilish haqidagi hujjat BIMT Bosh direktoriga saqlash uchun topshirilishi lozim.

Konvensiya keng ma'nodagi sanoat mulki sohasida qo'llaniladi. Uning doirasiga ixtirolar, tovar belgilari, xizmat belgilari, sanoat namunalari, foydali modellar, firma nomi, geografik ko'rsatkichlar (kelib chiqish manbasi ko'rsatkichi, kelib chiqish joyining nomi) va g'irrom raqobatning oldini olish kiradi.

Konvensiyaning asosiy qoidalari uch asosiy toifaga bo'linadi: milliy rejim, ustuvorlik huquqi, umumiy qoidalar.

Milliy rejim yoxud unga tenglashtirish to'g'risidagi qoidalarga asosan Konvensiyada qatnashuvchi har bir davlat unda qatnashuvchi boshqa davlatlar fuqarolariga nisbatan sanoat mulkini huquqiy muhofaza qilish sohasida o'z fuqarolariga qanday huquqlar bersa xuddi shunday huquqlar berishi lozim. Ayni vaqtda garchi Konvensiya ishtirokchisi bo'lmagan davlatning fuqarosi bo'lsa ham,

biroq Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan davlatlarda istiqomat qilsa yoxud haqiqiy va soxta bo'lmagan sanoat yoki savdo korxonalariga ega bo'lsa ham Konvensiya tomonidan beriladigan huquqiy muhofazadan foydalanadi.

Konvensiyada ustuvorlik sanasiga bo'lgan huquq patentlarga, tovar belgilari, sanoat namunalari nisbatan mustahkamlangan. Uning mohiyati shundan iboratki, Konvensiya qatnashchisi bo'lgan davlatlardan biriga to'g'ri rasmiylashtirilgan asosda ariza (talabnoma) bergan talabnomachi muayyan belgilangan muddat davomida (ixtirolarga va foydali modellar patentlariga 12 oy, tovar belgilari va sanoat namunalari 6 oy) boshqa har qanday ishtirokchi davlatlardan muhofaza so'rab murojaat etishi mumkin, bunda keyingi talabnomalar birinchi marta berilgan ariza (talabnoma) sanasida berilgan hisoblanadi. Boshqacha aytganda keyingi talabnomalar xuddi shu muddat davomida boshqa shaxslar tomonidan ixtiro, sanoat namunasi, tovar belgisi, foydali modelga huquqiy muhofaza berilishini so'rab berilgan talabnomalarga nisbatan ustuvorlik huquqiga ega bo'ladi. Bundan tashqari keyingi berilgan talabnomalar o'sha talabnoma beruvchining birinchi talabnomasiga asoslangani sababli shu vaqt oralig'ida ixtironi e'lon qilish, ushbu sanoat namunasi yoxud tovar belgisini o'zida mujassamlantiruvchi buyumning sotilishi va shu kabi xatti-harakatlar talabnoma sofligiga ta'sir etmaydi. Bu qoidaning amaliy afzalliklaridan biri shundaki, agarda talabnoma beruvchi obyektga nisbatan bir necha mamlakatlarda huquqiy muhofaza olmoqchi bo'lsa, u birvaqtning o'zida barcha mamlakatlarga talabnoma berishi shart emas, uning ixtiyorida 6 oy yoki 12 oy bor, bu muddat ichida u qaysi mamlakatlarda huquqiy muhofaza yorlig'i olishi maqsadga muvofiqligi, muhofazani ta'minlash uchun nimalar qilishi lozimligi bo'yicha puxta reja tuzishga ulguradi.

Konvensiyada barcha ishtirokchi davlatlar rioya qilishlari shart bo'lgan qator umumiy qoidalar belgilangan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

a) patentlarga nisbatan: turli ishtirokchi davlatlarda aynan bir ixtiroga berilgan patentlar bir-biridan mustaqildir; bir ishtirokchi davlatning patent berishi boshqa ishtirokchi davlatning ham patent berishini ham shart qilib qo'ymaydi. Bir ishtirokchi davlatda patent berish rad etilganligi, patentni bekor qilganligi, uning muddati o'tganligi boshqa ishtirokchi davlatda patent berishni rad etishga,

uni muddati tamom bo'lgan deb e'lon qilishga yoki patentni bekor qilishga asos bo'lmaydi.

Ixtirochi patentda o'z nomining ko'rsatilishi huquqiga ega. Agarda milliy qonunchilikka asosan patentlangan usul bo'yicha tayyorlangan buyumni sotish taqiqlangan yoxud cheklangan bo'lsa ham patent berishni rad etish yoxud patentni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'lmaydi.

Har bir ishtirokchi davlat mutlaq huquqlarini amalga oshirish har xil suiiste'molchiliklarni keltirib chiqarmasligi uchun majburiy litsenziya berilishi lozim bo'lgan holatlarni qonunlarda nazarda tutishi mumkin.

b) tovar belgilariga nisbatan: tovar belgilariga talabnoma berish va ro'yxatdan o'tkazish har bir ishtirokchi davlatning milliy qonunlari bilan belgilanadi. Demak ishtirokchi davlat fuqarosi tomonidan tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun berilgan talabnoma bu fuqaroni o'z davlatida ro'yxatdan o'tkazdirilmaganligi yoki muddati uzaytirilmaganligi sababli qabul qilinmasligi yoki ro'yxatdan o'tkazishni rad etishi mumkin emas. Tovar belgisi ishtirokchi davlatlardan birida ro'yxatdan o'tkazdirilishi bilan u boshqa har qanday mamlakatda, shu jumladan tovarning kelib chiqish manbasi bo'lgan mamlakatda ro'yxatdan o'tkazdirishlardan mustaqil bo'ladi va ularga bog'liq bo'lmaydi. Binobarin, tovar belgisini ishtirokchi davlatlardan birida ro'yxatdan o'tkazdirish muddatining tugashi yoki bekor qilinishi tovar belgisi boshqa ishtirokchi davlatlarda ro'yxatdan o'tkazdirilganligining haqiqiyiligiga ta'sir qilmaydi.

Agar tovar belgisi tovarning kelib chiqish joyi bo'lgan mamlakatda tegishli tarzda ro'yxatdan o'tkazdirilgan bo'lsa, u talabnoma bo'yicha o'zining dastlabki holatida boshqa ishtirokchi davlatlar ham ro'yxatdan o'tkazdirishi uchun qabul qilinishi va muhofaza etilishi shart. Biroq shunga qaramasdan qonunda aniq belgilangan holatlarda, masalan tovar belgisi uchinchi shaxslarning mavjud huquqlarini buzsa yoxud u farqlanuvchi belgilarga ega bo'lmasa yo ijtimoiy tartibot va axloqqa zid bo'lsa yoinki ommani chalg'itishga sabab bo'ladigan bo'lsa ro'yxatdan o'tkazdirish rad etilishi mumkin.

Agarda qandaydir ishtirokchi davlatda qayd qilingan tovar belgisidan foydalanish majburiy bo'lsa ro'yxatdan o'tkazishning bekor bo'lishi muayyan oqilona muddat o'tganidan keyin va shunda

ham tovar belgisining egasi o'z harakatsizligini oqlaydigan isbot, dalillar keltira olmagan taqdirdagina bekor bo'ladi.

Har bir ishtirokchi davlat bu davlatda belgi sifatida hammaga ma'lum bo'lgan konvensiya tomonidan beriladigan afzalliklardan foydalanayotgan shaxsga tegishli bo'lgan va uning aynan yoki o'xshash mahsulotlariga qo'yilayotgan tovar belgilarini takrorlovchi, unga o'xshash bo'lgan yoki chalg'itishga sabab bo'luvchi belgilarini ro'yxatdan o'tkazish va foydalanishni taqiqlashi lozim.

Har bir ishtirokchi davlat maxsus ruxsatsiz davlat ramzlari, rasmiy belgilari, nazorat va kafolat tamg'alarini tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazishni rad etishi va foydalanishni taqiqlashi shart. Bu qoida ba'zi xalqaro tashkilotlarning ramzlari, bayroqlari, emblemalari, qisqartirilgan va to'liq nomlariga ham taalluqli dir. Xizmat ko'rsatish belgilari va jamoa belgilariga nisbatan ham huquqiy muhofaza to'la taalluqlidir;

d) sanoat namunalariга nisbatan: har bir ishtirokchi davlatda sanoat namunalari muhofaza etilishi lozim va bunda sanoat namunasi ifodalangan buyum bu davlatda tayyorlanmasligi huquqiy muhofazani haqiqiy emas deb topishga asos bo'lmaydi;

e) firma nomiga nisbatan: har bir ishtirokchi davlatda firma nomlari talabnoma berish yoki ro'yxatdan o'tkazish shart bo'lmagan holda huquqiy muhofaza qilinadi;

f) mahsulotlarning kelib chiqish joyi ko'rsatkichlariga nisbatan: har bir ishtirokchi davlat mahsulotning kelib chiqish joyi haqidagi yolg'on ko'rsatkichlardan yoki bu mahsulotni ishlab chiqaruvchi bevosita yoki bivosita foydalanishiga qarshi choralarni ko'rmog'i shart;

g) g'irrom raqobatga nisbatan: har bir ishtirokchi davlat g'irrom raqobatdan samarali muhofaza qilinishi shart;

h) milliy ma'muriyatga nisbatan: har bir ishtirokchi davlat ommani patentlar, tovar belgilari, sanoat namunalari bilan tanishtirish uchun sanoat mulki bo'yicha maxsus xizmat yoki markaziy muassasa tashkil etmog'i lozim. Bu xizmat rasmiy davriy axborotnoma chiqarishi lozim. Axborotnomada berilgan patent egalarning nomlari, patentlangan ixtirolarning qisqacha izohi va qayd etilgan har bir tovar belgisi tasviri e'lon qilinib berilishi lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi umumiy qoidalardan tashqari konvensiya har bir ishtirokchi davlatga sanoat mulki sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishda to'liq erkinlik

beradi. Jumladan har bir ishtirokchi davlat texnikaning muayyan sohasiga taalluqli bo'lgan yechimlarni patentga layoqatli ixtirolar doirasiga kiritgan yechimlarni patentga layoqatli ixtirolar doirasiga kiritmasligi mumkin: patent yechimining yangiligi va uni patentga layoqatli ekanligini belgilovchi boshqa mezonlar asosida tekshirish bo'yicha ekspertizadan o'tkazilib yoki ekspertizadan o'tkazmasdan berilishi bo'yicha tartib o'rnatish mumkin; tovar belgisiga bo'lgan huquq undan foydalanish asosida yoxud ro'yxatdan o'tkazdirish asosida vujudga kelishini hal etishga haqli; tovar belgisini va sanoat namunasini ekspertizadan o'tkazish asosida yoki ekspertizadan o'tkazmasdan ro'yxatga olish tartibini belgilashga haqli. Sanoat namunalarini muhofaza qilish muddatini belgilashga haqli. Sanoat mulkini boshqarish tashkiliy tizimini va huquqlarini rasmiylashtirish bo'yicha turli ish qog'ozlarini yuritish tartibi va protsedurasini belgilashga haqli.

Tovarlarning kelib chiqishi bo'yicha yolg'on yoki chalg'ituvchi ko'rsatkichlarning oldini olish to'g'risida Madrid bitimi (1891-yil).

Ushbu bitim 1891-yilda tuzilgan bo'lib 1911-yilda Vashingtonda, 1925-yilda Gaagada, 1931-yilda Londonda, 1958-yilda Lessabonda va 1967-yilda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan. Ushbu bitim Parij Konvensiyasi ishtirokchilari bo'lgan davlatlar uchun ochiqdir.

Ushbu bitimga asosan agarda tovarning kelib chiqishi bo'yicha yolg'on yoki chalg'ituvchi ko'rsatkichlar bo'lsa va ko'rsatkichlar ishtirokchi davlatlardan birining yoki uning hududini tovarning kelib chiqish joyi yoki tayyorlangan mamlakat sifatida bevosita yoki bavosita ko'rsatsa bunday tovarlarni olib kirishga arest solinadi yoki ularni olib kirish ta'qiqlanadi yoki ularni olib kirishiga nisbatan boshqa choralar yoki sanksiyalar qo'llaniladi.

Bitimda bunday arest solishni talab qilish va uni amalga oshirish holatlari va usullari belgilab qo'yilgan. Ushbu bitimga asosan tovarning kelib chiqish manbayiga nisbatan ommani chalg'itishi mumkin bo'lgan har xil reklama belgilari va bu belgilardan foydalanib tovarni namoyish etish, sotishga va ulardan foydalanishga taklif etish taqiqlanadi. Har bir ishtirokchi davlatlarning sudlari qanday nomlar ushbu bitim ta'sir doirasiga kirmasligini belgilashga haqli (vinochilik mahsulotlarining mintaqaviy nomlaridan tashqari).

Olimpiya ramzlarini muhofaza qilish bo'yicha Nayrobi shartnomasi (1981-yil).

Ushbu shartnoma Butunjahon intellektual mulk tashkiloti, Parij Ittifoqi, BMT yoki BMT bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu ixtisoslashtirilgan muassasalarning a'zolari bo'lgan davlatlar uchun ochiqdir.

Ushbu shartnomaning ishtirokchisi bo'lgan barcha davlatlar Olimpiya ramzlarini (beshta tutash halqalar tasvirlarini) xalqaro olimpiada qo'mitasi ruxsatisiz tijorat maqsadida (reklama e'lonlarida, tovarlarda tovar belgisi sifatida) foydalanishdan muhofaza qilishi shart. Shartnoma shuningdek Olimpiya ramzlaridan tijorat maqsadlarida foydalanish uchun ruxsat berishda olinadigan litsenziya bojlaridan tushgan daromadning bir qismi tegishli manfaatdor milliy olimpiya qo'mitalari hisobiga o'tkazilishini nazarda tutadi.

Patent kooperatsiyasi to'g'risida shartnoma (1970-yil).

Ushbu shartnoma 1970-yilda tuzilgan va 1979, 1984-yillarda qayta ko'rib chiqilgan.

Ko'p hollarda yuridik adabiyotlarda bu shartnoma uning inglizcha nomi bosh harflari bilan «RST» deb ham beriladi. RST Parij Konvensiyasi a'zolari bo'lgan barcha ishtirokchi davlatlar uchun ochiqdir. O'zbekiston Respublikasi ham ushbu shartnomaning ishtirokchisi hisoblanadi. Shartnoma «Xalqaro» patent talabnomasi berilishini nazarda tutadi. Bunday talabnoma ishtirokchi davlatning har qanday fuqarosi yoki unda istiqomat qiluvchi shaxs tomonidan berilishi mumkin. Talabnoma uni berayotgan shaxs fuqarosi bo'lgan yoki hududida yashab turgan ishtirokchi davlatning milliy patent idorasiga beriladi. Agarda talabnoma beruvchi Yevropa patent Konvensiyasining ishtirokchisi bo'lgan davlatning fuqarosi bo'lsa yoki uning hududida istiqomat qiluvchi shaxs bo'lsa xalqaro talabnoma Yevropa patent idorasiga berilishi mumkin; agar talabnoma beruvchi Barbados, Madagaskar, Shri Lanka yoki Afrika intellektual mulk tashkiloti a'zosi bo'lgan davlatning fuqarosi bo'lsa yoki uning hududida istiqomat qilsa xalqaro talabnoma BIMTga berilishi mumkin.

Shartnomada har qanday xalqaro talabnomani rasmiylashtirishda unga qo'yiladigan talablar batafsil tartibga solinadi.

Talabnoma beruvchi barcha ishtirokchi davlatlar ichidan o'zining xalqaro talabnomasi ta'sir kuchiga ega bo'lishini xohlagan davlatlarni ko'rsatadi (ular belgilangan yoki ko'rsatilgan davlatlar deb ataladi). Ushbu ko'rsatilgan davlatlarda xalqaro talabnoma u davlatlarning milliy patent idoralarga berilgan talabnoma bilan bir

xil kuchga ega bo'ladi. Agar ko'rsatilgan davlatlar Yevropa patent Konvensiyasining ishtirokchisi bo'lsa talabnoma beruvchi Yevropa patent talabnoma sini rasmiylashtirishga haqli. Agarda ko'rsatilgan davlatlar Afrika intellektual mulk tashkilotining a'zosi bo'lsa xalqaro talabnoma mintaqaviy talabnoma kuchiga ega bo'ladi.

So'ngra xalqaro talabnoma xalqaro izlanishlar yoki qidirishlar predmeti bo'lib hisoblanadi. Bunday izlanishlar yoki qidirishlar yirik patent idoralarining biri tomondan amalga oshiriladi (ya'ni Avstraliya, Avstriya, Rossiya, AQSH, Shvetsariya, Yaponiya va Yevropa patent idorasi). Bunday qidiruvlar natijasida xalqaro izlanishlar to'g'risida hisobot tayyorlanadi. Bu hisobotda xalqaro talabnomada ilgari surilgan ixtironing patent sofligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan va boshqa shaxslarga berilgan patentlarning hujjatlari, ya'ni e'lon qilingan hujjatlarning havolaki ro'yxati o'z ifodasini topadi. Xalqaro izlanishlar haqidagi hisobot talabnoma beruvchiga yuboriladi. U esa o'z navbatida agarda hisobot xulosasidan uning patent olish ehtimoli kamligi anglashilsa talabnomani qaytarib olishi mumkin.

Agarda xalqaro talabnoma qaytarib olinmasa BIMT uni xalqaro izlanishlar haqidagi hisobotda e'lon qiladi va ko'rsatilgan har bir idoraga yuboradi.

Agarda talabnoma beruvchi milliy yoki mintaqaviy patent olish maqsadida xalqaro talabnomani qoldirishni istasa u muayyan shartlarga rioya qilgan holda har bir belgilangan idoraga bu idoraning rasmiy tilida tayyorlangan talabnomalar berishi lozim. Bunda u xalqaro talabnoma berilgandan keyin 20 oy muddat ichida, biroq agarda bu talabnoma avvalgi talabnomaning ustuvorligiga dahl qiladigan bo'lsa, o'sha avvalgi talabnoma berilgandan boshlab 20 oygacha muddat ichida belgilangan miqdorda boj to'lashi lozim. Agarda talabnoma beruvchi «Dastlabki xalqaro ekspertiza xulosasi»ning berilishini so'rasa, 20 oylik muddat yana 10 oyga uzaytiriladi. Bunday xulosa yirik patent idoralari tomonidan tayyorlanishi lozim va taqdim etilgan ixtironing patentga layoqatli ekanligi to'g'risidagi fikri majburiy kuchga ega bo'lmaydi. RST nazarda tutilgan protsedurada talabnoma beruvchilarga, patent idoralariga va keng ommaga quyidagi afzalliklarni beradi:

1. Talabnoma beruvchi RST doirasidan tashqaridagi protsedura tartibga nisbatan boshqa mamlakatlarning huquqiy muhofaza yorlig'ini olish maqsadga muvofiqligi to'g'risida har bir mamlakatda

mahalliy patent vakillarini tayinlash bo'yicha zaruriy tarjimalarni tayyorlash to'g'risida va milliy bojlarni to'lash bo'yicha 8-18 oy ko'proq vaqtga ega bo'ladi. Agarda talabnomaning shakli RSTda belgilangan talablarga muvofiq bo'lsa uni milliy patent idoralarida ko'rib chiqish bosqichlarida formal asoslar bo'yicha rad etilmasligi talabnoma beruvchiga kafolatlanadi. Xalqaro izlanishlar hisobotiga asosan talabnoma beruvchiga o'z ixtirosini patentlash imkoniyati haqida ishonchli va asosli baholash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Dastlabki xalqaro ekspertiza xulosasi esa bu imkoniyatni yanada oshiradi.

2. Milliy patent idoralarining izlanishlar va ekspertiza o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan ishlar hajmi jiddiy ravishda kamayadi yoki unga hojat qolmaydi. Chunki xalqaro izlanishlar haqidagi hisobot yoki zarur hollarda xalqaro dastlabki ekspertiza xulosasi xalqaro talabnomaga ilova qilingan bo'ladi.

3. Har bir xalqaro talabnoma xalqaro izlanishlar to'g'risidagi hisobotlar bilan e'lon qilingani sababli manfaatdor har bir shaxs taqdim etilayotgan ixtironing patentga layoqatligi to'g'risida asoslantirilgan ma'lumotlar olishi mumkin. RST doirasida Ittifoq tuzilgan. Ittifoq assambleyaga ega. RST ishtirokchisi bo'lgan barcha davlatlar assambleya a'zosi hisoblanadi.

RST tizimi yildan yilga rivojlanib bormoqda. Agar 1979-yilda 2.500 dan ortiq xalqaro talabnoma berilgan bo'lsa 1982-yilda 26.000, 1992-yilda 26.000 mingga yaqin xalqaro talabnoma berilgan.

Patent protsedurasi maqsadlari uchun mikroorganizmlarni deponlashtirishni xalqaro tan olish haqida Budapesht shartnomasi (1977-yil).

Ushbu shartnoma 1977-yilda tuzilgan, 1980-yilda qayta ko'rib chiqilgan. Shartnoma Parij Konvensiyasi ishtirokchilari bo'lgan davlatlar uchun ochiqdir.

Odatda patent berishning sharti – ixtironing mohiyatini oshkor qilish hisoblanadi. Oshkor qilish esa ixtironing yozma bayoni orqali amalga oshiriladi. Biroq ixtiro mikroorganizmlar bilan yoki ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lsa, ixtironi yozma tasvirlash, bayon etishning iloji yo'q. U omma uchun ochiq bo'lgan ixtisoslashtirilgan muassasalarda mikroorganizmlar namunalarini deponlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Huquqiy muhofaza so'ralganda har bir mamlakatda mikroorganizmlar namunalarini deponlashtirish zaruriyatining oldini olish

uchun shartnomada deponlashtirish bo'yicha har qanday xalqaro organda mikroorganizmlar namunasini deponlashtirish ishtirokchi davlatlarning milliy patent idoralarida va har qanday mintaqaviy patent idorasida (agar bu mintaqaviy patent idorasi shartnoma ta'sir kuchini e'tirof etsa) patent protsedurasi uchun yetarli hisoblanadi.

Shartnomada ko'rsatilgan deponlashtirish bo'yicha xalqaro organ ilmiy muassasa hisoblanib, mikroorganizmlarni, o'simliklarni, shtammlarini, kolleksiyalarini saqlashni amalga oshirishga qodir bo'lishi lozim. Bunday muassasa deponlashtirish bo'yicha xalqaro organ maqomini olish uchun ishtirokchi davlatlardan biri BIMT bosh direktoriga ushbu muassasa shartnomada belgilangan talablarga javob berishi haqida kafolat berishi shart.

Hozirgi paytda jahon bo'yicha 25 ta bunday muassasa bor. Ulardan 2 tasi AQSHda, 3 tasi Rossiya Federatsiyasida, Buyuk Britaniyada 7 ta, Koreya Respublikasida 2 ta, Avstraliya, Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Ispaniya, Niderlandiya, Sloveniya, Fransiya, Chexiya va Yaponiyada 1 tadan joylashgan. Shartnoma eng avvalo bir necha ishtirokchi davlatga patent talabnomasi bergan depozitor uchun qulaydir. Shartnomada nazarda tutilgan tartibga muvofiq mikroorganizmlarni deponlashtirish depozitor xarajatlarini kamaytiradi va mavqeyini mustahkamlaydi. Chunki u patent uchun talabnoma bergan har bir ishtirokchi davlatdan mikroorganizmlarni deponlashtirish xarajatlaridan ozod bo'ladi. Shartnoma budjet ta'sis etishni nazarda tutmagan, biroq unda ishtirokchi davlatlardan iborat Ittifoq va Assambleya tashkil etish ko'zda tutiladi. Assambleyaning asosiy vazifasi shartnomaning qo'llanmasiga tuzatish kiritish hisoblanadi.

Belgilarni xalqaro qayd etish to'g'risidagi Madrid bitimi (1891-yil)

Bitim Parij Konvensiyasi ishtirokchi davlatlari uchun ochiqdir. Ushbu bitim 1891-yilda tuzilgan bo'lib 1900-yilda Bryusselda, 1911-yilda Vashingtonda, 1925-yilda Gaagada, 1934-yilda Londonda, 1957-yilda Nitsda, 1967-yilda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan va 1979-yilda uning matniga tuzatishlar kiritilgan.

Bitimda belgilarni tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilarini Jenevadagi BIMTning Xalqaro Byurosida xalqaro qayd etish, ro'yxatdan o'tkazdirish nazarda tutiladi. Ushbu bitimga muvofiq amalga oshirilgan qayd etish xalqaro deb atalishining sababi shundaki, bunda har bir qayd etish qator mamlakatlarda va potensial jihatdan barcha ishtirokchi davlatlarda kuchga ega bo'ladi.

Ushbu bitim bo'yicha imtiyozlardan foydalanish uchun talabnoma beruvchi ishtirokchi davlatlardan birining fuqarosi bo'lishi yoki bu hududlarda turar joyga ega bo'lishi yoki bu hududda savdo yoki sanoat korxonasiga ega bo'lishi lozim. Oldin talabnoma beruvchi belgini kelib chiqish manbayi bo'lgan mamlakat milliy idorasida ro'yxatdan o'tkazdirishi lozim, shundan keyin ushbu milliy idora orqali belgini xalqaro qayd etishga talabnoma berishga haqli. Xalqaro qayd etish amalga oshirilgandan keyin u xalqaro byuro tomonidan e'lon qilinadi va bu haqda talabnoma beruvchi o'z belgisiga muhofaza so'ragan ishtirokchi davlatlar xabardor qilinadi. Har bir ishtirokchi davlat bir yil davomida ushbu belgiga o'z hududida muhofaza berishni rad etishi mumkin. Bunda bu qarorning asosi ko'rsatilishi shart. Bunday rad etilgan holatlarda talabnoma beruvchi tegishli milliy idoralarda va ishtirokchi davlatning sudlarida o'z e'tirozini bildirishga haqli. Agarda 1 yil ichida bunday rad etish hollari yuz bermasa xalqaro qayd etish milliy qayd etish kuchini oladi.

Xalqaro qayd etish belgi egasiga qator afzalliklar beradi. Tovar belgisining kelib chiqish manbayi bo'lgan ishtirokchi davlatdan ro'yxatdan o'tkazdirilgandan keyin belgi egasi 1 ta tilda (fransuz tilida) 1 ta talabnoma berish orqali va bitta organga (xalqaro byuroga) boj to'lagan holda xalqaro qayd ettirishga muvofiq bo'ladi. Binobarin u ishtirokchi davlatlarning har biriga turli tillarda talabnoma berish va har biriga boj to'lashdan ozod bo'ladi. Xuddi shunday afzallik qayd etishni uzaytirish muddatlarida ham mavjud. Muddatni uzaytirish har 20 yilda amalga oshiriladi.

Xalqaro qayd etish tovar belgilari bo'yicha milliy idoralar uchun ham qulaydir. Chunki bu ularning ish hajmini kamaytiradi. Masalan ular uchun belgilarni qayd etish shart emas. Xalqaro byuro tomonidan undirilayotgan bojlarning bir qismi muhofaza so'ralayotgan ishtirokchi davlatga ham beriladi. Bundan tashqari xalqaro qayd etish xizmati har 2 yilda o'zi olgan foydani ishtirokchi davlatlar o'rtasida taqsimlab beradi. Madrid bitimi asosida Ittifoq ta'sis etilgan. 1970-yildan Ittifoq o'z assambleyasiga ega. Assambleyaning asosiy vazifalari – Ittifoq dasturini va budjetini qabul qilish, shuningdek Madrid tizimidan foydalanishda boj miqdorini belgilashdir.

Belgilarni xalqaro qayd etish to'g'risida Madrid bitimiga Bayonnoma (1989-yil).

Bayonnoma Parij Konvensiyasi ishtirokchi davlatlari va tegishli hukumatlararo tashkilotlar uchun ochiqdir. Madrid bayonnomasi Madrid bitimi tomonidan ta'sis etilgan tizim doirasidan tashqarida qolgan ba'zi mamlakatlarni ushbu bitimga nisbatan vujudga kelgan qiyinchiliklar va noqulayliklarni bartaf etish maqsadida qabul qilingan, bayonnoma Madrid bitimidan farqli ravishda quyidagi yangi qoidalarni nazarda tutadi. Talabnoma beruvchi xalqaro qayd etish haqida o'z talabnomasini nafaqat belgining kelib chiqish mamlakati bo'lgan milliy idorada ro'yxatdan o'tkazdirish faktiga, balki ushbu idorada milliy ro'yxatdan o'tkazish talabnomasiga ham asoslantirishi mumkin. Hududi shu bo'yicha muhofaza so'ralayotgan har bir ishtirokchi davlat 1 yil o'rniga 18 oy va xatto undan ortiq muddatda nizo mavjud hollarda o'z hududida huquqiy muhofaza bermasligini e'lon qilishga haqlidir. Har bir ishtirokchi taraflar Madrid bitimiga muvofiq olinadigan bojlar miqdoriga nisbatan ko'proq miqdorda boj olishi mumkin. Markaziy hujjat orqali haqiqiy emas deb topiladigan xalqaro qayd etish milliy talabnoma sifatida qayta rasmiylashtirili shi mumkin va bunda xalqaro talabnoma berilgan sana hisobga olinadi. Bundan tashqari bayonnoma Yevropa Hamjamiyatining kelajakdagi tovar belgilari tizimi uchun quyidagi tartibni belgilaydi: bu tizimni kuchga kirishi va Yevropa Hamjamiyatining ishtirokchi sifatida bayonnomaga qo'shilishi bilan ushbu bayonnomaga muvofiq berilayotgan xalqaro qayd etish talabnomasi hamjamiyatga berilgan talabnoma va uni ro'yxatdan o'tkazdirishga asoslanishi mumkin.

Kelib chiqish joylari nomlarini va ularni xalqaro qayd etishni muhofaza etish to'g'risida Lissabon bitimi (1958-yil). Ushbu bitim 1958-yilda tuzilgan bo'lib, 1967-yilda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan va 1979-yilda uning matniga tuzatishlar kiritilgan. Ushbu bitim Parij Konvensiyasi ishtirokchi davlatlari uchun ochiqdir. Bitimdan ko'zlangan maqsad kelib chiqish joylari nomlarini muhofaza qilishni ta'minlash hisoblanadi. Ya'ni bunday mamlakat, tuman yoki joyning geografik nomi shu mamlakatdan, tumandan yoki joydan kelib chiqqan buyumning tovarni belgisi bo'lib xizmat qiladi. Bunday belgi qo'llashning asosiy sharti buyumning tovar sifati va xususiyatlari, u kelib chiqqan joyning geografik muhiti, shu jumladan tabiiy va insoniy omillar bilan mutlaq yoki o'ziga xos ravishda bog'liq bo'lishi shart. Bunday nomlar BIMT xalqaro byurosi tomonidan Jenevada manfaatdor ishtirokchi davlat vakolatli

idorasi talabnomasi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazdiriladi. Xalqaro byuro qayd etganlik haqida boshqa ishtirokchi davlatlarni xabardor qiladi. Barcha ishtirokchi davlatlar xalqaro tartibda qayd etilgan nomlarni bu nomlar kelib chiqqan mamlakatlarda muhofaza qilgan muddat davomida himoya qilishlari shart. Ishtirokchi davlatlardan birortasi huquqiy muhofazani ta'minlashni rad etsa, bu haqda 1 yil davomida xabardor etishi shart. 1993-yil 1-yanvarga qadar 729 ta kelib chiqish joyning nomi qayd etilgan. Lissabon bitimi bo'yicha Ittifoq ta'sis etilgan, ittifoq o'z assambleyasiga ega. Assambleyaning asosiy vazifasi 2 yillik dastur va Ittifoq budjetini qabul qilish hisoblanadi.

Sanoat namunalarini xalqaro deponlashtirish to'g'risida Gaaga bitimi (1925-yil).

Bitim 1925-yilda tuzilgan bo'lib, 1934-yilda Londonda va 1960-yilda Gaagada qayta ko'rib chiqilgan 1961-yilda Monakoda qo'shimcha hujjat bilan, 1967-yilda Stokgolmda qo'shimcha hujjat bilan va 1975-yilda Stokgolmda bayonnoma bilan to'ldirilgan, 1979-yilda qo'shimcha hujjat matniga o'zgartirishlar kiritilgan.

Bitim Parij Konvensiyasi ishtirokchilari bo'lgan davlatlar uchun ochiqdir. Ushbu hujjatlarga asosan quyidagi tizim qo'llaniladi: Sanoat namunalarini xalqaro deponlashtirish yo bevosita BIMTning xalqaro byurosi tomonidan yoki sanoat namunasi kelib chiqqan mamlakat bo'lib hisoblangan ishtirokchi davlatlarning sanoat mulki bo'yicha milliy idoralari vositachiligida amalga oshiriladi. Har bir ishtirokchi davlat ichki qonunchiligida o'z milliy idorasi vositachiligida xalqaro deponlashtirishni amalga oshirish talablari o'z ifodasini topishi mumkin.

Talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan har bir ishtirokchi davlatda xalqaro deponlashtirish ichki qonunchilikda nazarda tutilgan muhofazani olish bilan bog'liq bo'lgan formal talablarni bajarilganlik kabi huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Xalqaro deponlashtirish ta'sir kuchi sanoat namunasi kelib chiqqan ishtirokchi davlatga ham taalluqli bo'ladi (agarda bu talabnomada nazarda tutilgan bo'lsa va bu ishtirokchi davlat qonunlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa).

BIMT o'z davriy axborotnomasida har bir deponlashtirilgan sanoat namunasining oshkora tasvirini yoki talabnoma beruvchining iltimosi bo'yicha rangli fotografiya tasvirini yoki grafik usulda bajarilgan boshqacha tasvirini e'lon qiladi. Talabnoma beruvchi

e'lon qilishni 12 oydan oshmagan muddatga (xalqaro deponlashtirish sanasidan boshlab) yoki ustuvorlik so'ralgan hollarda ustuvorlik sanasidan boshlab 12 oygacha kechiktirib turishni iltimos qilishga haqli. Har bir ishtirokchi davlat xalqaro deponlashtirish to'g'risida e'lonlarni olgan sanadan boshlab 6 oy muddat ichida muhofaza berishni rad etishga haqli. Muhofaza berishni rad etish ichki qonunlar asosidagi talablarga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Ayni vaqtda bunday asos sifatida muhofaza berishni rad etayotgan ishtirokchi davlat idorasi tomonidan rioya qilinishi lozim bo'lgan ichki qonunchilikning formal talablari va ma'muriy protsedurasi ham ko'rsatilishi mumkin.

Xalqaro deponlashtirish har 5 yilda uzaytirilishi mumkin. Muhofazaning amal qilish muddati 5 yilda yoki uning birinchi 5 yilining oxirgi yilida uzaytirilgan holda o'n yildan kam bo'lmasligi lozim. Agarda ishtirokchi davlatning ichki qonunlarida milliy namunalari uchun uzoqroq muhofaza muddati belgilangan bo'lsa, xalqaro deponlashtirilgan va muddati uzaytirilgan sanoat namunalari uchun ham xuddi shunday muddatlarda huquqiy muhofaza berilishi lozim.

1934-yilda qabul qilingan hujjatda nazarda tutilishicha, xalqaro deponlashtirishga bag'ishlangan e'lonlar sanoat namunalari reproduksiyalarini qamrab olmaydi va deponlashtirish oqibatlari kelib chiqish mamlakati bo'lgan davlatlardan tashqari (agarda bu davlatlarning ichki qonunlarida bunga ruxsat berilmagan bo'lsa) ushbu hujjat barcha ishtirokchi davlatlari to'liq taalluqli bo'ladi. Gaaga bitimidan foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida BIMT xalqaro byurosi rahbariy ko'rsatmalar chop etadi. Gaaga bitimi doirasida Ittifoq ta'sis etilgan, Ittifoq o'z assambleyasiga ega. Assambleyaning asosiy vazifalari Ittifoq budjetini va 20 yillik dasturini qabul qilish hamda Gaaga tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lar miqdorini belgilash hisoblanadi.

Xalqaro patent tasnifi to'g'risida Strasburg bitimi (1971-yil).

Bitim 1971-yilda tuzilgan, 1979-yilda tuzatishlar kiritilgan. Bitim Parij Konvensiyasining ishtirokchi davlatlari uchun ochiqdir. Bitimga asosan patentlarning xalqaro tasnifi (PXT) joriy etiladi. Bunda texnikaning barcha sohalari 8 ta asosiy bo'limga ajratiladi. Mayda sarlavhalar miqdorlari esa 64.000 ga yaqinlashadi. Har bir sarlavhaga arab raqamlari va lotin alifbosi harflaridan iborat ramzlar belgilangan. Tegishli ramz har bir patent hujjatida e'lon qilingan patent talabnomalari va berilgan patentlarda ko'rsatiladi. Ularning

miqdori keyingi yillarda 1.000.000 dan oshib ketdi. Patent hujjatlarini e'lon qiladigan milliy Patent idoralari tegishli ramzlarni qo'yishadi.

Tasniflash «Texnikaning ilgari darajasini» aniqlash maqsadida patent hujjatlarini qidirishda zarur. Bunday qidiruv patent beruvchi idoralar tomonidan ham, potensial ixtirochilar tomonidan ham, ilmiy tadqiqot muassasalari va boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Xalqaro tasniflashni zamonaviy darajada saqlab turish uchun u har 5 yilda ko'rib chiqiladi. Chunki ilmiy-texnika taraqqiyoti yuksak sur'atlar bilan rivojlana yotgan hozirgi davrda ilm-fan va texnikaning yangidan-yangi yo'nalishlari va sohalari vujudga kelmoqda.

Qayta ko'rib chiqish bitim tomonidan ta'sis etilgan ekspertlar guruhi tomonidan amalga oshiriladi.

PXT to'g'risida bitim doirasida ittifoq ta'sis etilgan. Ittifoq o'z assambleyasiga ega. Assambleyaning muhim vazifalaridan bo'lib ittifoqning 2 yillik dasturi va budjetini qabul qilish hisoblanadi.

Belgilarni ro'yxatdan o'tkazdirish uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifi to'g'risidagi Nitse bitimi (1957-yil).

1957-yilda tuzilgan ushbu bitim 1967-yilda Stokgolmda, 1977-yilda Jenevada qayta ko'rib chiqilgan va 1979-yilda uning matniga o'zgartirishlar kiritilgan. Bitim Parij Konvensiyasi ishtirokchi davlatlari uchun ochiqdir. Bitimga asosan tovar belgilari va xizmat belgilarini ro'yxatdan o'tkazish maqsadlarida tovarlar va xizmatlarni tasniflash (turkumlashtirish) ta'sis etiladi. Bu turkumlashti rish ishtirokchi davlat tomonidan milliy tartibda ro'yxatdan o'tkazdirishda va Madrid bitimiga muvofiq xalqaro ro'yxatdan o'tkazdirishda qo'llaniladi. Ushbu tasniflash (turkumlashtirish) tovarlar va xizmatlarni tasnif (klasslar) ro'yxati (tovarlar uchun 3-4-sinf va xizmatlar uchun 8 sinf mavjud) va ularning alfavit ro'yxatidan iborat. Tovarlar, xizmatlar ro'yxatining nomlanishi 11.000 ga yaqindir. Har ikkala ro'yxat ham vaqti-vaqti bilan ekspertlar komiteti tomonidan o'zgartirilib va to'ldirilib turiladi. Tasnifning 6-tahriri 1983-yildan buyon amalda. Bugungi kunda amalda ushbu tasnifdan dunyoning barcha mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Nitse bitimi doirasida Ittifoq ta'sis etilgan, ittifoq o'z assambleyasiga ega. Ittifoq 2 yillik dastur va budjet qabul qiladi.

Sanoat namunalari xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Lokarn bitimi (1968-yil).

Ushbu bitim 1968-yilda tuzilgan, 1979-yilda uning matniga o'zgartirishlar kiritilgan. Bitim Parij Konvensiyasi ishtirokchi davlatlari uchun ochiqdir. Ushbu bitimga asosan sanoat namunalari tasnifi (turkumi) joriy etiladi. Har bir ishtirokchi davlatning sanoat mulki bo'yicha milliy idorasi sanoat namunalari deponlash-tirish va ro'yxatdan o'tkazdirishga taalluqli barcha rasmiy hujjatlar-da xalqaro tasniflashning tegishli ramzlarini ko'rsatishi shart. U deponlash-tirish yoki ro'yxatdan o'tkazdirishga taalluqli har bir chop etilgan materiallarda bu ramzlardan foydalanishi shart. Bitimga muvofiq tashkil etilgan ekspertlar komiteti vaqti-vaqti bilan tasnifni qayta ko'rib chiqib turadi. Tasnifni 5-tahriri 1993-yildan buyon amalda. Tasnif 32 sinf va 323 ostki sinflardan iborat. Unda shu-ningdek tovarlarning alfavit ro'yxati, bu tovarlar mansub bo'lgan sinflar va ostki sinflarni ko'rsatish asosida berilgan ro'yxatda 6250 nomda turli tovarlar o'z mujassamini topgan. Lokarn bitimi doira-sida Ittifoq ta'sis etilgan, u o'z assambleyasiga ega, assambleyaning muhim vazifasi ittifoqning 2 yillik dasturi va budjetini qabul qilish hisoblanadi.

Belgilarning tasviriy elementlarining xalqaro tasnifini ta'sis etish to'g'risida Vena bitimi (1973-yil).

Bitim 1973-yilda tuzilgan, 1985-yil qayta ko'rib chiqilgan. Bitim Parij Konvensiyasi ishtirokchi davlatlari uchun ochiqdir. Ushbu bitimga asosan tasviriy elementlarni yoki qismlarini o'z ichiga olgan belgilar uchun turkumlashtirish joriy etiladi. Ishtirokchi davlatlar-ning vakolatli milliy idoralari belgilarni ro'yxatdan o'tkazdirish va ularning muddatini uzaytirish bo'yicha tegishli barcha rasmiy hujjatlarda ushbu xalqaro tasniflash ramzlaridan foydalani shi lozim. Ekspertlar komiteti xalqaro tasnifning vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqiladi. 1993-yildan tasnifni 3-tahriri amal qilmoqda. Tasnif 29 toifa, 144 guruh va 1569 ostki guruh (kichik guruh)dan iborat. Tur-kumlashtirish asosida belgilarning tasviriy elementlari joylashtiril-gan. Vena bitimi doirasida Ittifoq ta'sis etilgan, Ittifoq o'z assam-bleyasiga ega. Assambleyaning muhim vazifasi 2 yillik dasturni va budjetni qabul qilishi hisoblanadi.

Intellektual mulk huquqini savdo sohalarida qo'llanish bo'yicha bitim (TRIPS bitimi).

TRIPS bitimi Butunjahon savdo tashkilotining muhim huquqiy asoslaridan hisoblanadi. Butunjahon savdo tashkiloti (BST)ga a'zo bo'lishni xohlagan har bir davlat TRIPS bitimini imzolashi shart. Ushbu bitim 7 qismdan iborat. Birinchi qismda umumiy qoidalar va

asosiy tamoyillar belgilab qo'yilgan, 2-qism intellektual mulkdan foydalanishda huquqlarning mavjudligi hajmi va qo'llanishi bo'yicha standartlar deb nomlanadi. Unda tovar belgilari, geografik ko'rsatkichlar, sanoat namunalari, patentlar, integral mikrosxemalar topologiyasi, yopiq axborotlarni muhofaza qilish, litsenziya shartnomalari orqali raqobatga qarshi amaliyot ustidan nazoratni amalga oshirish o'z mujassamini topgan. 3-qism intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni ta'minlashga bag'ishlangan. Unda umumiy majburiyatlar, fuqarolik huquqiy, ma'muriy-huquqiy protsedura va sud himoyasi vositalari, intellektual mulk sohasida huquqlarni buzganlik uchun qo'llanadigan muvaqqat choralar, intellektual mulk obyektlarini bir mamlakatdan ikkinchi mamlakat hududiga o'tkazilishida bojxona va chegara tartibi, tovarlarni soxtalashtirish va madaniy qarochilik uchun jinoiy javobgarlik xalqaro standartlari nazarda tutilgan. 4-qismda intellektual mulk huquqlarining vujudga kelishi va o'z kuchini saqlab qolishi bo'yicha qoidalar belgilab qo'yilgan. 5-qism nizolarning oldini olish va hal qilish tartibiga bag'ishlangan. 6-qism esa ushbu bitimga rivojlangan mamlakatlar, rivojlanayotgan mamlakatlar va kam rivojlangan mamlakatlar tomonidan rioya qilinishi xususiyatlariga bag'ishlangan. 7-qism TRIPS bitimini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy tizim (institutSIONAL choralar) va yakuniy xulosalarni qamrab oladi. TRIPS bitimi asosan intellektual mulk sohasida mulkiy huquqlarni qo'riqlaydi. Bunda ishtirokchi davlatlarning bir-birlariga nisbatan milliy rejim, qulay rejim berish asoslari va tartibi, bitim bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda ko'riladigan iqtisodiy sanksiyalar belgilab qo'yilgan.

Yevroosiyo patent Konvensiyasi.

Ushbu konvensiya 1994-yil 9-sentabrda Moskva shahrida tuzilgan. Unga Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Gruzziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Ukraina davlatlari a'zo hisoblanadi. Konvensiya depozitariya bo'lib BIMT bosh direktori hisoblanadi. Yevroosiyo patent tashkiloti organlari bo'lib ma'muriy Kengash va Yevroosiyo patent idorasi hisoblanadi, tashkilotning shtab kvartirasi Moskva shahrida tashkil topgan. Tashkilotda rasmiy ish yuritish tili rus tili hisoblanadi. Yevroosiyo patentini olish uchun talabnoma ishtirokchi davlatlarning milliy patent idoralari orqali ham berilishi mumkin. Yevroosiyo patent idorasi talabnomani Konvensiya formal talablariga muvofiqligini tekshiradi va talabnoma bo'yichaizlanishlarni amalga oshiradi. Izlanishlar natijalari

haqida hisobot tayyorlanadi va talabnoma beruvchiga yuboriladi. Talabnoma va hisobot belgilangan muddat ichida (talabnoma berilgan sanadan boshlab 18 oy o'tgandan keyin e'lon qilinadi) Yevroosiyo patentini berish yoki rad etish haqida qaror 3 ekspertdan iborat kollegiya tomonidan qabul qilinadi. Yevroosiyo patentni berishni rad etish haqida qaror talabnoma beruvchini biror davlat milliy patent idorasiga patent berishni so'rab talabnoma berish huquqidan mahrum qilmaydi. Yevroosiyo patentining amal qilish muddati 20 yil. Yevroosiyo patent Konvensiyasi BMT a'zolari bo'lgan davlatlar uchun, shuningdek sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi, patent kooperatsiyasi to'g'risidagi shartnoma bilan bog'liq bo'lgan davlatlar uchun ochiqdir. Yevroosiyo patenti ishtirokchi davlatlarda avtomatik amal qilmaydi. U faqat patent egasi tomonidan ko'rsatilgan mamlakatlardagina va tegishli bojlar to'langan taqdirdagina amal qiladi.

VIII BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro iqtisodiy va ilmiy-madaniy hamkorlik munosabatlarida intellektual mulk obyektlari qanday ahamiyatga ega?
2. Intellektual mulk obyektlarining xalqaro xususiy-huquqiy muomalada bo'lishida qanday o'ziga xosliklar mavjud?
3. Butun jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) qanday huquqiy maqomga ega?
4. Intellektual mulk bo'yicha xalqaro konvensiyalar, bitimlar tizimi va tavsifi qanday?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi.
2. Парижская Конвенция по охране промышленной собственности. ВОИС. 1993.
3. ВОИС. Общая информация. Женева. 1993.
4. Основные материалы. 4.1.; 4.2. Инглизчадан таржима. Новосибирск. ВО "Наука". 1993.
5. Право на результаты интеллектуальной деятельности: Сборник нормативных актов. –М.: БЕК., 1994.
6. Соглашение по торговым аспектам прав интеллектуальной собственности (ТРИПС). FF материалы ВТО. М. РАА. 1998.

SANOAT MULK HUQUQI

1-§. O'zbekiston Respublikasi subyektlariga tegishli sanoat mulki obyektlarini chet malakatlarda huquqiy muhofaza qilish

O'zbekiston Respublikasi o'zining yuksak ilmiy texnikaviy salohiyatiga ega. O'zbekistonlik olimlarning ilm-fanning qator yo'nalishlari bo'yicha eng ilg'or maralalarda ish olib borayotganliklari ko'pchilik tomondan e'tirof etilmoqda. Bozor munosabatlari tizimida fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari tovar sifatida namoyon bo'ladi va ular sanoat mulki obyektlari, ya'ni ixtiro, foydali model, sanoat namunasi maqomiga ega bo'ladi. Ushbu obyektlarga nisbatan mutlaq huquq sohiblari, ya'ni patent egalari o'zlari tomonidan bevosita foydalanishi yoki litsenziya shartnomasi asosida boshqa shaxslarga foydalanishga ruxsat berish mutlaq huquqiga ega, patentni haq evaziga boshqa shaxslarga to'liq o'tkazish mumkin va h.k. Ayni paytda sanoat mulki obyektlaridan mamlakat ichki muomalasida foydalanishdan mamlakatimiz tashqarisida foydalanish huquqiy jihatdan o'ziga xosliklarga ega. Gap shundaki, O'zbekiston Respublikasi subyektlariga, sanoat mulki obyektlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi patent idorasi tomonidan berilgan huquqiy muhofaza yorlig'i, ya'ni patent O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladi. Mamlakati miz hududi doirasida patent egalarning huquqlari har taraflama qo'riqlanadi va sud tomonidan davlat majburlor kuchi bilan himoya qilinadi. Biroq O'zbekiston Respublikasining subyektlari o'zlariga tegishli sanoat mulki obyektlarini xorijiy davlatlarda qo'llaganda ham huquqiy muhofaza etishi uchun bu mamlakatlarda ularni patentlash lozim. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad patent egalarning iqtisodiy manfaatlari muhofaza etilishini ta'minlashdir.

Ma'lumki XXI asr global miqyoslarda axborotlashtirish asri hisoblanadi. Oshkor etilgan har bir axborot tezlik bilan turli subyektlarga yetib boradi va ular bu axborotlardan o'z amaliy faoliyatlarida foydalanish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Intellektual mulk obyektlari shu jumladan sanoat mulki obyektlari negizida g'oyaviy-axborot

majmui yotadi. Bu g'oyaviy axborot majmui turli moddiy shakllarda ifodalanishi mumkin. Eng asosiysi bunday obyektlardan bir paytning o'zida jahonning turli nuqtalarida joylashgan nomuayyan doiralarda shaxslar bir-biridan mustaqil ravishda foydalanishlari mumkin. Xuddi shu sababli ham sanoat mulki obyektlariga faqat O'zbekiston Respublikasi hududida patent olishning o'zi yetarli emas. Sanoat mulki egalari ushbu obyektidan foydalanishga bo'lgan qiziqish, bozor konyukturasini va shu kabilarni hisobga olgan holda bu obyektlarni xorijiy davlatlarda patentlashtirish choralarini ko'rmoqlari lozim.

O'zbekistonlik subyektlar o'zlariga tegishli sanoat mulki obyektlarini xorijiy mamlakatlarda patentlashtirganda quyidagi 2 ta holatni hisobga olmoqlari lozim. Birinchidan O'zbekiston Respublikasi qonunlarida mustahkamlab qo'yilgan talablar;

ikkinchidan, huquqiy muhofaza so'rab murojaat etilayotgan (ya'ni obyektga nisbatan so'ralayotgan) mamlakat milliy qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan talab. O'zbekiston Respublikasining «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida»gi qonunining 41-moddasida sanoat mulki obyektlarini boshqa davlatlarda patentlashti rish bo'yicha qoidalar o'z ifodasini topgan. Bunga asosan O'zbekiston Respublikasining jismoniy va yuridik shaxslari sanoat mulki obyektlarini boshqa davlatlarda patentlashtirish huquqiga egadirlar. Ayni paytda qonunda bu huquqni amalga oshirishning sharti ham belgilab qo'yilgan bo'lib, qonunning 41-moddasining 2-qismiga asosan sanoat mulki obyektlarini xorijiy mamlakatlarda patentlashtirish patent idorasiga talabnoma topshirilgandan so'ng uch oy o'tgandan keyingina amalga oshiriladi. Binobarin patent idorasi bunday hollarda sanoat mulki obyektini xorijiy mamlakatlarda patentlashtirishni qonunga muvofiqligi nuqtayi nazaridan o'rganib chiqadi. Bunda sanoat mulki obyektini O'zbekiston Respublikasi patenti bilan rasmiylashtirilgan ligi yoki huquqiy muhofaza yorlig'i so'rab birinchi marotaba murojaat etilayotganligi ahamiyatga ega emas. Patent idorasi talabnomani o'rganganda quyidagi holatlarni hisobga oladi:

Birinchidan, talabnoma beruvchi haqiqatan ham obyektga nisbatan patent olish huquqiga egami va bunda boshqa subyektlarning huquq va majburiyatlari buzilmayaptimi;

ikkinchidan, obyekt huquqiy muhofaza yorlig'i berish uchun zarur xususiyatlarga, ya'ni boshqacha aytganda patentlanish layoqatiga egami;

uchinchidan, sanoat mulki obyektini xorijiy davlatlarda patentlash O'zbekistonning mudofaa, xavfsizlik va boshqa majburiyatlariga putur yetkazmaydimi (ya'ni, obyekt davlat sirlari bilan bog'liq emasmi yoxud maxfiy ixtiro huquqiy rejimiga mos kelmaydimi).

Bunday tartibning mavjudligi sanoat mulki mutlaq huquq egalari huquqlarini aslo cheklamaydi, balki ularning kelgusida kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini oladi. Yuqoridagi talablarni buzgan holda berilgan patent, dastlabki patent haqiqiy emas deb hisoblanadi va patent idorasining qarori bilan bekor qilinadi. Sanoat mulki obyektini boshqa davlatda (davlatlarda) g'ayri huquqiy ravishda patentlashtirgan har bir shaxs qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi (ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risidagi qonunning 41-moddasi). O'zbekiston Respublikasi subyektlari tomonidan o'z sanoat mulki obyektlarini xorijiy mamlakatlarda patentlashtirishda patentlashtirish so'ralayotgan mamlakat qonunlariga to'liq rioya qilinishi lozim. Shu sababli ham bir mamlakatda patentlashtirish rad etilganligi ikkinchi mamlakatda patentlashtirish bo'yicha talabnoma berish imkoniyatidan mahrum etmaydi. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi sanoat mulki bo'yicha Parij Konvensiyasining ishtirokchisi hisoblanadi. Shu sababli ham ushbu konvensiya bo'yicha ustuvorlik sanasi qoidalari Parij Konvensiyasi ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlar hududida patent talabnomasi berilayotganda qo'llaniladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risidagi qonun»ning 18-moddasida belgilab qo'yilgan. Ko'pgina mamlakatlarda patent talabnomasi xorijiy subyektlar tomonidan maxsus patent vakillari orqali berilishi nazarda tutilgan.

2-§. Chet ellik subyektlar sanoat mulki obyektlarini O'zbekiston Respublikasida huquqiy muhofaza qilish

O'zbekiston Respublikasi «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida» gi qonunining 1, 2-moddasida ko'rsatiladiki, O'zbekiston Respublikasida boshqa davlatlarning jismoniy va yuridik shaxslari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ushbu qonunda nazarda tutilgan huquqlardan foydalanadilar. Binobarin ular o'z sanoat mulki

obyektlarini O'zbekiston Respublikasida patentlashtirishga haqlidirlar.

Xorijiy davlatlarning fuqarolari va yuridik shaxslari ham O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi xalqaro shartnomalar va FKda belgilangan tartibda o'z sanoat mulki obyektlariga nisbatan huquqlarini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradilar. O'zbekistonda ixtiroga bo'lgan huquq, foydali modelga, sanoat namunasiga bo'lgan huquq patent bilan guvohlantiriladi va davlat tomonidan qo'riqlanadi. Masalan, ixtiro patenti ixtironing yangligini, ixtirochilik darajasini, patentning haqiqiyiligi va patent egasining ixtiroga egalik qilish uni tasarruf etish va undan foydalanishga doir mutlaq huquqini tasdiqlaydi. Sanoat mulkining obyektini bo'yicha patent va dastlabki patent quyidagilarga beriladi:

– sanoat mulki obyektining muallifiga (mualliflariga) yoki uning (ularning) merosxo'riga (merosxo'rlariga);

– muallif yoki uning huquqiy vorisi tomonidan patent yoki dastlabki patentga oid talabnomada yoki sanoat mulki obyektini patent idorasida ro'yxatdan o'tkazdirilgunga qadar topshirilgan arizada ko'rsatilgan jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarga (ularning roziligi sharti bilan);

– qonunda belgilangan hollarda ish beruvchiga. ko'p hollarda chet mamlakatlarda yashovchi xorijiy fuqarolar, shuningdek xorijiy yuridik shaxslar patent olish uchun yo o'zlari, yo patent idorasida ro'yxatdan o'tgan patent vakillari orqali harakat qiladilar.

Patent olishda va uning amal qilish muddati davomida (20 yil) har yili maxsus patent bojlari undiriladi, ular norezident bo'lganlari sababli bojlarni xorijiy valutada to'laydilar. Xorijiy subyektlarga ham O'zbekiston subyektlari uchun belgilangan tartibda patent beriladi. O'zbekiston Respublikasi sanoat mulkini muhofaza qiluvchi Parij Konvensiyasining a'zosi bo'lgani sababli xorijiy subyektlar agarda ular Parij Konvensiyasi ishtirokchi davlatlari fuqarolari bo'lishsa, qator afzalliklardan foydalanishlari mumkin. Masalan, sanoat mulki obyektini ustuvorligi talabnoma patent idorasiga topshirilgan kundan boshlab belgilanadi. Ustuvorlik sanoat mulkini muhofaza qilish Parij Konvensiyasiga a'zo bo'lgan boshqa davlatda (Konvensiya ustuvorligi) berilgan birinchi talabnomada qayd etilgan sanaga ko'ra basharti patent idorasiga ana shu sanadan boshlab ixtiroga, foydali modelga oid talabnoma 12 oy ichida, sanoat namunasiga oid talabnoma 6 oy ichida topshirilgan bo'lsa, belgilanadi.

Basharti Konvensiya ustuvorligi so'ralgan talabnoma uni beruvchiga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra belgilangan muddatda topshirib ulgurilmasa, bu muddat patent idorasi tomonidan uzog'i bilan yana 2 oyga uzaytirilishi mumkin (Ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari to'g'risidagi qonunning 18-moddasi).

Xorijiy subyektlarning patent olish uchun bergan talabnomalarini ko'rib chiqishda umumiy tartib qo'llaniladi. Bu o'rinda xorijiy subyektlar uchun maxsus qoidalar belgilanmagan.

Xorijiy subyektlarning talabnomalar asosida ularga berilgan patentlardan kelib chiqadigan huquqlari hajmi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilanadi. Binobarin patent egasi sanoat mulki obyektiga nisbatan mutlaq huquqqa ega va undan beruxsat hech kim bu obyektidan foydalanishga haqli emas. Ba'zi holatlarda xorijiy subyektning huquqlari hajmi O'zbekiston Respublikasi subyektlari huquqlarining hajmiga nisbatan kengroq bo'lishi mumkin. Masalan, agarda sanoat mulki xorijiy subyekt tomonidan O'zbekiston Respublikasiga chet el investitsiyasi sifatida kiritilsa mutlaq huquq egasi chet el investitsiyalari uchun belgilangan imtiyoz va afzalliklarga ega bo'ladi.

Patent egasining mutlaq huquqlarini buzgan har qanday shaxs bu huquqbuzarliklarni to'xtatishi va mutlaq huquq egasiga yetkazgan barcha zararlarni fuqarolik qonunchiligida belgilangan tartibda to'lashi shart.

Chet elda yaratilgan sanoat mulki obyektlarining O'zbekiston Respublikasida patentlanishi mamlakatimiz uchun ham, xorijiy subyektlar uchun ham har taraflama foydalidir. Bu bir tomondan O'zbekiston Respublikasida xorijiy fan-texnika yutuqlarining qonuniy asoslarda keng qo'llanishiga yordam berib, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, xorijiy subyektlarning huquqlari mamlakatimiz hududida amalga oshirilishini huquqiy kafolatlaydi.

3-§. Sanoat mulki obyektlaridan litsenziya shartnomalari asosida foydalanish

Sanoat mulki obyektlaridan boshqa shaxslarning foydalanishi odatda litsenziya shartnomalari asosida amalga oshiriladi. Litsenziya shartnomasi bo'yicha asosiy qoidalar FKning 1036-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu shartnomada ikki taraf, ya'ni sanoat

obyektiga mutlaq huquq egasi (litsenziar) va bu obyektidan ruxsat asosida foydalanuvchi, ya'ni litsenziat qatnashadi. Litsenziar litsenziatga tegishli intellektual mulk obyektidan foydalanishga ruxsat beradi. Litsenziya shartnomasida beriladigan huquqlarning doirasi va mazmuni, obyektidan foydalanish chegaralari va muddatlari aniq ko'rsatilishi lozim. Litsenziya shartnomasi faqat haq baravariga tuziladi. Agarda sanoat mulk obyektidan litsenziarning foydalanish huquqi va boshqa shaxslarga litsenziya berish huquqi saqlanib qolgan holda litsenziatga foydalanishga ruxsat berilgan bo'lsa, bu oddiy nomutlaq litsenziya shartnomasi hisoblanadi. Agarda litsenziya shartnomasi bo'yicha litsenziarning obyektidan foydalanish huquqi saqlanib qolgan holda boshqa shaxslarga litsenziya berish huquqi ta'qiqlangan bo'lsa, bunday holatda litsenziat obyektidan mutlaq litsenziya asosida foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Odatda qonunlarda litsenziyaning boshqa turlari ham, shu jumladan, majburiy litsenziya, sublitsenziya, berilishi shart bo'lgan litsenziya, ochiq litsenziya kabi turlari mavjud. Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risidagi qonunning 31-moddasi 2-qismiga asosan litsenziya shartnomasi patent idorasida ro'yxatdan o'tkazdirilishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining import kontraktlarini davlat ro'yxatidan o'tkazdirish to'g'risidagi Nizomga asosan davlat mablag'lari hisobiga yoki davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar hisobiga tuzilgan litsenziya shartnomalari vazirlikda davlat ro'yxatidan o'tkazdirilishi lozim. Xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasida foydalanish uchun intellektual mulk obyektlari bo'yicha import kontraktlarini davlat ro'yxatidan o'tkazdirilishini rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

a) agarda obyekt eskirgan va jahondagi amaliy darajadan past bo'lsa;

b) obyektidan foydalanish kishining sog'lig'iga, ekologiyaga zarar yetkazsa.

FKning 1990-moddasi 2-qismida ko'rsatiladiki, mutlaq huquqlardan foydalanish to'g'risida litsenziya shartnomasida litsenziar hisoblanuvchi taraf ta'sis etilgan turar joyga ega bo'lgan yoki asosiy faoliyat joyi bo'lgan mamlakat huquqi qo'llaniladi. Biroq bu qoida dispozitiv xarakterga ega bo'lib, qo'llanishi lozim bo'lgan huquq to'g'risida shartnomada taraflarning kelishuvi bo'lmagan taqdirda ushbu qoida amal qiladi. Ayni paytda sanoat mulk obyektidan

foydalanish qayerda amalga oshirilsa, bu huquqlarni himoya qilish so'raladigan mamlakat huquqi qo'llaniladi, deb FKning 1180-moddasida belgilab qo'yilgan. Litsenziya shartnomalari bo'yicha litsenziat tomonidan to'lanadigan haq royalti va yoki paushal shakllarda bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududiga sanoat mulki obyektlari chet el investitsiyasi tariqasida litsenziya shartnomasi asosida kiritilsa, bu holda litsenziar chet el investori huquqiy maqomiga ega bo'ladi.

Intellektual mikrosxemalar topologiyalarining xalqaro xususiy huquqda muomalada bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari.

Fan-texnika taraqqiyoti shiddatli rivojlanayotgan hozirgi davrda intellektual mulkning yangidan-yangi obyektlari vujudga kelmoqda. Ulardan biri integral mikrosxemalar topologiyasi hisoblanadi. Integral mikrosxema bu elektron vazifalarni bajarishga mo'ljallangan tugash yoki oraliq shakldagi mikroelektron ashyo bo'lib, undagi elementlarning hech bo'lmaganda biri faol hisoblanadi, ashyodagi bog'lanishlarning ayrimlari yoki barchasi bu ashyo tayyorlangan jismlar tarkibida va (yoki) sirtida uzviy shakl topgan bo'ladi. Integral mikrosxema topologiyasi deganda esa integral mikrosxema elementlarining va ular o'rtasidagi bog'lanishlar majmuining moddiy jismda qayd etilgan fazoviy-geometrik joylashuvi tushuniladi. Boshqacha aytganda har bir muayyan geometrik fazoviy joylashuv o'ziga xos yangi obyekt bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Integral mikrosxema topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida»gi qonuniga⁷⁶ (2001-yil 12-may) asosan bunday turdagi obyektlarni huquqiy muhofaza qilish shartlari bo'lib:

- topologiyaning o'ziga xosligi (originalligi);
- davlat patent idorasidan ro'yxatdan o'tkazilganligi hisoblanadi.

1989-yilda ishlab chiqilgan integral mikrosxemalarga nisbatan intellektual mulkchilik to'g'risidagi Vashington shartnomasida, ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida bunday obyektlarni huquqiy muhofaza ostiga olishning zarur sharti bo'lib ularning originalligi ko'rsatiladi, davlat ro'yxatidan o'tkazish kompyuter dasturlari kabi majburiy shart emas. Xuddi shu sababli ham ushbu mamlakatlarda integral mikrosxemalar topologiyasi mualliflik huquqi obyektlari kabi yaratilish fakti asosida huquqiy muhofaza ostiga olinadi. Garchi

⁷⁶ Xalq so'zi. 2001-yil 18-may.

O'zbekistonda ushbu obyektlar patent asosida emas, tegishli guvohnoma asosida huquqiy himoyalansa ham, guvohnoma berish tartibi, mutlaq huquq mazmuni mualliflik huquqi obyektlaridan ko'ra, zohiran patent obyektlarinikiga o'xshab ketganligi sababli integral mikrosxemalar topologiyasining xalqaro xususiy huquqda muomalada bo'lishi xususiyatlari to'g'risidagi ushbu paragraf darslikning patent huquqi obyektlariga bag'ishlangan qismiga kiritildi. Biroq bundan muallif topologiyalar patent huquqi obyektiga degan xulosa chiqarmaslik lozim.

Muallifning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan va yaratilgan sanasida integral mikrosxemalar ishlab chiquvchi yoki tayyorlovchilarga ma'lum bo'lmagan topologiya boshqacha hol isbotlangunga qadar o'ziga xos (original) deb e'tirof etiladi.

Yaratilgan sanasida integral mikrosxemalar ishlab chiquvchi yoki tayyorlovchilarga ma'lum bo'lgan elementlardan tarkib topgan topologiyalarga, agar bunday elementlar yig'indisi original bo'lsa, ijodiy faoliyat natijasida yaratilgan bo'lsa huquqiy muhofaza ostiga olinadi.

G'oyalar, usullar, tizimlar, texnologiya yoki kodlashtirilgan axborotlar garchi topologiyaga singdirilgan, mujassamlangan bo'lsa ham huquqiy muhofaza qilinmaydi.

Topologiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma muallif (ish beruvchi, ularning huquqiy vorisi) tomonidan bevosita yoxud ishonchli vakil orqali O'zbekiston Respublikasi patent idorasiga beriladi. Topologiyani ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnoma berish agar topologiyadan foydalanilgan bo'lsa, undan bir necha marta foydalanilgan sanadan e'tiboran ikki yildan oshmagan muddatda amalga oshirilishi mumkin.

Talabnoma berilgan sanadan boshlab ikki oylik muddat ichida patent idorasi huquqiy muhofaza so'ralgan topologiya bo'yicha davlat ekspertizasi o'tkazadi. Ekspertiza natijalariga ko'ra topologiyani ro'yxatga olish yoxud uni rad etish haqida qaror chiqariladi. Topologiya ro'yxatdan o'tkazilganligi haqida guvohnoma huquq egasining topologiyadan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqini tasdiqlaydi.

Topologiyadan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquq o'n yil davomida amal qiladi.

Topologiyadan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquq muddatining boshlanishi quyidagi sanalardan eng oldingisi bo'yicha aniqlanadi:

– topologiyadan birinchi marta foydalanish sanasi bo'yicha, bunda topologiya jahonning biror-bir joyida fuqarolik muomalasiga oldinroq kiritilganligi hujjatlar bilan qayd etilgan sana nazarda tutiladi;

– topologiya ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar rasmiy e'lon qilingan sana bo'yicha.

Boshqa shaxs tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan aynan bir xil topologiya paydo bo'lgan hollarda topologiyadan foydalanishga mutlaq huquqning amal qilish umumiy muddati o'n yildan oshib ketishi mumkin emas.

Huquq egasiga topologiyadan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish, shu jumladan uni tayyorlash, qo'llash va tarqatish mutlaq huquqi tegishlidir.

Topologiyaning huquqiy muhofaza belgisi t hisoblanadi.

Muhofaza qilinadigan topologiyaning, shu topologiyali integral mikrosxemani yoki shunday integral mikrosxemani o'z ichiga olgan buyumni huquq egasining ruxsatisiz qo'llash, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, sotuvga qo'yish, sotish, takrorlash (o'ziga xos, original bo'lmagan qismini takorlash bundan mustasno) va fuqarolik muomalasiga boshqacha tarzda kirishini topologiyadan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqning buzilishi deb e'tirof etiladi.

Biroq aynan bir xildagi topologiyani mustaqil yaratgan shaxs undan mustaqil foydalanishga haqli. Mutlaq huquq egasi topologiyaga bo'lgan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar Davlat Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Topologiya ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvoohnoma mutlaq huquqni amal qilish muddat tugaganda, sud qarori asosida yoxud qonunda belgilangan boshqa asoslar bo'yicha (qonunning 16-moddasi) bekor bo'ladi.

Qonunning 18-moddasida O'zbekiston Respublikasiga mansub subyektlar tomonidan topologiyani boshqa davlatlarda ro'yxatdan o'tkazish tartibi belgilangan. Bunga ko'ra ular boshqa davlatlarda topologiyani belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishga haqlidirlar. Sanoat mulki obyektlariga nisbatan belgilanganidek oldindan qo'yilgan shartlar bu o'rinda mavjud emas.

Chet el yuridik shaxslari, jismoniy shaxslari topologiyaga nisbatan O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxslari bilan teng ravishda yoki o'zaroviylik asosida huquqlarga ega bo'ladilar.

Topologiyalarga nisbatan muallifning shaxsiy huquqlari, huquq egasining mutlaq huquqlari FKda belgilangan tartibda va asoslarda huquqiy himoya qilinadi.

IX BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro konvensiyalarda sanoat mulki qanday ma'noda tashkil etiladi?

2. O'zbekiston Respublikasi subyektlarining sanoat mulki obyektlariga nisbatan huquqlarini xorijiy davlatlarda muhofaza qilish tartibi qanday?

3. Chet ellik subyektlarning sanoat mulki bo'yicha huquqlarini O'zbekiston Respublikasida himoya qilish tartibi va shartlari qanday?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risidagi qonuni» (1994-yil 6-may) va ushbu konunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi. 1994-yil, 5-son, 138-modda; 1998-yil, 3-son, 38-modda).

3. O'zbekiston Respublikasining «Integral mikrosxemalar topologiyalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni» //Xalq so'zi. 2001-yil 18-may.

4. Парижская Конвенция по охране промышленной собственности. ВОИС. 1993.

5. А.Ертов. Изобретения – катализаторы экономики. // Биржевый Вестник Востока. 1998. №2. –С.23.

6. А.Ертов. Красоту нужно охранять. //Биржевый Вестник Востока. 1998. №17, -С.15.

7. А.Ертов. Чтобы патент работал в полную силу. // Биржевый Вестник Востока. 1999. №17, -С.18.

**FUQAROLIK MUOMALASI ISHTIROKCHILARINING
INDIVIDUALLASHTIRISH VOSITALARIGA BO'LGAN
HUQUQLARI**

1-§. Tovar belgisiga bo'lgan huquq

Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi – bu bir jismoniy yoki yuridik shaxsning tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslarning bir turdagi tovarlari va xizmatlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan belgidir. Odatda bunday belgilar so'zlar, tasvirlar, yozuvlar, tovushlar, hajmiy shakllar orqali ifodalanadi. Tovar belgilari tovarning o'ziga, o'roviga, idishiga qo'yilishi mumkin. Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari tovarlar va xizmatlarni reklama qilish maqsadlarida ham keng qo'llaniladi. Boshqacha aytganda tovar belgisi bozorda tovar ishlab chiqaruvchining o'ziga xos tashrif qog'ozi (vizit kartochkasi) bo'lib hisoblanadi. ko'p hollarda iste'molchi (mijoz yoki xaridor) tovar belgisiga qarab mo'ljal oladi va bevosita savdo-sotiq munosabatlariga kirishadi. Demak, tovar belgisi har doim tovarni muayyan sifati, muayyan xususiyati to'g'risida o'ziga xos axborot manbayi deb hisoblanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazdirish va ulardan foydalanish tartibi 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasida tovar belgisiga bo'lgan huquq u ro'yxatdan o'tkazdirilgandan keyin vujudga keladi va belgi egasi ushbu belgisidan foydalanishi bo'yicha mutlaq huquqqa ega bo'ladi. Boshqacha aytganda tovar belgisi egasi ushbu belgidan foydalanish va uni tasarruf etishda, shu jumladan undan o'zga shaxslar foydalanishiga ruxsat berish yoki ta'qiqlab qo'yishda mutlaq huquqqa egadir. Mamlakatimiz hududida muhofaza qilinayotgan tovar belgisidan uning egasi ruxsatisiz hech kim foydalanishga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq yoki o'zaroviylik asosida boshqa davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari ham O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy

shaxslari bilan tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazdirish va ulardan foydalanish bo'yicha teng huquqlardan foydalanadilar. Xorijiy subyektlar o'z tovar belgilarini O'zbekistonda ro'yxatdan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi patent idorasiga o'z patent vakillari orqali ariza berishlari lozim. Talabnomani ko'rib chiqish O'zbekiston subyektlari uchun belgilangan tartib bilan bir xildir. Faqat chet ellik subyektlar ro'yxatdan o'tkazdirilayotgan bojlarni xorijiy valutada to'laydilar. Agarda chet ellik subyekt Madrid bitimiga muvofiq harakat qilsa, u holda u eng avvalo ushbu tovar belgisining kelib chiqish mamlakatida ro'yxatdan o'tkazdirilayotgan bo'lishi talab etilgan bo'ladi. Madrid bitimi barcha ishtirokchi davlatlarda tovar belgisi uchun yagona huquqiy rejim belgilamaydi, balki bir vaqtning o'zida bir necha mamlakatlarda huquqiy muhofaza olish tartibini yengillashtiradi. Tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazdirilgan vaqtdan e'tiboran 10 yil davomida amal qiladi. Bu muddat belgi egasining arizasiga muvofiq va tegishli bojlar to'langan taqdirda har gal 10 yilga uzaytirilishi mumkin, qonun tovar belgisidan foydalanish shart ekanligini belgilaydi. Tovar belgisining ro'yxatdan o'tkazdirilganligi to'g'risidagi guvohnoma agarda bu belgidan 5 yil davomida uzluksiz ishlatilmagan bo'lsa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud tartibida muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash lozimki, tovar belgisidan foydalanish deganda nafaqat bu belgidan tovarlarda va ularning o'rovi, idishda foydalanilishi, balki reklamlarda, matbaa nashrlarda, rasmiy ish qog'ozlarida, peshlavhalarda, ko'rgazmalar va yarmarkalarda eksponatlarni namoyish qilishda ishlatish ham kiradi. Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazdirish bilan bog'liq nizolar patent idorasi tomonidan ma'muriy tartibda yoki sud tartibida hal etiladi. Masalan, O'zbekiston hududida Astra, Belomor-kanal, Prima, Polet tamaki mahsulotlarini ro'yxatdan o'tkazdirish rad etildi, chunki bu tovar belgilari sobiq SSSR Ittifoqidagi tamaki fabrikalari tomonidan keng foydalanilgan. Tovar belgisining asosiy vazifasi bir ishlab chiqaruvchining bir xildagi tovarlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shu xildagi tovarlardan farqlash hisoblanadi. Yuqoridagi tovar belgilari esa xuddi shu vazifalarni bajara olmaydi. Yuqoridagi asosga ko'ra O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan va xorijiy subyektlarga tegishli bo'lgan «Kosmos», «Pamir», «Prima» tovar belgilari muddatdan avval bekor qilindi. O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari o'z

tovar belgilarini boshqa davlatlarda yoki xalqaro miqyoslarda ro'yxatdan o'tkazishga haqlidirlar. O'zbekiston Respublikasining subyektlari o'z tovar belgilarini boshqa davlatlardan ro'yxatdan o'tkazishni O'zbekiston Respublikasi patent idorasiga talabnoma berganlaridan keyin amalga oshiradilar. Tovar belgilarini boshqa davlatlarda yoki xalqaro miqyoslarda ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan sarf-xarajatlar talabnoma beruvchi yoki u bilan kelishilgan holda boshqa manfaatdor yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan qoplanadi.

O'zbekistonlik subyektlarning o'z tovar belgilarini chet davlatlarda ro'yxatdan o'tkazdirilishi, ayniqsa eksport uchun mahsulot ishlab chiqarayotganlar uchun muhim ahamiyatga ega. Chiroyli va diqqatni tez jalb qiladigan tovar belgilari mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlarning tashqi bozorda xaridorgir bo'lishini ta'minlaydi va aksincha. Tovar belgilarining mavjud emasligi yoki ularning huquqiy muhofaza qilinmasligi dunyo bozorida bizning tovar ishlab chiqaruvchilar uchun muayyan qiyinchiliklar vujudga keltiradi. Bunday tovalarni osongina qalbakilashtirish, soxtalashtirish mumkin. Shu sababli ham o'z tovarlarini eksport qilayotgan subyektlar bu tovarlarni eksport qilishdan oldin tovar olib borilayotgan mamlakatdan o'z tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazdirishlari shart. O'zbekiston Respublikasi tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan o'tkazdirish to'g'risida Madrid bitimining ishtirokchisi bo'lganligi sababli mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslar o'z tovar belgilarini chet ellarda ro'yxatdan o'tkazdirishda muayyan qulayliklarga egadirlar. Tovar belgisining egasi tovar belgisi bilan bir qatorda tovarda yoki uning idishida ogohlantiruvchi tamg'a ® qo'yishi mumkin. U tovar belgisini O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tkazilganini va huquqiy himoya qilinishini anglatadi.

2-§. Firma nomiga berilgan huquq

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1098-moddasiga asosan yuridik shaxslar o'z firma nomlariga nisbatan mutlaq huquqqa egadirlar. Fuqarolik kodeksining 46-moddasi 5-qismiga asosan tijoratchi yuridik shaxslar o'z firma nomiga ega bo'lishlari shart. Yuridik shaxsning firma nomi uning ustavini tasdiqlash vaqtida belgilanadi va u yuridik shaxslar davlat reyestriga kiritish yo'li bilan ro'yxatdan o'tkazdiriladi. Yuridik shaxsning firma nomi

tegishli yuridik shaxslarni aynan bir deb hisoblashga olib kelishi mumkin bo'lgan darajadan avval ro'yxatdan o'tkazilgan nomga o'xshab ketadigan bo'lsa, u ro'yxatga olinishi mumkin emas. Yuridik shaxsning belgisi tariqasida O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan firma nomiga bo'lgan huquq O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladi. Chet davlatda ro'yxatga olingan yoki umume'tirof etilgan nomga O'zbekiston Respublikasi hududida mutlaq huquq qonunda nazarda tutilgan hollardagina amal qiladi. Boshqacha aytganda «Samsung», «Boing», «Koka-kola» kabi umume'tirof etilgan firma nomlariga bo'lgan huquqlar yoki xorijiy subyektlarning o'z mamlakatlarida ro'yxatdan o'tilgan firma nomlariga bo'lgan huquqi O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi hollarda amal qilishi mumkin:

a) agar bu O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro konvensiyalar, xalqaro bitimlar va boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan bo'lsa;

b) agar bu O'zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama, ko'p tomonlama shartnomalar, bitimlarda belgilab qo'yilgan bo'lsa.

Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasining 8-moddasida ko'rsatiladiki, konvensiyaning ishtirokchisi bo'lish har bir davlat boshqa ishtirokchi xorijiy davlatda joylashgan firma nomini uning o'zida qayd etilgan-etilmaganidan qat'i nazar qayd etish haqidagi talab majburiyigidan qat'i nazar huquqiy muhofaza qilish mutlaq huquqini ta'minlashi lozim. O'zbekiston Respublikasi Parij Konvensiyasining ishtirokchisi hisoblanadi.

Binobarin, konvensiya davlatlari hududida firma nomi milliy chegaralar doirasidan chiquvchi eksterritorial muhofaza layoqatiga ega. Firma nomiga bo'lgan mutlaq huquq u qayd etilganidan boshlab bemuddat amal qiladi. Yuridik shaxsning firma nomiga bo'lgan huquqini boshqa shaxsга berish va o'tkazishga faqat yuridik shaxs qayta tashkil etilgan holda yoki korxonaga boshqa shaxsга butunlay berilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

Firma nomiga bo'lgan huquq egasi boshqa shaxsга o'zining firma nomidan foydalanishga ruxsat (litsenziya) berishi mumkin. Masalan, FKning 872-moddasida belgilangan Franshizing shartnomasini tuzish orqali. Ayni vaqtda shartnomada litsenziar litsenziatga firma nomidan foydalanishga iste'molchini chalg'itib qo'yish, aldashiga olib kelishini istisno etuvchi choralar ko'rish majburiyatini

yuklashi va uni bajarishi ustidan nazorat qilishi lozim. Bunday choralar ko'rilmagani taqdirda iste'molchining e'tirozlari litsenziarga (boshqaning firma nomidan foydalanuvchiga) emas, balki litsenziatga (firma nomi egasiga) qaratilishi mumkin.

3-§. Tovar tayyorlangan joy nomiga bo'lgan huquq

Har bir mamlakat, mintaqa, ma'lum bir hudud o'z iqlimi, tabiati, tuproq tarkibi, relyefi, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy sharoitlari bilan o'ziga xosdir. Ba'zan bu o'ziga xoslik o'sha hudud doirasida ishlab chiqariladigan tovarlar, bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlarning o'ziga xos alohida sifatga ega bo'lishini belgilaydi. Boshqa joyda ishlab chiqarilgan aynan o'shanday tovarlar, bajariladigan ishlar, ko'rsatiladigan xizmatlar aynan o'shanday sifatlarga, xususiyatlarga ega bo'lmaydi. Binobarin, ma'lum geografik hududning tabiiy sharoitlari yoki boshqa omillar (masalan, o'sha joyda yashovchi aholining kasb-kori, malakasi) bilan uzviy bog'liq ravishda tayyorlangan tovarlar aynan shunday tovarlarga nisbatan xaridorgir, yuqori sifatli, raqobatbardoshli bo'lishi mumkin.

Xuddi shunday tovarlar bozorda tovar chiqarilgan joy nomi orqali taqdim etilishi, sotilishi mumkin. Bu esa tovarning muhim va o'ziga xos belgisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi FKning 1108-1111-moddalarida tovar chiqarilgan joy nomini huquqiy jihatdan muhofaza qilish, bu nomdan foydalanish asoslari va tartibi mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi xorijiy subyektlar ham o'zbekistonlik subyektlar bilan teng huquqli ravishda tegishli tartibga rioya qilingan holda tovar chiqarilgan joy nomidan foydalanishga haqli.

Kelib chiqish joyi nomlarini huquqiy muhofaza qilish va ularni xalqaro qayd etish to'g'risidagi Lissabon bitimiga asosan tovar chiqarilgan joy nomlari huquqiy muhofaza qilinadi. Garchi O'zbekiston Respublikasi ushbu bitimga qo'shilmagan bo'lsa ham uning me'yorlariga amalda rioya qilmoqda. Xuddi shu sababli ham O'zbekiston Respublikasida Amerika firmasining «Capri» sigareta belgisini, Braziliya va Fransuz firmalarining sigareta, kofe, choy va boshqa oziq-ovqat muhsulotlarini «Hollivud» belgisi ostida ro'yxatdan o'tkazdirilishi rad etildi, chunki «Capri» oroli Italiyada joylashgan, «Hollivud» esa AQSHda joylashgan. Bu markalardan

foydalanish iste'molchilarni tovar chiqarilgan joylariga nisbatan chalg'itishga sabab bo'lur edi.

Tovarning kelib chiqish joyi nomi, sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij Konvensiyasi bo'yicha ham huquqiy muhofaza obyeksi hisoblanadi. Shuningdek buyumlar chiqarilgan joylarni noto'g'ri yoki yolg'on ko'satganlik uchun sanksiyalar, jazo choralari haqidagi 1891-yil 14-apreldagi Madrid bitimida tovar chiqarilgan joyi haqidagi yanglishishga sabab bo'luvchi belgilar, nomlarini qo'yimaganlik uchun sanksiyalar belgilangan. Buyumlarning kelib chiqish joylari ko'rsatkichlarini himoya qilish va ularni xalqaro qayd etish haqidagi 1958-yil 31-oktabrdagi Lissabon ittifoqi organi tovar chiqarilgan joy nomlarini qayd etish mexanizmini ishlab chiqdi va amalga oshirmoqda.

Dunyoning deyarli barcha davlatlarida tovarlar chiqarilgan joylar nomlaridan g'ayriqonuniy foydalanish, bu joylar nomlari haqida noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumot berish g'irrom raqobatning ko'rinishlaridan hisoblanadi va tegishli javobgarlik choralari (zararlarni to'latish, hududiga olib kelishni taqiqlash, arest solish, tovarlarni yo'q qilib tashlash va h.k.) qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida 1996-yil 27-dekabrda qabul qilgan qonunning 8-moddasiga asosan yuridik shaxsning intellektual faoliyati natijalaridan va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan, mahsulotni, xizmatlar bajarishni individuallashtirish vositalaridan qonunsiz foydalanib tovar sotish, tovarning xususiyati, uni tayyorlash usuli va joyi xususida iste'molchini chalg'itish insofsiz raqobat hisoblanadi va ta'qiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasida tovar kelib chiqqan joy nomlari va bu nomlardan foydalanish huquqini ro'yxatga olish tartibi «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi. Unga ko'ra tovar kelib chiqqan joy nomlari va tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqini ro'yxatdan o'tkazish Davlat Patent idorasi tomonidan amalga oshiriladi. Tovar kelib chiqqan joy nomidan foydalanish huquqi to'g'risida guvoohnoma beriladi. Guvoohnoma talabnoma berilgan sanadan e'tiboran o'n yil mobaynida amal qiladi. Ushbu muddatning oxirida u yana har safar o'n yilga uzaytirilishi mumkin. Tovar kelib chiqqan joy nomi tovarda, uning idishi va o'rovida, bosma nashrlarda, reklamalarda qo'llanishi mumkin.

Ushbu huquqdan foydalanish litsenziya shartnomasi asosida boshqa shaxslarga o'tkazilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari tovar kelib chiqqan joy nomini boshqa davlatlarda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishga haqli.

Chet ellik yuridik va jismoniy shaxslar tovar kelib chiqqan joy nomidan O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan teng ravishda yoki o'zaro kelishuv prinsipi asosida foydalanadilar.

4-§. Xalqaro xususiy huquqda g'irrom raqobatga qarshi kurash masalalari

Ma'lumki, g'irrom raqobatning oldini olish Parij Konvensiyasi bo'yicha intellektual mulk mulk huquqini amalga oshirishning tarkibiy qismi hisoblanadi. TRIPS bitimining 40-moddasida ham g'irrom raqobatning oldini olish belgilab qo'yilgan. o'irrom raqobatga qarshi kurashish masalalari O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ham o'zining ifodasini topgan. Jumladan, 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risidagi qonunda xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik faoliyatida ustunlikni qo'lga kiritishga qaratilgan qonun hujjatlariga va ish-muomala odoblariga zid bo'lgan, ular o'rtasida musobaqalashuvni istisno etadigan va amalga oshirilishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarga tegishli tovar bozorida tovarlar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga ta'sir ko'rsatish imkonini beradigan harakatlari insofsiz (g'irrom) raqobat deb hisoblanadi. Ushbu qonunning 8-moddasida insofsiz raqobatni ta'qiqlash haqida ko'rsatma mavjud. Bunga asosan O'zbekiston Respublikasida insofsiz raqobatga, chunonchi:

– boshqa xo'jalik yurituvchi subyektga yoki uning tadbirkorlik obro'siga putur yetkazadigan yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatishga;

– yuridik shaxsning intellektual faoliyati natijalaridan ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan, mahsulotni, xizmatlar bajarishni individuallashtirish vositalaridan qonunsiz foydalanib tovar sotish;

– tovarning xususiyati, uni tayyorlash usuli va joyi, iste'mol xossalari, sifati xususida iste'molchilarni chalg'itishga;

– xo‘jalik yurituvchi subyektning, shu jumladan uning reklama faoliyati jarayonida ham o‘zi ishlab chiqaradigan yoki sotadigan tovarlarni boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tovarlari bilan qo‘pol taqqoslashiga;

– ilmiy texnikaviy, ishlab chiqarish yoki savdo axborotini, shu jumladan tijorat sirini egasining roziligisiz olish, undan foydalanishi, uni oshkor etishga;

– yangi xo‘jalik yurituvchi subyektning tovarlar va xizmatlar bozoriga kirishiga to‘sqinlik qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekistonning tegishli qonunlarida intellektual mulk obyektlaridan foydalanishda g‘irrom raqobatga javobgarlik sanksiyalari belgilab qo‘yilgan. Jumladan, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risidagi qonunning 26-moddasi 3-qismiga asosan tovar belgisini yoki almashtirib yuborish darajasida unga o‘xshash bo‘lgan belgining undan ruxsat olmagan holda xo‘jalik muomalasiga kiritilishi tovar belgisi egasining huquqlarini buzish deb topiladi. Tovar belgisi egasining huquqlarini buzuvchi xatti-harakatlar sodir etgan yuridik va jismoniy shaxslar, belgi egasining talabiga muvofiq:

– belgi egasining ishbilarmonlik obro‘cini qayta tiklash maqsadlarida sud qarorlarini o‘z hisoblaridan e‘lon qilishga;

– tovar belgisidan yoki almashtirib yuborish darajasida unga o‘xshash bo‘lgan belgidan foydalanishni to‘xtatishga, shuningdek belgi egasiga yetkazilgan zararining o‘rnini to‘liq qoplashga yoki belgidan Qonunga zid ravishda foydalanish davrida olingan bor foydani belgi egasiga berishga;

– mahsulot belgisi yoki almashtirib yuborish darajasida unga o‘xshash bo‘lgan belgini mahsulotdan yoki uning o‘rovidan olib tashlashga;

– tovar belgisining yoki almashtirib yuborish darajasida unga o‘xshash bo‘lgan belgining tayyorlab qo‘ygan tasvirini yo‘q qilib tashlashga majburdirlar.

O‘zbekiston Respublikasining ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risidagi qonunining 13-moddasiga asosan muhofaza qilinayotgan sanoat mulki obyektidan foydalangan holda yaratilgan mahsulotni ruxsatsiz tayyorlash, qo‘llash, olib kelish, saqlash, sotishga taklif etish, sotish va xo‘jalik muomalasiga boshqacha tarzda kiritish, shuningdek ixtiro patenti yoki dastlabki patenti bilan muhofaza qilinayotgan usulni qo‘llash yoki ixtiro

patenti yoxud dastlabki patenti bilan muhofaza qilinayotgan usul vositasidagina tayyorlangan mahsulotni xo'jalik muomalasiga kiritish patent egasi mutlaq huquqining buzilishi sifatida e'tirof etiladi. Sanoat mulki obyektidan g'ayriqonuniy foydalanayotgan subyektlar jabrlanuvchi patent egasi talabiga binoan:

– patent egasining mutlaq huquqini buzayotgan harakatlarini to'xtatishlari;

– patent egasi huquqlarini buzish oqibatida unga yetkazilgan zararining o'rnini qoplashlari;

– patent egasining ishbilarmonlik mavqeni qayta tiklash maqsadida sud qarorini o'z hisoblaridan e'lon qilishlari shart;

– mutlaq huquq buzilganligiga doir da'vo basharti litsenziya shartnomasida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, patent egasi yoki mutlaq litsenziya egasi tomonidan qo'zg'atiladi.

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 177-moddasida tovar belgisidan qonunga xilof foydalanganligi uchun javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 191-moddasida sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, savdoga oid va boshqa shu kabi axborot egasining roziligisiz oshkor qilish yoki undan foydalanish maqsadida har qanday usulda to'plash uchun, shuningdek bunday axborotlarni egasining roziligisiz qasddan oshkor qilish yoki undan foydalanish uchun JKning 192-moddasida esa raqobatchini obro'sizlantirish, ya'ni bosma yoki boshqacha usullarda ko'paytirilgan matnlarda yoki ommaviy axborot vositalari orqali xo'jalik yurituvchi subyektning ishbilarmonlik nufuziga putur yetkazish maqsadida bila turib yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni tarqatilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Xorijiy subyektlar O'zbekiston qonunlarida belgilab qo'yilgan g'irrom raqobatga qarshi kurash bo'yicha fuqarolik-huquqiy, ma'muriy-huquqiy va jinoiy huquqiy choralarni qo'llash haqida talab qo'yishlari uchun o'zlarining intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlarini O'zbekiston Respublikasi hududida huquqiy rasmiylashtirgan yoki huquqiy muhofaza yorliqlari olgan bo'lishlari shart (qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno).

X BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasiga tegishli subyektlarning individuallashtirish vositalariga bo'lgan huquqlarini chet ellarda huquqiy muhofaza ostiga olish tartibi va asoslari qanday?

2. Xorijiy subyektlarning individullashtirish vositalarini O'zbekiston Respublikasida huquqiy muhofaza qilish asoslari va shartlari qanday?

3. Xalqaro hujjatlarda g'irrom raqobatga qarshi qanday kurash olib boriladi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi.

2. O'zbekiston Respublikasining «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi qonuni. //Xalq so'zi. 2001-yil 20-yil sentabr.

3. O'zbekiston Respublikasining «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risidagi qonuni» // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1997-yil, 2-son. 54-modda.

4. Парижская Конвенция по охране промышленной собственности. ВОИС. 1993.

5. ТРИПС. //материалы ВТО. М. РАА. 1998.

6. Сергеев А.П. Право на фирменное наименование и товарный знак. //Санкт-Петербург. ФАО. 1995.

**XALQARO XUSUSIY HUQUQIY MUNOSABATLARDA
SELEKSIYA YUTUQLARI, TIJORAT SIRLARI (OSHKOR
ETILMAGAN AXBOROTLAR)ning HUQUQIY MAQOMI**

1-§. Seleksiya yutuqlarining huquqiy maqomi

Ilmiy intellektual faoliyatning natijalari ichida seleksiya yutuqlari o'ziga xos tarzda ajralib turadi. Gap shundaki, seleksiya yutuqlari o'z mohiyatiga ko'ra, tirik tabiatning bir qismi, nabotot dunyosiga mansub jonzotdir. Ayni vaqtda u tirik tabiatning o'z mahsuli emas, undagi evolutsion tabiiy tanlashlar va irsiy o'z-o'zidan rivojlanuvchi mutatsiyalar natijasida vujudga kelmagan. Seleksiya yutuqlari inson ijodiy tafakkurining mahsuli, uning ilmiy-tadqiqotlarining natijasidir. Ijodkor-inson o'zi uchun maqbul xususiyatlarga ega bo'lgan o'simliklarning yangi navlarini va hayvonlarning yangi zotlarini shunchaki odatdagi oddiy mehnat jarayoni natijasida emas, balki ijodiy yondashuv, ilmiy-tadqiqotlar asosida yaratadi. Shu sababli ham seleksiya yutuqlari ilmiy-intellektual faoliyat natijasi sifatida maxsus huquqiy muhofaza sifatida tan olinadi.

Seleksiyani huquqiy muhofaza qilish asoslarini yaratishga ilk urinishlar XX asr boshlaridan amalga oshirila boshlandi. Eng avvalo o'simlikshunoslikda, keyinchalik chorvachilikda seleksiya yutuqlari huquqiy muhofaza ostiga olina boshlandi. 1965-yilda Angliyada chorvachilik bo'yicha seleksiya yutuqlari haqida qonun hujjati qabul qilindi. Bu bejiz emas edi, chunki Angliya zotdor mollar eksporteri hisoblanar edi. 70-yillarda seleksiyachilikda yangi ilmiy usullar – gen injeneriyasi, embrionlarni ko'chirib o'tkazish, jinsini oldindan belgilash, radioaktiv nurlantirish seleksiyada inqilob yasadi. Xalqaro miqyoslarda seleksiya yutuqlarini muhofaza qilishga ehtiyoj vujudga keldi. 1961-yil 2-dekabrda Parijda o'simliklarning yangi navlarini huquqiy muhofaza qilish haqida Xalqaro Konvensiya imzolandi. U 1968-yil 10-avgustdan boshlab kuchga kirdi. Vaqt o'tishi bilan bu Konvensiya o'zgarishlar bilan to'ldirib borildi. 1978-yilda Jenevada Konvensiyaning yangi matni imzolandi. U 1991-yildan boshlab kuchga kirdi, ushbu Konvensiya barcha mamlakatlar qo'shilishi uchun ochiqdir.

Konvensiyaning asosiy qoidalaridan biriga ko'ra Konvensiya ishtirokchilari bo'lgan mamlakatlarda ro'yxatga olingan yuridik shaxslar yoki istiqomat joyi bo'lgan jismoniy shaxslar uchun barcha ishtirokchi mamlakatlarda belgilangan milliy tartib amal qiladi.

Konvensiya bilan qo'riqlanadigan o'simlik navlari har qanday botanik turga yoki jinsga mansub bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda Konvensiya ishtirokchisi mamlakatning tabiiy shart-sharoitlariga muvofiq ravishda qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik yoxud o'rmonchilikning rivojiga yordam beruvchi iqtisodiy eng qulay bo'lgan o'simliklar navlariga nisbatan Konvensiyani qo'llashga haqli. Shu bilan birga Konvensiya o'z a'zolari zimmasiga mumkin qadar ko'proq o'simlik turlari va jinslarini huquqiy muhofazaga olish majburiyatini yuklaydi.

O'simlikning yangi navi huquqiy muhofaza qilinishi uchun dunyo miqyosida yangi bo'lishi lozim. Binobarin, bu nav nafaqat huquqiy muhofaza talab qilinayotgan mamlakat uchun, balki boshqa mamlakatlar uchun yangi bo'lishi kerak. Yangilik holatini belgilashda navning sun'iy yoxud tabiiy usulda yaratilganligi ahamiyatga ega emas.

Ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab va har xil suiiste'molchiliklarning oldini olish maqsadida seleksionerlarning huquqlari nazorat qilinib boriladi. Konvensiya ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlar qonunlarida Konvensiya bo'yicha huquqiy muhofazaga layoqatlilik talablariga zid bo'lgan seleksiya obyektlariga nisbatan seleksiyachilar huquqlari bekor bo'lish imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim.

Agar seleksioner davlatning vakolatli idorasiga yangi navni o'z talablariga to'liq muvofiq holda ko'paytirish uchun materiallar bera olish imkoniyatiga ega bo'lmasa ham huquqlari bekor bo'ladi. Boshqacha aytganda seleksionerning yangi nav yaratish va uning uchun huquqiy muhofaza yorlig'i olish jarayonida davlat sinov stansiyalarini urug'lik material bilan ta'minlaydi. Bu navdan tijorat maqsadlarida ishlatish, qo'llanish jarayonida tegishli sifatga ega bo'lgan urug'lik materiallari seleksionerda mavjud bo'lishi lozim. Yangi navning aynib ketishi – huquqiy muhofazaning tamom bo'lganini bildiradi. Binobarin vakolatli davlat idorasi yangi navni vaqti-vaqti bilan tekshirib turadi. Seleksioner urug'lik material bilan ta'minlamasa yoxud tekshirishga imkon bermasa, navga nisbatan huquqlardan mahrum bo'ladi.

Konvensiyaning ko'pgina qoidalari mamlakatimizning amaldagi qonunlariga mos keladi.

Xalqaro Konvensiyaga asosan o'simliklarning yangi navlarini huquqiy muhofaza qilish bo'yicha Xalqaro Ittifoq UPOV ta'sis etildi. Ushbu hukumatlararo tashkilot Jenevada joylashgan. Ushbu tashkilotga a'zo bo'lgan har bir davlat o'z milliy seleksionerlari yaratgan navlarni boshqa a'zo davlatlar hududlarida ham huquqiy muhofaza qilinishiga, xorijiy seleksionerlarning huquqlarini kafolatlashga imkon beradi. UPOVga a'zolik har bir mamlakatga boshqa mamlakatlar tajribasidan foydalanish, zaruriy hamkorlik qilishga yordam beradi va oxir oqibatda dunyoda seleksiya fanlarini rivojlantiradi.

Ularda Ittifoq a'zolari bo'lgan davlatlar o'rtasida yangi navlarni eksportizadan o'tkazish bo'yicha faoliyatlarini muvofiqlash tirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Masalan, Ittifoq a'zosi bo'lgan bir davlat iltimosi bo'yicha, yangi navni boshqa ishtirokchi davlat sinovdan o'tkazishi yoki bir mamlakatdagi sinovlar natijasi bir guruh mamlakatlar tomonidan yangi navga huquqiy muhofaza berish uchun asos bo'lishi mumkin. Bu esa xarajatlarni amalda bir necha marta kamaytirishga olib keladi.

Biroq ushbu Ittifoq Bern yoki Parij Ittifoqlari kabi dunyoda ommaviy tus olmaganini e'tirof etmoq lozim. Hozirgi vaqtda UPOVga 30 dan ortiq davlat a'zo, yaqin kelajakda ular soni 50 ga yetadi degan taxminlar bor. Biroq dunyoda iqtisodiyotida agrar sektor ustuvor bo'lgan mamlakatlar ko'p, binobarin bu borada yo'nalish o'z istiqboliga ega. Chunki hozirgi seleksiya sayyoramizning o'sib borayotgan aholisini oziq-ovqat va sanoatni xom ashyo bilan ta'minlashda muhim vazifani bajarmoqda. Keyingi 30 yil ichida qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi 30% dan 50%gacha oshganligi yangi navlarni joriy etish va mavjud navlar va gibridlarni qo'llash natijasidir. Jahonda qishloq xo'jaligining rivoji barcha davlatlarning seleksiya bo'yicha sa'y-harakatlarini birlashtirishga, uning huquqiy negizlarini yaratishga bog'liq⁷⁷.

Seleksiya yutuqlarini himoya qilish masalasi mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga ega. Buning eng asosiy sababi O'zbekistonning paxta-g'oz'a seleksiyasi bo'yicha jahonda eng oldingi o'rinlarda ekanligi bilan bog'liq⁷⁸. Respublikamizda g'oz'a

⁷⁷ Путь к рекордам в сельском хозяйстве. БВВ. №17. 1999.

⁷⁸ Эффект чистых линий. БВВ. №26 (286) 1999. -С.24.

seleksiyasi bo'yicha dunyoda noyob genetik fond mavjud. Sobiq Ittifoq davrida o'zbekistonlik olimlar yaratgan navlar nafaqat Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Ozarbayjonda balki Afg'oniston, Mozambik, Angola, Misr kabi davlatlarda ham ekilgan. Mashhur qorako'l teri qo'ylarining nasldor zotlari butun dunyoga O'zbekistondan tarqalgan. Hozirgi vaqtda Janubiy Afrika Respublikasi qorako'l yetishtirish bo'yicha dunyoda oldingi o'rinda turibdi. Biroq bu zotdor qorako'l qo'ylar suvtekinga birinchi marta O'zbekistondan olib kelingan edi. Agar o'z davrida seleksiya yutuqlari huquqiy muhofazasi yo'lga qo'yilganda O'zbekiston qorako'l qo'ylari zotlari yetishtirish bo'yicha dunyoda monopol holatga ega bo'lgan bo'lur edi. Bu esa davlatimizga valuta tushumlari uchun muhim manba bo'lgan bo'lur edi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, seleksiya yutuqlari eng qadimdan muhofaza ostiga olingan. Masalan, Xitoyda ipak qurti urug'i nihoyatda qattiq muhofaza qilingan. Hassasi ichidagi maxsus kovakka solib Xitoydan ipak qurti urug'ini yashirin ravishda olib chiqib dunyoga tarqatgan darvish haqida afsonalar real zaminga ega.

80-yillarning oxirida Avstraliyada jun uchun yetishtiriladigan qo'ylarning go'shtini insonparvarlik yordami tariqasida tekim SSSRga berish haqida masala ko'tarilgan edi. Mana shunda bu qo'ylarni tirik vaznda mamlakat tashqarisiga olib chiqish (ayniqsa nasldor sovlqlarni) Avstraliyaning seleksiya haqidagi qonunlari bilan ta'qiqlanishi haqida matbuotda xabarlar yozilgan edi.

Seleksiya yutuqlari (o'simliklarning yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlari) ilmiy-ijodiy faoliyat mahsuli bo'lib, intellektual mulk huquqi obyektlaridan hisoblanadi. Seleksiya yutuqlari yaratilishi fakti asosida emas, balki vakolatli davlat organi tomonidan maxsus huquqiy muhofaza hujjati – patent berilgan taqdirdagina, bu obyektlarga nisbatan huquqlar vujudga keladi va muhofaza qilinadi.

Seleksiya yutug'iga patent olish huquqini vujudga keltiradigan talablar hamda bunday patentni berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan «Seleksiya yutuqlari to'g'risida»gi Qonun (bundan keyin qonun deb yuritiladi) bilan belgilanadi.

Qonunning 7-moddasiga asosan, b¹asharti seleksiya yutug'i yangilik, farqlanish, bir xillik (o'xshashlik) va barqarorlik mezonlariga javob bersa, huquqiy jihatdan himoya qilinadi.

Seleksiya yutug'iga patent berish haqidagi talabnoma seleksiya-chi, ish beruvchi yoki uning huquqiy vorisi tomonidan Patent idorasiga topshiriladi. Seleksiya yutug'ining patentga layoqatlilik xususiyatlari davlat ekspertizasi – davlat sinovi orqali aniqlanadi. Seleksiya yutug'i himoyaga layoqatlilik belgilariga mos bo'lsa Patent idorasi seleksiya yutug'iga patent (guvohnoma) berish haqida qaror qabul qiladi, seleksiya yutug'i O'zbekiston Respublikasi seleksiya yutuqlari Davlat reyestriga kiritiladi.

Patent seleksiya yutug'ining yangilik ekanligini, farqlanishini, o'xshashligi va barqarorligini, shuningdek patent egasining yutug'i nomiga, unga egalik qilishga, uni tasarruf etish va undan foydalanishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi.

Patent egasining huquqlari seleksiya yutuqlari ro'yxatga olinganligi haqida Patent idorasining rasmiy bulletinida e'lon qilingan kundan e'tiboran amalda hisoblanadi.

Patentning amal qilish muddati 20 yil, toklar, daraxtlar, o'rmon o'simliklari va ularning payvand taglari uchun 25 yilni tashkil etadi, bu muddat patent egasining iltimosiga ko'ra yana o'n yilga uzaytirilishi mumkin.

Seleksiya yutug'iga berilgan patent egasining seleksiya yutug'idan foydalanish bo'yicha mutlaq huquqlari hajmi va mazmuni Qonunning 31-moddasida belgilab qo'yilgan. Bunga asosan patent egasi seleksiya yutug'idan o'z xohishiga ko'ra foydalanishga, boshqalarning foydalanishiga ruxsat berishga yoki foydalanishni ta'qiqlab qo'yishga haqli. Har qanday shaxs muhofaza qilinayotgan seleksiya yutug'ining urug'lik, ko'chat va nasl materialini:

- yetishtirish va ko'paytirish;
- ekinboplik konditsiyasiga yetkazish;
- sotish uchun taklif qilish;
- sotish va boshqa usulda realizatsiya qilish;
- O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish;
- O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish maqsadlarida saqlash uchun patent egasining ruxsatini olishi shart. Binobarin, yuqoridagi harakatlar patent egasi tomonidan erkin ravishda amalga oshiriladi.

Patent egasining huquqi uning ruxsatisiz xo'jalik oborotiga (muomalasiga) kiritilgan urug'lik yoki zotli hayvonlardan yetishtirilgan o'simlik materialini va chorva mahsulotlariga ham amal qiladi.

Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi Qonunning 2-moddasiga asosan boshqa davlatlarning yuridik shaxslari va fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, yuridik shaxslarga nisbatan ham seleksiya yutuqlari to'g'risidagi Qonun to'liq tatbiq etiladi. Binobarin, xorijiy subyektlar seleksiya obyektlarini O'zbekiston Respublikasining maxsus vakolatli idoralarida ro'yxatdan o'tkazdirishi lozim. Ayni paytda seleksiya yutuqlari o'ziga xos obyekt ekanini nazarda tutib, Qonun ularni seleksiya yutuqlari muhofaza qilinmaydigan mamlakatlarga olib chiqilishiga nisbatan muayyan ogohlantiruvchi choralarni belgilaydi. Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi Qonunning 33-moddasiga asosan himoya qilinayotgan nav yoki zotga doir har qanday material O'zbekiston Respublikasi hududida patent egasining o'zi tomonidan yoki uning roziligi bilan sotish orqali yoxud boshqa usulda realizatsiya qilish orqali yoink qayta ishlash, iste'mol maqsadlarida tegishli botanik yoki zoologik turdagi nav yoki zot himoya qilinmaydigan mamlakatga olib chiqish orqali muomalaga kiritilgandan keyin himoya qilinayotgan nav yoki zotning har qanday mahsulotiga doir xatti-harakatlarga nisbatan patent egasining huquqi amal qilmaydi. Biroq, basharti navni yoki zotni sotish va boshqa usullarda realizatsiya qilish ushbu nav yoki zotni ko'paytirishga qaratilgan bo'lsa, yoxud tegishli tur yoki xildagi nav yoki zot himoya qilinmay digan mamlakatlarga ko'paytirish maqsadida nav yoki zotni o'simlik yoxud nasl mahsulotini olib chiqib ketish bilan bog'liq bo'lsa, bu nav yoki zotlarga nisbatan yuqoridagi qoidalar qo'llanilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan urug'chilik to'g'risidagi Qonunning 9-moddasiga asosan o'simliklar urug'larini O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilishga quyidagi shartlarda yo'l qo'yiladi. Birinchidan ular davlat sinovidan o'tgan va O'zbekiston Respublikasi hududida ekishga tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari davlat reyestriga kiritilgan navning urug'i bo'lsa;

ularni import qilishga o'simliklar karantini bo'yicha davlat xizmatining ruxsatnomasi mavjud bo'lsa;

ularning navi va ekinboplik xususiyatiga sertifikat mavjud bo'lsa;

ularga eksport qilayotgan mamlakat fitosanitariya sertifikati berilgan bo'lsa;

ular seleksiya va tadqiqot ishlariga ko'rgazmaga qo'yishga mo'ljallangan bo'lsa.

Urug'liklarni eksport qilishga O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi yoki u vakolat bergan organning xulosasi mavjud bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi. Eksport qilinadigan urug'liklarga O'zbekiston Respublikasi o'simliklar karantini xizmati tomonidan beriladigan fitosanitariya sertifikatini ilova qilinadi.

O'zbekistonlik subyektlarga tegishli bo'lgan seleksiya yutuqlarini xorijiy mamlakatlarda huquqiy muhofaza etish o'sha mamlakatlarning milliy qonunchiligi asosida belgilanadi.

2-§. Nou-xou, tijorat sirlari va oshkor etilmagan axborotlarga bo'lgan huquqlar

Mamlakatimiz hududida xorijiy subyektlarning turli sirlarga, maxfiy ma'lumotlarga nisbatan huquqlari qanday muhofaza qilinishi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega.

Fuqarolarning axborotlarni izlash, topish va tarqatish huquqini amalga oshirish asoslari Konstitutsiyaning 29-moddasida belgilangan. Ikki xil turdagi axborotlarga nisbatan ma'lum istisnalar mavjud. Bu istisnalar:

a) amaldagi Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborotlar;

b) sir bo'lib hisoblangan ma'lumotlar bilan bog'liq.

Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborotlar mazmuni, turlari va xarakteri, eng avvalo, ma'muriy va jinoyat huquqi me'yorlari bilan belgilanadi va ular aynan qonunning bevosita mazmunidan kelib chiqib, keng ma'noda talqin etilishga yo'l qo'yilmaydi.

Sir bo'lib hisoblangan ma'lumotlar o'zining mazmuni, xarakteri bo'yicha turlicha huquqiy rejimga ega va shu sababli ham huquqning turli sohalarini bilan qo'riqlanadi. Amaldagi qonunlarga asosan sir bo'lib hisoblangan ma'lumotlar xarakteri jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

a) davlat sirlari – davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan qo'yilgan alohida ahamiyatli, mutlaq maxfiy va maxfiy-harbiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga ma'lumotlar. Davlat sirlari O'zbekiston Respublikasining mulki hisoblanadi.

Davlat sirlari o'z tarkibiga ko'ra davlat, harbiy va xizmat sirlariga bo'linadi. Davlat, harbiy va xizmat sirlari tushunchasi, ularning huquqiy rejimi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi «Davlat sirlarini saqlash haqida»gi qonuni bilan belgilanadi va bunday sirlarni oshkor qilganlik uchun javobgarlik tegishli qonunlarda nazarda tutiladi;

b) ma'lum faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq sirlar va shu kabilar kiradi. Odatda tijorat sirlari ham ular tarkibiga kiradi.

Ular tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar, xo'jalik subyektlari, shu jumladan yakka tartibda, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslarga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda tijorat sirlari notijorat tashkilotlarga ham tegishli bo'lishi istisno etilmaydi.

Umumiy qoidaga ko'ra tijorat siri deyilganda ma'lum subyekt (yuridik yoki jismoniy shaxs)ning ishlab chiqarish, texnologiya axboroti, boshqaruv, rejalashtirish, moliya va boshqa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hamda e'lon qilish (topshirish, ochilib qolishi) uning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar tushuniladi. Bank siri o'z mohiyatiga ko'ra tijorat sirlariga yaqin turadi (ba'zan u bevosita tijorat sirlari tarkibiga kirishi ham mumkin). Bunday sirlar banklarning o'z mijozlari va gumastalari (mijozlari)ning operatsiyalari, hisob raqamlari hamda omonat bo'yicha ma'lumotlar hisoblanib, ularning maxfiyligini saqlash majburiyati Qonunga asosan banklar zimmasiga yuklanadi.

Faoliyat yuritishda samaradorlikni ta'minlashga yordam beruvchi va egasi tomonidan uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydigan ilmiy-texnikaviy xarakterdagi boshqa ma'lumotlar (nou-xou) ham o'z huquqiy rejimi bo'yicha tijorat sirlari maqomiga ega bo'ladi;

d) shaxsiy sirlar. Bunday sirlar xususiy shaxslarga ham, yuridik shaxslarga ham tegishli bo'lishi mumkin, biroq ko'p hollarda bunday sirlar jismoniy shaxslar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Bunday sirlar o'z mohiyatiga ko'ra, turlicha bo'lishi mumkin, ularning ba'zilar bevosita qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

3. Sir bo'lib hisoblangan ma'lumotlar xarakteridan kelib chiqqan holda quyidagi sirlar fuqarolik-huquqi obyektini sifatida qaralishi mumkin:

tijorat sirlari, shu jumladan bank siri va ishlab chiqarish sirlari (nou-xou);

Urug'liklarni eksport qilishga O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi yoki u vakolat bergan organing xulosasi mavjud bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi. Eksport qilinadigan urug'liklarga O'zbekiston Respublikasi o'simliklar karantini xizmati tomonidan beriladigan fitosanitariya sertifikatini ilova qilinadi.

O'zbekistonlik subyektlarga tegishli bo'lgan seleksiya yutuqlarini xorijiy mamlakatlarda huquqiy muhofaza etish o'sha mamlakatlarning milliy qonunchiligi asosida belgilanadi.

2-§. Nou-xou, tijorat sirlari va oshkor etilmagan axborotlarga bo'lgan huquqlar

Mamlakatimiz hududida xorijiy subyektlarning turli sirlarga, maxfiy ma'lumotlarga nisbatan huquqlari qanday muhofaza qilinishi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega.

Fuqarolarning axborotlarni izlash, topish va tarqatish huquqini amalga oshirish asoslari Konstitutsiyaning 29-moddasida belgilangan. Ikki xil turdagi axborotlarga nisbatan ma'lum istisnolar mavjud. Bu istisnolar:

a) amaldagi Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborotlar;

b) sir bo'lib hisoblangan ma'lumotlar bilan bog'liq.

Konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborotlar mazmuni, turlari va xarakteri, eng avvalo, ma'muriy va jinoyat huquqi me'yorlari bilan belgilanadi va ular aynan qonunning bevosita mazmunidan kelib chiqib, keng ma'noda talqin etilishga yo'l qo'ymaydi.

Sir bo'lib hisoblangan ma'lumotlar o'zining mazmuni, xarakteri bo'yicha turlicha huquqiy rejimga ega va shu sababli ham huquqning turli sohalari bilan qo'riqlanadi. Amaldagi qonunlarga asosan sir bo'lib hisoblangan ma'lumotlar xarakteri jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

a) davlat sirlari – davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan qo'yilgan alohida ahamiyatli, mutlaq maxfiy va maxfiy-harbiy, siyosiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga ma'lumotlar. Davlat sirlari O'zbekiston Respublikasining mulki hisoblanadi.

Davlat sirlari o'z tarkibiga ko'ra davlat, harbiy va xizmat sirlariga bo'linadi. Davlat, harbiy va xizmat sirlari tushunchasi, ularning huquqiy rejimi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi «Davlat sirlarini saqlash haqida»gi qonuni bilan belgilanadi va bunday sirlarni oshkor qilganlik uchun javobgarlik tegishli qonunlarda nazarda tutiladi;

b) ma'lum faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq sirlar va shu kabilar kiradi. Odatda tijorat sirlari ham ular tarkibiga kiradi.

Ular tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar, xo'jalik subyektlari, shu jumladan yakka tartibda, yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslarga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda tijorat sirlari notijorat tashkilotlarga ham tegishli bo'lishi istisno etilmaydi.

Umumiy qoidaga ko'ra tijorat siri deyilganda ma'lum subyekt (yuridik yoki jismoniy shaxs)ning ishlab chiqarish, texnologiya axboroti, boshqaruv, rejalashtirish, moliya va boshqa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hamda e'lon qilish (topshirish, ochilib qolishi) uning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar tushuniladi. Bank siri o'z mohiyatiga ko'ra tijorat sirlariga yaqin turadi (ba'zan u bevosita tijorat sirlari tarkibiga kirishi ham mumkin). Bunday sirlar banklarning o'z mijozlari va gumashtalari (mijozlari)ning operatsiyalari, hisob raqamlari hamda omonat bo'yicha ma'lumotlar hisoblanib, ularning maxfiyligini saqlash majburiyati Qonunga asosan banklar zimmasiga yuklanadi.

Faoliyat yuritishda samaradorlikni ta'minlashga yordam beruvchi va egasi tomonidan uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydigan ilmiy-texnikaviy xarakterdagi boshqa ma'lumotlar (nou-xou) ham o'z huquqiy rejimi bo'yicha tijorat sirlari maqomiga ega bo'ladi;

d) shaxsiy sirlar. Bunday sirlar xususiy shaxslarga ham, yuridik shaxslarga ham tegishli bo'lishi mumkin, biroq ko'p hollarda bunday sirlar jismoniy shaxslar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Bunday sirlar o'z mohiyatiga ko'ra, turlicha bo'lishi mumkin, ularning ba'zilar bevosita qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

3. Sir bo'lib hisoblangan ma'lumotlar xarakteridan kelib chiqqan holda quyidagi sirlar fuqarolik-huquqi obyektini sifatida qaralishi mumkin:

tijorat sirlari, shu jumladan bank siri va ishlab chiqarish sirlari (nou-xou);

fuqarolarning shaxsiy sirlari (agarda ularni fuqarolik-huquqiy tartibda muhofaza qilish qonunda bevosita nazarda tutilgan bo'lsa)

sanoat mulki obyektlari mohiyatiga doir ma'lumotlar agarda bu ma'lumotlar obyektga huquqiy muhofaza yorlig'i berilmasdan turib uchinchi shaxslar tomonidan oshkor etilsa.

«Nou-xou» intellektual mulk obyekti sifatida mamlakatimiz huquqiy tizimi uchun yangi holatdir. Ma'lumki totalitar tuzum davrida ijod mahsullari, ayniqsa, fan va texnikaga oid samarali axborotlar umumxalq mulkining tarkibiy qismi edi va binobarin, bu jamiyatda alohida faoliyatga oid ma'lumotlar bo'lishi g'ayritabiiy edi. Shu sababli ham «nou-xou» huquqiy maqomi mamlakatimizda qay darajada mustahkamlab qo'yilganligini tadqiq etishdan oldin, uning umumiy tavsifnomasi uchun rivojlangan mamlakatlar qonunlarida qanday muhofaza mexanizmiga ega ekanligi bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Bozor tizimining barcha rivojlangan mamlakatlarida nafaqat ixtirolar, ayni vaqtda boshqacha texnik yechimlarga doir ma'lumotlar (axborotlar) ham huquqiy muhofaza bilan ta'minlanadi. Bu axborotlar inglizcha «to know to do it» (qanday qilishni bilmoq) so'zlarini qisqartmasa sifatida «nou-xou» nomini oldi.

Adabiyotlarda ko'pincha «bilim va tajriba» sifatida belgilanadigan «nou-xou»ga doir ma'lumotlarda nafaqat texnik yechimlar, balki tashkiliy va tijorat axborotlari ham bo'lishi mumkin. Bu holda ular ishlab chiqarishni va iqtisodiyotni, tijorat faoliyatini, moliyalashtirishni va shu kabilarni tashkil etish bilan bog'liq bo'lishi tabiiy. Biroq «nou-xou»ning katta qismini, asosiy tarkibini ishlab chiqarishda qo'llanishda samara beradigan foydali texnik va texnologiya ma'lumotlari tashkil etadi. Bu ma'lumotlar va qurilmalar, materiallar va shu kabilarni tayyorlash va foydalanish, ishlab chiqarish, qurilish usullarini qo'llash va h.k. sohalarda amalga oshiriladi.

«Nou-xou» sifatida baholanadigan ko'pgina texnik yechimlarda ixtiro belgilari mavjud va ular patentlanish layoqatiga ega, biroq ularning sohiblari ularning sir saqlanishi, maxfiy qolishidan manfaatdor ekanliklari sababli patentlamaydi, chunki ular patentlanadigan bo'lsa ishlanma «mohiyati, mazmuni» oshkor etilishiga olib keladi va binobarin muhofaza muddati o'tgach boshqa raqobatchilarning ham ulardan foydalanish imkoniyati vujudga keladi. Biroq «nou-xou»ning anchagina qismi patentlashga layoqatsiz yechimlar,

lekin bu ularning faoliyat yuritishdagi foydali xususiyatlarini aslo inkor etmaydi.

«Nou-xou» sifatida tan olinadigan axborot odatda maxfiy xarakterga ega ishlab chiqarish sirlari hisoblanadi va ular egalari tomonidan uchinchi shaxslarga oshkor etilmaydi. «Nou-xou»ning uchinchi shaxslardan maxfiy saqlanadigan axborot sifatidagi tijorat qiymati uning sohibi uning orqasidan ishlab chiqarishda va bozordagi raqobatda ega bo'ladigan texnik-iqtisodiy afzalliklarda namoyon bo'ladi. Ayrim hollarda nomuayyan doiradagi kishilar tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan, binobarin maxfiy bo'lmagan texnik va boshqacha axborotlar ham «nou xou» bo'lishi mumkin. Bu holda uning tijorat qiymati eng avvalo uning sohibi tomonidan texnik va texnologik hujjatlar shakliga solingani va boshqa qabul qiluvchi tomon foydalanishi uchun tayyorlab qo'yilganida ifodalanadi. Shartnomalar amaliyotida «nou-xou» bitim obyeksi sifatida to'liq yoki qisman ishlab chiqarish sirlari hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning barchasidagi huquq tizimlarida (qit'a-kontinental huquq tizimida ham, umumiy huquq tizimida ham) «nou-xou»ni sanoat va tijorat sohalarida qo'llashda uning maxfiyligini (konfidensialligini) ta'minlash uchun tegishli choratadbirlar ko'rilishini talab qiladi. Shu sababli ham «nou-xou»ni o'tkazish (berish) haqidagi shartnomaga har doim qabul qiluvchi taraf tomonidan axborotdan sir saqlangan holda (konfidensial holda) foydalanish haqida maxsus shartlar kiritiladi.

«Nou-xou»ni huquqiy muhofaza qilish qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq bu xususiyatlar axborot sohibining huquq va manfaatlarini himoya qilishni ancha murakkablashtiradi va shu sababli ham huquqiy muhofaza samaradorligini jiddiy ravishda kamaytiradi.

«Nou-xou» bo'lib hisoblanadigan texnik yechimlar davlat ro'yxatidan o'tkazish obyeksi bo'lib hisoblanmaydi, u yoki bu maxsus muhofaza yorlig'i, masalan, patent asosida himoya qilinmaydi. «Nou-xou»ning patentlanmagan axborot tariqasidagi xarakteri «nou-xou»ning muhofaza obyeksi sifatidagi mazmunini aniqlashda qiyinchilikni vujudga keltiradi. Ushbu holatdan axborotni o'tkazish shartnoma matnida shartnoma predmeti haqida nizolar paydo bo'lmasligi uchun «nou-xou»ga aniq va to'liq ta'rif berishni talab etadi.

Rivojlangan mamlakatlarda «nou-xou» mutlaq huquq obyektini bo'lib hisoblanmaydi⁷⁹. Har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs, agarda o'z kuchi bilan o'zi mustaqil ravishda ishlab chiqqan yoki insofli ravishda boshqa shaxslardan olgan bo'lsa, «nou-xou»ning sohibi bo'lishi mumkin. Ikki yoki undan ortiq mualliflar (ishlab chiqaruvchilar) bir vaqtning o'zida, aynan bir xil bo'lgan «nou-xou»ga nisbatan teng, qonuniy asoslarda egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishlari mumkin. Ilmiy-texnikaviy ishlar doirasi haddan tashqari kengaygan va intensivlashgan sharoitlarda ilmiy-texnik taraqqiyot miqyoslari shu darajaga borib yetdiki ikki yoki bir necha firma bir-biridan xabarsiz va mustaqil ravishda aynan o'xshash (identik) texnik yechimlar yaratish hollari odatdagi holga aylanmoqda. Bunday «nou-xou»larning har bir insofli egasining undan hech qanday cheklashsiz foydalanish imkoniyati ta'minlanadi va ishlab chiqarish siri sifatida uning huquqiy muhofazasiga ega bo'ladi.

Hech bir mamlakatda «nou-xou»ni muhofaza qilish bo'yicha maxsus me'yoriy hujjatlar qabul qilinmagan: uning huquqiy himoyasi har doim fuqarolik va (yoki) jinoyat huquqi umumiy qoidalari (me'yorlari) asosida amalga oshiriladi.

Bu me'yorlar (normalar) qonun yoki shartnomadan kelib chiquvchi o'z majburiyatlarini buzgan shaxslarga nisbatan qo'llanadi. Agarda shartnoma bo'yicha «nou-xou»ni olgan shaxs axborotlardan ularning maxfiylikini (konfidentsialligini) saqlagan holda foydalanish haqidagi shartnoma shartlarini buzsa, «nou-xou» egasi o'z huquqi va manfaatlarini shartnomalar (majburiyat) huquqi umumiy qoidalari, zararlarni to'lash haqidagi me'yorlariga tayanib, asosan himoya qiladi. Mana shunday kontragentlarga nisbatan, shuningdek «nou-xou» egasi o'z huquqi va manfaatlarini shartnomalar (majburiyat) huquqi umumiy qoidalari, jumladan, zararlarni to'lash haqidagi me'yorlarga asosan himoya qiladi. Mana shunday kontragentlarga nisbatan, shuningdek «nou-xou»ni kontragentlardan insofsiz ravishda olgan shaxslarga nisbatan g'irrom raqobatga qarshi kurash haqidagi me'yorlar qo'llaniladi, nihoyat, axborotlarni o'g'irlab olgan (sanoat josusligi) shaxslarga nisbatan va ishlab chiqarish sirlarini oshkor qilgan xizmatchilarga nisbatan jinoyat huquqi me'yorlari ham qo'llanishi mumkin.

⁷⁹ Гражданское и торговое право капиталистических государств. Международные отношения. 1994. – С.495.

Xorijiy yuridik adabiyotlarda shartnomaviy munosabatlarda «nou-xou» sohibi huquqlarini muhofaza qilish yetarli darajada samarali emasligi, ba'zan uning xatto zaifligi qayd etib o'tiladi. Bu vaziyat shu bilan izohlanadiki, «nou-xou»ni uchinchi shaxs yoki shaxslar tomonidan foydalaniganlik faktini aniqlashning o'zi shartnoma bo'yicha kontragent (taraf)ni javobgarligi haqidagi masalani qo'yish uchun yetarli emas, bunda kontragent tomonidan olingan ma'lumotlarning maxfiylikni saqlagan holda foydalanish haqidagi shartnoma shartlarini buzib, axborotlarni uchinchi shaxslarga g'ayriqonuniy ravishda berganligi fakti ham isbotlab berilishi lozim. Bu esa o'ta murakkab, ba'zan esa, xatto, mumkin bo'lmagan holat, chunki «nou-xou»ni beruvchi tomon kontragentni ishlab chiqarish va tijorat aloqalari ustidan to'liq nazorat qilish imkoniyatiga ega emas, bundan tashqari u axborotlarni olishda gumon qilinayotgan uchinchi shaxs ishlab chiqarish va faoliyatining boshqa sohalari bilan tanishishga ruxsat olishi ham amalda mumkin emas (tanishuv uchun yopiq bo'lgan korxonalarni inspeksiyaviy tekshirish, ko'zdan kechirish uchun sudlarning ruxsat berish hollari kamdan-kam uchraydi).

Shu sababli ham adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganiday, ma'lumotlarni qabul qiluvchi taraf tomonidan «nou-xou»dan uning maxfiylikni saqlagan holda foydalanish to'g'risida shartnoma shartlariga rioya etilishining real garantiyasi bo'lib, amalda kontragentlarni o'zaro munosabatlarida bir-biriga bo'lgan ishonchi va axborot oluvchining o'z shartnoma majburiyatlarini qat'iy bajarilishidan xo'jalik va tijorat manfaatdorligi hisoblanadi va bu holat deyarli o'zgarmasdan kelmoqda. «Nou-xou»ni huquqiy muhofaza qilish mexanizmini huquqshunos olimlar tomonidan takomillashtirish ustida jiddiy, samarali vositalar ishlab chiqilmasligi sabablaridan biri «nou-xou»ga munosabat masalasi bilan bog'liq. Ko'pchilik huquqshunos olimlar garchi «nou-xou» mavjudligiga qarshi bo'lmasalarda, biroq unga salbiy qaraydilar. «Nou-xou» inson intellektual faoliyati samaralariga nisbatan xudbinlik, egoizm bilan munosabatda bo'lishning o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi degan qarashlar mavjud. Haqiqatdan ham patent huquqi obyektlari oshkora, ommaviy e'lon qilinadi, ularning mazmuni sir saqlanmaydi va huquqiy muhofaza yorlig'i muddati o'tgach u umuminsoniyat boyligi hisoblanadi. Umuminsoniy boylikka aylangan ilmiy-texnikaviy yutuqlar (yechimlar)dan barcha hech qanday cheklashsiz va ruxsat

olmasdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat ayniqsa ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega, chunki har qanday tadqiqotchi o'zidan ilgari o'tgan o'tmish tadqiqotchilarining g'oyalari, yechimlari, asarlari asosida yangi g'oyalar, yechimlar vujudga keltiradi. Boshqacha aytganda ilmiy-intellektual faoliyatning hech qanday natijasi o'z-o'zidan, quruq yerda vujudga kelmaydi, balki jamiyatdagi mavjud bilimlarni o'zlashtirish natijasida, ularning negizida va ularning hosilasi sifatida paydo bo'ladi. Xuddi shu sababli ham ilmiy-ijodiy faoliyat natijalari insoniyatning ilk davrlaridanoq «nou-xou» kabi maxfiy saqlanish tartibi hukmronlik qiladigan bo'lsa, insoniyat hali ham tosh asrida yashar edi, qabilidagi kinoyalarda jon bor. Biroq shunga qaramay, ilmiy intellektual faoliyat ishtirokchilarining bir qismi o'z faoliyati natijalarini oshkor qilmay maxfiy saqlashni va ulardan faqat o'zlarini yoki tor doiradagi shaxslargina foydalanishini xohlar ekanlar, bu ularni ijodkor, muallif sifatidagi qonuniy huquqi.

AQSH qonunlarida tijorat sirlarini, loyihalarini va tijorat ishlariga oid boshqa muhim ma'lumotlarni g'ayriqonuniy o'zlashtirib olish uchun huquqiy javobgarlik mavjud. Bunda huquqiy muhofaza obyekti bo'lib huquq sohibining:

a) yangi original g'oyalari;

b) yangi tovarlarning shakli, uslubi va tashqi ko'rinishiga yoki ularni o'rash, toylash (upakovka, markirovka)ga;

d) tijorat sirlariga va loyihalariga hamda tijorat ishlariga tegishli boshqa muhim ma'lumotlarga bo'lgan huquqini o'zboshimchalik bilan, g'ayriqonuniy ravishda o'zlashtirib yuborish tushuniladi.

AQSHning ko'pgina qonunlarida (AQSH namunaviy savdo kodeksi va shtatlarning qonunlari nazarda tutilayapti) berilgan tijorat siriga ta'rif «nou-xou»ning deyarli ko'p belgilarini o'z ichiga oladi. Biroq tijorat sirlari o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra kengroq va g'oya hamda ma'no jihatdan sig'imdor tushunchadir. Bu tushuncha tarkibiga mijozlarning ro'yxatini, chizmalar, tijorat hisob-kitoblari, narxnomalar (baho va qiymatlarni hisoblab chiqish, belgilar metodikasi, kashfiyotlar mazmuniga doir ma'lumotlar, turli ilmiy-texnikaviy formulalar va hokazolarni) o'z ichiga oladi. Tijorat siri boshqa shaxslarning g'ayriqonuniy ravishda uni o'zlashtirib olinishidan muhofaza qilinadi⁸⁰.

⁸⁰ J.Ruziyev. AQShda tadbirkorlik: ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy masalalar. -T.: Fan. 1991-y. 149-bet.

Biroq tijorat siriga nisbatan huquqiy muhofazani qo'llash uchun quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida qat'iy ravishda bo'lishi yoxud ularga amal qilinishi lozim:

a) tijorat siri uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lmasligi va uning oldini olish chora-tadbirlari ko'rilgan bo'lishi;

b) sir saqlanayotgan mazkur ma'lumotlar uning sohibiga boshqa raqobatchilar yoxud iste'molchilar oldida qandaydir imtiyoz, ustunlik, afzallik berishi lozim;

c) ushbu ma'lumotlar mazkur tijorat korxonasidan tashqari keng tarqamagan, boshqalar tomonidan ochiq va insofli asoslarda foydalanilmayotgan bo'lishi lozim;

d) uchinchi shaxslar bu ma'lumotlarni qonuniy asoslarga ko'ra olish imkoniyati mavjud bo'lmasligi kerak.

Yuqoridagi shartlar mavjud bo'lgan holda boshqa biron kimsa g'ayriqonuniy yo'l bilan tijorat siridan foydalangan bo'lsa, tijorat siri egasi yoki boshqacha qonuniy asoslarda uni egallab va foydalanib turgan shaxs quyidagi huquqlarga ega:

a) tijorat siridan g'ayriqonuniy foydalangan shaxsga nisbatan da'vo bilan sudga murojaat qilish;

b) o'zida sir hisoblangan ma'lumotlarni aks ettiruvchi ilmiy-texnikaviy va boshqa hujjatlarni, moddiy-ashyoviy shakldagi vositalarni qaytarib olish yoxud yo'q qilib tashlashni talab qilish;

c) tijorat siridan g'ayriqonuniy foydalanganlik natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni yo'q qilib tashlanishi yoxud o'ziga berilishini talab qilish;

d) tijorat siridan g'ayriqonuniy foydalanganlik oqibatida uning sohibiga yetkazilgan amaldagi real zararlarning o'rni qoplanishini;

e) tijorat sirining boshqalar tomonidan g'ayriqonuniy o'zlashtirilishi yoxud oshkor qilinishi sababli tijorat siri sohibi kelajakda olishi mumkin bo'lgan, biroq olinmay qolgan yoki olinish imkoniyatlari barbod bo'lgan, yo'qqa chiqqan foyda (daromad)larni undirishni talab qilish.

Bu tartib AQSH sudi amaliyotida mavjud qoidalar hisoblanadi⁸¹. Biroq qonun tijorat sirlari egasining huquqlarini qat'i va so'zsiz huquqiy muhofaza qilishni shart qilib qo'ymaydi. Huquqiy muhofaza bilan ta'minlash haqidagi me'yorlar ko'p hollarda imperativ emas, balki dispozitiv xarakterga ega. Masalan Qo'shma shtatlar qonunlarida belgilab qo'yiladiki, agar biron-bir shaxs boshqa

⁸¹ Hoy-xoy в США. М.Экспресс. 1987. -С.14.

firmaning tijorat ishlariga doir muhim ma'lumotlarini atayin o'zlashtirib olsa va bu ma'lumotlar patent yoki mualliflik huquqi bilan muhofaza qilinmagan bo'lsa, sud muallifning yoki mazkur ma'lumotlar egasining manfaatlarini himoya qilib qaror qabul qilishi mumkin. Bu me'yorning mazmunidan ko'rinib turibdiki, tijorat siri sohibini huquqiy muhofaza qilish haqidagi talabini sud inobatga olishi ham, olmasligi ham mumkin. Biroq barcha tijorat sirlarini huquqiy muhofazasi dispozitiv xarakteri bilan belgilanganiga qaramay, AQSH sudlov tizimida uni qat'iy amalga oshirilishini ta'minlovchi mexanizm ishlab chiqilgani va uning ishlab turganligini qayd etish lozim. AQSHda tijorat sirlari va «nou-xou»ning keng tarqalganligi sabablaridan yana biri, sir sohibi huquqlarini muhofaza qilish mexanizmining mukammalligidagina emas (bizga ma'lumki bu mexanizm ham qator zaifliklar mavjud), balki eng assosiysi sir saqlanayotgan yoki sir hisoblanadigan ma'lumotlarning oshkor etilmasligini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rilganligidadir. Ma'lumki tijorat siri yoki «nou-xou»dan nafaqat uning sohibi (xususiy korxonalar yoki yuridik shaxs), balki ko'proq korxonalarining boshqa xodimlari ham xabardor bo'lishadi. ko'p hollarda bu sirlardan ana shu xodimlar ishlab chiqarish, texnologik jarayonlar, sozlash, ta'mirlash va boshqa bosqichlarda foydalanishadi, bevosita amaliyotda qo'llashadi.

Bu xodimlar tomonidan tijorat sirlari va «nou-xou»ga rioya qilish ular bilan tuzilgan va o'zida fuqarolik-huquqiy ba'zi elementlarni mujassamlantiruvchi mehnat bitimi shartlarida pisanda qilib qo'yiladi.

Albatta xodim ish jarayonida sirlarga qat'iy rioya qiladi. Bunda unga ta'sir qiluvchi o'ziga xos omillar bo'lib, ishsiz qolishdan qo'rqish va boshqa turli axloqiy tuyg'ular bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki xodim pensiyaga chiqishi, boshqa sohalarga ishga o'tib ketishi hollarida ham tijorat sirlari va «nou-xou»ga qat'iy rioya qiladi, holbuki bu holatda uni tiyib turuvchi moddiy qaramlik, bog'liqlik omillari ancha zaiflashgan yoxud deyarli ta'sir kuchini yo'qotgan bo'ladi. Biroq shunga qaramay tijorat sirlari yoki «nou-xou»ni oshkor qilish hollari (korxonalar xodimlari yoki sobiq xodimlari tomonidan) deyarli kam uchraydi.

Biz yuqorida «nou-xou» sobiq sotsialistik huquq tizimida muhofaza obyektiga sifatida mavqega ega bo'lmaganligini ko'rsatib o'tgan va buning sababini izohlab o'tgan edik. Garchi mamlakati-

mizda o'tmishda fuqarolik ichki muomalasi (oborotida) «nou-xou» ma'lum bo'lmasa ham tashqi fuqarolik muomalasida u yoki bu darajada ma'lum edi. Odatda sotsialistik huquq tizimida «nou-xou»ning legal tushunchasi mavjud emas edi. Biroq shunga qaramay ilmiy-ommabop adabiyotlarda unga doktrinal ta'riflar mavjud bo'lib, asosan xorijiy manbalardan olingan mezonlar asosida ishlab chiqilgan edi. Xuddi shunday ta'riflardan birida «nou-xou» tushunchasi shunday belgilanadi:

«Nou-xou» deyilganda chet ellarda (xorijda) huquqiy muhofaza-ga ega bo'lmagan, umumxabardor (hammaga ma'lum) bo'lmagan, ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatida amalda qo'llanishi mumkin bo'lgan turli tuman texnikaviy bilim va tajriba tushuniladi. U o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

– u yoki bu obyektlarni yoxud buyumlarni, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik, sozlashishga tushirish va shu kabi ishlarni loyihalashtirish, hisob-kitob qilish, qurish va tayyorlash uchun zarur bo'lgan usullar, vositalar, mahorat va tajriba yo'llari;

– texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va foydalanish;

– materiallar, moddalar, aralashmalar, qotishmalar tarkibi va retseptlari haqidagi ma'lumotlar;

– da'volash vositalari va usullari;

– foydali qazilmalarni qidirish va qazib olish vositalari va usullari;

– ma'muriy, iqtisodiy, moliyaviy va boshqacha tartibdagi tajriba va bitimlar⁸².

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari huquqiy asoslarini barpo etish munosabati bilan «nou-xou» ham qoidalarda alohida e'tibor berildi. Ayni vaqtda u qonunlarda ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ldi: tijorat siri va «nou-xou» ko'rinishida. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan va 2000-yilgacha amal qilgan Korxonalar haqidagi qonun-ning 34-moddasida korxonaning tijorat siri legal tushunchasi mustahkamlab qo'yildi. Unga asosan korxonaning tijorat siri deganda korxonalar ishlab chiqarishi, texnologiya axboroti, boshqaruvi, rejalashtirish, moliyasi va boshqa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hamda e'lon qilish (topshirish, oshkor qilishi), uning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, davlat siri bo'lmagan ma'lumotlar tushuniladi. Ushbu qonun tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar

⁸² Безносос Н.В. Справочник изобретателя и рационализатора. –М.: Проф.издат. 1983. –С.216.

tarkibi va hajmi, ularni himoya qilish tartibini belgilashni korxonalar rahbari zimmasiga yukladi. Shu bilan birga ushbu qonunda tijorat siri niqobi ostida har xil siri ostidagi molliklar, o'z boshimchaliklar va qonunbuzarliklar sodir etilishi mumkinligi nazarda tutilib, bu borada o'ziga xos huquqiy to'siqlar belgilandi. Xuddi shu maqsadlarda qonun korxonalar atrof-muhitni ifloslantirayotganligi yoki jamiyatga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa salbiy faoliyatlar haqidagi ma'lumotlarni yashirishining oldini olish uchun korxonaning tijorat siri bo'lib hisoblanmaydigan ma'lumotlar doirasi va turlari davlat statistikasi haqidagi qonun asosida belgilanadi.

Korxonalar haqidagi qonunda ilk bor korxonaning tijorat siri bo'lgan ma'lumotlarni e'lon qilganlik (oshkor qilganlik) uchungina emas, balki korxonaning tijorat siri hisoblangan ma'lumotlarni saqlash tartibini buzganlik uchun ham javobgarlik belgilanishi lozimligini nazarda tutdi.

Tijorat sirlariga doir qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan «tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida»gi qonun orqali ham belgilandi. Ushbu qonunning 3-moddasida g'irrom (noinsof) raqobat tushunchasi o'z ifodasini topdi. Qonunning 8-moddasida uning tarkibiy qismi sifatida «ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, savdo va boshqa sohaga oid maxfiy axborotni egasining roziligi olish, undan foydalanish va uni oshkor qilish yuridik shaxsning intellektual faoliyati natijalaridan va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalaridan, mahsulotni, xizmatlar bajarishni individuallashtirish vositalaridan qonunsiz foydalanib tovar sotishi ko'rsatildi.

G'irrom raqobat harakatlarini sodir etish orqali tijorat sirlari, shu jumladan «nou-xou» bo'yicha maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilgan shaxsdan buning natijasida yetkazilgan barcha zararlarni undirishga haqli. Agar zarar mavjud bo'lmasa yoxud uning miqdorini ochiq belgilashning imkoni bo'lmasa, u holda huquqbuzarlik harakatlarini sodir etgan shaxsdan o'z foydasiga tovon haqi undirish haqida da'vo qilishga haqli.

Ma'lumki «nou-xou» (tijorat sirlari) sohibi bu ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash uchun tegishli choralarni ko'rishni uni huquqiy muhofaza qilishning zarur sharti hisoblanadi. Biroq amalda uni ta'minlash ancha mushkul va uning huquqiy mexanizmi ham mukammal emas. Ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini amalga

oshirishning hozirgi zamondagi xususiyatlari shundaki, «nou-xou» sohibi istaydimi yoki yo'qmi u sir hisoblangan ma'lumotlarni boshqalar bilan baham ko'rishga majbur.

«Nou-xou» sohibini bu ma'lumotlarni boshqalarga bildirish asoslari o'zining xarakteriga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

1) «nou-xou»dan foydalanish uchun ma'lumotlarni boshqalarga oshkor qilish zarurati;

a) o'ziga xizmat bo'yicha tobe bo'lgan shaxslarga ma'lumotlarni bildirish;

b) litsenziya shartnomasi asosida bu ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berilishi;

2) «nou-xou» sohibi faoliyatini nazorat qiluvchi davlatning vakolatli organlariga qonunda ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lganida ma'lumotlarni bildirish majburiyati.

«Nou-xou»dan foydalanish jarayonida ma'lumotlarni uning sohibi tomonidan obyektiv zarurat tufayli boshqalarga oshkor etish «nou-xou»ning maxfiyligini uchinchi shaxslardan ta'minlash uchun tegishli choralarni ko'rishi majburiyatiga zid hisoblanmaydi. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, zamonaviy ishlab chiqarish va tijorat faoliyati ko'p hollarda faqat yakka shaxs «nou-xou» (tijorat sirlari sohibi) tomonidangina amalga oshirilishi mumkin emas. Nou-xou egasi bu sirlardan foydalanish uchun uni boshqalarga bildirishga obyektiv jihatdan majbur bo'ladi, aks holda ma'lumotlardan samarali foydalanishni iloji bo'lmaydi. «Nou-xou» egasi bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt bu ma'lumotlarni o'z korxonasi (tashkiloti)da ishlovchi xodimlarga bildirishga haqlidir. Biroq buning uchun qator shartlar mavjud bo'lishi shart:

a) ma'lumotlar bildirilayotgan xodim bilan «nou-xou» sohibi o'rtasida maxsus shartnoma tuzilishi va bu shartnomada xodimga ma'lumotlarni uchinchi shaxslardan sir saqlash majburiyati yuklanishi va bu majburiyatni buzgan taqdirda moddiy javobgarlik haqida ogohlantirilgan bo'lishi lozim;

b) xodimning mehnat munosabatlarini amalga oshirish «nou-xou» ma'lumotlaridan xabardor bo'lgan taqdirdagina samarali bo'lishi yoki ijro etilishi shart bo'lishi kerak.

Tijorat sirlarining «nou-xou»ning maxfiyligini saqlash haqidagi sharti umumiy qoidaga ko'ra mehnat shartnomasining zarur shartlaridan hisoblanadi. To'g'ri, Mehnat kodeksining mehnat mazmunini belgilovchi 73-moddasida bevosita bu holat o'z ifodasini

topmagan. Biroq ushbu Kodeksning 202-moddasi 1-qismi, 6-bandi tijorat sirlari oshkor etilganda xodimga to'liq moddiy javobgarlik majburiyati yuklanishi ko'zda tutiladi. Biroq o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar tijorat sirlarini oshkor etganlik uchun yetkazilgan zarar miqdorida to'liq javobgar bo'lmasdan balki cheklangan miqdorda, ya'ni Mehnat kodeksining 201-modda 1-qismiga asosan o'zining o'rtacha ish haqining uch oylik hajmida javobgar bo'ladi. Biroq o'n sakkiz yoshga yetmagan xodim tijorat sirlarini qasddan, atayin, bila turib (masalan, g'araz maqsadlarda, ya'ni «nou-xou» egasiga zarar yetkazilishi yoxud biror moddiy yoki boshqacha shakldagi manfaatni ko'zlab) oshkor etgan hollarda, unga to'liq moddiy javobgarlik yuklanishi mumkin. Ammo o'n sakkiz yoshga to'lmagan xodim ehtiyotsizlik orqasida (masalan, g'o'rligi, tajribasizligi, aldanishi) tijorat sirlarini oshkor etsa, u holda u to'liq moddiy javobgar bo'lmaydi.

Mehnat qonunlari kodeksi mazmunidan anglashinishicha tijorat sirlarini oshkor etganlik uchun xodim bu haqda u bilan «nou-xou» egasi o'rtasida maxsus shartnoma mavjudligidan qat'i nazar javobgar bo'ladi. Fikrimizcha, imkon bo'lgan hollarda bunday maxsus shartnoma mavjud bo'lishi maqsadga muvofiq. Biroq har qanday holatda ham ish beruvchi sohib («nou-xou» egasi) xodimni o'z xizmat vazifasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxfiy hisoblangan ma'lumotlarni bildirayotganda ularni sir saqlash va oshkor qilmaslik haqida yozma ogohlantirib, bu haqda tilxat olishi lozim.

«Nou-xou» egasi tomonidan xizmat vazifasini bajarish uchun sir hisoblangan ma'lumotlarni o'ziga tobe xodimlarga bildirish va litsenziya shartnomasi asosida «nou-xou» konfidensiallik sirini saqlash sharti bilan tegishli tarafga berishda «nou-xou» egasi birinchi galda sir mazmunidan xabardor qilinayotgan shaxslarning ishonchga sazovorligidan kelib chiqishi kerak. Shu sababli ham bunday xabardor qilishni o'ziga xos fidutsiar (ishonchga asoslangan) bitim tarzida qarash mumkin.

«Nou-xou»(tijorat sirlari)ning huquqiy muhofaza shartini buzmaydigan oshkor qiluvchi holatlardan yana biri sir hisoblangan ma'lumotlarni «nou-xou» egasining faoliyatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlariga ularning talabi bo'yicha bildirish hisoblanadi. «Nou-xou» mazmunidan xabardor qilishni talab qilish huquqiga ega bo'lgan davlat organlari doirasi qat'iy chegaralangan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1) «nou-xou» egasi bo'lgan xo'jalik faoliyatini nazorat qiluvchi organlar (soliq inspeksiyalari, moliya-statistika idoralari, yong'indan muhofaza qilish, sanitariya-epidemiologiya, veterinariya, metrologiya-standartlashtirish xizmati va h.k.).

2) huquqni muhofaza qilish organlari.

Biroq bu organlar o'z xohishiga ko'ra «nou-xou» egasidan sir saqlangan ma'lumotlarni o'zlariga oshkor etilishini talab etishga haqli emaslar. Buning uchun eng avvalo ularning o'z vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq asoslari mavjud bo'lishi lozim. Masalan, ishlab chiqarish-texnologik jarayonlarda qo'llaniladigan texnik yechim xarakteridagi «nou-xou»ni oshkor etishni talab etish moliya-soliq organlari vakolati doirasiga kirmaydi. Ular «nou-xou»egasi faoliyatining moliyaviy jihatlar bilan bog'liq sir hisoblangan ma'lumotlariga, shunda ham bunga zaruratni asoslantirib bergan holdagina oshkor etilishini talab qilishga haqlidirlar. Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari, masalan «nou-xou» asosida ishlab chiqariladigan mahsulot tegishli talablarga javob berishi bilan bog'liq ravishda va zarurat taqozosi ekanligini asoslab bergan hollardagina «nou-xou» bilan tanishish imkoniyatini berish haqidagi ularni talabi qanoatlantirilishi mumkin. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar (sud, prokuratura, ichki ishlar, milliy xavfsizlik xizmati) ham agarda «nou-xou» ular tomonidan amalga oshirilgan funksiyalarga bevosita daxldor bo'lsagina «nou-xou»dan xabardor qilinadilar. Nou-xoudan xabardor qilishni talab etish huquqiga nodavlat tuzilmalari haqli emaslar. Biroq ular o'z faoliyatini amalga oshirishda bunga zarurat vujudga kelsa, bunda «nou-xou» egasi ularning iltimosini qanoatlantirishi mumkin. Masalan, tashkiliy, moliyaviy xarakterdagi «nou-xou» uning sohibi faoliyatini tekshirishga jalb etilgan auditorlik xizmati xodimlariga oshkor qilinishi mumkin.

O'zlariga yuklangan xizmat vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq ravishda «nou-xou» mazmunidan xabardor bo'lgan vakolatli davlat organlarining xodimlari zimmasiga qonun bu ma'lumotlarni uchinchi shaxsga oshkor qilmaslik majburiyatini yuklaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan Davlat statistikasi haqidagi qonunning (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil 9-son 327-modda) 12-moddasi 2-qismida «jismoniy shaxslar to'g'risida to'plangan ma'lumotlardan faqatgina aniq shaxslar

ko'rsatilmagan holda yoki jamlama ma'lumotlar tarzida foydalanishi, yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlardan esa davlat va tijorat sirlarini saqlagan holda foydalanish mumkin» deyilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil tasdiqlangan «Xususiy tadbirkorlik haqida»gi Nizomda ham xususiy korxonalar faoliyatini nazorat qiluvchi organlar o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida o'zlariga ma'lum qilingan tijorat sirlarini oshkor etmaslik, ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashga rioya qilish majburiyati ko'rsatib o'tiladi.

Ilmiy adabiyotlarda ishlab chiqarish yoki tijorat sirlaridan foydalanish jarayoni uchinchi shaxslarga bu sirlar mazmuni haqida yetarli va ishonchga sazovor bilimlar olish imkoniyatini bermasligi lozim deb ko'rsatiladi. Agar bu shart buzilsa «nou-xou» huquqiy muhofaza qilinmaydi degan qarashlar ham «nou-xou»ga nisbatan faktik monopoliya holatiga to'la muvofiq emas. Faktik monopol holat – bu real holat. Biroq shaxs «nou-xou»dan yuz yil davomida ochiq-oshkora foydalanishi, tevarak-atrofdagilar esa «nou-xou» sirlarini payqamasliklari mumkin.

«Nou-xou» bo'yicha tadqiqotlar keyingi yillarda «nou-xou»ning huquqiy muhofaza mexanizmini shakllantirish ishlariga turtki bo'ldi. Biroq bu mexanizm hali uzil-kesil shakllangan emas. Uning asosiy sababi «nou-xou» (tijorat sirlari) tushunchalari o'rtasidagi nisbat aniq belgilab berilmaganidir. «Nou-xou» tijorat sirlarining tarkibiy qismi sifatida muhofaza qilinishi kerakmi yoki huquqiy muhofazaning mustaqil obyektimi degan masala hal qilib berilmagan. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida bu masala muhim prinsipial ahamiyatga ega. Agar «nou-xou»ni intellektual obyekt sifatida qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini nazarda tutsak, u holda uni tijorat sirlari sifatida muhofaza qilish har doim ham maqsadga muvofiq bo'lavermasligi ayon bo'ladi. Ma'lumki «nou-xou» ko'p hollarda umumiy hissali mulk tarkibiga «nou-xou» egasining ulushi sifatida kiritiladi. Bu holat ayniqsa «nou-xou» xorijiy investitsiya (sarmoya) sifatida mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kelishida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli ham «nou-xou»ning ilk bor intellektual mulkning tarkibiy qismi sifatida tan olinganligi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonunida o'z ifodasini topganligi tushunarli bo'ladi.

1998-yil 30-aprelda qabul qilingan Chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonunning 3-moddasida ham intellektual mulk investitsiya obyekti sifatida nazarda tutildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi 1998-yil 5-6-son, 91-modda).

Ishlab chiqarish va tijorat sirlari hisoblangan ma'lumotlar egasi quyidagi shartlar mavjud bo'lganda bu ma'lumotlardan uchinchi shaxslarning, g'ayriqonuniy foydalanishidan himoya huquqiga ega bo'lishi mumkin:

1)bu ma'lumotlar uchinchi shaxslar uchun noma'lum bo'lgani tufayli amalda yoki kelajakda tijorat ahamiyatiga ega;

2)bu ma'lumotlarni qonuniy asoslarda erkin ravishda olish va tanishish imkoniyatlari mavjud emas;

3)bu ma'lumotlar obyektiv jihatdan o'z ifodasiga, belgilariga ega va bu ma'lumotlar egasi uning konfidensialligi maxfiyligini ta'minlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rgan bo'lishi lozim;

4)bu ma'lumotlar davlat siri bo'lib hisoblanmaydi, mualliflik huquqi va sanoat mulkiga nisbatan bo'lgan huquqlar bilan muhofaza qilinmaydi;

5)bu ma'lumotlar uning egasining davlat va boshqa shaxslarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlari va manfaatlariga putur yetkazishi mumkin bo'lgan salbiy faoliyati bilan bog'liq emas.

Yuqoridagi beshta shartning mavjud bo'lishi ishlab chiqarish va tijorat sirlarini muhofaza qilishning davomiyligini belgilaydi, boshqacha aytganda bu shartlarga rioya qilingan hollarda ma'lumotlar maxfiyligi qandaydir vaqt bilan chegaralanmaydi. Biroq buning uchun beshta shart bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishi lozim. Ulardan birortasining buzilishi, qaysiligidan qat'i nazar «nou-xou» (tijorat sirlari)ni huquqiy muhofaza bilan ta'minlashning bekor bo'lishiga olib keladi. Agar shartlarni mazmunan tahlil etsak, u holda ularning birinchi galda sir egasining faktik monopoliyasini ta'minlashga qaratilganini ko'rish mumkin. Ayni vaqtda bu faktik monopoliya buzilmagan holda ham «nou-xou» huquqiy muhofaza bilan ta'minlanmasligi mumkin. Gap bu yerda «nou-xou» bo'lib hisoblangan maxfiy ma'lumotlar uning sohibi tomonidan davlatning yoki boshqa shaxslarning qonun bilan qo'riqlanadigan huquqlari va manfaatlariga putur yetkazish maqsadida foydalanish ustida bormoqda.

Yangi FK qabul qilinishi va kuchga kirishi munosabati bilan fuqarolik muomalasidagi nafaqat «nou-xou» (tijorat sirlari) balki

qonuniy asosdagi boshqa maxfiy axborotlar ham o'zining huquqiy rejimiga ega bo'ldi. FKning 1095-1097-moddalarida oshkor etilmagan axborotlardan g'ayriqonuniy foydalanganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik asoslari va hajmi belgilab qo'yildi.

Oshkor etilmagan axborot deganda uchinchi shaxslar uchun ma'lum bo'lmagan maxfiy sir bo'lib hisoblanuvchi ma'lumotlar tushuniladi.

Texnikaviy axborot, mashina, mexanizmlar, qurilmalar, uskunalar, texnologik jarayonlarni yaratish, tayyorlash, ulardan foydalanish, qo'llashga oid bo'lgan ma'lumotlar hisoblanadi.

Tashkiliy axborotlar yuridik shaxsning tashkiliy strukturasi, xo'jalik subyektlari o'zaro munosabatlarining tashkiliy mexanizmi-ga, mehnat (ish) jarayonlarini tashkil etish, ularga ta'sir qilish, boshqarishga oid ma'lumotlar tushuniladi.

Tijorat axboroti yoki korxonaning (xo'jalik yurituvchi subyekting) tijorat siri deganda korxonani (subyekt)ning ishlab chiqarishi, texnologiya axboroti, boshqaruvi, rejalashtirish, moliyasi va boshqa faoliyat bilan bog'liq bo'lgan hamda e'lon qilish (topshirish, ochilib qolishi)ning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, davlat siri bo'lib hisoblanmaydigan ma'lumotlar tushuniladi.

Tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar tarkibi, hajmi, ularni himoya qilish tartibi korxonani rahbari tomonidan belgilanadi.

«Nou-xou» deganda fuqaroga yoki yuridik shaxsga faktik monopoliya asosida tegishli bo'lgan, foydali texnikaviy, tashkiliy yoki boshqa ma'lumotlar tushuniladi.

Oshkor etilmagan axborotlarga egalik quyidagi asoslarda vujudga keladi:

- bunday axborotlarni o'zi yaratgan, ishlab chiqqan bo'lsa;
- bunday axborotlar egalik qiluvchining topshirig'i, buyurtmasi asosida yaratilgan, ishlab chiqilgan bo'lsa;
- bunday axborotlar huquqiy vorislik tartibida o'tgan bo'lsa;
- bunday axborotlar boshqa shaxslardan insofli asoslarda olingan bo'lsa (sotib olish, litsenziya olish, tekin foydalanishga berish va h.k.).

Har bir ma'lumot oshkor etilmagan axborot sifatida tan olinishi uchun:

a) bu axborot uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli haqiqiy yoki nisbiy tijorat qiymatiga ega bo'lishi (ya'ni axborot egasi ushbu axborotga egaligi sababli o'zi ishlab chiqqan mahsuloti, ko'rsata-

digan xizmati, bajaradigan ishi boshqa raqobatdagi subyektlar yoki ularni mahsulotlari, xizmatlari, ishlariga nisbatan afzallikka ega bo'lishi) shart;

b) axborot egasi uning maxfiyligi, sirligini saqlashga doir choralar ko'rgan (bunday axborotlardan xabardor shaxslar doirasi qat'iy cheklangan, bu shaxslar sir saqlash majburiyati haqida ogohlantirilgan, ma'lumotlardan foydalanishning yopiq tizimi ishlab chiqilgan va h.k.) bo'lishi shart.

Yuqoridagi uchala shart FKning 98-moddasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, ushbu shartlar bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan va ularga rioya qilingan hollarda oshkor qilinmagan axborot egasi undan boshqa shaxslarni g'ayriqonuniy foydalanishidan muhofazalanish, himoyalanih huquqiga ega.

Sir tutiladigan fan-texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiyot savdoga oid yoki boshqa shu kabi axborot egasining roziligisiz oshkor qilish yoki undan foydalanish maqsadida har qanday usulda to'plash uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 191-moddasida jinoyi javobgarlik belgilangan.

Oshkor etilmagan axborot egasi bu axborotga nisbatan mutlaq huquqqa emas, balki faktik mavqega ega. Shu sababli ham u faqat boshqalarning g'ayriqonuniy foydalanishidan himoyalanih huquqiga ega, ayni vaqtda bunday axborotlarni o'zlari mustaqil ravishda yaratgan, ishlab chiqqan, insofli asoslarda olgan shaxslarning undan foydalanishini yoki uni oshkor etish, e'lon qilishini ta'qiqlashga haqli emas.

Oshkor qilinmagan axborotni noqonuniy foydalanishdan muhofaza qilish huquqi axborot egasida faktik monopoliya holati vujudga kelish bilan paydo bo'ladi va bunda bu axborotga nisbatan biron-bir rasmiyatchilikni bajarishi (uni ro'yxatdan o'tkazdirish, reyestrga kiritish, patent yoki guvohnoma olish, ekspertiza qilish, sertifikat olish va h.k.) talab etilmaydi. Biroq ba'zi hollarda O'zbekiston hududiga «nou-xou»ni litsenziya asosida olib kirish yoki olib chiqish haqidagi shartnomalar vakolatli davlat idoralarida ro'yxatdan o'tkazdirish shartligi haqida qoida mavjud. Biroq bunda davlat idorasi zimmasiga «nou-xou» maxfiyligini saqlash va ta'minlash majburiyati yuklanadi.

Oshkor qilinmagan axborotni muhofaza qilish qoidasi qonunga muvofiq xizmat yoki tijorat siri bo'la olmaydigan ma'lumotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. ushbu qoida xo'jalik yurituvchi subyekt-

larni xizmat yoki tijorat siri niqobi ostida har xil suiiste'mol chiliklar, o'zboshimchaliklar va boshqalarning manfaatlariga zid harakatlar sodir etishining oldini oladi, unga huquqiy to'siqlar qo'yadi.

Xizmat yoki tijorat siri bo'lib hisoblanmaydigan ma'lumotlar, mol-mulkka bo'lgan huquqlar (banklarda omonatga qo'yilgan mablag'lar haqidagi ma'lumotlardan tashqari) va mol-mulk xususida tuzilib, davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan kelishuvlar, bitimlar, shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar, davlat statistika hisoboti tariqasida taqdim etiladigan ma'lumotlar, umuman nazorat-kontrol funksiyasini bajaruvchi davlat idoralariga davriy ravishda taqdim etilib turadigan (fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan) har qanday ma'lumotlar, hisobotlar kiradi. Xuddi shuningdek ilgari oshkora ommaviy e'lon qilingan ma'lumotlar, shuningdek har bir shaxs erkin topishini, bilishini talab qilish huquqiga yoki imkoniyatiga ega bo'lgan ma'lumotlar ham xizmat yoki tijorat sirlari bo'lib hisoblanmasligi lozim. Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati haqidagi ayrim ma'lumotlar (masalan, tevarak-atrofnifloslantirayotganligi yoki jamiyatga zarar keltirishi mumkin bo'lgan boshqa salbiy faoliyatlarni yashirishning oldini olish maqsadida) oshkor qilinmaydigan axborotlar huquqiy rejimiga ega bo'la olmasligi qonun hujjatlarida alohida pisanda qilib qo'yilgan.

Oshkor qilinmagan axborotni muhofaza qilish huquqi muddat bilan chegaralanmagan, biroq FKning 98-moddasida nazarda tutilgan shartlar bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan va qat'iy rioya qilingan paytga qadar amal qiladi. Bu shartlarning birortasi mavjud bo'lmasa yoki buzilsa oshkor etilmagan axborotdan boshqa shaxslarni foydalanishdan himoyalaniish huquqi ham o'z-o'zidan bekor bo'ladi.

Oshkor etilmagan axborotning qonuniy asosi bo'lmay turib olgan yoki tarqatgan yoxud undan foydalanayotgan shaxs axborotni qonunan ega bo'lib turgan shaxsga axborotdan noqonuniy foydalan-ganlik (olganlik, tarqatganlik) natijasida yetkazilgan zararni to'la hajmda to'lashi shart. Zarar oshkor etilmagan axborotni axborot egasi uchun mutlaq yoki nisbiy tijorat qiymati(samarasi)ning pasayishida, kamayishida yoki yo'qolishida (kasb-kor, nufuzi, mahsulot (xizmat)ni raqobatdoshlik darajasiga, narxiga salbiy ta'sir qilishda) namoyon bo'ladi. Oshkor etilmagan axborotdan noqonuniy foyda-langan shaxs buning natijasida daromad olmaganligi zararni undir-

maslik uchun asos bo'lmaydi. Agar daromad (foyda) olingan bo'lsa, u axborotning qonuniy egasiga undirib berilishi lozim.

FKning 1096-moddasida oshkor etilmagan axborotni insofli egallovchi tushunchasi berilgan va uni axborotdan noqonuniy foydalanganda axborot egasi oldida javobgarlik vujudga kelish vaqti belgilangan. Axborotni insofli egallovchi axborotdan noqonuniy foydalanayotganligini bilgan vaqtdan boshlab, agar axborotdan foydalanishni davom ettirsa axborot egasi oldida javobgar bo'ladi va unga zararni to'lashi shart. Shu sababli ham axborotning qonuniy egasi insofli egallovchini axborotdan noqonuniy foydalanayotganligi haqida ogohlantirishi lozim.

Oshkor etilmagan axborotni insofsiz egallovchi axborotni olgan, tarqatgan yoki undan foydalangan vaqtdan boshlab javobgar bo'ladi. Oshkor etilmagan axborotni insofsiz egallashning keng tarqalgan usullari – bu sanoat josusligi va axborot egasi bo'lgan subyektning ishchi-xizmatchisini sotib olishi, g'irrom raqobat hisoblanadi va u fuqarolik-huquqiy javobgarlikdan tashqari tegishli hollarda ma'muriy va jinoiy javobgarlikka ham sabab bo'ladi. Afsuski dunyo bozorida g'irrom raqobatning bu ko'rinishi turli shakllarda namoyon bo'lib turmoqda⁸³.

Oshkor etilmagan axborotga qonunan ega bo'lib turgan shaxs bu axborotdan boshqa shaxslar noqonuniy foydalanayotganligini bilgan zahoti bunday foydalanish to'xtatilishini talab qilishga haqli. Ayni vaqtda axborotni insofli egallovchi undan foydalanishni qonuniy asosga o'tkazilishini so'rab axborot egasiga, u bilan kelishuvga erisha olmagan taqdirda sudga murojaat qilishga haqli. Agarda insofli egallovchi bu axborotdan foydalanish uchun sarf-xarajatlar qilgan (uskunalar, qurilmalar, inshootlar tayyorlagan, qurgan, sotib olgan) bo'lsa (sud unga bu axborotdan haq to'lab olinadigan mutlaq litsenziya asosida bundan buyon ham foydalanishga ruxsat berishga haqli. Haq miqdori taraflar o'rtasida kelishuv asosida yoki sud tomonidan belgilanadi.

Litsenziat ham oshkor etilmagan axborotlarni uchinchi shaxslarning noqonuniy foydalanishidan muhofaza qilinishida litsenziarlarniki kabi huquqlarga ega (noqonuniy foydalanish natijasida yetkazilgan zararni undirish, noqonuniy foydalanishni to'xtatishni talab qilish huquqi va h.k.).

⁸³ Промышленный шпионаж. Известия. 27 ноября 1991. Шпионы держат нос по ветру. Труд. 30 апреля 1999.

Ma'lumki litsenziya shartnomasi ma'lum muddat davomida amal qiladi. Biroq, oshkor etilmagan axborot moddiy-ashyoviy emas, g'oyaviy negizga ega. Bunday axborot u bilan tanishgan, xabardor bo'lgan shaxsdan begonalashtirilishi, xotiradan o'chirib tashlash amalda deyarli mumkin emas. Shu sababli ushbu FKning 1097-moddasida axborotlarning maxfiylikini saqlash majburiyati, basharti tegishli majburiyatlar oshkor etilmagan axborot tariqasida qolaversa, litsenziya shartnomasi bekor bo'lganidan keyin ham litsenziat zimmasida qolishi haqidagi qoidani nazarda tutadi (agar shartnomada boshqacha kelishilgan bo'lmasa). Litsenziarning oshkor qilinmagan axborotlarga nisbatan faktik monopoliya mavqeyini yo'qotish bilangina litsenziatning bu majburiyati bekor bo'lishi mumkin.

Biz yuqorida tijorat sirlari, «nou-xou», oshkor etilmagan axborotlarning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan huquqiy asoslari bilan tanishdik. Bunday obyektlarga nisbatan huquqlar o'zbekistonlik subyektlarga nisbatan ham, xorijiy subyektlarga ham teng darajada taalluqlidir.

O'zbekistonlik subyektlarning ushbu obyektlarga bo'lgan huquqlarini xorijiy mamlakatlarda muhofaza etilishida quyidagi holatlarga e'tibor berish kerak:

1) o'sha mamlakat qonunlarida Parij Konvensiyasi 10-bis moddasi yoxud TRIPS Bitimi 39-moddasiga asosan g'irrom raqobatning oldini olish va yopiq ma'lumotlarni muhofaza qilish bo'yicha milliy qonunchilikda me'yorlarning mavjudligi (Agar davlat Parij Konvensiyasi ishtirokchisi yoxud Butunjahon Savdo Tashkiloti a'zosi bo'lsa bu holda bunday me'yorlar albatta mavjud bo'ladi);

2) subyekt oshkor etilmagan axborotlarni xorijiy davlatlar hududi subyektlariga faqat litsenziya shartnomasi orqali foydalanish uchun topshirishi va bunda litsenziat zimmasiga bu sirlarni saqlash majburiyatini yuklashi lozim;

3) va nihoyat subyekt oshkor etilmagan axborotlar, tijorat sirlari va nou-xouni butun choralar bilan qo'riqlashi lozim.

3-§. Tijorat sirlari va nou-xoudan foydalanish (o'tkazish, berish) to'g'risidagi litsenziya shartnomasi

Oshkor etilmagan axborotga qonunan egalik qiluvchi shaxs bu axborot mazmunini tashkil etuvchi ma'lumotlarning hammasini yoki bir qismini boshqa shaxsga litsenziya shartnomasi asosida berishi

mumkin. Litsenziya olgan shaxsda axborotlardan foydalanishga bo'lgan huquq bilan bir vaqtda ushbu axborotdan boshqa shaxslarning foydalanishidan muhofazalanish huquqi ham vujudga keladi. Oshkor etilmagan axborotlar ichida nou-xouni litsenziya asosida o'tkazish keng tarqalgan. Ba'zi adabiyotlarda «nou-xou»ning sohibida unga nisbatan mutlaq huquq mavjud bo'lmagani uchun uni boshqa shaxsga topshirish litsenziya shartnomasi emas, chunki bunda shartnomaning predmeti bo'lib «nou-xou»dan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquq emas, balki «nou-xou»ning o'zini topshirish hisoblanadi degan qarashlar ham mavjud². Nou-xouni hissadorlik (aksiyadorlik) jamiyatlari, Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, qo'shma korxonalar ustav jamg'armalariga egasi tomonidan ulush, hissa, pay sifatida qo'shishi hollari ham ko'p uchraydi.

Litsenziya shartnomasining eng asosiy shartlaridan biri topshirilayotgan axborotning maxfiyligini, sirligini saqlashni ta'minlash. Bunda litsenziat zimmasiga axborotlarning konfidensialligini muhofaza qilish yuzasidan tegishli choralar ko'rish majburiyati yuklanadi.

«Nou-xou» haqidagi ma'lumotlarni topshiruvchi tomon oluvchi tomonga axborotlarni to'liq hajmda berishi lozim, uni texnik jihatdan amalga oshirish mumkinligini kafolatlaydi va uni o'zlashtirishda yordam beradi. «Nou-xou» uchun haq to'lash miqdori litsenziya shartnomasi uchun belgilangan miqdorda: paushal hajmda (qat'iy belgilangan summada) va royalti (foydadan ajratiladigan foiz hisobidagi ulush sifatida) belgilanishi mumkin.

Ba'zi hollarda esa haq miqdori paushal va royaltini uzviy bog'liq holda qo'llanish bilan belgilanishi mumkin. Haq miqdorini belgilashda nou-xou hisoblangan ma'lumotlarga nisbatan uning qonuniy sohibida qanday hajmda huquqlar saqlanib qolishi ham muhim ahamiyatga ega. Bu eng avvalo taraflarning qanday maqsadni ko'zlaganliklariga bog'liqdir. «nou-xou»ni berar ekan uning sohibi undan foydalanish huquqlarini o'zida saqlab qolishi ham mumkin. Va xatto aksincha, shartnomada «nou-xou»ni olayotgan shaxsgina undan foydalanishi va xatto boshqalarga, ya'ni uchinchi shaxslarga uni berish huquqiga ega bo'lishi ham ko'zda tutilishi mumkin. Shartnoma turiga qarab uning bahosi ham belgilanadi. Xuddi mana shu holatlarga qarab «nou-xou»ni mustasno (mutlaq) o'tkazish, shuningdek «sublitsenziya» asosida o'tkazish shartnomalari haqida so'z yuritish mumkin (agarda litsenziya shartnomalariga nisbatan qiyoslaydigan bo'lsak).

«Nou-xou»ning O'zbekiston Respublikasi hududidagi sohibi tomonidan xorijdagi subyektga o'tkazilishida (o'zini alohida holda yoki ixtiroga, yoxud muhofaza ostidagi boshqa obyektga litsenziya berish orqali) taraflar valuta to'lovi hisob-kitoblari tartibini, taraflar o'rtasida chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni hal etish tartibini va ularning qaysi sudlovga taalluqli ekanligini ham kelishib oladilar. Umumiy qoidaga ko'ra bunday hollarda shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasi Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilmog'i lozim.

«Nou-xou»ni o'tkazish haqidagi shartnomaning muhim tarkibiy qismi taraflarning javobgarligi haqidagi masaladir. Taraflar quyidagi o'zaro majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik shartlarini shartnomada ko'zda tutishlari mumkin:

- axborot (ma'lumot)larni o'z vaqtida taqdim etmaslik;
- axborot (ma'lumot)larning maxfiyligi (konfidensialligi) haqidagi shartlarga rioya qilmaslik;
- to'lovlarni o'z vaqtida bermaslik;
- «nou-xou»ni o'zlashtirmaslik (foydalanmaslik), agarda bu foydaning olinmasligiga va royalti to'lanmasligiga sabab bo'lsa;
- kreditorga yetkazilgan faktik zararlarni va olinmay qolgan foydani o'rini qoplash;
- aybnoma (jarima, penya) hajmlari va undirish tartibi va h.k.).

Oshkor etilmagan axborot mazmunini tashkil etuvchi ma'lumotlarni o'zi mustaqil tarzda olgan shaxs o'zi yaratgan, ishlab chiqqan, aniqlagan yoki uning topshirig'i, buyurtmasi asosida boshqa shaxslar yaratgan, ishlab chiqqan, aniqlagan bo'lsa va bunday axborotni qonunan olgan shaxs (axborotni qonuniy egasidan haq baravariga sotib olgan, foydalanishga litsenziya olgan, huquqiy vorislik tartibida olgan va h.k.) bu ma'lumotlardan, tegishli oshkor etilmagan axborot egasining huquqlaridan qat'i nazar foydalanishga haqli va bunday foydalanish uchun uning oldida javob bermaydi. Axborotning qonunan egasi axborotni mustaqil va qonunan olgan boshqa shaxslarga undan foydalanishlarini ta'qiqlab qo'yishga, haq to'lab qilishga, shuningdek boshqacha tarzda erkin tasarruf qilishlariga to'siqlik qilishga haqli emas.

XI BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Seleksiya yutuqlarini xalqaro xususiy huquqiy muhofaoza qilish qanday o'ziga xosliklarga ega?
2. Tijorat sirlari, shu jumladan «nou-xou» xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarida qanda huquqiy rejimga ega?
3. «Nou-xou»ni o'tkazish bo'yicha turli davlatlarga mansub subyektlar o'rtasidagi litsenziya shartnomalari shakli, mazmuni?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining «Seleksiya yutuqlari to'g'risidagi qonuni». // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1996-yil, 9-son, 133-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining «Naslchilik to'g'risidagi qonuni». // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1995-yil, 12-son, 255-modda.
4. O'zbekiston Respublikasining «Urug'chilik to'g'risidagi qonuni». // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1996-yil, 9-son, 130-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonuni». //Xalq so'zi. 2000-yil 15-iyun.
6. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish qonuni» // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1993-yil, 6-son, 252-modda.
7. А.Ершов. Торговля лицензиями в Узбекистане. //Биржевый Вестник Востока. 1998. №4. –С.22.
8. О.Оқулов. «Nou-xou» va yangicha munosabatlar. //Hayot va qonun. 1996-yil, 4-son.
9. Путь к рекордам в сельском хозяйстве. //Биржевый Вестник Востока. 1998. №28-сон, -С.17.
10. Штумпр. Лицензионный договор. –М.: Юр. Литр. 1988.

TASHQI IQTISODIY BITIMLAR

1-§.Tashqi iqtisodiy bitimlar tushunchasi

Mustaqil Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish nafaqat shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirishni, shu jumladan tashqi iqtisodiy bitimlarni tuzish va uning ijrosini ta'minlash samaradorligini oshirishni ham talab etadi. Ayniqsa, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish sharoitida tashqi iqtisodiy bitimlar bozor munosabatlari rivojlangan xorijiy davlatlar bilan integratsiyalashuv jarayonini yanada chuqurlashtirishni ham talab etadi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek: «Biz shunga aminmizki, mamlakatimizda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan farovon demokratik davlat barpo etishdek oliy maqsadga erishmog'imiz uchun O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyala shuvini ta'minlashimiz zarur»⁸⁴.

Xorijiy davlatlar bilan o'zaro integratsiya jarayoni o'z navbatida tashqi iqtisodiy bitimlarning huquqiy tabiati, mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy va amaliy nuqtayi nazardan tadqiq qilib o'rganishni ham zaruriyat qilib qo'ymoqda. Shu bois, hozirgi sharoitda tashqi iqtisodiy faoliyatga oid shartnomaviy munosabatlarning fuqarolik huquqiy tartibga solinishi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro xususiy huquqda mahsulotlarning xalqaro oldi-sotdisi va tashqi iqtisodiy bitimlarga tegishli me'yorlar alohida o'rin egallaydi. Savdo-iqtisodiy va boshqa turdagi xalqaro aloqalarni o'rnatish davomida turli davlatlarning tijorat tashkilotlari o'rtasida ko'plab tashqi iqtisodiy bitimlar tuzilmoqda. Tomonlarning joylashgan joyi, shuningdek mazkur shartnomalarni imzolash va amalga oshirish joyi bir-biriga to'g'ri kelmaganligi sababli xorijiy davlatlar ishtirokidagi shartnomalarga qaysi davlatning milliy huquqini qo'llash masalasi

⁸⁴ Xalq so'zi. 2000-yil 26-yanvar.

huquqiy fan nuqtai-nazaridan o'rganilishi muhim amaliy ahamiyatga ega.

Binobarin O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 101-moddasiga binoan bitimlar deb – fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlarga aytiladi. Shunday ekan, taraflardan biri chet el fuqarosi yoki chet el yuridik shaxsi bo'lgan, maqsadi chet eldan mahsulot olib kirish (import) yoki chet elga mahsulot olib chiqish (eksport) bo'lgan, to'lov vositasi sifatida qo'llanilgan pul birligi ikkala taraf uchun ham yoki bir taraf uchun chet el valutasini bo'lganda mazkur bitimlar – tashqi iqtisodiy bitimlar deyiladi. Tashqi iqtisodiy bitimlarga tovarlar oldi-sotdisi, vositachilik, pudrat va boshqa turdagi shartnomalar kiradi. Eng ko'p tarqalgan tashqi iqtisodiy bitimlardan biri bu tashqi oldi-sotdi savdosi bilan bog'liq bo'lgan shartnomalar hisoblanadi. 1980-yilda qabul qilingan «Tovarlarning xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to'g'risida»gi Vena Konvensiyasi bunday shartnomalarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Tovarlar oldi-sotdi savdosi to'g'risidagi bitimlar ommaviy bitimlarning bir turi bo'lib hisoblanadi. Bunday bitimga asosan sotuvchi tovarni sotib oluvchining egaligiga shartnomada nazarda tutilgan muddatda va belgilangan shartlarda taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, sotib oluvchi esa tovarni qabul qilib olish va shartnomada belgilangan pul miqdorini to'lash majburiyatini oladi. Tovarlarini eksport va import qilish bitimlari bir-biridan farqlanadi. Xorijiy davlatlar amaliyotida nafaqat valuta asosida, balki tovar ayirboshlash va kompensatsiya bitimlari ko'rinishida ham tuziladi. Bunday bitim turlaridan biri barter asosidagi bitimlardir. Bunda taraflar o'rtasida ayirbosh qilinadigan tovarlar miqdori shartnomada kelishib olinadi va shu kelishuvga asosan bir tovar ikkinchi bir tovarga almashtiriladi. Tovarlar oldi-sotdisi shartnomasi bilan birga, turli xildagi xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish, korxonalar qurilishida texnik yordam ko'rsatish, sanoat majmualarini va turli loyihalarni amalga oshirish, hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish, ilmiy-texnikaviy yutuqlardan foydalanish to'g'risidagi litsenziya bitimlari, lizing va boshqa turdagi shartnomalar muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Bunday shartnomalar tashqi iqtisodiy bitim turlarini tashkil qiladi.

«Tovarlarning xalqaro oldi-sotdi shartnomasi to'g'risida»gi 1980-yil Venada qabul qilingan konvensiyaga asosan tijorat tashki-

lotlarining turli davlatlarda joylashgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini yuritish bo'yicha tuzgan shartnomalari tashqi iqtisodiy bitimlar deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik faoliyatini yurituvchi subyektlar, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bitimlar tuziladi. O'zbekiston Respublikasining chet el davlatlari bilan tovar ayirboshlash to'g'risidagi Hukumatlararo kelishuvlari mazkur davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasida tuzilgan bitimlar uchun asosiy manba va shu Hukumatlararo kelishuvlarni amalga oshirish vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shartnoma imzolanganidan so'ng undagi huquq va majburiyatlar taraflar tomonidan belgilab olinadi, ya'ni bu har bir shartnomaning mustaqilligidan darak beradi. Shu bilan bir qatorda taraflar tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilishi Hukumatlararo kelishuvning mazmuni bilan bog'liqdir. Lekin davlatlarning mazkur kelishuvlari fuqaroviy-huquqiy majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi, balki bunday majburiyatlar shartnoma asosida vujudga keladi. Shartnoma imzolanganidan so'ng, davlatlarning majburiyatlari o'zgarib qolishi ham mumkin, chunki keyinchalik ularga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Xususan tovarning eksport-import miqdorini kamaytirish yoki ma'lum bir tovarni yetkazib berishni boshqa muddatga o'zgartirish bu kabi shartnomalarga o'zgartirishlar kiritilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Hukumatlararo kelishuvga qaratilgan o'zgartirishlarga asosan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritilishi lozim.

Tashqi iqtisodiy bitimlar imzolash chog'ida bir-biriga qarama-qarshi bo'lib qolganida (to'qnashganida) kolliziya holatlari paydo bo'ladi. Bunday hollarda taraflar shartnomani imzolayotganlarida, qaysi davlat qonunchiligini qo'llashni o'zaro kelishib olishlari mumkin. Taraflar qonunchilikni erk muxtoriyati tamoyillari (принцип автономной воли) asosida, ya'ni taraflar o'z ixtiyorlari bo'yicha huquq tizimini tanlashlari va shartnoma mazmunini belgilab olishlari lozim.

Taraflarning erk muxtoriyati prinsipi jahondagi ko'pgina davlatlarning qonunchiligi tomonidan tan olinadi. Lekin taraflar erk muxtoriyati tamoyillarining chegaralari ko'p davlatlarda turlicha belgilab qo'yilgan. Ayrim davlatlarda bu tamoyil chegaralanmagan, ya'ni taraflar bitim imzolaganlaridan so'ng mazkur hujjatni xohlagan huquq tizimiga bo'ysundirishlari mumkin. Rivojlangan davlatlarning huquq tizimiga e'tibor beriladigan bo'lsa, masalan:

AQSHda 1990-yilda qabul qilingan Savdo kodeksiga muvofiq taraflar o'rtasida imzolangan bitimda qaysi taraf (shtat, davlat)ning huquq va majburiyatlari qo'llanilishi kerakligini belgilab olishga haqlidirlar, agarda bitimda taraflar tomonidan bunday kelishuv ko'rsatilmagan bo'lsa Savdo kodeksida mavjud bo'lgan huquq va majburiyatlar qo'llaniladi;

Olmoniya huquq tizimi ham taraflar tomonidan imzolangan bitimga qonunchilikni tanlashda erk muxtoriyati prinsipidan kelib chiqadi, lekin taraflar bitimda bunday prinsipni qo'llashmagan bo'lsa, bitim qaysi davlat uchun muhimroq ahamiyatga ega bo'lsa o'sha davlatning qonunchiligi qo'llaniladi;

Xitoy Xalq Respublikasi ham o'z qonunchiligida, agarda taraflar bitimda qo'llanadigan huquqni belgilamagan bo'lsalar, bunday bitim qaysi taraf uchun muhimroq ahamiyatga ega bo'lsa, o'sha tarafning qonunchiligi qo'llanilishini belgilaydi;

O'zbekiston Respublikasi bunday kollizion masalalarni hal etishda Fuqarolik Kodeksining 1181-moddasidagi qoidalarga rioya etadi, ya'ni «Bitimning shakli u tuziladigan joy huquqiga bo'ysunadi». Biroq chet elda tuzilgan bitim, agar O'zbekiston Respublikasi huquqi talablariga rioya etilgan bo'lsa, shaklga rioya etilmaganligi tufayli haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas. Loaqal ishtirokchilardan bittasi O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi yoki fuqarosi bo'lgan tashqi iqtisodiy bitim qayerda tuzilganligidan qat'i nazar yozma shaklda tuziladi.

2-§. Tashqi iqtisodiy bitimlar

Hozirgi texnika va aloqa xizmatlari rivojlangan paytda «Bitimning u tuziladigan joy huquqiga bo'ysunishi» tamoyilining qo'llanilishi bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda, ya'ni xalqaro savdo sohasida tuzilayotgan bitimlarning ko'p qismi teletayp, telegraf, faks orqali tuzilmoqda. Shuning uchun bunday hollarda shartnoma bo'yicha oxirgi harakat qayerda sodir etilgan bo'lsa, o'sha joy shartnoma tuzilgan manzil deb hisoblanadi va bu shartnomani haqiqiy deb topish uchun asos bo'la oladi. Shartnomaga nisbatan oxirgi harakat qayerda sodir etilganlik masalasi ko'p davlatlarda turlichadir. Masalan: Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya qonunchiligiga asosan, aksept qayerdan va qachon yuborilgan bo'lsa o'sha paytdan boshlab bitim tuzilgan hisoblanadi, lekin boshqa davlatlar-

ning qonunchiligiga asosan esa oferent tomonidan akseptni qabul qilingan joyi va vaqtidan boshlab bitim tuzilgan hisoblanadi.

So'nggi yillarda bir qator davlatlarda bitimga nisbatan huquqni belgilashda yangicha tamoyillar qo'llanilmoqda, xususan sotuvchining qonuni, ya'ni sotuvchi ishlab chiqarish faoliyatini yuritayotgan joy huquqining qo'llanilishi shu jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 105-moddasiga asosan «bitimlar og'zaki va yozma shaklda tuziladi».

Bitimning shakli u tuzilayotgan joy huquqiga bo'ysunadi. Biroq chet elda tuzilgan bitim, agar O'zbekiston Respublikasi huquqi talablariga rioya etilgan bo'lsa, shaklga rioya etilmaganligi tufayli haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas.

Ko'chmas mulk xususidagi bitimning shakli bu mulk joylashgan mamlakat huquqiga bo'ysunadi, O'zbekiston Respublikasida davlat reyestrda qayd etilgan ko'chmas mulkka nisbatan esa, O'zbekiston Respublikasi huquqiga bo'ysunadi (FKning 1181-moddasi). Xuddi shuningdek xatlar, telegrammalar, telefonogrammalar, teletaypogrammalar, fakslar yoki subyektlarni va ular xohish-irodasi mazmunini belgilaydigan boshqa hujjatlarni o'zaro ayirboshlashi, agar qonunda yoki taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, yozma shaklda tuzilgan bitimga tenglashtiriladi (FKning 107-moddasi).

3-§. Bitimlarning mazmuniga nisbatan tatbiq qilinadigan huquq

O'zbekiston Respublikasi jismoniy va yuridik shaxslari chet el yuridik hamda jismoniy shaxslari bilan imzolayotgan shartnomalariga nisbatan xohlagan mamlakat huquqini tanlashlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ham mazkur qoida belgilab qo'yilgan, xususan: shartnoma, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, taraflarning kelishuviga ko'ra tanlangan mamlakat huquqi bilan tartibga solinadi. Bu o'rinda albatta shartnomada ishtirok etuvchi taraflar o'zlarining erk muxtoriyati (irodalilik) prinsiplariga ko'ra o'zlari lozim topgan mamlakat huquqi bilan tartibga solinishi mumkin.

Shartnoma taraflari qo'llaniladigan huquqni umuman shartnoma uchun ham, uning alohida qismlari uchun ham tanlab olishlari mumkin;

Qo'llaniladigan huquq taraflar tomonidan shartnoma tuzilayotganda ham, undan keyin ham istalgan vaqtda tanlanishi mumkin. Taraflar, shuningdek istalgan vaqtda shartnomaga nisbatan qo'llaniladigan huquqni o'zgartirish to'g'risida kelishib olishlari mumkin (FKning 1189-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida faqat to'rta holatda taraflar tomonidan huquqni tanlab olishga yo'l qo'yilmagan, ya'ni

Birinchidan: mulk to'g'risidagi shartnomaga nisbatan bu mulk turgan mamlakatning huquqi;

Ikkinchidan: birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaga nisbatan va qurilish pudrati shartnomasiga nisbatan – ana shunday faoliyat amalga oshirilayotgan yoki shartnomada nazarda tutilgan natijalar yaratilayotgan mamlakatning huquqi;

Uchinchidan: kimoshdi savdosida, tanlov bo'yicha yoki birjada tuzilgan shartnomaga nisbatan – kimoshdi savdosi, tanlov o'tkazilayotgan yoki birja joylashgan mamlakatning huquqi qo'llaniladi (FKning 1190-moddasi);

To'rtinchidan: chet el ishtirokidagi yuridik shaxsni tuzish to'g'risidagi shartnomaga nisbatan yuridik shaxs ta'xis etilgan mamlakat huquqi qo'llaniladi (FKning 1191-moddasi).

Ayrim hollarda amalda shartnoma imzolayotganlar qaysi mamlakat huquqini qo'llash kerakligini aniqlab olmaydilar. Bunday hollarda har bir taraf o'z mamlakati huquqini tanlashga harakat qiladi, chunki ular mamlakatlarida amalda bo'lgan o'z qonunchilik mazmunini yaxshiroq biladilar. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini qo'llash haqida kelishib olinmagan taqdirda, hech bo'lmaganda boshqa tarafga boshqa bir mamlakat qonunchiligini tanlash taklif etiladi, bunday hollarda iloji boricha O'zbekiston qonunchiligiga yaqinroq bo'lgan mamlakat qonunchiligini tanlash taklif etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar taraflar kelishuvlarida qo'llanilishi lozim bo'lgan mamlakat huquqi belgilanmagan bo'lsa, O'zbekiston qonunchiligida mavjud bo'lgan kollizion normalar asosida belgilanadi. Fuqarolik kodeksining 1190-moddasiga asosan qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq to'g'risida shartnoma taraflarining kelishuvi bo'lmagan taqdirda bu shartnomaga nisbatan:

- oldi-sotdi shartnomasida – sotuvchi;
- hadya shartnomasida – hadya qiluvchi;
- ijara shartnomasida – ijaraga beruvchi;

– mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasida – ssuda beruvchi;

– pudrat shartnomasida – pudratchi;

– yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasida – tashuvchi;

– transport ekspeditsiyasi shartnomasida – ekspeditor;

– qarz shartnomasida yoki boshqa kredit shartnomasida – kreditor

– topshiriq shartnomasida – ishonchli vakil;

– vositachilik shartnomasida – vositachi;

– omonat saqlash shartnomasida – saqlovchi;

– sug'urta shartnomasida – sug'urtalovchi;

– kafillik shartnomasida – kafil;

– garov to'g'risidagi shartnomada – garovga qo'yuvchi;

– alohida mutlaq huquqlardan foydalanish to'g'risidagi litsenziya bitimlarida – litsenziar hisoblanuvchi taraf ta'sis etilgan, turar joyga ega bo'lgan yoki asosiy faoliyat joyi bo'lgan mamlakat huquqi qo'llaniladi.

Chet el ishtiroki bilan tuzilgan shartnomaga nisbatan qo'llaniladigan huquq:

– shartnomaning talqinini;

– taraflarning huquq va majburiyatlarini;

– shartnomaning ijrosini;

– shartnomani umuman yoki lozim darajada ijro etmaslik oqibatlarini;

– shartnomaning ijrosi to'xtatilishini;

– shartnomaning o'z-o'zidan haqiqiy emasligi yoki haqiqiy emas deb topilishi oqibatlarini;

– shartnoma munosabati bilan talablardan voz kechish va qarzni o'tkazishni qamrab oladi (FKning 1192-moddasi).

Shartnomani ijro etish usullari va tartibiga, shuningdek lozim darajada ijro etilmagan taqdirda ko'rilishi lozim bo'lgan choralar borasida qo'llanilayotgan huquqdan tashqari ijro amalga oshirilayotgan mamlakatning huquqi ham e'tiborga olinadi. Tashqi savdo bitimiga nisbatan qo'llanilayotgan huquqning belgilanishi bilan bitimning majburiy statuti (maqomi) o'rnatiladi. Majburiy maqom asosida bitimda taraflarning huquq va majburiyatlari belgilanadi hamda uni bajarmaslik oqibatlari, shuningdek majburiy maqom asosida javobgarlikdan ozod etuvchi holatlar ham belgilanadi. Majburiy statut bo'yicha da'vo muddatlari masalalari ham hal etiladi. Lekin da'vo muddatlari, bitimda taraflarning huquq va

majburiyatlari qaysi huquq bilan belgilanayotgan bo'lsa, da'vo muddatlari ana o'sha huquq bilan belgilanadi.

Shartnomadagi huquq va majburiyatlar, bitimning mazmunini taraflar kelishgan holda belgilaydi, shuning uchun amaliyotda bitimning shartlarini aniq va ravshan belgilab olish, taraflarning javobgarligini hamda boshqa shartlarini aniqlashtirib olish zarur. Milliy qonunchilik me'yorlaridagi ma'lum bir farqlar, shuningdek taraflarning huquqni belgilashdagi qiyinchiliklari, taraflar tomonidan o'zaro munosabatlarni bitimda belgilab olishga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida shartnomani imzolashdagi kelishuvlarning murakkablashishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagi sabablar tufayli xalqaro oldi-sotdi sohasida bir qancha moddiy huquqiy me'yorlarning qabul qilinishini taqozo etadi.

4-§. Tashqi oldi-sotdi munosabatlari bo'yicha xalqaro konvensiyalar

Namunaviy shartnomalar. Savdo atamalari.

Xalqaro oldi-sotdi sohasida xalqaro savdoni muvofiqlashtirib turuvchi moddiy-huquqiy me'yorlarning mavjud emasligi kollizion normalarni qo'llashni zarur qilib qo'yimoqda va xalqaro savdo rivojlanishiga muayyan darajada salbiy ta'sir etmoqda. 1966-yil 17-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 2205-sonli «Turli davlatlarning xalqaro savdosi to'g'risida»gi Rezolyutsiyasida turli mamlakatlar qonunlaridagi farqlar, xalqaro savdo rivojlanishiga asosiy to'siqlardan biri deb ko'rsatiladi. Turli davlatlarning milliy qonunchiliklari o'rtasidagi farqlarning turli-tumanligi, bu masalalar bo'yicha qarama-qarshi qoidalar keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun kolliziya masalasining qanday hal etilishi, nizoni hal etayotganda shartnomaga qaysi huquqni qo'llanish muammolari, ko'p hollarda shartnomani imzolangan deb hisoblash kerakmi, taraflar tomonidan bir-biriga u yoki bu talablarni qo'yishga haqlidirlarmi, taraflarning javobgarlik hajmi chegarasi kabi masalalarni hal qilish bilan ham uzviy bog'liq hisoblanadi.

Turli xildagi davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo tuziladigan tashqi savdo munosabatlariga oid asosiy manbalarni huquqiy tartibga solish quyidagi usullar bilan amalga oshirilishi mumkin:

– birinchidan: xalqaro shartnomalar doirasida ishlab chiqilgan me'yoriy qoidalarni milliy qonunchilikka kiritish;

– ikkinchidan: xalqaro shartnomalarga o‘xshash qonunlarni qabul qilish;

– uchinchidan: turli namunaviy shartnomalarni ishlab chiqish;

– to‘rtinchidan: shakllangan savdo urf-odatlarini xalqaro tashkilotlar tomonidan «savdo atamalar» sifatida ta‘riflab berishdan iboratdir.

1964-yil Gaaga Konferensiyasining sessiyasida «Tovarlarning xalqaro oldi-sotdi savdosi to‘g‘risidagi shartnomalarni tuzish» Gaaga Konvensiyasi qabul qilingan. Ammo Konferensiyada asosan G‘arb mamlakatlari ishtirok etganliklari sababli, mazkur Gaaga Konvensiyalarining mazmuni to‘liq miqdorda umumiy tusga ega bo‘lmadi. Shu bois 1964-yilgi Gaaga Konvensiyasi keng ko‘lamda qo‘llanilmadi. Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha BMT Komissiyasi barcha mamlakatlarning huquq tizimlariga to‘g‘ri keladigan qoidalarni ishlab chiqish vazifasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Mazkur komissiya ish faoliyati natijasida loyiha ishlab chiqilib, bu loyiha asosida 1980-yili Vena Konferensiyasida «Tovarlar xalqaro oldi-sotdi shartnomalari» to‘g‘risida BMT Konvensiyasi qabul qilindi. Konvensiyaning kirish qismida e‘tirof etilganidek, ishtirokchi davlatlarning fikriga ko‘ra tovarlarning xalqaro oldi-sotdi shartnomalarini tartibga soluvchi umumiy me‘yorlari qabul qilinishi va unda turli ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy tizimlardagi mavjud farqlarning inobatga olinishi, xalqaro savdoda yuzaga kelayotgan huquqiy to‘siqlarni bartaraf etishga va xalqaro savdoning rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi qayd etilgan.

Shuningdek, 1980-yilgi Vena Konvensiyasi taraflarga o‘z shartnomalarida Konvensiyani butunlay qo‘llamaslikka ham ruxsat bergan. Bundan tashqari, Konvensiya normalari umumiy qoida sifatida dispozitiv xarakterga ega. Agarda taraflar shartnomada qo‘llanilayotgan qonun yoki tartib xususida, yoxud mazkur masala bo‘yicha boshqa yo‘l bilan kelishib olishgan bo‘lsa, bunday hollarda ushbu munosabatlarga Konvensiya talablari qo‘llanilishi mumkin.

Mazkur Konvensiya o‘zida quyidagi qoidalarni mustahkamlaydi:

– birinchidan: shartnomaning taraflari bo‘lgan tijorat tashkilotlari turli davlatlarda (Konvensiya ishtirokchisi) joylashgan bo‘lsa;

– ikkinchidan: shartnomada qo‘llash uchun ishtirokchi davlatning huquqi tanlangan bo‘lsa, agarda taraflardan biri yoki ikkalasi ham ishtirokchi davlatlarning tijoratchi tashkilotlari bo‘lmagan taqdirda ham qo‘llaniladi. Masalan: Ukraina korxonasi va Olmoniya firmasi

o'rtasida imzolangan shartnomada qo'llanilayotgan huquq ko'rsatilmaganligi natijasida, nizo kelib chiqqanda, sud nizoni ko'rayotgan davlatning Konvensiya ishtirokchisi ekanligini inobatga olib, Vena Konvensiyasi tartibiga rioya qilib tegishli qaror qabul qiladi.

Konvensiyaning ishtirokchisi bo'lgan davlatlarning tijorat tashkilotlari o'rtasida imzolangan shartnomalarga nisbatan konvensiyaning qo'llanishi va taraflar tomonidan ishtirokchi davlatning huquqini shartnomada qo'llangan paytda konvensiyaning qo'llanilishi natijasida, konvensiyani qo'llash doirasi kengayishiga va universal bo'lishiga olib keladi. Lekin oldi-sotdining ayrim turlariga, ya'ni kim oshdi savdosidan: qimmatli qog'ozlar, suv va havo transport kemalari hamda elektr quvvatini sotish kabilarga konvensiyaning tartibi qo'llanilmaydi.

Da'vo muddati masalasida 1974-yilda «Tovarlar xalqaro oldi-sotdi savdosi da'vo muddati to'g'risida»gi Konvensiya qabul qilingan. Konvensiya «YUNSTRAL» tomonidan ishlab chiqilgan. Bu konvensiya taraflar shartnoma tuzayotganlarida muhim shartlardan birini tartibga soladi. Ya'ni barcha xalqaro oldi-sotdi shartnomalari uchun bir xil bo'lgan 4 yillik da'vo muddati 6 oydan 30 yilgacha qilib belgilangan, shuning uchun ham bularning ko'plari uchun 4 yillik muddat umum tan olingan. Konvensiyada ko'rsatilishicha, shartnomaviy huquqi buzilishdan kelib chiquvchi talabnoma bo'yicha 4 yillik da'vo muddati, bunday buzilish qachon sodir bo'lgan paytdan boshlab, chunonchi, agarda mahsulot shartnoma shartlariga to'g'ri kelmasa yoki yaroqsiz bo'lsa, o'sha tovarni sotib oluvchiga bergan kundan boshlab yoki tovarni qabul qilishdan bosh tortgan kundan boshlab hisoblanadi.

Konvensiya tomonidan da'vo muddati o'tishining uzilishi yoki da'vo muddatini uzaytirish haqida qoidalar, uni o'zgartirish, shuningdek da'vo muddatining umumiy cheklovi (10 yil) va da'vo muddatini o'tkazib yuborishning oqibatlarini ifodalangan. Konvensiyaga asosan da'vo muddatining o'tib ketganligi javobgar tarafning arizasiga binoan sudda nizo ko'rilayotganda inobatga olinadi. Bunday ariza mavjud bo'lganda, agarda nizoni ko'rib chiqish da'vo muddati o'tib ketgandan so'ng boshlangan bo'lsa, da'voni rad etishga asos bo'ladi. Konvensiya nizolarni hal etish tartibini va da'vo muddatini belgilab bermaydi. Bundan tashqari Konvensiyaning 3-moddasida ko'rsatilganidek, agar tovar yetkazib beruvchi tarafning

majburiyati asosan ishni bajarish yoki boshqa xildagi xizmatni taqdim etishdan iborat bo'lsa, tuzilgan shartnomalarga konvensiya qo'llanilmaydi.

Konvensiyada tovarlarning xalqaro oldi-sotdisi to'g'risidagi shartnomalarning hamma asosiy masalalari bo'yicha qoidalar mavjud. Vena Konvensiyasi 101 moddadan iborat bo'lib 4 guruhga bo'lingan:

- 1.«Qo'llanish doirasi va umumiy qoidalar»;
- 2.«Shartnoma tuzish»;
- 3.«Tovarlar oldi-sotdisi»;
- 4.«Yakunlovchi qoidalar».

Vena Konvensiyasining oferta va aksept orqali shartnoma tuzishga oid qoidalari, asosan undagi normalar fuqarolik huquqi normalariga o'xshashligi bilan xarakterlanadi.

Konvensiyani qo'llash masalasini hal etayotgan paytda taraflarning milliy tegishliligi, ularning fuqarolik yoki savdo maqomi, shuningdek shartnomaning fuqarolik yoki savdo xarakteri hech qanday ahamiyat kasb etmaydi.

Tovarlarning xalqaro oldi-sotdisi to'g'risidagi shartnomada taraflarning munosabatlarini tartibga soluvchi konvensiyaning tegishli qismi bilan sotuvchi majburiyatlari belgilanadi, xususan, tovarni yetkazib berish va hujjatlarni berish, tovarlarning miqdori va sifati, shuningdek sotib oluvchi majburiyatlari, narx va tovarlarni qabul qilish shular jumlasidandir. Agarda imzolangan shartnoma bilan sotilgan tovarning sifati belgilanmagan bo'lsa, unday holda o'zi bunday tovarni qanday holda foydalanish nazarda tutilgan bo'lsa, o'shanday holda taqdim etilmog'i darkor. Bajarish muddati shartnomada belgilanadi. Muddatdan ilgari yetkazib berilgan tovarni qabul qilish sotib oluvchining xohish-irodasiga bog'liq. Konvensiya sotuvchi yoki sotib oluvchi tomonidan shartnoma shartlarining buzilishini oldini olishda huquqiy himoya vositasi hisoblanadi.

Konvensiyaning alohida bobida sotuvchi va sotib oluvchi uchun umumiy bo'lgan majburiyatlar o'z ifodasini topgan. Unda shartnoma shartlarini buzishlarning oldini olish va tovarni yetkazib berish, zarar va foizlarni undirish kabi qoidalar O'zbekiston Respublikasi FKda o'z aksini topgan.

Vena Konvensiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – agarda bir taraf shartnoma shartlari buzilishiga yo'l qo'ysa, natijada boshqa tarafga zarar yetkazilsa, oqibatda u shartnoma asosida olishi kerak

bo'lgan foydaning ma'lum bir miqdoridan mahrum bo'ladi. Shartnoma shartlarining buzilish hollari mavjud bo'lganda, yetkazib berilishi kerak bo'lgan tovarning almashtirib berilishini talab qilishga haqli. Shuningdek shartnomadan ham voz kechishi mumkin. Bundan tashqari, agarda shartnoma imzolangandan keyin boshqa taraf shartnoma majburiyatlarining ko'p qismini bajara olmasligi ma'lum bo'lib qolsa, taraflar majburiyatlarni bajarishni to'xtatib turish huquqiga ham ega.

Vena Konvensiyasiga asosan oldi-sotdi shartnomasidagi majburiyatlarini taraflar buzgan taqdirda javobgarlikning umumiy asoslarida yetkazilgan zararni va boy berilgan foydani qoplash haqidagi talabnoma bildirilishi mumkin. Shartnoma muddatini o'tkazib yuborganligi uchun neustoyka shartlari taraflar tomonidan kelishib olinadi. Agarda majburiyat yuklatilgan taraf, bo'lgan shartnoma buzilishini «uning nazoratida bo'lmagan to'siq» (yengib bo'lmas kuch) natijasida kelib chiqqanligini isbotlab bera olsa javobgarlik kelib chiqmaydi. Konvensiyada quyidagi holatlar ham o'z ifodasini topgan:

1. Shartnomada shartlashilgan neustoykani qo'llash;

2. Pul majburiyatlarining bajarilish muddatini o'tkazib yuborganlik uchun yillik foiz miqdorini belgilash (ammo konvensiyada bunday foizlarni undirib olish huquqi belgilangan);

3. Shartnomaning haqiqiyliги va shu bilan bog'liq holda tashqi iqtisodiy bitimlarning shakli to'g'risidagi qoidalar, bunda milliy qonun normalariga amal qilingan bo'lishi lozim;

4. Da'vo muddatini qo'llash.

Ma'lum bir masalalar borki, ular konvensiya tomonidan umuman tartibga solinmagan yoki to'liq tartibga solinmagan. Shu sababli M.G.Rozenberg konvensiyaning quyidagi masalalariga o'z e'tiborini qaratadi: masalan: Konvensiya tomonidan tartibga solinmagan masalalarga, kollizion normalar asosidagi huquq qo'llaniladi – degan iboradan kelib chiqilsa, 1980-yilda qabul qilingan Vena Konvensiyasida kollizion masalalar mavjud emas. Buni konvensiyaning 7-moddasi 2-bandidan ko'rish mumkin, xususan aytilishicha, «mazkur konvensiya predmeti tomonidan hal etilishi kerak bo'lgan masalalarning to'g'ridan-to'g'ri hal etilmagani, konvensiyaning umumiy prinsiplari asosida hal etiladi. Agarda bunday prinsiplar mavjud bo'lmagan taqdirda – huquq asosida, xalqaro xususiy huquq normalari asosida», hal etiladi. Shunday qilib, konvensiyaning 7-

moddasi 2-bandi mezonidan: umumiy tamoyillar xalqaro xususiy huquq normalari asosida qo'llanilayotgan huquq hisoblanadi, degan tushuncha kelib chiqmoqda.

Davlatlar 1980-yilgi Vena Konvensiyasining ishtirokchisi bo'lish uchun, oldin 1964-yilda qabul qilingan «Tovarlarning xalqaro oldi-sotdisi to'g'risidagi shartnomalarni tuzish bir xil qonuni» to'g'risidagi Gaaga Konvensiyasini qabul qilishlari (denonsatsiya) kerak bo'ladi. Konvensiyaning bu qoidasi uni eng yuqori darajada qo'llanish sohasini kengaytirish, shu bilan bir qatorda milliy qonunchilikka kiritish maqsadida qo'llaniladi. Faqat XX asrning 70 – 80-yillaridagina savdo sohasiga oid bir xil moddiy-huquqiy normalarning majud emasligi, o'z-o'zidan konvensiyani moddiy-huquqiy qoidalar bilan to'ldirishni taqozo etdi. Bu muammo keyinchalik 1986-yilda tovarlarning xalqaro oldi-sotdi shartnomalariga qo'llanadigan huquq to'g'risidagi konvensiyaning qabul qilinishi bilan hal etildi. Konvensiya 1985-yilda Gaaga konferensiyasining navbatdagi sessiyasida ishlab chiqildi va uning qoidalari bevosita ko'char mulklarning «Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan» xalqaro oldi-sotdisida qo'llanilishi mumkin bo'ldi. Bunday ko'rinishga ega bo'lgan bitimlar doirasiga taraflari turli davlatlar bo'lgan shartnomalar kiradi. Shuningdek Konvensiya kimoshdi savdosi yoki birjadagi oldi-sotdilarga ham qo'llanilishi mumkin bo'ldi. Bundan tashqari Konvensiyada huquqni tanlashga oid : «Oldi-sotdi shartnomasi taraflar tanlagan huquq bilan tartibga solinadi. Taraflarning bunday tanlov haqidagi kelishuvlari yaqqol ko'rinib turishi kerak yoki shartnoma va taraflarning xulq-atvoridan kelib chiqishi kerak» ligi to'g'risidagi yangi qoidalar o'z aksini topdi.

Konvensiyaning taraflar shartnoma tuzish vaqtida qo'llaniladigan huquqni tanlashmagan bo'lsa, 7-moddada ko'rsatilganidek, unda sotuvchi shartnomani imzolayotganda uning tijorat Tashkiloti qayerda bo'lsa, o'sha davlatning huquqi bilan tartibga solinadi. Shunday qilib, bu masalada mavjud bo'lgan xalqaro kelishuvlarning tajribasi qo'llanilgan (1955-yilgi Gaaga Konvensiyasi).

Konvensiyaning 22-moddasiga asosan agarda oldi-sotdi shartnomasi taraflari xalqaro kelishuvlarning ishtirokchisi hisoblangan davlat bo'lsa, bunday holda konvensiya qoidalari qo'llanilmaydi.

Xalqaro savdo amaliyotida yirik eksport va import qiluvchilar tomonidan, shuningdek ularning uyushmalari yoki assotsiatsiyalari

tomonidan XIX asr oxirlarida ishlab chiqilgan namunaviy shartnomalar keng qo'llaniladi.

Hozirgi sharoitda yirik firmalar namunaviy shartnomalarni keng qo'llamoqda. Masalan, AQSHda import qiluvchilar assotsiatsiyasining 47,2 % va eksport qiluvchilar assotsiatsiyasining 39,7 % xalqaro savdoda namunaviy shartnomalarni qo'llaydi. Namunaviy shartnoma, shartnomaning shunday bir shakli, u faqat taraflarning kelishuvi mavjud bo'lgandagina majburiydir. Bunday shartlarning mazmuni esa bevosita bu shartlar qaysi davlatda ishlab chiqilgan bo'lsa, o'sha davlatning huquqi va amaliyotiga asoslanadi.

BMTning Yevropa Iqtisodiy Kengashi tomonidan uskuna va mashinalar, arralanayotgan yog'och-taxtalar va boshqalarni yetkazib berishni umumiy shartlari ishlab chiqilgan. Oddiy namunaviy shartnomalar kabi, bunday umumiy shartlar faqat aniq shartnomalarda qo'llaniladi.

Yevropa Iqtisodiy Kengashi (YEES) tomonidan 1990-yilda ishlab chiqilgan Qarshi savdo sohasidagi qo'llanma, ya'ni qarshi savdodagi xalqaro shartnomalar va xalqaro kompensatsiya shartnomalari bo'yicha qo'llanmalar o'z navbatida O'zbekiston Respublikasida qarshi savdoga oid munosabatlarini huquqiy tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tovarlarni dengiz va daryo transport vositalarida tashish bilan bog'liq oldi-sotdi shartnomalarini tuzish va ijro etishda urf-odatlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, urf-odatlarining mazmuni turli davlatlarda va xattoki bir davlatning bir nechta portida bir-biriga to'g'ri kelmasligi mumkin. Ana shunday urf-odatlar asosida xalqaro savdo amaliyotida «KAF», «SIF», «FOB» va «FAS» shartlari asosida shartnomalar ishlab chiqilgan. Bu atamalar ingliz so'zlarining birinchi harflaridan tashkil topgan bo'lib, quyidagilarni anglatadi:

«KAF»-»narxi va fraxt (kira haqi)»-sotuvchi tovarni shartnomada ko'rsatilgan portgacha yetkazib berish uchun kemani kiraga oladi va kira haqini o'zining shaxsiy mablag'i hisobidan to'laydi;

CIG' «SIF»-»narxi, sug'urtasi, fraxt (kira haqi)», ya'ni sotuvchi tovarni o'z hisobidan portga olib boradi, tovarni kema bortiga yuklaydi, kira haqi va to'lovlarni to'laydi, yukni sug'urta qiladi va yukni yuborish bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarni topshiradi;

G'OB «FOB»-»bemalol ko'rsatilgan yuklash portidagi kema bortigacha», ya'ni sotuvchi tovar narxini ko'rsatadi va tovarni kema

bortigacha yetkazib berish uchun lozim bo'lgan to'lov xarajatlarini, shu jumladan eksport bojlarini o'zining hisobidan to'laydi;

G'AS «FAS»-»bemalol ko'rsatilgan yuklash portidagi kema bortigacha», ya'ni sotuvchi tovarni kema bortiga yetkazib beradi, ammo kirakash, ya'ni yukni tashish majburiyatini o'zining zimmasiga olgan tashuvchi keltirilgan tovarlarni kema bortiga o'z kuchi bilan va mablag'lari evaziga yuklaydi.

Tegishli tashkilotlar shunday shartlar asosida tuzilgan shartnomalarni amalda qo'llaydilar. Odatda «FOB» shartlari asosida tuzilgan shartnomalarda sotuvchi o'z hisobidan tovarni yuk jo'natilayotgan portga yetkazishib berishi, kema bortiga yuklashi va portda yukni jo'natish bilan bog'liq bo'lgan barcha to'lovlar – soliq, bojxona yig'implari va boshqalarni to'lashi shart. Sotuvchi tovarning ehtiyotsizlikdan nobud bo'lishi va uning sifati buzilishining oldini olish choralarini ko'rishga Mas'ul hisoblanib, kema portdan jo'nab ketguncha mulkiy javobgarlik uning zimmasida bo'ladi.

«FOB» shartlari asosida tuzilgan tovarlar oldi-sotdisi shartnomalarida kemani fraxtlashni sotib oluvchi amalga oshiradi, ammo tovar sotuvchining davlatidan yuklanadi. Shuning uchun fraxtlash jarayonini amalga oshirish sotuvchiga qulay bo'lib hisoblanadi. Bunday holatlarda sotib oluvchi sotuvchiga alohida shartnoma bo'yicha va alohida mukofot evaziga sotib oluvchi uchun va uning nomidan kerakli kemani fraxtlashni topshiradi. Fraxtlash shartnomasi taraflari yuk tashuvchi (sotuvchi emas) va sotib oluvchi bo'lishiga qaramay, bu oldi-sotdi shartnomasi o'zgarmasdan, «FOB» shartnomasi bo'lib hisoblanadi.

«SIF» shartnomasi bo'yicha sotuvchining majburiyatlariga quyidagilar kiradi: o'zining hisobidan tovarni yuklanayotgan portga yetkazib berish; tovarni tashish uchun kerakli kemani fraxtlash, ya'ni tovarni olib kirish va olib chiqish bilan bog'liq soliq va yig'implarni to'lash; sotib oluvchi foydasiga o'z hisobidan tovarni sug'urtalash.

«FOB», «SIF» va boshqa atamalarining sharhlari «Trade Terms» savdo odatlari berilgan adabiyotlarda 1953-yilda Xalqaro savdo palatasi tomonidan chiqarilgan. Bundan tashqari Xalqaro savdo palatasi savdo termin (atama)larini sharhlash qoidalari – «Xalqaro savdo terminlari» (1990-yil) nomli adabiyotni chiqardi. Mazkur adabiyot so'nggi yillarda amaliyotda juda keng qo'llanayotgan kompyuter tizimi qo'llanishini, shuningdek tashish usullarini o'zgar-

tirishni, konteynerlardan foydalanishni va hokazolarni inobatga olgan.

1990-yildagi hujjatda tovar tashish usuliga qarab terminlar klassifikatsiya qilingan. Undan tovarlar xalqaro oldi-sotdi shartnomalarida qo'llanayotgan 15 terminning sharhlash qoidalari mavjuddir. Bu qoidalar tovarlarning barcha turlariga qo'llanilishi mumkin, lekin namunaviy shartnomalarning har biri esa asosan ma'lum bir tovar uchun qo'llanilishi mumkin.

Hozirgi vaqtda «Inkoterm – 2000» ishlab chiqilgan va amal qilmoqda. Bunda «Inkoterm-1990» qoidalari hozirgi davr sharoitlarini hisobga olgan holda yanada takomillashtirilgan.

5-§. Texnikaviy yordam berish va korxonalar qurish bo'yicha kelishuvlar

Hozirgi paytda O'zbekistonda qurilish ishlarini chet el pudratchilari tomonidan olib borish keng tarqalmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda O'zbekistondagi yirik sanoat va maishiy obyektlarni qurish yoki ularni ta'mirlash ishlari asosan pudrat shartnomasi orqali chet el pudratchi tashkilotlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Masalan: O'zbekiston va Turkiya tadbirkorlari ishtirokida O'zbekiston hududida birgalikda faoliyatni amalga oshirish, chunonchi korxonalar tashkil qilish to'g'risida tuzilgan shartnomaga O'zbekiston qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalar tatbiq qilinadi (FKning 1190-moddasi), shu bilan bir qatorda respublikamizda qad ko'targan «O'ZDEUAVTO», Zarafshon-Nyumant qo'shma korxonalari; Sheraton-Toshkent, Interkontinental mehmonxonalari chet el pudratchilari tomonidan qurilgan.

Shartnomalar tizimida konsessiya va shunga o'xshash kelishuvlar alohida o'rin egallaydi. Rossiyada, Qirg'izistonda, Vengriyada, Buyuk Britaniyada, Norvegiyada, O'zbekistonda va bir qator boshqa mamlakatlarda bunday shartnomalarni tuzish tartibi va shartlari qonunchilik yo'li bilan tartibga solinadi.

6-§. Konsessiyaviy kelishuvlar

O'zbekiston Respublikasining «Konsessiya to'g'risida»gi qonuni 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan. Konsessiya (lot. ruxsat etish) so'zining ma'nosi, uning mohiyati va vazifasi «Konsessiya to'g'risi-

da»gi qonunning 1-moddasiga ko'ra, Konsessiya chet ellik investorga (xorijiy davlatlar, chet ellik yuridik shaxslar, xalqaro tashkilotlar, chet ellik fuqarolar va yuridik shaxslar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet elda doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari) xo'jalik faoliyatining muayyan turi bilan shug'ullanish uchun davlat nomidan beriladigan ruxsatnoma bo'lib, bu faoliyatni amalga oshirish uchun davlat chet ellik investorga konsessiya shartnomasi tuzish asosida mol-mulk, yer va yer osti maydonlarini 15 yilgacha bo'lgan muddatga topshiradi. Bu yerda davlat chet ellik investorlarga konsessiyachilik faoliyati bilan bog'liq mol-mulkka, yer va yer osti maydonlariga egalik qilish hamda ulardan foydalanish huquqini berib, ularni tasarruf etishdan iborat bo'lgan alohida muayyan huquqni o'zida saqlab qoladi. Konsessiya o'z huquqiy tabiatiga ko'ra ma'muriy hujjat, biroq bu hujjat fuqarolik-huquqiy shartnomani tuzish uchun yagona asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida konsessiyaviy munosabatlarning asosini quyidagilar tashkil qiladi:

o'zaro foydalilik;

konsessiyachilarni tanlov va kim oshdi (auksion) savdolari asosida ajratib olish;

konsessiyachining O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq olib borayotgan xo'jalik faoliyatiga aralashmaslik;

mehnatni muhofaza qilish. Tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni himoyalash, ekologiya va sanitariya-gigiyena xavfsizligi sohaslarida O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan qonun hujjatlariga rioya qilish;

agar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnomalar yoki bitimlarda o'zgacha shartlar nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida amal qilib turgan standartlar va normativ hujjatlarga mos keladigan mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi hududida konsessiyaviy munosabatlar sohasidagi davlat boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi, tegishli vakolat olgan davlat boshqaruv organi, shuningdek davlat hokimiyati organlari amalga oshiradi.

Davlatning xususiy tadbirkorlar bilan tuzadigan konsessiya kontraktlarini xalqaro shartnomalarga tenglashtirishga yo'l qo'ymas-

ligi o'z fuqarolariga ham, chet ellik fuqarolarga ham birday taalluqlidir. Har ikkala holatda ham konsessiya davlat nomidan beriladigan hujjat hisoblanadi.

Har bir huquqiy munosabatning obykti va subykti bo'lgani kabi konsessiyaviy munosabatlarning ham obykti va subykti mavjud. Konsessiya shartnomasining predmeti bo'lmish mol-mulkni, yer va yer osti uchastkalarini berib qo'yish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyatining O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan taqiqlab qo'yilmagan ayrim turlari konsessiyaviy munosabatlarning obykti bo'lib hisoblanadi. Uning subykti esa mol-mulk, yer va yer osti uchastkalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan taqiqlab qo'yilmagan xo'jalik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanish huquqini berib qo'ygan konsessiya organi – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, u vakil qilgan davlat boshqaruvi organi joylardagi davlat hokimiyati organlari bilan konsessiya shartnomasini tuzgan konsessiyasi – chet ellik investordir. Boshqacha aytganda konsessiyaviy munosabatlarning subykti bo'lib fuqarolar, chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasining chet ellarda yashovchi fuqarolari, tashkilotlar (davlat va nodavlat tashkilotlari) va davlat bo'lishi mumkin.

Konsessiya shartnomasi chet ellik investor bilan tegishli konsessiya organi o'rtasida tuziladi va ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi. Mazkur shartnoma o'zining muhim belgilari-ga ega bo'lib, bu belgilar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

birinchidan, chet ellik investor bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, tegishli vakolat olgan davlat boshqaruvi organi, shuningdek joylardagi davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi investitsiya munosabatlarining mavjudligi, yani chet ellik tadbirkor o'zining xohish irodasiga ko'ra o'z sarmoyalarini bevosita konsessiyachilik yo'lida sarf qilib, unga shartnoma asosida O'zbekiston Respublikasining tabiiy boyliklarini qidirib topish, qazib olish hamda mazkur uchastkalarda konsessiya shartnomasida ko'rsatib o'tilgan va shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan barcha majburiyatlarni muayyan muddat mobaynida bajarishni o'z zimmasiga oladi;

ikkinchidan, konsessiya shartnomasi bevosita tanlov va auksionlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan chet ellik investorlar bilan o'zaro foydalilik asosida tuziladi. Bunga ko'ra chet ellik investor

o'ziga konsessiya shartnomasi asosida muddatli foydalanish uchun berib qo'yiladigan tabiiy resurslardan mamlakatning ichki qonunchiligiga va mazkur shartnoma shartlariga qat'iy rioya qilgan holda foydalanadi va eng muhimi konsessiyachi shartnomada belgilab qo'yilgan konsessiya to'lovlarini o'z muddatidan kechiktirmasdan to'lab boradi. Konsessiyachining shartnoma shartlarini bajarmasligi keyinchalik mazkur shartnomaning muddatidan oldin bir tomonlama bekor qilinishiga sabab bo'ladi;

uchinchidan, konsessiya shartnomasi konsessiyachi bilan tavakkalchilikni bevosita konsessiyachining o'z zimmasiga yuklash tamoyili asosida tuziladi. Ya'ni konsessiyachi mazkur shartnomaning amal qilish muddati davomida konsessiyachilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha tavakkalchiliklarni va o'z xodimlarini mustaqil sug'urta qilishni o'z zimmasiga oladi;

to'rtinchidan, konsessiya shartnomasida ishtirok etuvchi chet ellik investor bunday shartnomani tuzishda konsessiya organi bilan shartnomaviy erkinlikka asoslanadi. Ya'ni konsessiya shartnomasini tuzishda majbur qilishga umuman yo'l qo'yilmaydi.

Konsessiya berishning yana bir eng muhim shartlaridan biri bu konsessiya bo'yicha tanlov yoki auksionlarning o'tkazilishi haqidagi xabarni eng kamida uch oy oldin ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinishini ta'minlashdir. Agar bu muddat yetarli emas, deb hisoblansa konsessiya organining o'z tashabbusi bilan kamida besh oy oldin ham tanlov va auksionlar o'tkazilishi haqida ommaviy axborot vositalari orqali xabar tarqatib, ularni o'tkazish vaqti va joyi, shuningdek buyurtmanomalar berish muddati ko'rsatiladi («Konsessiya to'g'risida»gi qonunning 13-moddasi). Konsessiya olish uchun tanlov va auksionlarda ishtirok etib g'oliblikni qo'lga kiritgan chet ellik investor konsessiya beruvchi organ bilan konsessiya shartnomasi tuzadi. Tuzilgan konsessiya shartnomasi O'zbekiston Respublikasining Adliya Vazirligida tegishli tartibda hujjatlarning huquqiy ekspertizasidan va davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Mazkur shartnoma ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokida tashkil topgan korxonalar, yani yuridik shaxs maqomida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Konsessiyalar to'g'risida»gi qonunining 7-moddasiga asosan konsessiya munosabatlari sohasida davlat boshqaruvi tegishli vakolat olgan davlat boshqaruvi organlari, shuningdek joylardagi davlat hokimiyati organlari tomonidan

amalga oshiriladi. Yuqorida ko'rsatilgan moddaning mazmunidan ko'rinib turibdiki, davlat bu shartnoma turining subyekti hisoblanadi va uning bergan vakolatnomasi asosida davlat boshqaruvi organi yoki bo'lmasa joylardagi davlat hokimiyati organlari bevosita o'zlariga berilgan vakolat doirasida konsessiyachilik sohasida quyidagi huquq va majburiyatlarga egadir:

- konsessiyachilik faoliyatining ustuvor yo'nalishlari dasturlarini mustaqil ishlab chiqish;

- konsessiya berish uchun tanlovlar hamda auksionlar o'tkazish tartibi va shartlarini belgilash;

- konsessiya loyihalari va dasturlarini davlat ekspertizasidan o'tkazish tartibini belgilash;

- konsessiya shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilash;

- konsessiya berilmaydigan yoki konsessiyaga berish cheklanadigan obyektlar ro'yxatini belgilash;

- konsessiya shartnomasining shartlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni tashkil qilish;

- tanlovlar va auksionlar tashkil qilish va ularni o'tkazish;

- konsessiya shartnomalarini tuzish va qonun hujjatlariga muvofiq konsessiyachilik munosabatlari sohasidagi boshqa masalalarni ham hal qilish huquqiga egadir.

Davlat mazkur konsessiya shartnomasi amal qilib turgan muddat davomida konsessiyachining konsessiyaviy faoliyatini amalga oshirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratib berishga majburdir.

O'zbekiston Respublikasi hududida konsessiyaviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi chet ellik investor xalqaro huquq prinsiplari va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

- konsessiya shartnomasi asosida investitsiyalashni amalga oshirishning hajmlari, turlari va yo'nalishlarini mustaqil belgilash;

- konsessiyaviy faoliyatni amalga oshirish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan shartnomalar tuzish;

- shartnoma muddati davomida o'zining investitsiyalariga va konsessiyaviy faoliyatining natijalariga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish;

- konsessiyaviy faoliyat natijasida olingan daromadni mustaqil va erkin tasarruf etish;

– konsessiya shartnomasi asosida va aynan shu konsessiyaviy faoliyatini amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasiga kredit va qarzar tariqasida valuta mablag‘larini jalb qilish;

– o‘z hisob varaqasidagi milliy valuta mablag‘laridan ichki valuta bozorida chet el valutasini sotib olish uchun foydalanish;

– ajratilgan yer uchastkasidan, suv resurslaridan, energiya manbalaridan, muhandislik kommunikatsiyalaridan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish, foydalanayotgan hududda binolar, inshootlar, shoxobcha yo‘llar, shosselar, telegraflar va telefon aloqa liniyalarini qurish;

– mol-mulk tarkibiga uning qiymatini oshiradigan o‘zgartirishlarni mustaqil kiritish, uni qayta qurish, kengaytirish, texnika bilan qayta qurollantirish;

– O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o‘ziga mulk huquqi asosida qarashli bo‘lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan konsessiya shartnomasiga asosan o‘zining zimmasiga olgan majburiyatlarining, shu jumladan qarz mablag‘larini ta’minlash sifatida foydalanishga;

– konsessiyaviy faoliyatini o‘z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya qilingan taqdirda mutanosib ravishda tovon olishga;

– o‘zi ishlab chiqargan mahsulotlaridan olingan foyda evaziga ehtiyojlari va xodimlarining shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulk va zarur materiallar olib kirish;

– o‘z mol-mulkini va o‘zi ishlab chiqargan mahsulotni olib chiqib ketish;

– O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda ularning mansabdor shaxslarining g‘ayriqonuniy harakatlari (harakatsizlik) hamda qarorlari natijasida yetkazilgan zararni undirish.

Konsessiyachi konsessiyachilik faoliyati davomida quyidagilarni bajarishi shart:

– konsessiya shartnomasi shartlariga rioya qilishi;

– xo‘jalik faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va konsessiya shartnomasiga qat’iy rioya etgan holda amalga oshirish;

– O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa to‘lovlar to‘lashi;

– konsessiyaviy munosabat bilan o‘z zimmasiga olgan shartnoma majburiyatlari bo‘yicha javob berishi;

– konsessiyaviy munosabatlarida O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlaridan kelib chiqadigan sanitariya-gigiyena, ekologiya-ga oid va boshqa talablarga rioya etilganligi xususida ekspertiza xulosasini olish;

– o‘z raqobatchilariga nisbatan qo‘shimcha imtiyozlar va afzalliklar olish maqsadida konsessiyaviy faoliyat bo‘yicha sheriklariga yoki davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlariga bevosita yoki bilvosita noqonuniy ta‘sir o‘tkazishning har qanday shakllaridan o‘zlarini tiyishlari;

– konsessiya shartnomasining amal qilishi tamom bo‘lganidan yoki u muddatidan ilgari bekor qilinganidan keyin ikki oylik muddatda shartnomaga muvofiq o‘ziga berilgan mol-mulkni va barcha konsessiya obyektlarini konsessiya organiga qaytarib topshirishi, shuningdek o‘z mol-mulkini tasarruf etishi;

– buxgalteriya hisobini belgilab qo‘yilgan tartibda yuritishi;

– O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va konsessiya shartnomasi shartlariga rioya etmaganlik uchun umumiy asoslarda javobgar bo‘ladi hamda o‘ziga mulk huquqi asosida qarashli bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq undirishga qaratilgan o‘zining mol-mulki bilan javob berishi.

O‘zbekiston Respublikasi «Konsessiya to‘g‘risida»gi qonunning 18-moddasi 2-bandiga binoan konsessiya shartnomasi tomonlarning o‘zaro kelishuviga muvofiq tomonlarning biri shartnoma shartlarini buzgan taqdirda sud qaroriga muvofiq, shuningdek konsessiyachi shartnoma tuzish chog‘ida taqdim etgan ma‘lumotlar noto‘g‘ri ekanligi ma‘lum bo‘lib qolgan taqdirda konsessiya organi tomonidan bekor qilinishi mumkin.

XII BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Tashqi iqtisodiy bitim tushunchasi va oddiy bitim tushunchasi o‘rtasidagi nisbat qanday?

2. O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan qonunchilikda tashqi savdo bitimlari shakliga nisbatan qanday qoidalar mavjud?

3. Muxtoriyatlik prinsipining mazmuni nimalarda namoyon bo‘ladi?

4. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida tashqi savdo bitimlariga nisbatan huquqni qo‘llash masalasida qanday qoidalar mavjud?

5. Tovarlarining xalqaro oldi-sotdi shartnomalari haqidagi 1980-yilgi BMT Konvensiyasining mazmunida qanday qoidalar yotadi?

6. Konsessiyaviy kelishuvlarning mazmunida qanday qoidalar mavjud?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Лунц Л.А. Курс международного частного права. Особенная часть. –М.: 1975. –С.237-327.

2. Лунц Л.А., Марышева Н.И., Садиков О.Н. Международное частное право. –М.: 1984. –С.179-198.

3. Садиков О.Н. Правовое регулирование международных перевозок. –М.: 1981.

4. Садиков О.Н. Реформа Бренских конвенций о железнодорожных перевозках, Внешняя торговля. 1882. –С.26-28.

5. Курс воздушного права. В 2 томах. –М.: 1981. Т.2.

6. Малеев Ю.Н. Международное воздушное право: вопросы теории и практики. –М.: 1986.

7. Гуреев С.А. Коллизионные проблемы морского права. –М.: 1972. Московский А.Л. Международное право. 1984.

8. Нецатеева Т.Н. О некоторых вопросах применения арбитражными судами международных договоров. Вестник ВАС Рос.Фед. 1997. №7. С.117-120.

9. Международное частное право: Сб. документов \Сост. К.А.Бекашев. А.Г.Ходаков. –М.: 1997. –С.301-477.

10. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. «Adolat», 1996-yil, 527-537-bet.

11. М.М.Богуславский. Международное частное право. –М.: Юристъ, 1999. –С.195-225.

12. I.Zokirov. Fuqarolik huquqi. Toshkent, 1995-yil.

13. Fuqarolik kodeksiga sharhlar, 3-jildi, T. Iqtisodiyot va huquq. 1999-yil.

14. S.S.Xamroyev. O'zbekistonda tabiiy boyliklardan foydalanish (konsessiya)ning huquqiy tartibga solinishi. –Т.: NPO, 1999-yil.

ERKIN IQTISODIY ZONALAR

1-§.Erkin iqtisodiy zonalar tushunchasi, ularni tashkil etish va tugatish asoslari

Erkin iqtisodiy zona deb, mintaqaviy jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hudud tushuniladi.

Hozirgi kunda xalqaro xo'jalik faoliyatida erkin iqtisodiy zonalarining 30 dan ortiq turi mavjud. Chet ellarda iqtisodiyotni sog'lomlashtirishning samarali vositalaridan biri mamlakatga chet el investitsiyasini kiritish uchun zarur shart-sharoit yaratish va ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga xorijiy investorlarni jalb qilishga nisbatan ochiq tashqi siyosat yuritish hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish va farovon investitsiyali iqlimni yaratishning boshqa vositalari bilan bir qatorda xorijiy mamlakatlarda turli erkin iqtisodiy zonalarini shakllantirish metodi qo'llaniladi. Ushbu yo'l bilan mamlakatlar bunday tuzilmalarni ta'sis etish yordamida o'z oldida turgan ba'zi iqtisodiy masalalarni hal qiladi. Erkin iqtisodiy zonalar qabul qilayotgan mamlakat o'z iqtisodiyotiga ilg'or texnologiya, valuta kirimlari shaklidagi chet el sarmoyalarini jalb qilish, zamonaviy infra tuzilmasini yaratish, ichki iste'mol bozorini to'ldirish, qoloq hududlarni jadal rivojlantirish, qo'shimcha ishchi o'rinlarini yaratish, shuningdek iqtisodiyotni boshqarish sohasida va zamonaviy xalqaro tadbirkorlik sohasidagi ilg'or xalqaro tajribaga ega bo'lish maqsadida tashkil etiladi.

Jahon mamlakatlarining ko'p yillik xalqaro tajribasi iqtisodiyotni sog'lomlashtirish va hayotga yangi iqtisodiy g'oyalarni qabul qilayotgan davlatlarning alohida ajratilgan hududlarda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishi samarali ekanligini ko'rsatib turibdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi oldida iqtisodiyot sohasida ma'lum muammolarni, ya'ni milliy texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish, eksport salohiyatini o'stirish, valuta zaxiralarini to'ldirish, o'z moliya resurslarini ijobiy hal etishda erkin

iqtisodiy zonalarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi qonuni, erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi Nizomlar va boshqa qonun osti hujjatlari shular jumlasidandir.

O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini tuzish Vazirlar Mahkamasining taqdimnomasiga binoan Oliy Majlis qarori bilan amalga oshiriladi. Har bir tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonaning maqomi va chegaralari, shuningdek, uning qancha muddatga tuzilishi ushbu tuzilgan iqtisodiy zona haqidagi Nizom bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasida har bir erkin iqtisodiy zona bo'yicha Nizom Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda ularning tashkil etilish maqsadlariga katta ahamiyat beriladi. Chunki har bir erkin iqtisodiy zona biron-bir mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, ba'zida siyosiy shart-sharoitidan kelib chiqqan holda tashkil etiladi. Masalan: rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Fransiya, Angliya, Yaponiya)da erkin iqtisodiy zonalar ishsizlik ko'p bo'lgan, rivojlanmagan mamlakatlarda infra tuzilmaga ega bo'lmagan hududlarda shu hududlarni rivojlantirish uchun tashkil etiladi.

O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etishda quyidagi vazifalar maqsad qilib qo'yiladi: mamlakat va chet el investitsiyasini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etishni, eksportni rag'batlantirish, uning tarkibini yaxshilash, ish bilan bandlikni oshirish va malakali kadrlarni tayyorlash, yer uchastkasini ijaraga berish, bino-inshootlar ijarasi, tijorat va boshqa xizmatlarni taqdim etishdan keladigan qo'shimcha valuta daromadini olish.

Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik shaxslar va fuqarolar (jismoniy shaxslar) xo'jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yiladi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari bundan mustasno.

Erkin iqtisodiy zonaning faoliyat muddati belgilangan muddat tugashidan kamida 3 yil oldin Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritiladigan taqdimnomaga muvofiq Oliy Majlis qarori bilan uzaytiriladi.

Erkin iqtisodiy zonalarining maqomini tugatish qonunga asosan erkin iqtisodiy zona to'g'risidagi Nizomda belgilangan muddat

tugaganda; ushbu Nizomda nazarda tutilgan vazifalar va maqsadlar bajarilmagan taqdirda amalga oshiriladi. Erkin iqtisodiy zonaning maqomini tugatish to'g'risidagi qaror belgilangan muddat tugashidan kamida 3 yil oldin Vazirlar Mahkamasi kiritgan taklifnomaga binoan Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi (qonunning 4-mod-dasi).

2-§. Erkin iqtisodiy zonalarning turlari

Jahon tajribasida erkin iqtisodiy zonalarning turli ko'rinishlari mavjud. Ularni tasniflashda erkin iqtisodiy zonalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Ya'ni hududi, joylashuvi, konfiguratsiyasi; ishlab-chiqarish va boshqa resurslar mavjudligi va sifati; mazkur resurslar realizatsiya qilinadigan tabiiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlar xususiyatlari; davlat erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda o'zining oldiga va erkin iqtisodiy zonalarga oldiga qo'ygan vazifalar; o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal etish va belgilangan maqsadga erishish uchun davlat unga bergan funksiyalar; erkin iqtisodiy zonalarning davlat ruxsat etgan xo'jalik faoliyati turi; hududning milliy taalluqligi va hokazo. U yoki bu iqtisodiy zona hududida ustunlik qiluvchi faoliyat turi va erkin iqtisodiy zonalarga to'g'risidagi qonunning 5-moddasiga muvofiq erkin iqtisodiy zonalarga quyidagi turlarga ajratilishi nazarda tutiladi:

- erkin savdo zonalari;
- erkin ishlab chiqarish zonalari;
- erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalari.

Xalqaro xususiy huquqda erkin iqtisodiy zonalarning turlari turlicha nomlanishi amalda ko'p uchraydi.

Savdo-omborxonalar zonalari. O'zbekiston Respublikasida savdo-omborxonalar zonalari erkin savdo zonalari deb yuritiladi. Unga ko'ra erkin savdo zonalari konsignatsiya omborlarini, erkin bojxonalar zonalari, shuningdek, tovarlarga ishlov berish, ularni o'rash-joylash, saralash, saqlash zonalari o'z ichiga oladi.

Erkin savdo zonalari chegaraga tutash punktlarda, aeroportlarda, temir yo'l uzellarida yoki O'zbekiston Respublikasi bojxonalar hududining boshqa joylarida tuziladi (qonunning 6-moddasi).

Hozirgi kunda O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan erkin savdo zonalari tarkibiga kiruvchi erkin ombor zonasi 2000-yil 2-noyabr

kuchga kirgan «Erkin ombor bojxona rejimi to'g'risida»gi muvaqqat Nizomga asoslanadi.

Nizomning 1-bandida ko'rsatilishicha erkin ombor – bu bojxona rejimi bo'lib, unda xorijiy mahsulotlar, tovarlar bojxona bojlari, soliq va ko'rsatilgan tovarlarga iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmasdan joylashtiriladi va foydalaniladi, O'zbekistonning tovarlari esa olib chiqishga nisbatan qo'llaniladigan eksportning bojxona rejimiga ko'ra ma'lum shartlarda joylashtiriladi va qo'llaniladi.

Vaqtinchalik nizomga muvofiq erkin omborxonada O'zbekistonga olib kirish yoki olib chiqish, O'zbekiston Respublikasi hududidan tranzit orqali olib kirish yoki olib chiqish man qilingan tovarlar va qonunchilikda nazarda tutilgan tovarlardan tashqari har qanday mahsulotlar saqlanishi mumkin.

Erkin omborlarda saqlanayotgan mahsulotlar bilan quyidagi operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin: o'rash, saqlash, ularning saqlanishi uchun maqbul harorat yaratish.

Erkin omborlarda bojxona organi ruxsati bilan ularning chakana savdosini istisno qilgan holda tovarlarni ishlab chiqish va tijorat xarakteridagi operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat etiladi (ulgurji savdo).

Savdo omborxonada zonalari shunday zonalarki, ularda xorijiy kelib chiqishga ega bo'lgan tovarlar odatdagi bojxona bojlarini to'lamasdan saqlanishi, sotilishi yoki sotib olinishi mumkin. Bojsiz savdo-omborxonada zonasiga 1973-yilgi Kioto Konvensiyasida ta'rif berilgan. Ushbu zonalar uchun 3 ta asosiy belgilar xos:

1)ular xalqaro bozorga xizmat ko'rsatish uchun tashkil etiladi;

2)ularga mamlakatning qolgan hududida amalda bo'lgan ko'pgina soliq to'lovlari va bojxona cheklavlari tatbiq etilmaydi (bojxona eksterritorialligi);

3)ular ma'lum bir ma'noda «erkin» bo'lishlariga qaramay, tashqi iqtisodiy aloqalari davlat tomonidan tartibga solinadi⁸⁵.

Bunday turdagi ilk zona Yevropada 50-yillarning oxirida Irlandiyada tashkil etilib, keyinchalik asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil etilgan.

Erkin-savdo omborxonada zonalari tarkibida mutaxassislar tashqi savdo zonalari (AQSH), erkin bojxona zonalari (Vengriya, Yugoslava

⁸⁵ Данько Т.П., З.М.Окрут. Свободно экономические зоны в мировом хозяйстве. –М.: "Инфра-М", 1998. –С.10.

viya), erkin bojsiz zonalar (Bolgariya) va erkin portlar (Germaniya, Shveysariya, Braziliya, Ruminiya)ni ajratishadi⁸⁶.

Savdo-omborxonalar zonalarini nafaqat mahsulotlarni qabul qilish, saqlash (odatda 1 yil muddatga), sotish, sotib olish, balki mazkur mahsulotlarning iste'mol xususiyatlarini yaxshilaydigan operatsiyalarni amalga oshirish uchun ham tashkil etiladi.

Ularning hududlarida korxonalar keng miqyosdagi ko'rgazma faoliyati bilan shug'ullanishlari, savdolar tashkil etish va savdo bojlarini, mahsulotning iste'mol xususiyati yaxshilanishi natijasidagi qo'shimcha qiymat solig'i olmasdan bank va sug'urta xizmatlarini taklif etishlari mumkin. Ular jumlasiga yirik xalqaro aero va dengiz portlarida tovarlarning bojsiz chakana savdosi amalga oshiriladigan «dyutifri»ni ham kiritish mumkin.

Eksport-ishlab chiqarish zonalarini. Ushbu zonalar bizda erkin ishlab chiqarish zonalarini deb yuritiladi.

Erkin ishlab chiqarish zonalarini – tadbirkorlikni rag'batlantirish, iqtisodiyotning ustun tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish, istiqbolli texnologiyalarni joriy etish maqsadida xo'jalik-moliyaviy faoliyatning alohida tartiboti joriy etiladigan hududlardir.

Erkin ishlab chiqarish zonalarini eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish zonalarini, agropoliqlarni, tadbirkorlik zonalarini va boshqa zonalarini o'z ichiga oladi (qonunning 7-moddasi).

Hozirgi kunda erkin iqtisodiy zonalarining eng ko'p tarqalgan turi sanoat yoki eksport-ishlab chiqarish zonalaridir. XX asrning 60-yillarida kuchli integratsiya jarayonlari bilan bog'liq holda jahonning turli mintaqalarida faqat eksport uchun ishlab chiqarishni rivojlantirishga mo'ljallangan zonalar tashkil etila boshlandi. 20 yil ichida, 1965-yildan 1985-yilga qadar ularning soni 3 tadan 260 taga yetdi. XX asr oxirlariga kelib erkin iqtisodiy chegara zonalarida ish bilan band bo'lganlar soni 3 mln. kishidan ortib ketdi, eksport hajmi esa 25 mlrd dollarni tashkil etdi⁸⁷.

Eksport ishlab-chiqarish zonalarini eng ko'p Osiyo (20 ga yaqin), Afrika, Lotin Amerikasida (60 dan ortiq), rivojlanayotgan mamlakatlarda tarqalgan. Bunday tipdagi zonalar Vengriya, Ruminiya, Yugoslaviya, Xitoy, AQSHda ham ko'zga tashlanadi. Ularning farqli jihati shundaki davlat imtiyozli valuta, moliyaviy rejimdan

⁸⁶ Т.П.Данько, З.М.Окрут. О'sha adabiyot. –С.10-11.

⁸⁷ Чжен В.А. Рыночное регионально-отраслевое развитие». 5 т. –Т.: Издание госкомимущества РУз. 1997. –С.250.

foydalanib zona hududida sanoatning ustuvor sohalari rivojini ta'minlaydi yoki qoloq tuman hududida xorijiy valuta yoxud mahalliy shtat, federal hokimiyatning investitsiyalarini jalb qilgan holda eksport sanoat ishlab chiqarishini yuzaga keltiradi. Bu mahalliy xom ashyo, yarim-fabrikatlardan yanada samaraliroq foydalanishga, ishlab chiqarish ustidan zamonaviy boshqarish usullarini joriy etishga, malakali kadrlarni tayyorlashga imkon beradi. Natijada boshqa tuman va mamlakatning o'zida yanada jadalroq iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin.

Bunday zonalar nafaqat xorij sarmoyasi oqib kelishini, balki texnologiyalar, «nou-xou» kelishini ta'minlaydi, yangi ishchi o'rinlarini yaratadi va ayni paytda o'z eksporti yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el firmalari raqobatidan asraydi.

Eksport ishlab chiqarish zonalaridan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

– birgalikdagi tadbirkorlik zonalar (Yugoslaviya, Vengriya, Bolgariya);

– erkin tadbirkorlik zonalar (AQSH, Buyuk Britaniya);

– maxsus iqtisodiy zonalar (Xitoy Xalq Respublikasi).

Ularga yana alohida imtiyozlardan foydalanadigan va ko'proq tashqi bozorga xizmat ko'rsatuvchi ba'zi bir chet el korxonalarini misol qilish mumkin. Masalan: Meksikaning chegaraga yaqin yerlarida Amerika firmalari ishlab chiqargan mahsulotni AQSH bozoriga yetkazib beradigan zavod qurilgan («Makiladors»)⁸⁸.

Eksport sanoat zonalarida tadbirkorlar mashina, xom ashyo, uning komponentlaridan olinadigan boj va boshqa to'lovlardan ozod qilinganlar. Chet el firmalari soliq, daromad solig'i to'lashdan va boshqa bilvosita va bevosita soliq to'lovlariga nisbatan beriladigan «soliq ta'tillari»ga egalar. Ularga valuta krediti va imtiyozli kredit olishda imtiyoz va erkinliklar berilgan.

Erkin ilmiy texnikaviy zonalar. O'zbekiston Respublikasida erkin ilmiy-texnikaviy zonalar alohida ajratilgan hududlardan iborat bo'lib, u yerda ilmiy-ishlab chiqarish va o'quv markazlari jamlanadi hamda ular uchun ilmiy va ishlab chiqarish imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus huquqiy tartibot o'rnatiladi.

⁸⁸ Дерюжина С.В. Правовые аспекты понятия. "С.Э.З." жур. "Гос. и Право". 1997. №5, -С.115.

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar zonolari, texnoparklar, mintaqaviy innovatsiya markazlari – texnopolislar shaklida tashkil etiladi (qonunning 8-moddasi).

Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar adabiyotlarda «texnopark», «texnopolis», «ilmiy parklar», «texnologik markazlar», «o'quv markazlari» deb yuritiladi. Ularning o'ziga xos jihati ular hududida ilmiy va ishlab chiqarish texnologik faoliyat zamonaviy ilmiy-ishlab chiqarish firmalari shaklida birlashishi va yirik ilmiy tadqiqot markazi, universitet miqyosida mavjud bo'lishidadir. Bunday zonalar tashkil etishdan maqsad butun moddiy va mehnat resurslarini, yangi texnologiyalarni sanoatga tatbiq etishni jadallashtirishga safarbar etish, yangi ishchi o'rinlarini ta'minlash, mintaqada va mamlakatda iqtisodni diversifikatsiyalash.

Ilmiy texnologiya zonolari iqtisodiy strukturasi qaysi sohaning ustunlik qilishidan kelib chiqib ularning 3 ta turi farqlanadi:

1) Innovatsiya markazi – bu uncha katta bo'lmagan uchastkada joylashtirilgan iqtisodiy tuzilma bo'lib, endigina yaratilgan kichik kompaniya uchun mo'ljallangan.

2) Ilmiy park – bu ancha katta hududga ega bo'lib, unda turli miqdor va rivojlanish bosqichidagi ilmiy ishlab chiqarish firmalari joylashgan bo'lib, mahalliy tadqiqot markazi (universitet)ning ilmiy-texnik qurilmalari asosida uncha katta bo'lmagan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga imkon beradi.

3) Tadqiqot parklari – ular doirasida ilmiy-texnik yangilik texnik prototip bosqichigacha ishlab chiqariladi. Bunday parklarda sanoat kompaniyalari ilmiy tadqiqot, sanoat konstruktorlik muassasalari birlashadi. Masalan: Bostonda «Klassik» tadqiqot parki o'zida kompyuter texnikasini ishlab chiqarish bo'yicha 700 dan ortiq sanoat kompaniyalarini birlashtirgan. Biroq 22 million fud hududning (sanoat va ilmiy inshootlarga ajratilgan) 2/3 qismi ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik inshootlari, binolari bilan band. Ilmiy parklar 400 yillik tarixga ega. AQSHda birinchi parklar San-Fransiskoda, Bostonda, Buyuk Britaniyada esa Kembridjda vujudga kelgan.

Chet ellik mutaxassislar fikricha, 1986-yil boshlarida AQSHda 100 dan ortiq parklar mavjud bo'lgan, Fransiya va Buyuk Britaniyada 26 ta va 36 ta bo'lgan. FRGda 1985-yilda 18 ta shunday parklar bo'lgan, Yaponiyada esa 20 ta texnopolis bo'lgan. Osiyoning yangi sanoat mamlakatlarida 10 ta texnopark mavjud (Janubiy Koreya, Singapur, Tailand, Malayziya, Tayvan).

Eng yirik ilmiy park yangi sanoat mamlakatlari Tayvanda 1980-yilda tashkil etilgan. Ushbu parkda sanoat-savdo ilmiy tadqiqot instituti, mikroelektronika ishlab chiqarish bo'yicha Tayvan kompaniyasi, elektronika ilmiy-tadqiqot instituti, biotexnologiyani rivojlantirish bo'yicha markaz va 100 dan ortiq sanoat korporatsiyalari joylashgan. Faoliyat turi bo'yicha turistik, sug'urta, bank, offshor (Shveysariya, Singapur, Gonkong, Kipr) va boshqa zonalar mavjud.⁸⁹

Yuqoridagilardan tashqari xalqaro tajribada erkin iqtisodiy zonalarining boshqa turlari ham mavjud. Ularning ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Kompleks erkin iqtisodiy zonalar. O'zida savdo, bojxona, ishlab chiqarish, tadqiqotchilik funksiyalarini qamrab olgan zonalar – kompleks erkin iqtisodiy zonalar deb ataladi. Bunday zonalarini tashkil qilishda zonalarda aniq sektorlar funksiyasi ustunligi va ularni yaratish ketma-ketligini aniqlab olish lozim. Ushbu zonalar shaharlar, rayonlar, viloyat va o'lkalar (yoki ularning bir qismi)ni qamrab olganidan yangi ma'muriy-hudud tashkil etish mumkin yoki zona tarkibiga qo'shni tumanning asosan yangi xo'jalik o'zlashtirish hududlarini kiritish va ularni qo'shma tadbirkorlik zonalarini sifatida rivojlantirish mumkin.

Erkin iqtisodiy zonalar zona chegaralarini rasmiylashtirish va ularning funksiyalanish rejimiga ko'ra ikki turga bo'linadi: Anklaf (berk) va integratsiyaviy erkin iqtisodiy zonalar.

Anklaf erkin iqtisodiy zonalar – o'z hududida ishlab chiqarilgan mahsulotni erkin konventatsiya qilinadigan valutada haq olish uchun eksport qilishga mo'ljallangan zonalardir. Ushbu zonalarini mamlakatning boshqa qismidan mahsulot va fuqarolarning o'z chegaralaridan maxsus o'tish rejimi bilan, erkin iqtisodiy zonalarini zonadan tashqaridagi ichki mexanizmdan iqtisodiy mustaqilligi o'ziga xos iqtisodiy iqlimini yaratuvchi ma'muriy va iqtisodiy uslublar bilan ta'minlanadi.

Anklaf zonalar asosan mamlakatdan tabiiy ajratilgan hudud (orol, yarim orol, dengiz qirg'oqlari va boshqa)larda tashkil etiladi. Shuningdek u shahar ichida ham tashkil etilishi mumkin. Odatda anklaf zona iqtisodiy rivojlanishi va aholining moddiy ahvoli past bo'lgan mamlakatlardan tashkil etiladi.

⁸⁹ Данько Т.П., Округ 3.М. Свободно экономические зоны в мировом хозяйстве. –М.: Инфра-М, 1998. –С.13-14.

Integratsiyaviy zonalar-milliy va dunyoviy iqtisod bilan jips faoliyat yuritishi uchun yanada erkin rejimga ega bo'lgan zonalardir. Ular ko'proq rivojlangan bozor iqtisodiyoti, xalqaro mehnat taqsimotiga keng kirib borgan mamlakatlarda tashkil etiladi. Integratsiyaviy zonalar bozor iqtisodiyoti rivojlangan, baynalmilallashgan iqtisodiyotda mavjud bo'ladi.

Integratsiyaviy zonalarda mamlakat hududida unifikatsiyalangan iqtisodiy va huquqiy rejim o'rnatiladi. Iqtisodiy zonalarga beriladigan hududlar hajmi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ular bir necha kilometr kvadratdan tortib minglab kilometr kvadratgacha bo'lishi mumkin.

Erkin iqtisodiy zonalar qancha mamlakatlar hududini qamrab olishiga ko'ra: yakka millatli (monomillatli), ya'ni bitta davlat hududida joylashgan va uning qonunlariga amal qiladigan va baynalmilal (xalqaro) – bir necha mamlakatlar hududini qamrab oluvchi va uning qoidalariga amal qiluvchi zonalarga bo'linadi.

To'la qonli iqtisodiy ittifoq tuzish maqsadida integratsiyaviy guruhlar dastavval erkin zonasini tuzadilar. Ular bojxona ittifoqi va umumiy bozor orqali iqtisodiy ittifoqqa evalyutsiyaviy tadjrijiy yo'l bilan erishishga harakat qilishadi. Erkin sanoat zonolari ikki yoki undan ortiq milliy xo'jaliklarni birlashtirish shakli, uning doirasida ishtirokchi davlatlar o'zaro savdo to'siqlarini o'rnatadi. Biroq ayni paytda ushbu davlatlardan har biri boshqa mamlakatlarga nisbatan o'z savdo to'siqlarini saqlab qoladi.

Ishtirokchi mamlakatlar chegaralari bojxona nazoratini saqlab qoladi, bundan maqsad uchinchi mamlakatlar orqali past sifatli arzon tovarlar kirib kelishiga yo'l qo'ymaslik.

Bojxona ittifoqi ishtirokchi mamlakatlar o'rtasidagi mahsulot va xizmatlar savdosi cheklovlarining olib tashlanishini nazarda tutadi. Buning uchun ular yagona tashqi savdo baryerlari tizimini tasdiqlashadi. Masalan, Yevropa iqtisodiy ittifoqi hozirgi kunda ayrim MDH davlatlari (Rossiya, Belorusiya, Qozog'iston) o'rtasida tuzilayotgan bojxona ittifoqiga boshqa MDH davlatlari va duyoning istagan bir mamlakati a'zo bo'lishi mumkin.

Umumiy bozor – bu xalqaro iqtisodiy erkin zonalar evolutsiyasining navbatdagi bosqichidir. Unda guruhlar ichida mahsulotlarning erkin harakat qilishi bilan bir paytda ishlab-chiqarish omillari (sarmoya, ishchi kuchi) erkin harakat qiladi.

To'liq iqtisodiy ittifoq unda ishtirokchi mamlakatlarning iqtisodiy siyosati, savdo-sotiq, ishchi kuchining harakati, sarmoyaning oqib kelishiga nisbatan pul, soliq ijtimoiy siyosati bilan birga unifikatsiyalashni ko'zda tutadi.

3-§. Erkin iqtisodiy zonalarning huquqiy rejimi

O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar o'zining huquqiy rejimiga ko'ra o'ziga xos jihatlarga ega. Ularda alohida bojxona, valuta, soliq tartiboti, shuningdek, fuqarolar kirishi, chiqishi va bu yerda bo'lishining, mehnat munosabatlari, moliya-kredit faoliyatining alohida tartiboti hamda investitsiyalarni jalb etishga, tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga va zonani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan o'ziga xos huquqiy rejim o'rnatilishi mumkin.

Erkin iqtisodiy zonalarda alohida bojxona tartibi belgilanadi. Unga ko'ra tovarlarni olib kirish va olib chiqish uchun bojxona bojlarining bekor qilinishi yoki kamaytirilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, tovarlar eksporti yoki importi uchun ta'rifdan tashqari cheklashlarni bekor qilish yoki yengillashtirish nazarda tutilishi ham mumkin. Erkin iqtisodiy zonalarda tovarlarni belgilangan tartibda bayonnomaga kiritgan holda erkin iqtisodiy zonaning bojxona chegarasi orqali olib o'tishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilishi mumkin.

Mamlakatimizda tashkil etilgan har bir erkin iqtisodiy zona hududida alohida bojxona tartibotini respublika bojxona xizmati belgilaydi. Erkin iqtisodiy zonalarda belgilangan alohida bojxona tartiboti erkin iqtisodiy zona hududi orqali tovarlarni tranzit tartibda olib o'tishga nisbatan qo'llanilmaydi.

Erkin iqtisodiy zona hududida alohida valuta tartiboti milliy va chet el valutarining erkin muomalada bo'lishi hamda ayirboshlanishi belgilab beriladi. Ushbu hududda alohida valuta tartibotining amal qilish tartibini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilaydi.

Erkin iqtisodiy zonalar xo'jalik faoliyatining qatnashchilari, ya'ni fuqarolar, yuridik shaxslar va boshqa subyektlar erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi Nizomda ichki va tashqi investorlar uchun teng shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda belgilangan soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqiga ega.

Mamlakatimiz hududida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlash uchun, eng avvalo, mahalliy mehnat resurslari jalb etiladi. Bundan tashqari respublikamizning boshqa mintaqalarida yashovchi shaxslar va chet ellik fuqarolar ham jalb etilishi mumkin. Ushbu zonalarga ishchi kuchini jalb etish tegishli hududning ishga joylashtirish xizmati mehnat birjalari orqali amalga oshiriladi.

Erkin iqtisodiy zonalarda mehnat munosabatlari qonun hujjatlari, jamoa shartnomalari va yakka tartibdagi mehnat shartnomalari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zona hududida faoliyat yuritayotgan fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga rioya etilishini kafolatlaydi.

Erkin iqtisodiy zonalarda investorlarning O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha kafolatlari va imtiyozlariga rioya etilishi ta'minlanadi. Nizomda qo'shimcha kafolatlari va imtiyozlar nazarda tutilishi mumkin.

Davlat organlari va boshqa organlar yoxud mansabdor shaxslarning yuridik shaxslar hamda fuqarolar (jismoniy shaxslar) faoliyatiga asossiz aralashuvi natijasida ularga yetkazilgan zarar, shuningdek boy berilgan foyda va yetkazilgan ma'naviy ziyon sud tartibida qoplanishi lozim.

Erkin iqtisodiy zona mustaqil budjetga ega bo'ladi.

Erkin iqtisodiy zonani shakllantirish bosqichida kreditlar berish yoki ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura obyektlarini to'g'ri-dan-to'g'ri investitsiyalash tarzida respublika budjeti va mahalliy budjetdan mablag'lar jalb etilishi mumkin.

Erkin iqtisodiy zonaning budjeti zona ma'muriyatining tasarrufidagi yer, binolar va inshootlarni ijaraga berishdan, turli xizmatlar ko'rsatishdan keladigan tushumlardan va Nizomda belgilangan boshqa tushumlardan tashkil topadi.

Erkin iqtisodiy zonaga chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning kirishi, iqtisodiy zonalardan chiqishi va shu hududda bo'lishining Nizomda belgilab qo'yiladigan soddalashtirilgan tartibi joriy etilishi mumkin.

Erkin iqtisodiy zona qatnashchilarining zonaga kiritgan investitsiyalari va tavakkalchiligini sug'urta qilish ixtiyoriy sug'urta shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Erkin iqtisodiy zonalarini boshqarish Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonunga va Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadigan Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Zonaning faoliyatini erkin iqtisodiy zona Ma'muriy kengashi muvofiqlashtirib turadi. Uning operativ boshqaruv organi zona Bosh direksiyasi hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy zonaning Ma'muriy kengashi Vazirlar Mahkamasini tomonidan joylardagi davlat hokimiyati organlari, tarmoq boshqaruv organlari, investorlar, shu jumladan chet el investorlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillaridan tuziladi.

Respublikamizda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonaning Ma'muriy kengashiga rais boshchilik qiladi. Erkin iqtisodiy zonaning chegaralari mamlakatimizning ma'muriy-hududiy birligi (shahar, tuman, shahardagi tuman) chegaralariga to'g'ri kelgan taqdirda Ma'muriy kengash raisining vazifalarini ijro etish tegishli hokim zimmasiga yuklanadi.

Erkin iqtisodiy zonaning Ma'muriy kengashi:

- erkin iqtisodiy zonaning huquq tartibotiga rioya etilishini nazorat qilib boradi;
- zonani rivojlantirish dasturini ishlab chiqadi;
- investitsiyalarni jalb etish uchun qo'shimcha shartlar belgilaydi;
- zonaning har yilgi budjetini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Erkin iqtisodiy zona Ma'muriy kengashi o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlar erkin iqtisodiy zona xo'jalik faoliyati qatnashchilari ijro etishi uchun majburiydir.

Erkin iqtisodiy zona chegaralari ichida joylashgan davlat mulki obyektlari (yer, suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar, binolar, inshootlar) joylardagi davlat hokimiyati organlarining o'z vakolat doirasidagi qaroriga binoan operativ boshqaruv yoki to'liq xo'jalik yuritish huquqi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda zona Ma'muriy kengashiga topshirib qo'yilishi mumkin.

Joylardagi davlat hokimiyati organlari erkin iqtisodiy zona Ma'muriy kengashiga topshirib qo'yilgan yer, yer osti boyliklari, atrof-muhit va boshqa obyektlardan oqilona foydalanilishi hamda ularning muhofaza qilinishi ustidan nazoratni ta'minlaydilar.

Erkin iqtisodiy zona hududida joylashgan davlat mulki obyektlarini xususiy mulk qilib sotish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Erkin iqtisodiy zona Bosh direksiyasi:

- alohida huquqiy tartibotning amal qilishini ta'minlaydi;
- tanlov asosida chet el kapitalining jalb etilishini amalga oshiradi;
- zonani rivojlantirish dasturi ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;
- xo'jalik, moliyaviy va boshqa faoliyat bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarni ro'yxatga oladi;
- ekologik vaziyatning yaxshilanishi ustidan nazoratni ta'minlaydi, shuningdek, tarixiy-madaniy boyliklarning saqlanishi uchun javobgar bo'ladi;
- Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi Nizomda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Zona Bosh direksiyasi, Nizomda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, korxonalar va tashkilotlarining operativ xo'jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Erkin iqtisodiy zonaning Bosh direksiyasi zona Ma'muriy kengashi tomonidan tuziladi va unga ana shu kengashning o'zi tayinlaydigan bosh direktor boshchilik qiladi.

Tashkil etilgan erkin iqtisodiy zona hududida faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar va fuqarolar zona Bosh direksiyasida ro'yxatdan o'tishlari lozim. Zona bosh direksiyasi ro'yxatdan o'tganlik to'g'risida yuridik shaxslarga guvohnoma beradi va bu haqda tegishli organlarga xabar qiladi.

XIII BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Erkin iqtisodiy zonalar tushunchasi.
2. Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish va tugatish asoslari.
3. Kompleks erkin iqtisodiy zonalar.
4. Erkin savdo zonalarini.
5. Erkin ishlab-chiqarish zonalarini.
6. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalarini.
7. Anklaf erkin iqtisodiy zonalarini.
8. Integratsiyaviy zonalarini.
9. Bojxona ittifoqi.
10. Umumiy bozor.

11. To'liq iqtisodiy ittifoq.
12. Erkin iqtisodiy zonalarining huquqiy rejimi deganda nimani tushunamiz?
13. Erkin iqtisodiy zonaning ma'muriy kengashi.
14. Erkin iqtisodiy zona bosh direksiyasi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Karimov I. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li». –T.: «O'zbekiston», 1992-yil.
2. Karimov I. « O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li». –T.: «O'zbekiston», 1993-yil.
3. Данько Т.П., Окрут З.М. Свободно экономические зоны в мировом хозяйстве. –М.: ИНФРА-М, 1998, 13-14-бет.
4. С.В.Дерюшина. Правовые аспекты понятия "С.Э.З."//жур. "Гос. и Право". 1997. №5.
5. Чжен В.А. Рыночное регионально-отраслевое развитие". 5 т. –Т.: Издание Госкомимущества РУз. 1997.
6. Кочетов Э.Г. "Ориентиры внешнеэкономической деятельности", Экономика. 1992.
7. Спой Изоце, Цай Женцюнь. Специальные экономические зоны Китая. Ново-сибирк, 1993.
8. Исмаилов Б. Автореферат дис. на соиск. уч. ст. к.ю.н. Теоретические проблемы правового регулирования специальных экономических зон. –Т.: 1997.

**XALQARO KREDIT VA HISOB-KITOBLARGA OID
HUQUQIY MUNOSABATLAR**

**1-§.Xalqaro kredit va hisob-kitoblarga oid huquqiy
munosabatlar**

Umumjahon xo'jalik hayotining baynalmilallashuvida xalqaro doirada mamlakatlararo kapital importi va eksporti muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu munosabatlar mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelmoqda. Ayniqsa jahonning ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlari chet el investitsiyalari va kreditiga muhtojdirlar.

Hozirda kapital eksporti bilan shug'ullanuvchi mamlakatlarning aksariyatini sanoati rivojlangan davlatlar tashkil qilmoqda.

Masalan, AQSHning chetga kapital qo'yish salmog'i yuqori ekanligi sezilib turgan bir paytda, uning G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiyaga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayib borayotganligini kuzatish mumkin. 1975-yili G'arbiy Yevropadagi iqtisodi rivojlangan davlatlarning qo'ygan kapitali umumiy qo'yilgan kapital hajmining 35,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 1990-yilga kelib bu ko'rsatkich 52%ni tashkil qilgan. Ko'zda tutilgan investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishiga e'tibor qaratsa, unda rivojlanayotgan mamlakat bo'yicha bu ko'rsatkich 21,2%, Afrika qit'asidagi mamlakatlar 2,6%, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari 9,6%, Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlari 0,5 %, Lotin Amerikasi mamlakatlari 8,5%, Okeaniya mamlakatlarida 0,2% gacha pasayganligini ko'rish mumkin.

Hozirda chet el investitsiyalari va kreditlari hisobiga o'z milliy iqtisodiyotini tiklab olgan va tayyor mahsulotlar eksportini muvaffaqiyat bilan amalga oshirayotgan mamlakatlarning soni ortib bormoqda (Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong, Argentina va h.k.). Bu kabi mamlakatlar hozirgi chet davlatlarning banklaridan olgan kredit summalarini ham to'lashga erishmoqda.

Xalqaro kreditga oid huquqiy munosabatlar – bu shunday shartnomaviy munosabatki, unda bir taraf chet el elementi, ya'ni chet el mamlakatining banklari, firmalari, kompaniyalari, yuridik va

jismoniy shaxslari, Trans Milliy Korporatsiyalari va chet davlatning o'zi boshqa davlatga, uning yuridik va jismoniy shaxslariga foizlar hisobida, shartnomalarda belgilangan muddatlarda qaytarish sharti bilan beradigan kreditga oid munosabatlardir.

Xalqaro kreditga oid huquqiy munosabatlar xususida huquqshunos olimlar turlicha fikr-mulohazalar yuritib, uning vujudga kelishini alohida ta'riflaydilar. Jumladan, L.Krasavina: «Xalqaro kredit kapitalist ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'ldi va u o'zini boshlang'ich mablag'larning yig'ilishida asosiy o'rnini topdi»⁹⁰ – deydi.

Kredit bir necha toifalarga bo'linib, asosan u bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining yig'indisi, shuningdek boshqa iqtisodiy kategoriyalar – tovarlar, xizmatlar, mablag'lar kategoriyalari bilan bevosita bog'langan hisoblanadi. Xalqaro kredit asosan iqtisodiy qonunlar talabidan kelib chiqib, bozor iqtisodiyoti subyektlarining daromad olishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Xalqaro kredit hozirgi davr iqtisodiyot qonunlari asosida jonli va moddiylashtirilgan mehnat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u olingan vositalarning ta'sirida foydalanish sharoitida jamoat boyligining ortishiga olib kelishi mumkin.

Xalqaro kredit o'zining ko'p xilligi bilan ajralib turadi. Masalan: Xalqaro savdo tijorat kreditida eksportchi importchiga tovar ko'rinishida to'lash sharti bilan tovar beradi. Kredit munosabatlari deganda tomonlarning shunday kelishuvi tushuniladiki, unda kreditor qarzdorga valuta ko'rinishdagi qimmatliklarni foydalanishga beradi, qarzdor esa o'z navbatida kelishilgan muddatda tashqi savdo bitimiga asoslanib, foizlarni o'z vaqtida to'laydi va shu kreditni o'z xohishi bo'yicha sarflaydi.

Bu munosabatlar davlatlararo va fuqarolik huquqiy bitimlar asosida kelib chiqadi. Hozirgi davrda kredit munosabatlarini xalqaro doirada huquqiy tartibga soluvchi shartnomalarning yo'qligi sababli tomonlardan shartnomalar bo'yicha yuqori darajada o'zaro kelishib olishga erishishlarini talab qiladi. Chunki tomonlar o'zaro biron-bir shartnomani imzolash davrida beriladigan kredit miqdori, kreditning qaysi valutada berilayotganligi, foizlar stavkasi, qaytarish muddati va qaysi huquqni qo'llashliklari haqida kelishib olmagan bo'lsalar, shartnoma shartlarining bajarilishini ta'minlashda nizo kelib chiqqan

⁹⁰ Красавина Л. Международные валютно-кредитные отношения. – М.: 1994. – С.543.

taqdirida uning yechimini topishda birmuncha qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Haqiqatdan ham kreditning turlari juda ko'p; kredit eksportchilari transmilliy korporatsiyalar, banklar, tashkilotlar, moliya korporatsiyalari va davlatlar bugungi kunda kreditga ehtiyoji bor davlatlarni iqtisodini barqarorlashtirish, valutasini mustahkamlash, ishlab chiqarishni, yer osti boyliklaridan foydalanishni rivojlantirish uchun texnik yordam, lizing, konsessiya shartnomalari, investitsiyalar yordami bilan jahon bozoriga raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish ko'zda tutiladi. Albatta bunday sharoitlarda xalqaro kredit munosabatlariga oid ayrim muammolarga ham duch kelish mumkin. Xalqaro tashkilotlar kredit berishda kredit oladigan davlatlarning shu mablag'lardan aniq maqsadlarda foydalanishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy rejalarini chuqur tahlil qilib, ularga kredit berishning maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligini ko'rib chiqadilar va lozim bo'lganda ular bilan kredit shartnomalarini tuzadilar. Shartnomalar imzolanishi jarayonida kreditorlardan kafolatlar talab qilinishi mumkin. Chunki berilayotgan kreditlar aniq maqsadlar yo'lida ishlatilmasdan, balki ayrim sabablarga ko'ra noaniq maqsadlarga ishlatilishi mumkin.

Aksiyadorlik sarmoyasining harakati kredit shakliga o'xshash bo'lsa-da, asosan unda aksiya egasi faqat foiz shaklida foyda olishi bilan bir qatorda uning sarmoyaga nisbatan egalik huquqi o'zida saqlanib qolaveradi.

Tarixan xalqaro kredit aloqalari xalqaro savdoga qo'llanilgan, mantiqan esa sarmoya harakatiga xususiy sarmoyaning rivojlanayotgan mamlakatlar olamiga so'nggi yillarda to'liq asosan iqtisodiyot taraqqiyotida yutuqlarga erishgan mamlakatlarga yetib keldi. Shu o'rinda haqli savollar tug'iladi.

Boshqa mamlakatlar ham shunday foyda ko'rishlari mumkinmi? Ular kapitalni jalb etish uchun alohida yon berishlari kerakmi? Ko'pgina mamlakatlarda real soliq imtiyozlari va boshqa rag'bat omillar taklif etiladi, lekin sarmoyani investitsiyaviy muhitning bu unsurlari qiziqirmaydi.

Xorijiy sarmoya egalari foyda olishdan manfaatdor, ammo tavakallik ularni jiddiy xavotirga soladi. Ular uchun asosiy o'ziga tortadigan omillar rivojlangan infratuzilma, ishonchli va malakali mehnat resurslari, daromad va kapitalni chet elga o'tqazish, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikdan iborat. Bugungi kunda bu omillarning har qaysisi ancha sezilarli darajada o'z aksini topmoqda.

Hozirgi bosqichda har qanday davlatning tez sur'atlarda rivojlanişini xorijiy investitsiyalarni jalb etmay turib ta'minlab bo'lmaydi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlar ham yangi sifatlarga ega bo'lib bormoqda; ikki mamlakatning xo'jalik vakillari o'rtasida savdo va xizmat ko'rsatishdan tashqari alohida ishlab chiqarish, moliya va savdo aloqalari ham rivojlanmoqda. Bunday aloqalar asosan tadbirkorlik foydasi yoki foizlar olish maqsadlarida xorijga pul yoki tovar shaklida qiymatlar va kapital chiqarishdan iborat. Agar tovarlar bilan tashqi savdo ularning iste'mol qiymatlari yoki foydasini ayirboshlashda ifoda etilsa, kapitalning ko'chish jarayonida esa yanada murakkabroq iqtisodiy o'zaro aloqadorlikka, masalan chet el investitsiyalariga duch kelish mumkin.

Chet el investitsiyalari investorlar foyda (daromad) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyatiga va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga kutayotgan mulkiy boyliklarning va ularga nisbatan huquqlarning, shuningdek intellektual mulkka nisbatan huquqlarning barcha turlari chet el investitsiyalari hisoblanadi. Boyliklarning birlamchi yoki takror ko'rinish shaklining biron-bir tarzda o'zgarishi ularning investitsiya sifatidagi mohiyati o'zgarishiga olib kelmaydi.

Xorijga ssuda kapitali chiqarish bilan tadbirkorlik kapitali chiqarish bir-biridan farqlanadi.

Ssuda kapitalining tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi harakati «Xalqaro kreditlar» shaklida amal qiladi.

«Xalqaro kredit» – bu bir mamlakatdagi kreditorning boshqa mamlakatdagi qarz oluvchiga qaytarishlik, moddiylik va foiz to'lash shartlari bilan beradigan pul yoki tovar ko'rinishdagi ssudadir.

Ssuda mablag'i (sarmoyasi) – mamlakatning xalqaro qarzlari, kreditlar shaklida chiqaradigan yoki kiritadigan hamda ssuda foizi keltiradigan kapitalidir.

«Xalqaro kredit» – feodalizm davrida paydo bo'lgan. Harbiy yurishlarni hamda monarx va zodagonlar saroylari xarajatlarini qoplash uchun qarzga mablag'lar olingan. Bozor munosabatlari rivojlanib borishi bilan xalqaro kredit tashqi savdoga xizmat ko'rsata boshladi va jahon xo'jalik aloqalarining muhim elementiga aylandi. Bunday kredit turli mamlakatlardagi kreditorlar bilan qarz oluvchilar o'rtasidagi muayyan muddatga hamda foiz to'lash shartlari bilan ssuda berish, foydalanish va uni qaytarish bo'yicha paydo bo'ladigan munosabatlarni o'zida ifoda etadi. Shunday qilib, ssuda

mablag'ini chiqarish boshqa mamlakatlar hukumatlari yoki tadbirkorlariga qisqa yoki uzoq muddatli qarzlilar berilishini bildiradi.

Chetga mablag' chiqarish XX asr boshlarida avj oldi. Dastlab ssuda mablag'ini chetga chiqarish aksariyat xususiy shaklda, ya'ni davlatning aralashuvizisiz olib borildi. Keyinchalik bunday faoliyat «xalqaro kredit» munosabatlariga tobora ko'proq aralasha boshlagan hukumatlar tomonidan rag'batlantirila boshlandi.

Xorijiy kreditlar bir qancha toifalarga bo'linadi, jahonda u yoki bu mamlakat boshqa mamlakatning iqtisodiy dasturiga yordam berish maqsadlarida moliyaviy vositalar berish ishi keng tarqalgan. Bunday hollarda davlatlararo shartnomalar tuziladi. Shartnoma moliya resurslari beradigan ixtisoslashgan hukumat moliya muassasalarining ajratiladigan kreditlarini berishni, sug'urtalashni va kafolatlari ta'minlanishiga asoslanadi. Bunday ixtisoslashgan hukumat moliya muassasalaridan KG'W yoki AKA banklarini, HERMES (Germaniya), SACE (Italiya), ECCD (Buyuk Britaniya), EIDG'MITIC (Yaponiya), CESCE (Ispaniya) kabi eksportni kreditlash vakillarini sanab o'tish mumkin.

AQSH, Yaponiya, Turkiya va boshqa mamlakatlardagi eksport-import banklari, ECD (Kanada) kabi vakillar esa loyihalarni bevosita kreditlashni ta'minlaydi.

Odatda bunday moliyalashtirish kreditni oladigan mamlakat hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kafolat asosida amalga oshiriladi. Bunday ishga faqat katta oltin valuta zaxiralari va boshqa likvid aktivlarga ega bo'lgan mamlakatgina qo'l urishi mumkin. O'zbekistonda moliyalash turining shunday usuli asosida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bular qatoriga Germaniya, Yaponiya, AQSHdagi eksport-import banklari bergan kredit resurslari yordamida iqtisodiy infratuzilma sohasida g'oyat muhim loyihalar mavjud.

Tashqi investitsiya qarzlilarining yana boshqa bir toifasi xalqaro moliya muassasalari u yoki bu mamlakatdagi investitsiya loyihalari- ni kreditlaydi. O'zbekistondagi loyihalarni moliyalashni amalga oshirishda Ko'maklashuvchi eng nufuzli xalqaro banklar bo'lib, ular qatoriga Jahon tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo rivojlanish banklarini kiritish mumkin. Chetdan olingan qarz muayyan tavakkalchilik bilan bog'liq, shuning uchun davlat yoki xususiy tarmoq doirasida chet el investitsiyalaridan oqilona foydalanilmaslik mamlakatga juda qimmatga tushishi mumkin.

2-§. O'zbekiston Respublikasining valutaga oid qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalar

1 Xalqaro valuta munosabatlari va valuta tizimlari. Xalqaro valuta munosabatlari pulning xalqaro to'lov oborotida amal qilish jarayonida vujudga keladi. U tashqi savdo bilan birga paydo bo'ldi va rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tdi. Tarixiy taraqqiyot davomida jahon puli shakllari va xalqaro hisob-kitob shakllari o'zgardi. Ayni vaqtda valuta munosabatlarining ahamiyati o'sdi va ularning nisbatan mustaqillik darajasi oshdi. Tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi harakati mamlakatdan mamlakatga ko'chadigan pul muassasalari oqimi zururligi xalqaro valuta tizimi va jahon valuta tizimlarining shakllanishiga olib keladi. Valuta – bu mamlakat pul birligi. Juda qisqa ma'noda –bu chet el davlatlarining pul belgilari. Har bir milliy bozor xususiy milliy valuta tizimiga ega.

Milliy valuta tizimi mamlakatlar pul tizimlarining bir qismi bo'lib, uning doirasida valuta resurslari shakllanadi va foydalaniladi, xalqaro to'lov oboroti amalga oshiriladi. Uning tarkibiga quyidagi elementlar kiradi: milliy valuta birligi; valuta kursi tartibi, valutaning qaytuvchanlik sharoiti, valuta bozori va oltin bozor tizimi, mamlakat xalqaro hisob-kitoblar tartibi, undan oltin-valuta zaxiralarini boshqarish tartibi va tizimi, mamlakat valuta munosabatlari tizimini tartibga soluvchi milliy muassasalar statusi. Milliy valuta tizimlari milliy qonunchilik asosida xalqaro huquq normalarini hisobga olishni shakllantiradi. Uning xususiyatlari mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi va sharoitlari, uning tashqi iqtisodiy aloqalari, ijtimoiy rivojlanish vazifalari bilan aniqlanadi.

Milliy valuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi asosida tarkib topgan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo'lgan jahon valuta tizimi amal qiladi. Quyidagilar uning tarkibiy elementlari hisoblanadi: asosiy xalqaro to'lov vositalari (milliy valuta, oltin, xalqaro valuta birliklari –YEVRO, SDR, EKYU); valuta kurslarini o'rnatish va ushlab turish mexanizmi. Xalqaro to'lovlarni balanslashtirish tartibi, valutaning qaytaruvchanlik sharoiti, xalqaro valuta bozori va oltin bozori tartibi, valuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo muassasalar statusi.

Xalqaro valuta tizimi orqali mamlakatlararo barcha tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanish munosabatlari shakllanadi. Valuta

munosabatlari paydo bo'lishi va rivojlanishining obyektiv asosini xalqaro mehnat taqsimoti, tovar ishlab chiqarish, xalqaro savdo, sarmoyalarning xalqaro investitsiyalar shaklida harakatlanishi tashkil qiladi.

Jahon valuta tizimi tovarlar bilan savdo-sotiq qilish, xizmatlar ko'rsatish, sarmoyalarning harakati shaklidagi tashqi iqtisodiy aloqalarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xalqaro valuta munosabatlarini tashkil qilishga doir davlatlararo bitimlar majmuasidan iborat bo'ladi.

Xalqaro tovarlar savdo-sotiqqa jalb qilingan, tashish, sug'urta va hokazo bilan bog'liq, xalqaro kredit beruvchi yoki oluvchi xo'jalik vakillari mamlakat ichidagi xo'jalik bitishuvlari uchun xos bo'lmagan muammoga duch keladi. Bu tovarlar va xizmatlar importi va eksporti bitimlari bo'yicha xalqaro hisob-kitoblar shartlarini aniqlash muammosidir. Mamlakatimiz hududida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 16-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi milliy valutasini muomalaga kiritish to'g'risida»gi Farnoniga muvofiq 1994-yil 1-iyuldan boshlab muomalada yuradigan yagona to'lov vositasi so'm hisoblanadi.

Jahonda 100 dan ortiq har xil valuta birliklari mavjud. Barcha milliy pul birliklari muayyan davlatlar ichida tovarlar va xizmatlarning oldi-sotdisi, kredit bitishuvlari bo'yicha xo'jalik kelishuvlariga xizmat ko'rsatadi. Biroq, tovarlar va xizmatlar sotib olinadigan va sotiladigan yoki pul va sarmoyalar oqimi jarayonida milliy pul birligi to'lovi yoki o'tkazish uchun zarur valutani sotib olish ehtiyoji tug'iladi. Shunda xo'jalik vakillari o'zlari uchun zarur valutani tegishli kurs bo'yicha kerakli hajmda sotib olishlari mumkin bo'lgan valuta bozoriga murojaat qiladi. Valutani sotib olish yoki sotish zarar ko'rish, tavakkalchilik bilan bog'liq. Masalan, tovarlarni chet elga sotish natijasidagi eksportchilar chet el valutasida ko'radigan foyda xalqaro valuta bozorlarida o'sha valutaning qadrsizlanishi natijasida kamayib ketishi mumkin.

Xalqaro valuta tizimi o'z taraqqiyotida bir necha yuksak bosqichlarni bosib o'tdi. Xalqaro valuta tizimining dastlabki shakli oltin andoza tizimi bo'lib, u 1870-yildan 1914-yilgacha davom etgan. Uning mohiyati mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdo-sotiq qizg'in rivojlangan XVII-XVIII asrlarda G'arbiy Yevropaning ko'pchilik dalatlari pul birliklarini oltin erkin almashtirish tajribasidan keng foydalanganlar. o'sha davrlarda iqtisodiyot fanida

merkintinchlar g'oyasi hukmronlik qiladigan va bu g'oyaga ko'ra, millatning boyligi eksportning importdan ustunlik qilishi natijasida mamlakatga oltin va kumushning oqib kirishi bilan bog'liq edi:

1876-yildagi Parij shartnomasiga muvofiq, oltin andozaning asosiy alomatlarini quyidagilar deb belgilangan.

Davlat pul birligining muayyan oltin miqdoriga tengligini belgilab qo'yish va pullarni yozilgan qiymati bo'yicha oltinga erkin almashtirish;

Davlat tomonidan almashtiriladigan qog'oz-kredit pullari bilan zaxirasi o'rtasida qat'iy poritet (tenglik)ning qo'llab quvvatlanishi;

Oltin importi va eksportiga to'siqlar yo'qligi; 20-yillar oxiri 30-yillar boshida kapitalistik mamlakatlar o'z domiga tortgan depressiya (tushkunlik) oltin deviz andoza tizimiga o'tilishiga sabab bo'ldi. Depressiya davrida ko'pchilik mamlakatlar o'z ichki muammolarini hal qilishga intilib, milliy valutalarni devalvatsiya qilish (kursni pasaytirish)ga majbur bo'lishdi.

1944-yilda Bretton-Vud konferensiyasida berilgan valuta kurslarining ancha liberal, erkinlashtirish oltin-dollar andozasi tizimi sifatida dollarning xalqaro rezerv valuta sifatida oltinga almashtiruvchanligiga asoslangan edi.

Konvertlangan valuta deganda muayyan pul birligining boshqa valutalar bilan erkin almashuvi tushuniladi. Konvertlangan sovet so'm (rubli) deganda esa, so'mning boshqa valutalarga erkin almashtirilgan obro'-e'tiborli valutaga aylanishi anganadi. Konvertlangan so'm 1922-yil pul islohotida joriy qilingan, uning qadr-qiymati oltin bilan ta'minlangan, chunki muomalada oltin bilan ta'minlangan, 1930-yillarga kelib oltin pul muomaladan chiqib ketgach, so'm (rubl) konvertatsiyalanish xususiyatini yo'qotgan edi.

So'mning ichki erkin ayirboshlanishi bir kunlik masala emas, rivojlangan mamlakatlar ham bunga bir necha yillar sarflashgan. Bunga erishish uchun quyidagi shart-sharoitlar bo'lishi kerak:

Birinchi, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlab, milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni va eksportni ko'paytirish lozim.

Ikkinchi, pul kredit siyosati yurg'izish pul massasining o'sish sur'atlarini cheklash orqali qadrsizlanish darajasini pasaytirish va uni butunlay tizimlash kerak.

So'mning jahon miqyosida konvertlangan, ya'ni erkin aylanadigan darajaga erishishi uchun milliy pul tovarlar bilan ta'minlangan.

O'zbekistonning barcha fuqarolari, yuridik shaxslar, rezidentlar hamda xorijiy fuqarolar va yuridik shaxslari norezidentlar o'z ixtiyorida bo'lgan O'zbekiston pulini hech qanday to'siqsiz chet mamlakatning valutasiga xohlagan miqdorda almashish huquqiga va imkoniyatiga ega bo'lishi pulning erkin muomalada bo'lishini bildiradi.

Milliy so'mning jahon miqyosida erkin aylanishi ichki bozori-mizni dunyo bozori bilan biriktiradi va o'z navbatida, milliy iqtisodiyotni jahon bozoriga moslashtiradi, ishlab chiqarishning milliy xususiyatlarini, shuningdek, sarf-xarajatlar, baho, mahsulot sifati va boshqa jihatlarni ham dunyo darajasiga ko'taradi.

Shunday qilib so'mning erkin aylanishi faqat rezidentlar uchungina bo'lsa, bu holda so'm faqat O'zbekiston doirasida ichki konvertlanishdan iborat bo'lib qoladi, aks holda esa tashqi, ya'ni jahon miqyosida konvertlashdan iborat bo'ladi. Bu jarayon to'la bo'lishi uchun so'mning aylanishi jarayonida barcha chet mamlakatlardan olib boriladigan iqtisodiy munosabatlarni batamom qamrab olishi lozim.

Shu darajaga yetish iqtisodning qudratli va sog'lom ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda faqat rivojlangan mamlakatlar valutasini dunyo bo'ylab erkin muomalaga aylantirmoqda.

Kelajakda so'mning xuddi xorij valutasidek erkin muomalada bo'lishiga erishish uchun bosqichma-bosqich qadamlar qo'yilmog'i zarur, lekin so'mning bugungi kunda konvertlanmaganligining quyidagi asosiy sabablari bor:

- valuta kursining nomuvofiq qo'yilishi;
- oqilona bo'lmagan ichki baholar;
- tovarlarning konvertlanmaganligi yoki raqobatga bardosh bera olmasligi;
- eksport-import siyosatining nobopligi, mukammal emasligi, samarasizligi.

Birinchi sabab bozor iqtisodiyotining asosiy kasali, qolganlari «rejali» iqtisodiyotning natijasidir.

Pulning konvertlanishiga bir lahzada erishib bo'lmaydi. Bu uzoq muddatli jarayon. Misol uchun, AQSH, G'arbiy Olmoniya, Yaponiya mamlakatlari o'z valutarining konvertlanganligiga bir necha o'n yil mobaynida erishganlar. Xuddi shu mamlakatlar qatori so'mning konvertlanishiga qanday qilib erishish mumkin degan savol tug'iladi.

Soʻmning konvertlanishi, yaʼni uning erkin aylanishi uchun eng muhim shartlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish;
- xususiy sektorni rivojlantirish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligiga erishish;
- iqtisodiyotga eksport yoʻnalishini berish;
- jahon narx-navosidan kelib chiqqan holda teng xalqaro tovar ayirboshlashiga erishish;
- mustaqil valuta resurslari, valuta bozoriga ega boʻlish, milliy valuta kursini toʻxtovsiz pasaytirish;
- inflatsiyani tizginlash va shu kabilar.

Soʻmning tashqi aylanadigan, konvertlangan boʻlishida xorijiy mamlakatlarning yordami katta ahamiyatga egadir. Buning uchun ushbu jarayonda qatnashadigan manfaatdor xorij davlatlarning bevosita savdo iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi, tajriba almashish va mutaxassislarni oʻqitish hamda bevosita mamlakat uchun xizmat qiladigan investitsion fondlarni vujudga keltirish yordami juda zarurdir.

2. Xalqaro hisob-kitoblarda banklar, fondlar. Xalqaro valuta-moliya sohasida muhim oʻrinni Xalqaro hisob-kitoblar banki (XHKB –BMR) egallaydi va u banklar faoliyatini xalqaro tartibga solishda yetakchi oʻrinda turadi. XHKB amalda barcha Yevropa mamlakatlari banklari, Kanada, Avstraliya, Yaponiya va AQSH tijorat banklari guruhini birlashtiradi, Yetmishdan koʻp markaziy banklar oʻz ehtiyoj valutalari mablagʻlarini XHKB hisob (shchet)larida saqlaydi. Uning qoʻmitalari va tarkibiy qismlarida ishlab chiqilgan davlat tomonidan tartibga solish va bank faoliyati ustidan nazorat qilish qoidalari aʼzo mamlakatlardagi barcha tijorat banklari uchun majburiy hisoblanadi. Oxirgi yillarda sanab chiqilgan barcha xalqaro iqtisodiy muassasalar, amalda Sharqiy Yevropa va Mustaqil davlatlar hamdoʻstligi mamlakatlari valuta-moliyaviy sohasiga taʼsir koʻrsatish muammolari bilan faol shugʻullanadi. Bu yordamni uygʻunlashtirish uchun 1990-yil taʼmirlash va rivojlantirish Yevropa banki (TREB) tashkil qilindi. TREB faoliyati Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida reforma qilish jarayoni bilan bogʻliq turli xildagi dastur va loyihalarini moliyalashtirishga yoʻnaltirilgan. Valuta sohasini uygʻunlashtirish hukumat darajasida ham va davlatlararo valuta-moliya muassasalari orasida ham roʻy beradi. Valutani

tartibga solish sohasida eng muhim rolni G'arbdagi yetakchi yetti mamlakatlarning yillik iqtisodiy kengashi, xalqaro valuta fondi, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti, xalqaro hisob-kitoblar banki o'ynaydi. Ulardan ayrimlarining rolini batafsil qarab chiqamiz. XVF o'z nizomiga binoan xalqaro valutali hamkorlikka a'zo mamlakatlar valuta kurslarini va to'lov balanslarini tartibga solish, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'p tomonlama to'lov tizimi va tashqi qarzlarini nazorat qilish, a'zo mamlakatlarga ularning valuta-moliya muammolarini hal qilish uchun kredit berish yo'llari bilan ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi.

1970-yilda XVF qarz berishning maxsus xalqaro to'lov va ehtiyot vositalari (SDR)ni chiqaradi. SDR –xalqaro hisob-kitob birligi bo'lib, naqd belgi (pul)lar ko'rinishida mavjud bo'lmaydi, a'zo mamlakatlar markaziy banklari o'rtasidagi hisob-kitoblarda foydalaniladi. SDR qiymati a'zo mamlakatlarning (AQSH, GFR, Fransiya, Angliya, Yaponiya) valutilari o'rtacha qiymatining valutali xalta nomlanuvchi qiymati asosida hisoblanadi).

SDRga kiruvchi valutilarning jahon iqtisodiy oborotidagi nisbiy ahamiyatidagi o'zgarishlarni hisobga olish maqsadida SDR tarkibini ko'rib chiqish 5 yilda 1 marta amalga oshiriladi. 1991-yil 1-yanvardan boshlab Amerika dollarining hissasi 40%, Yaponiya yenasi 17 %, nemis markasi 21 %, Angliya funt sterlingi va fransuz franki 11 %ni tashkil qilgan.

Xalqaro hisob-kitob pul birligining paydo bo'lishi (SDR, EKYU) jahon hamjamiyatiga kiruvchi mamlakatlar iqtisodiyotining o'zaro qo'shilib ketishining kuchayishidan guvohlik beradi. Shu bilan birga ularga jahon valuta tizimi barqarorligini ta'minlash vositasi sifatidagi ishonch oqlanadi. Xalqaro hisob-kitoblarda oldingidek asosiy vosita bo'lib milliy valutarlar chiqarilmoqda. Yetakchi mavqeyini AQSH dollari saqlab kelmoqda. Nima sababdan AQSH dollari yetakchi mavqeyini saqlab turmoqda, degan savolga quyidagicha javob beramiz, AQSH dunyo iqtisodiyotiga ta'sir eta oladigan mamlakat, dunyoning har bir joyida investorlari bor desak bejiz emas, shuning uchun dollar butun dunyoda erkin harakatda, eksport ko'rsatkichlari yuqori darajada va shu eksport tushumidagi mablag'lar bilan Cheyz Manxetten Bank, Sitibank, Bank of Amerika, Dj Pi Morgan singari yirik banklar ishlaydi. O'zbekistonda esa bu universal banklarga misol qilib Alp-Jamol, O'zbekiston tashqi milliy banki va boshqa bir qator banklarni keltirish mumkin,

ular da to'lovl ar eng zamonaviy «SWIG'T», «REUTER», «VISA» tizimlari orqali bir necha soniyada amalga oshiriladi, o'tkaziladi, jahonning istalgan mamlakatida eksport, import, nosavdo va boshqa operatsiyalar bo'yicha xorijiy hamda plastik kartochkalar bilan hisob-kitoblar amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan.

Xalqaro banklar asosan quyidagi xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan:

Tovarlar importi va eksporti bilan bog'liq xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha to'lovlarga xizmat ko'rsatish, rezident mijozlarning chet el qimmatli qog'ozlarini va norezident mijozlarning mahalliy qimmatli qog'ozlarini sotib olishlari, pul mablag'lari va depozitlar bo'yicha o'tkazmalarni amalga oshirish va boshqa operatsiyalar uchun mahalliy va xorijiy mijozlarning joriy va depozit hisob varaqalarini yuritish;

Yevro valutada depozitlar qabul qilish hamda mijozlarga qisqa va uzoq muddatli kredit yoki kredit kafolatlari berish;

Bank mijozlari chiqaradigan yevroobligatsiyalar, qimmatli qog'ozlari va obligatsiyalarni xalqaro bozorlarga joylashtirish.

Chet el valutasini qadrsizlanishidan va foiz stavkasi tebranishlari, tavakkalidan himoya qilish maqsadida xotirlash usullari orqali himoya qilinadi. Yana xalqaro hisob-kitoblarda bank o'tkazmalari haqida to'xtab o'tish joizdir, chunki xalqaro savdoda eksportchi-importchilarning hisob-kitoblari aynan bank o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda bank o'tkazmasini rasmiylashtirish hamda bu operatsiyani Respublikaning tijorat banklari orqali bajarish osonligi, shunday to'lovl ar ulushi ko'paytirilganligi tufayli undan O'zbekiston korxonalarining eksport-import operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarida keng foydalanilmoqda. Import kontraktlarining ko'pchiligi quyidagi tartibda bajarilmoqda: Bankning muqobil kafolatiga javobgar 15 % miqdorida o'tkazadi. Bu esa o'zbekistonlik import-chilarning xorijiy sheriklarining tovar yetkazib bermasligidan himoyalashga yordam beradi.

Bank o'tkazmasi deganda bir bankning boshqa bankka o'tkazilgan o'tkazmasini oluvchiga benefitsiarga muayyan summani to'lash haqidagi mijozining yo'riqnomasi asosida beriladi. Banklararo o'tkazmadan banklar o'rtasida depozit, kredit va konversiya bitimlarini amalga oshirish chog'ida hisob-kitoblar uchun foydalaniladi. Oddiy o'tkazmalar va shartli mijoz o'tkazmalari farqlanadi.

Valuta mablag'lari benefitsiarga hech qanday shartlarsiz to'lanadigan o'tkazma oddiy o'tkazma deyiladi.

Shartli o'tkazmalar jumlasiga benefitsiarga valuta mablag'lari oldindan kelishilgan shartlar bajarilgandan keyingina (moliya hujjatlari, tilxat yoki o'tkazmada ko'rsatilgan nomerli va seriyali pasport taqdim etilgandan keyin) to'lanadigan o'tkazmalar kiradi.

Hujjatli o'tkazmada uning summasi benefitsiar zarur hujjatlarni taqdim etishidan oldin (Qoida tariqasida pul mablag'i yozib qo'yilgan sanadan boshlab 15 kun mobaynida) unga shartli ravishda yozib qo'yilishi mumkin. Agar hujjatlar belgilangan muddatda taqdim etilmasa, pul summasi benefitsiarning hisob varag'idan o'chiriladi va pulni yuborgan bankdan yo'l-yo'riq so'raladi.

Bank operatsiyalarini amalga oshirish tartibi o'tkazmasi quyidagilardan iboratdir:

Bitim tuzish chog'ida taraflar hisob-kitob shartlari va shaklini kontrakt vositasida mustahkamlab, bu hisob-kitoblarni valutani muayyan vakil banklar orqali o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishini ko'rsatib qo'yadilar.

Eksportchi kontraktida belgilangan muddatlarda tovarni ortib jo'naydi;

Yuk tashuvchidan transport hujjatlarini oladi;

Hujjatlarni hisob varaqalari bilan va kontraktida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar bilan qo'shib, xaridorga yuboradi;

Importchi hujjatlarni olgach, tovarlarga egalik qiladi.

O'z bankiga pul o'tkazish haqidagi topshiriq (ariza) taqdim etadi;

Importchining banki pul o'tkazish haqidagi arizaga asoslanib, valutani eksportchining bankiga o'tkazadi, unga pochta, teleks yoki SWIG'T orqali to'lov topshiriqnomasini jo'natadi;

Eksportchining banki to'lov topshiriqnomasini olgach (unda valuta kimning foydasiga o'tkazilayotganligi ko'rsatiladi), uning haqiqiyliги tekshiriladi va eksport tushumini o'tkazmaning benefitsiari —eksportchiga yozib qo'yadi.

Eksport bo'yicha hisob-kitoblarda bank o'tkazmasi texnikasi. Eksport qilingan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar uchun hisob-kitoblarda bank o'tkazmasi faqat valuta haqidagi qonun hujjatlariga va Markaziy bank qoidalariga rioya qilgan holdagina amalga oshirilishi kerak.

Xorijiy banklarning to'lov topshiriqnomalari pochta, teleks, telegraf topshiriqnomalari, SWIG'T orqali xabarlar shaklida keladi

(SWIG'T –Jahon xalqaro moliya telekommunikatsiyalari jamiyati – banklararo axborot o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot). Teleks va SWIG'T orqali olingan to'lov topshiriqnomalarini qiyoslash uchun bank va vakil bank foydalanadigan kalit bilan kodlangan bo'lishi kerak (Vakil bank –chet el valutasida operatsiyalar o'tkazish uchun Markaziy bankning bosh litsenziyasiga ega bo'lgan banklar). Pochta to'lov topshiriqnomalari xorijiy bank vakil qilingan mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi. O'tkazma kaliti taminlanmagan teleks, SWIG'T topshiriqnomalar hamda imzolanmagan pochta topshiriqnomalari bank tomonidan ijroga qabul qilinmaydi. Xorijiy bankning har bir to'lov topshiriqnomasiga belgilangan shaklda memorial-order tuziladi, ya'ni bankning «Nostro» hisob varag'i to'lov topshiriqnomasi kelgan joyda debitlanadi va mijozning tranzit hisob varag'i kreditlanadi. Memorial orderning matnida vakil bankning to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan valutashtirish muddati albatta qo'yiladi. Nomiga valuta tushumi kelgan mijoz 15 bank kunida bankka chet el valutasidagi tushumning 30% majburiy tarzida vakil bankka va qolgan summani tranzit hisob varag'idan mijozining joriy valuta hisob varag'iga o'tkazish haqida topshiriqnoma taqdim etishi kerak. Buning uchun quyidagi o'tkazmalar tuziladi: debit – mijozning tranzit hisob varag'i va majburiy sotish bo'yicha mablag'lar o'tkaziladigan hisob varag'ining krediti.

Vakil banklardan kelgan hujjatli o'tkazmalar summasi mijozning hisob varag'iga kiritib qo'yilmaydi, balki topshiriqnomada ko'rsatilgan hujjatlar belgilangan muddatlarda taqdim etilguncha oraliq hisob varaqqa kiritib qo'yiladi. Mijozdan hujjatlar olinmagan taqdirda, ushbu summa qaysi xorijiy bank orqali kelgan bo'lsa, o'sha bankdan pulni o'tkazish haqida bundan keyingi yo'l-yo'riqlar so'raladi yoki ko'rsatilgan summa qaytarilib yuboriladi.

Bank o'tkazmasi shaklidagi to'lovlar o'z vaqtida va bexato amalga oshirilishi uchun banklar vakillik hisob varaqalari ro'yxati haqida o'z mijozlariga muntazam axborot berib borishlari kerak.

XIV BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro hisob-kitob munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Akkreditiv orqali hisob-kitob qilish tushunchasi nimadan iborat?

3. Xalqaro hisob-kitob munosabatlarini amaga oshirishda inkasso shaklining ahamiyatini izohlab bering.

4. Xalqaro hisob-kitoblarni yuritishda Konvensiyalarning tutgan o'rni va ulardan manba sifatida foydalanishning ahamiyati nimalardan iborat?

5. Xalqaro kredit va hisob-kitoblarga oid O'zbekiston Respublikasining qonunchiligini izohlab bering.

6. O'zbekiston Respublikasining chet el valutasiga oid qonunlarni va xalqaro bitimlar.

7. O'zbekiston tashkilotlarining xorijiy davlat firma va tashkilotlari o'rtasida o'zaro munosabatlarida xalqaro hisob-kitoblar va kreditlar. Akkreditiv. Inkassa. Veksel. Chek.

8. Xalqaro nosavdo hisob-kitob.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: 1992.

2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T.: 1996. Iqtisodiy bilim asoslari. o'quv qo'llanma. Toshkent, «O'qituvchi», 1997-yil.

3. Богуславский М.М. Международное частное право. –М.: 1994.

4. Скаридов А.С. Международное частное право. С.Петербург. 1998.

5. «Valutani tartibga solish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-may qonuni.

6. «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabr qonuni.

7. «Bank va bank faoliyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 25-aprel qonuni.

8. Akromov T. Tarmoq tijorat banklarining maqomi va faoliyat sohasi. //Ho'jalik va huquq, 1998-yil, 2-son.

9. Альтушер А.Б. Восток – Запад: валютно-кредитные отношения. –М.: 1979.

10. Альтушер А.Б. Международное валютное право. –М.: 1984.

11. Гражданское и торговое право капиталистических государств. 3-е изд. //Под ред. Е.А.Василева. –М.: 1993. –С.410-426.

12. Гражданское правовое регулирование банковской деятельности. –М.: ЮрИнфР, 1994.
13. Mamatkulov S. Kredit shartnomasi //Хо‘jalik va huquq. 1998-yil, 10-11-sonlar.
14. Сборник законодательных и нормативных актов по валютному регулированию в Республике Узбекистан. "Меҳнат", -Т.: 1994.
15. Звенков В.П. Международное частное право. Курс лекций. Изд. группа НОРМА-ИНФРА. –М.: 1999. –С.686.
16. Xamroyev S. Xalqaro xususiy huquq. o‘quv qo‘llanma. –Т.: «Adolat», 2000-yil, 84-bet.
17. Альтушер А.Б. Международное валютное право. –М.: Международные отношения. 1984.
18. Дробышев П.Ю. Вексельное право и Конвенция ЮНСИТРАЛ о международных переводных векселях и международных простых векселях. –М.: 1996.
19. Ерпылева Н. Банковские гарантии в коммерческом обороте //Законодательство и экономика. 1994. №5/6.
20. Ерпылева Н. Вексель и чек в международном частном праве //Законодательство и экономика. 1992. №19.
21. Ерпылева Н. Финансовые обязательства в международных коммерческих контрактах (научно-практические аспекты правового регулирования) //Законодательством экономика. 1997. №15/16.
22. Казакова Н.А., Балашова Ю.В: Вексель в торговом обороте //Приложение к журналу "Консультант". 1995. № 3.
23. Кремер Ю. Особенности англо-американского законодательства о векселях //Государство и право. 1997. №3.
24. Лазарева Т. Международно-правовое регулирование форм расчетов по внешнеэкономическим контрактам //Закон. 1995. №12.
25. Лунц Л.А. Денежное обязательство в гражданском коллизионном праве капиталистических стран. –М.: 1948.
26. Международное торговое право: расчеты по контрактам. Сост. И вступительная статья Т.П.Лазаревой. –М.: Московский независимый институт международного права. 1996.
27. Павлодский Е. Особенности регулирования вексельного общения в странах СНГ //Право и экономика в Европе и Азии. 1997. №1, 2.

28. Павлодский Е. Правовое регулирование расчетов чеками //Дело и Право. 1994. №1.
29. Правовое регулирование банковской деятельности. –М.: Учебно-консультационный центр "ЮрИнфоР", 1995. №1.
30. Розенберг М. Правовое регулирование расчетов по внешнеэкономическим контрактам //Закон. 1995. №1.
31. Садиков О. Важное постановление Президиума Верховного Суда РФ //Юридический мир. 1997. №3.
32. Шмиттгофф К. Экспорт: право и практика международной торговли. –М.: Юридическая литература, 1993.

**YUK VA YO'LOVCHILARNI XALQARO KO'LAMDA
TASHISH**

**1-§.Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda
tashishning umumiy qoidalari**

1. Xalqaro qatnov tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Mamlakatlar o'rtasida tashqi iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy aloqalarning kuchayishi va rivojlanishi xalqaro transport aloqalarining kengayishiga, yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish muammolarini hal etishga olib keladi. Yuridik adabiyotlarda, xalqaro shartnomalarda va qonun hujjatlarida yuklar va yo'lovchilarni ikki va undan ortiq mamlakat o'rtasida tashish bir mamlakat doirasida tashishdan (ichki tashishlar, ichki qatnovda tashishlardan) farqli ravishda xalqaro tashishlar yoki xalqaro qatnov deb ataladi.

Xorijiy davlat hududiga yuklar va yo'lovchilarning kirib kelishi o'zining yuridik shart-sharoitiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ikki xil vaziyatda sodir bo'lishi mumkin: a) xalqaro qatnov to'g'risida bitim mavjud bo'lmagani holda va b) mazkur masalaga oid ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitim mavjud bo'lgani holda. Bu holat mamlakatlar o'rtasidagi tashishlarning huquqiy rejimiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

2. Xalqaro qatnov turlari. Amaliyotda xalqaro qatnovlarning har xil turlari ma'lum, ularning har biri talay o'ziga xos xususiyatlarga ega. Transportning qaysi bir turidan foydalanishga qarab xalqaro qatnov temir yo'l, avtomobil, havo, dengiz transportida tashishlariga ajratiladi. Shu bilan birga, xalqaro yo'nalishlarda turli transport vositalari bilan tashishlar (masalan, temir yo'l – suv transporti bilan), O'zbekiston hududi orqali tranzit hamda konteynerli tashishlar ma'lum o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi. Amaldagi xalqaro bitimlarning qoidalaridan kelib chiqqan holda, xalqaro qatnovning quyidagi asosiy turlarini farqlash zarur:

a) ishtirok etuvchi transport tashkilotlarining xususiyatlariga ko'ra – transportning ayrim turlarida tashish va turli transport vositalari qatnovida tashish;

b) tashish predmetiga ko'ra – yuklarni, yo'lovchilarni tashish, temir yo'l transportida esa – yuk bagajini (tovar bagajini) tashish;

d) transport operatsiyalarining davriyligiga qarab – muntazam (liniyali) va nomuntazam tashishlar;

e) yuklar va yo'lovchilar chegara punktlaridan (o'tib borilayotgan portlardan) o'tishi tartibini hisobga olgan holda – qayta ortishlarsiz (boshqasiga o'tirilmay) va qayta ortiladigan (boshqasiga o'tiriladigan) tashishlar;

f) tashish qo'shni davlat hududida tugallanishi yoki tugallanmasligiga ko'ra – qo'shnilararo, tranzit va to'ppa-to'g'ri o'tadigan (aylanma, halqa shaklidagi) tashishlar;

g) qatnov bir yoki bir nechta tashish shartnomasi asosida amalga oshirilishiga qarab – to'g'ri bog'lanadigan, to'g'ri bog'lanmaydigan (bo'linishli) tashishlar, birin-ketin tashuvchilar tomonidan tashishlar va yangi joyga jo'natish bilan bog'liq tashishlar;

h) transportning ayrim tarmoqlarida xalqaro qatnovlarning alohida turlari – chegara yonidagi (temir yo'l transporti) tashishlar, mayatnik qonuniyati asosidagi (avtomobil transporti) tashishlar.

Hozirgi vaqtda, ichki suv transportidan tashqari, transportning barcha turlarida ichki qonun hujjatlari emas, balki xalqaro shartnomalar xalqaro qatnovlarni huquqiy tartibga solishning asosiy manbayi hisoblanadi. Bunday xalqaro shartnomalar («transport konvensiyalari») davlatlar o'rtasida transport aloqalarini o'rnatishda yuzaga keladigan keng doiradagi munosabatlarni tartibga soladi.

Transport konvensiyalari, ular ko'p sonli bo'lishiga qaramay, mamlakatlar o'rtasida yuklar va yo'lovchilarni tashishni tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keluvchi ko'pgina masalalar yuzasidan yo'l-yo'riqlarni o'z ichiga olmaydi. Bunday hollarda, boshqa huquqiy manba yo'qligi sababli xalqaro qatnov tartibotini belgilash doimo ichki qonun hujjatlarining normalari yordamida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi ko'plab transport konvensiyalariga qo'shilgan bo'lib, tashqi yuklarni jo'natish va qabul qilishda korxonalar va fuqarolar ushbu konvensiyalarning qoidalariga amal qiladilar. Transport konvensiyalarining normalari tovarlarning xalqaro oldi-sotdisi to'g'risidagi konvensiyalarning normalariga nisbatan imperativ (majburiy) tusga ega.

3. Xalqaro transport tashkilotlari. Xalqaro transport tashkilotlarining huquqiy sohadagi faoliyati juda rang-barang. U xalqaro shartnomalar loyihalarini tayyorlashni, transportga oid va texnik har

xil reglamentlarni, yuk va yo'lovchilarni tashish qoidalarini, transport hujjatlari namunaviy shakllarini ishlab chiqishni, tavsiyalar va xulosalar, amaldagi bitimlarga sharhlar berishni, vositachilik va hakamlik yo'li bilan nizolarni bartaraf etishni, rasmiy va boshqa huquqiy materiallarni, avvalo sud qarorlarini nashr etishni o'z ichiga oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotida xalqaro transport muammolari BMTning dengizda tashish bo'yicha qo'mitasi bo'lgan Savdo va taraqqiyot Konferensiyasi (YUNKTAD), xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasi (YUNSITRAL), shuningdek tarkibida asosan avtomobil va daryo transporti masalalari bilan shug'ullanuvchi ichki transport bo'yicha Yevropa iqtisodiyot komissiyasi (YEIK) qo'mitasi ayniqsa faol ravishda ishlamoqda. qo'mita 1966-yil dekabr oyida BMT Bosh assambleyasi tomonidan ta'sis etilgan bo'lib, uning vazifasi «xalqaro savdo huquqini», shu jumladan transport sohasida «tobora muvofiqlashtirishga va bir xillashtirishga Ko'maklashishdan» iborat.

Ixtisoslashtirilgan xalqaro transport tashkilotlari transport turlari bo'yicha odatda ham hukumatlararo, ham nohukumat tashkilotlari sifatida tuziladi. Birinchisining vakolati ko'pincha umumiy xususiyatga ega bo'ladi va transportning tegishli tarmog'iga taalluqli keng doiradagi masalalarni qamrab oladi. Nohukumat tashkilotlarining faoliyat sohasi odatda transportga oid maxsus masalalar (tijoratga oid, huquqiy masalalar, transport vositalaridan foydalanish tartibi va hokazo)ning muayyan doirasi bilan cheklangan.

Hozirgi vaqtda o'z tarkibiga ko'ra ancha e'tiborli va o'z qarorlarini ro'yobga chiqarish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lgan hukumatlararo transport tashkilotlarining faoliyati tobora birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda.

Temir yo'l transporti sohasida xalqaro tashkilot – Temir yo'llar hamkorligi tashkiloti (OSJD-rus). OSJD temir yo'l, shuningdek avtomobil transporti sohasidagi talay masalalar bilan shug'ullanuvchi idoralararo tashkilot bo'lib, Yevropa, Osiyo, MDH mamlakatlari uning qatnashchilaridir. OSJDning asosiy vazifasi Xalqaro yo'lovchi va yuk qatnovlari to'g'risidagi bitimlar (SMGS va SMPS) ishlarini yuritishdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Temir yo'llar hamkorligi tashkilotining a'zosi hisoblanadi.

Temir yo'l transporti sohasidagi boshqa xalqaro tashkilotlar orasida bu soha faoliyatini huquqiy tartibga solish ishiga Bern

shahridagi Xalqaro temir yo'llar Markaziy byurosi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Markaziy byuro hukumatlararo tashkilot hisoblanadi va bir qator «vazifalarni» bajaradi. Ulardan «asosiylari» – Temir yo'llar orqali yuk tashish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (MGK-rus) va Temir yo'llar orqali yo'lovchilar va bagaj tashish to'g'risidagi xalqaro konvensiya (MPK-rus) ishlarini yuritish hamda ularni qayta ko'rib chiqishga tayyorgarlik ko'radi. Markaziy byuroning organi – «Bulletin des transports internationaux par chemins de fer» – huquqiy materiallar va sud amaliyotini muntazam e'lon qilish boradi.

Xalqaro temir yo'l qatnovi shartlarini tartibga solishda Berdagi Xalqaro temir yo'l transporti qo'mitasi muhim o'rin tutadi. qo'mita nohukumat tashkiloti bo'lib, uning qatnashchilari – MGK va MPKni imzolagan temir yo'llar ma'muriyatlaridir. qo'mitaning asosiy vazifasi temir yo'llarda xalqaro tashishning huquqiy masalalarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu xalqaro tashkilotga MDH davlatlari, jumladan, O'zbekiston a'zo emas.

Avtomobil transporti sohasida ixtisoslashtirilgan xalqaro hukumatlararo tashkilotlar yo'q. Nohukumat tashkilotlari orasida Xalqaro avtomobil transporti ittifoqi (MSAT-rus) eng faol o'rin tutadi. Yevropa mamlakatlari va boshqa bir qator mamlakatlarning milliy avtotransport birlashmalari Ittifoqning a'zolaridir. 1996-yilda O'zbekiston Respublikasining avtomobil transportida yuk tashuvchilar milliy uyushmasi (ASMAP) ushbu Ittifoqqa a'zo bo'ldi. MSAT xalqaro avtomobil transporti bo'yicha yillik ma'lumotnoma nashr etadi.

Havo transporti sohasida Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO) eng yirik hukumatlararo tashkilotdir. Uni ta'sis etish 1944-yil 7-dekabrda Chikago Konvensiyasida nazarda tutilgan edi. Jahon mamlakatlarining aksariyati, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi 1992-yildan shu konvensiyaning qatnashchisi va binobarin, IKAOning a'zosidir. Bu xalqaro tashkilotning vazifalari fuqaro aviatsiyasi faoliyatining barcha tomonlarini qamrab oladi. Xalqaro havo transportida tashish shartlarini belgilashda Xalqaro havo transporti uyushmasi (IATA) muhim o'rin tutadi. Bu uyushma xalqaro nohukumat tashkiloti hisoblanadi.

Dengiz transporti sohasida ko'plab xalqaro tashkilotlar ish olib bormoqda. Huquqiy jihatdan tartibga solishni rivojlantirish va takomillashtirish ishiga Hukumatlararo dengiz konsultativ tashkiloti (IMKO) va ikkita nohukumat tashkiloti Boltiq va Xalqaro dengiz

konferensiyasi (BIMKO) hamda Xalqaro dengiz qo'mitasi (MMK) faoliyati eng ko'p ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalqaro dengiz qo'mitasi (MMK) savdo kemalari qatnovining huquqiy muammolarini o'rganish uchun maxsus ta'sis etilgan.

Faoliyati transport sohasini huquqiy tartibga solish uchun muhim bo'lgan ixtisoslashtirilgan notransport xalqaro tashkilotlari orasida Rimdagi Xalqaro xususiy huquqni birxillashtirish instituti (UNIDRUA)ni aytib o'tish zarur. Bu institut 1926-yilda tuzilgan hukumatlararo tashkilot bo'lib, unga salkam 58 ta mamlakat a'zo. UNIDRUA faoliyati institutning yilda bir marta chiqadigan to'plamida yoritib boriladi va u sud amaliyoti materiallarini o'z ichiga oladi.

4. Davlatning o'z hududida transport faoliyatini tartibga solish huquqi. Davlatning hududiy ustuvorligi tamoyili shuni bildiradiki, har bir davlat o'z hududida transport faoliyatini tartibga solishda mutlaq huquqqa ega. Shu sababli mamlakatlar o'rtasida transport aloqalarini tashkil etish hududida transport operatsiyalari amalga oshiriladigan davlatlarning roziligi (ruxsatnomasi) bo'lishini nazarda tutadi. Bunday rozilik (ruxsatnoma) aniq bir transport operatsiyasiga nisbatan ham, umumiy shaklda muayyan transport operatsiyalariga yoki xatto ayrim transport turlariga tatbiqan ham berilishi mumkin. Bunda davlat tomonidan transport faoliyatining ma'lum shartlari (yo'nalishlarni cheklash, muayyan xavfsizlik choralarini ko'rish, soliqlar, yig'imlarni to'lash va hokazo) belgilanishi mumkin.

Davlatlarning xalqaro transport faoliyatiga taalluqli siyosiy majburiyatlari do'stlik munosabatlari va hamkorlik to'g'risidagi, savdo-iqtisodiy munosabatlar to'g'risidagi shartnomalar va bitimlarda odatda umumiy shaklda (masalan, Ahdlashuvchi Tomonlar transport kommunikatsiyalari sohasida hamkorlikni kengaytiradilar va o'z hududida yo'lovchi va yuklarni avtomobil, havo, temir yo'l va boshqa turdagi transport bilan, jumladan tranzit bilan tashish uchun qulay sharoitlar ta'minlaydilar) belgilab qo'yiladi. Savdo shartnomalari asosiy e'tiborni, qoida tariqasida, davlatlar o'rtasidagi tashishlarning eng ko'p hajmini amalga oshiradigan dengiz kemachiligi masalalariga qaratadi. Bundan tashqari, savdo-iqtisodiy shartnomalari temir yo'l va avtomobil yo'llari orqali tashishlar haqidagi, shuningdek tranzit haqidagi umumiy tusdagi qarorlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi savdo shartnomalari xalqaro transportning boshqa masalalari bo'yicha ham ko'rsatmalarni o'z ichiga olishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi tashqi iqtisodiy bitimlar tizimida temir yo'l, avtomobil, havo transportiga taalluqli bitimlarining salmog'i oshib bormoqda. Ularda odatda tovarlar, yo'lovchilar va bagajni havo, temir yo'l, avtomobil yo'llari orqali tashishda yuklarni tashishga qabul qilish, tashish usullari va qiymati, shuningdek u bilan bog'liq yig'imlarga taalluqli hamma masalalarda o'zaro mumkin qadar qulaylik berilishi aytib o'tiladi. Ayrim savdo shartnomalarida tomonlarning zikr etilgan transport turlarida yuklar va yo'lovchilar tashish to'g'risida bitimlar tuzish niyatida ekanligi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bu keyinchalik asosan amalda ro'yobga chiqarilgan. Savdo shartnomalarida havo transporti masalalariga to'xtalib o'tilmaydi, o'ziga xosligi tufayli ular maxsus bitimlarning mavzui bo'ladi.

5. Transport tarmoqlaridagi xalqaro bitimlar tizimi. Xalqaro transport masalalariga oid xalqaro shartnomalarni tizimlashtirish uchun huquqiy tartibga solish obyektini mezonidan kelib chiqilgan holda transport konvensiyalarini quyidagi yettita guruhga bo'lish mumkin:

1) transport alohida turlari faoliyatining umumiy tamoyillari to'g'risidagi bitimlar;

2) mamlakatlar o'rtasida xalqaro qatnovni tashkil etish to'g'risidagi bitimlar;

3) yuklar va yo'lovchilarni tashish shartlari to'g'risidagi bitimlar;

4) tashish tariflari to'g'risidagi bitimlar;

5) mamlakatlar o'rtasidagi transport aloqalarini yengillashtirishga (soddalashtirishga) qaratilgan bitimlar;

6) transport ayrim turlari faoliyatining o'ziga xos tomonlarini tartibga soluvchi bitimlar;

7) xalqaro transport sohasida mulkiy manfaatlar himoya qilinishini nazarda tutuvchi huquqni muhofaza qilish xususiyatidagi bitimlar.

6. Xalqaro tashishlarga nisbatan qo'llaniladigan ichki huquq hujjatlari. Xalqaro tashishlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ichki huquq hujjatlarini umumiy shaklda beshta guruhga bo'lish mumkin:

a) umumiy qonun hujjatlari;

b) transportga oid qonun hujjatlari;

d) xalqaro qatnovni tartibga solish uchun maxsus chiqarilgan hujjatlar;

e) qabul qilinishi xalqaro bitimlarda nazarda tutilgan hujjatlar;

f) xalqaro qatnovlarni amalga oshirishga Ko'maklashishi kerak bo'lgan hujjatlar.

Ko'plab xorijiy davlatlardagi kabi O'zbekistonda ham transport konvensiyalariga mos ravishda xalqaro tashuvlarni tartibga soluvchi maxsus normalarni qamrab olgan normativ-huquqiy hujjatlar-Havo kodeksi (1993-yil), Fuqarolik kodeksi (1997-yil), «Avtomobil transporti to'g'risida» (1998-yil), «Temir yo'l transporti to'g'risida» (1998-yil), «Avtomobil yo'llari to'g'risida» (1992-yil), «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida» (1999-yil), «Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to'g'risida» (2001-yil) va boshqa qonunlar qabul qilingan.

7. Xalqaro tashish sohasidagi kollizion normalar. Xalqaro tashishlar uchun kollizion normalar davlatlararo bitimlar (transport konvensiyalari) bilan, bular bo'lmasa yoki ularda kollizion masalalar tartibga solinmagan bo'lsa, ichki huquq bilan belgilanadi (masalan, Fuqarolik kodeksining IY bo'limi).

Xalqaro transport sohasidagi kollizion normalarning boshqa umumiy o'ziga xosligi asosiy institut – tashish shartnomasining bir qancha kollizion bog'lanishlar ta'siriga bo'ysundirilishidan (bog'lanishlarning ko'pligi va sochilib ketganligidan) iboratdir.

Xalqaro qatnov to'g'risidagi bitimlar va ichki qonun hujjatlari yuklar va yo'lovchilar tashish bo'yicha munosabatlar uchun quyidagi kollizion bog'lanishlarni nazarda tutadi:

- 1) jo'natish mamlakati qonuni;
- 2) o'tib borilayotgan mamlakat qonuni;
- 3) yuk to'xtatib qolingan (turilgan) mamlakat qonuni;
- 4) tashish shartnomasi o'zgartiriladigan mamlakat qonuni;
- 5) hodisa sodir bo'lgan joy mamlakati qonuni;
- 6) yuk tayinlangan mamlakat qonuni;
- 7) da'vo (talab) bildirilgan mamlakat qonuni;
- 8) sudida da'vo (sud qonuni) ko'rib chiqiladigan mamlakat qonuni.

8. Xalqaro tashish shartnomasi Yuklar va yo'lovchilarni xalqaro tashish shartnomalarining mohiyati shundan iboratki, tomonlarning bitimlari asosida transport tashkiloti yukni (yo'lovchini) tayinlangan punktga eltib qo'yish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, buning uchun yuk egasi (yo'lovchi) tashish haqini to'lash majburiyatini oladi. Tarablarning boshqa majburiyatlari tashish shartnomasining

ana shu asosiy mazmunini aniqlashtiradi va to'ldiradi xolos. Xalqaro transportda tashish shartnomasining huquqiy ahamiyati quyidagilardan iborat.

Birinchidan, shartnoma, bir tomondan, yuk egalari va yo'lovchilar va, ikkinchi tomondan, transport tashkilotlari o'rtasida paydo bo'luvchi tashish bo'yicha majburiyatlar yuzaga kelishining huquqiy asosi hisoblanadi. Xalqaro qatnovga tatbiqan, shuningdek mamlakat ichida aynan shartnoma tashish bo'yicha majburiyatlar yuzaga kelishiga asos bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, transport jarayonini amalga oshirish uchun yuk egalari, yo'lovchilar va transport tashkilotlarining ehtiyojlari hamda imkoniyatlarini hisobga olib, xalqaro bitimlar va milliy qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tashish shartlarini aniqlashtirish zarur bo'ladi, shuningdek ularning munosabatlarini shartnoma bilan rasmiylashtirish talab qilinadi. Dengiz transportida keng miqyosli davlatlararo bitimlar yo'qligi bois, shuningdek yo'lovchilarning individual talab-ehtiyojlari bilan hisoblashish lozim bo'lgan yo'lovchilar tashishni amalga oshirish maqsadida shartnomaning tashish shartlarini belgilash, aniqlashtirish eng ko'p qo'llaniladi.

Nihoyat, uchinchidan, xalqaro tashish shartnomasi taraflar tomonidan tashish bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, ularning mulkiy javobgarligiga asos bo'ladi.

Xalqaro tashish shartnomasi belgilangan maqsadi va asosiy huquqiy belgilariga ko'ra ichki qatnovdagi tashish shartnomasi bilan bir xildir. Bunday o'xshashlik, bir tomondan, ikkala shartnoma mavzuining bir xilligi (bir joydan boshqa joyga olib borish faoliyati), ikkinchi tomondan, xalqaro qatnovlar to'g'risidagi bitimlarni ishlab chiqishda milliy transport huquqi normalaridan keng foydalanili shi bilan bog'liq.

Xalqaro tashishlarni amalga oshirish uchun tegishli xalqaro bitim yoki ichki qonun hujjatlarining talablariga javob beradigan transport hujjatlari tuzilishi zarur. Bunday hujjatlarning mavjud bo'lishi taraflar o'rtasida tashish shartnomasi tuzilganligini bildiradi, uning shartlarini belgilaydi va transport tashkilotiga tashishni amalga oshirish majburiyatini yuklaydi.

Transportning ayrim turlarida yuklarni tashishga tatbiqan olganda tarixan hujjatlarning ikkita tizimi tarkib topdi va qo'llanilmoqda, bular: yuk xati (temir yo'l, avtomobil, havo yo'llarida tashishlar) hamda konosament (dengizda, ichki suv yo'llarida tashishlar).

Konosament shakli odatda yuklarni aralash tashishlar uchun qo'llaniladi. Boshlang'ich asoslari umumiy bo'lgani holda ular o'rtasida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan farqlar bor.

Xalqaro yo'lovchi tashishda shakli odatda transport tashkilotlarining o'zi tomonidan belgilanadigan chipta transport hujjati hisoblanadi. Xalqaro qatnovda bagajni tashish bagaj pattasi bilan rasmiylashtiriladi. U transportning havo va boshqa ba'zi turlarida amaliy qulay bo'lishi mulohazalaridan kelib chiqib yo'lovchi chiptasi bilan birlashtirilgan. Ayrim xalqaro bitimlar odatda turistlar guruhini tashishda qo'llaniladigan birgalikdagi (jamoat tarzida) yo'lovchi chiptasi berish mumkinligini nazarda tutadi.

2-§. Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda temir yo'llarda tashish

Temir yo'llarning xalqaro yo'nalishlarida yuk va yo'lovchilarni tashish asosan ko'ptomonlama xalqaro shartnoma – Bern Konvensiyalari va uning uzviy davomi hisoblanadigan xalqaro temir yo'l tashishlari to'g'risidagi Bitim (KOTIF) bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi ushbu transport konvensiyasiga qo'shil-magan bo'lsa-da, ularning qoidalari, xizmat yo'riqnomalari va boshqa normativ hujjatlari mamlakatimizning tashqi savdo yuklarini g'arbiy Yevropa davlatlariga jo'natish va O'zbekistonga tashishda qo'llaniladi.

KOTIF Bern Konvensiyalarining xalqaro-huquqiy normalarini va tarkibida xalqaro temir yo'l tashishlariga bag'ishlangan fuqarolik-huquqiy tusdagi normalari bo'lgan ikki ilovani (*A* va *B*) qamrab oluvchi 1966-yilda qabul qilingan yagona asosiy bitimning Qo'shimcha bitimini birlashtiradi. *A* ilova yo'lovchi tashishning, *B* ilova esa yuk tashishning Yagona qoidalariga bag'ishlangan. Ushbu Yagona qoidalar ba'zi temir yo'l yo'nalishlarida amal qiladi, yo'nalishlar ro'yxati esa Bern Konvensiyasi ishtirokchilari bo'lgan taraflar tomonidan belgilanadi. Yuk haqi stavkalari milliy va xalqaro tarifdan kelib chiqib belgilanadi. Yukni manzilga yetkazishning oxirgi muddatlari KOTIF qoidalariga binoan katta tezlikda tashishlar uchun sutkasiga 400 km, kichik tezlikda tashiladigan yuklar uchun sutkasiga 300 km.ni tashkil etadi. Bundan tashqari, ushbu transport konvensiyasida milliy temir yo'llar uchun ba'zi yo'nalishlarda yuklarni yetkazib berishning alohida muddatlarini hamda ayrim

holatlar uchun esa qo‘shimcha muddatlarni belgilash huquqi nazarda tutilgan.

KOTIFga binoan tashilayotgan yuklarni saqlamaganlik uchun temir yo‘llarning javobgarlik darajasi Xalqaro valuta fondining hisob birliklarida, ya‘ni 17 maxsus o‘zlashtirilgan qoidalar yoki 51 eski oltin frank qiymatiga ega 1 kg brutto (o‘rov-idish bilan birgalikda) og‘irligidagi yukka nisbatan belgilangan.

Temir yo‘l transporti bilan tashishlar sohasi uchun Yuklarning xalqaro qatnovi to‘g‘risidagi Bitim (SMGS Bitimi) muhim o‘rinni egallaydi.

1992-yil tahririda amal qilayotgan ushbu transport konvensiyasida Yevropa va Osiyo mintaqasidan 22 davlat qatnashadi, jumladan O‘zbekiston Respublikasi unga 1992-yilda qo‘shilgan. Tashqi savdo yuklari SMGS Bitimi ishtirokchisi hisoblangan davlatlarga yukni jo‘natish mamlakati qonuni qoidalariga binoan tuzilgan xalqaro yuk xati asosida jo‘natiladi. Biroq yuklarni markirovkalash va transport hujjatlarini rasmiylashtirishga oid qo‘shimcha qoidalar SMGS Bitimi talablaridan hisoblanadi. Yukni olish mamlakatida yuk shu mamlakatning qonunlariga binoan topshiriladi, ammo shunda ham SMGS Bitimi yana qo‘shimcha ko‘rsatmalarni, ya‘ni yuklarning saqlanmaganligi aniqlanganda tijorat dalolatnomalarini tuzish to‘g‘risida maxsus qoidalarni nazarda tutadi.

Yuk jo‘natuvchining istagiga monand, yuklar katta yoki kichik tezlikda tashilishi mumkin, buning ustiga SMGS Bitimi yuklarni yetkazish muddatlari chegara temir yo‘l bekatlarida yukni qayta ortishga ketgan vaqt hisobiga uzaytirilishini nazarda tutadi. Tashish haqi milliy tarif va milliy valutada quyidagicha amalga oshiriladi: yukning borish yo‘llari bo‘yicha – jo‘natuvchi tomonidan, yukning tayinlangan yo‘llari bo‘yicha – yuk oluvchi tomonidan to‘lanadi.

Tranzit mamlakatlari temir yo‘llarida yuklarni tashiganlik haqi yetkazib berishning shartlari, oldi-sotdi shartnomasi bazis qoidalariga qarab, xalqaro tranzit tarifning valutasini hisoblangan shveysariya franki bilan yuk jo‘natuvchi yoki yuk oluvchi tomonidan to‘lanadi. Yetkazib berish bazis qoidalari tadbirkorlik subyektlari tomonidan ushbu holat inobatga olingan holda aniqlanishi lozim.

Yuklarni tashishga qabul qilgan temir yo‘llarning saqlanmagan yuklar uchun javobgarligi ayb mavjud bo‘lganda vujudga kelishi taxmin qilinadi. Ayrim hollarda (transport vositalarining sozligi, yuk egasining yo‘l ko‘rsatuvchisi tomonidan yukning kuzatilishi va h.k.)

temir yo'llar aybining mavjudligi yuk egasi tomonidan isbotlanishi kerak. Saqlanmagan tashqi savdo yukiga yetkazilgan zarar uchun xorijiy davlatlar yoki O'zbekiston temir yo'llari javobgar bo'lganida yukning tashqi savdo bahosi va ichki bahosi asosida aniqlangan haqiqiy qiymati miqdorida to'lanadi. SMGS Bitimi va uni to'ldiruvchi xalqaro tranzit tarifi asosida O'zbekistonning tashqi savdo yuklarini ushbu SMGS Bitim ishtirokchisi bo'lmagan g'arbiy Yevropa davlatlariga va ulardan yana O'zbekistonga temir yo'lda tashishlarni amalga oshirish mumkin. Buning uchun eksport yuklarini jo'natish mobaynida SMGS Bitimi bo'yicha tuzilgan yuk xatiga SMGS Bitimi ishtirokchisi bo'lgan mamlakatning chiqish temir yo'l bekati yuk oluvchi sifatida ko'rsatiladi, yuk xatining ayrim arizalar jadvaliga esa g'arbiy Yevropa mamlakatlaridan biri yukning oxirgi oluvchisi deb ko'rsatiladi. Ana shunday ko'rsatma asosida chegara temir yo'l bekati ma'muriyati tomonidan g'arbiy Yevropa mamlakatlari temir yo'llari ishtirokchi bo'lgan KOTIFning talablariga asoslangan yangi yuk xati yozib beriladi va yuk oxirgi oluvchiga jo'natiladi. O'zbekistonga g'arbiy Yevropa mamlakatlariidan yuklar jo'natilsa, avval KOTIF bo'yicha yuk xati tuziladi, so'ngra tegishli chegara temir yo'l bekatida SMGS Bitimiga asoslangan yuk xati qayta tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro temir yo'l transporti sohasida ikki tomonlama xalqaro shartnomalari Qozog'iston, Qirg'iziston Respublikasi, Turkmaniston, Xitoy, Litva, Latviya, Ruminiya va ko'plab boshqa davlatlar bilan tuzilgan. Bu ikki tomonlama transport bitimlari umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari asosida qabul qilingan. Bundan tashqari, jahon transport kommunikatsiyalari tizimiga jadal kirib borish, o'zbek mahsulotlarining erkin tranzitini ta'minlash maqsadida mamlakatimiz ko'ptomonlama xalqaro transport bitimlarini ham imzolagan. Bular – Ozarbayjon Respublikasi, Gruziya Respublikasi, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida temir yo'l transporti faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risidagi shartnoma hamda xuddi shu davlatlar ishtirokida tranzit tashishlarni tartibga solishda hamkorlik qilish to'g'risida bitim, Yevropa-Kavkaz-Osiyo yo'lagini rivojlantirishning xalqaro transporti to'g'risida ko'ptomonlama Asosiy Bitimlardir.

3-§.Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda avtomobillarda tashish

1. Xalqaro avtomobil qatnovlarini tashkil etish va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Xalqaro avtomobil qatnovining umumiy va eng muhim o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunda bir mamlakatning avtotransport vositalari davlat chegarasini kesib o'tadi va boshqa davlatning yo'llari orqali o'tib boradi. Shu sababli xalqaro avtomobil qatnovini rivojlantirish va uning xavfsizligini ta'minlash uchun bir xil tarzdagi yo'l harakati qoidalari, yo'l belgilari va signallarini belgilab qo'yish zarur bo'ladi. Chet el hududi orqali tashishni amalga oshirish shu chet davlat vakolatli organlarining tegishli sanksiyasini (roziligini) olishni ham taqozo etadi. Shu bilan bir vaqtda, bojxona va soliq masalalarini, shuningdek chet el avtotransport vositalariga texnik yordam ko'rsatish masalasini tartibga solish zarurati yuzaga keladi.

Mamlakat yo'llari orqali chet el avtotransport vositalarining o'tib borishi shu avtotransport vositalari qaysi davlat yo'llari orqali o'tayotgan bo'lsa, shu davlat yo'lovchilari, fuqarolari va yuridik shaxslariga zarar yetkazish ehtimolini nazarda tutib, muayyan huquqiy kafolatlar yaratishni talab qiladi. Ko'pgina mamlakatlarning qonun hujjatlarida va maxsus bitimlarda nazarda tutilgan fuqarolik javobgarligidan avtotransport vositalarini majburiy sug'urta qilish shunday huquqiy kafolatlarni yaratadi.

2. yo'l harakati, yo'l belgilari va signallarini xalqaro-huquqiy tartibga solish va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari. Xalqaro avtomobil qatnovining rivojlanishi va mamlakatlar o'rtasida avtomobil parkining ayirboshlanishi mazkur sohada keng miqyosli xalqaro-huquqiy birxillashtirishni taqozo etdi. 1949-yil 19-sentabrda Jenevada barcha qit'alardagi davlatlar ishtirok etishiga mo'ljallangan yo'l harakati to'g'risidagi Konvensiya hamda yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi Bayonnoma qabul qilindi. 1968-yil 8-noyabrda Venada yo'l harakati to'g'risidagi Konvensiya hamda yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi Konvensiyaning yangi matnlari imzolandi. Yevropa, Osiyo, Amerika davlatlari va Avstraliya yo'l harakati to'g'risidagi Konvensiyaning, Yevropa va ba'zi Amerika davlatlari yo'l belgilari to'g'risidagi Bayonnomaning qatnashchilaridir. O'zbekiston Respublikasi 1995-yil 30-avgustda ikkala bitimga qo'shildi.

Yo'l harakati to'g'risidagi Konvensiya 35 ta modda 10 ta ilovadan iborat bo'lib, ularda bir xildagi yo'l harakati va uning xavfsizligi qoidalari bayon qilingan. Konvensiyaning qo'llanish sohasi I bobda belgilangan. yo'l harakati to'g'risidagi II bobda haydovchilarga qo'yiladigan umumiy talablar va yo'llar orqali harakatlanish tartibi, shu jumladan o'tkazib yuborish va quvib o'tish qoidalari belgilab qo'yilgan. Uncha katta bo'lmagan III bob signalizatsiyaga bag'ishlangan. Avtomobillar va tirkamalar to'g'risidagi IV bobda ularning texnik holatiga, raqam va belgilariga qo'yiladigan talablar ta'riflangan. V bobda xalqaro qatnov haydovchilariga qo'yiladigan talablar va ularga avtomobilni boshqarish huquqini berish shartlari belgilangan. Avtomobilni boshqarish uchun eng kichik yosh 18 yosh etib belgilab qo'yilgan. VI bobda velosipedlarda harakatlanish qoidalari bayon qilingan.

64 ta moddani o'z ichiga olgan yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi Bayonnoma yo'l belgilari va signallarining bir taxlitdagi tizimini joriy etadi, shuningdek ularni shakllantirish va o'rnatishga doir muayyan talablarni belgilab qo'yadi. Bayonnoma yo'llarga belgilar chizishning ba'zi qoidalarini ham o'z ichiga olgan. Bayonnomaga binoan ahdlashuvchi davlatlar unda belgilab qo'yilgan yo'l belgilari tizimini qabul qiladilar va uni imkoni boricha qisqa muddatda hayotga tatbiq etish majburiyatini oladilar.

O'z qatnashchilarining majburiyatlarini ancha aniq belgilovchi yo'l harakati to'g'risidagi Konvensiya eng ko'p o'zgartishlarga duch keldi. Bu o'zgartishlar shundan iboratki, ahdlashuvchi tomonlar, bir tomondan, o'z hududlarida amal qiluvchi qoidalar o'z mohiyatiga ko'ra Konvensiya qoidalariga muvofiq bo'lishi choralarini ko'radilar, ikkinchi tomondan, Konvensiya talablariga javob beradigan avtomobillar va tirkamalar o'z hududlarida xalqaro harakat qilishiga yo'l qo'yadilar hamda Konvensiya talablariga muvofiq beriladigan ro'yxatga olish shahodatnomasi va haydovchi guvohnomasini tan oladilar. Ilgarigidek, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish yo'li bilan xalqaro qatnovni yengillashtirish niyatida ahdlashuvchi tomonlar qabul qilgan choralar Konvensiya maqsadlariga mos deb hisoblanadi.

Konvensiyaga muvofiq, xalqaro qatnov uchun foydalaniladigan avtomobil muayyan ma'lumotlar minimumini o'z ichiga olgan ro'yxatga olish guvohnomasiga, ro'yxatga olish raqamiga, ro'yxatga olingan davlatning farqlovchi belgisiga, shuningdek Konvensiyada

belgilab qo'yilgan talablarga javob beruvchi tanituvchi belgilarga ega bo'lishi kerak.

YO milliy, yo xalqaro haydovchi guvohnomasi bo'lishi xalqaro qatnovga ijozat berish uchun asos hisoblanadi. Konvensiyada bunday guvohnomalarning shakli va mazmuniga qo'yiladigan talablar nazarda tutilgan hamda belgilab qo'yilganki, ahdlashuvchi tomonlar 18 yoshga to'lmagan shaxsning haydovchilik guvohnomasini o'z hududlarida tan olmasliklari mumkin. Harakat qoidalarini buzgani taqdirda haydovchilarni haydovchilik guvohnomasidan foydalanish huquqidan mahrum etish tartibi belgilangan. Konvensiyada yuklarni tashish to'g'risida hamda tashilayotgan yuklarning bog'lash moslamalarini joylashtirish tartibi haqida umumiy ko'rsatmalar va nogabarit yuklarni tashish xususida ayrim maxsus qoidalar berilgan.

Yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi 1968-yilgi Konvensiya 1949-yilgi Bayonnomaning asosiy qoidalarini o'z kuchida saqlab qolgani holda, yo'l belgilari va signallarining ancha batafsil tasnifini beradi, shuningdek ularning ahamiyati va qo'llanish tartibini ancha to'la aniqlaydi. Ba'zi belgilar va signallarning batafsil ta'rifi ilovalarga chiqarilgan.

3. Xalqaro avtomobil qatnovlarini yo'lga qo'yish to'g'risidagi bitimlar. Davlatlar o'rtasida avtomobilda tashishlarni bajarish uchun avtomobil harakatini tashkil etish va uni amalga oshirishning umumiy qoidalarini aniqlash bilan bog'liq ma'muriy va texnik masalalarni tartibga solish zarur. Bunday masalalar maxsus xalqaro shartnomalar mavzui hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan ko'pgina mamlakatlar bilan jumladan, Chexiya, Gretsiya, Bolgariya, Finlyandiya, Litva, Slovakiya, Qirg'iziston Respublikasi, Ruminiya, Ozarbayjon, Latviya, Turkmaniston, Moldova, Gruziya, Qozog'iston, Belarus, Xitoy, Ukraina, Rossiya o'rtasida xalqaro avtomobil qatnovini o'rnatish to'g'risida ikki tomonlama bitimlar tuzilgan. Bu bitimlar hukumatlararo bitimlar hisoblanadi, ular tegishli mamlakatlar o'rtasida avtomobil qatnovi uchun asos yaratadi va uning huquqiy rejimi asoslarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi tuzgan ikki tomonlama bitimlarda ularning ta'siri ostiga tushuvchi xalqaro avtomobilda tashishlarga ta'rif beriladi. Bu jo'natish punkti ahdlashuvchi tomonlardan birining hududida joylashgandagi, tayinlangan punkt esa – boshqa ahdlashuvchi tomonning hududida joylashgandagi

avtotransport vositalarida tashish, shuningdek. tranzit bilan yoki uchinchi mamlakatlardan tashishlardir.

Yo'lovchilar qatnovi (avtobuslarda yo'lovchilar tashish) muntazam va nomuntazam bo'lishi mumkin. Bitimlarda muntazam qatnovga ta'rif berilgan. Muntazam qatnov deganda, vakolatli organlar o'rtasida kelishilgan jadvallar, tariflar va yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladigan yo'lovchilar tashish tushuniladi. Keltirilgan ta'rif to'g'ri kelmaydigan yo'lovchi tashishlar nomuntazam deb hisoblanadi.

Bitimlar xalqaro avtomobil qatnovi uchun bir qator umumiy talablarni belgilab qo'yadi. Birinchidan, tashishlar faqat ahdlashuvchi tomonlarning ichki qonun hujjatlariga muvofiq xalqaro avtomobilda tashishlarni amalga oshirishiga ijozat berilgan tashuvchilari tomonidan bajarilishi mumkin. Ikkinchidan, tashishlar tomonlarning vakolatli organlari beradigan maxsus ruxsatnomalar asosida amalga oshirilishi lozim. Uchinchidan, tashishlar xalqaro avtomobil qatnovi uchun ochiq bo'lgan shosse yo'llar orqali amalga oshirilishi kerak. To'rtinchidan, chet ellik tashuvchi boshqa davlatda ichki tashishlarni amalga oshira olmaydi. Nihoyat, beshinchidan, xalqaro qatnovda foydalaniladigan avtotransport vositalari uchinchi shaxslarga va tashilayotgan yo'lovchilarga zarar yetkazilishi ehtimolini nazarda tutib majburiy sug'urta qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi ikki tomonlama bitimlarining xalqaro avtomobil qatnovi shartlari to'g'risidagi ko'rsatmalari ko'p emas va asosan yuk tashishga taalluqlidir. Tashishlar tashuvchi tomonidan o'z mamlakati tilida to'ldiriladigan maxsus yuk xati asosida (bir qator bitimlarda u xalqaro deb ataladi) amalga oshirilajagi nazarda tutiladi. Agar yuk va avtotransport vasitasining umumiy og'irligi yoki ularning o'lchamlari boshqa ahdlashuvchi tomon hududida belgilangan normalardan ortiq bo'lsa, shuningdek xavfli yuklarni tashishda boshqa tomonning vakolatli organlaridan tashish uchun maxsus ruxsatnoma olinishi zarur.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining ikki tomonlama bitimlarida xalqaro avtomobil qatnovini tashkil etishga Ko'maklashuvchi bir qator qoidalar qayd etilgan. Belgilab qo'yilganki, yuklarni tashish va buni bajarayotgan avtotransport vositalari boshqa ahdlashuvchi davlatning hududida soliqlar va yig'imlardan ikki tomonlama ozod qilinadi; hayvonlar va tez buziluvchan yuklarni tashishda chegara, bojxona va sanitariya nazorati navbatsiz amalga

oshiriladi. Ba'zi bitimlar boshqa tomonning hududida avtotransport tashkilotlarining vakolatxonalarini ta'sis etish hamda yuklarni tashishni amalga oshirish bilan bog'liq tashkiliy, texnikaviy, tijorat va boshqa masalalarga oid idoraviy bitimlar tuzish mumkinligini nazarda tutadi.

4. Yo'lovchilarni, bagajni va yuklarni avtomobilda tashish to'g'risidagi xalqaro bitimlar. 1956-yil 19-mayda Jenevada tuzilgan yuklarni avtomobil transportida xalqaro tashish shartnomasi to'g'risidagi Konvensiya (qisqartmasi – SMR, shuningdek ruscha nomi qisqartmasi – KDPG) shunday eng yirik bitim hisoblanadi. Hozirgi kunda SMR xalqaro transport sohasida eng muhim hujjatlardan biri hisoblanadi va, o'z navbatida, tashishlar haqidagi boshqa davlatlararo bitimlarga ta'sir ko'rsatadi.

Agar yukni jo'natish joyi yoki tayinlangan joyi, yoxud ularning loaqal bittasi Konvensiya qatnashchisi bo'lgan ikkita davlatda bo'lsa, SMR yuklarni avtomobil transportida tashish shartnomalariga nisbatan tatbiq etiladi.

Yukni xalqaro avtomobilda tashish shartnomasi, jo'natuvchi, oluvchi va tashuvchining huquq va majburiyatlari, yukni jo'natish va belgilangan manzilda qabul qilish shartlarini belgilaydi. Yukning qiymati e'lon qilinmagan bo'lsa, yuk uchun tovon yukni tashishga qabul qilib olish paytida jo'natish manzilidagi qiymatidan kelib chiqib, birja narxi asosida aniqlanadi. To'lanadigan tovonning eng ko'p miqdori brutto (o'rov-idish bilan birgalikdagi) og'irlikning bir kilogrammi uchun 25 frankni tashkil etadi. Bundan tashqari, yuk to'la yoki qisman yo'qotilganda tashish haqi va yuk bilan bog'liq boshqa chiqimlar tegishlicha qismlarda qoplanadi. Yukni eltib berish kechiktirilgan taqdirda, ko'rilgan zarar yuk uchun tashish haqi doirasida qoplanadi.

Yukni qabul qilib olar ekan, oluvchi uning but saqlanmaganligi haqida darhol, yashirin nuqsonlar haqida esa – 7 kun ichida ma'lum qilishi kerak. Yukni eltib qo'yish kechiktirilgan taqdirda, bunday arz qilish uchun 21 kunlik muddat belgilangan. Yuk but saqlanmagani xususida e'tiroz bildirmaslik tashuvchiga talabnoma taqdim etish huquqining yo'qotilishiga olib kelmaydi, but saqlanmaganlikni isbotlash vazifasini yuk egasi zimmasiga yuklaydi. Ammo yukni eltib berishni kechiktirganlik xususida e'tiroz bildirmaslik kechiktirish tufayli yetkazilgan zarar qoplanishiga bo'lgan huquqdan

mahrum etadi. Tashuvchiga yozma talab yo'llanishi mumkin bo'lib, biroq bunday talab bilan murojaat etish majburiy emas.

Da'vo muddati 1 yil, unda javobgar majburiyatlarini qasddan buzgan bo'lsa – 3 yilni tashkil etadi. da'vo tashuvchiga quyidagi sudlardan biri orqali qo'zg'atilishi mumkin: tomonlarning kelishuvi bo'yicha sudda, javobgarning turar joyi bo'yicha, uning korxonasi bosh boshqaruvi joylashgan joy bo'yicha sudda, qaysi idorasi (mahkamasi) vositasida shartnoma tuzilgan bo'lsa, o'sha idora (mahkama) joylashgan yerdagi sudda, shuningdek yukni tashishga qabul qilib olingan yoki u topshiriladigan joydagi sudda. Nizoni hakamlik hal etishi uchun topshirish to'g'risida tomonlar kelishuviga yo'l qo'yiladi.

SMRda mavjud bo'lgan kollizion normalar ko'p emas. Eng muhim qoida da'vo muddatining to'xtatib turilishi va uning tanaffusi sud qonuniga bo'ysundirilgan. Tashishning ayrim shartlari yukni jo'natish joyi qonuni, yuk turgan joy qonuni asosida aniqlanishi lozim.

Xalqaro yo'lovchilar va bagajlarni avtomobillarda tashish bo'yicha Konvensiya va Yo'lovchilarni tashish qoidalari to'g'risidagi ilova 1997-yil 9-oktabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tomonidan qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qilgan. Konvensiya xalqaro yo'llarda avtobuslar bilan yo'lovchilarni tashishni amalga oshiruvchi tashuvchilarga tatbiq etiladi. Konvensiyaga binoan yo'lovchi va bagajni tashish shartlari va qoidalari ni, sug'urta qilish tartibi, tashuvchilarning javobgarligi, e'tirozlar (talabnomalar) va da'volar taqdim etish, chegara, bojxona, sanitariya va boshqa nazorat qilish tartibi ko'ptomonlama, ikkitomonlama hukumatlararo xalqaro shartnomalar hamda Taraflarning ichki qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Xalqaro yo'lovchilar va bagajlarni tashishni tashkil etish va nazorat qilish tartibi ushbu Konvensiyaning ajralmas qismi bo'lgan Yo'lovchilar tashish qoidalari bilan belgilanadi. Konvensiyaning qoidalari muvofiq tashuvchi tashish vaqtida yo'lovchining sog'lig'iga yetkazilgan zarar yoki bagajga yetkazilgan zarar uchun, hodisa ro'y bergan joy yoki vaqtdan qat'i nazar, yo'lovchining o'limi yoxud unga tan jarohati yetkazilgani yoki yo'lovchi sog'lig'iga yetkazilgan har qanday zarar uchun, bagajning to'la yoki qisman yo'qotilgani yoki unga shikast yetgani uchun javobgardir. yo'lovchi o'zi yoki bagaji manzilga yetib kelgan kundan e'tiboran 7 kun mobaynida tashuvchiga da'vo qilish huquqiga ega.

Yo'lovchilar tashish qoidalari tashish jarayonini tashkil qilish va nazorat qilish tizimini, shuningdek yuk tashuvchilar hamda yo'lovchilarning, huquq va majburiyatlarini nazarda tutadi. Yo'lovchilar va bagajni hamkorlikda muntazam tashish to'g'risidagi xalqaro shartnoma xalqaro doimiy yo'llarda avtobuslar bilan yo'lovchilar va bagajlarni tashishni tashkil etishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

4-§. Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda havo yo'llarida tashish

1. Varshava Konvensiyasining mavzui va amal qilish sohasi. 1929-yil 12-oktabrda Varshavada imzolangan Xalqaro havo transportida tashishlarga taalluqli ayrim qoidalarni bir xillashtirish to'g'risidagi Konvensiya (Varshava Konvensiyasi) havo transportida tashish shartlari haqidagi asosiy xalqaro hujjatdir. Jahon mamlakatlarning ko'pchiligi (100 dan ziyod mamlakat) Konvensiya qatnashchisidir. 1955-yil 28-sentabrda Gaagada Varshava Konvensiyasining ayrim qoidalarini o'zgartirish to'g'risidagi Bayonnoma (Gaaga bayonnomasi) imzolandi. Unda salkam 90 ta davlat ishtirok etadi, O'zbekiston Respublikasi ularni 1995-yilda ratifikatsiya qilgan. Barcha mintaqalarda xalqaro havo transportida tashishlarning huquqiy rejimi amalda Varshava Konvensiyasi va Gaaga bayonnomasi qoidalari bilan belgilanadi.

Varshava Konvensiyasining 1-moddasida u amal qiladigan tashishlarning quyidagi ta'rifi berilgan: 1) tashishda yoki qayta ortishlarda tanaffus borligi yoki yo'qligidan qat'i nazar, jo'natish joyi va tayinlangan joy Konvensiyada ishtirok etuvchi ikki davlat hududida joylashgan bo'ladi; 2) jo'natish joyi va tayinlangan joy Konvensiyada ishtirok etuvchi ayni bitta davlat hududida joylashgan bo'ladi, biroq to'xtab o'tish, xatto u Konvensiya qatnashchisi bo'lmasa ham, boshqa davlat hududida nazarda tutilgan bo'ladi.

Shu tariqa, Konvensiya unda ishtirok etuvchi davlat va unda ishtirok etmaydigan davlat o'rtasidagi tashishlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Bunday tashishlar O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 75-moddasi mazmunidan kelib chiqqanda xalqaro parvoz bo'ladi, negaki O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasi kesib o'tiladi, ammo bu tashishlar Varshava Konvensiyasi ta'siriga bo'y-sundirilmaydi.

Konvensiyaning 2-moddasiga ko'ra, u pochtoni tashishga nisbatan ham qo'llanilmaydi.

Varshava Konvensiyasining qoidalari imperativ (qat'iy) xususiyatga ega. Ammo bu qoidadan bir qator chekinishlar ma'lum. Birinchidan, tashuvchi va yo'lovchining kelishuviga ko'ra, tashuvchining javobgarligi me'ori oshirilishi mumkin. Ikkinchidan, yuklarni tashishda tashish hujjatida Konvensiya qoidalaridan chekinishlar qilinishi, bunda yukni idora qilish (tasarruf etish) bo'yicha huquqlarni va uni tayinlangan punktda berish tartibini belgilovchi chekinishlar ko'rsatib o'tilishi mumkin. Uchinchidan, tashuvchining javobgarligi chegaralarini o'zgartirishga tashilayotgan yukning xususiyati oqibatida yo'qotilgan va shikastlantirilgan hollarda yo'l qo'yilishi mumkin. Nihoyat, to'rtinchidan, yuklarni tashish sudlarning Konvensiyada belgilab qo'yilgan hududiy vakolati doirasida hakamlik to'g'risidagi kelishuvga yo'l qo'yiladi.

2. Tashish shartnomasi, transport hujjatlari. Taraflar munosabatlarining shartnomaviy xususiyati Varshava Konvensiyasining yo'lovchi va yuk shartnomasini tuzish to'g'risida so'z yuritiluvchi moddalarida aniq-ravshan ifodalangan.

Tashish shartnomasi yo'l chiptasi (yo'lovchilar uchun), bagaj pattasi (bagaj uchun) yoki aviayuk xatining tashish hujjatini (yuk uchun) tuzish yo'li bilan rasmiylashtiriladi. Konvensiyada tashish hujjatlarining rekvizitlari (zaruriy qismlari) belgilangan bo'lib, ularning doirasi Gaaga bayonnomasi bilan jiddiy ravishda cheklab qo'yilgan. Jahon aviakompaniyalarining aksariyati tomonidan xalqaro havo transporti qatnovida qo'llaniladigan tashish hujjatlarining shakllari IATA ishlab chiqqan tegishli bir shakldagi andozalarga (proformalarga) mos holda tuzilgan.

3. Havo transportida tashuvchining javobgarligi. Varshava Konvensiyasiga muvofiq, tashuvchining javobgarligi miqdori bir yo'lovchi uchun 125 ming frank (20 ming AQSH dollari), yuk va bagajning bir kilogrammi uchun 250 frank (20 AQSH dollari) summa bilan cheklangan.

Aytib o'tilgan limitlar yo'lovchiga, bagajga, qo'l yuki va yukka yetkazilgan zarar uchun ham, ularni eltib qo'yishni kechiktirganlik uchun ham tashuvchi javobgarligining chegarasi hisoblanadi. Bunga qo'shimcha ravishda sud o'z milliy qonuniga muvofiq da'vogarga u qilgan sud xarajatlarining hammasini yoki bir qismini qoplashni qaror qilishi mumkin.

4. Tashuvchiga talab va da'volar taqdim etish. Bagaj va yuklarni tashishlar uchun Varshava Konvensiyasi majburiy da'vogarlik ish yuritishini nazarda tutadi. Zarar aniqlangan taqdirda oluvchi darhol, ammo bagaj va yuk olingan kundan e'tiboran hisoblaganda bagaj bo'yicha 7 kundan va yuk bo'yicha 14 kundan kechiktirmay tashuvchiga talab qo'yishi kerak. Eltib qo'yish kechiktirilgan taqdirda, talab bagaj yoki yuk oluvchi tasarrufiga berilgan paytdan e'tiboran 21 kun ichida bildirilishi lozim.

Yo'lovchilar va yuk egalari huquqlarini majburiy ravishda himoya qilish uchun 2 yillik da'vo muddati nazarda tutilgan bo'lib, u tayinlangan punktga yetib kelingan paytdan e'tiboran, havo kemasi yetib kelishi lozim bo'lgan sanadan e'tiboran yoki tashishda tanaffus bo'lgan paytdan e'tiboran o'ta boshlaydi.

5. Nizolarning sudlovga tegishliligi va kollizion masalalar. Varshava Konvensiyasi va O'zbekiston Respublikasining 113-modasi muqobil sudlovga tegishlilikni belgilab qo'yan. da'vo da'vogarning tanlovi bo'yicha sudlardan birida quyidagi kollizion normalar asosida: tashuvchining qonuni bo'yicha, sudning qonuni bo'yicha, tashish shartnomasi tuzilgan joy qonuni bo'yicha bildirilishi mumkin.

6. Havo charteri shartlari. Havo transportida tashishga bo'lgan talabning, ayniqsa sayyohat mavsumlari davrida o'sishi, shuningdek bo'sh turgan samolyotlar mavjudligi charter asosida tashishlarning rivojlanishiga asos bo'ldi. Bir martalik yoki bir nechta parvozlarni bajarish uchun bitta yoki bir nechta samolyotni berib turish charterning mavzusi hisoblanadi. Odatda samolyot yetarlicha tayyorlangan ekipaj bilan beriladi, biroq samolyot ekipajsiz ham berilishi mumkin. Havo charteri taraflarini kiraga oluvchi (buyurtmachi) va havo kemasi mulkdori (kompaniya) deb atash qabul qilingan.

Aviakompaniyalarning qoidalari va tariflarida charter qisqacha tartibga solingan bo'lib, charter bo'yicha kiraga oluvchi va kompaniyaning o'zaro munosabatlarini emas, avvalo yo'lovchilar va yuklarni bo'lg'usi tashish shartlarini nazarda tutadi. Charterning maqsadi, unda ishtirok etuvchi taraflarning huquqlari va majburiyatlarini charterlarning proformalari belgilaydi. Ular aviakompaniyalar tomonidan ishlab chiqiladi va tuzish chog'ida taraflar tomonidan to'ldirilishi mumkin bo'lgan namunaviy shartnoma ko'rinishida bo'ladi. Havo charterlarida shakli, maqsadi va atamalari bo'yicha o'zining o'tmishdoshi – dengiz charterining ta'siri sezilib turadi (5-§).

Havo charteri shartlariga ko'ra javobgarlik aybning boshlanishiga asoslanadi. Tashish shartnomasi bo'yicha javobgarlik xususida kompaniyaning tashish qoidalariga yoki, bo'lmasa, Varshava Konvensiyasining tegishli ko'rsatmalariga havola qilinadi.

7.1999-yil may oyida havo orqali xalqaro tashishga taalluqli ayrim qoidalarni birxillashtirishga doir Monreal Konvensiyasi imzolanib, unda havo orqali tashishning tushunchasi keltirilgan, taraflarning huquq va majburiyatlari, jumladan, maxsus o'zlashtirilgan huquqlarda ifodalanadigan tashuvchining fuqarolik-huquqiy javobgarligi chegarasi, nizolarni hal qilishga doir vakolatli organlarning yurisdiksiyasi o'rnatilgan. Konvensiyaning kuchga kirishi uchun 30 ta ratifikatsiya yorlig'i zarur.

5-§. Xalqaro ko'lamda dengiz transportida tashishlar

Nisbatan murakkab huquqiy masalalar xalqaro dengiz transportida tashishlarda yuzaga keladi. Bu hol mazkur sohadagi munosabatlarning xilma-xilligi bilan (tartibga solish predmeti) bir qatorda huquqiy tartibga solishning manbalari xarakterining turlicligi bilan ham (konvensiyalar hamda ichki qonun hujjatlari normalari bilan bir qatorda, shuningdek dengizning xalqaro odatlaridan keng foydalanilganlik bilan) tushuntiriladi.

Ko'p davlatlarning qonun hujjatlarida odatda yuklarni dengiz transportida tashishga doir munosabatlarga nisbatan qaysi davlatning huquqi qo'llanilishi kerakligini nazarda tutuvchi kollizion normalar bo'lmaydi. Mazkur masalalar sud amaliyoti bilan hal etiladi. Buyuk Britaniya va Fransiya sudlarida (fransuz qonun hujjatlariga muvofiq) kema bayrog'i qonuniga amal qilinadi, GFR sudlarida esa yuk borib tushadigan joy qonuniga ko'proq amal qilinadi. Polsha qonuniga muvofiq tomonlar tomonidan tanlangan qonunga amal qilinadi. Tashish shartnomasiga ko'ra tanlov bo'lmagan taqdirda tashuvchining joylashgan joyi qonuniga amal qilinadi. RFning Savdo kemalari qatnovi kodeksiga muvofiq tomonlarning huquq va majburiyatlari yuklarni dengiz transportida tashish shartnomasi bo'yicha, yo'lovchilarni dengiz transportida tashish shartnomasi bo'yicha, shuningdek muayyan muddatga fraxtga olish, dengizda buksirga olish va dengiz sug'urtasi shartnomalari bo'yicha, agar tomonlar bitimida boshqa hol belgilanmagan bo'lsa, shartnoma tuzilgan joy qonuniga

muvofiq aniqlanadi. Shartnomaning tuzilish joyi RF huquqi bo'yicha belgilanadi.

Yuklarni dengiz transportida tashish turlicha sharoitda amalga oshishi mumkin. Agar mazkur tashish dengiz transportida tashuvchi tomonidan butun kemani yoki uning ma'lum qismini bermasdan amalga oshirilsa, u holda tashish ishtirokchilari orasidagi munosabatlar konosament yordamida rasmiylashtiriladi. 1924-yilda Bryusselda Konosament to'g'risidagi ba'zi qoidalarning bir xillashtirilishi to'g'risida konvensiya tuzilgan.

Aslida dengiz transportida tashqi savdo yuklarini tashish shart-sharoitlari dengiz transportida tashuvchi tomonidan tashish uchun butun kemani berish paytida yoki yukning alohida partiyalarini tashish uchun konosament bo'yicha tuzilgan, o'z ichida tashish shart-sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlovchi (konosament tashqi betida) fraxt-lash shartnomalarida (charterda) belgilanadi. Dengiz transportida tashuvchi yukni saqlab qolmagan taqdirda aybli bo'lgani uchun javob beradi, unga talablar qo'yish uchun esa bir yillik muhlat amal qiladi. Konosament bo'yicha yuklarni tashish paytida uning narxini e'lon qilish joiz. Tashuvchi navigatsion xatolik deb atalmish (kemani yurg'izish va boshqarish paytidagi kapitan, matros, lotsman xatosi) xato uchun javobgar bo'lmaydi.

1978-yil mart oyida Gamburg shahrida o'tkazilgan konferensiyada BMTning Yuklarni dengiz transportida tashish to'g'risidagi Konvensiyasi qabul qilindi. Mazkur Konvensiya 1924-yilgi Bryussel Konvensiyasining o'rniga qabul qilingan. Yangi konvensiya kengroq qamrovga ega bo'lib (hayvonlarni va palubaga joylanadigan yuklarni tashishga ham tatbiq etiladi), bir qator yangiliklarni ko'zda tutadi. Xususan, konvensiyada navigatsion xatolik yuz berganda dengiz transportida tashuvchini javobgarlikdan ozod etuvchi qoida bekor qilindi, yukni saqlab qolish uchun uning javobgarlik chegarasi birmuncha oshirildi, tashuvchiga bo'lgan talablarni bildirish tartibi belgilandi (da'vo qilish muddati – ikki yil).

Yuklarni dengiz orqali tashishning ancha istiqbolli shakli doimiy dengiz liniyalarini tashkil etish to'g'risidagi bitimlar asosida amalga oshiriluvchi muntazam yoki liniyali tashishlardir. Bunday bitimlar davlatlararo bo'lishi mumkin, lekin ko'pincha manfaatdor kemachilik kompaniyalari tomonidan tuziladi. Ularda mazkur liniyalarni ekspluatatsiya qilishning asosiy shart-sharoitlari aniqlanadi, dengiz transportida liniyali tashishning shart-sharoitlari esa tegishli

kemachilik kompaniyalarining liniyali konosamentlarida, qoidalari-da va tariflarida belgilanadi. Liniyali tashishlarning shart-sharoitlari ba'zi transport-huquqiy xususiyatlarga ega, lekin mazkur sohadagi o'ziga xos kollizion masalalar odatda yuzaga kelmaydi.

Dengiz liniyalarining katta qismi bugungi kunda yirik kemachilik kompaniyalari orasidagi bitimlar doirasida ekspluatatsiya qilinadi va shu tariqa liniya konferensiyalari deb nom olgan tashuvchilar guruhlarini tashkil qiladi. Ular ichida yuqori fraxt stavkalarini va boshqa imtiyozli shart-sharoitlarni qo'yish yo'li bilan o'ziga eng yuqori iqtisodiy naf keltirishni ta'minlashga harakat qiluvchi ilg'or davlatlar kompaniyalari hal qiluvchi ta'sirga ega.

Liniya konferensiyalari faoliyatidagi kamsitish elementlarini bartaraf etish maqsadida 1974-yilda BMT doirasida rivojlanayotgan davlatlar tashabbusi bilan katta ahamiyatga molik xalqaro bitim – Liniya konferensiyalari odob kodeksi tuzildi. Konferensiya liniya konferensiyalarining belgilangan doirada ishlashiga yo'naltirilgan, kamsitishni rad etuvchi hamda tashuvchi va yuk egasi manfaatlari muvozanatini yaratuvchi bir qator qoidalarni o'z ichiga oladi. Yo'lovchilarni dengiz transportida tashish oxirgi yillarda bir qator xalqaro bitimlarning asosiy mavzui bo'lib qoldi. Shulardan biri – Yo'lovchilar va ularning yukini dengiz transportida tashish to'g'risidagi 1974-yil 13-dekabrda Afina Konvensiyasidir. Konvensiya ilgari ishlab chiqilgan dengiz transportida tashish to'g'risidagi ko'pgina xalqaro-huquqiy normalarni qabul qildi: ayb mavjud bo'lgan holdagina javobgarlik tamoyili, tashuvchining javobgarlik doirasining chegaralanishi (yo'lovchilar sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda – 700 ming frank), da'vo qilish muddati ikki yil. O'zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyalarda ishtirok etmasa-da, uning qoidalari ham o'quvchilarda, ham tadbirkorlarimizda katta qiziqish uyg'otadi

Dengiz transportidagi tashishlar charter bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin. Bu holda yuk tashish uchun butun kema, uning bir qismi yoki ma'lum xonalar ajratiladi. Odatda amalda xalqaro dengiz tashkilotlari, shuningdek milliy kemachilik tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan charterlar proformalari ishlatiladi. Charterlar yuk turiga qarab (ko'mir, neft, yog'och va h.k.) ishlab chiqiladi. Shu sababli ayrim yuklarni tashishning o'ziga xosligi hisobga olinadi. Dengiz charteri mazmuniga ko'ra o'z ichiga 60 ta gacha turli shartlarni oluvchi murakkab shartnomadir (yukni taqdim

etish, uni yetkazish tartibi, fraxt bo'yicha hisob-kitoblar va h.k.). Javobgarlik yuzasidan odatda Konosament to'g'risida ba'zi qoidalarni bixillashtirish to'g'risidagi Konvensiya shartlariga havola qilinadi. Charter proformalari shartlari tomonlar orqali izohlar kiritish yo'li bilan o'zgartirilishi yoki ularga qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

6-§. Aralash qatnovda yuklarni xalqaro tashish

1. Yuklarni aralash tashish tushunchasi va uning turlari. Transportning yosh turlari (havo va avtomobil transporti) rivojlanishi va tashishlarni oqilona tashkil etish manfaatlari mamlakatlar o'rtasidagi tashishlarni transportning bir qancha turi ishtirokida bajarishni taqozo etadi. Bunday xalqaro tashishlar, ichki huquqda bo'lgani kabi, aralash qatnov (aralash tashishlar) deb ataladi.

To'g'ri aralash konosamentlarning proformalarini ishlab chiqishda kemachilik kompaniyalari va ekspeditorlik firmalari to'g'ri konosamentlarning an'anaviy shartlarini asos qilib olib, ularni aralash tashishlarning o'ziga xosligini aks ettiruvchi qoidalar (yuklarni tushirish va ortish portlarida topshirish tartibi va transportning yer ustki turlari javobgarligi shartlari) bilan to'ldirganlar. Keyingi yillarda to'g'ri aralash konosamentlarning proformalarini ishlab chiqishga xalqaro transport tashkilotlari qo'shildilar va ular aralash tashishlar tajribasidan hamda xalqaro bitimlar loyihalaridan foydalanmoqdalar. Bir qancha proformalar paydo bo'lib, ular yuklarni aralash tashish amaliyotida qo'llanila boshladi.

1973-yilda Xalqaro savdo palatasi tomonidan aralash tashish hujjati to'g'risidagi bixillashtirilgan Qoidalarning chiqarilishi olg'a siljish bo'ldi. Bu Qoidalar 1975-yilda yangi tahrirda e'lon qilindi. Qoidalar taraflarning yukni aralash tashish to'g'risidagi bitimida ularga havola qilingan taqdirdagina qo'llaniladi. Ushbu Qoidalar konosamentlardan farqli ravishda aralash tashishni bajaruvchi operator tushunchasini kiritadi.

Operator o'zining taxmin qilingan aybi mavjud bo'lgani taqdirda javobgar bo'ladi, javobgarlikning eng yuqori chegarasi har bir kilogramm og'irlik uchun 30 frankni tashkil etadi. Yukning but saqlanmagan joylari aniqlangan bo'lsa, to'g'ri javobgarlik qo'llaniladi. Yukni eltib qo'yishni kechiktirganlik uchun javobgarlik borasida

ham shu tamoyil amal qiladi. Operatorga nisbatan talablar qo'yish muddati – 9 oy.

2. 1980-yilgi yuklarni xalqaro aralash tashish to'g'risidagi Konvensiya. YUNKTAD doirasida yuklarni xalqaro aralash tashish to'g'risidagi Konvensiya 1980-yil may oyida Jenevada bo'lib o'tgan Diplomatik konferensiyada qabul qilingan.

Konvensiya barcha turdagi transportga nisbatan tatbiq etiladi va u aralash tashishni amalga oshirishni operator zimmasiga yuklaydi. Aralash tashish shartnomasini tuzgan, o'z nomidan ish ko'ruvchi va shartnomaning ijro etilishi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oluvchi har qanday shaxs operator bo'lishi mumkin. Bu yukni xalqaro tashish shartnomasining yangi turi bo'lib, unga ko'ra, transport operatsiyalarini operatorning o'zi ham, u jalb etadigan ayrim turdagi transportda tashuvchilar ham bajarishlari mumkin. Bunda yuk egasi muayyan tashuvchilar bilan emas, balki faqat aralash tashish operatori bilan huquqiy munosabatda bo'ladi.

Operatorning javobgarligi taxmin qilingan ayb uchun yuzaga keladi. Yuk but saqlanmagan taqdirda javobgarlik chegarasi, qaysi summa ko'pligiga qarab, bir joy uchun 920 maxsus o'zlashtirma birlik yoki har bir kilogramm og'irlik uchun 2,75 xuddi shunday birlikdan iborat. Biroq, agar aralash tashishda dengiz va daryo transportida tashuvchilar ishtirok etmasa, operatorning javobgarligi chegarasi yuqoriroq bo'lib, har bir kilogramm og'irlik uchun 8,33 birlikni tashkil etadi. Yuk but saqlanmagan joy ma'lum bo'lgani taqdirda, to'rli javobgarlik qoidasi qo'llaniladi, ammo bunda tegishli xalqaro bitim yoki milliy huquq bilan javobgarlikning ancha yuqori chegarasi nazarda tutilgan bo'lishi shart. Eltib qo'yish kechiktirilgan taqdirda, eltib qo'yilishi kechiktirilgan yukka to'g'ri keluvchi 2,5 birlikka teng tashish haqidan oshmagan summa to'lanadi.

Konvensiyada aralash tashish hujjatining mazmuni aniqlangan bo'lib, u jo'natuvchining xohishiga ko'ra tovar taqsimlov kuchiga ega bo'lishi (aylanma bo'lishi) mumkin. Konvensiya tashish shartlari va operatorga talabnomalar taqdim etish tartibi borasida 1978-yilgi yuklarni dengizda tashish to'g'risidagi Konvensiyaning bir qator qoidalarini o'zida mujassam etgan. Konvensiyaning aralash tashish shartnomasiga taalluqli barcha qoidalari qat'iy (imperativ) xususiyatga ega.

Yuklarni aralash qatnovda tashishni amalga oshirishda bojxona tartib-taomilini soddalashtirishga qaratilgan, bojxona qoidalarini o'z

ichiga olgan ilovaning mavjudligi yangi Konvensiyaning o'ziga xos xususiyatidir. Konvensiyada, shuningdek, u aralash tashishlar to'g'risidagi boshqa mavjud xalqaro bitimlar qo'llanilishiga to'sqinlik qilmasligi, uning qoidalari davlatning aralash tashishlar bo'yicha operatsiyalarni va aralash tashish operatori faoliyatini milliy darajada tartibga solish va nazorat qilish huquqiga dahl qilmasligi nazarda tutilgan.

XV BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro tashish deganda nima tushuniladi?
2. Xalqaro tashish shartnomasining huquqiy xususiyatlari nimadan iborat?
3. Xalqaro tashish shartnomasining boshqa transport hujjatlari bilan o'zaro bog'liq jihatlari nimada namoyon bo'ladi?
4. Xalqaro tashish shartnomasi bo'yicha taraflar javobgarligining qanday qoidalari belgilangan?
5. Tashishlarning har xil turlari bo'yicha tashuvchi javobgarligi doirasining qanday chegaralari belgilangan?
6. Charter bo'yicha dengiz transportida tashishlarning o'ziga xosligi nimada?
7. Aralash qatnovda yuklarni tashishning huquqiy xususiyatlari nimadan iborat?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. I bob –T.: 1992-yil, 9-bet.
2. O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi. 1993-yil 7-may., O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1993-yil, 6-son, 247-modda. O'zbekiston Respublikasining «Xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi 1995-yil, 22-dekabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1995-yil, 12-son, 262-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 71 bobining 4-paragrafi. –T.: 1996-yil, 536-bet.
4. O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil yo'llari to'g'risida»gi 1992-yil 3-iyun qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1992-yil, 9-son, 353-modda.

5. O'zbekiston Respublikasining «Avtomobil transporti to'g'risida»gi 1998-yil, 29-avgust qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1998-yil, 9-son, 174-modda.

6. O'zbekiston Respublikasining «Temir yo'l transporti to'g'risida»gi 1999-yil 15-aprel qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1999-yil, 5-son, 118-modda.

7. O'zbekiston Respublikasining «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi 1999-yil 19-avgust qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1999-yil, 9-son, 216-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining «Maxsus yuklar va harbiy tarkiblarning tranziti to'g'risida»gi 2001-yil 11-may qonuni // O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining axborotnomasi. 2001-yil, 5-son, 82-modda.

9. Chegaralarda yuklarni nazorat qilish shartlarini kelishish to'g'risidagi Konvensiya, 1982-yil.

10. Xalqaro havo qatnovi tranziti to'g'risida Bitim, 1944-yil.

11. Fuqaro aviatsiyasi to'g'risida Chikago Konvensiyasi, 1944-yil.

12. Fuqaro aviatsiyasi to'g'risida 1944-yil Chikago Konvensiyasi va protokollari.

13. Xalqaro havo tashishlari ba'zi qoidalarini unifikatsiya qilishga oid 1929-yil. Varshava Konvensiyasi va uning protokollari.

14. Havo kemalarini xalqaro tan olish to'g'risida konvensiya, 1948-yil. Konteynerlar to'g'risida Bojxona Konvensiyasi, 1972-yil.

15. Pulga topshirilgan va xalqaro yuk tashish uchun foydalaniladigan konteynerlarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona tartibi xususidagi Konvensiya, 1994-yil.

16. Yuklarni xalqaro yo'llarda tashishga mo'ljallangan yo'lda tashish vositalarini soliqqa tortish to'g'risidagi Konvensiya, 1956-yil.

17. Xalqaro avtomobilda yo'lovchi tashish paytida majburiy sug'urta qilish to'g'risida MDH Bitimi, 1999-yil 13-yanvar.

18. Xalqaro yo'lovchilarni va bagajni avtomobillarda tashish bo'yicha MDH Konvensiyasi, 1997-yil 9-oktabr.

19. Avtomobilda yuk tashish borasida MDP guvohnomasini qo'llagan holda xalqaro yuk tashish to'g'risidagi Bojxona Konvensiyasi, 1975-yil.

20. Xalqaro yuk tashish shartnomasi to'g'risidagi konvensiya (SMR), 1956-yil.

21. Yuklarni xalqaro yo'llarda tashish shartnomasi to'g'risidagi 1978-yil Bayoni.
22. Yo'l harakati to'g'risidagi konvensiya, 1968-yil.
23. Yo'l belgilari va signallari to'g'risidagi konvensiya, 1968-yil.
24. Xalqaro yo'lovchi tashish to'g'risida bitim (SMGS), 1951-yil, qo'shimchalar va tuzatishlar bilan.
25. Xalqaro yuk tashish to'g'risidagi bitim (SMPS), 1951-yil, qo'shimchalar va tuzatishlar bilan.
26. Temir yo'llarda xalqaro yuklarni tashish to'g'risida konvensiya (MGK), 1970-yil., 1980-yildan KOTIF.
27. Temir yo'llarda xalqaro yo'lovchilarni tashish to'g'risida konvensiya (MPK), 1970-yil, 1980-yildan KOTIF.
28. Qit'a ichkarisidagi davlatlarning tranzit savdosi to'g'risida konvensiya, 1965-yil.
29. Xavfli chiqindilarni chegaralararo tashish va yo'q qilib yuborish ustidan nazorat to'g'risida konvensiya, 1989-yil.
30. Dengiz orqali yo'lovchilarni va yuklarni tashish to'g'risida konvensiya, 1974-yil.
31. BMTning Tovarlarining xalqaro oldi-sotdi shartnomalari turrisida konvensiyasi, 1980-yil.
32. O'zbekiston Respublikasining xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risidagi ikki tomonlama Bitimlari.
33. O'zbekiston Respublikasining temir yo'l transporti sohasida hamkorlik to'g'risida ikki tomonlama Bitimlari.
34. O'zbekiston Respublikasining havo qatnovi va havo transporti sohasida hamkorlik qilish to'g'risida ikki tomonlama Bitimlari.
35. Yevropa-Kavkaz-Osiyo yo'lagini rivojlantirish bo'yicha xalqaro transportning Asosiy ko'ptomonlama bitimi, Baku, 1998-yil.
36. Богуславский М.М. Международное частное право. –М.: "Юристь", 1998.
37. Тузмухамедов Р.А., Р.Т.Хакимов. Основы международного права: Учебное пособие. –Т.: "Мир экономики и права", 1998.
38. Скаридов Л.С, Международное частное право: Учебное пособие. -СПб: Изд-во Михайлова В.А. 1998.
39. Язык бизнеса. Термины. –Т.: ИПК "Шарк" по заказу "Бизнес каталог"., 1995.

40. Артемьев СП., Смирнов О.С, Шаронов О.В. Международные перевозки автомобильным транспортом. –М.: Транспорт, 1977.

41. Садиков О.Н., Правовое регулирование международных перевозок. –М.: Юрид.лит. 1981.

42. Лунц Л.А. Курс международного частного права. Т.1. – М.: Юрид.лит. 1973. т. II. –М.: 1975, т. III (в соавторстве с Н.И.Марышевой). –М.: 1976.

43. Маковский А.Л. Международное частное морское право. –М.: 1984.

44. Раане Л. Международное частное право (перевод с немецкого). –М.: Иностранная литература, 1960.

45. Rashidov K.K. Xalqaro ko'lamda yo'lovchi va yuk tashishning huquqiy asoslari. –Т.: Adabiyot tamg'armasi nashriyoti, 2001, 128-bet.

46. Тункин Г. Теория международного права. –М.: Международные отношения, 1970.

47. Морозов Г.И. Международные организации. Некоторые вопросы теории. –М.: 1974.

**XALQARO XUSUSIY HUQUQ BO‘YICHA DA‘VO
MUDDATLARI**

**1-§. Xalqaro xususiy huquq bo‘yicha da‘vo muddatlari va uning
ahamiyati**

Xalqaro xususiy huquqda da‘vo muddatlarini qo‘llash muhim ahamiyatga egadir. Huquqiy munosabatlarda da‘vo muddatining qo‘llanilishi qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlashga yordam beradi. Umumiy qoidaga ko‘ra, da‘vo muddati deb, buzilgan huquqni tiklash va himoya qilish uchun qonun bilan belgilangan muddatga aytiladi. Fuqarolik Kodeksining 1183-moddasiga ko‘ra, da‘vo muddati mamlakatning tegishli munosabatni tartibga solish uchun qo‘llanilayotgan huquqi bo‘yicha belgilanadi. da‘vo muddati tatbiq etilmaydigan talablar, agar tegishli munosabatning qatnashchilaridan loaqal bittasi O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi bo‘lsa O‘zbekiston Respublikasining huquqi bo‘yicha belgilanadi. Ushbu xalqaro kollizion normaning mohiyati shundaki, birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining da‘vo muddatlari qoidalari, ikkinchidan, biror-bir xorijiy davlat qonunlarining tatbiq etilishini ifodalaydi.

Da‘vo muddati tatbiq etilmaydigan talablar bo‘yicha tegishli huquqiy munosabat qatnashchilaridan biri O‘zbekiston Respublikasining jismoniy yoki yuridik shaxsi bo‘lsa, mazkur holatda Fuqarolik Kodeksining 163-moddasi qo‘llaniladi. Ushbu o‘rinda shuni ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 29-avgustdagi «O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksini amalga kiritish tartibi to‘g‘risida»gi Qarorining 5-bandiga ko‘ra, Kodeksda belgilangan da‘vo muddatining o‘tishi avval amalda bo‘lgan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, muddatlari 1997-yil 1-martiga qadar o‘tib ketmagan da‘volarga nisbatan qo‘llaniladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar o‘zlarining subyektiv huquqlarini himoya qilishni ta‘minlashning muhim vositasi – da‘vo tartibida sudga murojaat qilishi hisoblanadi. Subyektiv fuqarolik huquqlarini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan shaxsning himoya huquqi

qonunda belgilangan muddatlar asosida davlat tomonidan kafolatlanadi.

Buzilgan huquqlarni da'vo asosida himoya qilishni amalga oshirish huquqi da'vo huquqi sifatida moddiy ma'noda, sudga da'vo arizasi bilan murojaat etish huquqi – protsessual ma'nodagi da'vo huquqi bilan bir-biridan farqlanadi⁹¹. da'vo muddati instituti eng avvalo xo'jaliklarning ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi sharoitida xo'jaliklarda muayyan fuqarolik huquqiy munosabatlarga aniqlik kiritishni, vakolatli shaxs uzoq vaqt o'zining subyektiv huquqini amalga oshirmasligining oldini olishga barham berishni taqozo etadi. Bunday manfaatdorlik fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining o'zlari uchun obyektiv zaruriyatdir. Shu bilan birgalikda ularning intizomli holda o'z vakolatlarini boshqa ishtirokchilar manfaatlariga mos ravishda amalga oshirishlari hamda huquqiy masalalarni hal qilish uchun yaxshi sharoit yaratilishidan davlat ham bevosita manfaatdordir.

Da'vo muddati instituti ommaviy tartibdagi manfaatlariga javob beradi. Bu holat uni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatini belgilab beradi.

Da'vo muddatini tartibga soluvchi manbalar turli xildir. Fransiyada da'vo muddati Fuqarolik Kodeksi normalari (2219-2281-moddalar), Finlyandiya savdo kodeksi (189-modda) hamda oldi-sotdi, pudrat, ijara bo'yicha maxsus qonun hujjatlari, Shveysariyada Shveysariya Fuqarolik Kodeksi va Shveysariya majburiyat Qonuni (FKning 95, 454, 521, 600, 790-moddalari; MKning 114-142-moddalari) normalari bilan tartibga solinadi. Angliyada da'vo muddatini tartibga soluvchi turli qonun hujjatlari o'rniga 1980-yil 13-noyabrda yagona da'vo haqidagi qonun amalga kiritilgan (Limitation Act 1980). Amerika Qo'shma Shtatlarida da'vo muddatlari haqidagi qoidalar shtat qonunlarida, oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha yagona norma (Yagona Savdo Kodeksining 2-725-moddalari) ayrim shtat qonunlari bilan qo'shimchalar kiritilib, tatbiq etib kelinmoqda.

Da'vo muddatini birxillashtirish bir qator xalqaro konvensiyalarda maxsus normalarni ifoda etishni talab etdi. Xususan, 1988-yil 9-dekabrda Nyu-Yorkda imzolangan xalqaro perefod veksel va xalqaro oddiy veksellar haqidagi BMT Konvensiyasi (84-modda), Tovarlarini xalqaro oldi-sotdisida da'vo muddati haqidagi 1974-yil

⁹¹ 1974-yildagi tovarlarni xalqaro oldi-sotdisida da'vo muddati to'g'risidagi Konvensiya moddiy huquq manbasi bo'lmasdan, balki protsessual huquq manbasi hisoblanadi.

14-iyunda Nyu-Yorkda imzolangan Konvensiya va 1980-yil 11-aprelda Vena bayonnomasi bilan to'ldirilgan da'vo muddati haqidagi 1974-yildagi Konvensiya 1988-yil 1-avgustdan boshlab kuchga kirgan.

Da'vo muddatini belgilashning ahamiyatli tomoni shundaki, agar nizoli ishlar bo'yicha sudga hal qilish uchun muayyan muddat belgilanmasa, dalillarni to'plash va tiklash imkoniyati chegaralanib, nizolarni sudlarda uzoq yillar hal qilinishi talab qilinadi. Natijada sud ishlarini yuritishni amalga oshirishga salbiy ta'sir qilgan bo'lar edi. da'vo muddati nizoli ish taraflarini o'z vaqtida da'vo qo'zg'atishga da'vat etadi. da'vogor talablarini uzoq yillar mobaynida hal qilishni qanoatlantirishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Eng salbiy tomoni shundan iboratki, da'vo bo'yicha javobgar deb hisoblangan shaxslar, o'zlarining aybi yo'qligini isbotlash, da'vo yuzasidan javob berish o'zlarining huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmas edi. Odatda, belgilangan da'vo muddatini o'tkazib yuborilgan taqdirda, huquqiy munosabat ishtirokchilari, basharti sud tomonidan uzrli sabab bilan o'tkazilgan deb tan olinmasa, huquq va manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining 1999-yil 5-fevraldagi 7-sonli Xo'jalik sudlari tomonidan «O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining javobgarlik to'g'risida»gi qoidalarini qo'llashning ayrim masalalari haqidagi⁹² Qarorning 16 bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 157-moddasiga ko'ra, da'vo muddatining o'tishi, majburiyatli shaxsning qarzni tan olganligini ko'rsatuvchi harakatlar qarzdorning yozma ravishda faqat kreditorga emas, balki uchinchi shaxsga ham murojaat qilishida ifodalanadi. Bundan tashqari, qarzdorning qarzni tan olganlik haqidagi harakatlari, shu jumladan solishtirma dalolatnomaning tuzilishi, kreditorga to'lovni kechiktirib turish haqidagi murojaat, asosiy summaga hisoblangan foizlarni to'lash yoki da'vo muddati o'tishga qadar qarzning bir qismini to'lash va hokazolar bo'lib hisoblanadi.

Da'vo muddati o'tgandan so'ng qarz tan olinganligi to'g'risidagi harakatlar fuqarolik Kodeksining 157-moddasini qo'llash uchun asos bo'lib hisoblanmaydi.

⁹² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi qarorlarining to'plami. Nukus. Bilim nashriyoti, 224-bet.

Da'vo muddatining uzilishidan keyin uning o'tishi yangidan boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 159-moddasiga muvofiq, basharti sud da'vo muddatining o'tkazib yuborilganligi sababini uzrli deb topsa, buzilgan huquq himoya qilinishi lozim. Bundan kelib chiqadiki, agarda javobgar da'vo muddati o'tganligiga hamda qarzni daromadga o'tkazilganligi va undan soliq to'langanligini vaj qilib, da'voga e'tiroz bildirsa, bu holat da'voni rad etish uchun asos bo'la olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 187-moddasiga ko'ra, mulkdor bo'lmagan, lekin ko'chmas mol-mulkka o'n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o'ziniki kabi halol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka mulk huquqini oladi (egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat).

Ko'chmas va boshqa mol-mulkka davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan mulk huquqi ushbu mol-mulkka egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tufayli olgan shaxsda ana shunday ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tufayli mulk huquqini olgunga qadar mol-mulkka o'ziniki kabi egalik qilib turgan shaxs o'z egaligini mol-mulkning egalari bo'lmagan, shuningdek qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra egalik qilish huquqi bo'lmagan uchinchi shaxslardan himoya qilish huquqiga ega.

Egalik qilish muddatini vaj qilib keltiradigan shaxs o'zi mol-mulkka egalik qilib kelgan barcha vaqtini o'zining egalik qilish vaqtiga qo'shishi mumkin. Shaxs ixtiyorida bo'lib FKning 228, 229, 230 va 232-moddalariga muvofiq uning egaligidan talab qilib olinishi mumkin bo'lgan ashyolarga doir egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tegishli talablar bo'yicha da'vo muddati tamom bo'lganidan keyin o'ta boshlaydi.

Shuni e'tirof etish kerakki, ushbu moddaning qoidalari (egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat) mulkka egalik qilish 1997-yilning 1-martiga qadar boshlangan va Kodeks amalga kiritilayotgan vaqtda davom etayotgan hollarga ham tatbiq etiladi.

Qonuning talabiga ko'ra, nizolashilayotgan taraflarning buzilgan huquqlarini muayyan muddat davomida himoya qilish ta'minlanadi. Bunday muddatning belgilanishi nafaqat O'zbekiston huquqi uchun, shu jumladan xorijiy davlat huquqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, sud amaliyotining tartibga solinishi uchun muhim vosita hisoblanadi.

Binobarin, umum yurisdiksiya sudi, xo'jalik sudi, hakamlar sudi da'voni ko'rish uchun qabul qilishda da'vo muddati o'tgan va o'tmaganligiga katta e'tibor beradilar. Agar da'vo muddati o'tib ketgan bo'lsa, javobgar bu faktga e'tiborni qaratsa, qayd etilgan sudlar tomonidan uni ko'rish va uni qabul qilishdan voz kechishga haqli bo'ladi. Ya'ni da'vo muddatining o'tishi agar qonunda boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa hech qanday huquqiy oqibat tug'dirmaydi. da'vo muddati O'zbekiston va xorijiy davlat huquqi uchun huquqiy munosabat ishtirokchilari o'rtasida vujudga keladigan mulkiy munosabatlarni tartibga solishga, shartnoma intizomiga qat'iy rioya etilishini ta'minlashga, majburiyatlarning lozim darajada bajarilishiga, agar uning bajarilishi buzilgan taqdirda Qonun va shartnoma shartlariga muvofiq belgilangan mulkiy javobgarlik choralari qo'llashga yordam beradi.

O'zbekiston va xalqaro huquq normalarigi ko'ra, da'vo muddatiga oid qoidalar o'zining yuridik tabiati jihatdan imperativ tusdagi norma bo'lib hisoblanadi. da'vo muddati qonun bilan belgilanadi, ularni hisoblash tartibi taraflarning kelishuvi bilan o'zgartiri lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga ko'ra, «Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas».

Ushbu konstitutsiyaviy normadan kelib chiqqan holda sud da'vo muddati o'tkazib yuborilgan bo'lsa-da, fuqaroning o'z huquqini himoya qilishga qaratilgan talabini ko'rib chiqish uchun qabul qilishi kerak. Sud da'vo muddatining o'tkazib yuborilganligi sababini uzrli deb topsa, da'voni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi va buzilgan huquqni himoya etadi.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy munosabat ishtirokchilarining da'vo muddatlariga qat'iy rioya etishlari qonun ustuvorligini ta'minlash va sud ishlarini yuritish samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

2-§. Tashqi iqtisodiy bitimlarga qo'llaniladigan da'vo muddati qoidalari

Umumiy qoidaga ko'ra, bitimlar deb, fuqarolar va yuridik shaxslarning fuqarolik huquq va burchlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlarga aytiladi. Xalqaro xususiy huquqda «Tashqi iqtisodiy bitim» va «Tashqi savdo bitimi» tushunchalaridan keng foydalaniladi. Tashqi iqtisodiy bitim tushunchasi Tashqi savdo bitimiga nisbatan keng mazmun va mohiyatga egadir. Tashqi iqtisodiy bitim deganda, xorijiy davlat shaxslari ishtirokidagi turli xildagi iqtisodiy bitimlar, Tashqi savdo bitimlari deganda esa ishtirokchilarning loaqal bittasi xorijiy davlat jismoniy yoki yuridik shaxslarning tovar, xizmatlar, ijodiy faoliyat natijalari yoki ulardan foydalanish huquqini eksport yoki import qilish bilan bog'liq operatsiyalarni o'z ichiga qamrab olishi tushuniladi.

Tashqi iqtisodiy bitimlarga qo'llaniladigan da'vo muddatining mohiyati va mazmunini ochib berish huquqiy fan nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga egadir. Tashqi iqtisodiy bitimlarda subyekt sifatida O'zbekiston va xorijiy jismoniy va yuridik shaxslari ishtirok etishi tufayli da'vo muddatini qo'llash o'ziga xos holda namoyon bo'ladi.

Umumiy huquqda vaqtning o'tishi shartnoma bo'yicha huquqni qamrab olmaydi. Bunday huquq agar shartnomani va uning shartining xarakteri bo'yicha faqat muddati cheklanib qo'yilmagan bo'lsa doimiy va uzluksiz tusga ega bo'ladi⁹³.

Bizga ma'lumki huquqiy fanda da'vo muddatlari umumiy va maxsus turlarga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik huquqi bo'yicha umumiy da'vo muddati uch yil qilib belgilangan.

Ayrim turdagi talablar uchun qonunlarda umumiy da'vo muddatiga qaraganda qisqartirilgan yoki o'zgartirilgan da'vo muddatlari belgilanishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy bitimlar ham majburiyatning bir turi bo'lganligi sababli mazkur bitim bo'yicha taraf o'z huquqi buzilganini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan da'vo muddati o'ta boshlaydi.

Muayyan ijro muddatiga ega bo'lgan majburiyatlar bo'yicha da'vo muddati ijro muddati tamom bo'lganidan keyin o'ta boshlaydi. Ijro etish muddati belgilanmagan majburiyatlar bo'yicha da'vo

⁹³ Ансон В. Договорное право. –М.: Юридическая литература. 1984. –С.370.

muddati kreditorda majburiyatni bajarish to'g'risida talab qo'yish huquqi paydo bo'lgan vaqtdan o'ta boshlaydi, bordi-yu qarzdorga bunday talabni bajarish uchun imtiyozli muddat berilsa, da'vo muddati imtiyozli muddat tamom bo'lganidan keyin hisoblana boshlaydi. Regress majburiyatlari bo'yicha da'vo muddati asosiy majburiyat bajarilgan paytdan o'ta boshlaydi.

Tashqi iqtisodiy bitimlar bo'yicha da'vo muddatining o'tishi vaqtini aniqlash eng muhim masala hisoblanadi. Agar bunday shartnomada belgilangan muddatda muayyan harakatni bajarish ko'zda tutilgan bo'lsa, da'vo muddati ushbu davrdan boshlab o'ta boshlaydi.

Agar shartnoma kechiktirish shartini o'z ichiga olgan bo'lsa, da'vo muddati uning yuz berishi vaqtidan boshlab o'ta boshlaydi (masalan, kreditorning birinchi talabi bilan qarz bo'yicha to'lovni amalga oshirish sharti belgilangan bo'lsa, qarzdorga uni ijro qilish haqida xabarnoma yuborilgan vaqtdan boshlab da'vo muddati o'tadi).

Da'vo muddatining amalda bo'lishi kreditorning qarzdorga o'z talablarini bildirishga ehtiyotsizligi haqidagi taxmini bilan yuridik jihatdan aloqadordir.

Da'vo muddatini to'xtatib turishning mohiyati shundan iboratki, vakolatli shaxs da'vo bildirishga ega bo'lmaydi yoki undan da'voni taqdim etishni kutib bo'lmaydi, shu sababli bu davr da'vo muddati sifatida hisobga olinmaydi. Qonun yoki sudlar da'vo muddatini to'xtatib turish holatlariga, xususan, yengib bo'lmas kuchning (zilzila, suv toshqini, yong'in va boshqalar), harbiy harakatlar, muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakili bo'lmaganligi va boshqalarni kiritishi mumkin. Bunday holatlarga baho berish sud tomonidan aniqlanadi. Qayd etilgan holatlar amalda bo'lgan davr da'vo muddati hisobiga kirmaydi, ularga barham berilgandan so'ng boshlangan da'vo muddati yana davom ettiriladi. Ya'ni uni to'xtatib turilgunga qadar o'tgan vaqt hisobga olinadi.

Da'vo muddatining uzilishi da'vo muddatining o'tishini buzadigan holatlar yuz berishi tufayli avvalgi o'tgan vaqt foydasiz bo'ladi. U hisobga olinmasdan, bu to'siq bartaraf etilgandan so'ng da'vo muddatining o'tishi faqat yangitdan boshlanishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy bitimlarda shaxslarning almashinilishi da'vo muddati va uni hisoblash tartibining o'zgarishiga olib kelmaydi. Tashqi iqtisodiy shartnomaviy majburiyatlarda quyidagilar da'vo

muddatining to'xtatilish hollari hisoblanishi mumkin: birinchidan, agar da'vo qo'zg'atilishi uchun muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan favqulodda hodisa (yengib bo'lmaz kuch) to'sqinlik qilgan bo'lsa; ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi hukumati majburiyatlarni bajarishni kechiktirgan (morotoriy) bo'lsa; uchinchidan, agar da'vogar yoki javobgar harbiy holatga o'tkazilgan Qurolli kuchlar, chegara qo'shinlari va ichki qo'shinlar tarkibida bo'lsa; to'rtinchidan, agar muomalaga layoqatsiz shaxsning qonuniy vakillari bo'lmasa; beshinchidan, tegishli munosabatni tartibga soluvchi qonun hujjatlarining amal qilishi to'xtatilgan bo'lsa.

Ushbu hujjatlar da'vo muddatining oxirgi olti oyida, bu muddat olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddati vujudga kelgan yoki davom etib turgan bo'lsa, da'vo muddatining o'tishi to'xtatiladi. Muddatning to'xtatib turilishiga asos bo'lgan holat barham topgan kundan boshlab da'vo muddatining o'tishi davom etadi, bunda muddatning qolgan qismi olti oygacha, da'vo muddati olti oydan kam bo'lsa, da'vo muddatiga qadar uzaytiriladi.

Da'vo muddatining o'tishi belgilangan tartibda da'vo qo'zg'atilishi bilan shuningdek, majbur shaxs qarzni tan olganligini ko'rsatuvchi harakatlarni qilishi bilan uziladi, uzilishidan keyin da'vo muddatining o'tishi yangidan boshlanadi, uzilishigacha o'tgan vaqt esa – yangi muddatga qo'shilmaydi.

Da'vo muddati o'tgandan keyin majburiyatni bajargan shaxs ijro etish paytida da'vo muddatining o'tib ketganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lganligidan qat'i nazar, bajargan narsasini qaytarilishini talab qilishga haqli emas.

Tashqi iqtisodiy bitimlarga ham «Tovarlarni xalqaro oldi-sotdisida da'vo muddati to'g'risida»gi⁹⁴ 1974-yilda qabul qilingan Konvensiya qoidalari qo'llaniladi.

Mazkur konvensiya tovarlarning xalqaro oldi-sotdi bitimi bo'yicha taraflarning huquqini amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Barcha xalqaro oldi-sotdi shartnomalari uchun yagona 4 yillik da'vo muddati belgilangan. Turli xil davlatlar qonun hujjatlari bo'yicha da'vo muddatlari 6 oydan 30 yilgacha muddatga belgilangan⁹⁵. Xorijiy davlatlarda da'vo muddatlari hamma fuqarolik huquqiy munosabatlarga tatbiq etiladi, qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno. Xorijiy davlatlarda

⁹⁴ Tovarlarning xalqaro oldi-sotdisida da'vo muddati to'g'risidagi Konvensiya (Nyu-York, 1974) o'zgartirish bayonnomasi bilan (Vena, 1980).

⁹⁵ Batafsil qarang: Гражданское и торговое право капиталистических государств. –М.: Международные отношения. 1993. –С.191.

ham da'vo muddatlari imperativ tusga ega bo'lib, taraflar o'zaro kelishuv asosida da'vo harakatini bekor qilishga, uning muddatini o'zgartirishga yoki uning shartini qarzdor uchun boshqa usullar bilan yengillashtirishga yo'l qo'yilmaydi (FGKning 2220-moddasi, GFU 225-§). Shartnomaga bunday kelishuv haqida shartning kiritilishi uni haqiqiy emas deb topishga asos bo'ladi. Bundan tashqari, Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya, Fransiya fuqarolik huquqida shartnomada qisqartirilgan da'vo muddatlarini belgilashga yo'l qo'yiladi.

Roman-german huquqiy tizimidagi davlatlarda da'vo muddati moddiy huquq instituti hisoblansa, angliya-amerika huquqiy tizimidagi davlatlarda esa protsessual huquq institutidir. da'vo muddatini bunday turli xil talqin etish muhim yuridik oqibatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'ladi. Roman-german huquqiy tizimidagi davlatlarda milliy huquqiy tizimda ifoda etilgan da'vo muddati normalarini shartnoma shartlari yoki kollizion normalaridan kelib chiqib tartibga solinadigan munosabatlarga arbitraj yoki sud tatbiq etadi. Amaliy jihatdan uning mohiyati shundan iboratki, arbitraj yoki sud davlatning milliy huquqi yoki xorijiy huquq da'vo muddati normalarini qo'llanishini anglatadi.

Angliya va Amerika huquqiy tizimidagi davlatlarda arbitraj yoki sud protsessual huquqiy munosabatlar doirasida da'vo muddatini ko'rib chiqib har qanday holda da'vo muddatini tartibga solishda o'z milliy huquq normalarini tatbiq etadi. Bu holat shu bilan asoslana-diki, xalqaro xususiy huquqning umum tan olingan doktrinasiga asosan protsessual tartibdagi masalalarga nizo qo'llanilayotgan davlatning qonuni, boshqacha qilib aytganda sud qonuni qo'llaniladi (lex fori)⁹⁶.

Yuqorida qayd etilganlardan, tashqi iqtisodiy bitimlarga nisbatan «Tovarlarning xalqaro oldi-sotdisida da'vo muddati to'g'risida»gi 1974-yilda qabul qilingan qoidalar qo'llanganligi sababli biz bu haqda batafsil 3-§da fikr yuritamiz. Shu sababli, bu haqda ushbu bobning 3-§da Tashqi oldi-sotdi savdoga nisbatan da'vo muddatini qo'llash tartibi yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, Tashqi iqtisodiy bitimlar ishtirokchilari-ning unga nisbatan qo'llaniladigan da'vo muddati qoidalariga rioya etilishi shartnoma intizomini mustahkamlanishining muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

⁹⁶ Кожевников Б.О. Некоторые вопросы применения исковой давности в англо-американской системе право. Торгово-промышленная палата СССР. Секция право. -М.: 1978. -С.41-49.

3-§. Tashqi oldi-sotdi savdoga nisbatan da'vo muddatini qo'llash tartibi

Tashqi oldi-sotdi savdoga nisbatan da'vo muddatini qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Tashqi oldi-sotdi savdoga nisbatan da'vo muddatini qo'llashda 1974-yildagi «Tovarlarni xalqaro oldi-sotdi qilishda da'vo muddati to'g'risida»gi Konvensiya qoidalari alohida o'rin tutadi. Shuningdek, 1980-yil 11-aprelda Venada Tovarlarni xalqaro oldi-sotdi qilishda da'vo muddati to'g'risidagi Konvensiyani o'zgartirish to'g'risidagi Bayonnoma ham qabul qilingan. Ma'lumki, xalqaro oldi-sotdi munosabatlari davlatlar o'rtasida o'zaro do'stlik va hamjihatlik munosabatlarini mustahkamlashda muhim o'rin tutib, tovarlarni xalqaro oldi-sotdi qilish bo'yicha da'vo muddatlarini tartibga soladigan yagona qoidalarning qabul qilinishi jahon savdosini rivojlantirishga katta yordam beradi. Mazkur Konvensiyaga asosan da'vo muddati 4 yil qilib belgilangan. Konvensiyaning 10, 11, 12-moddalarida nazarda tutilgan hollardan mustasno ravishda da'vo muddatining o'tishi da'vo qilish huquqi vujudga kelgan vaqtdan boshlab o'ta boshlaydi.

Shartnoma buzilishidan kelib chiqadigan da'vo huquqi bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab vujudga kelgan hisoblanadi. Tovarning kamchiligi va shartnomannig shartiga mos kelmasligi natijasida kelib chiqadigan da'vo huquqi tovarni sotib oluvchiga berish yoki uning tovarni qabul qilib olishni rad etish kundan paydo bo'ladi.

Shartnoma tuzishgacha yoki uni tuzish, yoxud uning ijrosi vaqtida aldovga asoslangan da'vo bo'lgan yoki huquq qachon aldov bo'lgan yoki uni oqilona aniqlangan kundan boshlab vujudga keladi.

Agar, sotuvchi mahsulotga nisbatan aniq belgilangan kafolatlar taqdim etgan bo'lsa, bosharti buning muddati aniq davrlar bilan yoki boshqacha tarzda cheklangan bo'lsa, bunday kafolatlardan kelib chiqadigan da'volarning o'tish muddati bunday talabni qo'yish uchun asos bo'lgan xaridor tomonidan sotuvchini ogohlantirish fakti ro'yobga chiqqan kundan boshlab hisoblanadi, lekin kafolatning amalda bo'lish muddatidan kech bo'lishi mumkin emas.

Agar shartnomaga qo'llaniladigan huquq nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lsa, bir taraf shartnomani bekor qilish haqida uni bajarish muddati boshlangunga qadar bunday holatlarga asoslantirilgan da'volarning o'tish muddati haqida ma'lum qiladi, ushbu holda

da'vo muddatining o'tishi boshqa tarafga ma'lum qilingan vaqtdan boshlanadi.

Agar shartnomani bekor qilish haqida uni bajarish muddati boshlangunga qadar ma'lum qilinmagan bo'lsa, bunday holda da'vo muddatining o'tishi shartnomani bajarish muddati boshlangan kundan hisoblanadi.

Basharti, shartnomani bir taraf buzganligi oqibatida kelib chiqadigan da'voning muddati, agar mahsulotni yetkazib berish yoki mahsulot uchun qismlarga bo'lib haq to'lash to'g'risidagi shartlar har bir alohida qismga nisbatan da'vo muddati bunday qoida buzilgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

Shartnomaga nisbatan qo'llanilgan huquqqa muvofiq bir taraf shartnomani bekor qilish haqida ma'lum qilishi lozim bo'lsa, shuningdek bu qoida buzilganligi haqida ma'lum qilgan taqdirda, qolgan barcha qismlarga nisbatan da'vo muddatining o'tishi boshqa tarafga ma'lum qilingan kundan boshlanadi.

Da'vo muddatining o'tishi kreditorning harakat sodir etishi bilan uziladi, bundan sud joylashgan davlatning huquqi bo'yicha ish qo'zg'atiladigan bo'lsa, qarzdorga nisbatan sud muhokamasi qo'zg'atilgan yoki qarzdorga nisbatan ilgari boshlangan sud muhokamasida qanoat hosil qilish yoki bu talabni tan olish maqsadida boshlangan sud muhokamasida qo'yilgan talablar deb hisoblanadi.

Agar taraflar o'rtasidagi kelishuvga binoan ular o'rtasidagi nizo arbitrajda ko'rilishi lozim bo'lsa, istagan bir taraf tartibga muvofiq arbitraj orqali muhokama qo'zg'atgan bo'lsa, basharti bunday tartib arbitraj kelishuvida yoki bunday muhokamaga nisbatan qo'llanilgan huquqda ko'zda tutilgan bo'lsa, da'vo muddatining o'tishi uziladi.

Arbitraj kelishuvida yoki qo'llaniladigan huquqda tegishli qoidalar mavjud bo'lmagan taqdirda, arbitraj muhokamasi boshlangan kun deb, nizoni arbitrajga o'tkazish haqidagi ariza turar joyidan taqdim etilgan yoki boshqa davlatning tijorat korxonasi joylashgan yeridan yoxud bular yo'qligi sababli uning oxirgi ma'lum bo'lgan joylashgan turar joyidan yoki uning tijorat korxonasi joylashgan yeridan berilgan vaqt hisoblanadi.

Nizo 1974-yildagi Tovarlarini xalqaro oldi-sotdisida da'vo muddati haqidagi Konvensiyaning 13, 14-moddalarida ko'rsatilgandan boshqacharoq tartibda ko'rilayotgan bo'lsa, chunonchi quyidagi holatlar munosabati bilan hal qilinayo:ganda:

a) qarzdorning o'limi yoki uning huquq yoxud muomala layoqati cheklanganligi;

b) qarzdorning barcha mulklariga taalluqli bo'lgan holatda bankrot bo'lishi yoki uning iqtisodiy nochor deb e'lon qilinganligi;

d) korporatsiya, kompaniya, shirkat, assotsiatsiya yoki boshqa tashkilot qarzdorning tarqatib yuborilishi yoki tugatilishi munosabati bilan kreditor o'z talablarini qanoatlantirishi yoki tan olinishi maqsadida nizoni ko'rishning bunday tartibini belgilovchi huquq normalariga rioya qilgan holda da'vo qo'zg'agan bo'lsa, da'vo muddatining o'tishi uzilgan hisoblanadi;

mazkur Konvensiyaning bir turkum 13, 14, 15-moddalari uchun qarshi talab, ya'ni bir tarafga nisbatan qo'yilgan talablar qatorida bu ikki talab bitta yoki o'zaro bog'liq bo'lgan bir qancha shartnomalardan kelib chiqqan bo'lsa xuddi shu kuni qo'yilgan deb hisoblanadi.

Agar Konvensiyaning 13, 14, 15, 16-moddalariga muvofiq da'vo muddati doirasida talab qo'yilgan bo'lsa, lekin nizoni hal qilish da'voning mazmuni yuzasidan qaror chiqarilmagan holda tugatilgan bo'lsa, da'vo muddatining o'tishi uzilgan deb hisoblanmaydi.

Basharti, da'voni bunday hal qilish tugatilgan vaqtga kelib da'vo muddati o'tgan bo'lsa, yoki bir yildan oldin o'tgan bo'lsa kreditor bir yil davomida da'vo qilish huquqiga egadir, bunday vaqtda nizoni hal qilish muddati tugatilgan kundan sanaladi.

Agar, nizoni ko'rish bo'yicha bitta qarzdorga nisbatan ish qo'zg'atilgan bo'lsa, ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan da'vo muddatining o'tishi qarzdor bilan birga javobgar bo'ladigan tarafga nisbatan ham uziladi. Bunday holda agar kreditor belgilangan muddat davomida o'sha tarafni ish qo'zg'atish haqida yozma ravishda xabardor qilgan bo'lsa, bu qoida qo'llaniladi.

Basharti, nizoni hal qilish bo'yicha yordamchi xaridor tomonidan xaridorga nisbatan ish qo'zg'atilgan bo'lsa va agar xaridor belgilangan muddat davomida sotuvchini ish qo'zg'atilishi haqida yozma tarzda xabardor qilgan bo'lsa, ushbu Konvensiyada ko'zda tutilgan da'vo muddatining o'tishi sotuvchiga bo'lgan xaridorning talablariga nisbatan uziladi.

Konvensiya 18-moddasining 1, 2-bandlarida ko'rsatilgan muddatlar tugagandan keyin nizoni hal qilish bo'yicha ish tugagach, kreditorning birgalikdagi javobgarlikni olgan tarafga nisbatan talabi bo'yicha da'vo muddatining o'tishi yoki xaridor sotuvchiga nisbatan talabi bo'yicha da'vo muddati ushbu moddaning 1,2-bandlariga

ko'ra uzilgan deb hisoblanmaydi, biroq kreditor yoki xaridor bir yil davomida talab qo'yishga haqli bo'ladi, bu muddat ish tugatilgan kundan boshlab hisoblanib, basharti bu vaqtga qadar da'vo muddati o'tgan, yoki bir yildan kamroq o'tgan bo'lsa.

Agar, kreditor da'vo muddati o'tgunga qadar qarzdor tijorat korxonasiga ega bo'lgan davlatda qandaydir harakat qilgan bo'lsayu, lekin 13, 14, 15 va 16-moddalarda bu harakatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, biroq bu davlatning huquqiga muvofiq da'vo muddatini tiklashga olib kelsa, bunday holda yangi 4 yillik da'vo muddati boshlanadi, bu muddat shu davlatning huquqida ko'rsatilgan kundan hisoblanadi.

Basharti, qarzdor da'vo muddati o'tgunga qadar yozma ravishda kreditor oldidagi majburiyatini tan olsa, bunday holda ushbu tan olingan kundan yangi 4 yillik da'vo muddati boshlanadi.

Foizlar to'lanishi yoki qarzdor tomonidan majburiyatlarning qisman bajarilganligi xuddi shunday oqibatlarni keltirib chiqaradi, ya'ni Konvensiya 20-moddasining birinchi bandiga muvofiq majburiyatlarning tan olinganligini bildiradi, basharti bunday to'lovlar yoki majburiyatlarning bajarilganligi qarzdor tomonidan bunday majburiyatlarni tan oldi deb hisoblash uchun oqilona asos bo'lsa.

Agar da'vo muddatining o'tishi kreditorga bog'liq bo'lmagan holatlar tufayli, ya'ni ularni yengib o'ta olmagan bo'lsa, tegishli holatlarning amal qilishi tugatilgan kundan boshlab 1 yil tugagunga qadar da'vo muddati o'tmagan deb hisoblanadi.

Da'vo muddati va uni qo'llash tartibi ariza yoki taraflar o'rtasidagi kelishuv bo'yicha o'zgartirilishi mumkin emas, Konvensiya 22-moddasining ikkinchi bandida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasnodir.

Qarzdor da'vo muddati davomida istagan vaqtda yozma ravishda kreditorga murojaat qilish orqali bu muddatni uzaytirishi mumkin. Bunday murojaat qilish tiklanishi mumkin. Ushbu Konvensiya 22-moddasining qoidalari oldi-sotdi shartnomasi shartlarining haqiqiyli-giga taalluqli emas, bunda arbitraj jarayoni da'vo muddatiga nisbatan qisqaroq muddat doirasida boshlanishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu muddat Konvensiyada belgilangan, oldi-sotdi shartnomasiga nisbatan qo'llaniladigan huquqqa muvofiq bunday shartlar yuridik jihatdan haqiqiy hisoblanadi.

Mazkur Konvensiyaning qoidalaridan qat'i nazar, da'vo muddati 10 yildan kechikmasdan har qanday holatda o'tishi mumkin, bunda

ushbu Konvensiyaning 9, 10, 11 va 12-moddalariga muvofiq uning o'tishi belgilangan kundan hisoblanadi.

Da'vo muddatining o'tishi protsessda ishtirok etayotgan tarafning arizasiga ko'ra nizo ko'rilayotganda e'tiborga olinadi.

Konvensiyaning 24-moddasida nazarda tutilgan ariza bo'lganda talab qilish huquqi tan olinishi mumkin emas va da'vo muddati o'tgandan keyin nizoni ko'rish boshlangan bo'lsa majburiy tartibda amalga oshirilmaydi, Konvensiya 25-moddasining 2-bandida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.

Da'vo muddatining o'tishidan qat'i nazar taraf o'z talabini e'tiroz tarzida qo'yishi mumkin yoxud boshqa taraf tomonidan kiritilgan istagan qarshi talabni e'tiborga olishi uchun, ular quyidagi holatlarda sodir qilingan bo'lishi:

a) har ikki talab bitta yoki bir qancha o'zaro shartnomalardan kelib chiqsa, yoki

b) da'vo muddati o'tgunga qadar istagan vaqtda uni hisobga olish uchun da'vo qo'zg'atilishi mumkin bo'lsa.

Qarzdor tomonidan da'vo muddati o'tgandan keyin majburiyat bajarilgan holda garchi u o'zi tomonidan o'z majburiyatini bajarish vaqtida da'vo muddati o'tganligini bilmagan bo'lsa-da u mana shu shartlar asosida bajarilgan majburiyatni qaytarish huquqiga ega emas.

Asosiy qarz bo'yicha da'vo muddati o'tganligi tufayli qarz bo'yicha foizlar to'lash haqidagi talab bo'yicha da'vo muddati o'tgan deb hisoblanadi.

Da'vo muddati kun oxirida o'tgan bo'ladi, demak uni hisoblashning boshlanishi kalendar sanasiga mos keladi.

Agar da'vo muddatining tugashi tegishli kalendar sanasi yo'q bo'lgan oyga to'g'ri kelsa, bunday holda muddat shu oyning oxirgi kunida o'tgan hisoblanadi.

Da'vo muddati nizoni ko'rish bo'yicha ish qo'zg'atilgan o'sha joyning sanasiga muvofiq hisoblanadi.

Agar da'voning oxirgi kuni rasmiy bayram yoki ishtirok etilmaydigan kunga to'g'ri kelganligi tufayli bu yerda protsess bilan bog'liq munosib harakatlarni amalga oshirish mumkin bo'lmasa, basharti kreditor nizoni ko'rish bo'yicha ish qo'zg'atayotgan bo'lsa yoki Konvensiyaning 13, 14 va 15-moddalari tartibida o'zi talablarini qo'ygan bo'lsa, da'vo muddati birinchi kunning oxiriga qadar uzaytiriladi, albatta bu rasmiy bayram yoki ishtirok etilmaydigan

kunda va buning davomida ishni ko'rish qo'zg'atilishi yoki bunday talab qo'yilishi mumkin bo'lsa.

Shubhasiz, tashqi savdoga nisbatan qo'llaniladigan da'vo muddatiga oid xalqaro huquqiy normalarga rioya etilishining ta'minlanishi sud amaliyotida da'voni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi.

XVI BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha da'vo muddatlari va uning ahamiyati.

2. Tashqi iqtisodiy bitimlarga qo'llaniladigan da'vo muddati qoidalari.

3. Tashqi oldi-sotdi savdoga nisbatan da'vo muddatini qo'llash tartibi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. –T.: O'zbekiston, 1992-yil.

2. Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li –T.: O'zbekiston, 1993-yil.

3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997-yil.

4. Леонид Левитин. Узбекистан на историческом повороте. Критические заметки сторонника Президента Ислама Каримова. –М.: Вагриус, 2001.

5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «Adolat», 1993-yil.

6. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. –T.: «Adolat», 1996-yil.

7. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi 2000-yil 26-maydagi qonuni (yangi taxrirda) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2000-yil, №5-6, 83-modda.

8. Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник. –М.: Международные отношения. 1994.

9. Международное частное право. Учебник. Под ред. Г.К.Дмитриевой. –М.: Проспект, 2000.

10. Розенберг М.Г. Международный договор и иностранное право в практике международного коммерческого арбитражного суда. – 2-е изд. –М.: Статут, 2000.

11. Tovarlarning xalqaro oldi-sotdisida da'vo muddati to'g'risidagi Konvensiya (Nyu-York, 1974) o'zgartirish bayonnomasi bilan (Vena, 1980).

12. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi qarorlarining to'plami. Nukus. «Bilim» nashriyoti, 2000-yil.

13. Ансон В. Договорное право. –М.: Юрид.лит., 1984.

14. Гражданское и торговое право капиталистических государств. –М.: Международное отношение. 1993.

15. Кожевников Б.О. Некоторые вопросы применения исковой давности в англо-американской системе право //Торгово-промышленная палата СССР. Секция право. –М.: 1978.

XALQARO XUSUSIY HUQUQ NORMALARI BILAN ASHYOVIY HUQUQLARNING TARTIBGA SOLINISHI

1-§. Ashyoviy huquqlarga nisbatan qo‘llanadigan umumiy qoidalar

Xalqaro xususiy huquqda ashoviy huquqlarni tartibga solish muhim o‘rin tutadi. Bizga ma’lumki, ashvo atamasi bir xil ma’nodan tushunilmaydi. Ashvo yoki uning muayyan majmuasi mol-mulkni o‘z ichiga qamrab oladi. Huquq normasi bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ashvo, mol-mulk atamalaridan shunga muvofiq tarzda ashoviy yoki mulkiy huquq ma’nolarida foydalaniladi. Shu sababli nafaqat milliy huquqda, balki xalqaro xususiy huquqda ham ashoviy huquqqa yondashuv masalasi eng muhim masala bo‘lib hisoblanadi⁹⁷. Ashoviy huquqni qonun bilan cheklangan muayyan mulkiy huquq deb tushunish mumkin. Mulk shartnoma bilan chegaralanishi mumkin emas. Demak, ashoviy huquq shartnoma bilan belgilanmasdan, balki qonunda ko‘rsatilishi lozim⁹⁸. Eng muhimi, ashoviy yoki mulkiy huquq ma’nosida tushunishdan qat’i nazar biz o‘rganayotgan mavzu doirasida ularga nisbatan qaysi mamlakat huquqini qo‘llashning mohiyatini tushunib olish huquqni qo‘llash amaliyoti jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Muayyan holat bo‘yicha u yoki bu davlat huquqining to‘g‘ri qo‘llanilishi o‘z navbatida qonun ustuvorligini ta’minlashning ham muhim omili bo‘lib hisoblanadi.

⁹⁷ Эннексерус Л. Курс гражданского права. Т.1. Полутом 1. –М.: Ин.лит. 1949; Жюллио де ла Марандьер Л. Гражданское право Франции. –М.: Ин. лит. 1958; Ласк Г. Гражданское право США. –М.: 1961; Дернбург Г. Пандекты. Вещное право. СПб., 1902. Т.1. Ч.2. –С.127. Маттен Уго. Основные принципы права собственности. В.кн.: Основные положения права собственности. –М.: Юрист, 1999, Скрыбин С.В. Гражданско-правовые проблемы понятие вещного права. Автореф. дисс... канд. юрид. наук Алматы: КГЮУ 1998; Ариджанов У.А. Право собственности в системе вещного права. Автореф. дисс. канд. юрид. Наук. –Т.: 2000; Моновна Г.Б. Категория вещных прав в советском гражданском праве //Вестник МГУ, серия 11. Право 1990. №5; Odilxo‘jayeva S. O‘zbekistonda mulk islohotining huquqiy asoslari //Xo‘jalik va huquq. 1998-y., №7, 34-37-be; Кулагин М.И. Предпринимательство и право: опыт Запада. –М.: Изд-во Дело. 1992. –С.57-71.

⁹⁸ Скловский К.И. Собственность в гражданском праве. –М.: Изд-во Дел., 2000, –С.434; Скловский К.И. Собственность в гражданском праве. –М.: Изд-во Дело. 2000. –С.434.

Fuqarolik Kodeksining 165-moddasida mulk huquqi bilan bir qatorda xususan, quyidagilar ashyoviy huquqlar hisoblanadi. Xo'jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqi; meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi; yer uchastkasiga doimiy egalik qilish va undan foydalanish huquqi; servitutlar shular jumlasidandir.

Mol-mulkka egalik qilish huquqining boshqa shaxsga o'tishi, agar qonun hujjatlarida o'zga tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bu mol-mulkka nisbatan o'zga ashyoviy huquqlarning bekor bo'lishi uchun asos bo'lmaydi.

Ashyoviy huquq har bir rivojlangan davlat fuqarolik qonunchiligining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi⁹⁹. Ko'plab davlatlarning qonun hujjatlarida ko'chmas va ko'char mulklarga nisbatan mulk huquqi farqlanadi. Ushbu davlatlarning qonunchiligiga ko'ra, doktrinasida va sud amaliyotida ko'chmas mulklarga nisbatan mulk huquqi, mulkning joylashgan mamlakat qonuni bilan belgilanishi tamoyili amal qilinishi bilan tavsiflanadi. Bu qonunlarda ko'chmas mulkka bo'lgan mulkiy huquq mazmuni va ularga nisbatan mulk huquqining o'tish shakllari va shartlari belgilangan. Eng avvalo bunday tamoyil ko'chmas mulklarning alohida toifalaridan bo'lib hisoblangan yer uchastkasiga nisbatan belgilanib, maxsus reyestr va kitoblarda yerga bo'lgan mulk huquqini qat'iy qayddan o'tkazishni amalga oshirilishidan dalolat beradi.

Ko'char mulklarga nisbatan mulk huquqi holati birmuncha murakkab hisoblanadi. Bunga odatda, qimmatbaho qog'ozlar, transport vositalari, shaxsiy buyumlar va hokazolarni talab qilib olish huquqi kiradi. Turli davlatlarda bu toifadagi mulklarga nisbatan ashyo joylashgan mamlakat qonunini qo'llash tamoyilining ahamiyati garchi, ko'char mulklar holatiga asosan qayd etilgan tamoyil muhim o'rin tutsada, har xil hal etilgan.

Eng avvalo, umum tan olingan qoidaga asosan, agar qaysi bir davlatda, ashyo ushbu davlatning qonuniga ko'ra, muayyan shaxsga qonuniy asosda mulk huquqi o'tgan bo'lsa, ashyoning joylashgan joyi o'zgargan taqdirda ham ushbu ashyoga nisbatan mulk huquqi uning egasida saqlanadi. Boshqacha aytganda, chet elda olingan ashyoga nisbatan mulk huquqi tan olinadi.

⁹⁹ Азизов И. Конституционное регулирование права собственности: сравнительное исследование. В.кн. Проблемы собственности. -Т.: "Адолат", 1985. -С.181; Щенникова Л.В. Вещные права в гражданском праве России. -М.: Бек. 1996. -С.21.

Shuningdek, mulk huquqining miqdori ashyo joylashgan mamlakat qonuni bilan belgilanadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, ashyoning bir mamlakat hududidan boshqa davlatga o'tishi bilan mutanosib ravishda mulk huquqi mazmuni ham o'zgaradi. Shu sababli, ushbu davlatlarda ashyo o'tgunga qadar egasiga qanday mulkiy huquqlar tegishli ekanligi ahamiyatga ega emas. Chet el fuqarosining o'z davlatidagi ashyolariga nisbatan mulk huquqi tan olinadi, ammo bu huquq mazmuni uning fuqaroligi belgilangan qonun bilan emas, balki ashyo joylashgan mamlakat qonuni bilan belgilanadi. Xalqaro xususiy huquq doktrinasiga ko'ra, agar ashyo u turgan davlatda sotib olingan bo'lmasa ham mulk huquqining o'tishiga nisbatan qanday qonun bilan tartibga solinishi haqida turli xil nuqtayi nazarlar bor. Ayrim davlatlarda ashyo turgan mamlakat qonuni qo'llanilishi haqidagi qoidalar amal qilsa, boshqa holatda esa mulkdorning shaxsiy qonuni bilan tartibga solinishiga ustuvorlik beriladi. Uzoq yillar mobaynida Buyuk Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlarida ko'chmas mulkka nisbatan mulk huquqiga mulkdorning shaxsiy qonuni qo'llanishi tamoyili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib keldi. Fransiya huquqiga asosan bir qator hollarda ko'char mulklarga nisbatan mulk huquqida ashyo joylashgan yer qonunini qo'llash nazarda tutilsa-da, shu bilan bir qatorda, meros huquqida mulk huquqining meros tariqasida o'tishida meros qoldiruvchining shaxsiy qonuni bilan belgilanishi ham ifoda etilgan.

Shuni e'tirof etish kerakki, shaxsiy qonun tamoyili umumiy qoidadan istisno sifatida qo'llaniladi. Bu tamoyil faqatgina ayrim davlatlar qonun hujjatlarida saqlanib qolgan (Argentina, Braziliya).

Ashyo joylashgan mamlakat qonunini qo'llashni kengaytirishning mohiyati eng avvalo, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining manfaatlariga to'la mos kelishi bilan tavsiflanadi. Qoidaga ko'ra *lex rei sitae* tamoyili qanday ashyolar mulk huquqining obyektini hisoblanishiga mulkdorning huquq va majburiyatlar miqdori va mazmuni va mulk huquqining vujudga kelishi, o'tishi va bekor bo'lishini nazarda tutadi.

Mulk huquqidan kelib chiqadigan munosabatlarning kollizion masalalari alohida xalqaro kelishuvlar bilan ham tartibga solinadi. 1958-yildagi Gaagada qabul qilingan tovarlarning xalqaro oldisotdisiga nisbatan qo'llaniladigan huquq to'g'risidagi Konvensiya mulk huquqining o'tishi bilan bog'liq bir qator masalalar *lex rei sitae* tamoyiliga asoslanmasdan, balki ashyoviy statutga, ya'ni tashqi

savdo oldi-sotdi bitimiga taraflar tomonidan qo'llaniladigan huquqqa bo'ysunishligiga ko'ra hal etiladi. Ashyoviy huquq o'ziga xos alomatlari bilan majburiyat huquqidan farq qiladi¹⁰⁰. Ashyoviy huquq subyekti o'z xohishi bilan ashyoviy huquqning yangi turlarini yaratish huquqiga ega bo'lmaydi. Majburiyat huquqi ishtirokchilari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yoki nazarda tutilmagan bo'lsa-da, lekin ular talablariga zid bo'lmagan bitimlarni tuzish huquqiga ega. Ashyoviy huquq mutlaq huquq turlaridan bo'lib hisoblanganligi tufayli ham majburiyat huquqidan farq qiladi. Shunga bog'liq ravishda va fuqarolik huquqi tizimiga ko'ra, mulkiy munosabatlarni tartibga soladigan normalar birinchidan, ashyoviy huquqqa, ikkinchidan, majburiyat huquqiga bo'linadi. Bizga ma'lumki, ashyoviy huquq (ing. Law of property, interest) obyekt bo'lgan ashyo subyektiv fuqarolik huquqi bo'lib hisoblanadi. Anglo-Amerika huquq tizimida ashyoviy huquqning huquqiy tabiati mazmuni jihatdan sodda konstruktsiya «Ownership» o'z ichiga mulk huquqini «property» va o'ziga ashyolarga nisbatan huquqni qamrab oladi. So'nggisi mulkka nisbatan subyektiv huquqning bir ko'inishi bo'lib, ashyoviyga nisbatan mulk huquqi bo'lganda masalan, mulkdor ashyodan voz kechgan holda (res nullius) ham davom etadi¹⁰¹.

Kezi kelganda shuni aytish lozimki, xorijiy davlatlarda ashyoviy va majburiyat huquqini turkumlash darajasi bir xilda emas. Xususan Vengriya, Chexiya, Slovakiya Fuqarolik Kodekslari subyektiv mulkiy huquqlarni ashyoviy va majburiyat huquqiga turkumlab bir-biridan ajratmaydi. Polsha, Bolgariya, Ruminiya va Kuba davlatlari fuqarolik qonun hujjatlarida ashyoviy huquq tizimi batafsil o'z ifodasini topgan¹⁰².

Odatda, mulkning o'ziga xos xususiyatini e'tiborga olib ko'chmas (immovables) va ko'char (movables) mulk huquqi bir-biridan huquqiy holati jihatidan farqlanadi. Mulk huquqining bunday

¹⁰⁰ Брагинский М.И. К вопросу о соотношении вещных и обязательственных правоотношений. В.кн.: Гражданский Кодекс России. Проблемы. Теория. Практика. –М.: 1998. –С.114. Ефимова Л.Г. О соотношении вещных и обязательственных прав //Государство и право. 1998. №10. –С.44; Гражданское право //Под ред. А.П.Сергеева, Ю.К. Толстого. Санкт-Петербург. Изд-во ТЕИС, 1996. – С.80-81.

¹⁰¹ Козыр О.М. Понятие и система прав на недвижимое имущество по английскому праву //Вестник Московского университета. Серия Право. 1987. №5, –С.73.

¹⁰² Основные институты гражданского права зарубежных стран (рук. авт. колл. В.В. Залесский. –М.: Норма, 1999. –С.210-226. Кичигина И.Л. Ограниченные вещные права по законодательству Республики Куба. В.кн. Материалы по иностранному законодательству и международному частному праву. Труды 49. –М.: 1991. –С.17.

turkumlanishi o'zining uzoq yillik tarixiy ildiziga ega bo'lib, Rim xususiy huquqiy tizimida ham o'z ifodasini topgan¹⁰³.

Turli davlatlar huquqi ashyolarni turkumlashni, shu jumladan, ashyolarni ko'chmas va ko'char mulklarga kiritishni har xil belgilaydi. Masalan, uying kaliti yoki yerga huquqiy titulni tasdiqlaydigan hujjatlar ko'chmas mulkka tegishli ajratilgan ashyolar bo'lib hisoblanadi. Angliya qonun hujjatlariga asosan uning mulkdori ko'chmas mulkka manfaati bor shaxs sifatida tavsiflanadi¹⁰⁴. Ushbu o'rinda tabiiy savol tug'ilishi mumkin. Agar mulk bir huquqiy tizim bo'yicha ko'char, boshqasi bo'yicha esa ko'chmas mulk bo'lsa, qaysi huquq hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi yoxud, masalan, mulk huquqining o'tishida ham bu holatni yaqqol kuzatish mumkin. Bir davlatda mulk huquqining o'tish vaqti – bu tegishli shartnoma (kontrakt)ni imzolash davrida ashyoni faktik berilganligidan qat'i nazar, boshqa holatda esa mulk huquqining o'tish vaqti ashyoni faktik berish davriga mos kelish bilan tavsiflanadi.

Shunday qilib, amaliyotda bir xil vaziyat turli xil hal qilinishi mumkin. Bunday holda mazkur vaziyatda vujudga kelgan huquqiy munosabatni tartibga solishda qaysi huquqiy tizim normasini qo'llash mumkin. Bu masala nafaqat nazariy jihatdan, balki huquqni qo'llash amaliyotining ahamiyati bo'yicha ham dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi¹⁰⁵.

Ashyoviy huquq shunday mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar yig'indisidirki, bunga asosan majbur shaxs o'z mulkiga (ashyoga) nisbatan huquqini boshqa shaxslarning ijobiy harakatiga zaruriyat bo'lmasdan amalga oshiradi. Ashyoviy huquq bevosita mulkka ta'sir qilish imkoniyatini beradi. Ashyoviy huquqqa oid qoidalar vakolatli shaxs mulkka egalik qilishining yuridik imkoniyatini mustahkamlaydi, boshqa shaxslarning u yoki bu harakatiga bog'liq bo'lmagan holda undan foydalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1184-moddasida ashyoviy huquqlarga nisbatan qo'llaniladigan umumiy qoidalar o'z ifodasini topgan.

Xususan, ushbu moddaga ko'ra ko'chmas va ko'char mol-mulkka nisbatan mulk huquqi hamda boshqa ashyoviy huquqlar, agarda qonunda boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bu mol-mulk

¹⁰³ Римское частное право. Учебник /Под ред. И.Б.Новицкого, И.С.Перетерского. –М.: Новый Юрист 1997.

¹⁰⁴ Чешир Дж., Норт П. Международное частное право. Пер. с англ. –М.: 1982. –С.24-25.

¹⁰⁵ Скворцов О.Ю. Вещные иски в судебно-арбитражной практике. –М.: 1998. –С.57-59.

joylashgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi. Mol-mulkning ko'chmas yoki ko'char ashyolarga mansubligi, shuningdek mol-mulkning boshqacha yuridik baholanishi ana shu mol-mulk joylashgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi.

Umumiy qoidaga ko'ra, mulkka nisbatan egalik huquqi mol-mulk turgan mamlakatning huquqiga asosan belgilanadi. Shuni e'tirof etish kerakki, mol-mulk boshqa mamlakat hududida joylashgan bo'lishidan qat'i nazar agar u O'zbekiston Respublikasining davlat reyestrda qayd etilgan bo'lsa, bu mulkka nisbatan egalik huquqi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida joylashgan mol-mulkning ko'chmas yoki ko'char ashyolar turkumiga mansubligi, ularning turlari, ularni tasniflash va ushbu xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga nisbatan qo'llaniladigan qoidalar Fuqarolik Kodeksining 7 bobidagi 83-96-moddalarida ifoda etilgan.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro xususiy huquqqa asosan ashyoviy huquqlarga nisbatan qonun normalarini to'g'ri qo'llashni ta'minlanishi uning subyektlari ishtirokidagi munosabatlarni tartibga solishning muhim garovi bo'lib xizmat qiladi.

2-§. Ashyoviy huquqning vujudga kelishi va bekor bo'lishi

Xalqaro xususiy huquqda ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi va bekor bo'lishi haqidagi qoidalarning ahamiyati beqiyosdir. Bizga ma'lumki, mulk huquqi va ashyoviy huquqlar boshqa har qanday fuqarolik huquqiy munosabat kabi huquq normasi va bu huquqiy munosabat vujudga kelishi uchun muayyan yuridik faktlar, asoslar (yoki usullari) mavjud bo'lganda vujudga keladi¹⁰⁶. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar o'zining vujudga kelish asosiga ko'ra dastlabki va hosila usullarga bo'linadi. Qonunga va boshqa huquqiy aktlarga rioya qilingan holda shaxs tomonidan yaratilgan, ishlangan narsaga nisbatan uning o'zida huquq paydo bo'ladi. Agar biron-bir shaxs o'z mulkiga nisbatan egalik huquqini yo'qotgan bo'lsa, u o'z mol-mulkini tashlab yuborgan yoxud o'z ixtiyoridan chiqarib yuborgan bo'lsa, qonuniy asoslarga muvofiq, uni olgan shaxsda bunday mol-mulkka nisbatan egalik huquqi paydo bo'lishi mumkin.

¹⁰⁶ Масевич М.Г. Основания приобретения права собственности на безхозные вещи. //Проблемы современного гражданского права. Сборник статей. Отв.ред. В.Н.Литовкин, В.А.Рахмилович. Городец. -М.: 2000. -С.173; Хохлов С.А. Право собственности и другие вещные права //Гражданский Кодекс России. Проблемы. Теория. Практика. -М.: 1998. -С.396.

Bunday hollarda mol-mulkka shaxs egalik huquqining vujudga kelishi boshqa shaxsning ushbu mulkka nisbatan egalik huquqi bilan bog'liq emas. Mol-mulkka egalik huquqining bunday yo'l bilan vujudga kelishiga dastlabki usul deb aytiladi.

Mol-mulk odatda mulk huquqining obykti sifatida qonun qoidalarga rioya qilingan holda bir shaxs egalik huquqidan ikkinchi shaxsga o'tadi. Bunday hollarda mol-mulk o'zining dastlabki sifatini yo'qotmaydi, faqat unga egalik qiluvchi subyektlar o'zgaradi. Huquq va burchlarning bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi huquq vorisligi bo'lib hisoblanadi. Huquq vorisligi asosan oldi-sotdi, ayir-boshlash shartnomalari, hadya va boshqa bitimlar bilan bog'liqdir. Huquq vorisligi meros qoldirish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish hollarida ham yuz berishi mumkinligi ham qonun hujjatlari mohiyatidan kelib chiqadi. Mulk huquqining vorislik bo'yicha bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi hosila usul deb yuritiladi.

Mol-mulkka dastlabki usulda egalik huquqining vujudga kelishi, mulk egasi huquq va burchlarining doirasi qonun bilan belgilanadi. Hosila usulida mulk huquqining vujudga kelishida avvalgi mulk egasining erki xohishi, uning huquq va burchlari, taraflarning kelishuvi va davlat boshqaruv organlarining aktlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy davlatlar qonun hujjatlarida dastlabki va hosila usulida mulkka egalik huquqi mustahkamlab qo'yilgan. Agar ishning tan-narxi, boshqa shaxsga tegishli materialning bahosidan ortiq bo'lsa tayyorlovchi ashyoga mulkdor bo'lgan holda material qiymatini uning egasiga qoplashi shart. Qolgan boshqa hollarda qayta ishlagan materialning mulkdori bo'lib bajaorilgan ishning haqini to'lagan taqdirda, bu material egasi hisoblanadi (Fransiya Fuqarolik Kodeksi-ning 570-571-moddalari, Germaniya fuqarolik tuzuklarning 950-§, Shotlandiya Fuqarolik Kodeksining 726-moddasi, anglo-amerika sud amaliyoti).

Hosil olishda shu nazarda tutiladiki, hosil beruvchi ashyo, uning «hosili» ishlab chiqilgan ashyolar, tabiiy mahsulotlar, masalan, hayvon bolasi, qishloq xo'jalik mahsulotlari hosili va boshqalar yoxud undan foydalanish natijasida olinadigan ashyolar yuridik daromad, xususan ijara haqi va shu kabilar (Fransiya Fuqarolik Kodeksining 547-550-moddalari, Germaniya fuqarolik tuzuklarining 99, 987-993-§, Shotlandiya Fuqarolik Kodeksining 642-moddasi).

Umumiy qoidaga ko'ra, Rim huquqi asosida qabul qilingan (superficiis solo cedit) va barcha o'rganilayotgan huquqiy tizim davlatlarida amalda bo'lgan, mulkdor uchastkasida bajarilgan qurilish, ko'kalamzorlashtirish va boshqa ishlar va ular bilan bog'liq bo'lgan natijalar yer bilan «birlashgan» holda hisoblanib, aksi isbotlangunga qadar yer mulkdoriga tegishlidir (Fransiya Fuqarolik Kodeksining 553-555-moddolari, Germaniya fuqarolik tuzuklari 946-§, Anglo-Amerika sud amaliyoti).

Ko'char mulklar birlashtirilganda birlashtirilgan qismlarning asosiysi tegishli shaxs mulkdor bo'lib hisoblanadi (Fransiya Fuqarolik Kodeksining 566-569-moddolari, Germaniya fuqarolik tuzuklari 997-§, Shotlandiya Fuqarolik Kodeksining 727-moddasi).

Egasi bo'lmagan ashyo mulkdori bo'lmaydi (res nullius) yoxud ixtiyoriy ravishda huquqidan voz kechib mulkdor mulkni egasiz qoldiradi (res derelictate). Germaniya fuqarolik tuzuklari 958-§ va Fransiya sud amaliyotiga asosan xususiy shaxslar faqat ko'char ashyolarni oluvchi subyekt bo'lib hisoblanishi mumkin. Davlat nafaqat ko'char, balki ko'chmas ashyolar, xususan, yerga nisbatan mulkka egalik huquqini olishi mumkin.

Mulkka egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddatga ko'ra mulk huquqining vujudga kelish asosi bo'lib qonunda belgilangan shartlarga javob beradigan tarzda mulkka egalik qilish fakti hisoblanadi (Fransiya Fuqarolik Kodeksining 2229, 2262-2265-moddolari, Germaniya fuqarolik tuzuklarining 937-§, anglo-amerika sud amaliyoti). Shuni e'tirof etish kerakki, xorijiy davlatlarda ko'char va ko'chmas mulklarga mulkdor bo'lishlik egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat shartlari va mulkni egallab turish muddati bir xilda hal etilmagan. Masalan, fransuz qonunchiligiga asosan, FFK 2162-2265-moddolari faqat ko'chmas mulklarga egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat 30 yil belgilangan. Angliyada egalik huquqini vujudga keltiruvchi muddat bo'yicha egalik huquqini olish faqat ko'chmas mulklarga qo'llanilib, 12 yil mobaynida insofli egallovchi bo'lishlik talab etiladi.

Hamma huquqiy tizim davlatlarida hosila usulida mulk huquqini olishda asosiy o'rinni «shartnomali usul» egallaydi. Bunday shartnomalar jumlasiga oldi-sotdi, pudrat, qarz va boshqalar kiradi.

Xorijiy davlatlarda mulk huquqini majburiy o'tkazish usullari sifatida natsionalizatsiya, rekvizitsiya va musodaralardan foydalaniladi. Natsionalizatsiya usulida vakolatli davlat organining maxsus

hujjati asosida xususiy shaxslarga qarashli mulk davlat ixtiyoriga o'tkaziladi. Bu usul Angliya, Fransiya, Italiya, Avstriya va boshqa davlatlarda ishlab chiqarish va boshqa sohalarda mulkni davlat ixtiyoriga o'tkazish asosida qo'llanilgan. Rekvizitsiya, nisbatan kam qo'llaniladigan usul bo'lib, favqulodda holatlarda mulkning qiymatini to'lagan holda davlat tomonidan olib qo'yiladi. Davlatning iqtisodiy manfaatlarini e'tiborga olib mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish keng tatbiq etilmoqda. Bunday tajriba Angliya, Fransiya, Germaniya, Portugaliya va boshqa bir qator davlatlarda muhim o'rin egallaydi.

Musodara usuliga ko'ra, qonunda nazarda tutilgan holda sodir qilingan huquqbuzarlik uchun sanksiya sifatida haq to'lamasdan musodara qilinayotgan mulk olib qo'yiladi¹⁰⁷.

Fuqarolik Kodeksining 1185-moddasida ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi va bekor bo'lishi ifoda etib berilgan. Ushbu moddaga ko'ra, mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi va bekor bo'lishi, agar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi yoxud bekor bo'lishi uchun asos bo'lgan harakat yoki boshqa holat sodir bo'lgan paytda bu mol-mulk turgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi.

Bitim narsasi bo'lgan mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi va bekor bo'lishi, agar taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilangan bo'lsa, ushbu bitim buysundirilgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi.

Egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tufayli mol-mulkka nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tugagan paytda mol-mulk joylashgan mamlakatning huquqi bilan aniqlanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, turli mamlakatlar o'rtasida o'rnatiladigan mulkiy munosabatlarda mol-mulkka nisbatan egalik huquqlarining vujudga kelish va bekor bo'lishida har qaysi mamlakatning huquqini qo'llashda o'ziga xos xususiyatlar mavjuddir.

Binobarin, mol-mulkka nisbatan egalik huquqi oldi-sotdi shartnomasiga ko'ra vujudga kelishi mumkin. Mol-mulkka nisbatan egalik huquqini bekor qilish mulkdorning mol-mulk taqdirini hal qiladigan bir tomonlama qaror qabul qilish, undan mol-mulkning

¹⁰⁷ Гражданское и торговое право капиталистических государств. Отв.ред. Е.А.Васильев. - М.: Международные отношения. 1993. -С.220-225.

sotib olinishi, sud qaroriga asosan mol-mulkning olib qo'yilishi (197-modda), mol-mulkni milliylashtirish (natsionalizatsiya) yoki rekvizitsiya qilinishi (199-modda) kabi asoslarga ko'ra amalga oshiriladi.

Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha uning narsasi (predmeti) bo'lgan mol-mulkka nisbatan egalik huquqi sotuvchidan sotib oluvchiga, agar taraflar boshqa vaqtni belgilagan bo'lmasa, uni topshirgan paytdan boshlab vujudga keladi. Shu paytdan boshlab sotuvchidagi mol-mulkka nisbatan bo'lgan egalik huquqi bekor bo'ladi. Mol-mulk sud qaroriga asosan olib qo'yiladigan bo'lsa, qaror qabul qilingan paytdan boshlab mulk egasidagi unga nisbatan bo'lgan egalik huquqi bekor bo'ladi. Demak, olish-sotish shartnomasi yoki sud qaroriga asosan olib qo'yish paytida mol-mulk qaysi mamlakatda turgan bo'lsa, unga nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi yoki bekor bo'lishi ham o'sha mamlakatning huquqi bilan belgilanadi.

Bizga ma'lumki, xalqaro xususiy huquq xalqaro oldi-sotdi shartnomalari va boshqa xalqaro fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga solishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib bu asosan kollizion (to'qnashuvchi) va moddiy huquqiy tartibga solish usullaridan foydalanishda namoyon bo'ladi¹⁰⁸. Fuqarolik Kodeksida belgilangan kollizion norma dispozitiv tusga ega bo'lib, huquqni qo'llashda ustuvorlik huquqi taraflarning xohishiga ko'ra eng avvalo shartnomada ifoda etilishi mumkinligi nazarda tutiladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, mulk huquqi muddatsizdir. Mulk egasi o'z mulkidan abadiy foydalanish, o'z mulk huquqini xohlagan vaqtda tasarruf qilish huquqiga ega. Hech kim mulkdorga o'z mulkini egallab turish, undan foydalanish va uni tasarruf etish uchun muddat belgilash huquqiga ega emas¹⁰⁹.

Ushbu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, Fuqarolik Kodeksining 1189-moddasida shartnomani tuzish paytida va ijro etish davomida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solishda u yoki bu mamlakatning huquqini tanlash bo'yicha taraflarga beriladigan huquqlar belgilangan. Mazkur Kodeksning 1190-moddasida esa huquqni tanlash to'g'risida taraflar o'zaro kelisha olmagan taqdirda majburiyatlarining alohida turlari bo'yicha shartnomaga nisbatan qaysi mamlakatning huquqini qo'llash haqidagi qoidalar mustah-

¹⁰⁸ Batafsil qarang: Hoshimov V. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha oldi-sotdi shartnomasiga nisbatan qo'llaniladigan huquq //Xo'jalik va huquq. 2001-yil, №11, 43-46-bet.

¹⁰⁹ Rahmonqulov H. Xususiy mulk va uning daxlsizligi. -T.: «Adolat», 2000-yil, 32-bet; Azizov X. Tadbirkorning mulk huquqi //Xo'jalik va huquq, 1998-yil, №2, 34-6-bet.

kamlangan. Masalan, agar oldi-sotdi shartnomasida qaysi mamlakatning huquqini qo'llash to'g'risida taraflar o'zaro kelishib olgan bo'lmasalar, bunday shartnoma mulkni sotuvchi joylashgan mamlakatning huquqi bilan tartibga solinadi.

Bunday kelishuv hadya, ijara (mulk ijarasi), mol-mulkdan tekin foydalanish, pudrat, yo'lovchi, bagaj, yuk tashish, transport ekspeditsiyasi, qarz yoki boshqa kredit, topshiriq, vositachilik, omonat saqlash, sug'urta, kafillik va garov shartnomalarida bo'lmagan taqdirda ushbu shartnomalarga nisbatan hadya qiluvchi, ijaraga beruvchi, ssuda beruvchi, pudratchi, tashuvchi, ekpeditör, kreditor, ishonchli vakil, vositachi, saqlovchi, sug'urtalovchi, kafil, garovga qo'yuvchi bo'lgan mamlakat huquqini qo'llash uchun asos bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, agar taraflar o'rtasida kelishuv bo'lmagan taqdirda, bitim qaysi mamlakatning huquqi bilan tartibga solinadigan bo'lsa, mol-mulkka nisbatan egalik huquqining vujudga kelishi yoki bekor bo'lishi ham o'sha mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi.

Fuqarolik Kodeksining 187-moddasiga ko'ra, mulkdor bo'lmagan, lekin ko'chmas mol-mulkka o'n besh yil davomida yoki boshqa mol-mulkka besh yil davomida o'ziniki kabi halol, oshkora va uzluksiz egalik qilgan shaxs bu mol-mulkka mulk huquqini oladi (egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat).

Ko'chmas va boshqa mol-mulkka davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart bo'lgan mulk huquqi ushbu mol-mulkka egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tufayli olgan shaxsda ana shunday ruyxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tufayli mulk huquqini olganga qadar mol-mulkka o'ziniki kabi egalik qilib turgan shaxs o'z egaligini mol-mulkning egalari bo'lmagan, shuningdek qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra egalik qilish huquqi bo'lmagan uchinchi shaxslardan himoya qilish huquqiga ega.

Qayd etilganlarga asosan ta'kidlash joizki, egalik qilish huquqini vujudga keltiruvchi muddat tugagan paytda mol-mulk qaysi mamlakatda joylashgan bo'lsa, unga nisbatan egalik qilish huquqining vujudga kelishi o'sha mamlakatning huquqi bilan aniqlanadi.

Mol-mulkka nisbatan egalik huquqining u joylashgan mamlakat huquqiga asosan vujudga kelishi, ushbu mol-mulkning boshqa mamlakatga o'tishi bilan unga nisbatan egalik huquqining bekor

bo'lishiga sabab bo'lmashligi mumkin. Chunki boshqa mamlakatda ham unga o'tgan mol-mulkka nisbatan xuddi shunday qoida qo'llanilishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Bunday holatda shuni e'tirof etish lozimki, agar o'z mamlakatlarining qonunlariga asosan mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqqa ega bo'lgan va ushbu mol-mulkni O'zbekiston Respublikasiga olib kelgan chet el fuqarolari va yuridik shaxslari O'zbekiston Qonunlariga ko'ra ushbu mulkka nisbatan egalik huquqidan mahrum bo'lmaydi.

3-§. Transport vositalariga va davlat reyestrda qayd etilishi lozim bo'lgan boshqa mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlar

Mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorligi doirasi tobora kengayaganligi sababli, O'zbekiston fuqarolarining chet ellardan transport vositalarini va davlat reyestrda qayd etilishi lozim bo'lgan boshqa mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlarini amalga oshirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu o'rinda bunday ashyoviy huquqni qo'llashni aniqlash nafaqat huquqiy fan nuqtayi nazaridan, balki amaliy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Ko'chmas mulklarni davlat ro'yxatiga olish xorijiy davlat qonun hujjatlarida ham o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, bunday qonunchilik tajribasi kontinental Yevropa davlatlari huquqiy tizimiga kiritilganligi bilan tavsiflanadi. Ko'chmas mulkka huquqni ruyxatdan o'tkazish masalasi 1898-yildagi Germaniya fuqarolik tuzuklari va 1897-yil 21-martdagi Yer kitobi haqidagi Nizomlar bilan tartibga solingan. Shveysariyada esa uning tartibi 1907-yildagi Shveysariya fuqarolik Kodeksi, 1910-yil 21-fevraldagi ko'chmas mulk ro'yxati haqidagi federal Kengashi Ordonans bilan belgilangan. Ushbu tizimdagi ashyoviy huquqni mustahkamlashdagi muhim hujjat – yer kitobida uning majburiy ro'yxatga olinishi hisoblanadi.

Ko'chmas mulkka huquqni mustahkamlash jahon tizimi tarkibiga – Torrens va anglo-amerika tizimi ham kiradi. Robert Torrens nomi bilan atalgan qonun 1858-yilda Avstraliyada «Real Property Act» deb qabul qilingan.

Klassik anglo-amerika tizimining ipoteka va Torrens tizimidan farqi shundan iboratki, mulk tituli uning oluvchisiga titulning o'tishini davlat ro'yxatiga olish vaqtidan emas, balki mulkni o'tkazish davridan o'tishi bilan tavsiflanadi. Bunday o'tkazish (conveyance) eng avvalo oluvchiga sobiq mulkdor tomonidan imzolangan va

uning muhri bilan tasdiqlangan yozma hujjatni (deed) ko'chmas mulk joylashgan hududdagi graflik ro'yxatdan o'tkazish muassasasi tomonidan majburiy qayddan o'tkazilishi talab etiladi. Italiya qonunchiligiga ko'ra, ko'chmas mulkka ashyoviy huquqni o'tishini ro'yxatga olish hujjatni (ko'chmas mulk bitimi) ro'yxatga olish shaklida amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash lozimki, Torrens tizimi o'zining samaraliligini ko'rsatib, hozirgi paytda ko'plab anglo-amerika huquqiy tizimi davlatlarida, xususan, Angliya, Filippin, Kanada va Amerika Qo'shma Shtatlarining bir qator shtatlarida qo'llanib kelinmoqda¹¹⁰.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1186-moddasida transport vositalariga va davlat reyestrda qayd etilishi lozim bo'lgan boshqa mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlarga oid qoidalar ifoda etib berilgan. Ushbu moddaga ko'ra, transport vositalariga va davlat reyestrda qayd etilishi lozim bo'lgan boshqa mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlar bu transport vositalari yoki mol-mulk ro'yxatga olingan mamlakat huquqi bo'yicha belgilanadi. Qayd etilgan ashyoviy huquqlarga qaysi mamlakat huquqini qo'llashni aniqlash va davlat reyestrda qayd etilishi lozim bo'lgan mol-mulk-larga nisbatan ro'yxatga olish joyini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu holda qaysi mamlakat huquqini qo'llashda ikkita holatni bir-biridan farqlash lozim. Birinchi holatda mol-mulk biron-bir xorijiy davlatda ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa, o'sha davlatning huquqi qo'llaniladi. Ikkinchi holatda esa boshqa davlatlardan respublikamizga olib kelingan transport vositalari va boshqa mol-mulk davlat reyestrda qayddan o'tkazilsa, bunday holatda mazkur mol-mulklarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi huquqi qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 84-moddasiga asosan, ko'chmas mulkka egalik huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, bu huquqlarning vujudga kelishi, boshqa shaxslarga o'tishi, cheklanishi va bekor bo'lishi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Ko'chmas mol-mulkka bo'lgan huquqlarni va u haqda tuziladigan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ huquq egasining iltimosiga ko'ra amalga oshirilgan ro'yxatdan o'tkazishni ro'yxatdan o'tkazilgan huquq yoki bitim to'g'risida hujjat berish yoxud

¹¹⁰ Batafsil qarang. Чубаров В.В. Вопросы государственной регистрации прав на недвижимое имущество и сделок с ним. //Проблемы современного гражданского права. Сборник статей. Отв.ред В.Н.Литовкин, В.А.Рахмилович. Городец, -М.: 2000, -С.145-151.

ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatga ustxat yozish yo'li bilan tasdiqlashi shart.

Ko'chmas mol-mulkka bo'lgan huquqlarni va u haqda tuziladigan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ amalga oshirilgan ro'yxatdan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilgan huquqlar haqidagi axborotni har qanday shaxsga berishi shart.

Axborot, ro'yxatdan o'tkazish qayerda amalga oshirilganidan qat'i nazar, ko'chmas mol-mulkni ro'yxatdan o'tkazuvchi har qanday organ tomonidan beriladi.

Ko'chmas mol-mulkka bo'lgan huquqni yoki u haqda tuzilgan bitimni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud ro'yxatdan o'tkazish muddatlarining buzilishi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi va ro'yxatdan o'tkazishni rad etish asoslari qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ko'chmas mulklardan farqli ravishda ko'char mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish talab etilmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 31-moddasiga ko'ra, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkasiga bo'lgan huquqi joyning o'zida chegaralar belgilanganidan, yer uchastkalarining planlari (chizmalari) va tavsiflari tuzilib, yer uchastkalariga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar davlat ro'yxatiga olingandan keyin vujudga keladi. Ushbu Kodeksning 35-moddasiga asosan yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlari davlat ro'yxatiga olinishi kerak. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish yer uchastkalari joylashgan yerda amalga oshiriladi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi¹¹¹.

O'zbekiston Respublikasi Uy-joy Kodeksining 13-moddasida ifoda etilganidek, turar joyga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, bu huquqlarning vujudga kelishi, boshqaga o'tishi, cheklanishi va bekor bo'lishi davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

Turar joyga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni hamda uy-joyga oid bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tuman,

¹¹¹ Huquqiy adabiyotlarda yer va boshqa qo'chmas mulkka huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazishga e'tibor berilmoqda. Qarang: Сыродоев Н.А. Регистрация прав на землю и другое недвижимое имущество //Государство и право 1998. №8, -С.94-95; Rahimov I., Davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan bitimlar va ularning qo'llanish doirasi // Xo'jalik va huquq. 1999. №8, 38-40-betlar.

shahar (shahar tarkibiga kiruvchi tuman) texnik inventarizatsiya kadastr byurosida amalga oshirilib, ushbu byuro mulk huquqi, boshqa ashyoviy huquq yoki bitim ro'yxatga olinganligi to'g'risida hujjat beradi yoxud ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatga ustxat yozib qo'yadi. Turar joyga bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni hamda turar joyga oid bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud ro'yxatdan o'tkazish muddatlari buzilishi ustidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin. Mazkur Kodeksning 14-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda yer uchastkasida yangi qurilayotgan uyga mulk huquqi uy davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab vujudga keladi. Uyning, kvartiraning oldi-sotdi va ayirboshlash shartnomasi yozma shaklda, taraflar imzolaydigan bitta hujjatni tayyorlash yo'li bilan tuziladi hamda u notarial tasdiqlanishi va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart. Uyning, kvartiraning oldi-sotdi shartnomasi shakliga rioya etmaslik uning haqiqiy emasligiga olib keladi. Sotib oluvchi sotib olganidan keyin qonunga muvofiq turar joydan foydalanish huquqini o'zida saqlab qoladigan shaxslar yashab turgan shu uy, kvartirani oldi-sotdi shartnomasining muhim sharti – bu shaxslarning ro'yxatini sotilayotgan turar joydan foydalanish huquqlari ko'rsatilgan holda tuzishdan iboratdir.

Umrbod ta'minlash sharti bilan uyni, kvartirani boshqa shaxsga berish to'g'risidagi shartnoma O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining qoidalariga rioya etilgan holda notarial tasdiqlanishi kerak. Uyni, kvartirani hadya qilish shartnomasi notarial tasdiqlangan bo'lishi hamda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.

Davlatga qarashli uyga, kvartiraga bo'lgan mulk huquqi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan xususiylashtirish tartibida vujudga keladi.

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda xususiy mulkning rivoj topishi natijasida ko'plab xususiy korxonalar va tashkilotlar vujudga kelishida muhim omil bo'lmoqda. Shu sababli, mulkchilik va xo'jalik yuritishning barcha shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini amalga oshirish ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 1994-yil 17-noyabrda qarori bilan «Mulchilik va xo'jalik yuritishning barcha shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarining yagona davlat registri to'g'risida»gi Nizom qabul qilingan. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining mulkchilik va xo'jalik

yuritishning barcha shakllaridagi korxonalari va tashkilotlarining yagona davlat registrini tashkil etish va uning amal qilishi maqsadlarini, registrning xo'jalik yurituvchi subyektlari tarkibini, registr axborot fondi mazmunini, korxonalar va tashkilot yagona davlat registridan foydalanuvchilarning o'zaro munosabatlari tartibini, yagona davlat registrini yaratishda va uni yuritishda qatnashuvchi tashkilotlarining vakolatlarini belgilab beradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-iyundagi O'zbekiston Respublikasida ko'chmas mulk davlat kadastrini yuritish to'g'risidagi Qaroriga asosan tasdiqlangan «Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida»gi Nizomning 1-bandiga ko'ra, binolar va inshootlar davlat kadastrini binolar va inshootlardan samarali foydalanishni va ularni muhofaza qilishni mulk egalari va bu obyektlardan boshqa foydalanuvchilarning huquqlarini, shuningdek binolar va inshootlarga egalik huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash uchun yuritiladi. Mulk egasi bo'lgan yoki binolar va inshootlarga ashyoviy huquqlarga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar ularga tegishli binolar va inshootlar davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlarga ega bo'lishlari shart (Nizomning 7-bandi). Bino va inshootni davlat ro'yxatidan o'tkazish majburiyati mulk egasiga yoxud bino yoki inshootga ashyoviy huquqlarga ega bo'lgan shaxsga yuklanadi. Ular bino yoki inshootni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha barcha yoki ayrim majburiyatlarini uchinchi shaxslarga yuklashlari mumkin. Bu huquqlarni va majburiyatlarni ro'yobga chiqarish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Mazkur Nizomning 7-bandida ko'rsatib o'tilgan shaxslar yoki ular tomonidan vakil qilingan shaxs mulkka egalik huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar paydo bo'lgan, o'zgargan, to'xtatilgan yoxud bino yoki inshootning huquqiy holati o'zgargan paytdan boshlab bir oy muddatda shahar, tuman hududidagi davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarga ularni binolar va inshootlar kadastr, reyestr daftarida ro'yxatdan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etishga majburdirlar.

Binolar va inshootlar meros qilib olingan taqdirda binolar va inshootlarga egalik huquqi boshqa ashyoviy huquqlar merosxo'rga yoki davlatga qonunchilikda belgilangan tartibda o'tgandan keyin davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy va milliy huquq nuqtayi nazaridan transport vositalariga va davlat reyestrída qayd etilishi lozim bo'lgan boshqa mulkka nisbatan ashyoviy huquqni amalga oshirish bevosita qayd etilgan mol-mulkning joyini aniqlashga bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida qayd etilgan mol-mulkni u yoki bu davlatda ro'yxatdan o'tkazilishiga bog'liq ravishda mulk huquqi subyektlarining huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

4-§. Yo'lda bo'lgan ko'char mulkka nisbatan ashyoviy huquqlar

Xalqaro xususiy huquqda yo'lda bo'lgan ko'char mulkka nisbatan ashyoviy huquqlarga nisbatan qaysi mamlakat huquqini qo'llashni aniqlash muhim o'rin tutadi. Binobarin, xalqaro amaliyotda eng murakkab masalalardan biri bo'lib bitim predmeti tovar, ashyo yo'lda bo'lgan holat hisoblanadi. Bunday ashyoviy huquqlarni belgilashda qonunni qo'llashning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, tegishli ko'char mulk (tovar) dengiz, temir yo'l transportida tashilayotgan paytda taraflar u yo'lda bo'lgan paytda uning mulk huquqini o'tkazish bo'yicha bitim tuzadi. Bunday holda xalqaro huquqiy nuqtayi nazardan hal etiladigan masala bo'lib qaysi davlat qonunini qo'llash hisoblanadi: tovarni jo'natgan davlat qonunimi, mulkni qabul qilib olishi lozim bo'lgan davlat qonunimi, yoki ashyo muayyan oraliqda joylashgan mamlakat qonunimi. Chunonchi, agar taraflarning kelishuvida boshqacha belgilangan bo'lmasa, bu tovarni jo'natgan mamlakat huquqi qo'llanishligi tamoyili amal qiladi. yo'lda bo'lgan ko'char mulkka nisbatan ashyoviy huquqqa qonun normasini qo'llashning xarakterli tomoni shunda namoyon bo'ladi, taraflar mulk huquqini o'tashga oid bitimni, ashyo ushbu paytda qaysi davlat huquqiy tizimi qonuni qo'llanishini bilmasdan, bitim tuzishlari mumkin. Ushbu o'rinda taraflarning erki muxtoriyati tamoyiliga asoslaniladi. Bu eng muhim kollizion tamoyil hisoblanib, agar taraflar kontraktda tegishli holatni nazarda tutmagan taqdirda *lex loci contractus* kollizion tamoyilini qo'llash uchun asos bo'ladi. Xorijiy davlatlarda yo'lda bo'lgan ko'char mol-mulkarga nisbatan ashyoviy huquqlarga qonun normalarini qo'llash tartibi turlicha belgilangan. Vengriya qonun hujjatlariga asosan, yo'ldagi ko'char mulkka ashyoviy huquqqa nisbatan ashyoning tayinlanishi joyi davlat qonuni qo'llaniladi. Ammo bunday ashyolarni tovar ombor-

laridan majburiy sotish yoki garovga qo'yishi bilan bog'liq ashyo huquqiy oqibatlarga ashyo joylashgan yer mamlakat qonuni qo'llaniladi (Vengriya xalqaro xususiy huquq haqidagi Qonunining 23 § 2-qismi). Shunday qilib, qayd etilgan holatlar bo'yicha ashyo joylashgan davlat qonuni, ashyoning tayinlanish joyi qonuni yoki ashyoni jo'natish joyi qonunini o'zaro bog'liq holda moslashtirish ham hamma holatlar uchun yagona kollizion normalarni belgilashga olib kelmaydi.

Eng muhim kollizion masalalardan biri mulkning tasodifan nobud bo'lish yoki buzilish xavfini o'tishi vaqtiga taalluqli masala hisoblanadi. Aksariyat huquqiy tizim davlatlarida mulk huquqi sotuvchidan oluvchiga o'tishi bilan sotilgan ashyoning tasodifan nobud bo'lishi yoki buzilish xavfi ham o'tadi. Bunday tartib masalan, Fransiya, Buyuk Britaniya, Chexiya va Slovakiya davlatlari qonun hujjatlarida ifoda etilgan. Ammo ashyoning tasodifan nobud bo'lish yoki buzilish xavfi sotuvchidan oluvchiga o'tishi haqidagi kollizion masalani hal qilishni mulk huquqining o'tishiga taalluqli kollizion masala bilan bog'liq ravishda hal qilishga asos yo'q. Mulk huquqining o'tish vaqti – bu ashyoviy huquq masalasi, tasodifan nobud bo'lish yoki buzilish xavfi vaqti esa taraflar o'rtasidagi majburiyat huquqiy munosabati hisoblanadi¹¹².

Fuqarolik Kodeksining 1187-moddasiga ko'ra, bitim bo'yicha yo'lda bo'lgan ko'char mulkka nisbatan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar, agar taraflarning kelishuvida boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, bu mol-mulk jo'natilgan mamlakatning huquqi bo'yicha belgilanadi. Bunday ashyoviy huquqning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu mol-mulklar tovar sifatida import yoki eksport qilingan yo'ldagi ko'char mulklar hisoblanadi. Ya'ni uni qabul qilib oluvchiga yetib kelmasdan, yo'lda biron-bir transportda bo'lgan taqdirda unga nisbatan egalik huquqi yoki ashyoviy huquq, agar taraflarning kelishuvida boshqacha belgilangan bo'lmasa, uni jo'natgan mamlakat huquqi bo'yicha belgilanadi.

Qayd etilgan mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlarga qaysi davlatning huquqi qo'llansa ham asosan ikkita holat inobatga olinishi lozim. Birinchidan, yo'lda bo'lgan ko'char mol-mulkka nisbatan egalik huquqi yoki ashyoviy huquqning vujudga kelishi o'zaro tuzilgan shartnomada o'z ifodasini topishi lozim. Ikkin-

¹¹² Международное частное право. Учебник Под ред. Т.К.Дмитриевой. –М.: Проспект, 2000. –С.277; Павлодский Е.А. Случай и непреодолимая сила в гражданском праве. –М.: 1978.

chidan, agar taraflar bu haqda kelishmagan bo'lsa, mol-mulk jo'natilgan mamlakatning huquqi bo'yicha belgilanadi.

Yo'lda bo'lgan mol-mulkka nisbatan egalik yoki ashyoviy huquqning kimga nisbatan qayerda vujudga kelishini belgilash yuridik ahamiyatga ega bo'lib, muayyan huquqiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Binobarin, Fuqarolik Kodeksining 175-moddasiga ko'ra, mol-mulkning tasodifan nobud bo'lish yoki buzilish xavfi mulk egasining zimmasiga yuklatiladi. Shu jumladan, ashyoviy huquqqa ega bo'lgan shaxs ham mazkur Kodeksning 228-232-moddalarida belgilangan huquqlarga ega bo'lishi bilan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi yoki buzilish xavfini o'z zimmasiga oladi. Shunga asosan, agar ko'char mol-mulkka nisbatan egalik huquqi yoki ashyoviy huquq mol-mulk joylashgan, ammo hali transport orqali jo'natilmagan mamlakatda vujudga kelgan bo'lsa, uning yo'lda nobud bo'lish, buzilish xavfi mol-mulkni sotib oluvchi yoki qabul qilib oluvchi zimmasida bo'ladi. Basharti, ushbu mol-mulkka nisbatan egalik huquqi yoki ashyoviy huquq uni transport orqali sotib oluvchiga yoki qabul qilib oluvchiga yetkazilganidan keyin o'tishiga kelishilgan bo'lsa, unga bo'lgan egalik huquqi yoki ashyoviy huquq uni jo'natuvchi tarafda saqlanib qoladi va tovarning yo'lda tasodifan nobud bo'lish yoki buzilish xavfi uning zimmasiga yuklatiladi.

Shubhasiz, yo'lda bo'lgan ko'char mulklarga nisbatan ashyoviy huquqlarga xalqaro xususiy huquq normalarini qo'llashning ta'minlanishi mulkdorlarning huquq va manfaatlari himoya qilinishiga kafolat yaratadi.

5-§. Ashyoviy huquqlarni himoya qilish

Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining ashyoviy huquqlarini xalqaro xususiy huquqiy himoyalashni ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Ashyoviy huquqlarni himoya qilish keng ma'noda tushunilib, eng avvalo maxsus fuqarolik huquqiy usullari, vosita va shakllaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Ashyoviy huquqni himoya qilish vazifasi fuqarolik muomalasida mulkdan o'zining tayinlangan maqsadiga ko'ra foydalanishni ta'minlashdir. Bundan tashqari, ashyoviy huquqiy himoya buzilgan huquqlarni tiklash, uchinchi shaxslarning yetkazgan mulkiy zararini qoplashga yordam beradi. Bu maqsadga majburiyat-huquqiy va ashyoviy-huquqiy vositalar yordamida erishish mumkin.

Mulkiy huquqlarni majburiyat-huquqiy vositalarda himoya qilish bitim tarafi sifatida mulkdorning mulkiy manfaatlari yoki shartnomalardan tashqari uning mulkiga zarar yetkazilganda amalga oshiriladi.

Ashyoviy huquqiy himoya vositalari mulk huquqining turli xil buzilishiga qarshi va bu huquqning amaliy yaxlit yoki mulkdorning alohida vakolatlarini muhofaza qilish maqsadiga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi¹¹³.

Roman-german huquqiy tizim davlatlarida buning uchun maxsus ashyoviy-huquqiy da'volardan, umumiy huquq davlatlarida esa huquq buzilishidan kelib chiqadigan alohida da'volar (forts) hamda bir qancha maxsus ashyoviy-huquqiy da'volardan foydalaniladi. Roman-german huquqi tizimi davlatlarida mulk huquqini himoya qilish uchun asosan ikkita ashyoviy-huquqiy da'vodan – da'vogar mulkdor o'z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olish haqidagi da'vo (actio rei vindicatio), va negator da'vo – mulkdor o'z huquqlarining har qanday buzilishini, garchi bu buzish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham bartaraf etishni talab qilish haqidagi da'vodan (actio negatoria) foydalaniladi. Bunday ikki xil da'vo talablariga asoslangan da'voni taqdim etish o'z navbatida mulkdorning oldingi holatini tiklashga yo'naltirilgan (status quo), bo'lib, shu bilan bir qatorda majburiyat-huquqiy normalar asosida uning mutlaq vakolatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashga oid talabni qo'yishni ham inkor etmaydi¹¹⁴.

Fransiyada vindikatsiya va negator da'vo haqidagi qoidalar Kodeksda nazarda tutilmasa-da, balki insofli va insofsiz egallash haqidagi Fuqarolik va Fuqarolik protsessual kodekslari normalarini sharhlash asosida da'vo va boshqa muddatlar qo'llash bo'yicha doktrina va sud amaliyotida amal qiladi. Xorijiy davlatlar fuqarolik

¹¹³ Гражданское и торговое право капиталистических государств. Отв. ред. Е.А.Васильев. –М.: Международные отношения. 1993. –С.220; Иванова Н.Р. Защита права собственности в арбитражном суде. Комментарий арбитражной практики. –М.: 1999. –С.116; Братусь С.Н. Юридическая ответственность и законность. –М.: 1976. –С.55; Яковлев В.Ф. Принуждение в гражданском праве //Проблемы современного гражданского права. Сборник статей. Отв.ред. В.Н.Литовкин, В.А.Рахмилович. Городец, –М.: 2000. –С.222.

¹¹⁴ Mulkiy huquqini ashyoviy huquqiy himoya qilish usullariga batafsil qarang: Суханов Е.А. Лекции о праве собственности. –М.: Юрид.лит.; –С.211-227; Сеичищев В.И. Объект гражданского правоотношения //Актуальные проблемы гражданского права. Под ред. М.И.Брагинского. –М.: 1998. –С.131-132; Рахмилович В.А. О праве собственности на вещь отчужденную неуправомоченным лицом добросовестному потребителю (к вопросу о приобретении права от неуправомоченного лица). Проблемы современного гражданского права. Сборник статей. Отв.ред. В.Н.Литовский, В.А.Рахмилович. Городец. –М.: 2000. –С.210-222.

huquqi (Germaniya fuqarolik tuzuklari 932-§; Shotlandiya fuqarolik kodeksi 933-moddasi; Amerika Qo'shma Shtatlari Yagona savdo kodeksi 2-403-moddalari) insofli egallovchining manfaatlari himoyasini ta'minlab, mulkdordan ashyoni talab qilish bo'yicha cheklashni ham nazarda tutadi. Hamma huquqiy tizim uchun umumiy holat shuki, mulkdorning ashyoni faqat insofsiz egallovchidan talab qilib olish tamoyiliga asoslaniladi¹¹⁵.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga asosan ashyoviy huquqlarni himoya qilish vindikatsiya va negator da'volar asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Binobarin, Fuqarolik Kodeksining 228-moddasiga ko'ra, mulkdor o'z mol-mulkini boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olishga haqli (vindikatsiya). Bunday talab odatda sudda vindikatsiya da'vosini qo'zg'atish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shuningdek Fuqarolik Kodeksining 231-moddasiga ko'ra, mulkdor o'z huquqlarining har qanday buzilishini, garchi bu buzish egalik qilishdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmasa ham, bartaraf etishni talab qilishi mumkin (negator da'vo).

Fuqarolik Kodeksiga binoan mol-mulking kimga (fuqarogami, yuridik shaxsgami, davlatgami) tegishli bo'lishidan qat'i nazar, uni insofli yoki insofsiz egallab turuvchidan hech qanday istisnosiz tenglashtirilgan umumiy qoidaga ko'ra mulk egasi tomonidan talab qilib olish huquqiga ega bo'ladi (FKning 229, 230-moddalari).

Fuqarolik Kodeksining 228 va 231-moddalari mazmunidan anglanishicha, vindikatsiya va negator da'volar qo'zg'atish huquqi asosan mulk egasiga berilgan. Mazkur Kodeksning 232-moddasiga muvofiq umrbod meros qilib qoldirilgan mol-mulkka egalik qiluvchi shaxslar, xo'jalik yuritish va operativ boshqarish huquqlariga ega bo'lgan tashkilotlar, shuningdek qonun yoki shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa sabablarga ko'ra mol-mulkka egalik qilayotgan shaxslar ham fuqarolik Kodeksining 228-231-moddalarida nazarda tutilgan huquqlarga ega. Binobarin, bunday shaxslar o'z egaligidagi mol-mulkni, uning egalari bo'lgan shaxsdan ham himoya qilish kabi huquqqa ega.

Eng asosiysi, ashyoviy huquqlarni himoya qilishda qaysi mam-lakat huquqini qo'llashni aniqlash manfaatdor tarafning huquqlari kafolatini ta'minlabgina qolmay, balki sud amaliyotining samara-dorligini oshirishga ham yordam beradi.

¹¹⁵ Гражданское и торговое право капиталистических государств. Отв.ред. Е.А. Васильев. -М.: Международные отношения. 1993. -С.226-229.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1188-moddasiga ko'ra, mulk huquqini va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilishga nisbatan ariza beruvchining tanlovi bo'yicha mol-mulk turgan mamlakatning huquqi yoki sud qaysi mamlakatga qarashli bo'lsa o'sha mamlakatning huquqi qo'llanadi. Ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilishga nisbatan bu mulk turgan mamlakatning huquqi qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasining davlat reyestrda qayd etilgan mol-mulkka nisbatan O'zbekiston Respublikasining huquqi qo'llaniladi.

Fuqarolik huquqiy normalar jismoniy va yuridik shaxslarning ashyoviy huquqlarini himoya qilishda katta imkoniyatlarni nazarda tutadi.

Ashyoviy huquqlarni himoya qilishda birinchidan, o'z huquqini himoya qilish maqsadida ariza bergan tomonning tanlovi bo'yicha o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk turgan mamlakat huquqi, ikkinchidan, uning arizasini ko'radigan sud qaysi mamlakatga qarashli bo'lsa, o'sha mamlakatning huquqi qo'llanilishidan dalolat beradi. Ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqi va ashyoviy huquqlarni himoya qilish ko'char mol-mulklarni muhofaza qilishdan farqli ravishda ko'chmas mol-mulk turgan davlat huquqini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi huquqini ham qo'llashni nazarda tutadi. Ko'chmas mulkka nisbatan bo'lgan huquqni himoya qilishga qaratilgan ariza ham ushbu mamlakatga tegishli sud tomonidan ko'riladi. Shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining davlat reyestrda qayd etilgan transport vositalari va boshqa mol-mulklar qaysi mamlakat hududi doirasida joylashgan yoki turgan bo'lishidan qat'i nazar, bunday mulklarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi huquqi qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro xususiy huquq normalari bilan ashyoviy huquqlarini himoya qilishning ta'minlanishi ular ishtirokidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

XVII BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Ashyoviy huquq haqida umumiy qoidalar deganda nima tushuniladi?

2. Ashyoviy huquqning vujudga kelishi va bekor bo'lish asoslari nimalardan iborat?

3. Transport vositalariga va davlat reyestida qayd etilishi lozim bo'lgan boshqa mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlar mohiyatini tushuntirib bering.

4. qo'lda bo'lgan ko'char mulkka nisbatan ashyoviy huquqlarning o'ziga xos xususiyatlari qanday?

5. Ashyoviy huquqlarni himoya qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 1993-yil.

2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T.: «Adolat», 1996-yil.

3. Chet el investitsiyalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprel Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998-yil, №5-6, 91-modda.

4. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-aprel qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1998-yil, №5-6, 93-modda.

5. Investitsiya faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 24-dekabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1999-yil, №1-10-modda.

6. Эннещерус Л. Курс гражданского права. Т.1. Полугом 1. –М.: Ип.лит. 1949.

7. Жюллио дела Марандьер Л. Гражданское право Франции. –М.: Ин.лит. 1958.

8. Ласк Г. Гражданское право США. –М.: 1961.

9. Дерибург Г. Пандекты. Вещное право. СПб, 1902. Т.1. Ч.2. –С.127.

10. Маттен Уго. Основные принципы права собственности. В. кн.: Основные положения права собственности. –М.: Юрист, 1999.

11. Скрябин С.В. Гражданско-правовые проблемы понятия вещного права. Автореф. дисс. канд. юрид. наук. Алматы: КГЮУ, 1998.

12. Арипджанов У.А. Право собственности в системе вещного права. Автореф. дисс, канд. юрид. наук. –Т.: 2000.

13. Монова Г.Б. Категория потных прав в советском гражданском праве //Вестник МГУ, серия 11. Право, 1990. №5.
14. Odilxo'jayeva S. O'zbekistonda mulk islohotining huquqiy asoslari //Хо'jalik va huquq. - 1998-yil, №7, 34-37-bet.
15. Кулагин М.И. Предпринимательство и право: опыт Запада. –М.: Изд-во Дело, 1992. –С.57-71.
16. Скловский К.И. Собственность в гражданском праве. –М.: Изд-во Дело, 2000. –С.434.
17. Азизов И. Конституционное регулирование права собственности: сравнительное исследование. В.кн. Проблемы собственности. –Т.: "Адолат", 1985. –С.181.
18. Щенникова Л.В. Вещные права в гражданском праве России. –М.: Бек. 1996. –С.21.
19. Брагинский М.И. К вопросу о соотношении вещных и обязательственных правоотношений в. кн.: Гражданский кодекс России. Проблемы. Теория. Практика –М.: 1998. –С.114.
20. Ефимова Л.Г. О соотношении вещных и обязательственных прав //Государство и право. 1998. №10. –С.44.
21. Гражданское право //Под ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. Санкт-Петербург. Изд-во ТЕИС, 1996. –С.80-81.
22. Козыр О.М. Понятие и система прав на недвижимое имущество по английскому праву //Вестник Московского университета. Серия Право, 1987. №5, -С.73.
23. Основные институты гражданского права зарубежных стран (рук. авт. колл. В.В.Залесский. –М.: Норма, 1999. –С.210-226.
24. Кичигина И.Л. Ограниченные вещные права по законодательству Республики Куба. В. кн. Материалы по иностранному законодательству и международному частному праву. Труды 49. –М.: 1991. –С.17.
25. Римское частное право. Учебник //Под ред. И.Б.Новицкого, И.С.Перетерского. –М.: Новый Юрист, 1997.
26. Чешир Дж., Норт П. Международное частное право Пер. с англ. –М.: 1982. –С.24-25.
27. Скворцов О.Ю. Вещные иски в судебно-арбитражной практики. –М.: 1998. –С.57-59.
28. Масевич М.Г. Основания приобретения права собственности на бесхозяйные вещи //Проблемы современного граждан-

ского права. Сборник статей. Отв.ред. В.Н.Литовкин, В.А.Рахмилович. Городец. –М.: 2000. –С.173.

29. Хохлов С.А. Право собственности и другие вещные права //Гражданский кодекс России. Проблемы. Теория. Практика. – М.: 1998. –С.396.

30. Гражданское и торговое право капиталистических государств. Отв.ред. Е.А.Васильев. –М.: Международные отношения. 1993. –С.220-225.

31. Hoshimov V. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha oldi-sotdi shartnomasiga nisbatan qo'llanilaligan huquq //Хо'jalik va huquq. 2001. №1, 43-46-bet.

32. Rahmonkulov H. Xususiy mulk va uning daxlsizligi. –Т.: «Adolat», 2000-yil, 32-bet.

33. Azizov X. Tadbirkornipg mulk huquq. //Хо'jalik va huquq. 1998. №2, 34-36-bet.

34. Чубарое В.Н. Вопросы государственной регистрации прав на недвижимое имущество и сделок с ним //Проблемы современного гражданского права. Сборник статей. Отв.ред. В.Н.Литовкин, В.А.Рахмилович. Городец. –М.: 2000. –С.145-151.

35. Сыродоев Н.А. Регистрация прав па землю и другое недвижимое имущество //Государство и право. 1998. №8, -С.94-95.

36. Raximov I. Davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan bitimlar va ularning qo'llanish doirasi //Хо'jalik va huquq. 1999-yil, №8, 38-40-bet.

37. Международное частное право. Учебник. Под ред. Т.К.Дмитриевой. –М.: Проспект, 2000. –С.277.

38. Павлодский Е.А. Случай и непреодолимая сила в гражданском праве. –М.: 1978.

39. Иванова Н.Р. Защита права собственности в арбитражном суде. Комментарий арбитражной практики. –М.: 1999. –С.116.

40. Братусь С.Н. Юридическая ответственность и законность. –М.: 1976. –С.55.

41. Яковлев В.Ф. Принуждение в гражданском праве //Проблемы современного гражданского права. Сборник статей. Отв. ред. В.Н.Литовкин, В.А.Рахмилович. Городец. –М.: 2000. –С.222.

42. Суханов Е.А. Лекции о праве собственности. –М.: Юрид.лит. –С.211-227.

43. Сенчищев В.И. Объект гражданского правоотношения //Актуальные проблемы гражданского права //Под ред. М.И.Брагинского. –М.: 1998. –С.131-132.

44. Рахмилович В.А. О праве собственности на вещь отчужденную неуправомоченным лицом добросовестному потребителю (к вопросу о приобретении права от неуправомоченного лица) //Проблемы современного гражданского права. Сборник статей. Отв. ред. В.Н.Литовский, В.А.Рахмилович. Городец. – М.: 2000. –С.210-222.

**XALQARO XUSUSIY HUQUQDA SHARTNOMALI
MAJBURIYATLAR**

**1-§. Shartnomaga nisbatan huquq normalarini tanlash va
qo'llash**

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1189-moddasiga ko'ra, xorijiy element mavjud bo'lgan shartnomalar Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari uning tomonlari tanlagan mamlakat huquqi vositasida tartibga solinadi.

Ushbu moddaning mazmuni shartnoma tomonlarini muayyan mamlakatda amal qiluvchi huquqiy tartibotnigina tanlash huquqiga ega bo'lib, huquqning va oqilonalikning yetakchi qoidalarini tanlash imkoniyatiga ega emaslar, deya talqin etilmog'i lozim.

Shartnoma taraflari shartnomaning barcha qismiga yoki uning ayrim bo'lagiga nisbatan qo'llaniladigan huquqni tanlashlari mumkin. Bunda shartnoma tuzish paytida ham, keyinchalik ham qo'llaniladigan huquq tanlanishi mumkin. Shuningdek, shartnoma taraflari shartnomaga nisbatan qo'llaniladigan huquqni o'zgartirish masalasini hal etishlari mumkin.

Amalda ko'pchilik hollarda tomonlar shartnoma tuzar ekanlar, unga nisbatan qaysi mamlakat huquqini qo'llash lozimligi masalasini hal etish haqida o'ylab ko'rmaydilar.

Agar shartnoma tuzuvchi taraflar o'rtasidagi kelishuv bilan shartnoma munosabatlari qaysi mamlakat huquqiga bo'ysundirilganligi masalasi ifoda etilmagan bo'lsa, u holda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1190-moddasiga ko'ra, qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq kolliziya normalari asosida hal etiladi.

Qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq to'g'risida shartnoma taraflarining kelishuvi bo'lmagan taqdirda, bu shartnomaga nisbatan:

- a) oldi-sotdi shartnomasida – sotuvchi;
- b) mulk ijarasi shartnomasida – ijaraga beruvchi;
- d) alohida huquqlardan foydalanish to'g'risidagi litsenziya bitimida – litsenziyachi;
- e) hadya shartnomasida – hadya qiluvchi;

f) mol-mulkdan tekin foydalanish shartnomasida – ssuda beruvchi;

g) pudrat shartnomasida – pudratchi;

h) yo'lovchi, bagaj va yuk tashish shartnomasida – tashuvchi;

i) transport ekspeditsiyasi shartnomasida – ekspeditor;

j) qarz shartnomasida yoki boshqa kredit shartnomasida-kreditor;

r) topshiriq shartnomasida – ishonchli vakil;

e) vositachilik shartnomasida – vositachi;

m) omonat saqlash shartnomasida – saqlovchi;

n) sug'urta shartnomasida – sug'urtalovchi;

o) kafillik shartnomasida – kafil;

p) garov to'g'risidagi shartnomada – garovga qo'yuvchi hisoblanuvchi taraf ta'sis etilgan, turar joyiga ega bo'lgan yoki asosiy faoliyat joyi bo'lgan mamlakat huquqi qo'llaniladi.

Qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq to'g'risida shartnoma taraflarining kelishuvi bo'lmagan taqdirda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalaridan qat'i nazar:

1) ko'chmas mulk to'g'risidagi shartnomaga nisbatan – bu mulk turgan mamlakatning huquqi;

2) birgalikdagi faoliyat to'g'risidagi shartnomaga va qurilish pudrati shartnomasiga nisbatan – ana shunday faoliyat amalga oshirilayotgan yoki shartnomada nazarda tutilgan natijalar yaratilayotgan mamlakatning huquqi;

3) kimoshdi savdosida, tanlov bo'yicha yoki birjada tuzilgan shartnomaga nisbatan – kimoshdi savdosi, tanlov o'tkazilayotgan yoki birja joylashgan mamlakatning huquqi qo'llaniladi.

Qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq to'g'risida taraflarning kelishuvi bo'lmagan taqdirda, boshqa shartnomalarga bunday shartnomaning mazmuni uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ijroni amalga oshirayotgan taraf ta'sis etgan, turar joyiga ega bo'lgan yoki asosiy faoliyat joyi bo'lgan mamlakatning huquqi qo'llaniladi. Shartnomaning mazmuni uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ijroni aniqlashning imkoniyati bo'lmagan taqdirda shartnoma eng uzviy bog'langan mamlakatning huquqi asosida tartibga solinadi.

Shartnomaga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan huquqni aniqlash yo'li bilan shartnomaning majburiy tartiboti belgilanadi. Majburiy tartibot asosida shartnoma bo'yicha taraflarning majburiyatleri, ularni ijro etmaslik oqibatleri (muddatning o'tib ketishi, lozim darajada ijro etmaslik) belgilanadi va aniqlanadi. Javob-

garlikdan ozod qilish majburiyati ham majburiy tartibot bilan belgilanadi.

Shartnoma tuzilayotganida u qaysi qonunchilik tomonidan tartibga solinishini taraflar belgilashi mumkin. Taraflar erk muxtoriyati prinsiplariga ko'ra tanlash huquqiga ega. Taraflarning o'z xohishiga binoan shartnoma mazmunini belgilash huquqi ushbu muxtoriyatni tashkil qiladi.

Bizning qonunchiligimizda bitimning shakliga nisbatan huquqni qo'llashga maxsus yondoshish namoyon bo'lmoqda (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1181-moddasi).

Shartnoma taraflari kelishuvi asosida huquqni tanlashning muhim ahamiyatini tan olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi Qonunga ko'ra tanlashni cheklash imkoniyatiga yo'l qo'yadi (agar Qonunda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, taraflarning kelishuvi bo'yicha tanlangan tomonning huquqi bilan shartnoma tartibga solinadi). Kollizion bog'lovchilarining bo'linishiga yo'l qo'yiladi: shartnoma taraflari qo'llaniladigan huquqni umuman shartnoma uchun ham, uning alohida qismlari uchun ham tanlab olishlari mumkin. Qo'llaniladigan huquq taraflar tomonidan shartnoma tuzilayotganda ham, undan keyin ham istalgan vaqtda tanlanishi mumkin bo'lgan: taraflar, shuningdek istalgan vaqtda qo'llaniladigan huquqni o'zgartirish to'g'risida kelishib olishlari mumkin bo'lgan imkoniyat to'g'risidagi qoida taraflarning manfaatlariga oid.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida qayd etilgan kollizion normalarning tizimi Vengriya, Shveysariya va boshqa mamlakatlardagi shartnoma majburiyatlarini kollizion tartibga solish tajribasini aks ettiradi, ammo uning bir farqi mavjud: bu mamlakatlarning qonunlari tashqi iqtisodiy shartnomalarni tashqi iqtisodiyotga oid bo'lmagan shartnomalardan ajratmaydi.

Qator mamlakatlarda taraflar tomonidan qo'llaniladigan huquqni tanlab olish imkoniyati shartnomaning mahalliyashtirish shartlari, ularning o'rtasida oqilona aloqa: shartnomaga muayyan tartibda u bilan bog'liq bo'lgan huquq qo'llanilishi mumkinligi tomonlaridan chegaralangan.

Xalqaro oldi-sotdi va boshqa shartnoma majburiyatlaridan tartibga solish uchun qo'llaniladigan huquqni taraflar tomonidan tanlab olish to'g'risida bu sohada kollizion huquqni yagonalash-tirgan xalqaro konvensiyalarda gapirib o'tiladi.

1955-yildagi xalqaro mol-mulkning oldi-sotdisiga qo‘llanila digan huquq to‘g‘risida Gaaga Konvensiyasi taraflar tomonidan belgilangan mamlakatning ichki huquqiga savdo-sotiqni bo‘ysundiradi. Bunday belgilash aniq ifodalanishi yoki shartnoma shartlaridan ikkilanmasdan kelib chiqishi shart. Taraflar tomonidan bu huquq belgilanmagan taqdirda oldi-sotdi sotuvchining buyurtma olish paytida doimiy yashash mamlakatining ichki huquqi bilan tartibga solinadi (buyurtma sotuvchining korxonasi tomonidan qabul qilingan taqdirda, korxonada joylashgan mamlakatning ichki huquqi qo‘llanilishi lozim), lekin sotib oluvchining doimiy yashash mamlakati yoki buyurtma bergan korxonada joylashgan mamlakatida buyurtma qabul qilingan taqdirda, oldi-sotdiga ushbu mamlakatning ichki huquqi qo‘llaniladi.

1985-yilda mollarning xalqaro oldi-sotdi shartnomalariga qo‘llaniladigan huquq to‘g‘risidagi Konvensiya qoidalari oldi-sotdi shartnomasiga taraflar tomonidan tanlab olingan huquq qo‘llanilishini ko‘rsatadi (7-modda, 1-band). 7-moddaga muvofiq taraflar qo‘llanila digan huquqni tanlab olishmagan taqdirda, oldi-sotdi shartnomasi sotuvchining shartnoma tuzish vaqtida tijorat korxonasi joylashgan davlat huquqi bilan tartibga solinadi. Boshqacha aytganda, ushbu holda shartnoma sotuvchi joylashgan mamlakatning huquqi tomonidan tartibga solinishi lozim.

Shunday qilib, bu masalada ega bo‘lgan xalqaro bitimlar (1955-yildagi Gaaga Konvensiyasi) tajribasi inobatga olingan.

Yevropa Kengashiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarda shartnoma majburiyatlarining kollizion masalalarini tartibga solish asosini 1980-yildagi shartnoma majburiyatlariga qo‘llaniladigan huquq to‘g‘risidagi Konvensiya qoidalari tashkil qiladi. Jismoniy shaxslar maqomi, vorislikka oid shartnoma majburiyatlari, ashyoviy huquq, nikoh munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lgan, oilaviy munosabatlar, veksell, chek va boshqa aylanma hujjatlardan kelib chiqqan, kompaniyalar huquqi va bir qancha boshqa masalalarga Konvensiya qoidalari amal qilmaydi.

2-§. Chet el ishtirokidagi yuridik shaxs qatnashgan shartnomaga nisbatan huquqni tatbiq qilish

Chet el ishtirokidagi yuridik shaxsni tuzish to‘g‘risidagi shartnomaga nisbatan yuridik shaxs ta‘sis etilgan mamlakat huquqi qo‘llaniladi (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1191-

moddasi), bu holda taraflarning qo'llaniladigan huquqni tanlab olish imkoniyati cheklanadi. Chet el yuridik shaxsining huquqiy holati va faoliyati to'g'risida kollizion masalalarini ko'rib chiqishdan oldin, odatda, bu masalalarning yechilishida vositachi bo'lgan kollizion normalarning murakkab tuzilishi to'g'risida: yuridik shaxs qatnashayotgan munosabatlar har xil kollizion qoidalarga buysonadi, uning maqomi masalalari esa – yuridik shaxsning qonuniga (*lex societatis*) havola qilinadi. Yuridik shaxs qaysi mamlakatda ta'sis etilgan bo'lsa, shu mamlakatning huquqi mazkur yuridik shaxsning qonuni hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1175-moddasi).

Yuridik shaxsning qonuni uning qaysi davlatga mansubligini, «millatini» belgilaydi va shu asosda uning maqomi masalalarini hal qiladi: tashkilot yuridik shaxs deb hisoblanadimi, uning huquq layoqati qachon vujudga keladi va tug'iladi, uning miqdori qanday, qanday yuridik shaxs tashkil etiladi, tugatiladi, qayta tashkil etiladi, yuridik shaxsning, uning filiallari va vakolatxonolari mol-mulklarining taqdiri qanday va hokazo.

Xalqaro shartnomalarda shartnoma tuzuvchi davlatlarning yuridik shaxslariga ma'lum tuzum o'zaro taqdim etilishi ko'zda tutiladi. Ushbu maqsadlarda shartnomalarda yuridik shaxslarning millatini aniqlash xususiyatlari ham o'z asosini topgan. Ammo O'zbekiston Respublikasining boshqa mamlakatlar bilan munosabatlarida yuridik shaxsning millatini aniqlash boshqa mamlakatlarning o'zaro munosabatlaridagi ahamiyatiga nisbatan muhim ahamiyatga ega emas. Bu quyidagicha tahlil etiladi: har doim yuridik shaxs deb bizning qonunlarimizga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Qo'shma korxonalarda chet el kapitalining hamda O'zbekiston Respublikasida ta'sis etilgan chet el yuridik shaxslar qatnashishiini hal etmaydi, chunki ularning hammasi O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1177-moddasiga muvofiq, agar O'zbekiston Respublikasi Qonunida chet el yuridik shaxslari uchun boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, chet el yuridik shaxslari O'zbekiston Respublikasi fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan tadbirkorlik faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshiradilar.

Chet el yuridik shaxsining organi yoki vakili bitim tuzilayotgan mamlakatning huquqi uchun noma'lum bo'lgan bitim tuzgan

taqdirda o'z organi yoki vakilining bitim tuzish vakolatlaridagi cheklovlarga asoslanishi mumkin emas.

Shuning bilan chet el yuridik shaxslarining fuqarolik huquq va majburiyatlari mamlakatimizning yuridik shaxslari bilan qonunchilikda belgilangan tartibda tenglashtirilgan.

Agar O'zbekiston Respublikasining qonunida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, fuqarolik qonunchiligida belgilangan qoidalar chet el yuridik shaxslarining munosabatlarida qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 7-moddasidan kelib chiqqan holda, xalqaro shartnomada yoki bitimda fuqarolik qonun hujjatlaridagiga qaraganda boshqacha qoidalar qo'llanilishi mumkin.

Fuqarolik huquqiy sohasida chet el yuridik shaxslarga milliy tartibni taqdim etish, qonun chiqaruvchini alohida qo'llanilayotgan hujjatlarda bu tartib mavjudligini qayd ettirishdan ozod qiladi. Va shundan kelib chiqib, aksincha, milliy tizimdan istisno tarzda qonunda yoki xalqaro shartnomada bu to'g'rida maxsus ko'rsatma bo'lishini talab qiladi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasiga yoki Qonuniga asoslanilgan bo'lsa, chet el yuridik shaxslariga taqdim etilayotgan milliy tartib fuqarolik qonunchiligiga doir munosabatlar doirasidan chetga chiqib ketishi mumkin. Shunda, investitsiyani amalga oshirish bo'yicha chet el investorlarining chet el yuridik shaxslarini inobatga olgan holda huquqiy tartibi O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarining faoliyati tartibidan noqulay bo'lmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq, chet el yuridik shaxslari O'zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tashkil qilishi va qonunchilikda ularga berilgan huquq, kafolat va imtiyozlardan foydalanishi mumkin¹¹⁶.

«Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunning 22-moddasidan kelib chiqqan holda agar qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi xalqaro shartnomalar o'rtasida ziddiyat yoki kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, chet el investorlariga hamda chet el yuridik shaxslariga qulay bo'lgan qoidalar yuqori darajali kuchga ega¹¹⁷.

¹¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Yangi qonunlari, 19-son, Toshkent. «Adolat», 1998-yil, 402-bet.

¹¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Yangi qonunlari, 19-son, Toshkent. «Adolat», 1998-yil, 412-bet.

Chet el yuridik shaxslari O'zbekiston Respublikasida tashqi faoliyatini uning qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan holda ular respublika hududida o'z vakolatxonalarini ochish huquqiga ega. Ular davlat idoralaridan belgilangan tartibda tashqi faoliyatiga doir ularning huquq va manfaatlariga tegishli va konfidensial xarakterga ega bo'lmagan axborotni olishi mumkin¹¹⁸.

Konsessiya shartnomasini tuzish asosida boshqa davlatlarning yuridik shaxslari – ishbilarmonlik faoliyatining subyektlari yer osti boyliklarining foydalanuvchisi bo'lishi mumkin. Ularga yer maydonlari tabiiy resurslarni izlash, ishlab chiqarish va foydalanish uchun hamda boshqa xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun taqdim etilishi mumkin¹¹⁹.

O'zbekiston Respublikasining «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda, chet el yuridik shaxslarga yer osti boyliklari geologik o'rganish maqsadida beriladi.

Chet el yuridik shaxslari O'zbekistonda tashkil qilingan xo'jalik, uyushma, birlashma va korxonalarining ta'sischilari bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonunida ushbu obyektlarni tashkil qilish, sotish, qayta tashkil qilish yoki tugatish huquqlari belgilangan, tartibi va sharoitlari esa O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Amaldagi qonunchilikda yuridik shaxslar tegishli huquqlarga ega bo'lish va u yoki bu faoliyat turlarini amalga oshirishda cheklashlarga duch keladilar, ular chet el yuridik shaxslariga taalluqlidir va ular alohida, umumiy tartibdan istisno yoki tegishli faoliyatni amalga oshirishda qo'shimcha shartlarni belgilashda o'z aksini topadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat va notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonunining qoidalaridan kelib chiqqan holda, qonunda yoki xalqaro shartnomada belgilangan ma'lum hollarda, chet el yuridik shaxsi nodavlat, notijorat tashkilotning ta'sischisi yoki a'zosi bo'lishi mumkin emas¹²⁰.

¹¹⁸ O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonun (Yangi tahlil) 26.05.2000-yildagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. Toshkent, 2000-yil, 266-bet.

¹¹⁹ O'zbekiston Respublikasining «Konsessiyalar to'g'risida»gi Qonuni, 30.08.1995 yil O'zbekiston Respublikasi Yangi qonunlari. 11-son, Toshkent, «Adolat», 1996-yil, 116-bet.

¹²⁰ O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat va notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni. 14.04.1999-yil. O'zbekistonning Yangi qonunlari. 12-son. –T.: «Adolat», 1999-yil, 388-bet.

Chet el yuridik shaxslari O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasida qonuniy faoliyatini olib borayotgan sug'urta tashkilotida mahalliy investorlar bilan teng ravishda sug'urta muhofazasi huquqiga ega. Ammo O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida o'z hududida chet el yuridik shaxslari tomonidan tashkil qilinayotgan sug'urta tashkilotlariga cheklovlar tatbiq etilishi mumkin. Shuningdek, agar xalqaro shartnomada O'zbekiston Respublikasi qatnashuvi bilan boshqa tartib belgilangan bo'lmasa, chet el sug'urta shartnomalarini tuzish bo'yicha sug'urta bilan bog'liq vositachilik faoliyati O'zbekiston Respublikasi hududida man etilgan¹²¹.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi hududida chet el yuridik shaxslarining faoliyat doirasi keng va xilma-xil. Ammo, qonun yoki xalqaro shartnoma chet el yuridik shaxsining ma'lum huquqiy munosabatlarda qatnashishini cheklashi mumkin.

Xalqaro fuqarolik jarayonida chet el yuridik shaxslariga milliy tartibning boshqacha shaklda tatbiq etilishi, O'zbekiston Respublikasining sudlarida o'z huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish hamda ularga nisbatan qo'yilgan talablar bo'yicha umumiy asosda javob berish imkoni berilishi ko'rsatib o'tilishi shart (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual Kodeksining 386-moddasi)¹²².

Huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalarda ushbu shartnomada qatnashayotgan mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq ta'sis etilgan yuridik shaxslarga milliy tartib asosida huquqiy muhofazani taqdim etish mavzusi doimiydir. MDHga a'zo bo'lgan mamlakatlarning huquqiy yordam to'g'risidagi 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida qabul qilingan ko'p tomonlama Konvensiyaga muvofiq bu shartnomalarda chet el yuridik shaxslarning qaysi davlatga tegishliligi u ta'sis etilgan mamlakat huquqi bo'yicha belgilanadi.

3-§. Tatbiq qilinayotgan huquqning amal qilish doiralari haqida

Shartnoma majburiyatlarini huquqiy tartibga solishning muhim xususiyatlaridan biri qo'llaniladigan huquqning amal qilish doirasini belgilash hisoblanadi.

Shartnoma majburiyatlarining tartiboti:

¹²¹ O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekistonning Yangi qonunlari, 8-son. –T.: «Adolat», 1994-y. 386-bet.

¹²² O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual Kodeksi. –T.: «Adolat», 1997-yil, 300-bet.

- 1) shartnomaning talqinini;
- 2) taraflarning huquq va majburiyatlarini;
- 3)shartnomaning ijrosini;
- 4)shartnomani umuman yoki tegishli darajada ijro etmaslik oqibatlarini;
- 5)shartnomaning to'xtatilishini;
- 6)shartnomaning o'z-o'zidan haqiqiy emasligini yoki haqiqiy emas deb topilishi oqibatlarini;
- 7)shartnoma munosabati bilan talablardan voz kechish va qarzni o'tkazishni qamrab oladi¹²³.

Shunda, ijro etish usullari va tartibiga, shuningdek tegishli darajada ijro etilmagan taqdirda ko'rilishi lozim bo'lgan choralar borasida qo'llanilayotgan huquqdan tashqari ijro amalga oshirilayotgan mamlakatning huquqi ham e'tiborga olinadi.

Shartnomaviy majburiyatlarni tartibga solish har bir mamlakatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarida muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro mulkning savdo-sotig'iga va tashqi iqtisodiy bitimlarga tegishli bo'lgan normalar xalqaro xususiy huquqda muhim rol o'ynaydi. Bitimning shakliga qo'llaniladigan huquq to'g'risida kollizion normalar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1181-moddasida o'z aksini topgan. Bu moddada quyidagi qoida ko'zda tutilgan: «Bitimning shakli u tuziladigan joy huquqiga bo'ysunadi. Biroq chet elda tuzilgan bitim, agar O'zbekiston Respublikasi huquqi talablariga rioya etilgan bo'lsa, shaklga rioya etilmaganligi tufayli haqiqiy emas deb topilishi mumkin emas. Chet elda tuzilgan bitimning shakli bitimning tuzilgan joy huquqi bilan belgilangan talablarga yoki mamlakat ichki qonunchiligi talablariga javob berishi shart».

Ko'chmas mulkka oid bitimlarning shakliga tegishli maxsus qoida ham ushbu moddada belgilangan, u bu mulk joylashgan mamlakat huquqiga bo'ysunadi, O'zbekiston Respublikasida davlat reyestrda qayd etilgan ko'chmas mulkka nisbatan esa, O'zbekiston Respublikasi huquqiga bo'ysunadi.

Tashkilotlar va har xil davlat shakllari o'rtasida savdo-iqtisodiy va boshqa xalqaro aloqalarni amalga oshirish jarayonida odatda

¹²³ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1192-moddasi.

kontrakt deb nomlanuvchi shartnomalarning katta miqdori tuziladi¹²⁴.

Bu shartnomalar taraflarining turar joyi hamda tuziladigan joy va bajarilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi, bu chet el elementi bilan tuzilgan shartnomaga qo'llaniladigan huquqning aniqlanishi shuni talab qiladi.

Tashqi savdo bitimlari to'g'risida gap ketar ekan, bu haqda. Luns L.A. quyidagilarni bildirgan: «Agar tashqi iqtisodiy «bitimlarning» turlari ko'payganda, o'zgarganda tashqi iqtisodiy bitimlarning umumiy tushunchasi «barqaror bo'lishi mumkin emas» va «chet el huquqi normalarini qo'llash hodisalarini qamrab olgan hamda yagonalashtirilgan (xalqaro bitimlar u xalqaro munosabatlarda keng ishlatilayotgan moddiy normalarni «namunaviy kontraktlar» vositachiligi yo'li bilan) tashqi savdoda bitimlarning (va munosabatlarining) doirasi tushunchasini topish lozim»¹²⁵.

«Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida har xil davlatlarda joylashgan shaxslar, tijorat korxonalari o'rtasida tuzilgan shartnomalarni» tashqi iqtisodiy shartnomalarga tegishli ekanligi to'g'risidagi tushunchani Zikin M.S. ishlab chiqishga harakat qilgan.

Bizning doktrinamiz bo'yicha bitim ishtirokchilaridan loaqal bittasi chet el fuqarosi yoki yuridik shaxsi bo'lganda va mazmuni chet eldan mol-mulkni olib keltirish yoki chet elga molni olib ketish operatsiyasi, yoki qandaydir molni olib keltirish yoki olib ketish bilan bog'liq yordamchi operatsiyasi bo'lganda, to'lov vositasi sifatida esa ikki taraf uchun yoki loaqal bir taraf uchun chet el valutasini ishlatilganda tashqi iqtisodiy bitim hisoblanadi. 1980-yildagi mollarning xalqaro savdo-sotiq shartnomalari to'g'risidagi Vena Konvensiyasi har xil davlatlarda joylashgan tijorat korxonalari bo'lgan taraflar tomonidan tuzilgan mollarning oldi-sotdi shartnomalarini shunday shartnomalar qatoriga kiritadi.

Shunday qilib, tashqi savdo bitimlariga har xil davlatlar tashkilotlari va firmalari o'rtasida tuzilgan oldi-sotdi va qator boshqa shartnomalar kiritiladi.

Zamonaviy sharoitlarda olib-sotish bilan bir qatorda turli-tuman xizmatlar ko'rsatish, ishlar olib borish, korxonalar qurilishiga texnik

¹²⁴ Ba'zi muharrirlar «kontrakt» terminini ishlatishni quvvatlaydilar, boshqalari esa «shartnoma», biroq, «kontrakt» ikkimonlama yoki ko'ptomonlama bitim, shartnoma shartli nomlanilishi. Chet elda bitimning nomlanishi → contract» to'g'ridan-to'g'ri qaytarish, degani. Shuning uchun ushbu terminlar o'xshash tushuncha sifatida ishlatilishi mumkin.

¹²⁵ Лунц Л.А. Курс международного частного права. Особенная часть. —М.: 1975. —С.131.

yordam ko'rsatish, sanoat komplekslarini tashkil qilish va boshqa loyihalarni amalga oshirish shartnomalari, ixtiro va boshqa ilmiy-texnika yutuqlari (nou-xou)dan foydalanish to'g'risida litsenziya bitimlari, ilmiy-texnika hujjatlarini topshirish to'g'risidagi shartnomalar, lizing shartnomalari va boshqalarning ahamiyati katta bo'lmoqda. Bu turdagi shartnomalar tashqi iqtisodiy bitimlarning har xil turlarini ifodalaydi.

Tashqi iqtisodiy bitimning shakliga nisbatan qo'llaniladigan huquqqa milliy qonunchiligimizda maxsus yondoshish aks ettirilgan. Amaldagi qonunchilik quyidagi qoidadan kelib chiqadi: bizning tashkilotlarimiz qatnashchi bo'lgan tashqi iqtisodiy bitimlar O'zbekiston Respublikasi huquqi bo'yicha belgilanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy bitimlarni oddiy yozma shaklda tuzadilar. Oddiy yozma shaklga rioya qilinmasa qonunning to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmasiga binoan tashqi iqtisodiy bitimlar haqiqiy emasligiga olib keladi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi 1181-moddasining 2-qismi).

Tashqi savdo bitimlari uchun qonunchilik nafaqat yozma shaklni, balki ularning imzolanishining ma'lum tartibini belgilaydi (Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 12-yanvardagi 15-sonli Qarori).

Bu borada, 1980-yilgi xalqaro oldi-sotdi shartnomalari to'g'risidagi BMT Konvensiyasi (11-modda) bunday shartnoma yozma shaklda tuzilishi va tasdiqlanishi yoki shakliga nisbatan boshqa shartlarga bo'ysunishini talab qilmaydi.

Shartnomaning mavjudligi guvoh ko'rsatuviga binoan tasdiqlanishi mumkin. Konvensiyaning qoidalari taraflarni shartnoma shakliga nisbatan shartlar bilan bog'lamaslik xalqaro amaliyotiga amal qiladilar. «Shartnoma ham yozma, ham og'zaki, ham taraflarning xohishini bildiruvchi harakatlar yo'li bilan (konklyudent harakat) tuzilishi va tasdiqlanishi mumkin». Konvensiyaning 11-moddasidagi qoida, uning boshqa qoidalari kabi dispozitiv xususiyatga ega, taraflar cheklanishi va o'zgartirishi mumkin bo'lmagan Konvensiyaning 12-moddasidagi qoidalari bundan mustasno.

Konvensiyaning 12-moddasida bayon etilgan yagona imperativ ko'rsatma shartnomalarning tuzilishi va tasdiqlanishi shakliga (11-modda), uning o'zgartirilishi va tugatilishi (29-modda), aksept va oferta shakliga yoki taraflar xohishining boshqa ko'rinishiga oid (Konvensiyaning 2-qismi)dir.

U quyidagidan iborat, Konvensiyaning 96-moddasiga asosan talabnoma qo'ygan Kelishuvchi davlatda joylashgan tijorat korxonasiga ega loaqal taraf bo'lsa, Konvensiyaning II qismi 11 va 29-moddalarida ko'zda tutilgan qoidalar qo'llanilishi mumkin emas.

Savdo-sotiq shartnomalarining yozma shaklda tuzilishi va tasdiqlanishini talab qiluvchi Kelishuvchi davlat har doim 12-moddada ko'rsatilgan talabnomani qo'yishi mumkinligi Konvensiyaning 96-moddasida ko'zda tutilgan.

Xalqaro xususiy ahamiyatga ega bo'lgan bitim shakliga maxsus talablar qo'ygan davlatlar Konvensiyada qatnashishi imkoniyatini berish «talabnoma to'g'risidagi qoidaning mohiyatini tashkil qiladi.

1998-yil 1-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Garov to'g'risida»gi Qonunida¹²⁶ garov munosabatlariga oid huquqning qo'llanilishi haqida qator qoidalar ko'zda tutilgan. Shuningdek, ushbu Qonunning 49-moddasiga muvofiq, garov to'g'risida shartnomaning shakli, taraflarning huquq va majburiyatlari, shartnomaning bajarilishi va tugatilishi, shartnomaning bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi oqibatlari, talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish va qarzni boshqa shaxsga o'tkazish, agar qonunchilikda boshqa tartib belgilangan bo'lmasa, taraflar kelishuviga binoan tanlangan tarafning qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

Garov to'g'risidagi shartnomaga qo'llaniladigan qonunchilik to'g'risida taraflarning kelishuvi bo'lmagan taqdirda, garov beruvchining ta'sis etilgan mamlakati, yashash joyi yoki asosiy faoliyatini olib borayotgan mamlakat qonunchiligi qo'llaniladi.

Ko'chmas mulk garovi to'g'risidagi shartnomaga qo'llaniladigan qonunchilik to'g'risida taraflarning kelishuvi bo'lmagan taqdirda, bu mulk joylashgan mamlakatning qonunchiligi qo'llaniladi.

Ishonchnoma berilgan mamlakatning huquqi bo'yicha ishonchnomaning shakli va amal qilish muddati belgilanadi. Ammo, O'zbekiston Respublikasining huquqiy talablariga javob beradigan ishonchnoma shaklga amal qilinmasligiga asosan haqli emas deb topilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyatining erkinligini kafolatlash to'g'risida»gi¹²⁷ Qonunining 18-moddasiga binoan, tadbirkorlik faoliyatining subyektlari belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishga haqlidirlar.

¹²⁶ O'zbekiston Respublikasining Yangi qonunlari. №19, T. «Adolat», 1998-yil, 456-bet.

¹²⁷ O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyatining erkinligini kafolatlash to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasining Yangi qonunlari. №23, -T.: «Adolat», 2001-yil.

Tashqi savdo bitimiga qo'llaniladigan huquqni aniqlash yo'li bilan bitimning majburiy deb nomlanuvchi tartiboti belgilanadi. Majburiy tartibot asosida bitim bo'yicha taraflarning huquq va majburiyatlari, uning bajarilmasligining (muddatning o'tib ketishi), lozim darajada bajarilmasligining oqibatlarini aniqlanadi. Javobgarlikdan ozod qilish ham majburiy tartibot bilan belgilanadi. Majburiy tartibot bo'yicha da'vo muddati masalalari¹²⁸ ham yechiladi, chunki da'vo muddatiga belgilangan huquq munosabatlari qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan qonun qo'llaniladi.

Bir paytda tashqi savdo bitimlarining shakliga nisbatan majburiy tartibot qo'llanilishi mumkin emas, chunki mamlakat ichki qonunchiligi bu masalalarga nisbatan maxsus huquq belgilaydi.

G'arbda belgilanganidek, agar bu bitimlarning yozma shakli bizning qonunimiz ko'rsatmalarining ichki ommaviy tartib normalariga oid deb topilsa yoki ularni ashyo to'g'risidagi normalar sifatida ko'rilsa, ular boshqa mamlakatlarda ham qo'llanilishi mumkin.

Bitimga qo'llaniladigan huquqni belgilash uchun oxirgi yillarda qator mamlakatlarda boshqa asoslar ham oldinga surilgan, avvalo birinchi o'rinda shartnomalarga sotuvchining ishlab chiqarish faoliyatini olib boradigan joyi qonuni, sotuvchi qonun prinsiplari qo'llaniladi.

XVIII BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Shartnomaga qo'llaniladigan huquqqa nisbatan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining qoidalari qanday?

2. Yuridik shaxsning shaxsiy qonuni nimani ifodalaydi va yuridik shaxsning shaxsiy qonunini belgilash muammosi nimadan iborat?

3. Tashqi iqtisodiy bitim deganda nimani tushunamiz?

4. Tashqi iqtisodiy bitim shakliga nisbatan mamaldagi qonunchilikda qanday qoidalar belgilangan?

5. «Shartnomaning majburiy targ'iboti» nima va uning xususiyatlari nimada?

Normativ aktlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. –T.: «Adolat», 1991-yil.

2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. –T.: «Adolat», 1997-yil.

¹²⁸ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1183-moddasi.

3. O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni. 26-may 2000-yil. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. –T.: 2000-yil, 266-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi «Garov haqida»gi Qonuni. O'zbekistonning Yangi Qonunlari. №19, -T.: «Adolat», 1998-yil.

5. O'zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik faoliyatining erkinligini kafolatlash to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekistonning Yangi Qonunlari. №23, -T.: «Adolat», 2001-yil.

6. O'zbekiston Respublikasi «Konsessiya tutrisida»gi Konuni. O'zbekistonning Yangi Qonunlari. №11, -T.: «Adolat», 1996-yil.

7. O'zbekiston Respublikasi «Nodavlat va notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekistonning Yangi Qonunlari. №21, -T.: «Adolat», 1999-yil.

8. O'zbekiston Respublikasi «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekistonning Yangi Qonunlari. №19, -T.: «Adolat», 1998-yil.

9. O'zbekiston Respublikasi «Sug'urta to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekistonning Yangi Qonunlari. №8, -T.: «Adolat», 1994-yil.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Богуславский М.М. Международное частное право. –М.: "Юрист", 1998.

2. Богуславский М.М. Международное частное право. Учебник. –М.: "Международные отношения". 1994.

3. Звеков В.П. Международное частное право. Курс лекции. – М.: "Норма ИНФРА", 1999.

4. Rahmonqulov H.R. «O'zbekistonda tijorat huquqi rivojlanishi». «Xo'jalik va huquq». №11-12, 1999-yil.

5. Rahmonqulov X.R. «Fuqarolik huquqiy shartnomaning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi roli va mohiyati». –T.: «Fan», 1994-yil.

6. Лунц Л.А. Международное частное право. Особый часть. – М.: "Юридическая литература". 1975.

7. Розенберг М.Г. "Товарларни халкаро олди-сотди шартномасини тузиш". –М.: 1991.

8. Скаридов А.С. Международное частное право. Санкт-Петербург. "Михайлова", 1998.

**XALQARO XUSUSIY HUQUQ BO'YICHA
SHARTNOMADAN TASHQARI MAJBURIYATLAR**

1-§. Zarar yetkazish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar

Xalqaro xususiy huquq ma'lum bir huquq sohasida, turli huquq normalaridan tashkil topgan majmua sifatida huquqshunoslik sohasida va shuningdek, huquq fani sohasida qo'llanishidan qat'i nazar o'ziga xos alohida ahamiyatga ega. Uning normalari vositasida faqat bitta davlat ichidagi munosabatlar emas, balki uning doirasidan tashqariga chiqadigan, ya'ni turli davlatlar o'rtasidagi ichki huquq qoidalariga bevosita taalluqli bo'lgan va ularda nazarda tutilgan munosabatlar tartibga solinadi¹²⁹. Bu kabi munosabatlar orasida shartnomadan tashqari majburiyatlar, ya'ni zarar yetkazish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar masalasi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining VI bo'limi bevosita xalqaro xususiy huquq normalarini fuqarolik-huquqiy munosabatlariga nisbatan tatbiq qilish masalalariga bag'ishlangan (FKning 1158-1199-moddalari).

Shartnomadan tashqari majburiyatlar bilan bog'liq munosabatlar Fuqarolik kodeksining 1193-1196-moddalarida belgilangan tartibda bir taraflama harakatlardan iborat majburiyatlardir. Bunda zarar yetkazilganligi oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar, iste'molchiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik, asossiz boylik orttirish natijasida vujudga keladigan majburiyatlar bo'yicha bog'liq munosabatlarni tartibga solish qoidalari belgilangan bo'lib, ular mohiyatiga ko'ra hozirgi zamon xalqaro xususiy huquqining tamoyillarini o'zida mujassamlashtiradi.

Xalqaro xususiy huquq bo'yicha shartnomadan tashqari majburiyatlar asosan xalqaro huquqiy xarakterdagi fuqarolik munosabatlariidan iborat bo'ladi.

Zarar yetkazish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar haqida so'z yuritilganda shuni ta'kidlash kerakki, bunday hollarda asosiy kollizion mezon bo'lib, unda zarar yetkazilgan joy qonuni tamoyili

¹²⁹ Rahmonqulov H.R. O'zbekistonda xalqaro xususiy huquqning ahamiyati va vazifalari. //Davlat va huquq. -T.: №2, 2000-yil, 3-bet.

amal qiladi. Masalan, Germaniya, Italiya, Gretsiya, Turkiya, Yaponiya va boshqa bir qator davlatlarda ushbu tamoyil amal qiladi.

Biroq, turli mamlakatlarda delikt (huquqbuzarlik) sodir etilgan joy turlicha tushuniladi. Zarar undirilishini talab qilishga asos bo'lib noqonuniy harakat yoki harakatsizlik sodir etilgan joy yoki shu harakat oqibati kelib chiqqan joy yoki ikkala holatning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi bo'lishi mumkin.

Masalan, Shveysariya davlatining «Xalqaro xususiy huquq to'g'risida»gi Qonunida belgilanishicha, agar zarar yetkazgan shaxs va jabrlanuvchi bir davlatning fuqarolari bo'lgan taqdirda, ya'ni ikkala tomon ham bir davlatda istiqomat qilishsa, zararni undirish bo'yicha kelib chiqqan nizo shu davlatning qonunchiligiga asosan sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Zarar yetkazish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar huquqiy tabiatiga ko'ra, qoida tariqasida, asosan fuqarolik huquqining, jumladan xalqaro xususiy huquqning asosiy institutlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Demak, bu turdagi majburiyatlar fuqarolik-huquqiy majburiyat sifatida tan olinadi va o'z navbatida, jabrlanuvchi o'ziga yetkazilgan zarar uchun tegishli tartibda ma'lum shakldagi mulk yoki boshqa bir ashyoni, shuningdek zarar yetkazish oqibatida kelib chiqqan ma'naviy zararni qoplashni aybdordan talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviy zarar jabrlanuvchining mulkiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar qoplanishidan qat'i nazar talab qilinishi mumkin.

Shu sababli, jabrlanuvchi moddiy va ma'naviy zararining har birini o'z xohishiga ko'ra ham alohida, ham bir paytning o'zida ikkalasini birgalikda qoplanishini talab qilish huquqiga ega bo'lishi ta'minlanadi. Bu holat, O'zbekiston Respublikasi FKning 1022-moddasida belgilab qo'yilgan. Ma'naviy zarar yetkazilganligi uchun javobgarlik shartnomadan tashqari delikt (huquqbuzarlik) xatti-harakati yoki harakatsizligi oqibatida kelib chiqadigan majburiyatdir. Bu turdagi majburiyatlarni xalqaro xususiy huquq normalari va bevosita fuqarolik huquqi normalari orqali tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Ikkala huquq sohasi va sud amaliyoti oldida turgan asosiy muammo – bu ma'naviy zararni qoplash miqdorini belgilashning yagona mezonlarini ishlab chiqish va sud amaliyotida uni odilona qo'llash bo'lib hisoblanadi.

Ko'rib chiqilayotgan masalaning murakkabligi inobatga olingani FKning 1022-moddasi mazmunidan ham yaqqol ko'rinadi, ya'ni

yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash miqdori shaxsga yetkazilgan jismoniy va ma'naviy uqubatning xarakteriga, delikventning (huquqbuzarning) aybi darajasiga e'tibor berilgan holda sud tomonidan belgilanishi nazarda tutilib, shu bilan birgalikda yetkazilgan ma'naviy zararni qoplash miqdorini aniqlashda sudlardan ikkita asosiy tamoyilning bajarilishiga, ya'ni oqilonalik va adolatlilikka rioya qilish talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan qonun hujjatlarining aksariyatida yetkazilgan ma'naviy zararni qoplashga qaratilgan imperativ xarakterdagi huquqiy normalar kiritilgan. Masalan, Mehnat kodeksining 187-moddasi, 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Davlat soliq xizmati to'g'risida»¹³⁰gi Qonunning 13-moddasi, 1996-yil 26-aprelda qabul qilingan «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»¹³¹gi Qonunning 12, 22, 29-moddalari, 2000-yil 25-mayda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»¹³²gi Qonunning 38-moddasi, 2002-yil 5-aprelda qabul qilingan «Chiqindilar to'g'risida»gi Qonuning 15-modda 15-bandi¹³³ va hokazo.

Agar zarar yetkazgan va zarar ko'rgan shaxslar har xil mamlakatlarda yashasa, bu holda nizolar harakat sodir bo'lgan joy huquqi bilan tartibga solinadi.

Masalan, Vengriyaning qonuni quyidagi qoidalarni belgilaydi. Zarar yetkazganlik uchun javobgarlikka nisbatan zarar yetkazgan shaxsning harakati yoki harakatsizligi sodir etilgan joyda amal qilinadigan qonun qo'llaniladi, agar zarar ko'rgan shaxs uchun bu afzalroq bo'lsa, zarar yuzaga kelgan hududdagi mamlakatning qonuniga amal qilish kerak, agar zarar yetkazgan va zarar ko'rgan shaxslar bitta davlatga mansub bo'lsa, bu holda ushbu davlatning qonuni qo'llaniladi, aybli harakatga qodirlik zarar yetkazganning shaxsiy qonuniga yoki delikt (huquqbuzarlik) sodir etilgan joyning qonuniga ko'ra belgilanishi mumkin. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasida noqonuniy harakat sodir etish joyining qonuni amal qiladi.

Shunday qilib, kollizion masalani hal qilishda delikt majburiyatlariga nisbatan ko'pincha zarar yetkazilgan joyning qonuni qo'llanilib, shu bilan birga u, basharti zarar ko'rgan shaxsning mamlakati huquqi unga zararni qoplashga doir yaxshiroq imkoniyatlar tug'dirsa, tuzatishlar bilan qabul qilinadi. Zarar yetkazuvchi harakat bir

¹³⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 1997-yil, №9, 232-moddasi.

¹³¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 1996-yil, №5-6, 59-moddasi.

¹³² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2000-yil, №5-6, 140-moddasi.

¹³³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2002-yil, №4-5, 72-moddasi.

mamlakatda sodir etilib, natijasi esa boshqa mamlakatda yuzaga kelsa, birmuncha murakkabroq vaziyat tug'iladi. ko'p tomonli bitimlar (1960-yilda qabul qilingan Atom energetikasi sohasida uchinchi shaxslarga nisbatan bo'lgan javobgarlik to'g'risidagi Parij Konvensiyasi, 1926-yilda qabul qilingan Atom kemalari egalarining javobgarligi to'g'risidagi Bryussel bitimi hamda 1963-yilda qabul qilingan Yadroviy zarar uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik to'g'risidagi Vena bitimi) tegishli harakat (oqibat) yuz bergan mamlakatlarning sudlari vakolatiligi tamoyilidan kelib chiqadi. Bunda sud ishini ko'rayotgan joylashgan mamlakatning huquqi qo'llanilishi lozim. Lekin, ko'p mamlakatlar ushbu bitimlarga qo'shilmagani sababli, bu kabi masalalarga doir alohida ikki tomonlama shartnomalar amal qiladi.

1929-yilda qabul qilingan Varshava Konvensiyasi hamda 1955-yilda qabul qilingan Gaaga protokoliga binoan tashuvchining yo'lovchiga, yukiga, qo'ldagi yukiga hamda boshqa yukka yetkazilgan zarar uchun javobgarligi miqdori alohida belgilanadigan summa bilan cheklanadi (masalan, yo'lovchiga yetkazilgan zarar uchun 250 ming frank kompensatsiya belgilangan)¹³⁴.

MDH mamlakatlari bitimida zarar yetkazish oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha tomonlarning huquq va vazifalarini belgilash tartibi haqidagi kollizion normalar mavjud. Ularda zararni qoplash to'g'risidagi talabga asos bo'lgan harakat (harakatsizlik) sodir etilgan mamlakat qonun hujjatlarida belgilanadi. MDH mamlakatlarining model Fuqarolik kodeksi belgilaydiki, zarar yetkazilganda iste'molchiga nisbatan quyidagi huquqlar qo'llanilishi mumkin: iste'molchi istiqomat qiladigan mamlakatning huquqi, ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatgan shaxs yashaydigan mamlakatning huquqi, iste'molchi tovar sotib olgan yoki unga xizmat ko'rsatilgan mamlakatning huquqi.

2-§. O'zbekiston Respublikasi hududida yetkazilgan zararga nisbatan qo'llaniladigan huquq

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar o'ziga xos belgilarga ega bo'ladi. Xususan, bu majburiyatlarning ta'sir doirasi zararni qoplashning moddiy xususiyatlariga ega bo'lishiga

¹³⁴ Дадабаев Ю., Рахимов Г. Международное частное право. Учебное пособие. Изд. Фергана, 1999. – С.75.

qaramasdan, mulkiy hamda shaxsiy nomulkiy munosabatlarni qamrab oladi. Ular to'liq xarakterga ega bo'lgan mulkiy huquqlar yoki shaxsiy nomulkiy manfaatlarning buzilishi natijasida kelib chiqadi, garchi huquq jabrlanuvchi bilan shartnomaviy munosabatlarda bo'lgan shaxs tomonidan buzilgan bo'lsa-da, majburiyatlar mutlaq huquqlar buzilganligi tufayli shartnomasiz xarakterga ega bo'ladi, bu majburiyatlar zarar kim tomonidan kimga yetkazilgani, zarar qanday ko'rinishda yetkazilgani va zararni qoplash usullaridan qat'i nazar, uning to'liq qoplanishini nazarda tutadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, zararni to'lash majburiyati boshqa shaxslarga ham yuklatilishi mumkin.

Zarar yetkazish tufayli vujudga keladigan majburiyatga binoan jabrlangan shaxs yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan shaxsdan o'ziga avvalgi holati tiklanishini yoki ko'rgan zararining qoplanishini talab qila oladi. Qonunda zararni qoplash majburiyati zarar yetkazuvchi bo'lmagan shaxsga ham yuklatilishi mumkin (FKning 985-moddasi). Bu holatda uchinchi shaxsga nisbatan da'vo qo'zg'atish orqali zararni undirib olish mumkin.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarni qo'llash uchun mulkiy zararining bo'lishi, zarar yetkazuvchining xatti-harakati yoki harakatsizligi qonunga xilof bo'lishi, qonunga xilof harakat bilan zarar o'rtasida sababiy bog'lanish mavjud bo'lishi, zarar yetkazgan shaxsning bevosita aybi bo'lishi kerak.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatning mazmunini jabrlanuvchining avvalgi holati tiklanishini yoki ko'rgan zararining to'lanishini talab qilishga bo'lgan huquqi va yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lgan shaxsning mazkur harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan burchi tashkil etadi.

Yetkazilgan zararni to'lashga qaratilgan mazkur majburiyat bo'yicha belgilanadigan javobgarlik shartnomadan tashqari vujudga keladigan javobgarlik hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 1184-moddasiga binoan, ko'chmas va ko'char mol-mulkka nisbatan mulk huquqi hamda boshqa ashyoviy huquqlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, bu mol-mulk joylashgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi.

Mol-mulkning ko'chmas yoki ko'char ashyolarga mansubligi, shuningdek, mol-mulkning boshqacha yuridik baholanishi ana shu mol-mulk joylashgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi.

Mulk turgan joy qonuni mulk huquqi mazmunini ham belgilaydi. Agar mulkdor ashyoni boshqa davlatga olib kelsa, uning mulkka nisbatan huquq doirasi o'zgarishi mumkin, chunki bu davlatda mulkka tegishli qonun boshqacha mazmunda bo'lishi mumkin. Bu yerdan keyingi holat kelib chiqadi. Agar O'zbekiston fuqarolariga chet elda uy yoki boshqa mulk tegishli bo'lsa, bu mulkka bo'lgan huquq O'zbekiston qonunchiligi bilan emas, balki o'sha chet el davlati qonunchiligi bilan belgilanadi. Lekin ko'char mulk O'zbekiston Respublikasiga olib kelinadigan bo'lsa, uning huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilanadi.

Mulk turgan joy qonuni (prinsipi) ashyoviy (mulkiy) huquqlarning vujudga kelishi va bekor bo'lishini aniqlaydi (FKning 1185-moddasi). Mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi va bekor bo'lishi, agar O'zbekiston Respublikasining qonunlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi yoxud bekor bo'lishi uchun asos bo'lgan harakat yoki boshqa holat sodir bo'lgan paytda bu mol-mulk turgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi.

Mulk turgan joy qonuni mulk huquqining o'tish shartlarini ham belgilaydi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi FKning 1185-moddasiga ko'ra, bitim predmeti bo'lgan mulkka nisbatan ashyoviy huquqlarning vujudga kelishi va bekor bo'lishi, agar tomonlarning kelishuvida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, ushbu bitim bo'ysundirilgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi.

Xalqaro xususiy huquq tamoyillariga asoslangan holda, ashyoviy huquqlarga zarar yetkazilgan taqdirda, FKning 1188-moddasiga binoan mulk huquqini va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilishga nisbatan jabrlanuvchining xohishiga ko'ra mulk joylashgan mamlakatning huquqi yoki sud qaysi mamlakatga tegishli bo'lsa, o'sha mamlakatning huquqi qo'llanadi.

Bu o'rinda, shunday huquqiy munosabatlarga nisbatan qo'llanuvchi huquqni aniqlash va yetkazilgan zararga va bu zararni qoplashga bog'liq da'voni ko'rib chiqish jarayonida bir qator kollizion bog'lanishlarni hisobga olish kerak, jumladan, ashyo joylashgan joy qonuni, mulkdorning xususiy qonuni, bitim tuzilgan joy qonuni, sotuvchi mamlakatining qonuni va ashyoni jo'natish joyi qonuni.

O'zbekiston Respublikasi FKning 1194-moddasida zarar yetkazishdan kelib chiqqan majburiyatlarga nisbatan bir qator kollizion bog'lanishlar nazarda tutilgan.

Zarar yetkazish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha huquq va majburiyatlar zararni undirishga talab qilish uchun asos bo'lgan harakat yoki boshqa holat yuz bergan mamlakatning huquqi bo'yicha belgilanadi.

Yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik zarar yetkazish harakati yoki harakatsizligi noqonuniy harakat bo'lib hisoblangan-dagina vujudga keladi. Ba'zi harakatlarning qonuniy yoki noqonuniyligi to'g'risidagi masalani hal qilishda qonunning ma'nosini aniq tushunishga imkoniyat beradigan an'anaviy qoidalarni ham e'tiborga olish zarur bo'ladi. Noqonuniy harakatlarning mazmuni FKning 985-moddasida aniq ko'rsatilgan, chunki zarar yetkazish ehtimol qilingan hollarning hammasini avvaldan belgilash mumkin bo'lmaydi.

FKning 988-moddasi sudga zararning qanday holatda yetkazilganligini e'tiborga olib, zarar yetkazgan shaxs kimning manfaatini ko'zlab harakat qilgan bo'lsa, zararni qoplashni shu uchinchi shaxs-ga yoki uchinchi shaxsni ham, zarar yetkazgan shaxsni ham zarar haqini to'lashdan butunlay yoki qisman ozod qilish huquqini beradi.

Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan mulkiy javobgarlik faqat noqonuniy harakat bilan zarar o'rtasida sababiy bog'lanish bo'lgan-dagina vujudga kelishi mumkin.

Ayb haqidagi umumiy qoidalar shartnomadan tashqari belgilana digan javobgarlikka ham taalluqli bo'lishi mumkin. Ammo bu masalada ba'zi bir izohlar berilishi kerak. Shartnomadan tashqari bo'ladigan javobgarlik faqat imperativ, ya'ni qat'iy normalar bilangina tartibga solinadi, shartnoma yuzasidan belgilanadigan javobgarlik ayb bo'lmagan holatda faqat ayrim hollardagina vujudga kelishi mumkin. Zarar yetkazilganlik uchun javobgarlik esa aybning bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar ham belgilanishi mumkin. Masalan, FKning 999-moddasi bo'yicha ayb bo'lmaganida ham javobgarlikning belgilanishi mumkin deb qayd etilgan.

Oshiqcha xavf manbayidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik FKning 999-moddasida belgilanishicha, faoliyati tevarak atrofida-gilar uchun oshiqcha xavf tug'diradigan yuridik shaxslar va fuqarolar (transport tashkilotlari, sanoat korxonolari, qurilishlar, avtomobil egalari va shu kabilar) oshiqcha xavf manbayida yetkazilgan zararni, agar bu zararning bartaraf qilib bo'lmasligini yoki jabrlanuvchining qasddan harakatlari natijasida sodir bo'lganligini isbot qilib bermasalar, qoplashga majburdirlar, shuningdek mazkur yuridik shaxs-

larning fuqarolik javobgarligi zarar yetkazishda aybning bo'lish-bo'lmasligidan qat'i nazar belgilanadi va ular zararni tasodifan yetkazilishi hollarida ham javobgar bo'ladilar.

Havo transporti korxonalarining yo'lovchilar oldidagi mulkiy javobgarligi yana ham oshiqroq darajada belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 113-moddasiga ko'ra, havo transportida yo'lovchi tashish yo'lovchining havo kemasiga chiqish uchun aeroport perroniga kirgan vaqtdan boshlab, tashuvchining vakolatli shaxslari kuzatuv ostida perrondan chiqish qismiga binoan yuqoridagi vaqt mobaynida, ya'ni havo kemasining uchib ketishida, parvoz qilishida, undan chiqishida ko'rilgan zarar, ya'ni yo'lovchining o'limi, uning sog'lig'iga shikast yetkazilishi yoki boshqacha tarzda zarar yetkazilishi uchun, agar zarar yoki zararning ko'payishi jabrlanuvchining qo'pol ehtiyotsizligi natijasi ekanligini isbotlab bera olmasa, havo transporti korxonasining javobgarligi zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch natijasida sodir bo'lganda ham belgilanadi.

FKning 999-moddasiga ko'ra belgilanadigan javobgarlikning farq qiladigan muhim xususiyati ayb bo'lmaganida ham mulkiy javobgarlikning belgilanishidir. FKning 999-moddasida ko'rsatib o'tilgan yuridik shaxslar va fuqarolar bu moddaning qoidolari bo'yicha belgilangan javobgarlikka faqat oshiqcha xavf manbaya ta'siri natijasida kelgan zarar uchungina javobgar bo'ladilar.

FKning 999-moddasida ko'rsatilgan oshiqcha xavf manbalarining turlarini mukammal deb bo'lmaydi, chunki fan va texnikaning doimiy rivojlanishi natijasida ularni to'la va aniq sanab o'tishning imkoniyati yo'q.

Xalqaro xususiy huquqda qabul qilingan qoidaga muvofiq chet davlat huquqining kollizion normasi O'zbekiston Respublikasi qonuniga havola etgan barcha hollarda, O'zbekiston qonunni qanday qo'llayotgan bo'lsa, chet el davlati sudi yoki boshqa davlat organi ham uni shunday qo'llashi shartdir.

Respublikamizning sud va boshqa vakolatli davlat organlari chet el qonun normalarini, agar bunday holat tegishli qonun, xalqaro shartnoma qoidalariga yoki tomonlardan biri chet el elementi bilan O'zbekiston tashkiloti o'rtasida tuzilgan bitimga asoslangan bo'lgan taqdirda qo'llashlari mumkin.

Har qanday kollizion norma chet el davlat huquqi tizimlarining noaniq sohadagi harakati kuchini va uning ta'sirida yuzaga

keladigan subyektiv huquqlarni tan olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Shuning uchun bu norma termin va tushunchalar yordamida ifodalanib, mazmunan tegishli huquq tizimlari uchun umumiy hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida chet el huquqi kollizion normaga havola etilgan hollar emas, balki moddiy huquqqa havola etilganda qarshi tomon va uchinchi mamlakat huquqi qo'llaniladi. Agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari chet el huquqiga havola etilsa yu, chet el huquqida tegishli munosabatlarni tartibga solish nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday holda, O'zbekiston qonun hujjatlari qo'llamaslikka asos yo'q. Chet el elementi ishtirokidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarida chet el huquqi u FKning 1168-moddasi, 1169-moddaning 1, 3 va 5-qismlariga, 1171 va 1174-moddalariga muvofiq qo'llanilgan hollarda qarshi tomon sifatida albatta O'zbekiston Respublikasi huquqiga va uchinchi mamlakat huquqiga havola etish kerak.

3-§. Chet elda yetkazilgan zararga nisbatan qo'llaniladigan huquq

Xalqaro xususiy huquq bo'yicha chet elda yetkazilgan zararga nisbatan qo'llaniladigan huquq bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish amaliyoti o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu sharh talab qilinmaydigan holatdir, chunki har bir davlat o'z milliy qonunchiligiga, o'z navbatida, bu davlatlar qonunchiligi tegishli huquq tizimlariga (romano-german, anglo-sakson kabi tizimlari) kiradi, shuningdek har bir mamlakatning milliy an'analari davlatning qonunchiligida o'z aksini topadi. Bu o'rinda bir tomonlama, ikki yoki ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli ham xalqaro xususiy huquq va amaliyotining asosiy instituti sifatida butun dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan kollizion normalar, xususan, chet elda yetkazilgan zararni, uning miqdorini aniqlash va qoplash mezonlari tartibi kabi masalalar hal qilinadi.

Chet elda zarar yetkazilganligi oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar bo'yicha huquq va burchlar, agar fuqarolar yoki yuridik shaxslar ayni bitta davlatdan bo'lsalar, shu davlat huquqi bilan belgilanishi lozim.

Xalqaro xususiy huquq bo'yicha chet elda yetkazilgan zararga nisbatan qo'llaniladigan huquq masalalarini to'g'ri hal qilishi maqsadida ommaviy tartib to'g'risidagi shartlar keng qo'llaniladi.

Ommaviy tartib to'g'risidagi shart xorijiy huquqni qo'llashni cheklash uchun ishlatiladi. Qator mamlakatlarda kollizion normalar murojaat etishni talab qiladigan chet el qonuni, basharti bu normalar ushbu davlatning ommaviy tartibiga zid bo'lsa, qo'llanmasligi mumkin. Ommaviy tartibga nisbatan ziddiyat – bu huquqiy tartibot asoslariga nisbatan ziddiyatdir. Uning yuzaga kelishi Fransiyada 1804-yildagi Fuqarolik kodeksini turlicha talqin qilish bilan ifodalanadi. Unga ko'ra ichki ommaviy tartib – jamoat tartibi hamda qoidalarni xususiy bitimlar bilan buzishni taqiqlashdir. Shuningdek, Fransiyada «xalqaro ommaviy tartib» tushunchasi, ya'ni chet el huquqini qo'llashni cheklash, ommaviy tartib to'g'risidagi shart joriy etilgan.

1958-yildagi Nyu-York Konvensiyasida aytiladiki, chet el arbitraj qarorlari ijro etilishining tan olinishi, basharti davlat organlari bu qarorlarni ijro etish uning jamoat tartibiga zidligini topsa, rad qilinishi mumkin. Ushbu konvensiyada ta'kidlanganki, «ichki ommaviy huquqni» hamda «xalqaro ommaviy huquqni» farqlash lozim¹³⁵.

Ommaviy tartib tushunchasi aksariyat davlatlarning sud tajribasi va doktrinasida o'ziga xos noma'lumlik bilan tasniflanadi. Sudlar u haqidagi shartdan cheklash, ayrim hollarda esa chet el huquqini qo'llash, shuningdek, avvalambor, boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi mamlakat huquqini to'liq rad etish maqsadida foydalanadilar. Ushbu shartni qo'llash doiralari belgilash to'liq sudlarga havola etilgan.

Ayrim davlatlar tajribasi uchun ommaviy tartib to'g'risidagi shartdan foydalanish haqidagi masalaga nisbatan ehtiyotkorlik yondashuvi xos. Lekin, chet el huquqini ikkilamchi qo'llamaslik imkoniyati bor. Ikki mamlakat qonunlari o'rtasidagi prinsipial tafovutlarning mavjudligi ommaviy tartib to'g'risidagi shartni qo'llash uchun shunchaki asos bo'lishi mumkin emas, chunki bu shart mamlakat huquqini boshqa davlatda qo'llashni rad etishga olib kelishi mumkin. Nyu-York Konvensiyasiga ko'ra, arbitraj qarorini ijro etishni xohlamagan tomon ko'p hollarda boshqa asoslarga binoan ish yuritish imkoniyati bo'lmaganda, ushbu shartdan

¹³⁵ Рузиназаров Ш.Н. Производство по делам участием иностранных организаций, международных организаций и осуществляющих предпринима тельскую деятельность иностранных граждан, лиц без гражданства. //Хозяйство и право. –Т.: №1, 2001. –С.75.

foydalanishga harakat qiladi. Lekin ushbu konvensiyani qo'llashning xalqaro tajribasi shundan dalolat beradiki, sudlar ushbu asosga ko'ra qarorlarni ijro etishda faqat istisno etuvchi hollarda rad etadi.

Buning uchun, birinchidan, xorijiy davlat qonunining qandaydir normasi emas, balki uni qo'llash oqibatlarini bizning huquqiy tartibot asoslariga zid kelishi kerak; ikkinchidan, ommaviy tartibga murojaatlar arbitraj yoki sud qarorini tan olish va ijro etish oqibatlarini mazkur mamlakat huquqiy tartiboti tamoyiliga daxldor bo'lgan taqdirdagina qo'llanilishi kerak.

Hozirgi zamon xalqaro xususiy huquqida chet el huquqini qo'llamaslik imkoniyati ham keng qo'llanilib, bunda milliy huquqning qat'iy imperativ normalariga murojaat etilib, ular qo'llanishi lozim bo'lgan chet el huquqi normalari oldida ustunlikka ega bo'lishi mumkin.

Masalan, Shveysariya va Germaniya xalqaro xususiy huquqida shunday qoidalar borki, ularga binoan ushbu mamlakatlarning imperativ normalari mazkur qonunga muvofiq qaysi davlat huquqi qo'llanilishi lozim bo'lishidan qat'i nazar qo'llanilmoqda. Aynan shu munosabatlarga nisbatan qo'llaniladigan qoidalar 1980-yilgi huquq to'g'risidagi Rim Konvensiyasida ham mavjud. MDH mamlakatlarining model fuqarolik kodeksida shu narsa nazarda tutilganki, huquqni qo'llash to'g'risidagi qoidalar qonunchilikning huquqni qo'llashdan qat'i nazar tegishli munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining manfaatlariga doir huquqlarni ta'minlash uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan imperativ normalariga daxldor emas.

Chet elda yetkazilgan zararga nisbatan qo'llaniladigan huquq bo'yicha kelib chiqadigan muammolar umume'tirof etilgan kollizion normalar yordamida hal qilinadi. Kollizion normalar o'z xarakteriga ko'ra bir necha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, bir tomonlama – ular faqat mazkur mamlakat qonunining qo'llanilishini ko'rsatadi, ikki tomonlama – ham mazkur mamlakatning, ham chet el mamlakatining huquqini qo'llashga yo'l qo'yiladi. Kollizion normalarning mazmuni ularning tuzilishiga qarab aniqlanadi. Bu tuzilish boshqa huquqiy normalar tuzilishidan farq qilib, asosan ikki narsani, ya'ni chet el elementi huquqiy munosabatlarining turi (huquq institutlari) va mavjud munosabatlarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan mamlakat huquqiga bog'lanish ta'rifini o'z ichiga oladi.

Fuqarolik-huquqiy normalar, kollizion normalar imperativ yoki dispozitiv xususiyatga ega bo'lishi mumkin, birinchisi – majburiy, ikkinchisi – ular o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan boshqa huquqni qo'llashning tamoyiliga yo'l qo'yiladi.

Kollizion normalarni qo'llash jarayonida, ushbu normalarni izohlashda ishlatiladigan yuridik tushunchalarni tasniflash muammosi yuzaga keladi. Turli mamlakatlar huquqida bu tushunchalar o'z mazmuniga ko'ra bir-biriga har doim ham to'g'ri kelmaydi. Masalan, Fransiyada da'vo muddatiga fuqarolik huquqining tushunchasi sifatida, Buyuk Britaniya, AQSH va Finlandiyada protsessual huquqning tushunchasi sifatida qaraladi. Hozirgi davrda, Buyuk Britaniya va AQSHda bunday tasniflashdan asta-sekin voz kechilmoqda. Agar Fransiya sudi da'vo muddatini o'z huquqiga ko'ra emas, balki Angliya huquqiga ko'ra tasniflansa, bu holda u da'vo muddatiga nisbatan Angliya huquqi qoidalarini qo'llashi mumkin emas. Ko'pgina g'arb mamlakatlarining doktrinasi shundan kelib chiqadiki, yuridik tushunchalarni tasniflash sud qonuniga ko'ra qonunni tanlash muammosi hal qilungunga qadar, ya'ni kollizion norma qo'llangunga qadar o'tkazilishi lozim. Lekin kollizion norma asosida chet el qonuni qo'llanilishi kerak bo'lsa, bu holda har qanday tasniflash kollizion norma olingan huquqiy tizim asosidagina bo'lishi mumkin.

Har qanday kollizion norma chet el huquqi tizimlari nomuayyan doirasining harakatini hamda yuzaga kelgan subyektiv huquqlarni tan olishga qaratilgandir. Shuning uchun bu norma ham atamalar, ham tushunchalar orqaligina ifoda etilishi mumkin bo'lib, ular mazmuniga ko'ra tegishli huquqiy tizimlar uchun umumiy bo'lib hisoblanadi.

Kollizion sabablarga bog'liq holat esa boshqacha, ya'ni huquqni qo'llashdagi to'liq aniqlik faqat sud qonuniga ko'ra, sabablarni tasniflashdan foydalanish yo'li orqaligina ta'minlanishi mumkin. Chunonchi, mamlakat fuqarolik huquqida bo'lgan o'sha tushunchalardan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Masalan, xalqaro savdo tajribasida kontrakt tuzilgan joyning turlicha talqin etilishi sababli qator qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Angliya huquqida bu joy akseptni jo'natish joyi bo'yicha, boshqa aksariyat mamlakatlarda esa akseptni olish joyi bo'yicha aniqlanadi. Shuningdek, ikkilamchi tasniflash ham mavjud, ya'ni kollizion norma qo'llanganidan keyin, u kollizion norma olingan huquqiy tizim asosida amalga oshirilishi kerak.

Bu o'rinda bir savol tug'iladi. Chet el qonuniga murojaat etishni qanday tushunish kerak? Agar moddiy huquq normalariga bo'lgan murojaat deb tushunilsa, bu holda, qayta murojaat qilish doktrinasini qo'llamaslikni anglatadi. Agar xorijiy davlat huquqiga yaxlit holda murojaat deb tushunilsa, bu holda ushbu doktrinani qabul qilishni anglatadi. Xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasi hamda doktrinasi qayta murojaat etish hamda uchinchi mamlakat huquqiga murojaat etishni qo'llash to'g'risidagi savolga aniq javob bermaydi. Masalan, Polshaning «Xalqaro xususiy huquq to'g'risida»gi Qonuni bu murojaatning ikkala turini tan oladi. Vengriyadagi shunday qonun esa o'z huquqiga murojaat etishni tan oladi. Germaniyada shartnoma huquqi sohasidagi murojaat tan olinmasdan, balki boshqa holda tan olinadi. Avstriya va Shveysariyaning «Xalqaro xususiy huquq to'g'risida»gi Qonuniga asosan qayta murojaat qilish tan olinadi. Shuni ta'kidlash kerakki, qayta murojaat qilish doktrinasini 1980-yildagi Rim Konvensiyasida qabul qilinmagan edi.

Masalan, Shveysariyaning «Xalqaro xususiy huquq to'g'risida»gi Qonunida chet el qonuniga bo'lgan murojaatni moddiy huquqqa murojaat etish sifatida talqin qilish taklif etiladi, fuqaroning shaxsiy maqomi bilan bog'liq vaziyatlar bundan mustasnodir.

Chet elda yetkazilgan zararga nisbatan qo'llaniladigan huquq masalalari doirasi umumjahon globallashuvi va jahon xo'jalik tizimining integratsiyalashuvi jarayoni rivojlangan sari kengayib boradi. Masalan, aviakompaniyalar, koinot faoliyati, ekologik xavfsizlik, oziq-ovqat, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish va yana bir qator boshqa sohalar shular jumlasiga kiradi.

Masalan, aviatashuvchi (aviakompaniya) yo'lovchiga yoki yukning egasiga yetkazilgan zarar uchun fuqarolik-huquqiy jihatdan javobgar bo'ladi. Xalqaro havo yo'llari havo transportidan foydalanuvchilarning manfaatlarini ko'zlab, shuningdek raqobat kurashida aviakompaniyalar tomonidan turli shart-sharoitlardan foydalanish javobgarligidan qochish maqsadida turli vositalar qo'llashi sababli, aviatashuvchining moddiy javobgarligi masalalariga bir xil yondashuvni talab etadi.

Ushbu sohadagi davlatlarning o'zaro hamkorligi «Varshava tizimi» nomini olgan turkum shartnomalarni qabul qilishda o'z aksini topgan. Bu shartnomalarning asosiy shartlariga ko'ra bitim (xizmatlarni sotishga doir kontrakt) tomonlari javobgarlik subyekt-

lari bo'lganligi uchun bu masalalar xalqaro xususiy huquq sohasiga bevosita taalluqlidir.

1929-yildagi Varshava Konvensiyasiga binoan tashuvchi yo'lovchining vafot etishi yoki har qanday tan jarohati olishi tarzidagi, yukning yo'q qilinishi, yo'qolishi yoki unga shikast yetkazilishi, shuningdek, tashishga kechikish ko'rinishida bo'lgan zarar uchun javobgardir. Varshava tizimi shartnomalari bo'yicha aviatashuvchining maksimal javobgarlik chegaralari (pul miqdori bo'yicha javobgarlikni cheklash) belgilab qo'yilganki, ular davlatlarning o'ziga xos o'z milliy aviakompaniyalariga nisbatan himoyalash siyosatini aks ettiradi, bunda zararni qoplash tartibi ham nazarda tutilgan. Xalqaro havo transporti orqali shartnomadagi tashuvchidan boshqa shaxs amalga oshiradigan tashishga daxldor bo'lgan ayrim qoidalarni birxillashtirishga qaratilgan. Varshava Konvensiyasiga qo'shimcha bo'lgan 1961-yildagi Gvadalar Konvensiyasi Varshava Konvensiyasining asosiy tamoyillarini ijaraga olingan havo kemalarida tashishga tatbiq etgan.

Hozirgi paytda eng yirik aviakompaniyalar tomonidan, avvalambor, Amerika aviakompaniyalari tomonidan javobgarlikning maksimal chegaralarini oshirishga qaratilgan tendensiya kuzatilmoqda. Bunda Amerika avia kompaniyalarining rivojlanayotgan davlatlarning hali to'liq kuchga kirmagan yosh aviakorxonalari bilan bo'lgan raqobat kurashi o'z aksini topadi. Ushbu nuqtayi nazardan qaraganda, 1966-yildagi qator aviakompaniyalar o'rtasida tuzilgan Monreal bitimini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bu bitim tashuvchining javobgarlik chegarasini 75 ming AQSH dollarigacha ko'paytirdi, shuningdek, boshqa mamlakatlar hududiga yo'lovchi va yuk tashish uchun ushbu chegarani qabul qilgan aviakompaniyalargagina yo'l qo'yiladi. 1971-yildagi Gvatemala protokoli javobgarlik chegarasini bir yo'lovchi uchun 100 ming AQSH dollarigacha oshirib, tashuvchining obyektiv javobgarlik tizimini qabul qildi (uning aybi bilan bog'liq bo'lmagan hollarda).

1975-yilda qabul qilingan 4-sonli Monreal protokoli ham tashuvchining obyektiv tamoyilidan kelib chiqadi. Bu protokol ham Gvatemala protokoliga o'xshab barcha davlatlarda kuchga kirmagan.

Oxirgi yillarda texnik sabablarga ko'ra, aviahalokatlar yuz bergan hollarda da'volarni bevosita havo kemalarini ishlab chiqaruvchilarga nisbatan taqdim etish muammosi dolzarb bo'lib qoldi. Shu tariqa, havo harakatini boshqarish organlarining javobgarligi to'g'risidagi

masala ham o'z-o'zidan yuzaga keladi. Xalqaro huquqda, jumladan xalqaro xususiy huquqda bu muammolar hali yetarli darajada tartibga solinmagan.

1952-yilda Rimda xorijiy havo kemasi tomonidan yer yuzida uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi Konvensiya tuzilgan edi. Bu Konvensiya zararni qoplash miqdorini havo kemasi og'irligiga qarab belgilaydi va unga ko'ra havo kemasi ekspluatanti (zarar yetkazilgan paytda kemadan bevosita foydalanuvchi shaxs) javobgarlik subyekti hisoblanadi. Bunda zarar deganda yo'lovchining o'limi, tan jarohati hamda uning mol-mulkiga kemanding jismoniy ta'sir etishi yoki unga narsa tushishi natijasida yetkazilgan zarar tushunilardi. 1978-yilga kelib esa, Monrealda Rim Konvensiyasini o'zgartirish to'g'risida protokol qabul qilingan edi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi paytda aviadvigatellar shovqini tufayli hamda samolyotlardan foydalanishda shovqin zarbasi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik, atrof-muhit va aholiga turli xarakterdagi avariyalardan so'ng kemalar hamda atom reaktori va jangovar yadro quroli bo'lgan suvosti kemalarining cho'kishi oqibatida yetkazilgan zarar uchun javobgarlik to'g'risidagi dolzarb masalalar xalqaro miqyosda hamon yetarli darajada hal etilmagan.

Xalqaro koinot huquq normalarini buzganlik uchun javobgarlik koinot faoliyatini davlatlarning hukumat organlari yoki nohukumat yuridik shaxslar amalga oshirganidan qat'i nazar, tegishli davlatlarning zimmasida bo'ladi. Koinotda xalqaro tashkilot faoliyat ko'rsatgan taqdirda, javobgarlik ham tashkilot, ham ishtirok etuvchi davlatlarning zimmasida bo'ladi (solidar javobgarlik).

Agar huquqiy jihatdan to'g'ri bo'lgan koinot faoliyati natijasida chet el davlatiga yoki uning jismoniy va yuridik shaxslariga zarar yetkaziladigan bo'lsa, bu holda zararni qoplash vazifasi koinot obyektini uchirishni amalga oshiruvchi yoki tashkil etuvchi davlatning, shuningdek, obyekt uchiriladigan hudud yoki uskuna joylashgan hududdagi davlatning zimmasida bo'ladi. Moddiy javobgarlikni amalga oshirish tartibi 1972-yildagi koinot obyektlari tomonidan yetkazilgan zarar uchun xalqaro javobgarlik to'g'risidagi konvensiyada belgilanadi.

Konvensiya zarar tushunchasiga hayotdan mahrum etish, tan jarohati yetkazish yoki boshqacha tarzda aholi sog'lig'iga zarar yetkazish yoxud davlat, jismoniy yoki yuridik shaxslarning va xalqaro tashkilotlarining mol-mulkini yo'q qilish yoxud unga shikast yetkazishni kiritadi.

Bu javobgarlik obyektiv xususiyatga ega bo'lib, u zarar yer ustida yoki havo kemasi uchganda sodir etgan hollarga taalluqlidir. Bir davlatning koinot obyektini tomonidan boshqa davlatning koinot obyektiga har qanday joyda yetkazilgan zarar uchun javobgarlik ayb tamoyiliga asoslanadi. Ming afsuski, hozirgi davrda, ayrim rivojlangan davlatlar tomonidan koinot harbiy kuchlarining tashkil etilishi bu sohadagi muammolar doirasini yanada kengayishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Hozirgi zamon xalqaro xususiy huquqi, turli adabiyotlarda bir necha bor ta'kidlanganidek, jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Bu kabi o'zgarishlar ham milliy qonunchilik va sud amaliyotida hamda xalqaro huquq normalarida o'z ifodasini topmoqda. Bunday o'zgarishlar xususiy emas, balki alohida yagona tusga ega bo'lib (o'zgarishlar yoki yangi alohida kollizion normalarning paydo bo'lishi), ular kollizion huquqning, uning falsafasining, global maqsadlarining mohiyatiga taalluqlidir.

Ularning eng muhimlari quyidagilardan iboratdir: egiluvchan kollizion normalar sonining ko'payishi; oila, meros huquqi va bu munosabatlarga tegishli deliktlar sohasida tomonlar irodasi mustaqilligining keng tarqalishi; ommaviy tartib masalalari.

Kollizion normalar orqali tartibga solishdagi hozirgi o'zgarishlar yuridik adabiyotlarda, ko'pincha, XX asrning 60-yillarida Amerika kollizionistlari tomonidan taklif etilgan novellalar bilan bog'lanib, klassik xalqaro xususiy huquq doirasida vujudga kelgan. Klassik xalqaro xususiy huquq vujudga kelishining sabablari, vaqti va joyi bizga ko'pgina adabiyotlardan ma'lum bo'lib, birinchi navbatda L.A.Luns asarlaridan, xususan, uning «Xalqaro xususiy huquq kursi»dan ma'lumdir¹³⁶. Huquqshunoslarning an'anaviy vazifasi chet el elementi bilan bog'liq bo'lgan fuqarolik huquqiy munosabani u yoki bu huquqiy tizimga ulash mumkin bo'lgan bo'g'inni aniqlashdadir. Ularning tajribada yoki qonun normalarida mavjudligi va mustahkamlangani sudyalarga nizoni hal etish, tomonlarga esa ularning huquqlari qaysi huquq bilan tartibga solinishi haqida oldindan bilish imkoniyatini yaratadi.

Ayrim omadli deb topilgan yechimlar vaqt sinovidan o'tdi hamda aksariyat mamlakatlarning hozirgi zamon kollizion huquqida qo'llanilmoqda. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin – jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni (FKning 1168-moddasi), yuridik

¹³⁶ Лунц Л.А. Курс международного частного права. Общая часть. –М.: 1973.

shaxs qonuni (FKning 1175-moddasi), sud qonuni (sud joylashgan mamlakatda amal qilinayotgan qonun), fuqarolik-huquqiy munosabatlarning subyektlari tomonidan tanlangan huquq, mazkur huquqiy munosabat uzviy bog'langan qonun xatti-harakat sodir etilgan joy qonuni, zarar yetkazilgan joy qonuni, sotuvchi mamlakatining qonuni, nikoh qayd qilingan joy qonuni va boshqalar. Ularning qo'llanilishi hamda talqin qilinishi ma'lum qiyinchiliklarga duch kelishiga qaramasdan, ular turli milliy huquq normalari va odatlari majmuidagi ishonchli va aniq mo'ljal bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro hamkorlikning rivojlanishi hamda faollashuvi vaqt o'tgan sari xalqaro xususiy huquqda son jihatidan o'zgarishlarga olib keladi, shu tufayli turli hamkorlik sohalarining ko'payishini hisobga olgan holda kengayib borayotgan xalqaro aloqalarga muvaf-faqiyatli xizmat ko'rsatishi mumkin bo'lgan kollizion normalar soni yanada ko'payadi.

XX asr xalqaro xususiy huquq rivojlanishi uchun juda qo'l keldi, chunki uning birinchi yarmida kollizion muammolar avval ko'rilmagan miqyosda keng tadqiq etilgan adabiyotlar paydo bo'ldi. Ularning ko'pchiligida qariyb sakkiz asr mobaynida o'zining maqsadga muvofiqligini isbotlovchi kollizion huquqning asoslari bo'lib hisoblanuvchi tamoyillar va maqsadlar shubha ostiga olindi. Ilgari mavjud bo'lmagan savollar jahon kollizionistlari oldida paydo bo'ldi. Ularni oddiy qilib quyidagicha ifodalash mumkin – kollizion normalar yordamida qo'llaniladigan huquqni oddiy aniqlash emas, balki bu qanday oqibatlariga olib kelishini, qaysi moddiy huquq normalarining qo'llanilishini va oqilona hamda muayyan huquqiy munosabatlar adolatli tartibga solinishini hisobga olish lozimdir.

Xalqaro xususiy huquqda bo'layotgan o'zgarishlarni aniq misol keltirish orqali eng yaxshi tarzda namoyon etish mumkin. Adabiyot-da buni qisqacha L.A.Luns «Xalqaro xususiy huquq kursi»¹³⁷ da, batafsilroq esa uni V.P.Zvekov yaqinda chiqqan «Xalqaro xususiy huquq bo'yicha leksiyalar kursi»¹³⁸ da tahlil qilgan.

Masalan, 1990-yil 16-sentabrda D.Bebkok o'zining o'rtoqlari va umr yo'ldoshi Jekson (ularning barchalari Nyu-York shtati Rochester shahrida yashaydi) bilan birga Jeksonning mashinasida shanba va yakshanbaga Kanada bo'ylab safarga jo'nashadi. Ular bir necha soatdan keyin Kanadaning Ontario hududiga yetib kelgan-

¹³⁷ Луц Л.А. Курс международного частного права. Особенная часть. –М.: 1975. –С.362.

¹³⁸ Звекон В.П. Международное частное право. Курс лекций. –М.: 1999. –С.123.

larida mashina yo'ldan chiqib, yo'l yonidagi toshli devorga uriladi. Nyu-York shtatiga qaytishda jiddiy tan jarohatlari olgan D.Bebkok Jeksonga qarshi da'vo qo'zg'atadi hamda uni avtomobilni boshqarishdagi ehtiyotsizlikda ayblaydi.

Javobgar Jekson da'voga qarshi bo'ladi. Asos – ushbu holda qo'llaniladigan huquq halokat yuz bergan joy huquqi bo'lib, Ontarioning amaldagi qonunida nazarda tutilishicha, avtomashina egasi yoki haydovchisi, basharti u yo'lovchilarni (professional ravishda) haq evaziga tashimayotgan bo'lsa, mashinadagi har qanday shaxsning sog'lig'iga zarar yetkazganlik yoki uning o'limi uchun javobgar bo'lmaydi.

Bir qator sharhlovchilar ta'kidlaganidek, ushbu ishda yuzaga kelgan savol oddiy: – *lex loci delicti* yetkazilgan zararni qoplash mumkinligi haqidagi masalani hal qilishda hamisha qo'llanilishi yoki kollizion norma zararni undirishda yoki undirishni rad etishda muhim bo'lgan boshqa omillarni ham hisobga olishi kerakmi? o'sha vaqt uchun an'anaviy, AQSHning xalqaro xususiy huquq bo'yicha kitobida (*Restatement of Conflict Laws USA*) mavjud bo'lgan hamda sudlar tomonidan so'zsiz qo'llanilgan *lex loci delicti* kollizion normasi belgilab qo'yganki, zararni yetkazishdan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar zarar yetkazilgan joy huquqi bilan tartibga solinadi. Birinchi instansiyadagi sudda ish aynan ana shu tarzda hal etilgan hamda D.Bebkokka uning da'vosi bo'yicha rad etilgan.

Ammo, ish`appelatsiya tarzida shtat sudida ko'rilganda uning boshqa jihatlari ham yuzaga keladi. Shtatning appelyatsiya sudida ko'rib chiqishga doir boshqa yondashuvlarda aytilgani deliktning klassik vaziyatida tasodif emas, deb tuyulardi. Bu vaqtga kelib taniqli Amerika kollizionistlari V.Kuk, V.Riza, B.Karri, A.Erensveyg va boshqalarning ishlari e'lon qilinib, ularda o'sha vaqt uchun yangi bo'lgan kollizion huquqning konsepsiyalari o'z aksini topgan. Turli mualliflik yondashuvlarida bu nazariyalarni yagona g'oya birlashtirgan, ya'ni klassik kollizion normalarning qattiqligi va mo'ljallanganligini bartaraf etish hamda aniq nizolarni ko'rib chiqishda oqilona va adolatli yechimlarga erishishni ta'minlashi mumkin bo'lgan yangi mezon va tamoyillarni ishlab chiqish kabilar.

Tajribada xalqaro xususiy huquq sohasida yangi yondashuvlarni qo'llash huquqni qo'llaydigan organlar oldiga murakkab vazifalarni qo'yadi. Xalqaro xususiy huquqning ushbu muammosi – qattiq

kollizion normalardan voz kechish hamda adolatli va oqilona natijaga erishish maqsadida bu borada sud muhimroq rol o'ynaydigan egiluvchanlikni ishlab chiqish – xususiy huquq kardinal muammosining muhim qismidir: qonun va adolatning, qonun va sud nuqtayi nazarlarining nisbiyligi jamiyat oldida qonun paydo bo'lishi bilan birga vujudga keladi. Turli mamlakatlarda, turli tarixiy davrlarda, turlicha hal etilgan ushbu muammoni ma'lum bo'lgan quyidagi ibora to'g'ri ifodalaydi jus summa injuria (eng mukammal qonun – bu buyuk adolatsizlikdir)¹³⁹.

Hozirgi zamonda huquqning ham milliy, ham konvension jihatdan rivojlanishi huquqqa hamda qonun va sudlar o'rtasidagi nisbatga bo'lgan yondashuvga yetarli e'tibor berganlarning haqligini tasdiqlamoqda. Hozirgi zamondagi fuqarolik va xalqaro xususiy huquq «adolat», «oqilona», «odatda» kabi iboralardan keng foydalanadi. Ushbu kategoriyalardan foydalanish sud va arbitraj tajribasi guvohlik qilganidek, sudning o'zboshimchaligiga olib kelmadi, lekin hozirgi zamondagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarning adekvat tartibga solinishini ta'minlashga yordam berdi.

Bu yerda shunga e'tibor berish kerakki, qonunning o'zi ushbu kategoriyalar qo'llanishi lozim bo'lgan aniq doiralarni belgilaydi, bu esa qonunni qo'llashda aniqlik va oldindan bashorat qilishlikdan saqlashga ko'mak beradi. Shu o'rinda, Gollandiya yuristi P.Sxilfgardning Gollandiyaning yangi Fuqarolik kodeksi qabul qilinishi bilan bog'liq bo'lgan fikrini keltirish mumkin: «Huquq qoidalar majmuasiga qaraganda qandaydir kattaroq narsa bo'lib, u aslida ko'pchilik ishtirok etuvchi doimiy «suhbatdir»¹⁴⁰. Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda esa quyidagi iborani ta'kidlab o'tish joiz: «haqiqat har doim bahsda aniqlanadi».

Nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan qaraganda, xalqaro xususiy huquqning asosiy institutlaridan biri hisoblanadigan shartnomadan tashqari majburiyatlar asosan zarar yetkazish oqibatida kelib chiqadigan barcha (huquqbuzarlik) delikt holatlarini bitta kodeks yoki qonun miqyosida qamrab olib bo'lmaydi. Bu holatlar behisobdir.

Masalan, jahon miqyosida adekvat biologik nazoratsiz ko'payish xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklarni himoya qilish uzoq muddatli vositalarining o'sib borayotgan ishlab chiqarish hajmi butunjahon

¹³⁹ Звеков В.П. Международное частное право. Курс лекций. –М.: 1999. –С.125.

¹⁴⁰ Право и арбитражная практика. Вып.1. –М.: 1997. –С.33.

xalqaro xavfsizlik muammosiga aylanmoqda. Ayrim hollarda shu narsa namoyon bo'ladiki, import qilingan oziq-ovqat mahsulotlarida inson sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan o'simliklardan himoya qilish vositalari mavjud bo'lgan. Turli pestitsidlar, detergenlar, farmatsevtika mahsulotlari, kosmetika, fertelayzerlar va hokazolarning katta miqdorlari odam organizmiga doim salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ham, organizmga nisbatan umumiy uzoq muddatli bo'lgan ta'sirlarni aniqlash uchun maxsus toksikologik tadqiqotlar talab etiladi. Shuning uchun xalqaro shartnomalar tuzish orqali yuqorida tilga olingan zararli mahsulotlar konsentratsiyasi miqdorining minimal yo'l qo'yiladigan mezonlarini aniqlash lozim. Bu muammolar barcha davlatlar tomonidan birgalikda hal etilishi lozimdir, chunki u hamma davlatlar manfaatiga tegishli.

Shu munosabat bilan, yuqorida tilga olingan xavfli mahsulotlarning salbiy ta'siridan jahon hamjamiyati turli davlatlari aholisini himoya qilish uchun qo'shma xalqaro huquqiy vositalar mexanizmlarini izlash va ishlab chiqish dunyo huquqshunoslari oldida turgan juda dolzarb muammodir.

Shu bilan birga hozirgi paytda xalqaro xususiy huquqda mavjud bo'lgan hamda kam o'rganilgan yana bitta muhim muammo haqida aytib o'tish lozim. Masalan, aksariyat hollarda milliy chegaralar suv qatlamlari havzalari bilan to'g'ri kelmaydi. Shu tariqa, chegara oldida vujudga keladigan ifloslanishlar qo'shni mamlakat hududlariga ham tarqalishi mumkin. Bu holda, yuqorida aytib o'tilganidek, u yoki bu davlat aholisi sog'lig'iga hamda shu davlatning ekologik xavfsizligiga zarar yetkazilgan taqdirda, zararni qoplash bilan bog'liq masalalarni huquqiy jihatdan hal qilish juda katta ahamiyatga ega.

Shu o'rinda qayd qilish lozimki, ayrim xalqaro savdo bitimlari, chunonchi, 1988-yildagi Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitim ehtimol keyinchalik 1989-yilgi Bazel konvensiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Masalan, konvensiyaning ayrim jihatlari Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitim eng qulay rejim bo'lgan mamlakatning ta'rifiga hamda uning milliy majburiyatlariga zid bo'lishi mumkin. Masalan, tovar yoki xizmat kabi bo'lgan turli xil xavfli chiqindilarning maqomi Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitim talqini bo'yicha yetarli darajada tushunarli emas. Birorta dastur xavfli chiqindilar bilan xom ashyo yoki mahsulot sifatida muomala qilish yoki chiqindilarga foydali moddiy tarkibiy qismlar yoki

ikkilamchi foydalanish uchun mahsulot sifatida qarash haqidagi ta'rifni taqdim etmagan, Dunyo bo'yicha chiqindilar harakatini aniqlash to'liq emas, shuningdek uning yaxlit emasligiga qaramasdan, ayrim bir xil vaziyatlarning tahlili bunday oqimlar tarqalishini tushunish uchun yetarli emasdir.

Oxirgi yillarda har yili xavfli chiqindilarning 6 mln. ortig'i milliy chegaralar orqali harakat qilgan. Bu chegaralararo harakatning ko'lami albatta oxirgi paytlarda hisobga olinganidan ham ko'proq bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, shuni tan olish kerakki, 1989-yildagi Bazel Konvensiyasi bo'yicha xavfli chiqindilarni eksport-import qilish bo'yicha cheklovlar amalda jahon bozorida ma'lum ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Har qanday holda bu konvensiya huquqiy javobgarlik hamda xavfli chiqindilar chegaralararo harakatidan kelib chiqadigan zarar uchun kompensatsiyalar va ulardan ozod etish bo'yicha protokolni qabul qilish orqali rivojlantirilishi lozim. Xavfli chiqindilarni xalqaro miqyosda yuklashni nazorat qilish masalasi hozirgacha ochiq qolmoqda.

XIX BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha shartnomadan tashqari majburiyat tushunchasining mazmuni nimadan iborat?

2. Kollizion normalar tuzilishi qanday va ular qaysi hollarda qo'llaniladi?

3. O'zbekiston Respublikasida va chet elda yetkazilgan zararga nisbatan qo'llaniladigan huquqning xususiyatlari va o'zaro farqi nimadan iborat?

4. Amaldagi (1997-yil 1-martda kuchga kirgan) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga xalqaro xususiy huquq munosabatlarini tartibga soluvchi qanday yangi normalar kiritilgan?

5. Sizning fikringizcha, hozirgi davrda xalqaro xususiy huquqning zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar instituti oldida qanday muammolar mavjud?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T.: «Adolat», 1996-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik huquqi. Darslik, (II-qism). –T.: «Adolat», 1999-yil, 547-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismiga sharhlar. III jild. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 1998-yil, 322, 356-bet.
4. Rahmonqulov H.R. Oldi-sotdi shartnomasi. –T.: «Adolat», 2000-yil, 32-bet.
5. Rahmonqulov H.R. O'zbekistonda xalqaro xususiy huquqning ahamiyati va vazifalari. //Davlat va huquq. №2, 2000-yil, 3-bet.
6. Богуславский М. Международное частное право. Учебник. 2-ое изд., –М.: Международные отношения. 1994. –С.243.
7. Додобаев Ю., Рахимов Г. Международное частное право. Учебное пособие. Изд. Фергана, 1999. –С.75.
8. Колосов Ю.М., Кузнецов В.И. и другие. Международное право. Учебник. Изд. 2-ое доп. и перераб. –М.: Международные отношения. 1998. –С.558, 569.
9. Топорнин Б.Н. Европейское право. Учебник. –М.: Юристь, 1998. –С.12.
10. Кабашова Е.В. К вопросу о современных проблемах международного частного права. //Государство и право. –М.: 2000. №8, –С.54.
11. Рузиназаров Ш.Н. Производство по делам с участием иностранных организаций, международных организаций и осуществляющих предпринимательскую деятельность иностранных граждан, лиц без гражданства //Хозяйство и право. –Т.: №1, 2001. –С.75.
12. Ерпылева Р.Ю. Понятие, предмет, система и источники международного частного права. –М.: Международное публичное и частное право. №1, 2002. –С.18-29.
13. Ro'zinazarov Sh.N. Xalqaro xususiy huquq me'yorlari bilan ashyoviy huquqlarning tartibga solinishi. Xo'jalik va huquq. №4. 2002. 36-43-betlar.
14. Хошимов В. Некоторые вопросы автономии воли сторон договора в международном частном праве. Общественные науки в Узбекистане. №3, 2001. –С.23-28.

OILA HUQUQI

1-§.Xalqaro xususiy huquq bo'yicha oila munosabatlarning tartibga solinishiga umumiy tavsif

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu holat quyida e'tiboringizga havola etilayotgan bir qator obyektiv xarakterdagi sabablar bilan bog'liqdir:

– aholi ko'chishining o'ta kuchayib ketganligi, shu jumladan bir mamlakat fuqarolarining u yoki bu mamlakatdan o'zga hamda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning bu mamlakatga erkin kirib kelishi;

– O'zbekiston fuqarolari bilan chet el fuqarolari o'rtasidagi (ish yuzasidan) amaliy va shaxsiy aloqalarning kuchayib borayotganligi.

O'zbekiston fuqarolarining chet el fuqarolari bilan nikoh tuzishlari sonining sezilarli darajada oshganligi, bitta oila a'zolarining turli davlatlar fuqarolari bo'lishi hollarining ko'payganligi yuqorida sanab o'tilgan holatlarning oqibatidir. Bunda xorijiy (xalqaro) element ishtirokidagi xilma-xil munosabatlar, ya'ni nikoh tuzishda, nikohning tugatilishida, nikohni haqiqiy emas deb topishda, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarda, ota-ona va bolalar o'rtasidagi mulkiy munosabatlarda tafovutlar yuzaga keladi.

Xalqaro xususiy huquqda xorijiy davlatlar fuqarolari bo'lgan shaxslar ishtirok etadigan munosabatlar, ya'ni masalan, ularning o'zaro nikoh tuzishlari yoki umumiy fuqarolikka ega bo'lmagan er-xotinning aliment to'lash to'g'risida bitim tuzishi xorijiy element ishtirokidagi munosabatlar deb ataladi.

Huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi, o'zgartirilishi yoki tugatilishi bilan bog'liq bo'lgan yuridik fakt chegaradan tashqarida sodir bo'lgan hollarda ham (masalan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida O'zbekiston fuqarolari o'rtasida nikohning tuzilishi yoki tugatilishi) chet el elementi bilan murakkablashgan oilaviy munosabatlar mavjud bo'ladi.

Oilaviy munosabatlar bilan murakkablashgan chet el elementi mavjud bo'lgan hollarda qaysi davlat huquqi qo'llaniladi va qaysi davlat organlari oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan u yoki bu masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga vakolatli, degan savollar yuzaga keladi. Bunday muammolar xalqaro xususiy huquq doirasiga tegishlidir.

U yoki bu masalani qanday hal etish lozimligi xususidagi to'g'ridan to'g'ri javobni, to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmani o'zida mujassam etmagan va qaysi qonunchilik qo'llanilishi lozimligini ko'rsatuvchi kollizion (to'qnashuv) normalar xalqaro xususiy huquqning asosini tashkil etadi. Bunday normalar turli manbalarda mavjuddir. Eng avvalo, bu O'zbekiston Respublikasining ichki qonunlaridir. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida kollizion normalardan tashkil topgan Maxsus bo'lim bor (VIII bo'lim. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish). O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtasidagi xalqaro shartnomalarda ham kollizion normalar mavjuddir.

Chet el elementi bilan murakkablashgan oilaviy munosabatlarning keng tarqalganligi O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar oilaviy qonunchiliklari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal etish muammosini keltirib chiqaradi, zero o'sha davlatlar fuqarolari O'zbekiston Respublikasi oila huquqining ta'sir doirasiga tez-tez tushib qola boshladilar, bu esa tegishli ravishda mamlakat hududidagi oilaviy munosabatlarda ularning huquqlarini ishonchli kafolatlash zaruriyatini keltirib chiqardi.

Ikkinchi tomondan, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarda O'zbekiston fuqarolarining, ayniqsa bolalarning qonuniy huquqlari va manfaatlariga rioya qilish masalasi muhimlikda yuqorida tilga olingan masalalardan qolishmaydi (Bu hol chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning o'zbekistonlik bolalarni farzandlikka olganlarida, otanonalar va bolalarning aliment majburiyatlarini tartibga solishda yaqqol ko'zga tashlanadi). Shu sababdan, oilaviy munosabatlarni tartibga solishda chet ellarning oila huquqi normalarini qo'llash imkoniyatiga yondashuvni tubdan o'zgartirish zaruriyati yuzaga keldi, zero bu masalaga nisbatan ilgari mavjud bo'lgan salbiy munosabat ko'pgina hollarda O'zbekiston fuqarolari hamda chet el fuqarolarining huquqlari va manfaatlarini cheklab qo'yishga olib kelgan edi.

1998-yilning aprelida O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingach, bu muammolar asosan hal etildi, bundan tashqari avval amalda bo'lgan qonunchilikdagi muammolarga ham barham berildi. Oila kodeksining «Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish», deb nomlangan VIII-bo'limida fuqaroligi bo'lmagan chet ellik shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligi va chet ellar oila huquqi normalarini qo'llash asoslari nazarda tutilgan. Shuningdek, agar ushbu munosabatlar xorijiy davlat hududi bilan bog'liq bo'lsa, nafaqat O'zbekiston fuqarolarining oilaviy munosabatlariga nisbatan, balki xorijliklarga nisbatan ham ushbu normalar qo'llaniladi.

2-§. Oila huquqi sohasidagi kollizion masalalar

Turli davlatlarning oila huquqlari moddiy-huquqiy normalari orasida katta xilma-xilliklar bor. Bu endi albatta, xorijiy element ishtirokidagi huquqiy munosabatlarning turli masalalarini hal etishda amalda kolliziyalarni, ya'ni qarama-qarshiliklar, to'qnashuvlarni vujudga keltiradi. «Kolliziya» so'zi («qonunlar kolliziyasi», «kollizion masala», «kollizion norma») bu yerda turli mamlakatlar qonunchiliklarining to'qnashuvini ifoda etadigan ibora sifatida ishlatilmoqda. (Xorijiy so'zlar lug'atida, Moskva, «Russkiy yozik», 1988, 241-bet, «kolliziya» so'zi qarama-qarshi nuqtayi nazarlar, intilishlar, manfaatlar to'qnashuvini anglatadi, deb izoh berilgan. «Kollizion huquq» degani esa xalqaro xususiy huquqning normalari bo'lib, ma'lum bir masalada to'qnash kelgan xorijiy va o'z davlati qonunlarida qaysi biri qo'llanilishini aniqlab beradi).

Iqtisodiy tuzumning o'ziga xosliklari bilan bir qatorda milliy, maishiy, diniy o'ziga xosliklar va an'analar ham oilaviy munosabatlarni tartibga solishga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Bir qator mamlakatlarning oila huquqiga erning oldidagi yakkahokimligi xosdir; er va xotinning oilada teng huquqli emasligi ko'pgina mamlakatlarda hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda. Bunday mamlakatlarning fuqarolik kodekslarida nikoh shartnomasi tuzish belgilab qo'yilgan. Bunday shartnoma asosan nikohdan avval tuziladi va unda xotinning mol-mulkiga erning huquqlari mustahkamlab qo'yiladi.

Ko'pgina davlatlar qonunchiliklarida yakka nikohlik (monogamiya) mustahkamlab qo'yilgan. Ammo Osiyo va Afrikaning ba'zi bir mamlakatlarida ko'p nikohlik (poligamiya) ham hozirgi kunlarga ta'rif beriladi va kelin uchun qalin puli to'lash kabi qadimiy an'analar saqlanib qolgan. Bunday qonunlarda ayolning turmushga chiqishi mumkin bo'lgan eng yosh chog'i ham belgilab qo'yilgan. Bir qator mamlakatlarning qonunlari va amaliyotida irqiy cheklashlar mavjud: bunday qonunlar bo'yicha turli irqqa yoki turli dinga mansub bo'lgan shaxslarning o'zaro nikoh tuzishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Sobiq Sovetlar Ittifoqida oila huquqi sotsialistik huquq prinsiplari asosida taraqqiy topgandi. Sovet oila huquqining o'ziga xosliklari, agar xalqaro shartnomalarda boshqacha holat belgilab qo'yilgan bo'lsa, kollizion masalalarda qat'iy hududiylikning o'rnatilishiga olib keldi. «Hududiylik» (har qanday holatlarda ham) xorijiy fuqarolar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan sud amalga oshirilmayotgan mamlakat qonunlari qo'llanilishini anglatgan.

Shunday qilib, amaliyotda, keyinchalik esa Sovet qonunchiligida ham sovet huquqiy tizimining boshqalardan ajralib turadigan jihatlari bog'liq ravishda bu tizimga «begona» chet el oila huquqi normalarining SSSRda amal qilishi nomaqbul ekanligi xususidagi nuqtayi nazar o'z ifodasini topdi. Mustaqillik qo'lga kimgach O'zbekiston Respublikasi oila huquqini xalqaro huquq normalari asosida o'zining barqaror an'analari va odatlariga mos ravishda rivojlantirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan «oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir» (63-modda).

Quyidagilar oilaviy munosabatlar sohasidagi konstitutsiyaviy tamoyillar hisoblanadi:

- erkak va ayolning teng huquqliligi;
- nikoh tuzishning erkinligi;
- nikoh tuzayotgan shaxslarning teng huquqliligi;
- ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar farzandlarning qonun oldida tengligi;
- yetim bolalarning va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishning kafolatlanganligi;
- onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza qilinishi.

Asosiy qonunga mos ravishda davlat quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- oilani muhofaza qilishni;
- yetim bolalar va ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashni;
- yetim bolalar va ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantirishni.

O'zbekiston Respublikasida oila, onalik va bolalikning konstitutsiyaviy muhofazasi inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarga muvofiqdir. Ona va bola manfaatlarini himoya qilish qonunlar bilan ta'minlanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 4 milliondan ortiqroq oila mavjud. Har yili 250 mingga yaqin yosh oilalar paydo bo'lmoqda, 710 ming chaqaloq tug'ilmoqda. O'zbekistondagi oilalar o'rtacha 5-6 kishidan iboratdir. Aholining asosiy qismini bolalar va yoshlar tashkil etadi. Oilalarning 12 foizdan ko'prog'ida o'n va undan ko'proq bolalar bor, qishloq joylarida esa bu ko'rsatkich 20 foizni tashkil etadi. Aholining 60 foizidan ko'prog'ini bolalar, o'smirlar va 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Respublika aholisining yarmidan ko'prog'i (52 foizi) ayollar va qizlardan iborat. Oila jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi xususida so'z yuritilar ekan, turli jamg'armalar va jamoat tashkilotlari tomonidan oilaga ham moddiy, ham ma'naviy yordam berilishi anglashiladi. Bunday jamg'armalar qatoriga «Bolalar Jamg'armasi», «Mahalla Jamg'armasi», «Navro'z», «Ekosan», «Orol», «Sharof Rashidov nomidagi jamg'arma», «Qizil xoch va qizil yarimoy jamiyati» va boshqalar kiradi. Oilaviy sharoitlarni hisobga olgan holda davlat tomonidan 14 xildan ko'p turli nafaqalar ta'sis etilgan. Keyingi yillarda O'zbekistonda 2,5 million oila ilk bor yer uchastkalari oldi yoki ularni kengaytirdi. Hozirgi vaqtda yer uchastkasi maydonini 0,25 gektarga yetkazish nazarda tutilmoqda.

O'zbekistondagi oilalarning ko'p bolalik ekanligini hisobga olgan holda 16 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun nafaqa berishning umumiy adresli tizimi ishlab chiqildi va 1997-yil 1-yanvardan boshlab amalga kiritildi. Oiladagi balog'atga yetmagan bolalarning soniga bog'liq ravishda nafaqalar miqdori differensiyalashgandir.

Adresli davlat yordamini ta'minlash maqsadida 1994-yil 1-oktabrdan boshlab ilk bor kam ta'minlangan oilalarga nafaqa to'lanadi boshlandi. Bu nafaqalar davlat budjeti hisobidan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla qo'mitalari) tomonidan tayinlanadi va to'lanadi. Eng kam ish haqining 1,5 dan 3 barobarigacha miqdordagi moddiy yordam sifatidagi nafaqa oilaga uch oy davomida to'lanadi.

Ushbu muddat davomida oilaning moddiy holati yaxshilanmasa, qaytadan yangi muddatga nafaqa tayinlanadi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 797000 kam ta'minlangan oila borligi aniqlangan. Bu raqam umumiy oilalar sonining 16,7 foizini tashkil etadi. Bu oilalarga 1 milliard so'mdan ko'proq miqdorda nafaqa to'langan.

Shunday qilib, bizning mamlakatimizda oila muhofazasi o'ta xilma-xil qonunlar qabul qilinishi hamda oilalarga jamg'armalar va jamoat tashkilotlari tomonidan moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan mamlakatda «Sog'lom avlod uchun» ordeni ta'sis etilgan. Onalik va bolalikni muhofaza qilishda alohida xizmatlar ko'rsatgan, sog'lom avlodni taraqqiy ettirishda eng yaxshi moddiy va axloqiy shart-sharoitlar yaratishni ta'minlagan shaxslar «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan taqdirlanadilar. Millati, irqi, dinga munosabatidan qat'i nazar oilaviy munosabatlarda fuqarolarining teng huquqliligi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ham nikoh shartnomasi to'g'risida qoidalar bor (29-36-moddalar). Bu qoidalarga binoan, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va yoki er va xotin nikohdan ajralgan taqdirda ularning mulkiy huquqi hamda majburiyatlarini belgilovchi bitimi nikoh shartnomasi deb hisoblanadi. Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingunga qadar ham, er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o'zgartiri lishi yoki bekor qilinishi mumkin (Oila kodeksining 32-moddasi). Nikoh shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uning o'zgartirili shi yoki bekor qilinishi ham shunday shaklda amalga oshiriladi. Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluv qarori bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bundan tashqari, nikoh shartnomasi sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha to'la yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin (Oila kodeksining 33-moddasi).

Oila kodeksidan tashqari (VIII bo'lim. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish) O'zbekiston Respublikasining ko'ptomonlama va ikkitomonlama xalqaro shartnomalari ham chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni

huquqiy tartibga solish manbalari hisoblanadi. Masalan, irqi, terisining rangi, tili, milliy kelib chiqishi hamda boshqa qandaydir holatlardan qat'i nazar, kamsitishlarning har qanday shaklidan bolani muhofaza qilishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar to'g'risidagi, shuningdek, bolaning manfaatlarini eng yaxshi ta'minlash, jumladan, fuqarolarni farzandlikka olish huquqi, bolalarni noqonuniy tarzda chegaradan o'tkazish va qaytarish to'g'risidagi prinsipial qoidalar BMTning 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan «Bolalarning huquqlari to'g'risida»gi konvensiyasiga kiritilgan. Bu konvensiya 1990-yil 2-sentabrdan boshlab kuchga kirdi. 1996-yil 31-may holati bo'yicha konvensiyada 187 ta davlat, shu jumladan O'zbekiston ham ishtirok etmoqda.

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi ham xorijiy fuqarolar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasining MDH davlatlari bilan bo'lgan munosabatlarida 1993-yil 22-yanvarda Minsk shahrida imzolangan Huquqiy yordam va fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiya hamda shu konvensiya yuzasidan 1977-yil 28-martda qabul qilingan, oila huquqlarining alohida normalari tilga olib o'tilgan Protokol birinchi darajali o'rin tutadi. Oila huquqining ko'pgina masalalari O'zbekiston Respublikasining dunyoning bir qator mamlakatlari bilan tuzilgan fuqarolik, oila, jamiyat ishlarini hal etish borasida huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi ikkimonlama shartnomalarida ham ko'rib chiqilgan.

Zamonaviy sharoitlarda faoliyati kollizion oila huquqi normalarini kodifikatsiya qilishga qaratilgan hukumatlararo tashkilotlarning ahamiyati kattadir. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi ko'pgina mamlakatlar uchun ayniqsa muhim o'rin tutadi. Unda ishlab chiqilgan va qabul qilingan barcha konvensiyalarning uchdan bir qismidan ko'prog'i kollizion oila huquqiga taalluqlidir. Ular orasida 1978-yil 14-martda qabul qilingan nikoh tuzish haqiqiylikini tan olish to'g'risidagi konvensiyani hamda er-xotinning mol-mulki rejimlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqi to'g'risidagi konvensiyani, 1980-yil 25-oktabrda qabul qilingan bolalarni xalqaro

o'g'irlashning fuqaroviy jihatlari to'g'risidagi konvensiyani va 1993-yil 29-mayda qabul qilingan bolalarni himoya qilish va xorijiy farzandlikka olish borasida hamkorlik qilish to'g'risidagi konvensiyani tilga olib o'tish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, oilaviy qonunchiliklarida tafovutlar bo'lgan mamlakatlarning fuqarolari o'zaro nikoh tuzganlarida kollizion masalalarni hal etish ma'lum ahamiyat kasb etadi. Taraqqiy etgan mamlakatlardagi oila huquqining kollizion normalari katta xilma-xillikka ega ekanliklari bilan ajralib turadi. Nikohga taalluqli huquq layoqati, ya'ni nikoh tuzish huquqining o'zi, nikoh tuzish uchun har xil to'siqlarning yo'qligi – bularning barchasi bir qator mamlakatlarda er va xotinning har birining o'zaro fuqarosi hisoblangan davlatda amalda bo'lgan qonunlar bilan aniqlanadi. Turli mamlakatlar fuqarolari bo'lgan er-xotin o'rtasidagi nikoh tugatiladigan hollarda bir qator mamlakatlarda er fuqarosi bo'lgan mamlakat qonunlari qo'llaniladi.

Bir davlat hududida nikoh tuzilgan joy qonunlariga mos ravishda tuzilgan nikoh boshqa bir mamlakatda tan olinmasligi mumkin.

Er va xotinning mulkiy munosabatlari bir qator mamlakatlarda er fuqarosi bo'lgan mamlakat qonunlariga binoan hal etiladi.

Ko'plab davlatlarda bir qator kollizion masalalar hal etiladi. Vengriya Respublikasi Xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi qonunning 31-paragrafi bo'yicha nikoh haqiqiylikning moddiy-huquqiy shart-sharoitlari nikoh tuzuvchilarning «umumiy shaxsiy qonuni» bilan tartibga solinadi. Agar bu shaxslar fuqarolikda turgan davlatlarning qonunlari turlicha bo'lsa, «har ikki tomon qonunlari bo'yicha haqiqiylik sharti mavjud» bo'lgan hollardagina nikoh haqiqiy deb hisoblanadi. Vengriyada nikoh shakliga nisbatan nikoh tuzilgan joy huquqi qo'llaniladi.

Xitoy Xalq Respublikasida XXR fuqarosi chet ellik bilan nikoh tuzayotganda nikoh tuzilayotgan joy qonuni qo'llaniladi, nikoh tugatilayotganda esa ishni ko'rib chiqish uchun qabul qilingan sud joylashgan joy qonuni qo'llaniladi (XXRning 1986-yilda qabul qilingan «Fuqarolik huquqi umumiy qoidalarini»ning 147-moddasi).

Vengriya va Serbiyada nikohni tugatish masalalarini hal etishda, qoida bo'yicha, er va xotinning davlatlardagi fuqarolik qonunlari asos bo'lib xizmat qiladi.

Rossiya Oila qonunchiligining xorijiy element ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga taalluqli normalari an'anaviy ravishda asosiy

federal sohaviy hujjatga kiritilgandi: 1996-yilgacha RSFSRning Nikoh va oila to'g'risidagi kodeksning 5-bo'limi amalda bo'ldi. Uning normalari SSSR va ittifoqdosh respublikalarning nikoh va oila to'g'risidagi qonunchilik asoslarining tegishli 5-bo'limi qoidalarini amalda aynan takrorlardir. Rossiya Federatsiyasining kodifikatsiyalangan federal qonun bo'lmish yangi Oila kodeksiga «Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan oila qonunchiligini qo'llash» degan VII bo'lim kiritilgan. Uning normalari RSFSRning ilgari amalda bo'lgan Nikoh va oila to'g'risidagi kodeksining V bo'lim qoidalaridan tubdan farq qiladi.

Rossiya Federatsiyasining Oila kodeksidagi 156-167-moddalarida aytilishicha, RF hududida nikoh tuzishning shakli va tartibi Rossiya Federatsiyasi qonunlari bo'yicha belgilanadi. Agar chet el fuqarosi bo'lgan shaxs bir vaqtning o'zida Rossiya Federatsiyasining ham fuqarosi bo'lsa, nikoh Rossiya Federatsiyasi qonunlari bo'yicha tuziladi. Agar shaxs bir qancha xorijiy davlatlar fuqaroligiga ega bo'lsa uning xohishi bo'yicha o'sha davlatlardan birining qonunchiligi qo'llaniladi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxsning Rossiya Federatsiyasi hududida nikoh tuzishi o'sha shaxs doimiy turarjoyga ega bo'lgan davlat qonunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Rossiya Federatsiyasi hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan RF fuqarolari Rossiya Federatsiyasining diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida nikohdan o'tadilar. Rossiya Federatsiyasi hududidagi xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida tuzilgan chet elliklar o'rtasidagi nikoh, nikohlanuvchilar nikoh tuzish paytida Rossiya Federatsiyasiga elchi yoki konsul jo'natgan xorijiy davlatlarning fuqarolari bo'lgan taqdirdagina o'zaro kelishuv sharti bilan haqiqiy hisoblanadi (RF Oila kodeksining 157-moddasi). Boshqa moddalarida quyidagi holatlar bayon etilgan:

«Rossiya Federatsiyasi hududida tashqarida tuzilgan nikohlarning tan olinishi» (158-modda), «Nikohning tugatilishi» (160-modda), «Er va xotinning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlari va majburiyatlari» (161-modda), «Otalik (onalik)ning belgilanishi va shu xususda nizolashish» (162-modda), «Ota-onalar va bolalarning huquqlari va majburiyatlari» (163-modda), «Balog'atga yetgan farzandlar va oilaning boshqa a'zolarining alimentga oid majburiyatlari» (164-modda), «Farzandlikka olish» (165-modda), «Xorijiy oila

huquqi normalari mohiyatini aniqlash» (166-modda), «Xorijiy oila huquqi normalarini cheklash» (167-modda).

1997-yil 15-noyabrda qabul qilingan «Fuqarolik holati aktlari to'g'risida»gi Federatsiya qonunida hamda 1998-yil 5-noyabrda RF Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan Rossiya Federatsiyasining konsullik muassasalari to'g'risidagi Nizomda ham xorijiy element ishtirokidagi oilaviy munosabatlar xususida so'z yuritilgan.

Rossiya Federatsiyasining ko'ptomonlama, shuningdek ikkito-monlama xalqaro shartnomalari ham chet el fuqarolari ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish manbayi bo'lib xizmat qiladi. Rossiyaning quyida tilga olingan bir qator mamlakatlar bilan fuqarolik, oila va jinoyat ishlarini hal etish bo'yicha o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi ikkito-monlama shartnomalarda ham oila huquqi masalalari hal etib berilgan:

Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Vyetnam, KXDR, Kuba, Mongoliya, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya (1982-yildan beri Chexiya va Slovakiya), Yugoslaviya bilan; shuningdek, Ozarbayjon, Gruziya, Qirg'iziston, Latviya, Litva, Moldaviya, Estoniya bilan.

Oila huquqi kolliziyalarini tartibga solish va bu shartnomalarda ko'rib chiqiladigan masalalar doirasi MDH davlatlarining 1993-yil 22-yanvarda qabul qilingan konvensiyasi orqali tartibga solinadigan masalalar doirasiga ancha yaqindir.

Jahon hamjamiyatida xuddi O'zbekiston va boshqa sobiq sovet respublikalari statusi o'zgarganligi singari Rossiya statusining o'zgarganligi, ochiq jamiyat usuliga o'tilganligi, Konstitutsiyada yangi ustuvorliklarning mustahkamlab qo'yilganligi xorijiy element ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan muhitni aniqlash usuliga yondashuvni tubdan o'zgartirib yubordi. Masalan, Rossiya Federatsiyasining yangi Oila kodeksida, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida qonun chiqaruvchi bog'lanishlarni tanlashda birinchi navbatda munosabatlarning ma'lum turining u yoki bu davlat bilan, shu jumladan xorijiy davlat bilan ko'proq yoki kamroq uzviy aloqasini e'tiborga olgan. Sud qonuniga bog'liqlikdan foydalanish doirasi ancha toraytirilgan. Albatta, turli oilaviy mu nosabatlarga nisbatan, aytaylik, Rossiya qonunlarini qo'llash o'sha munosabatlar ishtirokchilarining, shu jumladan, chet ellardagi Rossiya fuqarolarining ham manfaatlariga zid kelib qoldi. Shunday qilib, chet el huquqini qo'llamaslik shunga olib keldiki, er fuqarolikda turgan davlatning qonunlari yetakchi deb

tan olinadigan davlatlarda Rossiya muassasalarining, masalan, nikoh tuzilganligi to'g'risidagi tegishli hujjatlari tan olinmasligi va hayotga tatbiq etilmasdan qoladigan bo'ldi. Bu esa «oqsoqlanadigan», ya'ni bir mamlakatda tan olinib, ikkinchi mamlakatlarda tan olinmaydigan nikohlarni vujudga keltirdi. ko'rib turganimizdek, RFning yangi oila kodeksida qonun chiqaruvchi kollizion normalarni shakllantirishda ma'lum munosabatlar bilan ma'lum huquqiy tizim o'rtasidagi aloqani, bog'liqlikni eng ko'p darajada aks ettiradigan yechimlarni axtargan. O'zbekiston Respublikasida ham qonun ijod qilishning shu yo'lidan foydalaniladi.

O'zbekistondagi kollizion oila huquqi taraqqiyotining ikkinchi yo'nalishi xorijiy element ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni qonuniy tartibga solish doirasining kengaytirilishidir. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida nikohning haqiqiy emasligi, er va xotinning shaxsiy mulkiy va nomulkiy munosabatlari, ota-onalar va bolalarning huquqlari va majburiyatlari, balog'atga yetgan farzandlar va boshqa oila a'zolarining aliment majburiyatlari singari oila qonunchiligidagi muammolar hal etib berildi.

Bu sohadagi qonuniy tartibga solishning kengaytirilganligi, kollizion normalarning yanada batafsillashtirilganligi jahon an'analariiga mos kelishini aytib o'tish lozim. Zero, ko'plab xorijiy davlatlarda kollizion oila huquqi normalari yangilangan va batafsillashtirilgan hamda Avstriya, Vengriya, Lixtenshteyn, Turkiya, Shveysariya kabi davlatlarda xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi yangi qonunlarga yoxud oila yoki Fuqarolik kodekslariga kiritilgan.

3-§. Nikoh tuzish

1. O'zbekiston Respublikasida mamlakat fuqarolarining chet elliklar bilan nikoh tuzishlari.

Xalqaro hamkorlikning hozirgi shart-sharoitlarida O'zbekiston fuqarolarining chet elliklar bilan tuzayotgan nikohlari soni oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Bunday nikohlarning tuzilishi o'z navbatida bolalar va ularning ota-onalarining turli mamlakatlar fuqaroligida bo'lishlari soni ko'payib ketishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda respublika fuqarolari bilan chet elliklar o'rtasida, chet elliklar bilan chet elliklar o'rtasida, shu jumladan turli mamlakatlar fuqarolari o'rtasida tuzilgan nikohlar qayd etildi. Qonunchiligimizda O'zbekiston fuqarolarining chet elliklar bilan

nikoh tuzishlari yoki shunday nikoh uchun ruxsatnoma olishlari ta'qiqlanmagan.

O'zbekiston Respublikasi hududida fuqarolarimiz chet el fuqarolari bilan, chet el fuqarolari esa o'zaro O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 3-bobida ko'rsatib o'tilgan tartiblar va shartlarga amal qilgan holda O'zbekiston qonunlariga binoan nikoh tuzadilar. Kodeksning 234-moddasida bu to'g'rida shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasida doimiy turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uning hududidagi oilaviy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlardan foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar». Boshqacha aytadigan bo'lsak, ushbu sohada «nikoh tuzilgan joy» kollizion prinsipi qo'llaniladi. Nikoh qonunchiligimizda nazarda tutilgan shaklda tuziladi, ya'ni fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida, qayd etish uchun belgilangan qoidalarga mos ravishda tuziladi. O'zbekistonda diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh yuridik oqibatlarga olib kelmaydi. Bu haqda Oila kodeksining 13-moddasi, 2-qismida ochiq-oydin aytib qo'yilgan: «Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.» Shu moddaning 3-qismida esa nikoh tuzish uchun nikohlanuvchilarning shaxsan o'zlari rozilik berishlari lozimligi aytiladi: «Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza berganlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.»

Ispaniya, Peru va shunga o'xshagan bir qancha mamlakatlarda esa nikoh tuzish uchun nikohlanuvchilar ma'lum bir kishini vakil qilib, unga vakolatnoma berishlari mumkin. Bizning qonunimizda esa, ko'rinib turibdiki, bunday vakillikka yo'l qo'yilmaydi.

Chet ellik shaxslarning O'zbekiston Respublikasida nikoh tuzishlarining tartibi va shartlari ham ularning milliy qonunlari bo'yicha emas, balki O'zbekiston qonunlari bo'yicha belgilanadi, ya'ni:

- nikoh ixtiyoriy ravishda tuziladi;
- nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziliklarini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim;
- nikoh tuzishga majbur qilish ta'qiqlanadi;
- nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilanadi; to'g'ri, uzrli sabablar bo'lgan alohida hollarda nikoh tuzishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan

o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining oila kodeksidagi 16-moddada belgilab qo'yilganidek, nikohlanuvchilardan loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan bo'lsa, nikoh tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Aynan shu sababdan ko'pxotinli bo'lishga ruxsat berilgan mamlakat fuqarosi O'zbekiston respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohda turgan bo'lsa, O'zbekistonda nikoh tuzishga haqli emas. Shunday qilib, chet ellik shaxs, garchi uning mamlakatida ko'pxotinli bo'lishga yo'l qo'yilsa-da, O'zbekistonda nikohni qayd etishlarini talab qilolmaydi. Turkiya, Eron singari musulmon mamlakatlarida ko'pxotinlikka yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi hududida chet elliklar nikoh tuzayotganlarida xuddi o'zimizning fuqarolarimiz nikoh tuzayotganliklaridagi kabi nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarning bor-yo'qligi va ayniqsa, nikohlanuvchilarning boshqalar bilan nikohda turish-turmasligi tekshirib ko'riladi. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar to'g'risida xabar berish majburiyati nikohlanuvchilar zimmasidadir. Gap O'zbekiston fuqarosi to'g'risida ketar ekan, uning pasportida nikohning qayd etilganligini tasdiqlovchi to'rtburchak muhr izining yo'qligi nikohlanuvchi shaxsning yana boshqa bir nikohda turmasligidan dalolatdir. Hujjatlarida oilaviy ahvol to'g'risida hech qanday ma'lumot yozilmaydigan chet elliklar tuzayotgan nikohlar qayd etilganda, ular nikohni qayd etayotgan muassasa talabi bo'yicha o'zlari fuqarolikda turgan mamlakatlarning vakolatli organlari tomonidan beriladigan, o'zlarining nikohda turmasligi (boshi ochiqligi) to'g'risidagi dalolatnomani taqdim etishlari lozim. Amalda bunday dalolatnomalar tegishli davlatlarning O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi yoki vakolatxonasi tomonidan beriladi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 16-moddasida nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar sanab o'tilgan:

Shunday qilib:

– loaqal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o'rtasida;

– nasl-nasab shajarasi bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek, farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

– loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasallik yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Chet ellik shaxs fuqarolikda turgan mamlakat qonunlari bilan belgilab qo‘yilgan, ammo bizning huquqimizga noma‘lum bo‘lgan ta‘qiqalar chet elliklarning O‘zbekiston Respublikasida tuzadigan nikohlarini qayd etmaslikka asos bo‘lolmaydi (Irqiyl va diniyl cheklashlar, ota-onalarning tuzilajak nikohdan noroziligi va boshqalar; masalan, Jazoir Xalq Demokratik Respublikasining 1984-yilda qabul qilingan Oila kodeksining 31-moddasiga binoan musulmalarning nomusulmonlarga (g‘ayridinlarga) turmushga chiqishi taqiqlanadi).

2. Vakolatxonalarda tuziladigan nikohlar.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo‘yicha O‘zbekiston hududida joylashgan chet el diplomatik va konsullik vakolatxonalarida tuziladigan nikohlar qayd etilishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlarning O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan elchixonalarida va konsullik vakolatxonalarida chet el fuqarolari o‘rtasida tuziladigan nikohlar, agar bu shaxslar nikoh tuzilayotgan vaqtda O‘zbekistonda o‘z elchixonasini yoki konsullik vakolatxonasini ochgan davlat fuqarolari bo‘lsalar, o‘zaro kelishuv asosida haqiqiy deb tan olinadi. Bundan kelib chiqadigan ma‘no shuki, bizning hokimiyat organlarimiz bunday nikohlarni haqiqiy deb tan olishlari uchun quyidagi shartlar mavjud bo‘lishi lozim:

– o‘zaro kelishuv mavjud bo‘lsa, ya‘ni O‘zbekiston Respublikasining tegishli xorijiy davlatdagi elchixonasi yoki konsullik vakolatxonasi O‘zbekiston fuqarolari tuzadigan nikohni qayd etishga yo‘l qo‘yilsa;

– nikohlanuvchilarning har ikkalasi ham diplomatik yoki konsullik vakolatxonalarini ochgan xorijiy davlat fuqarosi bo‘lsa.

Boshqa mamlakatlar bilan tuzilgan konsullik konvensiyalarida konsulning o‘z mamlakati fuqarolari o‘rtasida tuzilgan nikohlarni qayd etishi aytib o‘tiladi. Bunday konvensiyalarning aksariyatida aytilishicha, agar nikohlanuvchilarning har ikkalasi ham konsul vakili bo‘lmish mamlakat fuqarolari bo‘lsa, konsul o‘sha davlat qonunlari bo‘yicha ularning nikohini qayddan o‘tkazishga haqlidir.

Faqat ba‘zi bir bitimlardagina bu qoida sal boshqacharoq izohlangan. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasining konsullik konvensiyasiga ko‘ra, «konsulxona joylashgan mamlakat qonunlariga zid kelmagan taqdirdagina konsul o‘z fuqarolari tuzadigan nikohni

vakolatxonada o'z davlati qonunlariga mos ravishda qayddan o'tkazish huquqiga egadir».

Finlandiya bilan tuzilgan konvensiyada ko'rsatilishicha, konsul o'zi vakil bo'lgan davlat tomonidan vakolatlangan hamda konsull-xona joylashgan mamlakat qonunlariga rioya qilinadigan hollardagina nikohlarni qayddan o'tkazadi.

Konsullik konvensiyalarida mahalliy shart-sharoitlar taqozo qiladigan bo'lsa konsullikda qayddan o'tkazilgan nikohlar to'g'risida mahalliy organlarni xabardor etish nazarda tutiladi. AQSHning konsullik konvensiyasiga binoan, nikohlanuvchilar yoki nikohni bekor qiluvchilarning har ikkalasi ham AQSH fuqarolari bo'lsalar hamda bu hol konsull-xona joylashgan davlat qonunlarida man etilmagan bo'lsa, konsullar nikohlar tuzilganligini va bekor qilinganligini qayddan o'tkazishlari hamda AQSH fuqarolaridan oilaviy munosabatlarga taalluqli arizalar qabul qilishlari mumkin.

Quyidagi holatga ham e'tibor berish kerak: nikohni qayddan o'tkazgan elchi yoki konsulni jo'natgan mamlakatda O'zbekistonning o'sha yerdagi diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasida qayddan o'tkazilgan nikohlar haqiqiy deb tan olingan taqdir-dagina o'zaro kelishuvga rioya qilingan deb hisoblanadi. O'zaro muvofiqlik tegishli xorijiy davlat qonunchiligida yoki O'zbekiston Respublikasi bilan tuzilgan xalqaro shartnomalarda o'z ifodasini topishi mumkin.

Konsull-xonalarda tuzilgan nikohlarni haqiqiy deb tan olar ekan, O'zbekiston Respublikasi muassasalari nikohning haqiqiyli-gi xususidagi O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida nazarda tutilgan barcha shartlarga rioya qilingan yoki qilinmaganligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqmaydi. Bu shartlar to'liq ravishda tegishli chet el qonuni bilan aniqlanadi.

Tilga olingan shartlardan ikkinchisi, ya'ni nikoh tuzilayotgan paytda nikohlanuvchilarning har ikkalasi ham elchi yoki konsul jo'natgan davlatning fuqarosi bo'lishi lozimligi konsull-xonada «aralash» nikohlar tuzilishi imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Nikohlanuvchilarning har ikkalasi aynan elchi yoki konsul jo'natgan mamlakatning fuqaroligida bo'lishi talab etiladi.

3. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni e'tirof etish.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari respublika hududida ham, uning hududidan tashqarida ham chet elliklar bilan nikoh tuzishlari

mumkin. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 235-moddasida shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonun hujjatlariga rioya qilingan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikohlar, agar ushbu Kodeksning 16-moddasida nazarda tutilgan, nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar mavjud bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el fuqarolari o'rtasida boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonun hujjatlariga rioya qilingan holda tuzilgan nikohlar O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi»¹⁴¹.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashayotgan fuqarolarimiz tegishli xorijiy davlatdagi O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasida tuzgan nikohlarini qayddan o'tkazaveradilar. Agar elchixonada joylashgan davlatda O'zbekiston fuqarosi chet ellik bilan tuzadigan nikoh ham haqiqiy deb tan olinsa, konsul bunday nikohlarni ham qayddan o'tkazaveradi. Bunday nikohlar tuzilayotgan paytda konsullimiz, albatta, O'zbekiston qonunlarini, shu jumladan O'zbekistonning kollizion normalarini ham qo'llaydi.

Davlatimiz xorijiy davlatlar bilan tuzgan bir qator konsullik konvensiyalarida konsulning nikohlarni hamda fuqarolik holatining boshqa hujjatlarini qayddan o'tkazish huquqi nazarda tutilgan. O'zbekiston fuqarolari respublika hududidan tashqarida va xorijiy davlatlarning vakolatli organlarida nikohdan o'tishlari mumkin. Bu yerda gap endi ikkita O'zbekiston fuqarosi o'rtasidagi, respublikamiz fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi nikohlar to'g'risida ketmoqda. Nikoh tuzilgan joy qonunlariga rioya qilingan bo'lsa, xorijiy davlatlar organlarida tuzilgan nikohlar ham O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb tan olinadi. Bunda endi nikohning shakllari va nikoh tuzish shartlari to'g'risidagi qonunchilikning ko'rsatmalari nazarda tutilmoqda. Shunga binoan, masalan biror xorijiy davlatlarda diniy shaklda tuzilgan nikoh, agar bu mamlakatda shunday nikohlar yuridik kuchga ega bo'lsa, O'zbekistonda ham haqiqiy deb tan olinishi lozim.

¹⁴¹ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. –T.: «Adolat», 1998-yil, 137-bet.

O'zbekiston hududidan tashqarida chet el fuqarolari o'rtasida tuzilgan nikohga keladigan bo'lsak, ularga nisbatan mamlakatimiz qonunchiligidagi nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarga qattiq rioya qilib o'tirmasdan, tegishli chet el qonunlariga rioya qilingan bo'lsa yetarlidir. Shu sababdan, nikoh tuzilgan mamlakatda nikohlanuvchilardan birining boshqa bir nikohda turganligi nikoh tuzishga monelik qiladigan holat deb hisoblanmasa, bizning mamlakatimizda bu ikki chet el fuqarosi o'rtasida tuzilgan nikohni tan olmaslikka qoida bo'yicha hech qanday asos bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan hamda O'zbekistonda haqiqiy deb tan olingan nikohlar xuddi O'zbekiston Respublikasida tuzilgan nikohlar singari yuridik kuchga ega bo'ladi va xuddi shunday huquqiy oqibatlariga olib keladi.

4. Nikohning haqiqiy emasligi.

O'zbekiston fuqarosining respublika hududida chet ellik shaxs bilan oila qurish maqsadini ko'zlamay tuzgan nikohiga nisbatan soxta nikohlarni haqiqiy emas deb topilishi to'g'risidagi mamlakatimiz qonunchiligi qoidalari to'liq ravishda qo'llaniladi. O'tmishda (sovetlar davrida) ham amaliyotda shunday nikohlar uchrab turgan. Ularning maqsadi oila qurish emas, balki o'sha paytda SSSRda amalda bo'lgan kirish va chiqish qoidalarini chetlab o'tish bo'lgan.

Sovet qonunchiligida chet elliklar bilan tuzilgan nikohlarning haqiqiylikiga taalluqli kollizion normalar bo'lmagan, nikohni bekor qilish to'g'risidagi xorijiy qarorlarni tan olish amalda uchrab turgan.

Nikoh tuzishga taalluqli kollizion normalarning o'zgarishi bilan uning haqiqiy emasligi shartlarini aniqlashga yondashuv ham o'zgardi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksidagi 49-moddada shunday deyiladi: «Ushbu Kodeksning 14-16-moddalarida hamda 17-moddasining uchinchi qismida belgilangan shartlar buzilgan taqdirda, shuningdek soxta nikoh, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay tuzgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi».

Soxta nikohni haqiqiy emas deb topishni prokuror talab qilishga haqli, er yoki xotin oila qurish maqsadisiz nikohga kirgan hollarda esa bunday talab ulardan oila qurish maqsadida nikohga kirgani tomonidan ham qo'yilishi mumkin (Oila kodeksining 54-moddasi 2-qismi).

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalarida ham nikohni haqiqiy

emas deb topish to'g'risidagi kollizion normalar mavjud, ularda nikoh tuzilishida qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq ham aniqlab berilgan. 1993-yil 22-yanvarda qabul qilingan MDH davlatlari Konvensiyasida va boshqa shartnomalarda nikoh tuzilishida qaysi davlat huquqi qo'llanilishi kelishib olingan.

Ko'rinib turibdiki, bu yerda kollizion masalani hal etish xuddi O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 56-moddasida aytilganidek amalga oshiriladi. Xorijiy davlatlarda ham, qoida bo'yicha, aynan shu prinsip amal qiladi.

4-§. Nikohning tugatilishi

O'zbekiston Respublikasi hududida fuqarolarimizning chet el fuqarolari bilan tuzgan nikohlari O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 236-moddasiga binoan umumiy asoslarda tugatiladi. Oila kodeksida bu to'g'rida shunday deyiladi: «O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi, shuningdek chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohdan ajratish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi» (236-modda). Bunda sud mamlakati qonunining qo'llanishi prinsipi ifoda etilgan, sud ishlarini qaysi mamlakat sudi amalga oshirsa, bu jarayonda o'sha mamlakat qonunlari qo'llaniladi. Nikoh tuzilgan joy va er-xotinning yashash joylari mahalliy kollizion normalar nuqtayi nazarida hech qanday ahamiyat kashb etmaydi. Shunday qilib, aytaylik, Fransiya fuqarolari bo'lmish er-xotinlar O'zbekiston Respublikasi hududida nikohdan ajraladigan bo'lsalar, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 37-47-moddalari qo'llaniladi. Ajratish to'g'risidagi qaror qabul qilingan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida bunday nikoh tugatilgan hisoblanadi. Nikohning chet elda tugatilganligini tan olish masalasi esa, tegishli xorijiy mamlakatda, aytaylik, o'sha Fransiyada o'z fuqarolarining chet elda nikohdan ajratilganligini tan olinishi yoki olinmasligiga bog'liq ravishda hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 236-moddasi, 2-qismiga ko'ra «O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan eri(xotini) bilan tuzilgan nikohdan, mazkur shaxs qaysi davlat fuqarosi ekanligidan

qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi sudida ajralishga haqlidir». Bunday hollarda sud nikohdan ajratishda O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligini qo'llaydi.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga binoan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajralish mumkin bo'lgan hollarda chet ellarda yashab turgan respublikamiz fuqarolari O'zbekiston Respublikasining dipomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida nikohdan ajralishlari mumkin. O'zbekiston konsuli nikohdan ajralish to'g'risidagi arizani qabul qilishi uchun respublikamiz fuqarolari bo'lgan er-xotindan hech bo'lmaganda bittasi doimiy ravishda chet elda yashab turgan bo'lishi shart. Bundan tashqari, voyaga yetmagan bolalari bo'lmagan er-xotin nikohni tugatishga o'zaro rozi bo'lishlari hamda er-xotinning yoki ulardan birining turar joyi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasasiga qo'shma ariza berishlari kerak.

Uchinchidan, nikohdan ajratish xorijiy davlatlarning vakolatli organlarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Ajralish uchun ariza bergan er-xotin respublikamiz fuqarolari bo'lgan hollarda ham, er-xotindan biri respublikamiz fuqarosi, ikkinchisi chet el fuqarosi bo'lgan hollarda ham, er-xotinning ikkalasi ham chet el fuqarolari bo'lgan hollarda ham O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nikohdan ajratish to'g'risidagi bunday qarorlarning haqiqiyliги tan olinadi. Qonunimiz bo'yicha bunday nikohlarning tugatilishi to'g'risidagi xorijiy qarorlar O'zbekistonda ma'lum shartlar asosida tan olinadi: qaror chiqargan organ o'z davlatining vakolati to'g'risidagi va qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq to'g'risidagi qonunlariga rioya qilganligi fakti aniqlanishi lozim. Ushbu shart bajarilmagan bo'lsa xorijiy davlat organi chiqargan qaror O'zbekistonda tan olinmasligi mumkin. Masalan, agar nikohdan ajratish amalga oshirilayotgan mamlakat qonunchiligi bo'yicha sud yurituviga havola etilgan bo'lsa, qandaydir davlat organini emas, balki sudni vakolatli deb hisoblamog lozim.

Mamlakatimiz qonunchiligi bo'yicha ikkinchi shart ham, ya'ni qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilinishi ham ahamiyatga ega. Bunda qaror chiqarilgan mamlakatdagi oila huquqining kollizion normalariga qaror chiqargan organning rioya etgan yoki etmaganligi nazarda tutiladi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi tan olingan xorijiy davlat organi qarorining mavjudligi er-xotinni ajrashgan deb hisoblashga asos

bo'ladi. Ammo bunda qonun bo'yicha chet el sudi tomonidan amalga oshirilgan nikohdan ajratishni O'zbekiston Respublikasida fuqarolik holati aktlarini davlat qaydidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda davlat qaydidan o'tkazish talab etilmaydi. Chet el sudi qarori bilan nikohdan ajralgan shaxs o'sha qarorni asos qilib O'zbekistonda nikoh tuzishi mumkin. Nikohdan ajratish haqida so'z yuritilgan xalqaro shartnomalarda, xuddi nikoh tuzilishidagi singari moddiy oilaviy-huquqiy normalar emas, balki kollizion normalar munosiblashtiriladi (unifikatsiya qilinadi). Qonunlarning tafovutlarini (kolliziyalarini) tartibga solish va nikohning tugatilishi va er-xotinni sud yo'li bilan ajratish yurisdiksiyasi to'g'risidagi 1902-yil 12-iyunda qabul qilingan Gaaga konvensiyasini hamda nikohning tugatilishi va er-xotinning alohida-alohida yashashi to'g'risidagi qarorni tan olish to'g'risidagi 1970-yil 1-iyunda qabul qilingan konvensiyani yuqorida tilga olingan xalqaro shartnomalar qatoriga qo'shish mumkin.

Nikohning tugatilishi to'g'risidagi ishlar bo'yicha 1998-yilda qabul qilingan MDH davlatlari Konvensiyasida (28-modda) er-xotin ajralish to'g'risida ariza bergan vaqtlarida qaysi davlat fuqarosi bo'lgan bo'lsalar ish yuritishda o'sha davlat qonunchiligini qo'llash to'g'risida ko'rsatma berilgan: er-xotin turli davlatlar fuqaroligida bo'lsalar, nikohni tugatish to'g'risidagi ishni ko'rib chiqayotgan muassasa qaysi davlat muassasasi bo'lsa, o'sha davlat qonunchiligi qo'llaniladi, ya'ni MDH davlatlari Konvensiyalari yordamida ham, huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalar yordamida ham nikohning tugatilishi to'g'risida boshqa davlat hududida chiqarilgan qarorlarning ahdlashayotgan davlatlarda tan olinishi tartibga solinadi.

5-§. Er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlar

Er-xotin munosabatlariga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq to'g'risidagi kollizion norma bizning qonunchiligimizda uzoq vaqtlar mavjud bo'lmagan. Tartibga solish qoidalari bo'lmaganda sudlar er-xotinning fuqaroligi va yashash joylaridan qat'i nazar O'zbekiston qonunlarini qo'llar edilar. Endi bu kamchilikka barham berildi. Amaliyotda har qanday hollarda ham O'zbekiston qonunlarini sud joylashgan mamlakat qonuni sifatida qo'llash (lex fori) ko'rib chiqilayotgan huquqiy munosabatlarning u yoki bu davlat

qonunlari bilan uzviy bog'liqligi ifodasi emasligi kollizion bog'liqlikni tanlashda hisobga olingan.

Er-xotin fuqarolikda turgan mamlakat qonuniga yoki ular birga yashab turgan mamlakat qonuniga havola qilish bu bog'liqlikni ko'proq aks ettiradi. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qoidalariga ko'ra er-xotinning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlari va majburiyatlari er-xotin birga yashaydigan joyga ega bo'lgan davlat qonunchiligi bo'yicha belgilanadi. Agar ular bunday turar joyga ega bo'lmasalar, eng so'nggi marta qaysi davlat hududida shunday turar joyga ega bo'lgan bo'lsalar, o'sha davlat qonunchiligi bilan belgilanadi, agar er-xotin birgalikda turadigan joyga ega bo'lgan bo'lmasalar va hozir ham ega bo'lmasalar, O'zbekiston Respublikasi hududida ularning shaxsiy va mulkiy huquqlari O'zbekiston qonunchiligi bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida:

1) qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq «hududiy» mezon asosida aniqlangan er-xotinning fuqaroligi e'tiborga olinmaydi;

2) er-xotin birga turadigan joyga ega emasliklari yoki umuman bunday joyga ega bo'lmaganliklarini hisobga olgan holda asosiy kollizion bog'liqlik boshqa bog'liqliklar bilan to'ldiriladi;

3) sud joylashgan mamlakat qonunlarining qo'llanish doirasi sezilarli darajada toraytirilgan;

4) kollizion normalarga binoan er-xotinning birgalikda yashab turgan joyi o'zgarganda O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksidagi 4, 5-boblarda aytilgani singari qo'llanishi lozim bo'lgan huquq ham o'zgaradi (masalan, er-xotin yashash uchun bir mamlakatga ko'chib o'tganlarida).

5) er va xotinning shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlari bitta kollizion norma bilan aniqlanadi.

Mamlakatimizning kollizion oila huquqida nikoh shartnomasi to'g'risidagi hamda er-xotinning bir-biriga aliment to'lash xususidagi kelishuvi to'g'risidagi kollizion normalar jiddiy yangilik bo'ldi. (Oila kodeksining 29-31-moddalari). O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga nikoh shartnomasi hamda aliment to'lash xususidagi kelishuv to'g'risidagi qoidalarning kiritilishi er-xotin o'rtasidagi munosabatlar tarkibida xorijiy element bo'lganda ushbu shartnomaga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan huquq masalasini ham tartibga solish zaruriyatini keltirib chiqardi. Xuddi boshqa mamlakatlarda

dagi dek, O'zbekistonda ham bunday hollarda qo'llanilishi lozim bo'lgan huquqning er-xotin tomonidan tanlanishiga yo'l qo'yiladi.

Shunga mos ravishda nikoh shartnomasi yoki bir-biriga aliment to'lab turish xususidagi kelishuvlar tuzilayotgan paytda umumiy fuqarolikka yoxud birga yashash joyiga ega bo'lmagan er-xotinlar tegishli huquqlar va majburiyatlarni aniqlash uchun qo'llanilishi lozim bo'lgan qonunchilikni tanlay oladilar. Bu shuni anglatadiki, masalan, nikoh shartnomasi tuzilayotganda er-xotin o'zlarining huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 31-moddasi kollizion normalarida ko'rsatilgan qonunchilik bilan emas, balki boshqa qonunchilik bilan aniqlanishi xususida kelishib olishlari mumkin.

Ilgari O'zbekistonda birga yashagan, hozir bittasi O'zbekistonda, ikkinchisi esa Germaniyada yashayotgan er-xotin nikoh shartnomasi tuzayotgan bo'lsa, uning mulkiy huquqlari va majburiyatlari eng oxirgi birgalikda yashagan joydagi qonunchilik sifatida O'zbekiston huquqi bo'yicha aniqlanishi lozim. Ammo er-xotinning o'zaro tegishli shartlashuviga ko'ra nikoh shartnomasi bo'yicha ularning huquq va majburiyatlari Germaniya huquqi yoki ularning o'zlari tanlagan qandaydir boshqa bir davlat huquqi bo'yicha aniqlanishi mumkin. Qonunchilikni tanlash huquqi barcha er-xotinlarga emas, balki umumiy fuqaroligi yoki birga yashash joyi bo'lmagan juftlar-gagina berilishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Umumiy fuqarolik-ka yoki birga yashash joyiga ega bo'lgan er-xotinning nikoh shartnomasi yoki bir-biriga aliment to'lash xususidagi kelishuvga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 31-moddasi-dagi kollizion normalar qo'llaniladi.

Bundan er-xotinning qonunchilikni tanlashlari qandaydir ma'lum bir mamlakat huquqi bilan cheklab qo'yilmaganligi anglashiladi. Ular O'zbekiston qonunchiligini, o'zlaridan biri fuqarolikka turgan mamlakat qonunchiligini, u yashab turgan mamlakat qonunchiligi ni, o'zlarining ko'chmas mulk joylashgan mamlakat qonunchiligini tanlashlari mumkin. Shunga bog'liq ravishda, ulardan birining qiyin-qistovi bilan mulkiy munosabatlarda er va xotinning tengligi to'liq ta'minlanmagan mamlakat qonunchiligi tanlanishini ham istisno qilib bo'lmaydi.

Aytish lozimki, tomonlar faqat mulkiy munosabatlar yuzasidan huquqni tanlashlariga yo'l qo'yiladi, zero O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 6-bobiga binoan er-xotinning mulkiy munosabat-

larini hal etishda qo'llash nuqtayi nazaridan nikoh shartnomasini tuzish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining boshqa mamlakatlar bilan tuzgan huquqiy yordam to'g'risidagi ikkitomonlama shartnomalarida hamda MDH davlatlarining 1993-yil 22-yanvarda qabul qilingan Konvensiyasida er-xotin o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarning kollizion masalalari ifoda etilgan. Qoida bo'yicha er-xotinning o'rtasidagi bunday munosabatlar hududida er-xotin birga yashash istiqomat joyiga ega bo'lgan mamlakat qonunchiligi bilan hal etiladi. Agar er-xotin boshqa-boshqa mamlakatlarda yashasa, ammo ma'lum bir davlat fuqaroligiga ega bo'lishsa, ular fuqarolikda turgan mamlakat qonunchiligi qo'llaniladi. Agar er va xotin turli mamlakatlar fuqarolari bo'lishsa, ular so'nggi marta qaysi davlatda birga yashash joyiga ega bo'lgan bo'lishsa, o'sha davlat qonunchiligi qo'llaniladi. Tilga olib o'tilgan konvensiyaning 27-moddasida aytilishicha, er-xotinning ko'chmas mulklariga taalluqli munosabatlari ko'chmas mulk joylashgan mamlakat qonunlariga binoan hal etiladi.

6-§. Ota-ona va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar

1. Bolalar fuqaroligi.

Bolalarning huquqiy holati ularning fuqaroligi bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi qonunga binoan 14 yoshgacha bo'lgan bolalar ota-onalari fuqarolikda turgan mamlakat fuqaroligida bo'ladilar. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning fuqaroligi ularning o'z roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin. «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan qonunining 28-moddasida bu to'g'rida shunday deyilgan: «Ota-onalarining fuqaroligi o'zgargan taqdirda, shuningdek, bolalar farzandlikka olingan taqdirda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning fuqaroligi qonunda nazarda tutilgan tartibda faqat bolalarning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.»

Ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ota-onalarning fuqaroligi o'zgarganda bolalarning fuqaroligi o'zgormaydi. Bolalarning fuqaroligining o'zgartirilishi uchun ota-onalik huquqidan mahrum etilgan ota-onalarning roziligi talab etilmaydi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning ota-onalari fuqarolikda turgan mamlakat fuqaroligida bo'lishi xususidagi umumqabul qilingan prinsip amal qiladi. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'z fuqaroliklarining o'zgartirilishiga yozma ravishda ariza berishlari kerak. Bu hujjat notarial idora tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Agar ota-onaning har ikkalasi yoxud ularning biri O'zbekiston fuqaroligini olsa yoxud O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqib ketsalar, bolalarning fuqaroligi ham shunga mos ravishda o'zgaradi.

O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi, O'zbekiston respublikasi fuqarolari tomonidan vasiylikka yoki homiylikka olingan bolaning ota-onasi yoki ulardan biri O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqsa va ayni paytda ular bolaning tarbiyasida ishtirok etmasa, ota-ona, vasiy yoki homiyning iltimosiga ko'ra bola O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini saqlab qoladi. Ota-onasining yoki ulardan birining, ya'ni yo otasining, yoki onasining fuqaroligi o'zgargan taqdirda, bolaning fuqaroligi ham beixtiyor o'zgaradi. Bunda 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning roziligini olish sharti o'z kuchini saqlab qoladi.

Ammo ba'zan ota-ona yoki ularning biri O'zbekiston fuqaroligidan chiqqan turib vasiylikka yoki homiylikka olingan bolasi xususida talab qo'yimasligi mumkin. Bunday hollarda ota-ona, vasiy yoki homiy arizasiga ko'ra bolaning O'zbekiston Respublikasining fuqarosi ekanligi saqlanib qoladi. Bu holda bolaning kelajakda ota-onasi huzuriga ketishi va fuqaroligini o'zgartirishi istisno etilmaydi.

Agar ota-onasidan biri O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqsa, boshqasi esa O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lib qolaversa, bola O'zbekiston fuqaroligini saqlab qoladi. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqayotgan ota (ona)ning iltimosi va O'zbekiston Respublikasida qolayotgan ota (ona)ning yozma ravishda roziligiga binoan, bolaga boshqa mamlakat fuqaroligi berilishi sharti bilan uning O'zbekiston Respublikasidagi fuqaroligi tugatilishi mumkin.

Davlatimiz har qanday teng holatlarda ham O'zbekiston Respublikasi fuqaroligida qolayotgan ota (ona)ning manfaatlarini muhofaza qiladi. Agar O'zbekiston fuqaroligida qolayotgan ota (ona) bolaga O'zbekiston fuqaroligidan chiqib ketayotgan ota

(ona)ning fuqaroligi berilishiga qarshi bo'lmasa, u o'z qarorini yozma ravishda tasdiqlashi lozim.

Ota-onasi noma'lum bo'lgan va O'zbekiston hududida yashayotgan bola O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanadi.

2. O'zbekiston Respublikasida otalikning belgilanishi ota-ona va bolaning fuqaroliklari hamda ularning istiqomat joylaridan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi qonunlariga binoan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha otalikning belgilanishi FHDYO organlarida amalga oshirilishi mumkin bo'lsa, O'zbekiston hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan va hech bo'lmaganda bittasi O'zbekiston fuqarosi bo'lgan ota-onalar bolalikni belgilash to'g'risidagi ariza bilan O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalariga murojaat qilishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida ham, o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalarida ham otalikni belgilash to'g'risidagi normalar mavjud.

3. Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar.

O'zbekistondagi ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bolalarning O'zbekiston yoki chet el fuqarosi ekanligidan qat'i nazar, to'liq ravishda mamlakatimiz qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Chet ellik ota-onalar yoki chet ellik bolalarga nisbatan umumiy tartibdan hech narsa istisno qilinmaydi. Ota-onalar bolalarning tarbiyasi bilan shug'ullanishlari, bolalar esa ota-onalari uchun jon kuydirishlari, ularga yordam berishlari zarur.

Ota-onalarning huquqlari tom ma'noda bolalarning manfaatlari yo'lida amalga oshirilishi kerak.

O'zbekiston qonunlarida ota-onalarga bolalarning qonunlar yoki sud qaroridan boshqa asoslarda ushlab turgan har qanday shaxsdan qaytarib berishni sud tartibida talab qilish huquqi berilgan. Chet ellik ota-onalar ham shu huquqdan foydalanadilar.

Ota-onalar voyaga yetmagan, shuningdek yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz bolalarga ta'minot berishlari shart. Oila buzilib ketadigan bo'lsa, bolaga O'zbekiston qonunchiligiga binoan aliment to'lanadi. O'zbekistonda qoladigan bolasi uchun aliment to'lashi lozim bo'lgan shaxslar O'zbekiston hududidan chiqib ketadigan bo'lsalar, xalqaro shartnoma mavjud bo'lmagan hollarda ancha qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

O'zbekiston hududida yashamaydigan, chet el fuqarosi hisoblanadigan bola uchun aliment to'lash majburiyati paydo bo'ladi.

Qonunchiligimizda aliment majburiyatlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqni belgilab beradigan kollizion normalar mavjud emas. Ammo yuridik adabiyotlarda bunday hollarda O'zbekiston qonunlarini qo'llash lozim deb xulosa qilingan. Amaliyotda ham bu masalalar shunday hal etiladi.

Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan qonun masalasi huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalarda hal etilgan. Bu shartnomalarda aytilishicha, ota-onalar va bolalar qaysi davlat hududida doimiy istiqomat joyiga ega bo'lsalar, ular o'rtasidagi huquqiy munosabatlar ham o'sha davlat qonunlari bo'yicha belgilanadi.

Ammo agar ota-onalarning yoki ulardan birining istiqomat joyi ikkinchi bir davlatda bo'lsa, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar bola fuqarolikda turgan mamlakat qonunlari yordamida tartibga solinadi.

Onasi bilan qayd etilgan nikohda turmagan shaxsdan tug'ilgan bola bilan uning otasi o'rtasidagi huquqiy munosabatlar bola fuqarolikda turgan mamlakat qonunlari bilan tartibga solinadi.

7-§. Farzandlikka olish

1989-yilda qabul qilingan «Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyaga binoan, «Farzandlikka olish tizimi mavjud bo'lishiga xayrihoh bo'lgan yoki uni tan olgan ishtirokchi davlatlar bolaning eng yaxshi manfaatlari birinchi navbatda tan olinishini ta'minlaydilar». Ular:

a) bolaning farzandlikka olinishiga vakolatli hokimiyat organi tomonidan ruxsat berilishini ta'minlaydilar. Bu organlar qo'llanilayotgan qonunlar va harakatlar hamda ishga talluqli barcha ishonchli axborotlar asosida farzandlikka olinishining ota-onalar, qarindoshlar va qonuniy vasiylarga nisbatan bolaning statusi nuqtayi nazaridan mumkin yoki mumkin emasligini aniqlab beradi. Talab qilinadigan bo'lsa, zaruriy maslahatlar asosida manfaatdor shaxslar o'z roziliklarini bayon etadilar.

b) bola uning tarbiyasi yoki farzandlikka olinishini ta'minlay oladigan oilaga tarbiya uchun berilishi mumkin bo'lmasa, boshqa davlat fuqarolari tomonidan farzandlikka olinishini uni tarbiyalashning muqobil usuli deb tan oladi; bunda bolaning o'zi

tavallud topgan mamlakatda ta'lim-tarbiya olishini ta'minlashning imkoni bo'lmasligi lozim;

c) bola boshqa mamlakat fuqarolari tomonidan farzandlikka olinganda ham o'z mamlakatida farzandlikka olinganda qo'llaniladigan kafolatlar va normalar qo'llanilishini ta'minlaydilar;

d) bola boshqa mamlakat fuqarolari tomonidan farzandlikka olingan taqdirda bola muammolarining hal etilishi uni farzandlikka olgan shaxslarga asossiz moliyaviy foydalar keltirmasligini ta'minlash maqsadida barcha zarur choralarni ko'radilar (21-modda).

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 27-moddasiga binoan «O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishda ham Oila kodeksining 157-167-moddalari talablariga rioya qilinishi lozim.»

Agar farzandlikka olish natijasida farzandlikka olingan bolaning O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlari buziladigan bo'lsa, farzandlikka oluvchining qaysi davlat fuqarosi ekanligidan qat'i nazar u bolani farzandlikka olishi mumkin emas, agar u bolani farzandlikka olgan bo'lsa, bu ish sud tartibida bekor qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan va O'zbekiston hududidan tashqarida yashab turgan bolani farzandlikka olish farzandlikka oluvchi shaxs fuqarolikda turgan davlatning vakolatli organi tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa hamda bolaning otasonasi yoxud ulardan biri O'zbekiston Respublikasi hududidan jo'nab ketishdan avval istiqomat qilgan tuman, shahar hokimining farzandlikka olish to'g'risidagi ruxsatini oldindan olgan bo'lsagina O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

8-§. Vasiylik va homiylik

Agar O'zbekiston Respublikasida o'z xatti-harakatlarining mohiyatini anglamaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan yoxud 14 yoshga to'lmagan, ruhiy kasal yoki aqli zaif bo'lgan, uning manfaatlarini himoya qiladigan qonuniy vakillari bo'lmagan chet ellik yashab turgan bo'lsa, unga nisbatan vasiylik tayinlanishi mumkin. Homiylik o'z huquqlarini himoya qilishga qodir bo'lmagan shaxslarga nisbatan tayinlanadi. O'zbekiston Respublikasi hududida istqomat qilayotgan O'zbekiston fuqarolariga nisbatan vasiylik va

homiyluk respublika organlari tomonidan mamlakat qonunchiligiga binoan belgilanadi. (Oila kodeksining 173-193-moddalari).

Vasiyluk va homiyluk tuman yoki shahar hokimining qarori bilan belgilanadi. Vasiyluk yoki homiyluk unga muhtoj bo'lgan shaxsning doimiy istiqomat joyi bo'yicha belgilanadi, agar shaxs doimiy istiqomat joyiga ega bo'lsa, vasiy yoki homiyning istiqomat joyi bo'yicha belgilanadi. «Vasiyluk va homiyluk vazifalarini amalga oshirish o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan xalq ta'lim bo'limlariga, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan sog'liqni saqlash bo'limlariga, sog'lig'ining yomonligi sababli homiy tayinlanishiga muhtoj muomalaga layoqatli shaxslarga nisbatan esa ijtimoiy ta'minot bo'limlari zimmasiga yuklatiladi» (Oila kodeksining 175-moddasi). Vasiyluk o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalarga va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Homiyluk o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'smirlarga, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslarga nisbatan belgilanadi.

Sog'lig'ining yomonligi sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan, muomalaga layoqatli shaxslarga nisbatan homiyluk shu shaxslarning iltimosiga ko'ra belgilanishi mumkin (Oila kodeksining 176-moddasi).

Xorijda O'zbekiston fuqarolari ustidan vasiyluk va homiyluk O'zbekiston Respublikasi konsuli tomonidan belgilanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konsullik ustavining 33-34-moddalarida bu to'g'risida shunday deyilgan:

«33-modda. Konsul o'z konsullik okrugida ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan, voyaga yetmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ustidan vasiyluk va homiyluk o'rnatilishi choralari ko'radi.

34-modda. Konsul o'z konsullik okrugida sog'lig'ining yomonligi sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va majburiyatlarini bajara olmaydigan, voyaga yetgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ustidan vasiyluk va homiyluk belgilanishi choralari ko'radi»¹⁴².

O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan tuzgan konsullik konvensiyalarida konsullarning vasiyluk va homiyluk

¹⁴² O'zbekiston Respublikasi Konsullik ustavi. //Xalq so'zi. 1996-yil 10-sentabr, 2-bet.

sohasida tegishli funksiyalarni amalga oshirishlari nazarda tutilgan. Ba'zi hollarda konsullar o'zlari faoliyat ko'rsatayotgan mamlakat sudlari va boshqa vakolatli organlariga o'zini konsul qilib jo'natgan davlat fuqarolari uchun vasiy va homiy sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan shaxslarni taklif qilishi mumkin. Boshqa hollarda konsullar o'zlarini konsul qilib jo'natgan davlat fuqarolariga vasiy va homiylarni o'zlari tayinlashlari hamda vasiylar va homiylar faoliyati ustidan nazorat qilish huquqiga ega ekanliklari nazarda tutilgan.

Bir qator mamlakatlar bilan tuzilgan o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalarda vasiylik va homiylik tayinlanishi bilan bog'liq bir qator batafsil qoidalar mavjud. Bu shartnomalarda jumladan shunday qoidalar bor:

1) vasiylik va homiylik masalalari bilan ustida vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxs qaysi davlat fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning vakolatli organlari shug'ullanadilar;

2) vasiylik yoki homiylik belgilanadigan vaqtda vasiylikka olinadigan yoki ustidan homiylik belgilanadigan shaxs qaysi davlat fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning qonunlari qo'llaniladi;

3) agar shaxs boshqa davlat hududida istiqomat qilayotgan bo'lsa, vasiylik yoki homiylikni amalga oshirish shaxs fuqarolikda turgan davlatning vasiylik yoki homiylik organi tomonidan shaxs istiqomat qilayotgan davlatning tegishli organiga berilishi mumkin.

XX BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston fuqarolari respublikadagi ajnabiy fuqarolar bilan nikoh tuzganlarida qaysi davlat qonuni qo'llaniladi?

2. Konsullik vakolatxonalarida tuziladigan nikohlar deganda nimani tushunasiz?

3. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan imzolangan huquqiy Ko'mak haqidagi shartnomalarida nikohni bekor qilish borasida qanday tartiblari belgilangan?

4. Xorijiy mamlakatlarda tuzilgan nikohning bekor qilinishi O'zbekiston Respublikasida tan olinadimi?

5. Ota-ona va bolalar munosabatlarida qaysi davlatning qonunlari qo'llaniladi?

6. Xorijiy mamlakatda yashovchi O'zbekiston fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olish qaysi tartibda amalga oshiriladi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: «O'zbekiston», 1998-yil, 48-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhlar. –T.: «Adolat», O'zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 1997-yil, 384-bet.
3. Islom Karimov Konstitutsiya to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganuvchilarga yordam). Tuzuvchilar: yuridik fanlar doktorlari, prof. A.Saidov, U.Tojixonov. –T.: «Akademiya» nashriyot markazi. 2001-yil, 155-bet.
4. «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1992-yil, iyul.
5. O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi. Xalq so'zi. 1996-yil 10-sentabr.
6. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. –T.: «Adolat», 1998-yil, 300-bet.
7. Богуславский М.М. Международное частное право. 2-е издание перераб. и доп. –М/: Междунар.отношения, 1994. – С.416.
8. Международное частное право: Учебник для вузов /Под редакцией доктора юридических наук Н.И.Марышевой. –М.: Юридическая фирма "Контракт", "ИНФРА-М", 2000. –С.532.
9. Нечаева А.М. Семейное право. Курс лекций. –М.: Юрист, 1998. –С.336.
10. Пчелинцева Л.М. Комментарий к Семейному кодексу Российской Федерации. –М.: издательская группа "Норма", - "ИНФРА-М", 1999. –С.696.
11. Рахманов А.Р., Безбородов А.Г. Проблемы гражданства и семьи в международном частном праве. ТГЮИ. –Т.: 2001. – С.483.

VORISLIK HUQUQI

1-§. Vorislik huquqi sohasida kollizion masalalar

Vorislik huquqi (droit successoral, Erbrecht, law of succession, hereditary law) – fuqarolik huquqining instituti sifatida yafot etgan shaxsning huquq va majburiyatlari boshqa shaxsga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi¹⁴³. Vorislik barcha huquq tizimlarida mulkni egallashning alohida usuli hisoblanadi.

Vorislik huquqi ikkita asosiy – vasiyat erkinligi va oila manfaatlarini muhofaza qilish tamoyillaridan tashkil topgan.

Agar qarindosh-urug'lar boshqa-boshqa davlatlar fuqarolari yoki u yerlarda doimiy yashaydigan bo'lsalar vorislik huquqlari bo'yicha ko'pgina muammolar kelib chiqishi mumkin. Masalan, bizning vatandoshlar har xil mamlakatlarda yashashlari, ularning qarindosh-urug'lari esa O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilishlari mumkin va tabiiyki, bu yerda quyidagi savol vujudga keladi: agar chet eldagi shaxs vafot etgan bo'lsa, uning o'zbekistonlik qarindoshi meros olish huquqiga egami, boshqa holatda esa o'zbekistonlik shaxsning vafotidan so'ng uning chet eldagi qarindoshi meros olish huquqiga egami? Bu savollarga javob, albatta, qarindoshlik darajasiga, vasiyatnoma mavjudligiga, merosni qabul qilish muddati va qonun tomonidan qo'yiladigan boshqa talablarga javob berishiga bog'liqdir.

Vorislik huquqi bo'yicha chet el fuqarolarining huquq layoqati masalalariga keladigan bo'lsak, shuni aytish lozimki, chet el fuqarolarining huquqlari o'zbekistonlik fuqarolar huquqlariga tenglashtiriladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda chet elliklar vorislik huquqiga egadirlar. Lekin bu o'rinda vorislarning qonun, vasiyatnoma bo'yicha doiralari, vasiyatnomalarning shakli, merosni taqsimlash shartlari qanday aniqlanadi? Bu savol qo'yilishiga asos bor, chunki bir mamlakatda vasiyatnoma yozma shaklda tuzilishi va notarius tomonidan tasdiqlani shi lozim, boshqa mamlakatlarda esa

¹⁴³ Юридическая энциклопедия. Под редакцией М.Ю.Тихомирова. –М.: 1998. –С.257.

vasiyatnoma meros qoldiruvchining o'z qo'li bilan yozilishi kifoya. Vorislarning navbatini aniqlash borasida ham katta farqlar mavjud. O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarosi meros olish-olmasligi qaysi mamlakatning qonuni tatbiq etilishiga bog'liqdir. Ba'zi bir davlatlarning qonunchiligi va amaliyoti bu masalalarni turli tarzda hal qiladi. Buyuk Britaniya va AQSH, Fransiyada ko'char va ko'chmas mulkka vorislar orasida farq mavjud. GFRda esa vorislik mulkining birligi tamoyili amaldadir. Ham ko'char, ham ko'chmas mulkka nisbatan meros qoldiruvchining fuqaroligi qonuni tatbiq etiladi. Xuddi shunday tamoyillar Vengriya (1979-yildagi Vengriyaning XXH to'g'risidagi qonuni), Polsha (Polshaning XXH to'g'risidagi 1965-yildagi Qonuni)¹⁴⁴ va boshqa davlatlarning qonunchiligida aks ettirilgan.

Vorislik bo'yicha kolliziya masalalari, odatda, davlatlarning ichki qonunchiliklari tomonidan tartibga solinadi. Ba'zi bir masalalar bo'yicha ko'p tomonlama konvensiyalar mavjud. (Vasiyatnoma shakli to'g'risidagi 1961-yil 5-oktabr qonunlar kolliziyasi to'g'risidagi Konvensiya; 1973-yil 26-oktabrda Vashingtonda o'tkazilgan diplomatik konferensiyasida xalqaro vasiyatnomaning shakli to'g'risida ko'p tomonlama Konvensiya qabul qilingan)¹⁴⁵.

Vorislikka tegishli masalalar Fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha ikki tomonlama shartnomalar¹⁴⁶ va 1993-yil 22-yanvarda qabul qilingan MDH Konvensiyasida ham tartibga solinadi.

Ushbu masalani yoritganda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, vorislik vasiyat va qonun asosida vujudga keladi (FKning 67, 68-boblari).

Fuqaroning o'ziga tegishli mol-mulkni yoki bu mol-mulkka nisbatan huquqini vafot etgan taqdirda tasarruf etish xususidagi xohish-irodasi vasiyat (will) deb e'tirof qilinadi (FKning 1120-moddasi).

Bu xohish-iroda, odatda, bir tomonlama xarakterga ega. Vasiyatnoma shaxsan tuzilishi lozim. Vasiyatnomaning vakil orqali tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi (FKning 1120-moddasi 2-qismi).

¹⁴⁴ Международное частное право (Действующие правовые акты). –М.: Институт международного права и экономики. Издательство "Трида, Лтд", 1997. –С.45-46.

¹⁴⁵ Богуславский М.М. Международное частное право. Учебник 3-й изд., перераб. и доп. –М.: Юристъ, 2000.

¹⁴⁶ Masalan, O'zbekiston Respublikasi va Ukraina o'rtasida Fuqarolik va oilaviy ishlar bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risida shartnoma (1998-yil 19-fevral). Юридическая информационная система ПРАВО. Международное право. 2000-й 1-апрелдagi versiyasi.

Ma'lum davlatlarning qonunchiligi birgalikdagi vasiyatnoma tuzishga ruxsat beradi. Bu vasiyatnomada ikki yoki undan ortiq shaxslarning irodasi ifoda etilgan bo'lishi mumkin. (Germaniya (er-xotin tomonidan), Angliya, AQSH).

Bundan tashqari, anglo-amerika huquqida o'zarolik vasiyatnomalar ma'lumotlar bir necha shaxslarning bir-biriga nisbatan o'zarolik majburiyatlarini o'z ichiga olgan.

Fransiyada qonun (FKning 968-moddasi) ham birgalikdagi ham o'zarolik vasiyatnomalarni to'g'ridan-to'g'ri man etadi. Shveysariya qonunchiligi bu masala bo'yicha hech qanday holatlar ko'rsatmagan, lekin sud amaliyoti bu vasiyatnomalarni haqiqiy emas deb tan oladi.

Kontinental Yevropa mamlakatlarining qonunchiligi vasiyatnomaning quyidagi asosiy shakllarini nazarda tutadi.

1. Shaxsning o'z qo'li bilan tuzgan vasiyatnoma – ushbu vasiyatnoma boshidan oxirigacha meros qoldiruvchining o'zi tomonidan yoziladi, imzolanadi va sana qo'yiladi. Bu yerda soxta vasiyatnomalarning vujudga kelish ehtimoli kamayadi, shuning uchun ham mashinka yozuvlariga yo'l qo'yilmaydi. Vasiyatnomaning ushbu shakli tuzilishining soddaligi va vasiyatnoma sirini saqlash imkonini berishi tufayli keng tarqalgan. Lekin u kamchiliklardan ham xoli emas, masalan, bu yerda vasiyatnomaning nobud bo'lishi, yo'qolishi, uchinchi shaxs tomonidan boshqacha ta'sir ko'rsatilishi ehtimoli yo'q emas.

2. Ommaviy hujjat shaklidagi vasiyatnoma – bu yerda qonunda belgilangan tartibda rasmiy mansabdor shaxs (odatda notarius) ishtirokida vasiyatnoma tuziladi (Fransiyada vasiyatnoma ikki notarius yoki ikki guvoh ishtirokida tuziladi). Bu shaklning asosiy ustuvorligi shundaki, vasiyatnomaning haqiqiyliги kafolatlanadi va vasiyatnomaning mazmuni vasiyat qiluvchining irodasiga to'liq rioya qilingan holda tuziladi. Vasiyatnomaning saqlanishi, qonunchilikda ko'zda tutilganidek, notarius yoki boshqa mansabdor shaxsga rasmiy topshirish bilan ta'minlanadi.

3. Maxfiy vasiyatnoma vasiyat qiluvchi tomonidan tuzilib imzolanadi va yelimgan xatjildda odatda guvohlar ishtirokida notariusga topshiriladi. Bu shakl vasiyatnoma maxfiyligini saqlaydi va bu haqda Fransiya va Germaniya qonunchiliklarida to'g'ridan-to'g'ri aytilgan (FKning 969 va 1007-moddalari) (GFT 2232-paragrafi).

O'zbekiston Respublikasida bu shaklga FKning 1125-moddasin 4 va 5-qismlari bag'ishlangan.

Agar vafot etgan shaxs o'zining mol-mulkiga yoki mol-mulkka nisbatan huquqlar bo'yicha vasiyatnoma tuzmagan bo'lsa qonun bo'yicha vorislik amal qiladi. Bu yerda merosni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning doirasini belgilagan holda, qonun vasiyat qoldiruvchining hozir bo'lmagan irodasini qoplashga harakat qiladi.

Qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasiga birinchi navbatda meros qoldiruvchining eng yaqin qarindoshlari kiritiladi. Shu borada, ta'kidlab o'tish joizki, qonun bo'yicha merosxo'rlar doirasi va ularning navbati turli xil mamlakatlarda bir-biriga o'xshamaydi¹⁴⁷.

2-§. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining vorislik huquqi

O'zbekiston Respublikasida vorislik huquqi doirasida chet el fuqarolariga milliy tartib taqdim etiladi. Bizning qonunchilik asosida chet el fuqarolari mulkni meros qilib qoldirishlari va qabul qilishlari mumkin. Mol-mulkning merosxo'rlari bo'lganda, ularning huquqlari to'la ravishda o'zbekistonlik fuqarolar huquqiga tenglashtiriladi.

Shunday qilib, bu borada chet el fuqarolariga milliy tartib qo'llaniladi va o'zarolik tatbiq etilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 1197-moddasiga binoan vorislikka doir munosabatlar meros qoldiruvchi vasiyatnomada o'zi fuqarosi bo'lgan mamlakatning huquqini tanlagan bo'lmasa, meros qoldiruvchi oxirgi doimiy turar joyga ega bo'lgan mamlakatning huquqi bo'yicha belgilanadi. Demak, vorislik doirasida meros qoldiruvchining oxirgi doimiy turar joyi kollizion tamoyili bo'lib qoladi. Agar meros qoldiruvchi O'zbekiston Respublikasida oxirgi turar joyiga ega bo'lgan bo'lsa, bu yerda O'zbekiston qonunchiligi tatbiq etilishi lozim. Ushbu qonunchilik bo'yicha merosxo'rlarning doirasi belgilanadi, meros mulkida ularning ulushlari va sh.k.lar aniqlanadi. Agarda meros qoldiruvchining oxirgi turar joyi chet el mamlakati bo'ladigan bo'lsa, bu holatda ushbu chet el davlatining qonuni tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi FKning 21-moddasiga binoan fuqaroning doimiy yoki asosan yashab turgan joyi uning yashash joyi hisoblanadi.

¹⁴⁷ Скаридов А.С. Международное частное право: Учебное пособие-СПб: Изд-во Михайлова В.А. Издательство "Полигус", 1998. Глава-9.

Ko'chmas mulkka vorislik mazkur mulk joylashgan mamlakat huquqi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasining reyestrda qayd etilgan mol-mulkka vorislik esa, O'zbekiston Respublikasining huquqi bo'yicha belgilanadi (FKning 1199-moddasi)

Vasiyat bo'yicha vorislik to'g'risida FKning 1198-moddasida shunday holat belgilab qo'yilgan: shaxsning vasiyatnoma tuzish va uni bekor qilish layoqati, shuningdek vasiyatnomaning va uni bekor qilish hujjatining shakli, agar meros qoldiruvchi vasiyatnomada o'zi fuqaro bo'lgan mamlakatning huquqini tanlagan bo'lmasa, hujjat tuzilayotgan paytda meros qoldiruvchi doimiy turar joyga ega bo'lgan mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi. Biroq vasiyatnoma yoki uning bekor qilinishi, agar shakl hujjat tuzilgan joyning yoki O'zbekiston Respublikasining huquqi talablarini qanoatlantirsa, shaklga rioya etilmaganligi natijasida haqiqiy emas deb topilmaydi (kumulyativ kollizion normasi darslikning SH bobiga qarang).

Shunday qilib, vasiyatnoma shaklini aniqlaganda, turar joyi tamoyili – asosiy, qolgan tamoyillar esa qo'shimcha bo'lib hisoblanadi, vasiyatnoma tuzish layoqatida esa asos qilib – turar joy tamoyili olingan.

3-§. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda vorislik huquqi

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi (u meros qoldiruvchi bo'ladigan bo'lsa) vafotidan so'ng chet elda vorislik bo'yicha munosabatlar vujudga kelishi mumkin.

Barcha holatlarda chet el elementi bo'lgan vorislik bo'yicha munosabatlar ichki qonunchilik kolliziya normalari yoki xalqaro kelishuvlar tartibi bo'yicha aniqlanadi.

Asosan, so'z ko'char mol-mulk to'g'risida yuritiladigan bo'lsa, meros qoldiruvchining mamlakati huquqi bilan aniqlanadi, ko'chmas mulkka nisbatan esa-ushbu mol-mulk joylashgan mamlakatning huquqi bilan belgilanadi.

Vorislik ishlarini meros qoldiruvchi mamlakatining organlari amalga oshiradi (ko'char mol-mulkka nisbatan), yoki ko'chmas mol-mulk qaysi mamlakatda joylashgan bo'lsa, o'sha mamlakatning organlari ish yuritadi.

Shaxsning vasiyatnoma qoldirishi, uni o'zgartirishi yoki bekor qilish layoqati meros qoldiruvchining qonunchiligi bilan belgilanadi.

Vasiyatnomaning shakli ham ushbu qonunchilik bilan belgilanadi. Lekin, shuni ham aytib o'tish lozimki, vasiyatnoma haqiqiy sanalishi uchun u tuzilayotgan davlatning qonuniga rioya qilinishi kifoyadir.

1996-yil 29-avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konsullik Ustavining¹⁴⁸ 35-moddasiga binoan konsul O'zbekiston Respublikasi fuqarosining vafotidan so'ng undan qolgan mol-mulkni qo'riqlash chora-tadbirlarini ko'radi.

Agar qolgan mol-mulkning hammasi yoki uning bir qismi buzilishi mumkin bo'lgan narsalardan iborat bo'lsa, shuningdek ularning saqlanishi o'ta qimmatga tushadigan bo'lsa, konsul bu mol-mulkni sotish huquqiga ega va tushgan pulni tegishli shaxsga jo'natishi shart.

Agar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi vaqtincha chet elda bo'lib va u yerda vafot etsa, konsulga uning pullari va narsalari topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari chet elda ochilgan merosni qabul qilish huquqiga egadirlar. Chet el davlatining qonunchiligi asosida ochilgan vorislik huquqi O'zbekiston Respublikasida to'la ravishda tan olinadi.

Yuqorida aytilganidek, chet elda O'zbekiston Respublikasi fuqarosining vorislik huquqini himoya qilishda konsullarga muhim o'rin ajratilgan. Agar konsulga O'zbekiston fuqarosining foydasiga meros ochilganligi to'g'risidagi ma'lumot yetkazilgan bo'lsa, u ushbu ma'lumotni O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligiga yetkazadi.

Vorislik ishlari bo'yicha fuqarolar va yuridik shaxslar hozir bo'lmagan holda va ish yuritishni biron-bir shaxsga topshirmagan bo'lsalar yoki boshqa sabablarga ko'ra o'z manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'lmasalar, konsullik joylashgan davlat muassasalarida konsul ularning nomidan ishonchnomasiz vakillik qilish huquqiga egadir. Ushbu vakolat ular o'z vakillarini tayinlagunga qadar yoki o'z huquq va manfaatlarini himoya qilishni o'z zimmalariga olgunga qadar davom etadi (Konsullik Ustavining 29-moddasi).

Xalqaro bitimlari asosida konsullar vorislikka tegishli boshqa harakatlar ham qilish huquqlariga egadirlar (meros mulkini qo'riqlash harakatlari, meros to'g'risida guvohnoma olish, meros mulkini keyinchalik merosxo'rga topshirish uchun qabul qilish va hokazo).

¹⁴⁸ O'zbekistonning yangi Qonunlari. 14-son. -T.: «Adolat», 1997-yil.

4-§. Egasiz qolgan mol-mulk

Egasiz qolgan mol-mulk (ingl. heirless property) – fuqarolik huquqida mulkdor ega bo'lmagan mulk (masalan, mulkdor o'z xohishi bilan mulkdan voz kechadi, yoki mulkdor ma'lum emas va hokazo).

Vorislik huquqida meros qoldiruvchining vafotidan so'ng merosxo'rlar bo'lmasa, meros mulki egasiz mol-mulk bo'lib hisoblanadi. Masalan vafot etgan shaxsning qonun bo'yicha merosxo'ri yo'q bo'lishi, yoki ba'zi bir sabablarga ko'ra vasiyatnoma qoldirilgan emas, yoki vasiyatnoma haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi FKning 1157-moddasiga binoan agar qonun bo'yicha ham, vasiyatnoma bo'yicha ham merosxo'rlar bo'lmasa yoxud merosxo'rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo'lmasa yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo'lsa, meros mol-mulk egasiz deb hisoblanadi.

Meros mol-mulk meros ochilgan joydagi mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organining arizasi bo'yicha meros ochilgan kundan e'tiboran bir yil o'tganidan keyin sudning qarori asosida egasiz deb topiladi. Meros mol-mulk, agar uni qo'riqlash va boshqarish bilan bog'liq xarajatlar uning qiymatidan oshib ketsa, ko'rsatilgan muddat o'tishidan oldin egasiz deb topilishi mumkin.

Egasiz mol-mulk u turgan joydagi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi mulkiga o'tadi, bu organ mol-mulkdan voz kechgan taqdirda, davlat mulkiga o'tadi.

Demak, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan egasiz mulk o'zini-o'zi boshqarish organlariga, ular undan voz kechadigan bo'lsalar, davlat mulkiga o'tadi.

Ba'zi bir mamlakatlarda (AQSH, Fransiya, Avstriya) bu masala boshqacha hal qilinadi: mulk egasiz hisoblanishi tufayli davlat mulkni «okkupatsiya» huquqi asosida o'zlashtiradi – bu yerda mulk barcha holatlarda fuqaro vafot etgan mamlakatning mulki bo'lib qoladi (bu yerda fuqaroning doimiy turar joyi yoki fuqaroligi tamoyili qo'llanilmaydi). Shuning uchun ham bu masala ikki tomonlama bitimlarda yechimini topishi lozim va unda, odatda, egasiz ko'char mulk vafot etgan shaxs qaysi mamlakatning fuqarosi bo'lsa, o'sha mamlakat mulkiga o'tishi lozim, egasiz ko'chmas mol-mulk esa mol-mulk qaysi mamlakatda bo'lsa, o'sha davlatning mulkiga o'tishi lozimdir. Bu masala 1993-yil 22-yanvardagi Konvensiyada yuqorida ko'rsatilgandek hal qilingan.

XXI BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Vorislik bo'yicha kollizion normalar
2. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari vorislik huquqlarining o'ziga xos xususiyatlari.
3. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda vorislik huquqlari. Bu borada konsurning roli.
4. Xalqaro xususiy huquqda egalik qolgan mol-mulk. «Okkupa-tsiya» huquqi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Fuqarolik, oila va jipoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida MDH Konvensiyasi. Minsk, 1993-yil 22-yanvar. -Yuridicheskaya informatsionnaya sistema PRAVO. Mejdunarodnoye pravo. 2002-yil 1-apreldagi perezipsi.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 1993-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. -T.: «Adolat», 1996-yil.
4. «Fuqarolik to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-iyul Qonuni // O'zbekistonning qonunlari. 6-son. -T.: «Adolat», 1994-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavi (1996-yil 29-avgust). O'zbekistonning yangi qonunlari. 14 son. -T.: «Adolat», 1997-yil.
6. Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник. - 3-е изд., пере-раб. и доп. -М.: Юристь, 2000.
7. Гражданское и торговое право капиталистических государств. -М.: Международные отношения. 1993.
8. Лунц Л.А., Марышева Н.И., Садиков О.И. Международное частное право: Учебник. -М.: Юрид.лит., 1984. -С.240-247.
9. Лазарев Л.В., Марышева Н.И., Пантелеева И.В. Иностранцы граждане: правовое положение /Под ред. Н.И.Марышевой. -М.: Российское право, 1992.
10. Международное частное право (Действующие нормативные акты). -М.: Институт международного права и экономики. Издательство "Триада", Лтд, 1997.

11. Международное частное право. Отв. ред. Марышева Н.И. –М.: "Контракт", ИНФРА-М, 2000.
12. Панов В.П. Международное частное право: Схемы. Документы. Учебное пособие. –М.: Право и Закон, 1996.
13. Рубанов А.А. Наследование в международном частном праве (отношения СССР с капиталистическими странами) –М.: 1972.
14. Рубанов А.А. Заграничные наследства (отношения между социалистическими и капиталистическими странами). –М.: 1975.
15. Samarxujayev V.B. Xalqaro xususiy huquq. O'quv-metodik qo'llanma. T.: «Eldinur» nashriyot uyi, 1999-yil.
16. Скаридов А.С. Международное частное право: Учебное пособие. -СПб: Изд-во Михайлова В.А., Изд-во "Полиус", 1998.
17. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismiga sharhlar. III jild. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi. –T.: 1998-yil.
18. Юридическая энциклопедия /Под ред. М.Ю.Тихомирова. –М.: 1997.

**XALQARO XUSUSIY HUQUQ BO‘YICHA MEHNAT
MUNOSABATLARI**

**1-§. Mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy
manbalarga umumiy tavsif**

Amalda bizni qiziqtirayotgan soha bo‘yicha xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olingan deyarli hamma hujjatlar Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT, ruscha MOT) tomonidan qabul qilingan.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) 1919-yil Versal shartnomasiga asosan tuzilgan avtonom tashkilot bo‘lib, o‘sha davrdagi Millatlar Ligasi bilan bog‘liq holda, ishchi-mehnatkashlar uchun ijtimoiy adolatni o‘rnatishni ta‘minlash, mehnat va hayot sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish, xalqaro mehnat standartlarini o‘rnatish kabi mehnat sohasidagi siyosatni olib borishda umum boshqaruvga asoslanadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining eng asosiy funksiyasiga xalqaro mehnat standartlarini belgilovchi Konvensiya va tavsiyanomalar qabul qilish kiradi. Xalqaro mehnat tashkilotining barcha konvensiyalari ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalar bo‘lib, ular davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilinib, bu davlatlarning qonunchiligida va amaliyotida o‘z mujassamlig ini topuvchi shartnomalar sifatida ahamiyatga ega. Bundan tashqari, xalqaro tashkilot tomonidan mehnat masalalariga oid boshqa hujjatlar ham qabul qilingan. Ularning asosiylaridan biri bu – Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyanomasi-dir. Ular konvensiyalarga oid masalalar doirasida qabul qilinib va ko‘p hollarda ularga (konvensiyalarga) ilova qilinadi. Konvensiyadagi tartiblar yoki qoidalarni aniqlashtirgan holda ular yanada qonunlar doirasi va chegaralarini belgilaydi. Ular davlatlar uchun bevosita majburiy bo‘lmay, balki mehnat munosabatlarini tartibga solish sohasidagi milliy normalarni tayyorlashdagi asosiy manba, namuna vazifasini o‘taydi.

Tartibga solish obyektlari nuqtayi nazaridan Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiya va taqdimnomalarini quyidagi guruhlarga kiritish mumkin:

1) Mehnat sohasidagi inson huquqlarini himoya qilish masalalariga oid konvensiyalar va kelishuvlar (mehnat qilish, assotsiatsiya huquqlari, mehnat munosabatlaridagi kamsitilishlardan ozod bo'lish huquqi).

Bu guruhdagi hujjatlarga 1960-yilgi mehnat va kasb-mashg'ulotlar sohasida kamsitish to'g'risidagi Konvensiya (Конвенция о дискриминации в области труда и занятий) misol bo'la oladi. Bu hujjatga asosan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zo davlat mashg'uloti va kasb sohasidagi tenglik siyosati bajarilishini ta'minlash, bu siyosatga qarshi har qanday ma'muriy dasturlarni yoki amaliyotni bekor qilishga oid barcha programmalarni qo'llashlari kerak.

Bu guruhga yana 1932-yilgi Majburiy mehnat to'g'risidagi Konvensiyani (Конвенция о обязательном труде) kiritish mumkin. Bu konvensiyaga asosan «Majburiy mehnat» termini har qanday ish yoki xizmatni ixtiyoriy ravishda bajarishni o'zi taklif qilmagan shaxsni, u yoki bu turdagi jazoni qo'llash bilan qo'rqitgan holda mehnatga jalb etish tushuniladi (Ammo bu termin o'z ichiga harbiy xizmatda qo'llaniladigan harbiy xarakterdagi ish yoki xizmatlarni; fuqarolarning oddiy majburiyatlarini tashkil etadigan ish yoki xizmatlar ni; sud qaroriga asosan ma'lum bir shaxsdan talab qilindigan ish va xizmatlar hamda boshqalarni olmaydi). Agar vakolatli hokimiyat organlari xususiy shaxslar, kompaniyalar yoki jamoalar foydasiga hech qanday majburiy mehnatga jalb qilinishlariga ruxsat berishlari mumkin emas; bunday qaror chiqargan har qanday davlat organlari javobgarlikka tortiladilar. Faqat istisno qiluvchi holatlar-dagina davlat organlari majburiy mehnatga jalb qilishi mumkin, lekin ushbu organlar bu ish yoki xizmatlarni favqulodda hollardagina hamma choralar ko'rilganda ham bu ish yoki xizmatga hech kim ixtiyoriy rozi bo'lmagan hollarda jalb qilishlari mumkin. Bu holatlarda faqat yoshi 18 dan kichik bo'lmagan va 45 yoshdan katta bo'lmagan erkaklar jalb qilinishlari mumkin, bular doirasiga vrachning ushbu ishchining mehnatga qobiliyatsiz ekanligini tasdiqlovchi xulosasi bo'lgan shaxslar, shuningdek, maktab o'quvchilari, o'qituvchilari va butun maktab ma'muriyati xodimlari kirmaydi. Majburiy mehnatga jalb qilishning eng ko'p miqdori yiliga 60 kundan oshmasligi kerak.

Majburiy mehnatga oid yana bir Konvensiya 1930-yili qabul qilingan.

Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan chiqarilgan shu guruhdagi hujjatlar qatoriga ko'chirilgan (migratsiya qilingan) – mehnatkashlar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyani (Конвенция о защите прав всех трудящихся-мигрантов и членов их семей) kiritish mumkin.

Konvensiya ko'rsatmalari migrant-mehnatkashlar va ularning ko'chish jarayonida, ya'ni migratsiyaga tayyorlanish, ko'chirish, tranzit va davlatdagi haq to'lanadigan ishdagi faoliyati, shuningdek, davlatga qaytish jarayonlari mobaynida qo'llaniladi. Ushbu Konvensiya boshqa davlat hududidagi migrant mehnatkashlar va ularning oila a'zolari jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, dini, siyosiy yoki boshqa qarashlari, etnik, ijtimoiy mavqeyi, fuqaroligi, iqtisodiy, oilaviy holatidan qat'i nazar qo'llaniladi (Ushbu konvensiya, xalqaro tashkilotlar va muassasalar tomonidan yuborilgan yoki yollangan shaxslarga nisbatan yoki ma'lum bir davlat tomonidan uning hududidan tashqarida rasmiy funksiyalarni bajarishga yuborilgan yoki yollangan, maqomlari konkret xalqaro kelishuvlar yoki konvensiyalar bilan tartibga solinuvchi shaxslarga; qochoqlar va apatridlarga; o'z kelib chiqish davlatidan tashqarida yashovchi va investor sifatida chiquvchi shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi).

Ushbu konvensiya boshqa davlat hududidagi migrant-mehnatkashlarning va ularning oila a'zolarining turli xil huquqlarini o'zida aks ettiradi. Jumladan:

– istagan vaqtda hech qanday qarshiliklarsiz kirib-chiqish, davlatiga qaytish va unda qolish huquqi;

– o'z fikriga ega bo'lish huquqi, ya'ni boshqa shaxslarning huquq va sha'niga putur yetkazmaydigan, milliy xavfsizlikka va jamoat tartibiga tahdid solmagan holda chegaralardan qat'i nazar, har qanday ma'lumot qidirish, olish va tarqatish huquqi;

– migrantning oila a'zolarini majburiy mehnat jalb qilish qullikda yoki ozodligini cheklagan holda saqlash, yakka yoki umumiy tartibda egalik qiladigan xususiy mulklarni tortib olish ta'qiqlanadi;

– hibsga olingan hollarda hibsga olish sabablari va unga qo'yilgan ayblov haqida iloji boricha uning ona tilida xabardor qilish; migrantning kelib chiqish davlati konsullik yoki diplomatik tashkilotiga migrant-mehnatkash hibsga olinganligi haqida habar berish;

– hibsga olish yoki ushlab turishning huquqiy asoslangan ekanligi haqida, shuningdek, agar ushlab turish g'ayriqonuniy bo'lsa, ularni

ozod qilish to'g'risida darhol qaror chiqarishlarini talab qilib ish qo'zg'atishlari mumkin.

Ushbu Konvensiyada har bir qatnashuvchi davlat huquq va erkinliklari buzilgan har qanday shaxsni tegishli darajada huquqiy himoya qilish majburiyatini oladi. Barcha hollarda ham migrant-mehnatkashlar ozodlikdan mahrum bo'lgan hollarda uning oila a'zolari, xususan, eri (xotini) va yosh bolalari duch keladigan muammolarni hisobga oladilar. Migrant-mehnatkashlar va ularning oila a'zolariga ularning ayblari isbotlanmaguncha aybsizlik prizumpsiyasi tatbiq etiladi. Migrant-mehnatkash g'ayriqonuniy hibsga olinganda yoki ushlab turilganda, u kompensatsiya olish huquqiga ega. Shunday qilib, konvensiyada migrant-mehnatkashlar davlat fuqarolari singari mehnat bilan ta'minlanish huquqlariga ega ekanliklari hamda tenglik prinsipidan chekinishlar g'ayriqonuniy hisoblanishi o'z aksini topgan.

2) Ish bilan ta'minlash va ishsizlik oqibatlarini bilan kurash to'g'risidagi kelishuv va konvensiyalar. Ular doirasiga eng avvalo 1950-yilgi «Ish bilan ta'minlash xizmatini tashkil qilish to'g'risida»gi Konvensiya (Конвенция об организации службы занятости) kiradi. Bu konvensiyaga ko'ra ish bilan ta'minlash xizmati quyidagilarni tashkil etadi: mehnatkashlarni iloji boricha ma'qul ishga joylashtirish, buning uchun mehnatkashlarga ma'qul ishni topishga yordam ko'rsatish, malakasiga qarab bo'sh ish joylariga yuborish. Ushbu Konvensiya mazmunan faqat ishsiz va ish qidirayotgan shaxslar uchungina emas, hali mehnat bozorida o'z o'rnini qidirayotgan balki hali mehnat bozorida o'z o'rnini topmagan va maksimal darajada ijtimoiy va huquqiy kafolatlarga muhtoj yoshlarga ish topishda yordam va madad berishga mo'ljallangan.

Mehnat sharoiti, dam olish vaqti, shuningdek, mehnatga haq to'lash, ish vaqti va mehnatni muhofaza qilishga oid masalalar. Bu turdagi hujjatlarga 1936-yilgi «Bolalarni dengizda ishlashga yo'l qo'yiladigan eng kam yosh to'g'risida»gi¹⁴⁹ Konvensiyani kiritish mumkin. Unga asosan 15 yoshdan kichik bo'lgan bolalarni kema bortlarida ishlashlari man etiladi, oilaviy ishlaydiganlar bundan mustasno (Ammo milliy qonunchilik, 14 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarga sog'liq va jismoniy rivojlanishlariga qarab, shuningdek, bolalarning manfaatlarini ko'zlab agar maktab yoki boshqa vakolatli

¹⁴⁹ Конвенция о минимальном возрасте допуска детей на работу в море.

hokimiyat organi ushbu ish bolaning manfaatlariga to'g'ri keladi deb topgan hollarda ishlashga ruxsat berishni nazarda tutishi mumkin).

Har bir kapitan yoki kema boshlig'i (egasi) o'z kemasida 16 yoshga to'lmagan barcha shaxslarning nima ish bilan bandliklari haqida, ularning tug'ilgan kunlari haqidagi ma'lumotlarni yozib borishlari shart.

Ishga qabul qilishning ma'lum bir sohalaridagina emas, balki umumiy qabul qilish yoshi belgilangan hujjatlar ham mavjud. Bunga 1973-yilgi «Ishga qabul qilishning eng minimal yoshi to'g'risida»¹⁵⁰ Konvensiyani kiritish mumkin.

Xalqaro mehnat tashkilotining a'zo davlatlariga milliy siyosatni olib borishda bolalar mehnatini soddalashtirish va ishga qabul qilishda eng minimal yoshni, balog'atga yetgan shaxsning jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda asta-sekinlik bilan ko'tarish tavsiya etiladi. Konvensiyaga asosan eng minimal yosh 15 yoshdan kam bo'lishi mumkin emas. Iqtisodiyoti va ta'lim tizimi yetarli darajada rivojlanmagan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zo davlatlari, tegishli tadbirlar va mehnatkashlar organlari bilan (agar bundaylar mavjud bo'lsa) maslahatlashgan holda eng minimal mehnat yoshini 14 yosh qilib belgilashlari mumkin (Har qanday ishga yollash yoki boshqa ishlarda eng kichik yosh agar ish o'z xarakteri yoki boshqa sharoitlariga ko'ra o'spirinning sog'lig'i, xavfsizligi yoki axloqiga zarar yetkazadigan bo'lsa, 18 yoshdan kichik bo'lmasligi kerak).

Yollanma ish yoki boshqa turdagi ishlar tegishli hokimiyat organlari 16 yoshdan kichik bo'lmagan shaxslar, ularning sog'lig'i, xavfsizligi va axloqiga putur yetkazmagan holda, shuningdek, ularni ma'lum bir sohada mutaxassislikka ega bo'lishlari uchun ishlashlariga ruxsat berishlari mumkin (yollashning bunday turlari milliy qonun va qoidalar bilan belgilanadi).

Konvensiyadagi bu holatlar eng avvalo konlarda, qurilishlarda, elektr-gaz xizmatlarida, transport, omborxonalar va aloqa xizmatlarida, plantatsiyalarda va boshqa qishloq xo'jalik korxonalaridagi ishlarga taaluqlidir. Oilaviy, mayda mahalliy iste'mol uchun mahsulot ishlab chiqaradigan va doimiy yollanma ishchi (ishchilar) ishlatmaydigan xo'jaliklar bundan mustasno. Vakolatli davlat organlari ushbu Konvensiyadagi holatlarni hayotga tatbiq etish borasida kerakli chora-tadbirlarni, shuningdek, kerakli javobgarlik

¹⁵⁰ Конвенция и минимальном возрасте приёма на работу.

masalalarini hamda Konvensiyalarning ijrosini nazorat qiluvchi shaxslarni belgilashlari shart.

Mehnatga haq to'lash masalalariga oid Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan chiqarilgan hujjatlar guruhiga 1990-yilgi «Tungi mehnat to'g'risida»gi¹⁵¹ Konvensiyani kiritish mumkin. Ushbu Konvensiya qishloq xo'jaligi, hayvonotchilik, baliqchilik, dengiz va daryo transportida ishlovchilardan tashqari, barcha ishlarda ishlovchi shaxslarga tatbiq etiladi. Tungi vaqtda ishlovchi shaxslarga tegishli tibbiy xizmat olish, kompensatsiya olish imtiyozlari beriladi. Agar ishchi tungi ishga yaroqsiz bo'lib qolsa, u bajara oladigan boshqa shunga o'xshash ishga o'tkaziladi.

Bu guruhga 1981-yilgi «Mehnat xavfsizligi va gigiyenasi to'g'risida»gi¹⁵² Konvensiyani ham kiritish mumkin. Ushbu Konvensiyaga asosan Xalqaro mehnat tashkilotining a'zosi bo'lgan davlatlar mehnat gigiyenasi, mehnat xavfsizligi va ishlab chiqarish sohasidagi milliy siyosatni ma'lum davrlar mobaynida qayta ko'rib chiqishlari lozim bo'ladi. Bundan asosiy maqsad mehnat natijasida yuzaga keladigan baxtsiz hodisalar va sog'liqqa zarar yetkazilishni minimal darajaga tushirishdan iborat. Shuningdek, «Aynan bir xil qiymatdagi mehnat uchun erkak va ayollarni bir xilda rag'batlantirish to'g'risida»gi¹⁵³ 1954-yilgi Konvensiyani ham aytib o'tish kerak. Konvensiya mazmuniga ko'ra, rag'batlantirish tushunchasi ishchiga tadbirkor tomonidan biror-bir ishni bajargani uchun beriladigan har qanday bevosita yoki bilvosita mukofotlar tushuniladi. Ushbu tamoyil milliy qonun chiqaruvchi organlar ishchilar (xodimlar) va tadbirkorlar o'rtasida tuziladigan jamoa kelishuvlari, shuningdek, qonunchilik bilan belgilangan yoki tan olingan mukofotlarni belgilash yo'li bilan qo'llanilishi mumkin.

1967-yilgi «Bir ishchi tomonidan ko'tarilishi mumkin bo'lgan eng og'ir yuk normasi to'g'risida»gi¹⁵⁴ Konvensiyaga asosan mehnatkashlar tomonidan ularning sog'lig'i yoki xavfsizligiga ziyon yetkazadigan darajada og'ir yuk ko'tarishni talab qilish yoki yo'l qo'yish man etiladi. Bunday ishlarda ayollar va voyaga yetmaganlarning ishlashi chegaralanadi. Ushbu Konvensiyaning Taqdimnomasi mavjud bo'lib, unga asosan bunday ishlarga yo'l qo'yilishidan oldin mehnatkash o'tishi lozim bo'lgan tayyorgarlik va

¹⁵¹ Конвенция о ночном труде.

¹⁵² Конвенция о безопасности труда и гигиене труда и производственной среде.

¹⁵³ Конвенция о равном вознаграждении и женщин за труд равной ценности.

¹⁵⁴ Конвенция о максимальном грузе, допустимом для переноса одним трудящимся.

instruktaj belgilangan, shuningdek, tibbiy ko'rikdan o'tish hollari ham ko'rsatib o'tilgan.

4) Mehnatkashlarning ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minotiga oid hujjatlar (ishdagi baxtsiz hodisa va mehnat kasalligidan sug'urtalash va vaqtinchalik ishga yaroqsizlik hollarida taqdim etiladigan nafaqalar). Ushbu guruhga «Migrantlarning ijtimoiy ta'minoti sohasidagi huquqlarini saqlash to'g'risida»¹⁵⁵gi Konvensiyani ko'rsatib o'tish mumkin. Konvensiya ijtimoiy ta'minot sohasida zaruriyat tug'ilgan hollarda xohlagan joyda va har vaqt himoya olish huquqini beradi. Ushbu Konvensiya ijtimoiy ta'minot sohasining tibbiy xizmat, kasallik nafaqasi, onalarga homiladorlik va bola tug'ilganda beriladigan nafaqa, nogironlik nafaqasi va boshqa huquqlarga nisbatan qo'llaniladi.

Mehnatkash migrantlar barcha fuqarolar bilan tenglik asosida hayotlari yoki sog'liqlariga jiddiy zarar yetishi mumkin bo'lgan hollarda tibbiy yordam olish huquqiga, shuningdek, kasb kasalligi, homiladorlik va bola tug'ilishi, kasallik, qarilik va boshqalar bo'yicha nafaqa olish huquqiga egadirlar.

Mehnatkash-migrantlarning ijtimoiy kafolatlariga ijtimoiy mehnatga oid masalalar bo'yicha joylashgan davlatdagi sudlarga yoki ma'muriy organlarga murojaat qilish huquqlarini kiritish mumkin. Mehnatkash-migrantlar ijtimoiy himoyalangan bo'lishlari kerak, ya'ni ularning huquqiy holatlari mehnat qonunchiligi yoki jamoa kelishuvlari tomonidan hisobga olingan bo'lishi kerak, ular hech qanday to'siqlarsiz davlatning ijtimoiy ta'minoti tizimi xizmatidan foydalanishlari mumkin.

5) Ish beruvchi va mehnatkash o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, shuningdek, mehnat nizolarini hal qilish, nogironlik hujjatlari ham alohida guruhni tashkil etadi. Bularga masalan, «Ixtiyoriy tatbiq qilish va arbitraj to'g'risida»¹⁵⁶gi 1951-yilgi Tavsiyanomani kiritish mumkin. Tavsiyanomaning asosiy maqsadi bo'lib, ish beruvchi (korxonalar) va mehnatkashlar o'rtasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarning oldini olish va hal qilishdan iboratdir. Buning uchun milliy sharoitlarga mos keladigan ixtiyoriy tatbiq qiluvchi organlar tuzilishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardan ko'rinib turibdiki, Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan qabul qilinadigan Konvensiya va

¹⁵⁵ Конвенция о сохранении прав мигрантов в области социального обеспечения.

¹⁵⁶ Рекомендация о добровольном применении и арбитраже.

tavsiyanomalar mehnat munosabatlariga oid turli xil masalalarni o'z ichiga qamrab olib, barcha mehnatkashlarga mos keladigan va ko'p hollarda ish beruvchining aybi bilan og'ir ahvolga tushib qolgan inson mehnatini himoya qiluvchi, uning mehnat sharoitini iloji boricha yaxshilashga qaratilgan hujjatlardan iboratdir.

Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan bir necha o'n yillar oldin qabul qilingan hujjatlar hamon o'z ahamiyatini yo'qotmay, hozirgi vaqtda ham juda dolzarbdir. Shuni aytish kerakki, hozirgi vaqtda darhol yechimini yechish talab qilinadigan yangi masalalar vujudga kelmoqda. Ana shular asosida Xalqaro mehnat tashkiloti o'z ishini tashkil qiladi va rejalashtiradi.

2-§. Mehnat munosabatlariga oid inson huquqlarini himoyalovchi xalqaro huquqiy ta'minot

1948-yil Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi (Всеобщая декларация прав человека) qabul qilindi. Ushbu deklaratsiyada inson huquqlari va xususan mehnat migratsiyasiga insonparvarlik nuqtayi nazaridan yondoshib, inson tomonidan, o'z erkiga ko'ra eng maqbul iqtisodiy, ijtimoiy va oilaviy ishlash sharoitini tanlash huquqi borligi tan olingan. Ushbu masalaga doir 1989-yilgi Venada bo'lib o'tgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining kengashida Yakunlovchi hujjat (Итоговый документ) qabul qilindi. Uning qismlaridan birida har bir insonni istagan mamlakatni, shuningdek, o'z davlatini ham tashlab chiqib ketishi va qaytib kelish huquqi hurmat qilinishi ko'rsatilgan.

Inson huquqlari va xususan, mehnat munosabatlari, eng avvalo, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy strukturasi va huquq bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog'liqdir.

Xalqaro tasnifda o'rnatilishicha, insonlarning mehnat sohasidagi asosiy huquq va erkinliklariga quyidagilar kiradi:

– mehnat va to'liq ish bilan bandlikning ta'minlanish huquqi;

– majburiy mehnatdan xoli bo'lish;

– mehnatga bo'lgan huquq munosabatlarida har qanday kamsitilishlardan xoli bo'lish va h.k.

Ushbu huquq va erkinliklar muhim ahamiyatli xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan. Mehnat qilishga bo'lgan huquq yuqorida aytib o'tilgan Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasida va Xalqaro Paktda ko'rsatib o'tilgan. Paktda ishtirok etuvchi davlatlar «Har bir

insonning o'zi erkin tanlagan yoki iqtisodiy rozi bo'lgan mehnati bilan o'z hayotini ta'minlash huquqini o'z ichiga oluvchi mehnat qilishga bo'lgan huquq va ushbu huquqni ta'minlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirishlarini tan oladilar». XX asrning yutug'i erkak va ayollarning mehnat bilan band bo'lish sohasidagi tenglik tamoyiliga asoslanilganini tan olishimiz kerak, lekin amaliyotda ayrim mamlakatlarda ushbu yutuq munozarali mavzu bo'lib kelmoqda.

Erkak va ayollarning teng huquqliligi birinchi bor AQSHda davlat tomonidan tartibga solishning ta'sirli vositasiga aylandi. Bu 1964-yilgi «Fuqarolik huquqlari to'g'risida»gi Bill bilan bog'liq bo'lib, ushbu Bill irqiy kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik qatorida ayollar huquqini himoya qiladi. Ayol va erkaklarning teng huquqda barcha tashkilotlarning iyerarxik tuzilishida band bo'lishi ham AQSHda ishlab chiqilgan. Yevropada 70-yillar o'rtalarida bu sohada eng avvalo, Yevropa sud amaliyoti hisobidan ma'lum muvaffaqiyatlarga erishildi. Yaponiyada ham shunga muvofiq qonun qabul qilindi, lekin bu qonun ko'pchilik Yapon mualliflari tomonidan qattiq tanqid ostiga olindi.

Xalqaro inson huquqlarini himoya qilish faoliyatida asosiy mehnat huquqlarini ta'minlash muammosi alohida o'rin kasb etadi. Bu toifadagi inson huquqlari va erkinliklariga bo'lgan katta e'tibor jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizi bilan uzluksiz bog'liq bo'lgan, jamiyatning mehnat va mehnat munosabatlari sohasidagi fuqarolarning maqomi bilan izohlanadi.

3-§. Mehnat munosabatlarini milliy huquq normalari bilan tartibga solish

Chet el elementi ishtirokidagi mehnat munosabatlari, xalqaro huquq normalaridan tashqari davlatning ichki qonunchiligi bilan ham tartibga solinadi. Agarda mehnatkash migrant ko'chib kelgan shaxs yoki chet el fuqarosi bo'lsa mehnat munosabatlarini tartibga solishning asosiy uslubi sifatida ma'lum bir huquq tizimi tamoyillariga asoslanuvchi kollizion usul qo'llaniladi.

1) Mehnat joyiga mamlakat huquqini qo'llashning kollizion prinsipi (LEX Iosi Iaboris). 1980-yilgi Yevropa Konvensiyasida, shuningdek, mehnat munosabatlari sohasidagi kollizion normalarni umumiy tartibga solish to'g'risidagi YEIH (Yevropada iqtisodiy

hamkorlik) Konvensiyasining loyihasida o'z aksini topgan. Ushbu tamoyil Avstriya, Vengriya, Ispaniyaning mehnat qonunchiligida, Niderlandiya va Braziliyaning sud amaliyotida ham o'z aksini topganligini qayd etish mumkin.

2) «Kontrakt bilan yaqin bog'liqlik» (LEX Ioci Iaboris) tamoyili. Mehnat joyiga mamlakat qonunini qo'llash tamoyili yetarli darajada universal emas, ya'ni mehnat munosabatlari elementlarining barcha jabhalarini va xalqaro mehnatning barcha holatlarini qamrab olmaydi. Masalan, Chexiyaning xalqaro xususiy huquqi LEX Ioci Iaboris bilan bir qatorda Yollovchining tadbirkorlik faoliyati joyi haqidagi qonunni qo'llash qo'shimcha kollizion bog'lovchi (privyazka) sifatida qo'llaniladi. ko'p hollarda taraflar o'z kelishuvlarini qanday huquq asosida tartibga solinishi haqida kelisha olmaydilar. Bu hollarda ko'p davlatlar «Kontrakt bilan yaqin bog'liqlikda» («Близкой связи с контрактом») tamoyilidan kelib chiqib ko'p nizoli masalalarni yechishga harakat qiladilar.

3) «Subyektiv nazariya» tamoyili. Ushbu tamoyil ishga joylashtirish munosabatlarini kontraktida belgilangan majburiyatlar yordamida tartibga solishdagi huquqni belgilashga yordam beradi. Masalan, taraflar nizoni ma'lum bir mamlakat sudiga hal qilish uchun topshirishga rozi bo'lishlari ishni qaysi yurisdiksiyaga topshirishga qaror qilgan mamlakat huquqining qo'llanishini istashlarini ko'rsatadi.

2-LEX Ioci Isboris tamoyilini ish beruvchida yoki mintaqada yoxud bir mamlakatda ishlayotgan ishchilarni kamsitilishini oldini olishga qaratilgan bo'lib, har yili ushbu tamoyil davlatlarning qonun ijodkorligida o'z aksini topmoqda.

Alohida hollarda, agar ish bir necha mamlakatlarda bajarilgan taqdirda, ularga nisbatan qo'shimcha kollizion normaning bog'lovchi qismi (privyazka) tatbiq etiladi. Masalan, Avstraliyaning xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi qonunida agar ishchi o'z ishini bir necha mamlakat hududida amalga oshirsa yoki uning faoliyati amalga oshiriladigan mamlakat hisobidagi qonuni qo'llaniladi. Agar xodim (ishchi) boshqa mamlakatga xizmat safariga u yoki mehnat topshiriqlarini bajarish uchun yuborilganda, xodimni xizmat safariga yuborgan tashkilot mamlakati qonuni qo'llaniladi (LEX Ioci delegations).

Xalqaro transport (havo, avtomobil, temir yo'l, dengiz) xodimlarining mehnat kontraktlariga nisbatan boshqa kollizion mezon qo'llaniladi:

– dengiz transportida – bayroq qonuni (Italiya, Fransiya, Vengriya va h.k.);

– suv va havo transportida kemani ro'yxatga olish joyidagi qonun (Albaniya);

– temir yo'l va avtomobil transportida – tashuvchining qonuni (Vengriya) va h.k.

Mehnatni huquqiy tartibga solishning muhim tomonlaridan yana biri shuki, keyingi yillarda «Mehnatkash migrantlar» faoliyatini huquqiy tartibga solish muammosi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xalqaro mehnat bozorining shakllanishida mehnatkash-migrantlar ham alohida o'rin tutadi. Ushbu toifadagi shaxslarga 1975-yilgi Xalqaro mehnat tashkilotining «Mehnatkash-migrantlar to'g'risida»gi Konvensiyasi quyidagilarni kiritadi (1990-yilgi mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyada «Mehnatkash-migrant bu boshqa davlat fuqarosi bo'lmay, haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanadigan, shug'ullanayotgan yoki shug'ullangan shaxsdir» deyiladi. 1994-yil imzolangan MDH doirasida mehnat migratsiyasi va mehnatkash-migrantlar, ijtimoiy ta'minot sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi kelishuvda, mehnatkash-migrant (ishchi) – bu chiqib ketish tarafida chiqib kelgan mamlakatida doimiy yashovchi va qonuniy asoslarda kirib kelish (сторона выезда) tarafi mamlakatida haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar deyiladi): Bir mamlakatdan ikkinchisiga har qanday ish topish maqsadida emigratsiya qilingan shaxs chiqish bilan bog'liq xarajatlarni o'z hisobidan qoplaydi.

Mamlakatga qonuniy asoslarda mehnatkash sifatida kirgan shaxsgina mehnatkash-migrant deb tan olinishi mumkin.

Bu holat quyidagilarga nisbatan qo'llanilmaydi:

– chegara rayondagi mehnatkashlarga;

– mamlakatga ma'lum bir muddatga kirgan artistlar va ozod kasb egalari:

– dengizchilarga;

– ta'lim olish yoki tayyorlanish maqsadida kelganlarga;

– ma'lum bir mamlakat hududida maxsus bir funktsiya yoki topshiriqni bajarish uchun kiritilgan korxonalar va muassasalar xodimlariga va h.k.

Shunday qilib, «mehnatkash-migrant» termini quyidagi shaxslarga nisbatan qo'llaniladi:

a) boshqa mamlakat hududida yashayotgan;

b) qonuniy asoslarda yashayotgan;

c) shu mamlakat hududida mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan;

d) hamda ushbu davlatning fuqarosi bo'lmagan shaxslarga.

Keyingi yillarda sanoati rivojlangan, o'z hududida mehnatkash-migrantlarni ko'p ko'lamda qabul qiladigan mamlakatlarning qonunchilik amaliyotida chet el fuqarolarining ish olishlariga ruxsat beradigan qoidalar yo'nalishi kuchaytirildi. Masalan, Germaniyada:

– davlat hududida 5 yil istiqomat qilgandan so'nggina istagan turdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanish mumkin bo'ladi;

– ma'lum bir rayonlarga chet el mehnatkashlarini kirishi man etiladi va shu bilan birga ularning u yerda ishlashlari ham;

– chet ellar to'g'risidagi qonunga asosan Yevropa iqtisodiy hamkorlik doirasiga kirmaydigan mamlakatlarning mehnatkash-migrantlari, ishlarni kontraktida ko'rsatilgan muddat davomida hamda tadbirkorlar va hokimiyat organlarining ruxsatisiz almashtirishlari mumkin emas;

– xotiniga (eriga) Germaniyada 4 yil yashagandan so'ng ishlashga ruxsatnoma beriladi, bolalariga esa 2 yildan keyin.

AQSHning muhojirlar, ko'chib kelgan va o'z fuqarosi qilib olingan shaxslar bo'yicha xizmati ham boshqa mamlakatlar fuqarolariga amerikalik ish beruvchilarda ishlashga ruxsatnoma beradi. Ishlashga ruxsatnoma, lekin ma'lum bir cheklashlar bilan 1-94 turdagi viza shaklida ishga yollash bo'yicha kontraktlarga asosan 2 yildan 6 yilgacha, soatiga 8 dan 12 dollargacha miqdorlarda ish haqi to'lanadigan holda berilgan.

Janubiy Afrika Respublikasida esa ishga qabul qilish, shuningdek, immigratsiya qilishning eng asosiy mezonlarini quyidagilar belgilaydi: tegishli yosh (45 yoshgacha), yaxshi salomatlik, mamlakat uchun kerakli mutaxassislik, yuqori kvalifikatsiya tartibga keltirilgan oilaviy holat (nikohda bo'lish, ajralgan bo'lish).

Shveysariyada chet elga beriladigan ruxsatnomada shaxs bajara oladigan ish turi ham ko'rsatilishi kerak; agar chet ellik ish

faoliyatini o'zgartirsa yoki o'rindoshlik asosida ishga kirsa, mamlakatda yashashi uchun yangi ruxsatnoma olishi shart.

Shveysariyada bir necha yillar mobaynida chet elliklarga ish faoliyatini va ish joyini o'zgartirish man etiladi.

Shuni e'tirof etish lozimki, ishga qabul qilishga tenglik asosida yo'l qo'yilishi, ish joyini erkin tanlash va o'zgartirish imkoniyati berilsa-da, chet elliklar bu imkoniyatlardan mahrumlar.

Ba'zi bir mamlakatlar amaliyotida chet elliklar mehnatiga bevosita va bilvosita cheklashlarga yo'l qo'yish siyosatini olib boradi. To'g'ri cheklashlar orasida chet ellik korxonada yoki konkret bir yollovchida ma'lum bir mansabda ishlash uchun berilgan ruxsatnoma (work permit) talab etiladi (Fillipin, Belgiya, Finlandiya, GFR, Lyuksemburg va boshqalar). Chet elliklar mehnatiga yo'l qo'yish bevosita ham, ya'ni yollovchilarga korxonalarda chet ellik yoki belgilangan proporsiyada milliy ishchilarni yollashga ruxsatnoma berish (employment authorization) orqali ham cheklanishi mumkin (Avstriya, Niderlandiya, Panama). Ba'zi davlatlar qonunchiligi (Belgiya) bir vaqtning o'zida ham ishchidan (work permit), ham yollovchidan (employment authorization) maxsus ruxsatnomalarga ega bo'lishni talab qiladi.

Xalqaro mehnat tashkiloti a'zo davlatlarga alohida turdagi ishlariga yo'l qo'yishni chegaralab qo'yishi mumkin. Bu davlat manfaatlarini ko'zlab yoki boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklariga tegishli bo'lgan hollardagina amalga oshirilishi mumkin. Xalqaro mehnatkashlar migratsiyasi sohasidagi siyosat, ishchi kuchi bilan ta'minlovchi mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlariga to'g'ri kelishi kerak.

Mehnatkash-migrantlarning asosiy huquq va ijtimoiy kafolatlari quyidagicha tuzilgan bo'lishi mumkin. Xalqaro normalarda mehnatkash migrantlarning ko'zda tutilayotgan mamlakatdagi ish joyi va ish sharoiti, shuningdek, ishga joylashish imkoniyatlari haqida ma'lumot olish huquqlari berilgan. Bu ma'lumot ularga jo'nab ketishdan oldin berilishi kerak. Xalqaro mehnat tashkilotining 86-Taqdimnomasida ko'rsatilishicha, migrantlarning ma'lumot olishlari bepul amalga oshiriladi.

Xalqaro mehnat tashkilotining taqdimnomalari barcha ma'lumotlar singari, mehnatkash-migrantlarning sog'lig'ini himoya qilish bilan bog'liq aniq ma'lumotlarni ham o'z ichiga olgan. Ishchi va uning oila a'zolarini chet elga yuborishdan oldin, chet elda yashash

vaqtida hamda Vataniga qaytganida tibbiy ko'rikdan o'tishi zarurligi ko'zda tutiladi. Yakka tartibda ishlovchi mehnatkash-migrantlarga birinchidan, Vatanida davlatning valutali tibbiy sug'urtasini olish imkoniyati, ikkinchidan, davlat yoki nodavlat sug'urta institutlarining birini tanlash huquqlari kafolatlangan bo'lishi kerak.

Alohida guruhni, migrantlarning mehnat sharoiti, unga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro normalar tashkil qiladi. Mehnatga haq to'lash sohasida xalqaro qonunchilikka ko'ra migrant mamlakat tub fuqarolari ham teng huquqlidirlar, shuningdek, bu qoida belgilangan eng kam ish haqi miqdoriga ham taalluqlidir. Xalqaro normalarga asosan mehnatga haq to'lash o'z vaqtida va naqd pul birligida to'lanishi kerak.

Migrantlar va u kelgan mamlakat tub fuqarolarining tenglik tamoyili, mehnat sharoitiga oid boshqa munosabatlarda ham, ish kuni davomiyligi, dam olish vaqti, nafaqa olish, mehnatni muhofaza qilish, shuningdek, mansab bo'yicha ko'tarilish kabi munosabatlarda ham to'la amal qiladi.

Migrantlarning ijtimoiy ta'minotini tartibga soluvchi xalqaro normalar to'liq va batafsil ishlab chiqilib ularda, xususan, migrant bilan mahalliy ishchilarning mehnatda nogiron bo'lganda, homiladorlik, bola tug'ilishi, kasallik, qarilik, shuningdek, ishsizlikda va boshqa hollarda nafaqa olish huquqlarining tengligi ham ko'zda tutilgan.

Migratsiyaga oid xalqaro Konvensiya va taqdimnomalarda mehnatkash-migrantlarning fuqarolik va ijtimoiy huquqlarini reglamentlovchi uchun normalar guruhi alohida o'rin tutadi, bular:

- kelgan mamlakati doirasida erkin harakatda bo'lish;
- o'sha mamlakat madaniy hayotida ishtirok etishi hamda o'z madaniyati, dini va milliy odatlarini saqlash huquqi;
- mamlakat fuqarolari bilan teng asoslarda ta'lim olishga yo'l qo'yish.

Migrantlarning ijtimoiy kafolatlari doirasiga davlat-rezident fuqarolari bilan tenglik asosida ijtimoiy mehnatga oid nizolarni hal qilish uchun sudlarga yoki ma'muriy organlarga murojaat qilish huquqlarini kiritish mumkin.

Xalqaro konvensiyalarga ko'ra kelib chiqish mamlakati fuqaroligini saqlab qolgan migrantlar vataniga qaytganlaridan so'ng davlatdan turli xil moddiy va ma'naviy yordam olish huquqiga egadirlar (ishsizlik nafaqasini olish, ish qidirishda Ko'maklashish) va h.k.

Mehnatkash-migrantlarning manfaatlarini huquqiy himoya qilishning asosini shakllantirish uchun ularning huquqlarini amaliyotda tatbiq etilishini ta'minlash zarur hisoblanadi. Bu fuqarolarning haqiqatdan ham himoyalaniishi, ushbu masalani yechishga javobgar bo'lgan davlat organlari ishining qanday tashkil etilishiga ham bog'liqdir. Mehnatkash-migrantlarni ijtimoiy himoya qilishda, ularni maksimal darajada huquqi va imkoniyatlarini chet ellik ish beruvchilar tomonidan buzilishi bilan bog'liq masalalar yuzasidan mavjud ma'lumotlar bilan tanishtirish va ularga zarur ma'lumot berish, qonunchilik hujjatlarini tayyorlash bosqichida muhim ahamiyatga egadir.

4-§. Mehnat bozorini tashkil qilishning huquqiy aspektlari

Asrlar mobaynida mehnatga bo'lgan talab va ish kuchini taklif qiluvchilar o'rtasida vositachilik qilib, o'ziga foyda orttirmoqchi bo'lgan odamlar ko'p bo'lgan. XX asr boshlarida xususiy ishga yollash byuroolari faoliyat yuritmaydigan bir nechagina mamlakat qolgan edi, xolos.

Qadrli ishchilarni qidirish va tanlash – bu asr boshlarida chuqur ildiz otgan kasbdir.

1908-yil olijanob ingliz burjuasi, Angliyaning ishbilarmon doiralari katta obro'ga ega bo'lgan Persi Kutte, Angliya kolonniyalari qaytgan ofitserlarni ishga joylashtirishda yordam berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va o'zi bilmagan holda keyinchalik ozodlikka chiqqan shaxslarni ishga joylashtirish xizmati deb nom olgan faoliyat bilan shug'ullandi.

Keyingi vaqtda ishga joylashtiruvchi kompaniyalarning kengayish jarayoni anchagina tezlashdi. Ishga joylashtiruvchi xususiy agentliklarni, kontrakt yoki mukofot evaziga (gonorar yoki dotatsiya) jismoniy shaxslarga yoki mijoz-tashkilotlarga ish joylarini to'ldirish borasidagi xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilot deyish mumkin. Mazkur masala bilan shug'ullanishga ixtisoslashgan 16 turli xildagi agentliklar bo'lib, ularni o'z navbatida 5 asosiy guruhga ajratish mumkin, bular:

- ishga joylashtiruvchi pullik byurolar;
- chet ellarda ishga joylashtiruvchi agentliklar;
- chet ellik fuqarolarni yollovchi va ishga joylashtiruvchi agentliklar.

Vaqtincha ishga joylashtiruvchi, ish kuchi ikkilamchi ijarasi bo'yicha, kadr xodimlarni qidiruvchi va tanlovchi, bo'shagan ish kuchini ishga joylashtiruvchi (outplacemen) agentliklar va maslahat byurolari;

kasb-korga tayyorlov va ishga joylashtiruvchi markazlar, ish bilan bandlik bo'yicha ma'lumotlar bankini tashkil qilish bilan shug'ullanuvchi markazlar, kasb-kor va xizmat bo'yicha ko'tarilish muammolari bilan shug'ullanuvchi markazlar.

Ishga joylashtiruvchi pullik byurolar eng an'anaviy shakldagi agentliklar hisoblanadi. Bu agentliklar ish joyiga bo'lgan talab bilan ish joyiga taklif qiluvchilar o'rtasida bog'lovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham ular mehnat kontraktida o'z imzosini qo'yish huquqiga ega emaslar. Bu agentliklarning mehnat bozoridagi faoliyati ish joylari tanqis bo'lgan bir sharoitda ma'lum lavozimga eng yaxshi nomzodlarni tanlashdan iboratdir. Ularga nisbatan Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiyalari hamda boshqa mehnat munosabatlariga oid xalqaro huquqiy normalar tatbiq etilishi mumkin, chunonchi:

– ular o'z faoliyatlarini amalga oshirish uchun litsenziya olishlari shart;

– ish qidiruvchi shaxslardan haq olishdan batamom voz kechishlari kerak;

– ularning faoliyati davlatning kuchli nazorati ostida amalga oshirilishi kerak.

Chet ellarda ishga joylashtiruvchi agentliklar, Hind okeani va janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida, xususan, Fors ko'rfazidagi arab mamlakatlarida juda ko'p bo'lib, ular bu mamlakatlardagi ishchilarni chet ellarda ishlash uchun tanlash va yollash ishlarini amalga oshiradilar. Bu agentliklardan eng kuchlilari qabul qiluvchi mamlakatlarda o'z filiallariga ega bo'lib, ularning vakolat doirasiga ishga joylashtirish haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tarqatish, uning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilib borish, ularning yordami bilan ishga olingan mehnatkashlarni himoya qilish kabilar kiradi. Bu agentliklar asosan mehnat masalalari bilan shug'ullanuvchi organlarning bevosita ularning faoliyatiga daxldor bo'lgan qonunchiligiga amal qilishlari shart. Ular chet el tadbirkorlarining vakili sifatida faoliyat yuritadilar va bu hollarda mehnat kontraktini imzolash huquqiga ega bo'ladilar yoki ko'p hollarda vositachi sifatida chiqadilar.

Chet ellik fuqarolarni yollovchi va ishga joylashtiruvchi agentliklarning funksiyalari yuqoridagilarning funksiyalariga mos kelib, bu agentliklar ushbu mamlakat mahalliy mehnat bozori muhtoj bo'lgan ish beruvchilar uchun chet ellik mehnatkashlarni tanlash va yuborish tomonidan farq qiladi.

Bunday agentliklarning ko'pchiligi, ish bilan ta'minlovchi mamlakatlar o'rtasida, o'z ish beruvchi mijozlari uchun eng qulay va yaxshi shart-sharoitlarni belgilashga harakat qiladilar.

Vaqtinchalik ishga joylashtiruvchi agentliklar, eng avvalo, AQSH mehnat bozorida vujudga kelib, ishga joylashtiruvchi xususiy kompaniyalar ichida eng yirigi hisoblanardi. Bu kompaniyalarning faoliyati ko'p joylarda iqtisodiy sektorlarda taqiqlangan. Yaponiyada bunday agentliklar bozori ma'lum 18 xil turdagi kasblarga nisbatan qo'llanishi ruxsat etiladi. Huquqiy nuqtayi nazardan qaraganda bunday agentliklar, mehnatkashlarga nisbatan ish beruvchi o'rnida namoyon bo'ladi va shuning uchun ham ular ko'p majburiyatlarni o'zlarining zimmalariga oladilar. Vaqtincha ishga joylashtiruvchi agentliklarni birlashtiruvchi va vakillik qiluvchi tashkilot bu — SIYETT (vaqtincha ishga joylashtiruvchi korxonalarining xalqaro konfederatsiya si). Shuni aytish kerakki, yuqorida aytib o'tilgan agentliklar ko'pligiga qaramay, butun dunyoda tan olinmoqda va o'z faoliyatini xalqaro doirada yanada kengaytirishga harakat qilmoqdalar.

5-§. O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va kelishuvlarning tatbiq etilishi

O'zbekiston Respublikasi tomonidan bir necha xalqaro shartnomalar qabul qilingan va konvensiyalar ratifikatsiya qilingan bo'lib, ular jumlasiga 1935-yil 21-iyunda Jenevada qabul qilingan «Ishning davom etish muddatini haftasiga 40 soatgacha qisqartirish to'g'risida»gi 47-Konvensiyani; 1936-yil 24-iyunda Jenevada qabul qilingan «Haq to'lanadigan yillik ta'tillar to'g'risida»gi 52-Konvensiyani; 1919-yil Jenevada qabul qilingan va 1952-yil 28-iyunda qayta ko'rib chiqilgan «Onalikni muhofaza qilish to'g'risida»gi 103-Konvensiyani; 1964-yil 9-iyulda Jenevada qabul qilingan «Ish bilan ta'minlash nisbati to'g'risida»gi 122-Konvensiyani va boshqa bir qancha konvensiyalarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 10-moddasida «Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida yoki Xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyasida xodimlar uchun mehnat to'g'risidagi qonunlar yoki boshqa normativ hujjatlarga nisbatan imtiyozliroq qoidalar berilgan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki konvensiyaning qoidalari qo'llaniladi»,¹⁵⁷ deyiladi.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarning yoki xalqaro mehnat tashkilotining O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan konvensiyasining qoidalari «Mehnatga oid munosabatlar bevosita qonun hujjatlari bilan tartibga solinmagan hollarda ham qo'llaniladi», deyiladi.

Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari ish beruvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududida ishlayotgan chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tatbiq etiladi (MKning 11-moddasi).

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mehnatlarining muhofaza qilinishi huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlayotgan chet el fuqarolari uchun mehnatni muhofaza qilishga doir masalalarni tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari manfaatdor tomonlarning o'zaro bitimlari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy ta'minot masalasida migrant-mehnatkashning chet elda ishlagan davrlari ijtimoiy sug'urta Jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'langan taqdirda, agar davlatlararo bitimlarda o'zgacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yollanma (bitim) asosida chet elda ishlaganligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organlar tomonidan mehnat daftarchasiga kiritilgan qaydnomalarga qarab aniqlanadi.

Chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga chet eldagi ishi O'zbekiston Respublikasida ishlaganida to'g'ri keladigan stajning 1/3 hissasidan oshmagan miqdorda, agar davlatlararo bitimlarda (shartnomalarda) o'zgacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, umumiy ish stajiga qo'shiladi.

Chet elga doimiy yashash uchun chiqib ketishdan oldinroq tayinlangan pensiyalar tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limiga

¹⁵⁷ O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. -T.: «Adolat», 1996-yil.

chiqib ketish to'g'risida ariza berilgan kundagi holatga ko'ra pensiya miqdori hisobidan chet elga chiqib ketish oldidan olti oy avval to'lanadi.

Bu fuqarolarning chet elda bo'lgan vaqti uchun agar davlatlararo bitimlari (shartnomalar) o'zgacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, ularga mehnatda nogiron bo'lganligi yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan pensiyalargina to'lanadi.

O'zbekistonda ishga joylashtiruvchi pullik byurolar mavjud bo'lib, chet ellarda fuqarolarni, shuningdek, chet ellarda ishlash yuzasidan xususiy mehnat bitimlariga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, O'zbekistonga ishga kelgan chet el fuqarolarini ishga yollash va ishga joylashtirish bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyat ko'rsatishiga, kadrlarni o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda ishga joylashtirish bo'yicha pullik xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxslarning faoliyat ko'rsatishiga O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tomonidan beriladigan litsenziyaga binoan ruxsat etiladi.

XXII BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Xalqaro mehnat munosabatlari va mehnat munosabatlariga oid kolliziya masalalari.

2. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining mehnat huquqlari.

3. Chet elda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat huquqlari.

4. Xalqaro mehnat tashkiloti, uning mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi Konvensiya va tavsiyanomalari haqida nimalarni bilasiz?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 1992-yil (37-39-moddalar).

2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan, 1996-yil 1-apreldan kuchga kirgan, 1998-yil 1-may, 1998-yil 29-avgust, 1998-yil 25-dekabr, 1999-yil 15-aprelda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, №1, 20-moddasi; 1999-yil, №5, 124-moddasi.

3. O'zbekiston Respublikasining «Fuqaroligi to'g'risida» qonun, 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan.

4. Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1992-yil 13-yanvarda qabul qilingan, 1993-yil 7-mayda, 1994-yil 6-mayda, 1995-yil 6-mayda, 1998-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan. 1998-yil 25-dekabrda, 1999-yil 15-aprelda o'zgarish va qo'shimchalar kiritilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, №5, 124-modda.

5. Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida Qonun, 1993-yil 6-mayda qabul qilingan. 1997-yil 25-aprelda, 1998-yil 29-avgustda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, №5-6-sonlari, 102-modda.

6. O'zbekiston Respublikasining «Xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonuni, 1995-yil 22-dekabrda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-yil, №12, 262-modda.

7. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risidagi qonun. 1999-yil 30-avgustda qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, №9, 183-modda.

8. O'zbekiston Respublikasining «Pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuni, 1993-yil 3-sentabr kuni qabul qilingan.

9. O'zbekiston Respublikasining 1935-yil 21-iyunda Jenevada qabul qilingan «Ishning davom etish muddatini xaftasiga qirq soatga qisqartirish to'g'risida»gi 47-Konvensiyaga qo'shilish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori.

10. O'zbekiston Respublikasining 1936-yil 24-iyunda Jenevada qabul qilingan «Haq to'lanadigan yillik ta'tillar to'g'risida»gi 52-Konvensiyaga qo'shilish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori.

11. O'zbekiston Respublikasining 1964-yil 9-iyulda Jenevada qabul qilingan «Ish bilan ta'minlash siyosati to'g'risida»gi 122-Konvensiyaga qo'shilish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori.

12. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. –T.: «Adolat», 1996-yil.

13. Аметистов Э.М. Правовое регулирование труда иностранных граждан в СССР //Сов. Гос. и право. 1997.
14. Богуславский М.М. Международное частное право. Учебник. –М.: 1994.
15. Гасанов М.Ю. Трудовой кодекс: Развитии инициативы работников и работодателей. Народное слово. 14-18 ноября, №221-224.
16. Гасанов М.Ю., Хван Л.Б. Международная организация труда и Узбекистан //Экономика и статистика. 1993. –С.49-51.
17. Глазырин В.В. Правовое регулирование труда иностранных граждан в России. Юрид.мир., май 1997. –С.32-43.
18. Довгерт А.С. Правовое регулирование международных трудовых отношений. Киев. 1992.
19. Жарков Б.И. Рожин В.В. Правовое регулирование труда иностранных рабочих. Сов.гос и право. 1975.
20. Иванов С.А. МОТ: Контроль за применением международных норм о труде и его проблеме //Гос и право. 1992. №7, - С.17-25.
21. Лазарев Л.В., Марышева Н.И., Пантелеева И.В. Иностранцы граждане: Правовое положение. Под ред. Н.И.Марышевой. –М.: Российское право, 1992.
22. Лунц Л.А. Курс международного частного право. Особенная часть. –С.476-490.
23. Лунц Л.А., Марышева Н.И., Пантелеева И.В. Иностранцы граждане: Правовое положение. Под ред. Марышева.
24. Прокофьев Ю.А. Контроль за соблюдением законодательства о привлечении и использовани иностранной рабочей силы. Юридический мир, май, 1997. –С.44-45.
25. Френкель Э.Б. Правовое регулирование занятости иностранцев на территории Германии. Ўша жойда. –С.47-49.
26. Юридическая энциклопедия. Под ред. Тихомирова. –М.: 1997.

**XALQARO XUSUSIY HUQUQ TIZIMIDA NIZOLARNI SUD
TARTIBIDA KO'RIB CHIQISH**

1-§. Xalqaro fuqarolik jarayoni tushunchasi

Chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik ishlarini umumiy sudlarda, arbitrajda, xolislik sudida ko'rib chiqish paytida aksariyat hollarda umumiy va maxsus masalalar vujudga keladi.

Chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik ishlarini yuritish bo'yicha maxsus masalalar xalqaro fuqarolik jarayonining bir jabhasini tashkil qiladi. Notariat va boshqa organlar tomonidan xalqaro fuqarolik munosabatlari ishtirokchilarining mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarining himoya qilinishi bilan bog'liq boshqa maxsus masalalar ham xalqaro fuqarolik jarayoni tartibiga kiradi. Aynan shu jabhaga odatda xalqaro tijorat arbitraji ham kiritiladi. Keyingi yillarda savdo munosabatlarining barqaror rivojlanishida uning ahamiyati sezilarli darajada ortdi.

Davlatning xalqaro fuqarolik jarayonini tartibga soluvchi ichki me'yorlari protsessual huquq – fuqarolik protsessual huquqi va xo'jalik protsessual huquqi jabhalariga mansubdir. Xalqaro xususiy huquq fani shu me'yorlarning qo'llanishi masalalarini o'rganadi. Xalqaro fuqarolik jarayoni muammolarining xalqaro xususiy huquq fani o'rganadigan muammolar qatoriga kiritilishiga sabab – bu muammolar kelib chiqishi jihatidan o'zaro o'xshash va moddiy-huquqiy va protsessual institutlar jihatidan o'zaro bog'liqdir.

Barcha davlatlarda chet el fuqarolarining huquqiy va muomala layoqati borasidagi milliy tartib va fuqarolik protsessual huquqlar borasidagi milliy tartib o'zaro bir-biriga bog'liq.

Chet el huquq me'yorlari mazmunini aniqlash jarayoni kollizion me'yorlarni qo'llash bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Xalqaro sudlovga taalluqlilik, huquqiy yordam ko'rsatish, chet el sud va arbitraj qarorlarini e'tirof etish va ijro etish bo'yicha muammolar chet el elementi bilan murakkablashgan munosabat-larning xususiyatlarini aks ettiradi.

Mazkur kursda xalqaro fuqarolik jarayonining quyidagi masala-lari ustida so'z boradi:

a) chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, chet el tashkilotlari, chet davlat, xalqaro tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, chet davlat vakillariga oid fuqarolik sud ishlarini yuritish borasidagi protsessual holat;

b) fuqarolik ishlari bo'yicha xalqaro sudlovga taalluqlilik;

c) chet el huquqi mazmunini aniqlash tartibi;

d) chet el sudlari va boshqa adliya idoralari topshiriqlarining ijro etilishi;

e) xalqaro tijorat arbitraji (shu jumladan, chet el arbitraj qarorlarining e'tirof etilishi va majburiy ijro etilishi masalalari).

Chet el fuqarolari ishtirokidagi fuqarolik sud ishlarining yuritilishi O'zbekiston Respublikasi qonunlari bo'yicha lex fori kollizion me'yorining natijasi emas. O'zbekistonda amal qiluvchi kollizion huquqda, aytaylik, Kvebek Fuqarolik kodeksining 10-kitobi 3132-moddasidagi kabi, sud ishlarini yuritishni sud huquqi deb belgilab qo'ygan me'yorlar mavjud emas. Protsessual huquq – ommaviy huquq; umumiy qoida bo'yicha, agar milliy qonunlar va xalqaro shartnomalardan boshqa holat kelib chiqmasa, bu me'yorlarning amal qilishi kollizion muammo vujudga kelishiga va kollizion me'yorlar tufayli chet el protsessual qoidalarining qo'llanishiga yo'l qo'ymaydi.

Chet el protsessual huquqining qo'llanishi imkoniyati, asoslari va chegaralari masalasi alohida tadqiqotni talab etadi. Ayni shu joyda ta'kidlash lozimki, xalqaro hayot sharoitlari uchun tabiiy bo'lgan milliy huquqiy tizimlarning o'zaro hamkorlikda amal qilishi shunday vaziyatlarga olib keladiki, chet el protsessual huquq institutining qo'llanishi masalasi paydo bo'ladi. Har holda, mahalliy kollizion me'yorlar tavsiya etadigan chet el huquq me'yorining ommaviy-huquqiy deb, qisman esa, protsessual deb tasniflanishi uning qo'llanishini rad etish uchun asos bo'la olmaydi.

Qator huquqiy tizimlar tomonidan protsessual huquq instituti sifatida ko'riladigan da'vo muddati instituti bunga misol bo'la oladi. Yaqin o'tmishda chet el ommaviy huquq me'yorlarining qo'llanmasligi to'g'risidagi tezis juda mustahkam bo'lgan bo'lsa, endilikda esa muayyan holatlarda bunday me'yorlarning qo'llanishi imkoniyatlari ancha ko'zga tashlanib qoldi. Shunga bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidagi yangilikni ta'kidlab o'tish joizdir: chet el huquq me'yori ommaviy-huquqiy xususiyatga ega bo'lganligiga asoslanibgina uni qo'llashni cheklash mumkin

emas (1158-modda, 4-qism). Shunday bo'lsa-da, chet el protsessual me'yorlariga murojaat qilish xususiy huquq me'yorlarining qo'llanishiga nisbatan boshqacharoq asosga quriladi va bugungi kunda umumiy qoidalardan istisno hisoblanadi. Bunday murojaat odatda xalqaro huquqiy yordam to'g'risidagi xalqaro bitimda taalluqli kelishuv mavjud bo'lganda talab yuboruvchi adliya idorasining iltimosiga binoan chet el sudlarining topshiriqlarini bajarish hollarida yuzaga keladi.

Xalqaro fuqarolik jarayoni muammolarini o'rganish xalqaro xususiy huquqdan tanish bo'lib qolgan tushunchalarni eslatadi. «Milliy tartib», «taraflarning kelishuvi», «hamkorlik», «retorsiya», «ommaviy tartib to'g'risidagi izoh» – bu va boshqa institutlar xalqaro fuqarolik jarayoni doirasida yangicha ahamiyat kasb etadi. Jumladan, xalqaro fuqarolik jarayonida ommaviy tartib to'g'risidagi izoh asosan huquqiy yordam ko'rsatish, chet el sudlari va arbitrajlar qarorlarini e'tirof etish va bajarishda qo'llaniladi. Izohning tuzilishida asosiy tushunchalar bo'lmish «suverenitet», «xavfsizlik» tushunchalari ommaviy huquq toifasiga mansubdir.

Xalqaro fuqarolik jarayoni me'yorlarining turli manbalarida ommaviy tartib to'g'risidagi izoh mana bunday ta'riflanadi:

Huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi so'rov, «agar bunday yordamning ko'rsatilishi yordam so'ralgan Shartnoma tuzuvchi Taraf suverenitetiga yoki xavfsizligiga zarar yetkazadigan bo'lsa yoki uning qonunlariga zid bo'lsa» (Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi 1993-yilgi Konvensiyaning 19-moddasi), rad etilishi mumkin.

1993-yilgi Konvensiyaning 19-moddasida ommaviy tartib to'g'risidagi izohning so'nggi qismi e'tiborni jalb etadi: «...Shartnoma tuzuvchi Taraf... qonunlariga zid bo'lsa». Qonunlar o'rtasidagi farq izohning qo'llanishiga asos bo'la olmaydi, shu sababdan yuqorida tilga olingan Konvensiyaning 19-moddasidagi qoida izohning tayinlanishiga nisbatan bizning doktrinada shakllangan munosabatga unchalik mos kelmaydi.

Huquqiy tomondan qaraganda izoh Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar o'rtasida tuzilgan huquqiy yordam to'g'risidagi ikki taraflama shartnomalarda ayniqsa aniq ko'rsatilgan.

1954-yilgi Fuqarolik jarayoni masalalari bo'yicha Gaaga konvensiyasi, 1959-yilgi Jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi va Yevropa mamlakatlari

o'rtasida tuzilgan ba'zi boshqa shartnomalarda ta'kidlanadiki, topshiriqning bajarilishi, yordam so'ralgan davlatning fikricha, uning suverenitetiga yoki xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa, yordamni rad etish mumkin, lekin qonunlar o'rtasidagi farq shunday rad javobi uchun asos qilib olinmaydi.

Xalqaro fuqarolik jarayoni manbalari ham, xalqaro xususiy huquq manbalari kabi, ikki yoqlama xususiyatga ega: ular ichki qonunlar bilan bir qatorda xalqaro shartnomalarni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, bu borada 1954-yilgi Fuqarolik jarayoni masalalari bo'yicha Gaaga konvensiyasi, 1958-yilgi Chet el arbitrajleri qarorlarini e'tirof etish va ijro etish to'g'risidagi konvensiya, 1961-yilgi Tashqi savdo arbitraji to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi, 1972-yilgi Iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik munosabatlaridan kelib chiquvchi fuqarolik-huquqiy nizolarni arbitraj yo'li bilan hal etish to'g'risidagi konvensiya, 1961-yilgi Chet el rasmiy hujjatlarini qonunlashti rishni legallashtirishni talab etishni bekor qiluvchi konvensiyalarni alohida ko'rsatib o'tish joizdir.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida tuzilgan 1992-yilgi Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolarni hal etish tartibi to'g'risidagi bitim va 1993-yilgi Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiyada ham xalqaro xususiy huquq masalalari, ham xalqaro fuqarolik jarayoni masalalari hal etiladi.

Xalqaro fuqarolik jarayoni masalalarini tartibga soluvchi ko'p sonli ikki taraflama xalqaro shartnomalar fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalarni tashkil qiladi.

2-§. Sudlovga taalluqlilikni belgilash va prorogatsion bitimlar

Xalqaro xususiy huquq tizimida xalqaro sudlovga taalluqlilik deganda chet el elementi bilan bog'liq fuqarolik ishlarini hal etish bo'yicha sud vakolatlari nazarda tutiladi. Fuqarolik ishlari bo'yicha xalqaro sudlovga taalluqlilik to'g'risida barcha davlatlar uchun umumiy majburiy me'yorlar tizimi mavjud emas, lekin ba'zi xalqaro shartnomalarda – ko'p taraflama va ikki yoqlama shartnomalar tarkibiga shu shartnomalar orqali tartibga solinuvchi hamkorlik doirasida qo'llanadigan xalqaro sudlovga taalluqlilik to'g'risida qoidalar ham kiradi. Kollizion qoidalar moddiy qonunlar «to'qna-

shuvi»ni yengishga imkon beradi, xalqaro sudlovga taalluqlilik to'g'risidagi qoidalar esa «yurisdiksiya nizolari»ni hal etadi. Bunday nizolar ijobiy (ikki va undan ortiq davlatlarning protsessual me'yorlari bir ish yuzasidan sudlovga taalluqlilikka da'vo qiladi) va salbiy (ikki va undan ortiq davlatlarning protsessual me'yorlari bir ish yuzasidan sudlovga taalluqlilikni rad etadi) bo'ladi.

«Yurisdiksiya nizosi»ni hal etish va qonunlar kolliziyasini hal etish qator hollarda chambarchas bog'liq bo'ladi: yurisdiksiyani tanlab olish ba'zan qaysi huquq qo'llanilishini belgilab beradi. Masalan, 1993-yilgi Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiya bo'yicha (28-moddasi 2-bandi) er-xotindan biri Shartnoma tuzayotgan Taraflardan birining fuqarosi, ikkinchisi esa – boshqa Taraf fuqarosi bo'lgan hollarda nikohni bekor qilish to'g'risidagi ishni ko'rayotgan idora qaysi Tarafga mansub bo'lsa, shu Taraf qonunlari qo'llanadi.

Fuqarolik ishlari bo'yicha xalqaro sudlovga taalluqlilik to'g'risida umumiy majburiy me'yorlar mavjud bo'lmagan hollarda *lis alib ipendens* muammosi (xuddi shu ish bo'yicha chet el sudida ham jarayon mavjudligi, ya'ni sud masalani hal etish uchun qabul qilgani va bu holning da'voni ko'rib chiqmasdan qoldirish uchun asos bo'lishi) vujudga kelishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 152-moddasida agar shu yoki boshqa sudda aynan shu taraflar o'rtasidagi aynan shu predmet to'g'risida va shu asoslar bo'yicha nizo yuzasidan ish mavjud bo'lsa, da'vo ko'rib chiqmasdan qoldirilishi ta'kidlanadi. Chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda chet el tashkilotlari ishtirokidagi nizoli fuqarolik ishlarini O'zbekiston Respublikasi sudlarida sudlovga taalluqliligini aniqlashda FPKda belgilangan sudlovga taalluqlilik qoidalarini qo'llash masalasi FPKning 388-moddasida hal etiladi. Adabiyotlarda shunday muammo qo'yiladi: yuqorida keltirilgan FPK 152-moddasidagi qoidaning qo'llanish chegarasi qanday, agar muayyan davlat bilan sud qarorlarining o'zaro ijro etilishi to'g'risida bitim tuzilmagan bo'lsa, shu davlat sudida ish qo'zg'atilgan taqdirda mazkur moddaga murojaat qilish mumkinmi? Fikrimizcha, bu savollarga FPK 152-moddasi qoidalaridan javob olish mumkin, ya'ni:

1) agar O'zbekiston Respublikasi sudiga da'vo taqdim etilishidan avval chet davlatning vakolatli sudi aynan shu taraflar o'rtasida, aynan bir predmet to'g'risida va aynan shu asoslar bo'yicha nizo

yuzasidan ishni qabul qilgan va yuritayotgan bo'lsa yoki qonuniy kuchga kirgan qaror qabul qilgan bo'lsa, sud bu da'voni ko'rib chiqmasdan qoldiradi yoki ish yuritishni to'xtatadi;

2) agar chet davlat sudining qabul qilgan yoki qabul qiladigan qarori O'zbekiston hududida e'tirof etilishi yoki ijro qilinishi shart bo'lmasa, yoki shu ish O'zbekiston Respublikasi sudining alohida vakolatiga talluqli bo'lsa, bunday oqibatlar vujudga kelmaydi.

Agar xalqaro shartnomada chet el sudlarining qarorlari O'zbekistonda ijro etilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, ular albatta ijro etiladi. Masalan, 1993-yilgi Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiyaning 55-moddasida aytilishicha, agar aynan shu taraflar o'rtasidagi aynan shu mavzuda va shu asoslar bo'yicha nizo yuzasidan Shartnoma tuzayotgan Taraf hududida ish mavjud bo'lsa, agar qaror ham shu yerda e'tirof etilishi yoki ijro etilishi lozim bo'lsa, agar uchinchi davlat sudi avval chiqargan qarori qonuniy kuchga kirgan bo'lsa yoki agar shu Taraf idorasi tomonidan mazkur nizo yuzasidan avval ish qo'zg'atilgan bo'lsa, chet el sudi qarorini e'tirof etish yoki uni majburiy ijro etishga ruxsat berish rad etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida xalqaro sudlovga taalluqlilik masalasini huquqiy jihatdan tartibga solish xalqaro shartnomalar, fuqarolik protsessual va xo'jalik protsessual qonunlari me'yorlarida aks etgan.

Bu guruhlarining har birida alohida mustasno, muqobil va kelishilgan sudlovga taalluqlilik to'g'risidagi me'yorlarni ajratib olish mumkin.

Alohida sudlovga mustasno taalluqlilik deganda nizoni muayyan davlat sudloviga taalluqli deb belgilash va boshqa davlatlar sudlari sudloviga taalluqli emasligini qat'iy ta'kidlash tushuniladi.

Muqobil sudlovga taalluqlilik o'z davlati va chet davlatlar orasidan istaganini tanlab olish imkonini nazarda tutadi.

Kelishilgan sudlovga taalluqlilik taraflarning kelishuviga asosan sudlovga taalluqlilikni belgilashda aks etadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida xalqaro sudlovga taalluqlilik ichki sudlovga taalluqlilik qoidalari asosida belgilanadi (141-143-moddalar). FPKning 388-moddasida nazarda tutilishicha, «chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etayotgan nizolarning, shuningdek, loaqal bittasi chet elda yashab turgan taraflar o'rtasidagi nizolar bo'yicha fuqarolik ishlari O'zbekiston Respublikasi sudlarining

sudloviga taalluqli bo'lishi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu Kodeks bilan belgilanadi».

FPKning 145-moddasida sudlovga taalluqlilikning asosiy qoidasi berilgan: da'vo javobgarning yashash joyi bo'yicha sudga taqdim etiladi. Yuridik shaxsga nisbatan da'vo shu yuridik shaxs organi yoki mulki joylashgan joyidagi sudga taqdim etiladi. da'vogarning istagiga asoslangan sudlovga taalluqlilik qoidalari (FPKning 241-moddasi) quyidagi imkoniyatlarni beradi: yashash joyi noma'lum bo'lgan javobgarga nisbatan – uning mulki joylashgan manzil yoki uning eng so'nggi ma'lum yashash joyi bo'yicha da'vo taqdim etish; O'zbekistonda yashash joyi bo'lmagan javobgarga nisbatan – uning mulki joylashgan manzil yoki uning eng so'nggi ma'lum yashash joyi bo'yicha da'vo taqdim etish; yuridik shaxs filiali faoliyatidan kelib chiqadigan da'voni – filial joylashgan joyi bo'yicha taqdim etish; alimentlar undirish yoki otalikning belgilanishi bo'yicha da'volarni – da'vogarning yashash joyi bo'yicha taqdim etish; boquvchining jarohatla nishi yoki uning salomatligiga putur yetganligi tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi da'voni – da'vogarning yashash joyi yoki zarar yetkazilgan joy bo'yicha taqdim etish; fuqaroning yoki yuridik shaxsning mulkiga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi da'voni – zarar yetkazilgan joy bo'yicha taqdim etish; bajarish joyi ko'rsatilgan shartnomalardan kelib chiqadigan da'volarni – shartnomaning bajarilish joyi bo'yicha taqdim etish va h.k.

Imoratga bo'lgan huquq to'g'risidagi, mulkni xatlashdan chiqarish haqidagi, yer maydonidan foydalanish tartibini belgilash to'g'risidagi da'volar mulk (yer maydoni) joylashgan hududdagi sudning sudloviga taalluqlidir; meros qoldiruvchining kreditorlari meros vorislar tomonidan qabul qilinguniga qadar taqdim etgan da'volar meros mulk yoki uning asosiy qismi joylashgan hududdagi sudning sudloviga taalluqlidir; yo'lovchi, bagaj yoki yuk tashish shartnomalaridan tashuvchilarga nisbatan kelib chiqadigan da'volar belgilangan tartibda talab qo'yilgan transport tashkilotining boshqarmasi joylashgan hududda taqdim etiladi (FPKning 242-moddasi, «Sudlovga taalluqlilikning alohida hollari»).

O'zbekiston Respublikasida xo'jalik sudlarining chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlar bo'yicha vakolatlari XPK 223-moddasida belgilab qo'yilgan. Umumiy qoidaga ko'ra, xo'jalik sudlari chet

ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni, basharti javobgar tashkilot O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, fuqaro esa shu hududda yashash joyiga ega bo'lsa, ko'rib chiqadi. Xo'jalik sudlari chet ellik shaxslar ishtirokidagi ishlarni quyidagi hollarda ham ko'rib chiqishga haqli:

1) chet ellik shaxsning filiali yoki vakolatxonasi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa;

2) javobgar O'zbekiston Respublikasi hududida mulkka ega bo'lsa;

3) da'vo O'zbekiston Respublikasi hududida ijro etilishi lozim bo'lgan yoki ijro etilgan shartnomadan kelib chiqqan bo'lsa;

4) mulkka yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi ish bo'yicha zararni qoplash to'g'risidagi talabni qo'yishga asos bo'lgan harakat yoki boshqa holat O'zbekiston Respublikasida sodir etilgan bo'lsa;

5) da'vo O'zbekiston Respublikasi hududidagi asossiz boyishdan kelib chiqqan bo'lsa;

6) sha'n, qadr-qimmat va xizmat obro'sini himoya qilish to'g'risidagi ish bo'yicha da'vogar O'zbekiston Respublikasida turgan bo'lsa;

7) ishning xo'jalik sudida ko'rilishi haqida O'zbekiston Respublikasi tashkiloti yoki fuqarosi bilan chet ellik shaxs o'rtasida bitim mavjud bo'lsa.

Binolarga, inshootlarga, yer maydonlariga nisbatan mulk huquqini tan olish, binolar, inshootlar, yer maydonlarini o'zganing noqonuniy egaligidan talab qilib olish, mulkdorning yoki qonuniy egalik qiluvchining huquqlari buzilishini bartaraf etish bilan bog'liq ishlar, basharti egalik qilishdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmasa, bino, inshoot, yer maydoni joylashgan joyda ko'riladi.

Yo'lovchi yoki yuk tashish shartnomasidan kelib chiqadigan tashuvchilarga nisbatan da'volar bo'yicha ishlar, shu jumladan, tashuvchi javobgarlardan biri bo'lganda ham, transport tashkilotining organi joylashgan joyda ko'riladi.

Sudlovga taalluqlilikni belgilovchi kelishuv prorogatsion yoki derogatsion bitim shakliga kirishi mumkin. Birinchisida, muayyan davlatning sudloviga taalluqli bo'lmagan ish shu bitim tufayli aynan shu sudga ko'rib chiqish uchun topshiriladi; ikkinchisida muayyan davlatning sudi sudloviga taalluqli bo'lgan ish boshqa davlatning sudiga topshiriladi.

1993-yilgi Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiyada xalqaro sudlovga taalluqlilik (vakolat chegaralari) to'g'risidagi me'yorlar ancha kengaytirib berilgan. II bo'limda («Fuqarolik va oila ishlari bo'yicha huquqiy munosabatlar») fuqarolik va oila ishlarining alohida turlari bo'yicha sudlovga taalluqlilik to'g'risidagi qoidalar bilan bir qatorda sudlovga taalluqlilik to'g'risidagi umumiy qoidalar ham keltiriladi. Ularning qo'llanishi nizolashayotgan taraflarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun ijobiy protsessual sharoit yaratish imkonini beradi.

Konvensiyada boshqa qoida mavjud emasligi tufayli, Shartnoma tuzayotgan Taraflardan birortasi hududida yashash joyi bo'lgan shaxslarga nisbatan da'volar, bu shaxslarning fuqaroligidan qat'i nazar, aynan shu Taraf sudlariga taqdim etiladi, yuridik shaxslarga nisbatan da'volar esa shu yuridik shaxsning boshqaruv organi, vakolatxonasi yoki filiali joylashgan Taraf sudlariga taqdim etiladi.

Ishda yashash joyi (joylashgan joyi) turli Taraflar hududlarida bo'lgan bir necha javobgarlar ishtirok etishi mumkin. Bu holda nizo da'vogarning istagi bo'yicha biror javobgarning yashash joyi (joylashgan joyi) bo'yicha ko'rib chiqiladi.

Shartnoma tuzayotgan Taraf sudlari quyidagi hollarda ishni ko'rishga vakolatli hisoblanadi:

- javobgarning korxonasi (filiali) aynan shu hududda savdo, sanoat yoki boshqa turdagi xo'jalik faoliyatini yuritayotgan bo'lsa;
- nizo predmeti bo'lmish shartnomadagi majburiyat aynan shu hududda bajarilgan yoki to'la (qisman) bajarilishi lozim bo'lsa;
- sha'n, qadr-qimmat va xizmat obro'si bilan bog'liq da'vo bo'yicha da'vogar aynan shu hududda doimiy yashash joyi yoki joylashgan joyi mavjud bo'lsa.

Konvensiyada ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar to'g'risidagi da'volarga nisbatan alohida sudlovga taalluqlilik nazarda tutilgan. Bunday ishlar bo'yicha faqat mulk joylashgan joydagi sudlargina vakolatlidir.

Yuk, yo'lovchi va bagaj tashish shartnomalaridan kelib chiqadigan tashuvchilarga nisbatan da'volar transport tashkilotining boshqarmasi joylashgan joyi bo'yicha sudga taqdim etiladi.

Kelishilgan sudlovga taalluqlilik to'g'risidagi qoidalarning Konvensiyaga kiritilishi huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalar uchun yangilikdir. Shartnoma tuzayotgan Taraflar sudlari, basharti

ularning o'rtasida nizoni qaysi sudga topshirish to'g'risidagi yozma kelishuv mavjud bo'lsa, ishlarni ko'rishlari mumkin. Biroq, Konvensiya me'yorlaridan va Taraflarning ichki qonunlaridan kelib chiqadigan alohida vakolatlar Taraflarning kelishuvi bilan o'zgartirilishi mumkin emas.

1992-yilgi Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolarni hal etish tartibi to'g'risidagi bitimda shu bitim ishtirokchilari bo'lgan MDH mamlakatlari subyektlari o'rtasidagi bunday nizolarning sudlovga taalluqligi quyidagicha belgilangan.

MDH a'zosi bo'lgan davlatning vakolatli sudi yuqorida tilga olingan nizolarni quyidagi hollarda ko'rib chiqishlari mumkin:

a) agar javobgar da'vo taqdim etilgan kunga kelib aynan shu davlat hududida doimiy yashash joyiga yoki manzilgohiga ega bo'lgan bo'lsa.

Agar ishda MDHning turli davlatlari hududida joylashgan bir necha javobgarlar ishtirok etayotgan bo'lsa, nizo da'vogarning tanlashiga qarab ulardan birortasi joylashgan joyida ko'rib chiqiladi;

b) javobgarning korxonasi (filiali) aynan shu davlat hududida savdo, sanoat yoki boshqa turdagi xo'jalik faoliyatini yuritayotgan bo'lsa;

c) nizo predmeti bo'lmish shartnomadagi majburiyat aynan shu davlat hududida bajarilgan yoki to'la (qisman) bajarilishi lozim bo'lsa;

d) yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish uchun asos bo'lgan harakat yoki holat aynan shu davlat hududida sodir bo'lgan bo'lsa;

e) xizmat obro'si bilan bog'liq da'vo bo'yicha da'vogarning aynan shu davlat hududida doimiy yashash joyi yoki joylashgan joyi mavjud bo'lsa;

f) kontragent-yetkazib beruvchi, pudratchi yoki xizmat ko'rsatuvchi (ish bajaruvchi) aynan shu davlat hududida bo'lib turgan va nizo shartnomani tuzish, o'zgartirish yoki bekor qilish bilan bog'liq bo'lsa.

1992-yilgi bitim kelishilgan sudlovga taalluqlilikni nazarda tutadi: agar taraflarning nizoni muayyan sudga topshirish to'g'risidagi yozma kelishuvi mavjud bo'lsa, MDH a'zolari bo'lgan davlatlarning vakolatli sudlari ishlarni ko'rib chiqishlari mumkin.

Bitimda alohida sudlovga taalluqlilik chegaralari avvalo ko'chmas mulkka bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi da'volarga nisbatan belgilangan. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bunday ishlar

bo'yicha da'volari mulk MDH a'zosi bo'lgan davlatlardan qaysi birining hududida joylashgan bo'lsa, shu davlat sudida ko'riladi. Bundan tashqari, davlat organlari va boshqa idoralarning to'la yoki qisman me'yoriy xususiyatga ega bo'lmagan hujjatlarining haqiqiy emas deb topilishi to'g'risidagi, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarga shunday hujjatlar tufayli yetkazilgan yoki yuqoridagi organlarning xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan majburiyatlarini taalluqli darajada bajarmaganligi tufayli vujudga kelgan zararni qoplash to'g'risidagi ishlar aynan faqat shu organ joylashgan hudud sudida ko'riladi.

1968-yilda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati davlatlari tomonidan tuzilgan Yurisdiksiya hamda fuqarolik va savdo ishlari bo'yicha sud qarorlarini e'tirof etish va ijro etish to'g'risidagi Bryussel konvensiyasida sudlovga taalluqlilik masalalarining tartibga solinishi ayniqsa qiziqarlidir. Bu konvensiya Hamjamiyatning xalqaro fuqarolik jarayoni me'yorlarini unifikatsiya qilish borasidagi eng katta yutuqlardan biridir. Konvensiyada xalqaro sudlovga taalluqlilikni belgilash uchun foydalanilgan asosiy mezon – bu javobgarning domitsiliysi (doimiy joylashgan yoki ro'yxatga olingan joyi) hisoblanadi: konvensiya ishtirokchilaridan bo'lgan biror davlatda domitsiliysi mavjud bo'lgan shaxs fuqaroligidan qat'i nazar aynan shu davlat sudlarida javob beradi. Bu qoidadan istisnolar juda cheklangan: konvensiya ishtirokchilaridan bo'lgan biror davlatda domitsiliysi mavjud bo'lgan shaxslar konvensiyaning qator bo'limlarida, shu jumladan, sug'urta to'g'risidagi, iste'mol shartnomalari va alohida sudlovga taalluqlilikka oid nizolar bo'yicha maxsus yurisdiksiya masalalari haqidagi bo'limlarda ko'rsatilgan qoidalar asosidagina boshqa davlat sudlarida javob berishlari mumkin.

1968-yilgi konvensiya muqobil sudlovga taalluqlilik to'g'risidagi (ba'zi toifadagi nizolar uchun), maxsus sudlovga taalluqlilik to'g'risidagi (iste'mol shartnomalari va sug'urta shartnomalaridan kelib chiqadigan nizolar uchun), alohida sudlovga taalluqlilik to'g'risidagi (ko'chmas mulkka bo'lgan ashyoviy huquqlar bo'yicha, davlat ro'yxatiga olinganlik to'g'risidagi yozuvlarning haqiqiyliги to'g'risidagi va boshqa nizolar uchun), prorogatsion bitimlarni tuzish to'g'risidagi qoidalarni o'z ichiga oladi.

YEAST a'zosi bo'lgan davlatlar o'rtasida Fuqarolik va savdo ishlari bo'yicha sud qarorlarining sudlovga taalluqliligi va ijro etilishi to'g'risida bitim tuzilgan (Lugano, 1988-yil).

3-§. Chet el fuqarolari va chet el tashkilotlarining protsessual holati

Chet el fuqarolari va chet el tashkilotlarining O'zbekiston Respublikasidagi protsessual holati barchaning qonun va sud oldida barobarligi to'g'risidagi (O'zbekiston Konstitutsiyasining 18-moddasi), huquq va erkinliklarning sud himoyasi kafolatlari to'g'risidagi (O'z R Konstitutsiyasining 44-moddasi), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va majburiyatlar borasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga tenglashtirilganligi to'g'risidagi (O'z R Konstitutsiyasining 23-moddasi) va boshqa konstitutsion me'yorlarga asoslanadi.

Buzilgan fuqarolik huquqlari himoyasini protsessual qonunchilik tomonidan belgilab qo'yilgan tartibda sud, xo'jalik sudi yoki xolislar sudi amalga oshiradi. Ma'muriy tartibda qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilish mumkin.

Chet el fuqarolari va chet el tashkilotlariga O'zbekiston fuqarolari va tashkilotlari bilan teng ravishda protsessual huquqiy layoqatlar berilishi – O'zbekiston Respublikasida chet el huquq subyektlari maqomini belgilovchi milliy rejim xususiyatlaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida (FPKning 386-moddasi) shunday qoida mustahkamlab qo'yilganki, «chet el fuqarolari O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga egadirlar va O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda fuqarolik protsessual huquqlardan foydalanadilar». Kodeksning xuddi shu moddasida chet el tashkilotlariga taalluqli qoida ham berilgan (ular O'zbekiston Respublikasi sudlariga murojaat qilish huquqiga egadirlar va o'zlarining manfaatlarini himoya qilish uchun fuqarolik protsessual huquqlardan foydalanadilar), lekin nazariya va amaliyot bu qoidani milliy rejimning boshlanishidan nishona deb biladi.

O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksi ham protsessual huquqlar borasida chet ellik shaxslarning O'zbekiston Respublikasi shaxslariga tenglashtirilishidan kelib chiqadi. Kodeksning 221-moddasiga binoan, chet el tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan chet ellik fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'zlarining buzilgan huquqlari va qonun tomonidan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoya qilish uchun O'zbekiston Respublikasi tashkilotlari va fuqarolari bilan teng

ravishda protsessual huquqlardan foydalanadilar va protsessual majburiyatlarni bajaradilar.

O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligida qonun va sud oldidagi tenglik konstitutsion tamoyili izchil olib boriladi. Xo'jalik sudida ham odil sudlov korxonalar, muassasalar va tashkilotlarining mulkchilik shaklidan, qayerda joylashganligidan, kimga bo'ysunishidan qat'i nazar, fuqarolarning esa – jinsi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy va ijtimoiy mavqeyidan, yashash joyi, dinga munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligidan, shuningdek, boshqa holatlardan qat'i nazar, qonun va sud oldidagi tenglik asosida amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Xo'jalik protsessual kodeksining 7-moddasi). Xo'jalik jarayoni har qanday ishtirokchisining huquqiy holati faqatgina uning protsessual holati bilan belgilanadi (da'vogar, javobgar, nizo predmetiga nisbatan mustaqil talab qo'yuvchi uchinchi shaxs, guvoh, ekspert va h.k.) va jarayon ishtirokchisi kim ekanligiga va 7-moddada nazarda tutilganidek boshqa belgilarga bog'liq bo'lmaydi.

Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan ikki taraflama shartnomalarda Shartnoma tuzayotgan Taraflar fuqarolarining ikkinchi davlat hududidagi huquqiy muhofazasi quyidagicha amalga oshiriladi:

– bir taraf fuqarolari ikkinchi Taraf hududida o'zlarining shaxsiy va mulkiy huquqlariga nisbatan mahalliy fuqarolar bilan teng ravishda huquqiy muhofaza qilinadilar. Bu qoida Taraflardan birining qonunlariga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslarga ham taalluqli;

– bir Taraf fuqarolari ikkinchi Tarafning fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha vakolatli bo'lgan sudlarga, prokuraturaga, notarial idoralarga (adliya boshqarmalariga) erkin va hech qanday to'siqsiz murojaat qilish, mahalliy fuqarolar bilan teng ravishda sud majlislarida so'zga chiqish, da'vo qilish va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqiga egadirlar,

1993-yilgi Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiyada huquqiy muhofaza qilish chegaralari belgilab qo'yilgan. Shartnoma tuzayotgan Taraflar hududida shaxsiy va mulkiy huquqlarga nisbatan milliy rejim faqatgina boshqa Taraflarning fuqarolariga emas, balki shu hududda yashovchi barcha fuqarolarga ham taalluqlidir. Shunga muvofiq, faqatgina Shartnoma tuzayotgan boshqa Taraf fuqarolari

emas, balki shu hududda yashovchi barcha fuqarolar ham shu Tarafning sud, prokuratura va boshqa organlariga erkin murojaat qilish huquqiga egadirlar. Ayniqsa, sobiq Sovet Ittifoqi mustaqil davlatlarga bo'linib ketgandan so'ng millionlab SSSR fuqarolari turli davlatlar fuqarolariga aylandilar. Aynan shu sharoitda huquqiy muhofaza muammosining shunday hal etilishi ayniqsa samaralidir. 1993-yilgi Konvensiya qoidalari Taraflarning qonunlariga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llanadi.

1992-yilgi Xo'jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq nizolarni hal etish tartibi to'g'risidagi bitimda ishtirok etgan MDH davlatlarining xo'jalik yurituvchi subyektlari:

a) MDH tarkibidagi boshqa davlat hududida shu davlatning xo'jalik yurituvchi subyektlari bilan teng ravishda o'zining mulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini huquqiy va sud orqali muhofaza qilishlari mumkin;

b) MDH tarkibidagi boshqa davlatlar hududida erkin va hech qanday to'siqsiz sud, arbitraj (xo'jalik sudi), xolislik sudi va taalluqlicha ishlarni hal etishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarga murojaat qilish, sud majlislarida so'zga chiqish, da'vo qilish va boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqiga egadirlar.

MDH davlatlari qonunlarida chet el fuqarolari va tashkilotlari huquq va manfaatlarini sud orqali muhofaza qilish borasidagi milliy rejim ular tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan alohida talablar bilan, shu jumladan, muayyan muddat ichida sud ketayotgan davlatda yashab turish yoki da'voni qabul qilish rad etilgan holda javobgar qoplashi kerak bo'ladigan sud xarajatlari uchun garov pulini to'lash bilan bog'liq emas. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida va xalqaro shartnomalarida chet elliklarni sud xarajatlarini qoplashga majbur etuvchi *cautio judicatum solvi* instituti mavjud emas.

1993-yilgi Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiya Shartnoma tuzayotgan Taraflar fuqarolarini va shu Taraflar hududida yashab turgan shaxslarni mahalliy fuqarolar bilan bir xil shart-sharoitlarda sud va notarial xarajatlarni to'lashdan ozod etadi.

Sudlarida O'zbekiston fuqarolari va tashkilotlari protsessual huquqlarini maxsus cheklash mavjud bo'lgan davlatlarning fuqarolari va tashkilotlariga nisbatan javob tariqasida cheklashlar (retorsiyalar) tayinlanishi mumkin. Javob tariqasida cheklashlarni tayinlash O'zbekiston Respublikasi hukumatiga yuklatilgan (FPKning 386-moddasi, XPKning 221-moddasi).

4-§. Chet el davlatning protsessual holati

Davlatlarning suveren tengligi xalqaro-huquqiy tamoyilidan kelib chiqadiki, hech bir davlat boshqa bir davlatning hokimiyatiga (*par in parem non habet imperium*), uning yurisdiksiyasiga (*par in parem non habet jurisdictionem*) tobe bo'lishi mumkin emas. Davlat immunitetining xalqaro-huquqiy asoslari faqatgina uning chet el suveren hokimiyati prerogativalariga mutlaq vakolatlariga tobe bo'lmaslik huquqida emas, balki o'z prerogativalarini boshqa chet davlatga uning roziligsiz o'tkazmaslik majburiyatida ham aks etadi.

Albatta, bizni avvalo fuqarolik-huquqiy (keng ma'noda) va Fuqarolik protsessual munosabatlar va ularda davlatning subyekt sifatidagi ishtiroki qiziqtiradi. Shunday munosabatlarda ishtirok etar ekan, davlatga nisbatan boshqa davlat yurisdiksiyasining ta'sir etishi imkoniyatlari va chegaralari yuqorida tilga olingan xalqaro-huquqiy asoslardan chetda qolishi mumkin emas.

Lekin, boshqa suveren yurisdiksiyasi chegarasida harakat qila turib, davlat organlari va immunitetli shaxslari o'zlarining mahalliy qonunlar va mahalliy huquq-tartibotga bo'lgan munosabatlarini belgilashda erkin bo'ladilar, deb taxmin qilish noto'g'ri. 1961-yilgi Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasida belgilab qo'yilganidek, konvensiyada nazarda tutilgan imtiyozlar va immunitetlardan qat'i nazar, shunday imtiyozlar va immunitetlardan foydalanuvchi shaxslar o'zlari hozir bo'lib turgan davlat qonunlari va qarorlarini hurmat qilishga majburlar (41-modda). Shuningdek, ular mazkur davlatning ichki ishlariga ham aralashmasliklari lozim.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, immunitet tamoyili xalqaro huquqning asosiy tamoyillari qatoriga kirmaydi, birinchidan: u davlatlararo munosabatlarni tartibga solishda asosiy tamoyil emas, u faqat davlatlarning xalqaro muloqotdagi vakilligi yo'nalishida mavjud; ikkinchidan: u imperativ emas, balki dispozitiv xususiyatga ega, chunki davlatlar xalqaro hamjamiyati o'zaro manfaatlardan kelib chiqqan holda shunday istak bildirgan. Biroq, bu holat davlatlar immuniteti tamoyilining «davlat suvereniteti – davlatlar bilan xalqaro munosabatlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi munosabatlar asosi» degan qismidagi muhimligi va ahamiyatini kamaytiradi degan gap emas.

Davlat immunitetining asosiy ko'rsatkichi – bu davlat organlari (shu jumladan, diplomatik vakolatxonalar va konsullik idoralari,

ularning xodimlari, davlatlararo (hukumatlararo) tashkilotlar, davlatlarning shu tashkilotlardagi vakillari, mansabdor shaxslar) immunitetidir.

Davlat, uning organlari va mansabdor shaxslari immuniteti mazmuni Vena konvensiyalarida, ya'ni: 1961-yilgi Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi konvensiya, 1963-yilgi Konsullik munosabatlari to'g'risidagi konvensiya, 1975-yilgi Universal turdagi xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarda davlatlarning vakilligi to'g'risidagi konvensiyada ochib berilgan. 1969-yilgi Maxsus missiyalar to'g'risidagi konvensiya 1961 va 1963-yilgi konvensiyalarni to'ldiradi.

Diplomatik agent (ya'ni vakolatxona rahbari yoki hukumatning diplomatik personalisi a'zosi) fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyadan immunitetga ega, lekin quyidagi holatlar bundan mustasno:

1) o'zi bo'lib turgan davlat hududida joylashgan xususiy ko'chmas mulkka oid ashyoviy da'volar (agar bu mulkka o'z davlati nomidan hukumat maqsadlarida egalik qilayotgan bo'lmasa);

2) meros olishga oid da'volar (agar diplomatik agent bu ishda uni akkreditatsiya qilgan davlat nomidan emas, jismoniy shaxs sifatida vasiyatni bajaruvchi, meros qolgan mulkka nisbatan homiy, merosxo'r yoki vasiyat majburiyati yuzasidan huquq oluvchi bo'lib ishtirok etayotgan bo'lsa);

3) har qanday professional yoki tijorat faoliyatiga oid da'volar (agar diplomatik agent o'zi bo'lib turgan davlatda o'z rasmiy faoliyatidan tashqari shunday faoliyat bilan shug'ullanayotgan bo'lsa).

Konsullik mansabdor shaxslari va konsullik xizmatchilarining ular bo'lib turgan davlat sudi yoki ma'muriy organlari yurisdiksiyasiga nisbatan immuniteti quyidagilarga taalluqli emas:

1) agar fuqarolik da'vosi konsullik mansabdor shaxsi yoki konsullik xizmatchisi tomonidan tuzilgan shartnomadan kelib chiqsa va bu shartnoma bo'yicha shu shaxslar vakillik qilingan davlat agenti sifatida majburiyatlarni o'z zimmlariga olmagan bo'lsa;

2) agar fuqarolik da'vosi shu shaxslar bo'lib turgan davlatda yo'l-transport vositasi, kema yoki samolyot bilan bog'liq baxtsiz hodisa tufayli yetkazilgan zarar uchun uchinchi tarafdan tushgan bo'lsa.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavining 105-moddasiga binoan, o'z a'zolari bo'lgan davlatlar hududida o'z maqsadlariga erishishi uchun shunday imtiyozlar va immunitetlardan foydalanadi. BMT a'zolarining vakillari va uning mansabdor shaxslari ham

tashkilotning faoliyati bilan bog'liq vazifalarni mustaqil bajarishda zarur bo'lgan barcha imtiyozlar va immunitetlardan foydalanadilar.

BMT Bosh Assambleyasi 1946-yil fevralida BMT imtiyozlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiyani, keyinroq esa, 1947-yil noyabrda Ixtisoslashtirilgan idoralarning imtiyozlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qildi. Bu idoralarning imtiyozlari va immunitetlari ularning hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston hududida qator xalqaro tashkilotlarining boshqaruv organlari yoki vakolatxonalari ishlab turibdi. Bunday tashkilotlar va ularning organlari ular haqidagi xalqaro shartnomalarga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hukumati shu tashkilotlar bilan tuzgan xalqaro shartnomalarga muvofiq, O'zbekistonda imtiyozlar va immunitetlardan foydalanadilar. Aytib o'tilgan shartnomalar qatoriga quyidagilar ham kiradi:

– O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki o'rtasida tuzilgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankinging doimiy vakolatxonasi to'g'risidagi bitim;

– O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Iqtisodiy ittifoqning Xalqaro iqtisodiy qo'mitasi o'rtasida tuzilgan shu qo'mitaning O'zbekiston hududida bo'lishi to'g'risidagi bitim.

Lekin, agar davlat bitim tuzgan bo'lsa va boshqa munosabatlarda suveren vazifalarni ado etish paytidagidek emas, balki boshqacha – *ius imperii* doirasida emas, balki *ius gestionis* doirasida ishtirok etayotgan bo'lsa, unda nima qilish kerak?

Xorijiy mamlakatlarda funksional, yoki cheklangan immunitet doktrinasi keng tarqalgan. Uning mazmuni shundaki, davlat tijorat, xususiyy-huquqiy faoliyatni amalga oshirayotganda shu faoliyatdan kelib chiqadigan talablarga binoan immunitetdan voz kechadi. Bu doktrina qator davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Singapur va boshqalar) qonunlarida, xalqaro shartnomalarda (1926-yilgi Davlat sudlari immunitetiga oid ba'zi qoidalarning bixillashtri rilishi to'g'risidagi Bryussel konvensiyasi, 1972-yilgi Davlatlar immuniteti to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi), ba'zi mamlakatlarning sud amaliyotida (Italiya, Germaniya, Avstriya, Fransiya, Belgiya va boshqalar) o'z aksini topgan. Qonunlarda immunitetdan voz kechish asoslari, chegaralari va shakllariga, «davlat», «tijorat faoliyati», «savdo faoliyati» kabi tushunchalar ta'rifiga, chet davlatlar immuniteti ta'sir ko'rsatmaydigan nizolardan kelib chiqadigan talablarga, ilk choralar va ijro harakatlaridan

immunitet berish tartibiga, immunitet mavjudligini belgilovchi organ vakolatlariga, sud buyrug'i yoki chet davlatga qarshi jarayon qo'zg'atilganligi to'g'risidagi boshqa hujjatlarni (protsessual xabar-nomani) topshirish harakatlariga oid masalalar hal etib berilgan.

Muammoning naqadar dolzarbligini anglash qiyin emas. So'z fuqarolik ishlari bo'yicha sud ishlarini yuritishda ishtirok etishga jalb qilishdan, da'voni ilk ta'minlanishidan, qarorni majburiy ijro etishdan, davlatga taalluqli mulkka nisbatan majburiy choralar ko'ri-lishidan immunitetlar haqida bormoqda. Xorijiy mamlakatlarning chet davlat immunitetiga doir qonunlarida yurisdiksiyon immunitet hamda ilk choralar va ijro harakatlaridan immunitet alohida ajratib ko'rsatiladi. Qator qonunlar (Buyuk Britaniyada, Kanadada, Avstra-liyada va boshqalar) davlatning chet el sudi yurisdiksiyasiga bo'yus-unishga rozilik berishi uning ilk choralar va ijro harakatlarining qo'llanishiga rozilik berishidan dalolat bermasligidan kelib chiqadi.

Davlatning immunitetdan voz kechishi hollari mahalliy amaliyotda ham ma'lum. O'zbekiston Respublikasining xorijdagi savdo vakolatxonalari to'g'risidagi Nizomda savdo vakolatxonalari sudlarda javobgar sifatida faqat shu vakolatxona joylashgan mamlakatda tuzgan bitimlari va boshqa yuridik hujjatlaridan kelib chiqadigan nizolar bo'yichagina, va faqat xalqaro shartnomalar yoki bir taraflama murojaat orqali davlat savdo vakolatxonasini shu mamlakat sudiga bo'yusunishiga rozilik bergan holdagina ishtirok etishlari mumkinligi nazarda tutilgan. Kapital mablag'larning rag'batlantirilishi va o'zaro muhofaza qilinishi to'g'risida tuzilgan xalqaro shartnomalardagi umumiy qoida – bu sarmoyador va sarmoyani qabul qiluvchi davlat o'rtasidagi investitsion nizolarni hal etish tartibi to'g'risidagi qoidadir (bunday nizolar odatda sarmoyani qabul qiluvchi davlatning vakolatli sudi yoki arbitraji, Xalqaro savdo huquqi bo'yicha BMT Komissiyasi Arbitraj reglamentiga muvofiq amal qiluvchi «ad hoc» xolislik sudi, shartnomalarda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi arbitraj deb yuritiluvchi Stokgolm savdo palatasining Arbitraj instituti tomonidan hal etiladi). Ba'zi shartnomalarda sarmoyador nizoni Investitsion nizolarni tartibga solish bo'yicha xalqaro markazga topshirishi mumkinligi nazarda tutiladi (agar davlat mazkur Markazni ta'xis etgan 1965-yilgi Konvensiyaga a'zo bo'lgan bo'lsa).

BMT Xalqaro huquq komissiyasi tayyorlagan Davlatlar va ularning mulki yurisdiksiyon immunitetlari to'g'risidagi konvensiya normalarida «davlat» degan tushuncha ostida:

- davlat va uning boshqaruv organlari;
- federativ davlatning tarkibiy qismlari;
- davlatning suveren hokimiyati yo'lida amal qilishga vakolatli bo'lgan siyosiy bo'linmalari;
- davlat idoralari va institutsiyalari (davlatning suveren hokimiyati yo'lida amal qilish vakolatlari doirasida);
- davlatning shunday sifatda faoliyat ko'rsatuvchi vakillari tushuniladi.

«Tijorat bitimi» Konvensiya me'yorlarida quyidagilarni anglatadi:

- tovar sotish yoki xizmat ko'rsatish to'g'risidagi har qanday tijorat shartnomasi yoki bitimi;
- qarz berish to'g'risidagi yoki moliyaviy mazmundagi har qanday shartnoma yoki bitim, shu jumladan har qanday qarz yoki bitimga nisbatan kafolat yoki kompensatsiya bo'yicha majburiyatlar ham;
- tijorat, sanoat yoki professional xususiyatga ega bo'lgan har qanday shartnoma yoki bitim, mehnat shartnomalari bundan mustasno.

Konvensiya normalari davlat va uning mulkining boshqa davlat sudlari yurisdiksiyasidan immunitetiga nisbatan qo'llanishini nazarda tutadi.

5-§. Chet el huquqi mazmunini belgilash (sharhlash)

Ishlarni hal etish paytida sudlar O'zbekiston Respublikasi qonunlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq ravishda chet davlatlar huquq me'yorlarini qo'llaydilar (FPKning 12-moddasi, XPKning 13-moddasi). Qonunlar va xalqaro shartnomalar chet el elementi ishtirokidagi xususiy huquqiy munosabatlarga nisbatan chet davlatlar huquqining qo'llanishi shartlarini belgilaydi.

Sud mahalliy kollizion huquq asosida qo'llanishi lozim bo'lgan chet davlat huquqi mazmunini avvaldan bilishga majbur emas. Lekin kollizion masala hal etilgan bo'lib, chet davlat huquqi qo'llanishi lozim bo'lsa, sud uning ko'rsatmalari mazmunini belgilab olishi kerak. O'z talablari yoki e'tirozlariga chet davlat huquqini asos qilib

ko'rsatayotgan tarafdarga emas, balki aynan sudga uning mazmunini belgilab olish (sharhlash) vazifasi yuklatiladi. Bundan kelib chiqadiki, sud o'z tashabbusiga ko'ra va o'ziga yuklatilgan majburiyatlar tufayli chet davlat huquqi mazmunini sharhlaydi (ex officio).

Chet davlat huquqi mazmunini sharhlashdan maqsad ishni ko'rib chiqish uchun ahamiyatga ega bo'lgan hujjatni aniqlash emas, qabul qilinayotgan qarorning O'zbekiston Respublikasi qonunlari yoki xalqaro shartnomalari talablariga ko'ra me'yoriy-huquqiy asoslarini belgilab olishdir. Boshqacha aytganda, sudda chet davlat huquqi ishni ko'rib chiqish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar bilan bir qatorda isbotlanishi lozim bo'lgan holat deb emas, balki huquqiy kategoriya sifatida e'tirof etiladi. Chet davlat huquqi mazmunini belgilashda (sharhlashda) FPK 56-moddasi va XPKning 55-moddasidagi ishda ishtirok etayotgan shaxsning o'z talablari va e'tirozlariga asos qilib keltirayotgan holatlarni isbotlash majburiyati to'g'risidagi qoida qo'llanishi mumkin emas.

Chet davlat huquqi me'yorlarining mazmunini faqat umumiy yurisdiksiya sudlari, xo'jalik sudlari, xolislik sudlari tomonidagina emas, balki chet davlat huquqini qo'llashga haqli bo'lgan boshqa organlar tomonidan ham sharhlanishi mumkin. Boshqa organlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida umumlashtirilgan ma'lumotlar mavjud: so'z chet davlat huquqi me'yorlari mazmunining sud yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari va boshqa organlar tomonidan belgilanishi haqida boradi. Chet davlat huquqining notariatda qo'llanishi O'zbekiston Respublikasining Notariat to'g'risidagi qonunida nazarda tutilgan.

Bu hujjatlarda avvalo chet davlat huquqining «o'z vatanida qanday bo'lsa, shundayligicha» qo'llanishi talab qilinadi. Chet davlat huquqi me'yorlarini qo'llayotgan organ ularning mazmunini shu davlatdagi rasmiy talqini, qo'llanish tajribasi va doktrinasiga muvofiq ravishda sharhlaydi.

Chet davlat huquqi me'yorlarining mazmunini belgilash maqsadida ularni qo'llayotgan sud va boshqa organlar yordam berishni yoki tushuntirib berishni so'rab Adliya vazirligiga hamda O'zbekiston Respublikasining hamda chet davlatning vakolatli organlari va idoralariga murojaat qilishga yoki mutaxassislarni jalb qilishga haqlidirlar (XPKning 13-moddasi).

Qonun ishda ishtirok etayotgan shaxslarga chet davlat huquqi taalluqli me'yorlarining mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim

ma'lumot beruvchi adliya idoralari sifatida adliya vazirliklari va prokuraturalar tilga olinadi.

1992-yilgi Xo'jalik faoliyatini yuritish bilan bog'liq nizolarni hal etish tartibi to'g'risidagi bitimga binoan, bitim ishtirokchilari bo'lgan davlatlarning oliy sud organlari va adliya vazirliklari o'z davlatlarida amal qilgan yoki amal qilayotgan qonunlar va ularning qo'llanishi masalalari haqida bir-birlariga ma'lumot berib turadilar.

Umumiy huquq mamlakatlarida chet davlat huquqi mazmunini aniqlash ish bo'yicha qaror qabul qilinishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni aniqlash jabhasiga kiradi. Shunga muvofiq, «hujjat» (umumiy ma'lum hujjatlar sirasiga kirmaydigan, alohida hujjat) deb atalayotgan chet davlat huquqiy me'yori mazmunini isbotlash majburiyati taraflar zimmasiga yuklatiladi, sud esa taqdim etilgan dalillar bilan chegaralanadi.

GFR qonunlari sudlarga taraflar taqdim etgan dalillar bilan chegaralanib qolmasdan, boshqa manbalarni ham jalb etishga va sudga ma'lum bo'lmagan chet davlat huquqi mazmunini aniqlash uchun boshqa choralarni ko'rishga vakolat beradi. Chet davlat huquqiy *ex officio* me'yorlari mazmunini belgilash Vengriya, Avstriya, Turkiya, Italiyaning xalqaro xususiy huquqqa oid qonunlarida ham nazarda tutiladi.

Shveysariyaning xalqaro xususiy huquq to'g'risidagi qonuni chet davlat huquqi mazmunini belgilashni sudga yuklaydi, bunda sudning taraflarga yordam so'rab murojaat qilishiga yo'l qo'yiladi. Mulk bilan bog'lig' nizolarni ko'rib chiqishda chet davlat huquqi mazmunini aniqlash taraflarga yuklatilishi mumkin.

Fransiya sudlarida chet davlat huquqi mazmunini aniqlash majburiyati taraflarga yuklatilgan; shu bilan birga sudlar, agar chet davlat huquqi me'yorlari ularga ma'lum bo'lsa, o'z tashabbusiga ko'ra ham qo'llashlari mumkin.

6-§. Sud topshiriqlarining bajarilishi

Sudning protsessual harakatlari shu sud o'z faoliyatini amalga oshirayotgan davlat hududi chegaralari bilan cheklanadi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda protsessual harakatlarni chet elda amalga oshirish zarur bo'ladi. Chet davlat esa taalluqli tarzda murojaat qilingan taqdirda o'z hududida shunday harakatlarning ijro etilishida yordam ko'rsatishi mumkin. Alohida protsessual

harakatlarni amalga oshirish to'g'risidagi topshiriqlar xalqaro shartnomalar va milliy qonunlar asosida bajariladi. Lekin huquqiy yordam ko'rsatishni tartibga soluvchi xalqaro shartnoma yoki milliy qonunlar mavjud bo'lmagan taqdirda ham shunday yordam ko'rsatishni rad etish xalqaro xushmuomalalik asoslarining buzilishi deb qaraladi.

O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi sudlari chet davlat sudlariga alohida protsessual harakatlarni amalga oshirish to'g'risidagi topshiriqlar bilan murojaat qilishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlatlar sudlari bilan munosabatlari qonunlar va xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi. Notariusning chet davlatlarning adliya organlari bilan o'zaro munosabatlari ham shunga muvofiq ravishda belgilanadi.

Chet davlat adliya organlari topshiriqlarining bajarilishi «huquqiy yordam» tushunchasining asosini tashkil etadi. Chet davlatlar huquqida huquqiy yordam hajmiga, uning ko'rinishlariga, umuman, shu tushunchaning o'ziga nisbatan munosabat bir xil emas. Huquqiy yordam jabhalarining kengayib borishi kuzatilmoqda, ular qatoriga adliya organlarining topshiriqlarini bajarish, hujjatlarni topshirish bilan bir qatorda chet davlat huquqi to'g'risida ma'lumot olishda Ko'maklashish, hujjatlarni jo'natib yuborish kabilar ham kiritilmoqda. AQSH va Buyuk Britaniya sudlari chet elda bo'lgan guvohlarni sud tomonidan vakil qilingan shaxs (*comissioner*) orqali, to'g'ridan-to'g'ri va kesishma so'roqni amalga oshirayotgan taraflarning vakillari ishtirokida so'roq qilish qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi FPK 390-moddasi va XPK 226-moddasi chet davlatlarning sudlariga ayrim protsessual harakatlarni bajarish to'g'risidagi topshiriqlarni bajarishda yordam berish masalalarini yoritadi. Mazkur moddalarda sanab o'tilgan protsessual harakatlar ro'yxati to'liq emas va amalda chaqiriq qog'ozlari va boshqa hujjatlarni topshirish bilan birga ularning qatoriga taraflar va guvohlarni so'roq qilish, ekspertiza o'tkazish va joyni ko'zdan kechirish, yozma dalillar olish va sh.q. ham kiradi. Bu me'yorlarning matnidan kelib chiqadiki, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida hujjatlarni topshirish deganda protsessual harakatlarni bajarishga nisbatan mustaqil huquqiy yordam ko'rilishi nazarda tutiladi. 1954-yilgi Fuqarolik jarayoni masalalari bo'yicha, 1965-yilgi Chet davlatda hujjatlarni topshirish to'g'risidagi, 1970-yilgi Chet davlatda dalillar yig'ish to'g'risidagi Gaaga konvensiyalari ham hujjatlarni

Shartnoma tuzayotgan Taraflar bir-birlarining iltimoslariga binoan o'zlarining hududlarida amal qilayotgan yoki amal qilgan qonunlar va ularning adliya idoralari tomonidan qo'llanish tajribasi haqida axborot berib turadilar. Axborot Taraflarning markaziy adliya idoralari tomonidan beriladi.

Huquqiy yordam ko'rsatish paytida sarflangan xarajatlar Taraflarning zimmasiga yuklatiladi. Yordam so'ralgan Taraf yordam so'rgan Tarafdin bu xarajatlarning qoplanishini talab qilmaydi.

Federal qonunlar va xalqaro shartnomalar tomonidan tayinlangan holatlarda notariat organlari va boshqa adliya organlari ham topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq huquqiy yordam subyektlari bo'lishlari mumkin.

Sudlar va boshqa adliya organlarining topshiriqlari chet davlatdan O'zbekistonga va O'zbekistondan chet davlatga, basharti xalqaro shartnomalarda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, diplomatik tartibda yuboriladi. O'zbekistondan chet davlatga yuboriladigan topshiriq Adliya vazirligi – Tashqi ishlar vazirligi – elchixonalarining konsullik bo'limlari yo'nalishi bo'yicha ketadi.

1992-yilgi Xo'jalik faoliyatini yuritish bilan bog'liq nizolarni hal etish tartibi to'g'risidagi bitim qoidalari MDH mamlakatlarining xo'jalik yurituvchi subyektlari o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirishga xizmat qiladi: mazkur bitimga binoan huquqiy yordam ko'rsatish paytida shu bitim a'zolari bo'lgan mamlakatlarning vakolatli sudlari va boshqa organlari bir-birlari bilan bevosita aloqada bo'ladilar; huquqiy yordam ko'rsatishni yoki topshiriqni ijro etishni so'rab murojaat qilinganda hujjatlar yordam so'rgan mamlakat tilida yoki rus tilida taqdim etiladi.

1993-yilgi Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiyada Taraflarning vakolatli adliya idoralari o'rtasidagi aloqalar quyidagicha belgilangan (5-modda): «Mazkur konvensiyaga amal qilinganda Shartnoma tuzayotgan Taraflarning vakolatli adliya idoralari, basharti konvensiyada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, o'zlarining markaziy organlari orqali aloqada bo'ladilar». 1997-yilda Moskvada imzolangan Bayonnoma bilan 5-modda boshqacha tahrirda berildi. Uning mazmuni quyidagicha: «Mazkur konvensiyaga amal qilinganda Shartnoma tuzayotgan Taraflarning vakolatli adliya idoralari, basharti konvensiyada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, o'zlarining markaziy, hududiy va boshqa organlari orqali

aloqada bo'ladilar». Shartnoma tuzayotgan Taraflar o'zlarining markaziy, hududiy va boshqa bevosita aloqalarini amalga oshirish uchun vakolatli bo'lgan organlari ro'yxatini o'zlari belgilaydilar va bu haqda depozitariya ma'lumot beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sud topshiriqlarini yuborayotganda taalluqli tartibda xalqaro shartnoma mavjud bo'lgan chet davlatlarning faqatgina Adliya vazirliklari bilan emas, balki boshqa taalluqli markaziy organlari bilan ham bevosita aloqa qiladi.

Mahalliy adabiyotlarda sud va boshqa adliya idoralarining topshiriqlarini ijro etish paytidagi aloqalar protsedurasini soddalash-tirish maqsadga muvofiqligi masalasi qo'yilgan. O'zbekistonning Gaagada imzolangan 1965-yilgi Fuqarolik va savdo ishlari bo'yicha sudga oid va suddan tashqari hujjatlarni chet elda topshirish bo'yicha, 1970-yilgi Fuqarolik va savdo ishlari bo'yicha dalillarni chet elda olish to'g'risidagi, 1980-yilgi Odil sudlovga erkin murojaat qilish to'g'risidagi konvensiyalarga qo'shilishi haqida taalluqli qaror qabul qilish taklif etilgan edi. Bu taklif Adliya vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lsa ham, lekin shu paytgacha bizning mamlakatimiz mazkur konvensiyalarga qo'shilmagan.

Topshiriq qaysi mamlakat hududida ijro etilishi lozim bo'lsa, shu mamlakatning qonunlariga muvofiq ijro etiladi. Xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda topshiriqni ijro etuvchi organ shunga muvofiq chet davlatning protsessual me'yorlarini qo'llashi mumkin. 1993-yilgi Fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiyada huquqiy yordam ko'rsatuvchi idora topshiriqni ijro etishda o'z mamlakatining qonunlarini qo'llashi mumkinligi nazarda tutilgan. Yordam so'ragan idoraning iltimosiga ko'ra, yordam ko'rsatuvchi idora yordam so'ragan Tarafning protsessual me'yorlarini qo'llashi ham mumkin (agar bu me'yorlar yordam ko'rsatuvchi Tarafning qonunlariga zid bo'lmasa).

Mazkur hollarda chet davlat protsessual me'yorlarini qo'llash tartibi quyidagicha: sud bu me'yorlarning rasmiy talqini, taalluqli davlat hududida qo'llanish tajribasi va doktrinasiga muvofiq ravishda ularning mazmunini aniqlaydi. Yuqorida aytilgani dek, kollizion me'yorlar alohida moddiy-huquqiy qoidalarni emas, umuman chet el huquqiy tizimini misol qilib oladi. Sud topshiriqlarining ijro etilishida esa, fikrimizcha, so'z alohida chet davlatlar protses-

sual me'yorlarining xalqaro shartnoma va chet davlat adliya idorasining murojaati doirasida qo'llanishi to'g'risida ketadi (albatta, bunday hollarda ham chet davlat me'yori o'z hududida qanday bo'lsa, shundayligicha qo'llaniladi). Bu alohida me'yorlarning mazmunini belgilash birmuncha oson: chunki ularni qo'llash to'g'risidagi murojaat o'z huquq me'yorlarini qo'llashdan manfaatdor bo'lgan, taalluqli so'rovni tuzgan va shu yo'lda zarur axborotni bera oladigan organ tomonidan beriladi.

XXIII BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasida chet elliklarga qanday protsessual huquqlar berilgan?
2. Chet el huquqining mazmuni qanday belgilanadi?
3. Chet el sudi himoyasiga bo'lgan huquq qanday amalga oshiriladi?
4. Huquqiy yordam to'g'risidagi shartnomalarda sud topshiriqlarini ijro etish uchun qanday tartib belgilangan?
5. Bir davlat sudining boshqa davlat sudiga murojaat etishi qanday tartibda amalga oshiriladi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник, 2-е издание, перераб. и дополн. –М.: Международные отношения, 1994.
2. Лунц Л.А. Курс международного частного права: Особенная часть. –М.: 1975.
3. Международное частное право: Учебное пособие /Под ред. Г.К.Дмитриевой. –М.: Юрист, 1993.
4. Панов В.П. Международное частное право: Схемы. Документы: Учебное пособие. –М.: Право и Закон, 1996.
5. Скаридов А.С. Международное частное право: Учебное пособие. Санкт-Петербург: Изд-во Михайлова В.А., 1998.
6. Асьянов Ш.М., Книпер Р., Убайдуллаев З.С. Международный арбитраж. –Т.: Изд-во Университета мировой экономики и дипломатии, 1999.
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharhlar. Akad. N.Rahmonqulov tahriri ostida. –Т.: «Adolat», 1999.

XALQARO MUNOSABATLARDA NOTARIAL HARAKATLARNING TURLARI VA AHAMIYATI

1-§.Notarial harakatlarning turlari

Chet el elementi ishtirokidagi fuqarolik huquqiy munosabatlarida notariatning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har yili O'zbekistonda notarial tartibda rasmiylashtirilayotgan, chet elda foydalanish uchun mo'ljallangan hujjatlar soni ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlarni davlat notarial idoralarida ishlaydigan yoki xususiy tarzda faoliyat ko'rsatuvchi notariuslar, shuningdek, ba'zi hollarda boshqa organlar ham amalga oshiradi. Notarial harakatlarni chet elda amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining chet eldagi konsullik idoralari zimmasiga yuklatilgan.

Notariat haqidagi qonunda chet ellik fuqarolar va yuridik shaxslarning notariuslarga murojaat qilishi borasida hech qanday cheklashlar belgilab qo'yilmagan. Notariuslar ularga murojaat qilgan barcha jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlari yo'lida notarial harakatlarni bajaradilar.

Notarial idoralarning faoliyatiga quyidagilar kiradi:

- chet elda amal qilish uchun mo'ljallangan hujjatlarni (shu jumladan, ishonchnomalarni) tasdiqlash;
- chet elda tuzilgan hujjatlarni qabul qilish;
- chet el fuqarosining vafotidan so'ng uning O'zbekiston Respublikasida qolgan mulkini yoki O'zbekiston fuqarosining vafotidan so'ng chet ellik fuqaroga qoldirilgan mulkni muhofaza qilish bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish;
- chet davlatlar organlarida ish yuritish uchun talab qilinadigan dalillarni ta'minlash va hokazo.

Notariat haqidagi qonunda notariuslar tomonidan chet davlat huquqi me'yorlarini qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan. Notariuslar xalqaro shartnomalar talablariga muvofiq tuzilgan hujjatlarni qabul qiladilar, shuningdek, basharti bu xalqaro shartnomalarga zid bo'lmasa, boshqa davlatlar qonunlarida belgilangan shaklda tasdiqlovchi yozuvlarini ham kiritadilar.

Notarial harakatlarga oid me'yorlarni nazarda tutgan xalqaro shartnomalar ikki xilga bo'linadi: bular fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi ikki taraf-lama shartnomalar hamda konsullik konvensiyalaridir.

Xalqaro shartnomalarda, O'zbekiston Respublikasi qonunlaridagi kabi, shunday kollizion me'yorlar mavjudki, ular notarius muayyan notarial harakatni bajarishda qaysi davlat huquqini qo'llashi lozimligini belgilab beradi. Odatda kollizion me'yorlar meros olish bilan bog'liq munosabatlarga taalluqli bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilanishicha, meros olish bo'yicha munosabatlar meros beruvchining so'nggi doimiy yashash joyi qaysi mamlakatda bo'lsa, shu mamlakatning huquqi bo'yicha aniqlanadi. Biroq, O'zbekistonda joylashgan inshootlar va boshqa ko'chmas mulkni va shu mulkka nisbatan bo'lgan huquqlarni meros olish O'zbekiston qonunlari bo'yicha tartibga solinadi.

Fuqarolik kodeksining VI bo'limida juda ko'p kollizion me'yorlar mavjud. Masalan, 1184-moddada mulkka nisbatan mulk huquqi shu mulk joylashgan mamlakat huquqi bo'yicha belgilanadi. Lekin bitim predmeti bo'lgan mulkka nisbatan mulk huquqining vujudga kelishi va bekor bo'lishi, agar taraflarning kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, shu bitim tuzilgan joy huquqi bo'yicha belgilanadi.

Xalqaro shartnomalarning konsullik legalizatsiyasidan ozod qilish to'g'risidagi me'yorlari katta amaliy ahamiyatga ega. Masalan, O'zbekiston Respublikasi va MDH mamlakatlarining fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalarida nazarda tutilishicha, bir taraf hududida belgilangan shaklda berilgan yoki vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanib, rasmiy muhr bilan mustahkamlangan hujjatlar ikkinchi taraf hududida legalizatsiya qilinmasdan qabul qilinadi.

Xalqaro shartnomalarning taraflar organlarining bir-biriga huquqiy yordam ko'rsatishlari tartibini boshqaruvchi me'yorlari amalda katta ahamiyatga ega. Bu qoidalar huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomalarda mavjud bo'lib, ular huquqiy yordam ko'rsatish paytida taraflarning adliya idoralari o'zlarining markaziy organlari orqali aloqada bo'lishlarini nazarda tutadi.

Huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma mavjud bo'lmagan hollarda O'zbekiston Respublikasi adliya organining

murojaatnomasi Adliya vazirligi tomonidan Ichki ishlar vazirligi orqali diplomatik yo'l bilan yuboriladi.

Notarius chet el fuqarolari va mansabdor shaxslaridan umumiy ma'lumot mazmunidagi yozma murojaatnoma olgan taqdirda o'zi javob tayyorlab, bevosita yuborishiga yo'l qo'yiladi.

Notariat to'g'risidagi qonunga binoan, notarius O'zbekiston Respublikasi qonunlari va xalqaro shartnomalarga muvofiq ravishda chet el huquq me'yorlarini qo'llashi mumkin. Notarius xalqaro shartnomalar talablariga muvofiq tuzilgan hujjatlarni qabul qiladi, shuningdek, basharti bu xalqaro shartnomalarga zid bo'lmasa, boshqa davlatlar qonunlarida belgilangan shaklda tasdiqlovchi yozuvlarini ham kiritadi.

Agar chet el huquqini hisobga olgan holda tuzilgan hujjatlar chet elga yuborilishi mo'ljallangan bo'lsa, ularni notarial tartibda rasmiylashtirish zarur. Bu holda notariusning vazifasi chet el fuqarolik, oila huquqi me'yorlari bilan tanishib chiqish va chet el huquqida belgilangan shaklda tasdiqlash yozuvlarini kiritishdan iborat bo'ladi. Chet el huquqiy me'yorlarining mazmuni to'g'risidagi ma'lumotni notarius notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan shaxsdan yoki taalluqli tartibda Adliya vazirligiga so'rovnomaga yuborish yo'li bilan olishi mumkin.

Tasdiqlovchi yozuvlarga kelganda, so'z asosan ishonchnomalarni yoki fuqaro imzosining haqiqiylikini tasdiqlash to'g'risida boradi.

Bunday tasdiqlovchi yozuvlarning ichki huquqiy munosabatlarda qo'llaniladigan tasdiqlovchi yozuvlardan farqi ularning mazmunidadir. Masalan, ishonchnomadagi tasdiqlovchi yozuvlarda ishonch bildiruvchi notariusning huzuriga shaxsan kelgani, ishonchnomada ko'rsatilgan shaxs sifatida unga ma'lumligi, ishonchnomani notarius huzurida shaxsan imzolagani va taalluqli ravishda shu ishonchnomani berayotganini tasdiqlagani ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Odatda chet elda foydalanish uchun mo'ljallangan ishonchnomalarda amal qilish muddati ko'rsatilmaydi va to' ishonch bildiruvchi tomonidan bekor qilinmaguncha o'z kuchini saqlab qoladi.

Chet el huquqiga rioya qilingan holda tuzilgan hujjat biz uchun g'ayriodatiy nomlanishi (masalan: sertifikat, affidevit, deklaratsiya va h.k.), hujjatda tilga olingan shaxslarning nomlari, notanish yuridik terminlari bilan ajralib turadi. Asosiy hujjatga unda bayon qilingan asosiy hujjatni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar yoki fotosuratlar ilova qilingan (tikib qo'yilgan) bo'lishi mumkin.

Chet elga yuborish uchun mo'ljallangan hujjatlarning yana bir xususiyati shundaki, bu hujjat odatda ikki tilda, matnlar yonma-yon joylashtirilgan holda tuziladi. Bunda tasdiqlovchi yozuv ikkala matnning ostiga ham yoziladi. Tasdiqlovchi yozuv o'zbek tilida yoziladi. Yozuvda hujjatni tasdiqlash bilan birga notarius qilgan tarjimaning haqiqiyliги yoki notariusga tanish bo'lgan tarjimonning imzosiga guvohlik berilishi to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.

Muayyan mamlakatda qabul qilingan qoidalarga qarab, agar matn bir varaqda ikki tilda parallel joylashtirilgan bo'lsa, tasdiqlovchi yozuv o'zbek tilidagi matn ostiga lotin alfavitidagi harflar bilan yozib qo'yiladi. Bunda tasdiqlovchi yozuv ikki marta: o'zbek tilidagi matn ostiga o'zbek tilida va chet tilidagi yozuv ostiga chet tilida yozib qo'yiladi. Notarius ham ikki marta: o'zbek tilidagi matn ostiga va chet tilidagi matn ostiga alohida lotin alfavitidagi harflar bilan imzo chekadi.

Hujjatni imzolashning alohida tartibiga ham e'tibor berish lozim. Ariza, ishonchnoma, boshqa hujjatni imzolaganda fuqaro o'z familiyasi, ismi, otasining ismini hujjat matnida qanday ketma-ketlikda yozgan bo'lsa, shundayligicha yozib qo'yishi va keyin imzo chekishi lozim.

Tasdiqlovchi yozuvlarni to'ldirish paytida notariusning familiyasi, ismi, otasining ismi, hujjatni rasmiylashtirish sanasi (so'zlar bilan) to'liq yozilishi lozim. Hujjatni imzolagan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi uning pasportida va hujjat matnida qanday ketma-ketlikda yozilgan bo'lsa, shundayligicha yoziladi. Muhr tasdiqlovchi yozuvga va notariusning imzosiga tegizilmagan holda bo'sh joyga qo'yiladi.

2-§. Chet el fuqarolarining hujjatlarini tasdiqlash, tan olish tartibi

Chet elda boshqa davlatning vakolatli organlari mansabdor shaxslari ishtirokida yoki bevosita ular tomonidan tuzilgan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi organi tomonidan legalizatsiya qilingandan so'ng notarius va boshqa organlar tomonidan qabul qilinadi.

Muayyan davlatdagi konsul biror hujjatga undagi shu davlat mansabdor shaxsining imzosini tasdiqlovchi maxsus yozuvni kiritib qo'yishi legalizatsiyaga misol bo'la oladi. Konsullik legalizatsiyasi

faqat imzolarni tasdiqlashdangina emas, balki hujjatlarning konsul bo'lib turgan davlat qonunlariga muvofiqligini tasdiqlashdan ham iboratdir. O'zbekiston davlat organlari tomonidan berilgan hujjatlar chet elga yuborilganda ham legalizatsiya talab qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida chet el rasmiy hujjatlarini legalizatsiya qilishni bekor qiluvchi 1961-yilgi Gaaga konvensiyasi amal qiladi. Bu konvensiyada 36 davlat, shu jumladan, AQSH, Fransiya, Angliya, GFR ishtirok etadi. Konvensiyaning mazmuni shundaki, legalizatsiyani rasmiylashtirish bo'yicha ketma-ket bajariladigan bir necha operatsiyalar o'rniga yagona formal amal bajariladi, ya'ni hujjatni bergan davlat organlari tomonidan hujjatga uni tasdiqlovchi o'ziga xos yozuv-apostil qo'yiladi. Konvensiya ishtirokchilari bo'lgan davlatlar uchun apostilning shakli yagonadir. Apostil Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Prokuratura yoki Arxiv idorasi tomonidan hujjatning o'ziga yoki alohida varaqqa qo'yiladi va hujjat bilan birlashtirib qo'yiladi. Konvensiyaning ahamiyati ham shundaki, u fuqarolarning huquqlariga oid va chet el tashkilotlariga taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirish ishlarini birmuncha osonlashtiradi.

Chet elda tuzilgan hujjatlar, basharti bu qonunlarda va xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan bo'lsa, legalizatsiyasiz ham notarius va boshqa organlar tomonidan qabul qilinadi.

Ishonchnomalarga taalluqli masalalar O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlarini muhofaza qilish samaradorligini ta'minlashda muhim amaliy ahamiyatga ega. Ishonchnomalarga nisbatan fuqarolik qonunlarining vakillik shartnomasi to'g'risidagi qoidalari qo'llanadi, suddagi vakillikka nisbatan esa fuqarolik protsessual qonunlar qoidalari amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida konsul o'z vakillik faoliyatini ishonchnomasiz yuritishi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konsullik ustaviga binoan, konsul o'zi bo'lib turgan davlat idoralarida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari nomidan, agar bu fuqarolar shu yerda bo'lmasa, agar ular ishni boshqa birovga topshirgan bo'lmasa va boshqa biror sabab bilan o'z manfaatlarini himoya qila olmasa, ishonchnomasiz harakat qilishi mumkin. Bu vakillik to o'sha fuqarolar o'zlariga muxtor vakil tayinlamagunlaricha yoki o'z manfaatlarini himoya qilishni o'z zimmalariga olmaganlaricha davom etadi.

XXIV BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Chet el elementi bilan o'zaro munosabatlarda notariatning vazifalari?
2. Konsullik idoralariga qanday notarial huquqlar va vazifalar berilgan?
3. Xorijiy hujjatlarni legalizatsiya qilish tartibi?
4. Apostil yozuvini kiritish tartibi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник, 2-е издание, перераб. и дополн. –М.: Международные отношения, 1994.
2. Лунц Л.А. Курс международного частного права: Особенная часть. –М.: 1975.
3. Международное частное право: Учебное пособие /Под ред. Г.К.Дмитриевой. –М.: Юрист, 1993.
4. Панов В.П. Международное частное право: Схемы. Документы: Учебное пособие. –М.: Право и Закон, 1996.
5. Скаридов А.С. Международное частное право: Учебное пособие. Санкт-Петербург: Изд-во Михайлова В.А., 1998.
6. Асьянов Ш.М., Книпер Р., Убайдуллаев З.С. Международный арбитраж. –Т.: Изд-во Университета мировой экономики и дипломатии, 1999.
7. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharhlar. Akad. H.Rahmonqulov tahriri ostida. –Т.: «Adolat», 1999.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XO‘JALIK SUDLARIDA
NIZOLARNI KO‘RIB CHIQISH TARTIBI**

1-§. Xo‘jalik sudlari va xo‘jalik jarayoni tushunchasi

O‘zbekiston Respublikasi xo‘jalik sudi fuqarolik huquqiy munosabatlari va boshqaruv sohasidagi huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda sud hokimiyatini amalga oshiruvchi alohida sud organidir. Xo‘jalik sudlari alohida vakolat-larga ega, xo‘jalik sudlov ishlarini yuritish esa O‘zbekiston Respub-likasi Xo‘jalik protsessual kodeksi bilan mustahkamlab qo‘yilgan o‘ziga xos xususiyatlariga ega.

Xo‘jalik jarayoni – xo‘jalik sudi va boshqa sudlov ishlarini yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarning muayyan ishni ko‘rib chiqish va hal etish bilan bog‘liq protsessual harakatlari majmuidir. U olti bosqichdan iborat:

- birinchi instansiya sudida ish yuritish;
- apellatsiya instansiyasida ish yuritish;
- kassatsiya instansiyasida ish yuritish (sud qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligini kassatsion tartibda tekshirish);
- nazorat tartibida ish yuritish (sud qarorlarining qonuniyligi va asoslanganligini nazorat tartibda tekshirish);
- xo‘jalik sudining qarorlarini yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rish;
- sud qarorlarini ijro etish bo‘yicha ish yuritish.

Ish xo‘jalik jarayonining barcha bosqichlaridan o‘tib borishi majburiy emas, bu muayyan ishda ishtirok etayotgan manfaatdor shaxslarning ixtiyoriga bog‘liq. Ishning birinchi instansiya bo‘yicha hal etilishi va keyin, da‘vogarning istagiga ko‘ra, xo‘jalik sudi qarorining ijro etilishi majburiydir.

Davlat arbitraji organlarining xo‘jalik sudi tizimiga aylantirilishi mamlakatimizda mustaqil va samarali sud hokimiyati shakllanayot- ganligidan darak beradi. Tarixda tadbirkorlik faoliyati subyektlari o‘rtasidagi nizolarni hal etish bo‘yicha turli variantlar mavjud bo‘lgan. ko‘p mamlakatlarda xo‘jalik nizolari umumiy sudlarda yoki kvazi-sud organlari yordamida, yoki ixtisoslashtirilgan sudlarda (masalan, moliya va soliqlar borasidagi nizolar bo‘yicha) hal etiladi.

2-§. Ishlarning xo‘jalik sudiga taalluqliligi va xo‘jalik sudida sudlovga taalluqliligi

Xo‘jalik sudiga ikki yoqlama xususiyatga ega bo‘lgan ishlar: iqtisodiy nizolar va boshqaruv sohasida kelib chiqadigan nizolar taalluqli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan tashkilotlar, tadbirkor fuqarolar o‘rtasida vujudga keladigan iqtisodiy nizolar, taraflarning qanday idoralarga qarashli ekanligidan qat’i nazar, xo‘jalik sudida ko‘rib chiqiladi. Xo‘jalik sudida ko‘rib chiqiladigan nizolar qatoriga jumladan quyidagilar ham kiradi:

– taraflar o‘rtasida tuzilgan shartnomada yoki amaldagi qonunlarda taraflar o‘rtasida nizo kelib chiqadigan hollarda mazkur nizoning hal etilishi xo‘jalik sudiga topshirilishi nazarda tutilgan bo‘lsa;

– shartnoma shartlari o‘zgartirilayotgan yoki shartnoma bekor qilinayotgan bo‘lsa;

– majburiyatlar bajarilmayotgan yoki lozim darajada bajarilmayotgan bo‘lsa;

– mulk huquqini e’tirof etish haqidagi da’volar;

– mulkdor yoki mulkning qonuniy egasi mulkni boshqa shaxsning qonunsiz egaligidan talab qilib olayotgan bo‘lsa olish haqidagi da’volari;

– mulkdorning huquqlari egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda, undan foydalanishga nisbatan to‘sqinliklarni bartaraf etish to‘g‘risidagi da’volari;

– boshqa asoslar bilan bog‘liq nizolar.

Agar nizolashayotgan taraflarning birortasi chet davlat hududida joylashgan bo‘lsa, shuningdek, chet el investitsiyalari bilan bog‘liq tashkilotlar o‘rtasida nizo vujudga kelgan bo‘lsa va bu davlatlararo bitimda, xalqaro shartnomada yoki taraflar o‘rtasidagi bitimda nazarda tutilgan bo‘lsa, bunday nizolar xo‘jalik sudida ko‘rib chiqiladi.

Boshqaruv sohasidagi nizolar, basharti bu nizolar biror tashkilot yoki tadbirkor fuqaro bilan boshqaruv organlari o‘rtasida vujudga kelgan bo‘lsa, xo‘jalik sudida ko‘rib chiqiladi. Masalan:

– davlat organlari yoki boshqa organlarning (muayyan shaxslarga yoki shaxslar guruhiga taalluqli) hujjatlari, shu jumladan, hokimiyat va boshqaruv organlarining qonunga zid bo‘lgan va tashkilotlar hamda tadbirkor fuqarolarning qonun bilan muhofaza qilinadigan huquq va manfaatlarini buzuvchi qarorlari haqiqiy emas deb

topilishi bilan bog'liq nizolar; biror korxonani tuzish, qayta tashkil etish yoki tugatish bilan bog'liq shunday hujjatlarning haqiqiy emas deb topilishi bilan bog'liq nizolar;

– shunday hujjatlar orqali tashkilotlarga va tadbirkor fuqarolarga yetkazilgan zararni, shuningdek, yuqoridagi organlarning tashkilotlar va tadbirkor fuqarolarga nisbatan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi tufayli yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar;

– boshqaruv organlarining yer maydonini berishni rad etganligi yoki olib qo'yganligi haqidagi qarorlari ustidan shikoyat berish bilan bog'liq nizolar;

– tashkilotni yoki fuqaroning tadbirkorlik faoliyatini belgilangan muddatda davlat ro'yxatiga olishni rad etish yoki bo'yin tovlash ustidan shikoyat berish bilan bog'liq nizolar;

– davlat organlari va boshqa organlarning tashkilotlar va tadbirkor fuqarolardan pul mablag'lari yoki boshqa mulkni xatlash to'g'risidagi qarorlari ustidan shikoyat berish, shuningek, qonunsiz ravishda xatlangan pul mablag'lari va boshqa mulkni qaytarish bilan bog'liq nizolar;

– davlat organlari va boshqa organlar, shu jumladan, monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshiruvchi organlar, banklar, nazorat organlarining tashkilotlar va tadbirkor fuqarolardan undirgan jarimalari va boshqa mablag'larini undirib olish to'g'risidagi nizolar (agar qonunda ularning pul mablag'larini hisobdan o'chirishi mumkinligi nazarda tutilmagan bo'lsa);

– davlat soliq idorasi va boshqa nazorat organlari tomonidan qonun talablarini buzgan holda iqtisodiy (moliyaviy) jarima sifatida hisobdan o'chirilgan pul mablag'larini budjetdan qaytarib olish bilan bog'liq nizolar.

Boshqaruv sohasida kelib chiqadigan, XPK va boshqa qonuniy hujjatlar bilan xo'jalik sudi vakolatiga kiritilgan boshqa nizolar ham aynan xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

Xo'jalik jarayoniga xos xususiyatlardan biri – sudlovga taalluqlilikning ikki xil ko'rinishi, ya'ni ishning turiga va qaysi hududda ko'rilishiga qarab ajratilishidir. Ishning turiga qarab sudlovga taalluqlilikni belgilash deganda ishlarning turli miqyosdagi xo'jalik sudlari o'rtasida taqsimlanishi tushuniladi. Umumiy qoidaga ko'ra, xo'jalik sudining sudloviga taalluqli bo'lgan ishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri xo'jalik sudlarida

ko‘riladi. Hududiy sudlovga taalluqlilik deganda esa bir xil miqyosdagi xo‘jalik sudlarining vakolatlari tushuniladi va o‘z navbatida u umumiy hududiy, alohida, kelishilgan va muqobil sudlovga taalluqlilik tushunchalariga bo‘linadi (XPKning 26-33-moddalari).

3-§. Xo‘jalik sudida ish qo‘zg‘atish, ishni sudda ko‘rishga tayyorlash va ko‘rish

Xo‘jalik sudida sud jarayoni xo‘jalik sudiga da‘vo arizasini berishdan boshlanadi. da‘vo arizasida quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi shart:

- taraflarning nomlari, ularning pochta manzillari;
- agar da‘vo baholanadigan xususiyatga ega bo‘lsa, da‘voning bahosi;
- da‘vo arizasi uchun asos bo‘ladigan holatlar va undirilishi talab qilinayotgan summani tasdiqlovchi dalillar;
- har bir javobgar bilan nizoni bartaraf etish uchun ko‘rilgan choralar haqida ma‘lumotlar, chora ko‘rilishi talab etilmaydigan holatlar bundan mustasno;
- da‘vo talabi, agar javobgarlar bir nechta bo‘lsa, ularning har biriga nisbatan alohida talab;
- da‘vo arizasiga ilova qilinayotgan boshqa hujjatlar va dalillar ro‘yxati.

Da‘vo arizasida nizoni to‘g‘ri hal etish uchun zarur bo‘lgan boshqa muhim ma‘lumotlar ham ko‘rsatilishi mumkin.

Da‘vo arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- har bir javobgar bilan nizoni bartaraf etish uchun ko‘rilgan choralar haqidagi hujjatlar, chora ko‘rilishi talab etilmaydigan holatlar bundan mustasno;
- javobgarlarga da‘vo arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarning nusxalari yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat;
- belgilangan tartibda va hajmda davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat;
- da‘vo talabiga asos bo‘lgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar.

Da‘vogar da‘vo arizasini taqdim etayotganda javobgar tarafga da‘vo arizasi va unga ilova qilingan hujjatlarning nusxasini yuborishi lozim.

Da‘vo arizasini qabul qilish masalasini sudyaning yakka o‘zi hal qiladi. Aniqlangan hujjatlarga qarab sudya da‘vo arizasini qabul

qilish to'g'risida (XPKning 116-moddasi) yoki da'vo arizasini qabul qilishni rad etish to'g'risida (XPKning 117-moddasi) ajrim chiqaradi yoki da'vo arizasini da'vogarga qaytaradi (XPKning 118-moddasi).

Nizoni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rib chiqishni ta'minlash maqsadida sudya ishni sudda ko'rishga materiallarni tayyorlash bo'yicha zarur hollarda quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

– ishda ishtirok etish uchun da'vogar da'vo arizasida ko'rsatmagan boshqa javobgar yoki uchinchi shaxsni jalb etish masalasini ko'rib chiqadi;

– ishda ishtirok etuvchi shaxslarga, boshqa tashkilotlarga, ularning mansabdor shaxslariga muayyan harakatlarni bajarish majburiyatini yuklaydi;

– ishda ishtirok etuvchi shaxslardan va boshqa tashkilotlardan nizoni hal etish uchun zarur bo'lgan hujjatlar, ma'lumotlar va xulosalarni talab qilib oladi;

– ishda ishtirok etuvchi tashkilotlarining mansabdor shaxslarini va boshqa shaxslarni tushuntirish berish uchun chaqirtirish masalasini hal etadi;

– xo'jalik sudi majlisini bevosita tashkilotning o'zida o'tkazish masalasini hal etadi;

– nizoni o'z vaqtida va to'g'ri hal etilishiga yo'naltirilgan boshqa harakatlarni bajaradi.

Xo'jalik sudiga da'vo arizasi berilgan kundan boshlab 1 oydan oshmagan muddat ichida nizo ko'rib chiqilishi, qaror chiqarilishi va tarqatilishi lozim. Shartnomalarni tuzish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq nizolar, shuningdek, boshqaruv sohasidagi nizolar 1 oy ichida ko'rib chiqilishi lozim.

Xo'jalik jarayonida ishlarni hal etish protsedurasi fuqarolik jarayonidagiga nisbatan kamroq formallashtirilgan. Nizolar xo'jalik sudining majlisida bir yoki uch nafar sudyalalar hamda ishda ishtirok etuvchi taraflar va boshqa shaxslar ishtirokida ko'riladi. Majlisga raislik qiluvchi sudya:

– majlisni olib borish tartibini belgilaydi;

– sudning tarkibini e'lon qiladi;

– prokuror, ekspert, tarjimon sifatida ishtirok etuvchilarni ma'lum qiladi;

– jarayon ishtirokchilariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, ularning huquqlari amalga oshirilishida Ko'maklashadi;

– majlisga rahbarlik qilib, ish uchun ahamiyatli holatlar aniqlanishini ta'minlaydi;

– majlisda taalluqli tartibni ta'minlash choralari ko'radi.

Xo'jalik sudi majlisida da'vogar, javobgar yoki uning vakili, ekspert va boshqa ishtirokchilarning so'zlari tinglanib, taraflarning o'zaro kelishib olishlari uchun harakat qilinadi. Har bir tarafga nizoni hal etish uchun zarur bo'lgan dalillarni taqdim etish huquqi berilishi lozim.

Xo'jalik jarayonida ishni ko'rishni keyinga qoldirish (XPKning 131-moddasi) va tanaffus qilish (XPKning 128-moddasi), ish yuritishni to'xtatib turish (XPKning 82-83-moddalari), da'voni ko'rmasdan qoldirish (XPKning 88-moddasi) kabi harakatlar amalga oshirilishi mumkin.

Qaror qabul qilinishi uchun u qonunga, ishning faktik holatlariga zid bo'lmasligi kerak va u taraflarning o'rtasidagi erishilgan kelishuvni hisobga olgan holda qabul qilinadi. Nizo bir necha sudyalar tomonidan hal etilayotgan bo'lsa, qaror oddiy ovozlari ko'pchiligi bilan qabul qilinadi. Alohida hollarda, o'ta muhim ishlar bo'yicha qarorning qabul qilinishi 3 kundan oshmagan muddatga qoldirilishi mumkin, qaror yozma holda bayon qilinadi va majlisga raislik qilgan sudya tomonidan imzolandi.

Qabul qilingan qaror ish ko'rib bo'lingandan so'ng majlis raisi tomonidan e'lon qilinadi. Majlis raisi qarorning faqat xulosa qismini e'lon qilishga haqli. Taraflarga xo'jalik sudining qarori ustidan shikoyat qilish tartibi tushuntirib beriladi.

Qarorning kirish qismida uni qabul qilgan xo'jalik sudining nomi, ishning tartib raqami, ish ko'rilgan sana va joy, taraflar va uchinchi shaxslarning nomlari, nizo predmeti, sud tarkibi, majlisda hozir bo'lgan shaxslarning familiyalari va vakolatlari ko'rsatilishi lozim. Nizo bevosita tashkilotning o'zida ko'rib chiqilgan holda bu haqda ham qarorning kirish qismida ma'lumot beriladi.

Qarorning bayon qilish qismida da'vogarning talablari, da'vo arizasi yuzasidan bildirilgan mulohaza, taraflar va ularning vakillari hamda ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar arizalari va tushuntirishlari, xo'jalik sudi bajargan harakatlar (dalillarni ko'zdan kechirish va tekshirish, materiallar bilan bevosita o'z joyida tanishish) mazmuni qisqacha ifodalangan bo'lishi lozim.

Qarorning asoslantiruvchi qismida ishning sud tomonidan aniqlangan holatlari; nizoning kelib chiqish sabablari; qarorning

qabul qilinishiga asos bo'lgan dalillar; taraflarning o'rtasidagi yozma kelishuv mazmuni (agar shunday kelishuvga erishilgan bo'lsa); sud iltimosnomalarni rad etish uchun asos qilib olgan vajlar; taraflarning dalillari, ularning shartnoma shartlari bo'yicha takliflari yoki ularning kelishuvi; sud qarorni qabul qilishda asoslangan qonun hujjatlari ko'rsatilishi lozim.

Qarorning xulosa qismida har bir da'vo talabini qanoatlanti rish yoki qanoatlantirishni (to'la yoki qisman) rad etish to'g'risidagi xulosalar bo'lishi lozim. Xo'jalik sudining xulosasi qandaydir holatlarning yuzaga kelish yoki kelmasligiga bog'liq bo'lmasligi kerak.

Agar nizo to'la hal etilmagan bo'lsa, bunday hollarda xo'jalik sudi ajrim chiqaradi. Nizoni hal etish paytida qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda xususiy ajrim chiqariladi.

Agar xo'jalik sudi qarori ustidan kassatsiya shikoyati (protesti) berilmagan bo'lsa, bu qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 oy mud dat o'tgach qonuniy kuchga kiradi. Apellatsiya shikoyati (protesti) berilgan holda esa qaror, agar u bekor qilingan yoki o'zgartirilgan bo'lmasa, appellatsiya shikoyati (protesti) ko'rib chiqilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

Xo'jalik jarayonida appellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ish yuritish XPKning III bo'limida tartibga solingan. Xo'jalik sudlarining qarorlarini ijro etish XPKning IV bo'limida tayinlangan qoidalar va FPKning qoidalari asosida amalga oshiriladi.

4-§. Chet el investitsiyalarining xalqaro muhofazasi

Tajriba shuni ko'rsatadiki, dunyo mamlakatlarida kapital aylanib turmasa, xo'jalik yuritish samarali bo'lishi mumkin emas. Sanoati rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyoti investitsiyalarga asoslangan sanoat kapitalining aylanib turishiga bog'liqdir. U yoki bu mamlakatda mavjud ijobiy investitsion muhit va xalqaro hamjamiyatning investitsion nizolarni samarali hal etish qobiliyati birgalikda investorlarning muayyan mamlakatga investitsiyalarni kiritishiga turtki bo'la oladi.

Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki (XTTB) investitsion nizolarni hal etish yo'lida ikkita xalqaro konvensiyani ishlab chiqdi: bular 1965-yilgi Davlatlar va chet ellik shaxslar o'rtasidagi investitsion nizolarni hal etish tartibi to'g'risidagi Vashington konven-

Markaz to'la xalqaro-huquqiy subyekt vakolatlariga ega. Markazning huquqiy vakolatlari quyidagilardan iborat:

- shartnomalar tuzish;
- oddiy va ko'chmas mulkni qo'lga kiritish va egalik qilish;
- protsessual harakatlarni amalga oshirish tartibini belgilash.

Konvensiyani imzolagan davlatlar hududida o'z faoliyatini amalga oshirishni ta'minlash yo'lida Markaz qator immunitetlar va imtiyozlarga ega. Immunitetlar deganda hujjativlar mulkiy immuniteti, Ma'muriy kengash raisi va a'zolarining shaxsiy immuniteti, vositachi vazifasini bajaruvchi shaxslar, arbitrlar, mansabdor shaxslar va kotibiyat xodimlarining immuniteti nazarda tutiladi, masalan:

- yuqorida sanab o'tilgan shaxslarning o'z faoliyatini yuritishi bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirishdagi sud immuniteti;
- immigratsion cheklashlar va chet elliklarni ro'yxatga olishga oid talablar;
- chet davlat hududida harakatlanish borasidagi cheklashlar;
- Markaz arxivlarining daxlsizligi;
- boshqa xalqaro tashkilotlar uchun belgilangan rejimdan farq qilmaydigan rejimda aloqa kanallarining muhofazalanganligi;
- Markazning hujjativlari, mulki, daromadi, shuningdek, Markaz tomonidan amalga oshiriladigan bitimlar va operatsiyalarning har qanday soliqlar va bojxona bojlaridan ozod qilinishi.

5-§. Nizolarni hal etish tartibi

Muayyan davlat (yoki uning har qanday vakolatli organi) va boshqa davlat shaxsi o'rtasidagi investitsion munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning hal etilishi, agar taraflarning shu nizoni ko'rib chiqishni Markazga topshirishga yozma roziligi mavjud bo'lsa, Markazning vakolatida bo'ladi.

Nizolar quyidagicha tartibda hal etiladi:

1) o'zaro kelishuvga erishish istagini bildirgan taraf Bosh kotib nomiga yozma ariza bilan murojaat qiladi. Arizada nizoning kelib chiqishiga asos bo'lgan sabablar, taraflar haqidagi ma'lumotlar va ularning arbitraj qoidalariga muvofiq kelishuvga erishish istagi borligi to'g'risida axborot berilishi lozim. Bosh kotib o'z navbatida mazkur arizaning nusxasini ikkinchi tarafa yuboradi;

2) ariza ro'yxatga olingandan so'ng bir yoki toq nafar Vositachilardan iborat bo'lgan Kelishtiruv hay'ati tuziladi. Vositachilar taraflar bilan kelishilgan holda tayinlanadi;

3) Hay'at:

– taraflarning o'rtasida nizo kelib chiqishiga sabab bo'lgan holatlarni aniqlaydi;

– taraflarga nizoni hal etish shartlarini taklif etadi;

4) agar taraflar o'rtasida kelishuvga erishilsa, Hay'at bu haqda hisobot tuzadi;

5) agar Hay'at kelishtiruv protsedurasi paytida taraflar o'rtasida kelishuvga erishish mumkinligiga ishonch hosil qilmasa, u holda Hay'at protsedurani to'xtatadi va taraflar kelishuvga erisha olmaganliklari haqida hisobot tuzadi.

Arbitrajga murojaat qilish tartibi ham yuqoridagi tartib bilan bir xil. Arbitraj ariza ro'yxatga olingandan so'ng imkon qadar qisqa muddat ichida tuzilishi lozim. Arbitraj bir yoki toq nafar arbitrlardan iborat bo'lib, ular taraflar bilan kelishilgan holda tayinlanadi.

Arbitraj taraflar bilan kelishilgan holda huquqiy me'yorlarga muvofiq ravishda nizoni ko'rib chiqadi. Taraflar bilan kelishilmagan hollarda esa Arbitraj nizoda taraf sifatida ishtirok etayotgan davlat huquqini, shuningdek, xalqaro huquqning muayyan vaziyatda qo'llanishi mumkin bo'lgan me'yorlarini qo'llaydi. Arbitraj huquqiy me'yorlarning mavjud emasligi yoki noaniqligini asos qilib ko'rsatib, noaniq qarorlar chiqarishga haqli emas. Arbitraj nizoni ko'rib chiqish paytida istagan vaqtda, agar zarur bo'lsa, quyidagi huquqlarga ega:

– taraflardan hujjatlar va boshqa dalillarni taqdim etishni talab qilish;

– nizo bilan bog'liq joylarga borish va agar vaziyat shuni talab qilsa, tekshiruv o'tkazish.

Arbitraj arbitrlarning oddiy ovozlari ko'pchiligi bilan qaror qabul qiladi. Arbitraj qarori yozma shaklda tuzilib, shu qaror uchun ovoz bergan arbitrlar tomonidan imzolanadi. Qaror arbitrajda ko'rilish uchun qo'yilgan masalalarning har biri bo'yicha chiqarilib, unda shu qarorning chiqarilishi uchun asos bo'lgan holatlar ko'rsatilgan bo'lishi shart. Arbitrlardan har biri chiqarilgan qaror yuzasidan o'zining shaxsiy fikrini, shu fikr ko'pchilikning fikri bilan bir xil bo'lmasa ham, ilova qilishga haqli. Taraflar o'rtasida Arbitraj qarorining mazmuni haqida nizo kelib chiqqan holda har qaysi taraf

XXV BOB YUZASIDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Arbitrajning qanday turlari mavjud?
2. Nizolarning arbitrajda ko'rilishi qanday afzalliklarga ega?
3. O'zbekiston Respublikasida arbitraj qarorlarini ijro etish tartibi qanday?
4. Arbitraj bitimlarining tuzilishi qanday xususiyatlarga ega?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Богуславский М.М. Международное частное право: Учебник, 2-е издание, перераб. и дополи. –М.: Международные отношения, 1994.
2. Луни, Л.А. Курс международного частного права: Особенная часть. –М.: 1975.
3. Международное частное право: Учебное пособие /Под ред. Г.К.Дмитриевой. – М.: Юрист, 1993.
4. Паном В. Международное частное право: Схемы. Документы: Учебное пособие. –М.: Право и Закон, 1996.
5. Скаридов А.С. Международное частное право: Учебное пособие. Санкт-Петербург: Изд-во Михайлова В.А., 1998.
6. Асьянов Ш.М., Книпер Р., Убайдуллаев З.С. Международный арбитраж. –Т.: Изд-во Университета мировой экономики и дипломатии, 1999.
7. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharhlar. Akad. H.Rahmonqulov tahriri ostida. –Т.: «Adolat», 1999.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Xalqaro xususiy huquq tushunchasi, uning predmeti, tuzilishi va manbalari.....	7
1-§.Xalqaro xususiy huquq tushunchasi va uning ommaviy huquqdan farqi.....	7
2-§.Xalqaro xususiy huquqning predmeti.....	11
3-§.Xalqaro xususiy huquqning tuzilishi (tarkibiy qismlari).....	14
I bob yuzasidan nazorat savollari.....	19
Tavsiya etilgan adabiyotlar.....	20
II bob. Xalqaro xususiy huquq manbalari.....	21
1-§.Xalqaro xususiy huquq manbalarining umumiy tavsifi.....	21
2-§.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xalqaro xususiy huquq.....	25
3-§.Xalqaro shartnomalar.....	29
4-§.Davlat ichki qonun hujjatlari.....	40
5-§.Odatlarning ahamiyati.....	48
II bob yuzasidan nazorat savollari.....	51
Tavsiya etilgan adabiyotlar.....	52
III bob. Kollizion va moddiy-huquqiy normalar.....	53
1-§.Kollizion norma tushunchasi va ahamiyati.....	53
2-§.Xalqaro xususiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda moddiy-huquqiy normalarning tutgan o‘rni va ahamiyati.....	56
3-§.Kollizion normalarni izohlash, sharhlash va tatbiq qilish.....	62
4-§.Ommaviy tartib to‘g‘risidagi izoh.....	68
5-§.Huquqni qo‘llashda o‘zarolik va retorsiyalar.....	70
III bob yuzasidan nazorat savollari.....	73
Tavsiya etilgan adabiyotlar.....	73
IV bob. Xalqaro xususiy huquqqa binoan jismoniy shaxslarning fuqarolik-huquqiy holati.....	74
1-§.Turli davlatlarda chet el fuqarolarining huquqiy holatlari. Jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni, huquq va muomala layoqati.....	74
2-§.O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining huquq va muomala layoqati.....	79
3-§.O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet eldagi huquqiy holati.....	85
IV bob yuzasidan nazorat savollari.....	88
Tavsiya etilgan adabiyotlar.....	88

V bob. Yuridik shaxslarning huquqiy holati	91
1-§.Yuridik shaxslarning xalqaro xo'jalik munosabatlarida ishtirok etishi	91
2-§.Yuridik shaxsning huquq layoqati, qonuni va muayyan davlatga mansubligini aniqlash.....	94
3-§.O'zbekiston Respublikasida chet el yuridik shaxslarining huquq layoqati. Chet el yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasi hududida xo'jalik faoliyatida ishtirok etish shakllari. O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyasi ishtirokida korxonalarining huquqiy holati.....	97
V bob yuzasidan nazorat savollari.....	102
Tavsiya etilgan adabiyotlar	103
VI bob. Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlar qatnashchisi sifatidagi huquqiy holati.....	105
1-§.Davlat mulkiy munosabatlarning subyektii sifatida.....	105
2-§.Davlat immuniteti (daxlsizligi) va uning turlari.....	109
3-§.Davlat tomonidan tuzilayotgan bitimlarning huquqiy holati	115
VI bob yuzasidan nazorat savollari	117
Tavsiya etilgan adabiyotlar	118
VII bob. Xalqaro xususiy huquqqa binoan mualliflik huquqini himoya qilish.....	120
1-§.Mualliflik huquqini xalqaro himoya qilishning umumiy tavsifi.....	120
2-§.Mualliflarning chet eldagi huquqiy holati.....	123
3-§.Mualliflik huquqini xalqaro miqyosda himoya qilishga oid xalqaro shartnomalar	127
4-§.Xalqaro tashkilotlarning mualliflik huquqini himoya qilishga oid xalqaro aktlari.....	135
5-§.Mualliflik huquqini o'zaro himoya qilishga oid O'zbekiston Respublikasi qatnashayotgan shartnomalar.....	141
VII bob yuzasidan nazorat savollari	144
Tavsiya etilgan adabiyotlar	144
VIII bob. Xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarda intellektual mulk masalalari	145
1-§.Intellektual mulk obyektlarining xalqaro muomalada bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari.....	145
2-§.Intellektual mulk bo'yicha xalqaro konvensiyalar va bitimlarning umumiy tavsifi	148
VIII bob yuzasidan nazorat savollari.....	165
Tavsiya etilgan adabiyotlar	165

IX bob. Sanoat mulk huquqi	166
1-§. O'zbekiston Respublikasi subyektlariga tegishli sanoat mulki obyektlarini chet malakatlarda huquqiy muhofaza qilish	166
2-§. Chet ellik subyektlar sanoat mulki obyektlarini O'zbekiston Respublikasida huquqiy muhofaza qilish	168
3-§. Sanoat mulki obyektlaridan litsenziya shartnomalari asosida foydalanish	170
IX bob yuzasidan nazorat savollari	175
Tavsiya etilgan adabiyotlar	175
X bob. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining individuallashtirish vositalariga bo'lgan huquqlari	176
1-§. Tovar belgisiga bo'lgan huquq	176
2-§. Firma nomiga berilgan huquq	178
3-§. Tovar tayyorlangan joy nomiga bo'lgan huquq	180
4-§. Xalqaro xususiy huquqda g'irrom raqobatga qarshi kurash masalalari	182
X bob yuzasidan nazorat savollari	185
Tavsiya etilgan adabiyotlar	185
XI bob. Xalqaro xususiy huquqiy munosabatlarda seleksiya yutuqlari, tijorat sirlari (oshkor etilmagan axborotlar)ning huquqiy maqomi	186
1-§. Seleksiya yutuqlarining huquqiy maqomi	186
2-§. Nou-xou, tijorat sirlari va oshkor etilmagan axborotlarga bo'lgan huquqlar	192
3-§. Tijorat sirlari va nou-xoudan foydalanish (o'tkazish, berish) to'g'risidagi litsenziya shartnomasi	212
XI bob yuzasidan nazorat savollari	215
Tavsiya etilgan adabiyotlar	215
XII bob. Tashqi iqtisodiy bitimlar	216
1-§. Tashqi iqtisodiy bitimlar tushunchasi	216
2-§. Tashqi iqtisodiy bitimlar	219
3-§. Bitimlarning mazmuniga nisbatan tatbiq qilinadigan huquq	220
4-§. Tashqi oldi-sotdi munosabatlari bo'yicha xalqaro konvensiyalar	223
5-§. Texnikaviy yordam berish va korxonalar qurish bo'yicha kelishuvlar	231
6-§. Konsessiyaviy kelishuvlar	231
XII bob yuzasidan nazorat savollari	237
Tavsiya etilgan adabiyotlar	238

XIII bob. Erkin iqtisodiy zonalar	239
1-§.Erkin iqtisodiy zonalar tushunchasi, ularni tashkil etish va tugatish asoslari	239
2-§.Erkin iqtisodiy zonalarining turlari	241
3-§.Erkin iqtisodiy zonalarining huquqiy rejimi	248
XIII bob yuzasidan nazorat savollari.....	251
Tavsiya etilgan adabiyotlar	252
XIV bob. Xalqaro kredit va hisob-kitoblarga oid huquqiy munosabatlar	253
1-§.Xalqaro kredit va hisob-kitoblarga oid huquqiy munosabatlar	253
2-§.O'zbekiston Respublikasining valutaga oid qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalar	258
XIV bob yuzasidan nazorat savollari	266
Tavsiya etilgan adabiyotlar	267
XV bob Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda tashish	270
1-§.Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda tashishning umumiy qoidalari.....	270
2-§.Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda temir yo'llarda tashish	278
3-§.Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda avtomobillarda tashish	281
4-§.Yuk va yo'lovchilarni xalqaro ko'lamda havo yo'llarida tashish	287
5-§.Xalqaro ko'lamda dengiz transportida tashishlar.....	290
6-§.Aralash qatnovda yuklarni xalqaro tashish	293
XV bob yuzasidan nazorat savollari.....	295
Tavsiya etilgan adabiyotlar	295
XVI bob. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha da'vo muddatlari	299
1-§.Xalqaro xususiy huquq bo'yicha da'vo muddatlari va uning ahamiyati	299
2-§.Tashqi iqtisodiy bitimlarga qo'llaniladigan da'vo muddati qoidalari.....	304
3-§.Tashqi oldi-sotdi savdoga nisbatan da'vo muddatini qo'llash tartibi ...	308
XVI bob yuzasidan nazorat savollari	313
Tavsiya etilgan adabiyotlar	313
XVII bob. Xalqaro xususiy huquq normalari bilan ashyoviy huquqlarning tartibga solinishi	315
1-§.Ashyoviy huquqlarga nisbatan qo'llanadigan umumiy qoidalar.....	315
2-§.Ashyoviy huquqning vujudga kelishi va bekor bo'lishi	320
3-§.Transport vositalariga va davlat reyestrda qayd etilishi lozim bo'lgan boshqa mol-mulkka nisbatan ashyoviy huquqlar	326
4-§.Yo'lda bo'lgan ko'char mulkka nisbatan ashyoviy huquqlar	331
5-§.Ashyoviy huquqlarni himoya qilish.....	333
XVII bob yuzasidan nazorat savollari	336
Tavsiya etilgan adabiyotlar	337

XVIII bob. Xalqaro xususiy huquqda shartnomali majburiyatlar	341
1-§. Shartnomaga nisbatan huquq normalarini tanlash va qo'llash	341
2-§. Chet el ishtirokidagi yuridik shaxs qatnashgan shartnomaga nisbatan huquqni tatbiq qilish	344
3-§. Tatbiq qilinayotgan huquqning amal qilish doiralari haqida	348
XVIII bob yuzasidan nazorat savollari	353
Tavsiya etilgan adabiyotlar	354
XIX bob. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha shartnomadan tashqari majburiyatlar	355
1-§. Zarar yetkazish oqibatida kelib chiqadigan majburiyatlar	355
2-§. O'zbekiston Respublikasi hududida yetkazilgan zararga nisbatan qo'llaniladigan huquq	358
3-§. Chet elda yetkazilgan zararga nisbatan qo'llaniladigan huquq	363
XIX bob yuzasidan nazorat savollari	375
Tavsiya etilgan adabiyotlar	376
XX bob. Oila huquqi	377
1-§. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha oila munosabatlarining tartibga solinishiga umumiy tavsif	377
2-§. Oila huquqi sohasidagi kollizion masalalar	379
3-§. Nikoh tuzish	387
4-§. Nikohning tugatilishi	394
5-§. Er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlar	396
6-§. Ota-ona va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar	399
7-§. Farzandlikka olish	402
8-§. Vasiylik va homiylik	403
XX bob yuzasidan nazorat savollari	405
Tavsiya etilgan adabiyotlar	406
XXI bob. Vorislik huquqi	407
1-§. Vorislik huquqi sohasida kollizion masalalar	407
2-§. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining vorislik huquqi	410
3-§. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda vorislik huquqi	411
4-§. Egasiz qolgan mol-mulk	413
XXI bob yuzasidan nazorat savollari	414
Tavsiya etilgan adabiyotlar	414

XXII bob. Xalqaro xususiy huquq bo'yicha mehnat munosabatlari	416
1-§.Mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy manbalarga umumiy tavsif	416
2-§.Mehnat munosabatlariga oid inson huquqlarini himoyalovchi xalqaro huquqiy ta'minot	423
3-§.Mehnat munosabatlarini milliy huquq normalari bilan tartibga solish	424
4-§.Mehnat bozorini tashkil qilishning huquqiy aspektlari	430
5-§.O'zbekiston Respublikasida mehnatga oid xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va kelishuvlarning tatbiq etilishi	432
XXII bob yuzasidan nazorat savollari	434
Tavsiya etilgan adabiyotlar	434
XXIII bob. Xalqaro xususiy huquq tizimida nizolarni sud tartibida ko'rib chiqish	437
1-§.Xalqaro fuqarolik jarayoni tushunchasi	437
2-§.Sudlovga taalluqlilikni belgilash va prorogatsion bitimlar	440
3-§.Chet el fuqarolari va chet el tashkilotlarining protsessual holati	448
4-§.Chet el davlatning protsessual holati	451
5-§.Chet el huquqi mazmunini belgilash (sharhlash)	455
6-§.Sud topshiriqlarining bajarilishi	458
XXIII bob yuzasidan nazorat savollari	463
Tavsiya etilgan adabiyotlar	463
XXIV bob. Xalqaro munosabatlarda notarial harakatlarning turlari va ahamiyati	464
1-§.Notarial harakatlarning turlari	464
2-§.Chet el fuqarolarining hujjatlarini tasdiqlash, tan olish tartibi	467
XXIV bob yuzasidan nazorat savollari	469
Tavsiya etilgan adabiyotlar	469
XXV bob. O'zbekiston Respublikasi xo'jalik sudlarida nizolarni ko'rib chiqish tartibi	470
1-§.Xo'jalik sudlari va xo'jalik jarayoni tushunchasi	470
2-§.Ishlarning xo'jalik sudiga taalluqliligi va xo'jalik sudida sudlovga taalluqliligi	471
3-§.Xo'jalik sudida ish qo'zg'atish, ishni sudda ko'rishga tayyorlash va ko'rish	473
4-§.Chet el investitsiyalarining xalqaro muhofazasi	476
5-§.Nizolarni hal etish tartibi	478
XXV bob yuzasidan nazorat savollari	481
Tavsiya etilgan adabiyotlar	481

XALQARO XUSUSIY HUQUQ

Darslik

Mualliflar tahriri ostida

Texnik muharrir: *A.A. Boymamatov.*

Kompyuterda sahifalovchi: *A. Xudaybergenova.*

Kompyuterda teruvchi: *S.A.Ergashev.*

Bosishga ruxsat etildi: **16.06.2008-y.**

Hajmi: **30,5 b.t.**Adadi: **600 nusxa.** Buyurtma: № **1275.**

Narxi shartnoma asosida.

Toshkent davlat yuridik instituti bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Sayilgoh 35, TDYI, 700047

